



REGISTON
KUTUBXONASI

SHARAFJON SARIYEV

ADABIYOT

ENG YANGI NASHR



2019

SIROJIDDINOV
SHUHRAT SAMARIDDIN O'GLI
SHARAFJON SARIYEVONASI




ADABIYOT

(Metodik qo'llanma)

Eng yangi nashr

- ✓ XALQ OG'ZAKI IJODI
- ✓ ADABIYOT NAZARIYASI
- ✓ O'ZBEK ADABIYOTI TARIXI
- ✓ JAHON ADABIYOTIDAN
- ✓ ILOVALAR



TOSHKENT
2019

Taqrizchilar: **BOQIJON TO‘XLIYEV,**
filologiya fanlari doktori, professor

MUHAMMADALI QO‘SHMOQOV,
filologiya fanlari nomzodi

Mas‘ul muharrir: **S.MATCHONOV,**
pedagogika fanlari doktori, professor

Hamkorimiz: “REGISTON” o‘quv markazi

DIQQAT!

Xalq o‘zaki ijodidan namunalarni, ushbu qo‘llanmadagi barcha adiblar asarlari hamda ulardan keltirilgan parchalarni muallifning yangi chop etilgan **“ADABIYOT FANIDAN MAJMUA”** nomli ensiklopedik qo‘llanmasidan o‘qib oling!

Bilingki, asarning o‘zi bilan tanishish badiiy adabiyotni to‘laqonli o‘rganish demakdir!

Ushbu metodik qo‘llanmadagi ma‘lumotlar Davlat ta‘lim standartlari asosida yaratilgan amaldagi “Adabiyot” darsliklari asosida va o‘quv dasturlariga muvofiq ravishda ma‘lum izchillikda berilgan. Bu qo‘llanma umumiy o‘rta ta‘lim maktablarining o‘quvchilari, oliy o‘quv yurtiga kiruvchilar, talabalar hamda barcha adabiyot ixlosmandlari uchun to‘laqonli ma‘lumotnoma sifatida xizmat qiladi.

Mazkur qo‘llanmaning nashr etish hamda nusxalarini tarqatishga taalluqli barcha huquqlari amaldagi qonunlarga asosan himoyalangan. Qo‘llanmani qalbakilashtirish, ko‘paytirish, muallifning yozma ruxsatisiz chop etish taqiqlanadi.

ISBN 978-9943-6032-3-3

© Sh. Sariyev, 2019

© «Ilm-ziyo-zakovat» nashriyoti, 2019



SO‘ZBOSHI

«Adabiyot, san’at va madaniyat yashasa, millat va xalq, butun insoniyat bezavol yashaydi»¹.

Shavkat Mirziyoyev,
O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti

Adabiyot insonlarga, xususan, yoshlarga dunyo hodisalari mohiyatini anglash, insonga xos tuyg‘ularning rangin qirralarini his etish, insoniy fazilatlar va nuqsonlar mohiyati haqida o‘ylash imkonini beradigan², insonlarni ruhiy kamolot hamda yuksak ma’naviyat egasi sifatida shakllantiradigan muhim vositadir.

Adabiyot ma’naviy haqiqatlarni aks ettiradi, insonlarga ko‘ngil orqali olamni tanishga ko‘maklashadi. Badiiy asarlar ta’sirchan bo‘ladi, ularning musiqiy ohangi, jozibasi o‘quvchini o‘ziga jalb qiladi, shu asnoda ular insonlar ruhini tarbiyalaydi.

Ulug‘ shoirimiz Abdulhamid Cho‘lpon aytganidek, *“hech to‘xtamasdan harakat qilib turgan vujudimizga, tanimizga suv, havo naqadar zarur bo‘lsa, maishat yo‘lida har xil qaro kirlar ila xiralangan ruhimiz uchun shul qadar adabiyot kerakdir. Adabiyot yashasa, millat yashar...”*. Shunday ekan, mamlakatimizning Birinchi Prezidenti ta’kidlaganlaridek, *“agar biz O‘zbekistonimizni dunyoga tarannum etmoqchi, uning qadimiy tarixi va yorug‘ kelajagini ulug‘lamoqchi, uni avlodlar xotirasida boqiy saqlamoqchi bo‘lsak, avvalambor, buyuk yozuvchilarni, buyuk shoirlarni, buyuk ijodkorlarni tarbiyalashimiz kerak”*³.

¹ O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning «O‘zbek mumtoz va zamonaviy adabiyotini xalqaro miqyosda o‘rganish va targ‘ib qilishning dolzarb masalalari» mavzusidagi xalqaro konferensiya ishtirokchilariga tabrigidan.// 2018-yil 7-avgust.

² B.To‘xliyev, B.Karimov, K.Usmonova. Adabiyot (O‘rta ta’lim muassasalarining 10-sinfi va o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi muassasalarining o‘quvchilari uchun darslik-majmua. I qism. - T.: “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, 2017. – 3-bet.

³ I.A.Karimov. Adabiyotga e’tibor – ma’naviyatga, kelajakka e’tibor. – T.: O‘zbekiston, 2009. – 38-bet.

Badiiy adabiyotni ma'naviy qadriyatlar va yuksak insoniy fazilatlar bilan uyg'un tarzda talqin etish natijasida insonning olamdagi moddiy va ma'naviy hodisalarga yaxlit munosabati namoyon bo'ladi.

Yuqoridagi vazifalarni ado etishda esa yosh avlodga mukammal adabiy ta'lim berish, yosh iste'dodlarni kamol toptirish muhim ahamiyatga ega. Adabiy ta'lim o'quvchilarni milliy va jahon adabiyotining eng munosib namunalari bilan tanishtirish asosida ularning qalbida vatanparvarlik, ezgulik, insonparvarlik singari yuksak insoniy fazilatlarga nisbatan rag'bat, mehr va muhabbat uyg'otish, ularning boy ma'naviy dunyosini shakllantirish, badiiy asar va uning poetik xususiyatlarini o'rganish asosida o'quvchida tanqidiy fikrlashga oid ko'nikma va malakalarni hosil qilish hamda og'zaki va yozma nutqlarini o'stirishni ko'zda tutadi⁴.

Ma'lumki, keyingi paytlarda adabiyot fani bo'yicha ham juda ko'plab qo'llanmalar nashr etilmoqda. Shuni ta'kidlash kerakki, to'laqonli adabiy ta'lim berishda ta'lim sifatini ham ta'minlash zarur. Bu jarayonda esa darslik va qo'llanmalarining o'rni beqiyosdir.

Qo'lingizdagi ushbu qo'llanma necha yillardan beri qayta-qayta nashr etilmoqda va muxlislar olqishiga sazovor bo'lmoqda. Undagi ma'lumotlar yildan yilga sifat jihatidan ham, son jihatidan ham boyitilib, mukammallashtirilib borilmoqda. Ushbu qo'llanma muallifning «Adabiyot fanidan mavzuli test topshiriqlari to'plami», «Adabiyot fanidan majmua», «Adabiyot fanidan tezkor savol-topshiriqlar to'plami», «Adabiyot fanidan lug'at», «Adabiyot fanidan mashqlar to'plami», «Adabiyot fanidan ma'lumotnoma» nomli metodik qo'llanmalarini o'zlashtirish va o'rganish uchun ham asosiy manbadir.

Qo'llanmaning asosiy xususiyati shundaki, unda barcha adabiyot ixlosmandlari uchun, ayniqsa, abituriyentlar uchun barcha kerakli ma'lumotlar Davlat ta'lim standartlari asosida yaratilgan amaldagi eng yangi darsliklar asosida va o'quv dasturlariga muvofiq ravishda ma'lum izchillikda to'liq keltirilgan bo'lib, bu ma'lumotlar ularga shu fanga oid test topshiriqlari bilan ishlashda ham juda qo'l keladi, adabiyotga oid bilimlarni o'zlashtirish uchun keng imkoniyatlar eshigini ochadi.

Qo'llanma bilan bog'liq barcha fikr-mulohazalar va takliflar uchun muallif oldindan o'z minnatdorchiligini bildiradi.

Elektron pochta manzili: shon-sharaf1973@mail.ru

 (94) 610-30-51

⁴ Uzviylashtirilgan Davlat ta'lim standarti va o'quv dasturi (Ona tili. Adabiyot. O'zbek tili. 5-9-sinflar). – Toshkent, 2010. – 44-45-betlar.



1-MAVZU. ADABIYOT VA BADIY ASARLAR HAQIDA UMUMIY MA'LUMOT

Badiy adabiyot har bir inson ma'naviy dunyosini bebaho insoniy fazilatlar, o'lmas milliy qadriyatlar bilan boyitadi. Qadimdan Sharqda adabiyotga insonni odob-axloqqa yo'naltiruvchi ruhiy-ma'naviy manba sifatida qaraganlar⁵.

Adabiyot deganda umumiy ma'noda biror xalqning, davrning badiiy, ilmiy, falsafiy va boshqa asarlar majmuyi hamda ma'lum bir fan yoki sohaga, masalaga oid asarlar, kitoblar tushuniladi. San'at turi sifatida esa adabiyot so'z, til vositasida badiiy obrazlar yaratuvchi sohadir⁶.

«Adabiyot» arabcha so'z bo'lib, «*odoblar yig'indisi*», boshqacha aytganda, «*odoblar xazinasi*» degan ma'noni bildiradi.

Adabiyot – so'z san'ati. San'at ijtimoiy madaniyatning estetik zavq beruvchi, voqelikni obrazlar vositasida aks ettiruvchi, o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lgan ma'lum bir sohasidir. San'atning turlari xilma-xil. Ulardan eng asosiylari *tasviriy san'at, musiqa, kino, me'morchilik, raqs, haykaltaroshlik va badiiy adabiyotdir.*

Obraz borliqdagi narsalarni faqat oddiy aks ettirishdan iborat emas, balki badiiy aks ettirishdan iboratdir. Obrazlilik hamma san'at turlari uchun xos, biroq har bir san'at turining o'ziga xos obraz yaratish vositalari mavjud.

So'z dunyodagi barcha narsa-hodisalarning asosi hamda qudratli kuchdir. Rivoyat qilishlaricha, “Yaral!” (*arabchasi*

⁵ B.To'xliyev, B.Karimov, K.Usmonova. Adabiyot (O'rta ta'lim muassasalarining 10-sinfi va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalarining o'quvchilari uchun darslik-majmua.-T.: “O'zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, 2017. – 3-bet.

⁶ «O'zbek tilining izohli lug'ati» (besh jildli). – T.: «O'zbekiston milliy ensiklopediyasi» Davlat ilmiy nashriyoti, 2006. – 38-bet.

“Kun!”) so‘zining qudrati bilan o‘n sakkiz ming olam va undagi jamiki narsalar dunyoga kelgan ekan.

Ulug‘ shoirimiz Alisher Navoiy ta‘biricha:

**Insonni so‘z ayladi judo hayvondin,
Bilki guhari sharifroq yo‘q ondin.**

Badiiy adabiyot turli davrlardagi xalq hayotini, inson ruhiyatining o‘ziga xos qirralarini kashf etuvchi san’atdir⁷. Badiiy adabiyotda obraz yaratuvchi yagona vosita so‘z bo‘lib, bu so‘z muayyan his-tuyg‘uni, holat va harakatni, manzarani o‘quvchiga ta’sir etadigan darajada ifodalovchi **badiiy so‘z**dan iboratdir. Adabiyot insonning orzu-xayoli, umid va armonlarini badiiy so‘z yordamida ifoda etadi, ularning badiiy didini o‘stiradi. Shu bois adabiyot so‘z san’ati hisoblanadi.

Adabiyot – ma’naviyat xazinasi. Ma’naviy yuksalishning eng samarali yo‘llaridan biri kitobga oshno tutinish, jumladan, adabiy asarlar mutolaasiga ixlos qo‘yishdir. Adabiyot bag‘rida hozirga qadar insoniyat ardoqlab kelayotgan eng noyob hislar – insonparvarlik, adolat, shafqat, o‘zaro hamjihatlik, do‘stlik, mehr-muruvvat, sevgi-muhabbat, go‘zallikka tashnalik kabi o‘lmas insoniy tuyg‘ular jamuljamdir⁸. Bu jihat adabiyotning ma’naviyat xazinasi ekanligini ifodalovchi asosiy mezondir. Badiiy adabiyot ma’naviy haqiqatni aks ettiradi.

Adabiyot – ruhiy kamolot vositasi. Badiiy adabiyotda insonning o‘y-xayollari, orzu-istaklari to‘laroq aks ettiriladi. Bu o‘rinda Respublikamiz Birinchi Prezidentining “*Ma’naviyatni tushunish, anglash uchun avvalo insonni tushunish, anglash kerak*”⁹ degan fikrlari alohida ahamiyat kasb etadi.

Badiiy asarlarda fikr aytish bilangina kifoyalanilmay, kishining tuyg‘u va hissiyotiga ham ta’sir ko‘rsatishga e’tibor qaratiladi¹⁰. Milliy adabiyot esa milliy ruhni aks ettiradi.

⁷ Boqijon To‘xliyev. Adabiyot (Akademik litsey va kasb-hunar kollejlari uchun darslik). – T.: O‘qituvchi, 2010. – 9-bet.

⁸ S.Ahmedov, R.Qo‘chqorov, Sh.Rizayev. Adabiyot (umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 6-sinfi uchun darslik-majmua). – T.: Ma’naviyat, Cho‘lpon nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2013. – 5-bet.

⁹ I.Karimov. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. – T.: Ma’naviyat, 2008. – 29-bet.

¹⁰ Q.Yo‘ldoshev va boshq. Adabiyot (Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 9-sinfi uchun darslik). – T.: Yangiyo‘l Poligraph service, 2010. – 3-bet.

Insonlar badiiy asarlarni ko'proq mutolaa qilsalar, ular, albatta, ruhiy kamolot sari qadam qo'ygan bo'ladilar.

Adabiyot ikki xil shaklda bo'ladi:

1. Og'zaki adabiyot.
2. Yozma adabiyot.

Og'zaki adabiyot yozma adabiyot uchun asos vazifasini o'tagan. Muallifining noma'lumligi, yillar mobaynida turli aytimchilar tomonidan sayqallanib, takomillashib, mukammal shaklga ega bo'lish xalq og'zaki ijodi namunalariga xos asosiy belgilardir¹¹.

Yozma adabiyotning eng muhim yutug'i shundaki, u unutilmaydi va keyingi avlodlarga o'zgartmay yetib boradi. Bu ikkala adabiyot turi doimo yonma-yon yashaydilar va bir-birining rivojiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Adabiyot **ilmiy** va **badiiy adabiyot** kabi turlarga ham bo'linadi. Mantiqiy (ilmiy) va badiiy tafakkur o'zaro mushtarak xususiyatlarga hamda jiddiy farqli jihatlarga ham ega. Ikkalasida ham voqelik, insonlarga daxldor hodisa, jarayon aks etadi, ular haqida ma'lumot beriladi. **Mantiqiy tafakkurda** har bir fikr, tushuncha bir-biri bilan o'zaro bog'lanishda bo'ladi. Mantiqiy tafakkurda ma'lumot beriladi, fikrlar dalillanadi. **Badiiy tafakkur** voqelikni, hayotni, asosan, insonni va uning ruhiyatini badiiy obrazlar vositasida aks ettiradi. Demak, mantiqiy tafakkur (ilmiy haqiqat)ning asosiy xususiyati aniq tushunchalar, dalillar, xulosalar orqali fikr yuritishda bo'lsa, badiiy tafakkur (ma'naviy haqiqat)ning asosiy xususiyati obrazlar, badiiy san'atlar orqali namoyon bo'ladi. «*Bir tomchi ko'z yosh*» mantiqiy tafakkurga ko'ra hayajondan paydo bo'luvchi bir tomchi suyuqlikdir. Badiiy tafakkurda esa *o'kinch, armon, sevinch* va hokazolar ifodasi bo'lishi mumkin. Chunki bu yerda u bir tomchi suyuqlik emas, badiiy obrazga aylanadi¹².

Adabiyot hayotning in'ikosi bo'lgani bilan uning suratga tushirilgan aynan nusxasi emas. Hayotdagi hodisa va shaxslar faoliyati aslida qanday kuzatilgan bo'lsa, shu holatda adabiyotga ko'chirib olinmaydi. Mashhur rus adabiyotshunosi

¹¹ O. Yo'ldoshev va boshq. Adabiyot (Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 9-sinfi uchun darslik). – T.: Yangiyo'l poligraf servis, 2014. – 5-bet.

¹² N. Karimov va boshq. Adabiyot (Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 9-sinfi uchun darslik). – T.: Ma'naviyat, 2002. – 5-bet.

V.G.Belinskiy ta'бири bilan aytganda, fan «*nima bo'lganini*» tushuntirsa, adabiyot «*qanday bo'lganini*» tasvirlaydi¹³.

Demak, badiiy adabiyot ilmiy adabiyotdan hayot haqiqatini jonli va jozibali tasvirlashi bilan keskin farqlanar ekan.

Badiiy asar voqelikning in'ikosidir. Adabiyotshunoslikda badiiy asar deganda ma'lum g'oyaviy mazmuni tegishli badiiy shaklda tugal ifodalagan kichik lirik she'rdan boshlab yirik epik polotnoga («Xamsa»ga) qadar bo'lgan badiiy ijod mahsuli tushuniladi.

Olimlarning ko'rsatishlaricha, badiiy asarlar qanday maqsadda yaratilishiga (*kuylash* uchunmi, *sahnada ko'rsatish* uchunmi yoki *o'qish* uchunmi) va ifoda xususiyati (*tuyg'uni*, *tuyg'uning yuzaga kelishiga sabab bo'lgan voqeani yoki obrazlarning bevosita harakatlarini ifodalashi*)ga ko'ra quyidagi 3 turga bo'linadi¹⁴:

1. Lirik asarlar: *katta-kichik she'rlar, she'riy masallar, g'azal, ruboiy, tuyuq, qo'shiq, muxammas, fard, qit'a, qasida, musamman* va boshq. Bunday asarlarda voqelik ayrim shaxsning his-tuyg'ulari, kechinmalari, o'y-fikrlari asosida ko'rsatiladi. **Misollar:** *M.Shayxzoda "Toshkentnoma"* (lirik poema), *H.Olimjon "O'rik gullaganda"* (she'r), *Mirtemir "Surat"* (lirik qissa), *Zulfiya "Bahor keldi seni so'roqlab..."* (she'r), *E.Vohidov "O'zbekim"* (qasida), *A.Oripov "Genetika"* (she'r), *Azim Suyun "Unutilgan tillar"* (she'r) va hok.

2. Epik asarlar (epos voki nasr(proza)): *hikoya, ocherk, qissa, roman, ertak* va boshq. Bunday asarlarda tasvirlanayotgan voqelik, asarda ishtirok etuvchi turli personajlarning xatti-harakati va kechinmalari ko'proq muallif hikoyasi orqali ko'rsatiladi. **Misollar:** *G'.G'ulom «Shum bola»* (qissa), *J.Svift «Gulliverning sayohatlari»* (roman), *O'.Umarbekov «Odam bo'lish qiyin»* (roman), *Oybek «Quyosh qoraymas»* (roman), *Cho'lpon "Kecha va kunduz"* (roman), *X.Sultonov "Yo, Jamshid!"* (hikoya), *Sh.Bo'tayev "Hisomiddin al-Yog'iy"* (tarixiy hikoya), *N.Norqobilov "Olim o'g'il"* (hikoya), *E.A'zamov "Ko'k eshik"* (hikoya) va hok.

¹³ A.Kattabekov va boshq. Adabiyot (8-sinf uchun darslik-majmua). – T.: O'qituvchi, 2001. – 10-bet.

¹⁴ Q.Yo'ldoshev va boshq. Adabiyot (Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 9-sinfi uchun darslik). – T.: Yangiyo'l Poligraph service, 2010. – 4-bet.

3. Dramatik asarlar: *intermediya, drama, komediya, tragediya (fojia)* va boshq. Bunday asarlarda esa voqelik asarda bevosita ishtirok etuvchi shaxslarning xatti-harakatlari, nutqlari orqali ochiladi. **Misollar:** *A.Fitrat "Abulfayzxon"* (fojia), *M.Shayxzoda "Mirzo Ulug'bek"* (fojia), *S.Ahmad "Kelinlar qo'zg'oloni"* (komediya), *A.Oripov "Sohibqiron"* (she'riy drama) va hok.

Badiiy asarlarning yana shunday bir turi borki, ularda voqeani hikoya qilib berish hissiy munosabat bildirish bilan uyg'unlashib ketadi. Bunday asarlar **liro-epik asarlar** deb yuritiladi. Bu turga **doston, ballada, she'riy roman, masal, oda** kabi bir necha janrlar kiradi.

Adabiyotning vazifalari turli-tumandir. Biroq o'zaro kuchli aloqada bo'lgan asosiy vazifasi **tarbiyaviy, estetik, ma'rifiy** yo'nalishlarda namoyon bo'ladi. Badiiy adabiyotning **tarbiyaviy vazifasi** deyilganda har bir asarda bevosita yoki bilvosita o'z ifodasini topajak axloqiy va u bilan aloqador xislatlarning kitobxon ma'naviy dunyosini shakllantirishga ko'rsatajakk ta'siri nazarda tutiladi. Lekin axloq masalasining adabiyotdagi vazifasini faqat pand-nasihatdan iborat deb tushunmaslik kerak. Bu o'rinda u kitobxonni insonparvarlik, vatanparvarlik, millatparvarlik, adolat ruhida tarbiyalash singari vazifalarni ham nazarda tutadi. Bularning uzviy yaxlitlikda amalga oshirilishida badiiy adabiyotning **ma'rifiy vazifasi** namoyon bo'ladi¹⁵.

Adabiyotning **bosh vazifasi** esa inson qalbida ezgulikka muhabbat, yovuzlikka nafratni uyg'otishga qaratilgan.

Yozuvchining quroli so'z bo'lib, u so'zlardan mohirlik bilan foydalangan holda shunday manzaralar chizadiki, o'quvchilar xuddi o'sha voqealarda ishtirok etayotgandek, ularni o'z ko'zi bilan ko'rib turgandek bo'ladi, qahramonlar bilan birga shodlanib, birga ma'yuslanadi.

Badiiy adabiyotning maqsad va vazifalari, yo'nalish va yo'riqlari, undagi badiiy tasvir usullari, obrazlarning ma'nolarini o'rgatadigan fan **adabiyotshunoslik** deb nomlanadi. Bu fan quyidagi tarkibiy qismlarni o'z ichiga oladi¹⁶:

¹⁵ N.Karimov va boshq. Adabiyot (Umumiy o'rta ta'lim maktablarning 9-sinfi uchun darslik). – T.: Ma'naviyat, 2002. – 5-6-betlar.

¹⁶ B.Qosimov va boshq. Adabiyot (10-sinf uchun darslik). – T.: O'qituvchi, 2004. – 8-bet.

1. Adabiyot nazariyasi barcha zamonlarda bunyod etilgan hamma asarlar uchun umumiy bo'lgan ilmiy-nazariy va estetik asoslarni, badiiy asarlarning tarkibiy qismlarini, badiiyatning qonun-qoidalarini, usullar, janrlar, badiiy asarning tuzilishi va xususiyatlari, asarning badiiy tili, turli badiiy-tasviriy va ifodaviy vositalar, she'r tuzilishi masalalarini o'rganadi, so'z san'atining mohiyati, jamiyatdagi o'rnini, o'ziga xos xususiyatlarini tadqiq etadi.

2. Adabiyot tarixi so'z san'atining vujudga kelishi va rivojlanish tarixini tadqiq etadi, muayyan mamlakatlar yoki xalqlar adabiyotlarining rivojlanish bosqichlarini, biror xalq yoki mamlakat adabiyoti vakillari bo'lgan buyuk san'atkorlarning hayoti va ijodini o'rganadi, adabiyot taraqqiyotini xronologik izchillik bilan, uning eng qadimgi yodgorliklaridan boshlab shu kunga qadar yaratilgan asarlarigacha tekshiradi.

3. Adabiy tanqid hozirgi adabiy jarayonda sodir bo'lgan o'zgarishlar, yaratilgan asarlarni baholash, ularning yutuq va kamchiliklarini, taraqqiyot yo'nalishlarini izohlash hamda belgilash bilan shug'ullanadi.

Adabiyot tarix fani bilan, jamiyat tarixi bilan uzviy bog'liq.

Olimlar turkiy adabiyot tarixini quyidagicha davrlarga ajratishgan¹⁷:

1. Eng qadimgi adabiy yodgorliklar («Avesto», «To'maris», «Xuastuanift», «Shiroq», «Alpomish» va boshq.).

2. Ilk o'rta asrlar adabiyoti (O'rxun – Enasoy yodgorliklari).

3. O'rta asrlar adabiyoti (IX–XV asrlar):

a) IX–XII asrlar adabiyoti;

b) Temuriylar davri adabiyoti;

d) Navoiy va uning davri adabiyoti.

4. XVI–XIX asrlar adabiyoti.

5. XX asr adabiyoti.

Xulosa qilib aytganda, badiiy adabiyot bugunni kecha va erta bilan bog'laydi. Bu bog'lanish shunchaki vaqtni emas, balki inson ruhiyati, tafakkuri va orzu-umidlarini ifodalagani uchun ham muhim ahamiyat kasb etadi.

¹⁷ Boqijon To'xliyev. Adabiyot (Akademik litsey va kasb-hunar kollejlari uchun darslik). – T.: O'qituvchi, 2010. – 12-bet.



I BO'LIM

XALQ OG'ZAKI POETIK IJODI

2-MAVZU.

XALQ OG'ZAKI IJODI VA UNING JANRLARI

Badiiy adabiyotning eng qadimiy shakli *xalq og'zaki ijodi (folklor)* hisoblanadi. Og'zaki yaratilgan va og'zaki tarqalgan, xalq shoirlari yoki jamoa tomonidan yaratilib, og'izdan-og'izga, avloddan-avlodga o'tib kelgan badiiy asarlar hozirda *xalq og'zaki ijodi* yoki «*folklor*» (ingl. «*folk*» (xalq), «*lore*» (bilim, donolik, donishmandlik) – «*xalq bilimi*», «*xalq donoligi*», «*xalq donishmandligi*») deb yuritiladi. «Folklor» atamasi birinchi bo'lib XIX asr(1846-yil)da Vilyam Toms tomonidan qo'llangan.

Xalq ijodiyotining yaratilishi va yashash tarzi og'zaki usulda amalga oshadi. Xalq yaratgan asarlar o'zining g'oyaviyligi, chuqur xalqchilligi, til boyligi va badiiyligi bilan ajralib turadi. U xalqning yengilmas irodasini, kelajakka bo'lgan ishonchini, tasavvurlarini yaqqol aks ettiradi.

O'zbek folklorida turlar va janrlar quyidagicha¹⁸:

1. **Epik tur:** mif, afsona, rivoyat, ertak, naql, latifa, lof, terma, doston va boshq.

2. **Lirik tur:** marosim folklorining barcha ko'rinishlari, bolalar folklorining ko'pgina turlari, qo'shiqning hamma xillari, ashula va shu kabilar.

3. **Dramatik tur:** og'zaki drama, qo'g'irchoq o'yin, askiya, xalq teatrlari va shu kabilar.

4. **Maxsus tur:** maqol, matal, topishmoq.

¹⁸ S.Ahmedov va boshq. Adabiyot (Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 5-sinfi uchun darslik). – T.: Sharq, 2007. – 16-bet.

XALQ QO‘SHIQLARI

Kuyga solib aytiladigan kichik lirik she‘r **qo‘shiq** deb yuritiladi. Qo‘shiq san‘atning insoniyat tomonidan eng oldin o‘ylab topilgan turi deb taxmin qilinadi. Rivoyat qiladilarki, yer yuzidagi birinchi qo‘shiq ‘Hobil otli o‘g‘li o‘lganda, Odamato tomonidan aytilgan marsiya bo‘lgan ekan¹⁹.

Qo‘shiqlar xalq tomonidan va real ijodkorlar (shoir va bastakorlar) tomonidan yaratilishiga qarab ikki turga ajratiladi: *xalq qo‘shiqlari* va *zamonaviy* (yozma adabiyot namunasi bo‘lgan) *qo‘shiqlar*²⁰.

Xalq qo‘shiqlarini yaratish taraqqiyot cho‘qqiga ko‘tarilgan bugungi kunda ham davom etayotganligi diqqatga sazovordir. Xalq qo‘shiqlari ko‘p qirrali va sertarmoq bo‘lib, o‘zbek xalqi tomonidan mehnat, marosim, mavsum, lirik yo‘nalishlarda ularning minglab namunalari yaratilgan. Masalan, *ov qo‘shiqlari*, *mavsum qo‘shiqlari*, *to‘y qo‘shiqlari* (“Yor-yor”, “Kelinsalom”, “Kuyovsalom”), *aza qo‘shiqlari (marsiyalar)* va boshq.

Xalq qo‘shiqlarining quyidagicha turlari mavjud:

1. Lirik qo‘shiqlar. Bunday qo‘shiqlarda insonlarning ruhiy olami, ishqiy kechinmalari aks etgan, ular asosan to‘rt misralik bandlardan tashkil topib, kasb, payt, o‘rin tanlamaydi: ularni istalgan vaqtda istalgan kishi xohishiga ko‘ra baland ovoz bilan yoki xirgoyi qilib aytavergan. Lirik qo‘shiqlarning dastlabki namunalari Mahmud Koshg‘ariyning 1072–1074-yillarda yaratilgan «Devonu lug‘otit-turk» asari orqali yetib kelgan.

2. Mehnat qo‘shiqlari. Bu turga mansub qo‘shiqlar xalq she‘riyatining eng qadimiy shakllaridan bo‘lib, ular ibtidoiy insonning mehnat faoliyati bilan bevosita aloqadorlikda vujudga kelgan. Bunday qo‘shiqlar mehnat turi jarayonida ijro etiladi, qo‘shiqlar matnida o‘sha mehnat turi bilan bog‘liq

¹⁹ B.Qosimov va boshq. Adabiyot (10-sinf uchun darslik). – T.: O‘qituvchi, 2004. – 30-bet.

²⁰ S.Ahmedov va boshq. Adabiyot (Umumiy o‘rta ta‘lim maktablarning 6-sinfi uchun darslik-majmua). II qism. – T.: Ma‘naviyat, 2017. – 27-bet.

asbob-uskunalar va ularga murojaat etish motivlari yetakchilik qiladi. Mehnat qo‘shiqlarining o‘zi quyidagi turlarga ajratiladi:

a) **dehqonchilik bilan bog‘liq qo‘shiqlar:** qo‘sh qo‘shiqlari, o‘rim qo‘shiqlari («*To‘lmadingmi, Qoradaryo*» va *boshq.*), yanchiq qo‘shiqlari («*Xo‘p mayda*»lar («*Maydagul*»)), yorg‘ichoq (*qo‘l tegirmoni*) qo‘shiqlari.

b) **chorvachilik bilan bog‘liq qo‘shiqlar:** xo‘sh-xo‘sh (*govmishim*), turey-turey, churey-churey.

d) **hunarmandchilik bilan bog‘liq qo‘shiqlar:** charx qo‘shiqlari, bo‘zchi qo‘shiqlari, o‘rmak qo‘shiqlari (*o‘zbek ayollarining gilam, sholcha to‘qish bilan bog‘liq mehnat qo‘shiqlari*), kashta qo‘shiqlari (*kashtaning turlari: sanama, ilma, jamalak, yo‘rma*).

3. Mavsumiv-marosim qo‘shiqlari. Bu turga mansub qo‘shiqlar bironta mavsum va marosim bilan bog‘liq bo‘lib, ularning o‘ziga xos jihatlari mavjuddir. Bunday qo‘shiqlar sirasiga “**Sust xotin**” (*yomg‘ir chaqirish qo‘shig‘i*), **Choymomo** (*shamol to‘xtatish qo‘shig‘i*), “**Yo, Haydar**” (*shamol chaqirish qo‘shig‘i*), mavsum qo‘shiqlari bo‘lgan “**Chittigul**” (bu qo‘shiq matni juft-juft matn va naqoratlardan iborat) va “**Boychechak**” kabilar kiradi.

Yuqoridagi qo‘shiq turlaridan tashqari xalq orasida to‘ylarda *o‘lan aytishlar, yor-yorlar, kelin salomlar* hanuzgacha saqlanib kelmoqda. **Lapar** (*ikki kishi tomonidan yoki ikki taraf tomonidan aytiladigan qo‘shiq, «aytishuv» deb ham yuritiladi*), bolalarga mo‘ljallangan «**Alla**», **ovunchoq qo‘shiqlar, o‘yin qo‘shiqlari** («*Oq terakmi, ko‘k terak*», «*Boychechak*» (bu qo‘shiqning to‘rt, olti, sakkiz qatorli ko‘rinishlari bor)), «**Ramazon**» va *boshq.*), “**Boshginam og‘riydi**” kabilar ham xalq qo‘shiqlarining go‘zal namunalaridir.

“**Boshginam og‘riydi**” deb nomlangan savol-javob tarzida aytiladigan qo‘shiqda qizning bosh og‘rig‘iga tillaqosh, bo‘yin og‘rig‘iga bo‘yintumor, quloq og‘rig‘iga esa isirg‘a davvo sifatida ko‘rsatiladi.

ESLATMA: Qo‘shiq yozma adabiyot janri sifatida ham mashhur. Bizga ma‘lumki, o‘zbek adiblarining she‘rlari xalqimizning sevimli qo‘shiqlariga ham aylanib ketgan.

MAQOLLAR

Xalqning dono, purhikmat ifodalari, yirik madaniyat arboblari, olimlar, davlat arboblarning ibratomuz gaplari, xalqning hayotiy tajribalari asosida yuzaga kelgan dono fikrlarini ixcham shaklda ifodalovchi asarlar **maqollardir**. «**Maqol**» soʻzi arabcha boʻlib, «soʻz» demakdir. Uni «otalar soʻzi» ham deydilar. Maqollarda fikr aniq, xulosa tugal, ifoda loʻnda va, albatta, hukm tarzidagi ibratli fikr boʻladi²¹.

Maqollar sheʼriy va nasriy tuzilishga ega. Ularda mehnatsevarlik, vatanparvarlik, mardlik, saxiylik, adolat, insof, doʻstlik, olijanoblik, chin insoniy gʻoyalar, sof muhabbat, ilm olishga daʼvat va shu kabilar oʻz aksini topgan.

Mamlakatimizning Birinchi Prezidenti Islom Karimovning «Yuksak maʼnaviyat – yengilmas kuch» asarida ham «...*maqolmatallar bejizga paydo boʻlmagan, ular ham maʼlum bir haqiqatning ifodasi*» degan fikr keltirilgan²².

Maqollarga misollar: «Azob koʻrmay – rohat yoʻq», «Koʻngli ochiqning qoʻli ochiq, qoʻli ochiqning yoʻli ochiq», «Vataning tinch – sen tinch», «Uyqu joy tanlamas, muhabbat – chiroy», «Qunt bilan oʻrgan hunar, hunardan rizqing unar», «Ilmsiz bir yashar, ilmi ming yashar», «Aybsiz doʻst axtargan doʻstsiz qolar» va boshq.

MATALLAR

Koʻchma maʼnoda ishlatiluvchi xalq majoziy iboralarining bir turi **matallardir**. Matal oʻz maʼnosidan boshqa maʼnoga koʻchirilgan soʻz birikmalaridan iborat boʻladi, unda oʻxshatish, kinoya, qochirma soʻz va boshqa til vositalari qoʻllaniladi. Bunda majoziy iboraning oʻz asl maʼnosi bilan koʻchirilgan maʼnosi oʻrtasida mantiqiy bogʻlanish boʻladi. Maqollar tugal fikr ifoda etadi, matallarda esa bunday xususiyat boʻlmaydi. Shuning uchun ular, odatda, alohida qoʻllanilmaydi.

Misollar: «*Tuyaning dumi yerga tekkanda*», «*Ilon inidan chiqadigan*» va boshq.

²¹ S. Ahmedov va boshq. Adabiyot (Umumiy oʻrta taʼlim maktablarining 5-sinfi uchun darslik). I qism. – T.: Sharq, 2015. – 19-bet.

²² I. Karimov. Yuksak maʼnaviyat – yengilmas kuch. – T.: Maʼnaviyat, 2008. – 21-b.

TOPISHMOQLAR

Narsa yoki hodisalarning ataylab yashirilgan belgisi, shakli, xatti-harakati, holati va vazifasini boshqa narsa yoki hodisalarga qiyoslash asosida topishga asoslangan she'riy yoki nasriy tuzilishdagi savol va topshiriqlar **topishmoq** sanaladi. Topishmoqlar o'zbeklar o'rtasida «*topishmoq*», «*jumboq*», «*jumoq*», «*ushuk*», «*top-top*», «*topmacha*», «*matal*» kabi atamalar bilan yuritilgan, mumtoz adabiyotda «*chiston*» deb ataladi.

Topishmoqlar xalq turmushi bilan chambarchas bog'liq holda yaratiladi. Ular zaminida kishilarning qadimiy e'tiqod va tasavvurlari, olamni bilish va idrok etishga bo'lgan intilishlari yotadi.

Topishmoqlar nasriy va she'riy tuzilishga ega bo'lib, ularda *metafora*, *o'xshatish*, *mubolag'a*, *sifatlash*, *jonlantirish*, *kichraytirish* kabi badiiy vosita va usullar keng qo'llaniladi.

Misollar:

Asaldan shirin, zahardan achchiq. (So'z)

Onasi bitta, bolasi mingta. (Oy va yulduzlar)

Topishmoqlar tuzilishiga ko'ra **bir** yoki **bir necha predmetli** bo'ladi. Bu janr doston va ertaklar ichida ham uchraydi. Topishmoq qatnashgan ertaklar *topishmoqli ertak* (bunda topishmoq ertak ichida keladi) va *ertak-topishmoq* (bunda asar voqealari topishmoq asosiga qurilgan bo'ladi) kabi turlarga ham bo'linadi.

AFSONALAR

Fantastika, sehr-jodu va hayotiy uydirmalarga asos bo'lgan kichik nasriy hikoyalar **afsona** hisoblanadi. «*Afsona*» so'zi forscha bo'lib, «*sehr*, *avrash*, *makr*» kabi ma'nolarni bildiradi. Afsonalar asosida tarixiy voqea va hodisalar yotadi, ular uzoq davrlar o'tishi bilan o'zining aniq ildizlarini yo'qotadi, voqelikni yuksak badiiylilikda aks ettirmaydi. Afsonalarda asosan osmoniy hodisalar emas, balki yarim hayotiy, yarim xayoliy voqealar

tasvirlanadi. Aristotel afsonalarni «*haqiqatdan xabar beruvchi yolg'on hikoyalar*» deb atagan. Afsona ijrochisi xalq ommasidir. Qadimgi turkiy adabiyotda afsona «*sav*» deb nomlangan.

Afsonalar mavzusiga ko'ra shartli ravishda quyidagi turlarga bo'linadi:

1) sof mifologik afsonalar: «*Qayumars*», «*Odami Od*», «*Erhubbi*», «*Anbar ona*», «*Hazrati Xizr*» (afsonalarda Xizr timsoli cho'l piri, hosildorlik homiysi shaklida namoyon bo'ladi) va boshq.

2) tarixiy voqea-hodisalar haqidagi afsonalar: «*Devqal'a*», «*Shirin qiz*», «*Kalta minor*», «*Ilon buzgan*» va boshq.²³

RIVOYATLAR

Rivoyatlar xalqning tarixiy o'tmishi haqidagi badiiy yodnomalar bo'lib, ular hayotiy voqealarni hayotiy uydirmalar asosida aks ettiradi. Biz rivoyatlar va afsonalar tufayli ajdodlarimiz ko'rsatgan buyuk qahramonliklarni bilib olamiz. Rivoyatlar afsonalarga qaraganda tarixga yanada yaqin turadi.

Rivoyatlar mavzusiga ko'ra quyidagi turlarga ajratiladi:²⁴

1) tarixiy rivoyatlar – ular bironta shaxs faoliyati va xalq qahramonlari bilan bog'liq voqealarni aks ettiradi. *To'maris, Shiroq, Amir Temur, Ulug'bek, Ibn Sino, Beruniy, Alisher Navoiy, Mashrab, Temur Malik, Jaloliddin* va shu kabi tarixiy shaxslar haqida tarixiy rivoyatlar yaratilgan.

2) toponimik rivoyatlar – ularda joy nomlarining kelib chiqishi bilan bog'liq voqealar hikoya qilinadi. Masalan, *Samarqand nomining, Olmaliq shahrining, Nurota ziyoratgohining kelib chiqishi haqidagi rivoyatlar* shu turga kiradi.

ASOTIRLAR


Ibtidoiy insonlarning koinot va tabiat hodisalarining mohiyati, paydo bo'lish sabablarini o'zlaricha izohlash maqsadida yaratgan og'zaki hikoya-

²³ S. Ahmedov va boshq. Adabiyot (Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 5-sinfi uchun darslik). – T.: Sharq, 2007. – 61-62-betlar.

²⁴ S. Ahmedov va boshq. Adabiyot (Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 5-sinfi uchun darslik). – T.: Sharq, 2007. – 61-bet.

lari **asotirlar (miflar)** hisoblanadi. Asotirlarda barcha narsa jonli obrazlar vositasida harakat qiladi. Bu janr ertaklarga yaqin turadi. Ularning har ikkalasida ham fantastika, badiiy xayolot yetakchilik qiladi, qahramonlarga g'ayriodatiy sifatlar «yuklanadi».

Asotirlarga misollar: *Aziz Momo* (qish fasli haqida, unda *Aziz momoning to'qsonta farzandi borligi aytilgan*), «**Oy bilan Kun**» (oilaviy hayot haqida, unda qo'llangan «Yulduz uchdi» degan tushuncha *Oy uyquga ketganda, Kun bolalaridan birini olib qochmoqchi bo'lgani bilan bog'liq ekan*).





3-MAVZU. XALQ OG‘ZAKI IJODI JANRLARI (Davomi)

ERTAKLAR

Hayot haqiqati bilan bog‘liq bo‘lib, xayoliy va hayotiy uydirmalar asosiga qurilgan, didaktik g‘oyalar tashuvchi, xayolot va fantastika xususiyatlari bilan yo‘g‘rilgan og‘zaki hikoyalar **ertaklardir**. Ertaklarda xalqning maishiy turmushi, insonparvarlik va vatanparvarlik, chin sevgi va vafodorlik haqidagi orzulari xayoliy hamda hayotiy uydirmalar vositasida hikoya qilinadi. Ertaklarga nisbatan Surxondaryo, Samarqand, Farg‘onada – **matal**, Buxoro atrofidagi qishloqlarda – **ushuk**, Xorazmda – **varsaki**, Toshkent shahri va uning atrofida – **cho‘pchak** atamasi ham ishlatiladi²⁵. Mahmud Koshg‘ariy o‘zining «Devon-ulg‘ot at-turk» asarida ertaklarning «*etuk*» tarzida ishlatilganligini ko‘rsatib o‘tadi.

Ertaklarning o‘ziga xos janr xususiyatlari quyidagilar:

- 1) og‘zaki hikoyaga asoslangan qiziqarli sujetga ega bo‘lishi;
- 2) voqealarning ongli tarzda xayoliy uydirmalar orqali aks ettirilishi;
- 3) estetik vazifaning yetakchilik qilishi;
- 4) o‘ziga xos badiiy shakliy qolip hamda tilga ega bo‘lishi (ertaklar «*bir bor ekan, bir yo‘q ekan...*» kabi maxsus boshlanmalar bilan boshlanib, «*murod-maqsadiga yetibdi*», «*birga turib, birga yashabdilar*», «*soqoli ko‘ksiga yetibdi*» kabi maxsus tugallanmalar bilan yakunlanadi). Ba’zi ertaklarda uzundan uzoq boshlanma ham bo‘ladi. Masalan, “*Ertagiyo ertagi, echkilarning bo‘rtagi, qirg‘ovul qizil ekan, quyrug‘i uzun ekan, ko‘k muzga mingan ekan, muruti singan ekan, g‘oz karnaychi ekan, o‘rdak surnaychi ekan, ola qarg‘a azonchi, qora*”

²⁵ S.Ahmedov va boshq. Adabiyot (Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 5-sinfi uchun darslik). I qism. – T.: Sharq, 2015. – 45-bet.

qarg'a qozonchi, chumchuq chaqimchi ekan, to'rg'ay to'qimchi ekan, bo'ri bakovul ekan, tulki yasovul ekan, ertagimning sheri bor, yetti kunlik yeri bor, yetti kunlik yerida dumi kalta bo'ri bor. Bir bor ekan, bir yo'q ekan..."²⁶

Ertaklar ***kirish qismi, voqealar rivoji, tugallanma*** kabi qismlardan tashkil topadi.

Xalq ertaklari mazmunan quyidagi guruhlarga bo'linadi:

1. Hayvonlar haqidagi (majoziv) ertaklar. Bunday ertaklarda mazmun majoziy, ya'ni ko'chma ma'noga ega bo'ladi.

Misollar: «*Susambil*», «*Bo'ri bilan tulki*», «*Ochko'z bo'ri*», «*Ayiqpolvon*» va boshq.

«**Susambil**» ertagida yo'lda eshakka ho'kiz, xo'roz, ikkita kalamush, arilar hamroh bo'ladilar. **Ertak qahramonlari quyidagilar:** *ho'kiz* (munkarnakir), *kalamushlar* (go'rkovlar), *arilar* (Azroil), *xo'roz* (so'fi), *eshak* (eshon), *bo'rilar*.

2. Sehrli-fantastik ertaklar. Bunday ertaklarda voqealar sehr-jodu, fantastik uydirmalar asosiga quriladi. **Misollar:** «*Yalmog'iz*», «*Urto'qmoq*», «*Ochildasturxon*», «*Semurg'*» va boshq.

3. Hayotiy-maishiy ertaklar. Bunday ertaklardagi voqealarning aksariyati hayotga yaqin, hayotdan olingan bo'lib, insonlarda jiddiy fikr-mulohazalar uyg'otadi, muayyan tarbiyaviy yo'nalishga ega bo'ladi. **Misollar:** «*Malikayi Husnobod*», «*Zumrad va Qimmat*», «*Oyguil bilan Baxtiyor*», «*Ziyod botir*», «*Tohir va Zuhra*», «*Ozodachehra*», «*Farhod va Shirin*», «*Uch og'a-ini botirlar*» va boshq.

«UCH OG'A-INI BOTIRLAR» ertagi haqida

Bu ertakda «*To'g'ri bo'ling – bexavotir bo'lasiz*», «*Maqtanchoq bo'lmang – xijolat tortmaysiz*», «*Dangasalik qilmang – baxtsiz bo'lmaysiz*», «*Dunyoni tanimay, dunyo kishisi bo'lmaysiz*» kabi maslahatlar uchraydi. Ertakda go'sht it emib katta bo'lgan qo'ziniki ekanligini **to'ng'ich botir**, shinnidan

²⁶ S.Ahmedov va boshq. Adabiyot (Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 5-sinfi uchun darslik). I qism. – T.: Sharq, 2015. – 45-bet.

odam isi kelayotganini o'rtancha botir ("Saralab yemoq faqirning ishi" gapi unga tegishli), nonni taxlagan kishining otasi novvoy ekanligini (*uni podsho taxlagan edi*) kenja botir aytgan.

NAZARIY MA'LUMOT

Yozma ertaklar haqida

Ertaklarning yaratilishiga ko'ra yana bir turi **yozma ertaklardir**. Bunday ertaklar shoir va yozuvchilar tomonidan yaratiladi.

Jahon adabiyotida fransuz ertakchisi *Sharl Perro* (1628–1703), nemis ertakchilari *Gofman* (1776–1822), aka-uka *Yakob Grimm* (1785–1863) va *Velgelm-Karl Grimm* (1786–1859)lar, *Vilgelm Gauf* (1802–1877), daniyalik ertaknavis *Hans Kristian Andersen* (1805–1875), angliyalik *Oskar Uayld* (1854–1900), rus shoirlari *A.S.Pushkin* (1799–1837), *L.N.Tolstoy* (1828–1910), *K.D.Ushinskiy* (1824–1870) va boshqalar juda ko'plab yozma ertak namunalarini yaratganlar.

O'zbek adabiyotida *Hamid Olimjonning* «*Oygul bilan Baxtiyor*», «*Semurg'*», *Sulton Jo'raning* «*Zangori gilam*», *Shukur Sa'dullaning* «*Ayyor chumchuq*», «*No'xat polvon*», «*Laqma it*» she'riy ertaklari, «*Yoriltosh*», «*Afsona yaratgan qiz*» ertak-pyesalari, «*Kachal polvon*» ertak-qissasi va boshqa adiblarning shu kabi ertaklari bu janrning go'zal namunalaridir. *X.To'xtaboyev*, *A.Obidjon*, *T.Adashboyev*, *O'Imonberdiyev* kabi adiblarimiz ham ertaknavislik an'anasini davom ettirmoqdalar²⁷.

LATIFALAR

Latifalar xalq o'zaki ijodining eng ommaviy janrlaridan bo'lib, nozik, mayin kinoya, qochiriqlar ishtirok etuvchi kulguli, kichik hajmli hikoya hisoblanadi. Xalq o'rtasida «*afandi*» deb ham yuritiladi. «*Latifa*» atamasi arabcha «*lutf*» so'zidan olingan bo'lib, «*nozik fikrlash*», «*yxshilik qilmoq*», «*yoqimli*», «*zarif*» kabi ma'nolarni anglatadi. Mustaqil janr sifatida latifa quyidagi xususiyatlarga ega:

²⁷ S.Ahmedov va boshq. Adabiyot (Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 5-sinfi uchun darslik). – T.: Sharq, 2011. – 73-bet.

1) yagona qahramon bilan bog'liq holda yaratiladi (**Nasriddin obrazi**, bu obraz asosan XIX asrdan boshlab o'zbek latifalariga kirib kelgan.

2) ixcham sujetga ega bo'ladi;

3) asar konflikti, qahramoni va uning «muxolifi» o'rtasidagi muloqot dialog orqali hal etiladi.

Latifani maxsus ijro etuvchilar yo'q. Uni har kim aytaverishi mumkin. Latifa *anekdot* (yun. «bosib chiqarilmagan») deb ham yuritiladi. Atama sifatida anekdot birinchi marta VI asrda Vizantiyada qo'llanilgan.

TERMALAR

Pand-nasihat, odob-axloq, soz va so'z haqida yaratilgan, ijtimoiy hayotdagi turli hodisalar, shaxs va jonivorlarning ta'rifi va tanqidiga bag'ishlangan, baxshilar tomonidan kuylanadigan 10–12 satrdan 150–200, ba'zan undan ham ortiq misralargacha bo'lgan lirik, liro-epik she'rlarga **terma** deyiladi²⁸.

Terma atamasining lug'aviy ma'nosi «tanlangan», «saylangan», «terib, tanlab tizish» demakdir. O'zbek xalq termalari dostonchi (baxshi) va termachilar tomonidan yaratiladigan, badiha tarzida ijro etiladigan, lirik va epik turga mansub, musiqa bilan munosabati barqaror bo'lgan xalq qo'shiqlaridir²⁹.

O'zbek xalq termalari orasida «*Kunlarim*», «*Bormi jahonda?*», «*Armonim qolmadi*», «*Nima aytay?*» kabi termalar mashhur. Olimlarning ta'kidlashicha, termalarning eng ko'p tarqalgan ko'rinishi «*Nima aytay?*» hisoblanadi. Termalar ijrosida baxshilar ko'pincha tinglovchilarga murojaat qiladi, ovozini va do'mbrasini charxlash uchun she'riy parchalardan iborat qo'shiq aytadi. Termalar xalq dostonlari va haqqoniy hayot o'rtasidagi bog'lovchi vositadir.

MASALLAR

Masallar (ar. «namuna», «misol»; «o'xshashlik»; «ramzli hikoya») badiiy adabiyotning eng

²⁸ Imomov K., Mirzayev T., Sarimsoqov B., Safarov O. O'zbek xalq og'zaki poetik ijodi. – T.: O'qitavchi, 1990. – 169-bet.

²⁹ O'zbek folklori ocherklari (Uch jildli). 1-jild. – T.: Fan, 1988. – 262-bet.

qadimiy janrlaridan bo‘lib, ta’limiy-tarbiyaviy mazmunga ega bo‘lgan, ko‘proq maishiy-axloqiy, ijtimoiy-siyosiy mavzularda, asosan, majoziy obrazlar vositasida voqelikni aks ettiruvchi, xulosali, kichik hikoyachalardir. Ular ko‘pincha she’riy shaklda bo‘lib, ba’zan nasrda ham yaratilishi mumkin.

Qadimgi Yunonistonda masal janrida shuhrat qozongan shoirlardan biri *Ezop* (mil. avv. VI asr) bo‘lib, uning asarlarida achchiq kesatiq, piching ustunlik qilar edi. Shu bois keyingi davr adabiyotidagi o‘tkir hajv, achchiq kesatiq va pichingga ega bo‘lgan asar tiliga nisbatan «*Ezop tili*» atamasi qo‘llaniladi. Ezopdan keyin I-II asrlarda yashab o‘tgan yunon masalchilari *Fedr*, *Babriy* bu sohaga ulkan hissa qo‘shganlar.

Fransuz adabiyotida *Lafonten* (1621–1695), nemis adabiyotida *Lessing*, *Gellert* (XVIII asr), ispan adabiyotida *Lope de Vega*, rus adabiyotida *A.D.Kantemir*, *A.P.Sumarokov*, *A.I.Krilov*, *S.Marshak*, *S.Mixalkovlar*, o‘zbek adabiyotida *A.Navoiy*, *M.Gulxaniy*, *Hamza*, *Muxtor Xudoyqulov*, *Yamin Qurbon*, *Sami Abduqahhor*, *Olim Qo‘chqorbekov* kabi shoirlar ijodida masal janrining go‘zal namunalari yaratilgan. Ayniqsa, *Muhammad Sharif Gulxaniy* o‘zining «*Zarbulmasal*» asari bilan o‘zbek adabiyotida masalchilik rivojiga katta hissa qo‘shgan.

Misollar: *Ezop* «*Yovvoyi echkilar bilan cho‘pon*», «*Kiyik bilan tokzor*», «*Bo‘ri bilan laylak*», «*Eshak bilan baqalar*», «*Ustiga tuz yuklangan eshak*», «*Burgut, zag‘cha va cho‘pon*», *A.Navoiy* «*Kabutar*», *Gulxaniy* «*Tuya bilan bo‘taloq*», «*Maymun bilan najjor*», *Hamza* «*Toshbaqa va chayon*», *Avloniy* «*Tulki ila qarg‘a*» va boshq.





4-MAVZU. XALQ DOSTONLARI

XALQ DOSTONLARI HAQIDA UMUMIY MA'LUMOT

Doston xalq og'zaki ijodining eng murakkab, yirik va keng tarqalgan janrlaridan biri. «*Doston*» so'zi forscha bo'lib, «*qissa*», «*hikoya*», «*shon-u shuhrat*», «*sarguzasht*», «*ta'rif*» va «*maqto'v*» ma'nolarida ishlatiladi. Bu so'z adabiy atama sifatida xalq og'zaki ijodi va yozma adabiyotdagi yirik hajmli epik asarlarni anglatadi.

Yozma dostonlar adabiyotshunoslikda **poema** deb yuritiladi. Yozma dostonlar aniq muallif tomonidan she'riy yo'lda yoziladi, ularda biror personaj kechirgan hodisalar shoirning tuyg'ulari bilan uyg'unlikda tasvirlanadi. Doston dastlab xalq og'zaki ijodida vujudga kelgan. Folklor va yozma adabiyotdagi dostonlar bir-biri bilan hayotni tasvirlash vositasi va usullariga ko'ra jiddiy farqlanadi.

Favqulodda xususiyatlarga ega qahramonlarning boshidan o'tgan qaltis voqealar she'r va nasriy yo'lda aralash tasvirlangan yirik hajmli, muallifi noma'lum epik asarlar **xalq dostonlari** deyiladi.³⁰

Xalq dostonlarini do'mbira jo'rligida ijro etuvchi va kuylovchi san'atkor **shoir** yoki **baxshi** (mo'g'ulcha «*baxsha*», «*bagsha*» so'zidan olingan bo'lib, «*ustod*», «*ma'rifatchi*» demakdir. Sanskritcha «*bxik shu*» so'zidan kelib chiqqan, degan fikr ham bor) deb atalgan.

Xalq ijodkorlarini o'zbek xalqi **baxshi** va **shoir**, qozoq xalqi **oqin**, qoraqalpoqlar **jirov**, o'zaybayjonlar **oshiq** deb ataydilar. Xorazmda doston aytuvchilarni **xalfa** deb atashadi.

³⁰ Q.Yo'ldoshev va boshq. Adabiyot (Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 9-sinfi uchun darslik). – T.: Yangiyo'l Poligraph service, 2010. – 27-bet.

Dostonni ijro etuvchi baxshilar minglab she'riy misralarni, katta-katta nasriy parchalarni yoddan bilishi, bironota musiqiy asbobni chala olishi lozim.

Respublikamizda dostonchilikni rivojlantirishga ham alohida e'tibor qaratilib, 2000-yil 14-martda «O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan xalq baxshisi» unvoni ta'sis etildi.

Xalq dostonlarini ijro etish uslubiga ko'ra *Qashqadaryo-Surxondaryo* (bunda baxshilar dostonni do'mbira jo'rligida bo'g'izdan ijro etadilar), *Samarqand* (bunda baxshilar dostonni do'mbira bilan ochiq ovozda aytadilar), *Farg'ona* (bunda dostonlar musiqa asbobisiz ohangga solib aytiladi), *Janubiy Tojikiston* va *Xorazm* (bunda dostonlar jamoa bo'lib, tor va doira jo'rligida kuylanadi) dostonchilik maktablari mavjuddir.

Olimlarning ma'lumotiga ko'ra, XV–XVI asrlarda yirik dostonchilik maktablari paydo bo'lgan. XIX–XX asrlar esa dostonchilik taraqqiy etgan davr hisoblanadi.

Folklorshunos olimlar tomonidan **150 dan ortiq** (variantlari bilan 400 dan ortiq) xalq dostonlari yozib olingan bo'lib, ularning ko'pchiligi kitob holida nashr qilingan.

«*Alpomish*» dostonining 40 dan ortiq yozib olingan varianti bor. «*Go'ro'g'li*» turkumidagi dostonlar ham ko'pchilikni tashkil etadi. Bu turkumga mansub dostonlar quyidagilardir: «*Go'ro'g'lining tug'ilishi*», «*Go'ro'g'lining bolaligi*», «*Yunus pari*», «*Misqol pari*», «*Soqibulbul*», «*Shoqalandar*», «*Hasanxon*», «*Dalli*», «*Avazxon*», «*Gulqizoy*», «*Malika ayyor*», «*Ravshan*», «*Nurali*», «*Go'ro'g'lining o'limi*» va boshq³¹.

Xalq dostonlari quyidagi turlarga bo'linadi:

1. Qahramonlik dostonlari. Bunday dostonlar urug'chilik zamonlari bilan, xalqning ko'chmanchilik hayoti bilan bog'liq bo'ladi. Qabila va urug'lar orasidagi kurashlar, nizo va adovatlar, qabila va urug'larning xalq sifatida birlashishi, davlatchilik kurtaklarining paydo bo'lishi, urug' va qabilalarning chet el bosqinchilariga qarshi olib borgan kurashlari bu turdagi dostonlarning maydonga kelishiga sabab bo'lgan.

Misollar: «*Alpomish*», «*Yodgor*».

³¹ Qarang: O.Safarov, D.O'rayeva, M.Qurbonova. O'zbekiston xalqlari etnografiyasi va folklori. – T.: O'qituvchi, 2007. – 74-bet.

2. **Jangnoma dostonlar.** Bunday dostonlarda o‘zaro jang-u jadallar, afsonaviy yoki tarixiy urushlar, bunday urushlardagi qo‘shin yoki yakka shaxsning jasoratlari tasvirlangan. **Misollar:** «Yusuf va Ahmad», «Alibek bilan Bolibek», «Xoldorxon» va boshq.

3. **Romantik (ishqiy-sarguzasht) dostonlar.** Bunday dostonlarda sevgi romantikasi va fantastik sarguzashtlar uyg‘unlashib ketadi. **Misollar:** “Rustamxon”, “Murodxon”, “Kuntug‘mish”, “Malika ayyor”, “Oshiq G‘arib va Shohsanam”, “Ravshan”, “Go‘ro‘g‘li” turkumi va boshq.

4. **Tarixiy dostonlar.** Bu turdagi dostonlarda tarixda bo‘lib o‘tgan voqea-hodisalar, ayrim tarixiy shaxslarning faoliyati ifoda etilgan. **Misollar:** «Edega», «Shayboniyxon», «Oychinor» va boshq.

5. **Kitobiy dostonlar.** Ular yaratilishi jihatidan yozma adabiy manbaga ega bo‘lgan, bevosita yozma adabiyot ta‘sirida yaratilgan dostonlardir. **Misollar:** «Layli va Majnun», «Farhod va Shirin», «Zevarxon», «Rustami doston», «Bahrom va Gulandom» va boshq.

Xalq dostonlari orasida ishqiy-qahramonlik yo‘nalishidagi dostonlar boshqalariga nisbatan miqdor jihatdan ko‘proqdir.

O‘zbek dostonlarining adabiy-badiiy matni **nazmiy** va **nasriy** parchalardan iborat bo‘ladi. She‘r bilan nasrning aralash kelishi xalq dostonlarining muhim belgisidir.

Dostonlardagi she‘rlar asosan 7, 8 va 11 hijoli **barmoq vaznida** bo‘lib, 7 hijoli satrlar otlar chopishi, jang manzaralarida, personajlarning tezkor harakatlari aks etgan o‘rinlarda, umuman olganda, voqealarning jadal rivojlanish tasvirida, 8 hijoli misralar asosan maydon talashayotgan otlar holati yoki jang tasvirlarida keladi. 11 hijoli she‘rlar esa harakatning tinch, ohistaligini bildirgani uchun qahramonlarning monolog, dialoglari (o‘zaro so‘zlashuvlarida), ta‘rif-tavsiflarida, tinch ruhiy holat tasvirida qo‘llaniladi.

Xalq dostonlarining nasr qismi **saj’** usulida, ya‘ni qofiyali sochma ko‘rinishida beriladi.

Dostonlarda **boshlanma** uch muhim jihatni o‘z ichiga oladi:

1) *asarda tasvir etiladigan voqeaning uzoq o‘tmishga oid ekanligi;*

2) voqea o'rne;

3) qahramonning avlod-ajdodi shajarasi.

Ko'pgina xalq dostonlarining tugallanmasi ko'tarinki xarakterga ega bo'lib, to'y tasviri, adashganlarning topishib, murod-maqсадga yetganligini ko'rsatish bilan tamomlanadi. Tugallanma boshlanmadan farqli o'laroq ham nasr, ham nazmda berilishi mumkin. Ayrim hollarda baxshilar tugallanmada qahramonlarning murod-maqсадlariga yetganliklarini ko'rsatish bilan birga o'zlari haqida gapiradilar, tinglovchi va o'quvchilarga yaxshi istaklar bildiradilar³².

Xalq dostonlarining deyarli hammasida uchraydigan, bir xil takrorlanadigan va ko'chib yuradigan ifoda va tasvirlar folklorshunoslikda «epik qoliplar» (klishe) deb nomlanadi. Ular doimiy ravishda takrorlanib turadigan holatlar tasvirida, dostonlarning boshlanishi va tugallanishida, personajlarning ko'rinishlari tasvirida, tulporlarga berilgan ta'riflar, safar yoki jang tasvirida qo'llaniladi.

Misollar: «*Dam shu damdir, o'zga damni dam dema, Boshing eson, davlatingni kam dema*», «*Kokillarim eshilgandir tol-tol, Har toliga bersa yetmas dunyo mol*» va boshq.

Dostonlarda «*Yana bahor bo'lsa, ochilar gullar, Gulni ko'rsa, mast bo'b sayrar bulbullar*», «*Ot chopsa, gumburlar tog'ning darasi, Botirni ingratar nayza yarasi*», «*Xazon bo'lmay bog'da gullar so'ldimi, So'lgan gulga bulbul kelib qo'ndimi?*» kabi asardan asarga ko'chib yuradigan, badiiy qolip holiga kelib qolgan she'riy misralar – **uslubiy formulalar** ham mavjud. Ular she'riy bandlarning boshida, ba'zan o'rtasida kelib, aytuvchi baxshining nafas rostdashiga, fikrini to'plab olishiga yordam beradi, ularning quyilib kelayotgan tuyg'ularini yaxshiroq ifodalash uchun zarur so'zlarni topishiga imkon yaratadi, tasvirning ta'sirchanligini oshiradi.

Xalq dostonlari motivlari asosida «*Alpomish*», «*Ravshan va Zulxumor*», «*Orzigul*», «*Tohir va Zuhra*» kabi dramalar hamda «*Tohir va Zuhra*», «*Alpomish*» singari badiiy filmlar yaratilgan.

³² N.Karimov va boshq. Adabiyot (Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 9-sinfi uchun darslik). – T.: Ma'naviyat, 2002. – 25-bet.

«ALPOMISH» dostoni

«**Alpomish**» – qadimiy dostonlardan biridir. U qahramonlik, mardlik, vatanparvarlik, turli elatlar va xalqlarning birodarligi, sevgi va sadoqat, oila mustahkamligini kuylovchi ulkan epos bo‘lib, o‘zbek millatiga xos eng yuksak ma’naviy-axloqiy sifatlar, ayni vaqtda ayrim millatdoshlarimizdagi cheklanganlik va ojizliklar buyuk bir mahorat bilan tasvirlangan dostonidir. Dostonda o‘zbek xalqining azaldan imon-e’tiqod, or-nomus va yurt birligi yo‘lida o‘zini ayamasi yorqin ifoda etilgan. O‘zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti Islom Karimov ham dostonga juda yuqori baho berib, shunday degan edi: ««*Alpomish*» – o‘zbekning o‘zligini namoyon etadigan, mard va tanti xalqimizning yurak-yuragidan chiqqan, ota-bobolarimiz avlodlardan avlodlarga o‘tkazib kelayotgan qahramonlik qo‘shig‘idir...»³³.

«Alpomish» dostoni 1922-yildan beri o‘zbek folklorshunos olimlari tomonidan xalq baxshilaridan yozib olib kelinadi. Dostonning *Fozil Yo‘ldosh o‘g‘li* ijrosidagi eng mukammal variantini 1927–1928-yillarda Mahmud Zarifov Hodi Zarif rahbarligida yozib olgan.

Fozil Yo‘ldosh o‘g‘li (1872–1955)



Fozil shoir hozirgi Jizzax viloyati Baxmal tumaniga qarashli Loyqa qishlog‘ida tavallud topgan. Yoshligi yetimlikda o‘tgan, cho‘ponlik qilgan, ustozi Yo‘ldosh Mulla Murod o‘g‘lidan doston aytish sirlarini o‘rgangan. U Bulung‘ur dostonchilik maktabining eng yirik vakilidir.

Fozil Yo‘ldosh o‘g‘li **40 dan ortiq** xalq dostonlarini to‘la yod bilgan va dostonlarni badiiy jihatdan mukammal tarzda kuylagan.

³³ Karimov I.A. «Alpomish» dostonining 1000 yilligiga bag‘ishlangan taqatnali marosimda so‘zlangan nutq. // «Xalq so‘zi» gazetasi, 1999-yil, 9-noyabr.

“Alpomish” dostoni tuzilishiga ko‘ra yirik hajmli ikki qismdan iborat. Olimlarning tasdiqlashicha, bu doston X–XI asrlarda yaratilgan.

«Alpomish» dostoni Qo‘ng‘irot urug‘i boshliqlari, Alpinbiyning o‘g‘illari aka-uka Boybo‘ri va Boysarilarning farzandsizligi tasviri bilan boshlanadi. Unda aka-ukalarning to‘yda izza bo‘lishi (bunda bir chapanitob boyvachcha *“Ey Boybo‘ri bilan Boysari! Bu to‘y o‘g‘illining o‘g‘lidan qaytadi, qizlining qizidan qaytadi, sening nimangdan qaytadi?! O‘zing o‘lsang, molingga har merosxo‘r chiqadi...”* deydi. Shundan so‘ng aka-ukalar xafa bo‘lib, 80 tillani chupronga tashlab turib ketadilar), Shohimardon pir ravzasigacha 3 kun yo‘l yurib, u yerda 40 kun chilla saqlashi, pirning *«Boybo‘ri senga xudoyim bir o‘g‘il, bir qiz berdi, yolg‘iz emas, egiz berdi; Boysari, senga xudoyim bir qiz berdi... Bundan borsang, farzandlarni ko‘rsang, xaloyiqlarni yig‘sang, to‘y-tomoshalar bersang, to‘yda qalandar bo‘lib borib, bolalaringning otini o‘zim qo‘yib kelaman»* – deya xabar berishi, bo‘lajak qahramonlar Alpomish (Hakimbek) va Barchinlarning ajoyib-g‘aroyib holatlarda tug‘ilishi, bolalarning maktabda o‘qishi, Boybo‘rining shohlik, sipohlik ilmini o‘rgatish maqsadida Alpomishni 7 yoshida mulladan chiqarib olishi, Alpomishning bahodirona yoshligi (*7 yoshida bobosidan qolgan o‘n to‘rt botmon birichdan bo‘lgan yoyini olib otganda Asqar tog‘ning cho‘qqilarini yulib o‘tishi*), kitob orqali o‘g‘il bilan ota o‘rtasida saxiylik va baxillik haqida suhbat bo‘lib o‘tishi, zakot talab qilingani uchun (bunda zakot so‘rab 14 mahram boradi) Boysarining o‘z akasi Boybo‘ridan arazlab qalmoq eliga ko‘chishi, Qalmoq shohi Toychixon Boysarini dehqonchilik qilinadigan yerlarning payhon qilingani uchun jazolamoqchi bo‘lgani, Alpomishning Barchinni olib kelish uchun qalmoq eliga borishi va Murodtepada Qorajon bilan tanishib, do‘st tutinishi, Surxayl kampirning yetti alp o‘g‘lonlari bilan yonma-yon turib, Barchinning *poyga* (bunda *Qalmoq yurtidan 499 ta, Boychibor bilan birga jami 500 ta ot qatnashgan. Poyga oxirida Boychibor Ko‘kdo‘nan bilan quvlashib, yo‘l talashib, poyganing oldini oladi. Dostondagi “Ostidagi Chibor otin o‘ynatib, Qorajon chiqdi Zil tog‘ining*

ustiga. ...Qalmoqdan ilgari ketib boradi. Ko‘rinmaydi qalmoqlarning qorasi, Yaqin qoldi Boboxonning orasi” *misralari ham poyga tasvirida qo‘llangan*), *yoy tortish, merganlik va kurash* kabi shartlarini bajarishi va yorini o‘z eliga olib kelishi (to‘yda «*kampir o‘ldi*», «*it irillar*», «*soch siypatar*», «*qo‘l ushlatar*» kabi *rasm-rusumlar o‘tkazilgan*), qaynotasi Boysarini qutqarish uchun ikkinchi marta qalmoq eliga borganda, yetti yil zindonda qolishi, asirlikdan oti *Boychibor* yordamida qutulib, zindondan chiqqanda «*Yigit piri Shohimardon, Madad bersa sheri Yazdon. Tilarman qodir xudodan, Bu maydonda bergin omon...*» – deya niyat qilib o‘z eliga kelishi va dushmanlarini yengishi voqealari tasvirlanadi.

Bu dostonda *Alpomish* (dostonda bir kam to‘qson alp otdan *tappa-tappa tashlab, qo‘l qovushtirib Alpomishga ta‘zim qilgan*) obrazidan so‘ng *Barchin* (Uning muchali sichqon edi. *Barchin «dushmanlarning qirq mingini bir deb sanab qirishga» tayyor turgan jasur siymodir. Surxayl kampirning 7 alp o‘g‘li Barchinning qo‘lini so‘rab kelganda Barchin o‘ylab ko‘rish uchun Ko‘kaldoshdan 6 oy muhlat so‘raydi, kurashda Ko‘kaldoshni yiqitishda «Yiqmasangiz, to‘ram, navbat tilayin, Erkak libosini o‘zim kiyayin. Bor kuchimni bilagima jiyayin, Bul qalmoqni pora-pora qilayin» deya Alpomishga ma‘naviy madad beradi. «Egam rahm aylasin qonli yoshima, Sabab bo‘lib qo‘shgin teng-u to‘shima, Qurruyo-qur hayt-a, to‘ramning oti!» degan nola ham Barchin tilidan Boychiborga qarata murojaat tarzida aytilgan), *Qaldirg‘och* (u «*bir qulga kuching yetmadimi?» deya uyaltirib, Alpomishni Barchinni qutqarishga undagan*), *Kayqubod* (Barchinni izlab Qalmoq yurtida borayotgan Alpomish birinchi marta u bilan uchrashadi. *Kayqubod Alpomishning oqko‘ngil, sodda, shu bilan birga qo‘lidan har ish kela oladigan yordamchisidir. Alpomish Toychixon yurtini egallagach, shohlikka Kayqubodni ko‘targan*) kabi obrazlar, ayniqsa, xarakterlidir.*

Dostonda Alpomish, Qorajon va Barchinga tushlari orqali kelajak taqdirleri bildirilgan, chorvadorlar «*Eliboylar*» deb, ko‘chmanchi chorvadorlar «*Elatiya*» deb atalgan.

Asarda boshqa dostonlarga nisbatan mubolag‘aviylik uslubi ustunlik qiladi. Shoir va dramaturg *Sobir Abdulla* xalq og‘zaki ijodi materiallari asosida «Alpomish» pyesasini yaratgan.

«Alpomish» dostonining 1000 yilligi 1999-yil noyabrda Termizda, 2000-yilda esa jahon miqyosida nishonlandi.

Doston qahramonlari quyidagilar:

Dobonbiy – Alpinbiyning otasi, **Alpinbiy** – Boybo‘ri va Boysarining otasi, **Boybo‘ri** – shoh, Alpomish va Qaldirg‘ochning otasi, Boysarining akasi, **Boysari** – boy, Barchinning otasi (uni alplar «*Kelganboy*» deb aytishgan. U «*Mening toza ulsizligim bildirdi*» deb zakot voqeasiga ishora qiladi, «*tortib olib bo‘lmasa, sotib olib bo‘lmasa, xudo bermasa, qayoqdan qilamiz taraddi?!*» degan gaplarni aytadi), **Shohimardon** – pir (u dostonda «*xudoning yaratgan sheri*», «*tarzi gul yuzli, shirin so‘zli, bir siyosatli kishi*» deya tasvirlangan), **Qultoy** – Boybo‘rining yilqiboqar xizmatkori (u Alpomish Boysunga qaytganda, tanasidagi panja izlariga qarab uni tanib olgan), **Yartiboy** – oqsoqollardan biri (u «*Maslahat bermaymiz Boysaribiyga, Osilmaymiz Boybo‘rining doriga*», «*Dam shu damdur o‘zga damni dam dema, Boshing eson davlatingni kam dema. Sen ketar bo‘lsang qalmoq yurtiga, Bul elatni qolar deb ham g‘am yema*» deb aytgan), **Suqsuroy** – Barchinning kanizi (u *Barchin ko‘rgan tushning ta‘birini aytib bergan*), **Toychaxon** – qalmoq shohi (u *Boychiborning oyog‘iga temir parchin urib, bo‘yniga cho‘yandan gul solib, yetti yil azobda saqlagan*), **Tovka oyim** – Toychaxonning qizi (u Alpomishga qarata «*Sizga qurbon bu mening shirin jonim, Zindon ichida g‘arib bo‘lgan mehmonim, Choh ichinda ko‘rib so‘rab turaman, Zindondan chiqarsam nimam bo‘lasan?*» – deya murojaat qilgan, Alpomish bergan isiriq-nishonni tutatib, Boychiborning ozod bo‘lishiga ko‘maklashgan), **Surxayl kampir** – yetti alp (*Ko‘kaldosh (kattasi, to‘qson alpning zo‘ri, u «o‘zbakning otini maqtading» deb qalmoq sinchining ko‘zini o‘yib olgan. U quyidagi gapni Alpomishga kurash oldidan aytgan: «O‘zbek! Sen bunday bo‘yni yo‘g‘onlik qilma, g‘aribi go‘riston bo‘lib o‘lma. Hali ham qo‘ygin. Halak bo‘p kelgan yo‘lingdan qolma...»*), **Ko‘kaman**, **Ko‘kqashqa**, **Boyqashqa**, **Toyqashqa**, **Qo‘shquloq** («*Shomurti shoxalab, har yoqqa ketgan, Ichida sichqonlar bolalab yotgan, Izdan tushgan pishak oltoyda yetgan*» polvon), **Qorajon** (imon keltirgani va

do'st tutingani uchun Hakimbekning yonida o'zining insofsiz yaqinlariga qarshi kurashgan yigit obrazi, u Alpomish nomidan Barchinga sovchi bo'lib borgan))ning onasi, *Rajabxo'ja cshon* – Alpomishning piri (u Qorajonni boylovdan ozod qilgan, «*Dam shu damdir, o'zga damni dam dema, Boshing eson, davlatingni kam dema*» degan chaqiriqni Qorajonga qarata aytgan), *Ko'sa sinchi* – Ko'kaldoshning sinchisi (o'z vazifasini haqqoniy bajarib, haq so'zni so'zlab ikki ko'zidan ayrilgan obraz), *Ultontoz* – Alpomishning o'gay ukasi (7 yil bandilikdan so'ng Alpomish o'z yurtiga qaytganida otasining o'rniga Ultontoz shoh bo'lib olgan edi), *Boychibor* – Alpomishning tulpori (u poyga oxirida Ko'kdo'nan bilan quvlashib, yo'l talashib, poyganing oldini oladi), *Ko'kdo'nan* – Ko'kaldoshning tulpori (u Alpomishning Boychibor otini ko'rib, o'zidan g'olib kelishini bilib, vahm bosib, yemini yemay qo'ygan), *Qoranor tuyay* – Alpomishning tuyasi (u zindondan qutulub, Kashaldan Boysunga qaytgan Alpomishni yetti bor aylanib tavof qilib, eng birinchi tanigan), *g'oz* – Alpomishning xatini olib borgan obraz va boshq.





5-MAVZU. XALQ DOSTONLARI

«RAVSHAN» dostoni

«Ravshan» g'oyaviy-badiiy jihatdan pishiq ishlangan ishqiy-sarguzasht dostonidir. U 1928-yilda birinchi bo'lib Hodi Zarif (1905-1972) tomonidan Ergash Jumanbulbul o'g'lidan yozib olingan va 1941-yilda nashr ettirilgan.

Ergash shoir «Ravshan»ni otasi Jumanbulbuldan, u esa ustози Kichik Bo'rondan o'rgangan. Bu doston ham «Go'ro'g'li» turkumiga mansub.

Ergash Jumanbulbul o'g'li (1868 – 1937)



Ergash Jumanbulbul o'g'li hozirgi Samarqand viloyati Qo'shrabot tumani Qo'rg'on qishlog'ida dehqon-dostonchi oilasida tug'ilgan. Uning yetti ota-bobosigacha, shuningdek, amaki va momolari dostonchi-shoir o'tgan. Ergash shoir dostonchilik ta'limini otasi Jumanbulbuldan olgan. U 30 ga yaqin dostonlarni, juda ko'p termalarni yoddan bilgan.

«Ravshan» pok va samimiy muhabbatni kuylovchi, maqsadga erishish yo'lida mardlik va botirlikni ulug'lovchi, zulm va adolatsizlikni qoralovchi asardir. Bu dostonning sayqal topib, badiiy go'zal asar shaklini olishida *Jumanbulbul* va *Ergash baxshilarning* alohida xizmatlari bor.

Dostondagi *Ravshan*, *Zulxumor*, *Hasanxonlar* bosh obrazlar bo'lsa, shirvonlik *kampir-ena*, *aka-uka kallar*, *Oqqiz*, uning *Maston onasi* epizodik obrazlardir.

Dostonning qisqacha mazmuni quyidagicha:

«Go‘ro‘g‘libek Chambil yurtida *Yunus* bilan *Misqol parini* Ko‘hi Qofdan, Eram bog‘idan keltirib, umr o‘tkazar edi. Unga xudo farzand bermaydi, shuning uchun *Hasanxonni* Vayangandan, *Avazxonni* Xunxordan olib kelib o‘g‘il qiladi. **Avazxon** va **Hasanxon** sher haybatli, yo‘lbars kelbatli, qoplon yurakli, arslon bilakli yigitlar bo‘ladi.

Hasanxon Arzrumdan *xon Dalltni* olib kelib uylanadi va o‘g‘il ko‘radi. Unga *Ravshan* deb ism qo‘yadilar. Avazxonga *Gulqiz* degan suluvni olib berishadi va qizli bo‘ladi, ismini *Gulanor* qo‘yishadi.

Enagalar parvarish qilib boqib, bachalarni tarbiya qilib katta qiladi. Bachalar birdan ikkiga kiradi, ota-ena deguday bo‘ladi... Ikkidan uchga, to‘rtga kiradi, ikkovini bir maktabga beradi. Ikkovi ham o‘qib mulla bo‘ladi.

Gulanor ko‘p suluv: *yaxshi suratli, shirin so‘zli, quralay ko‘zli, uzun bo‘yli, keng ko‘krakli, xush xayol, zehni tez, serfahm qiz edi*. Ravshanbek ham uni ko‘z ostiga olib qo‘yadi.

Ikki asrandi o‘g‘ilni tarbiyalab olgan *Go‘ro‘g‘li* Avazxon bilan Hasanxonni quda qilmoqchi bo‘ladi, bu Ravshanni ham quvontiradi, lekin **bol Avaz**³⁴ rad etadi. Avazning so‘zlarini eshik ortida eshitib turgan *shashti qaytmagan (sovuq shamol yemagan)* Ravshan qattiq xafa bo‘lib, buvisi Yunus pari oldiga borganda, buvisi unga «ovunsin» deb qo‘lidagi uzukni beradi. Ravshan shunday niginga (uzukka) qarasa, niginning yuzida xati bor, yer yuzida jami parini bandiga olgan bandi bor, olam mamlakatiga bermaydigan xosiyati bor; har yerda suluv barno qiz bo‘lsa, oti bor... U uzukdagi go‘zal bir qizning suratini va «*Zulxumor*» degan yozuvni ko‘rib, bu qizga oshiq bo‘lib qoladi.

Ravshan otasining *Jiyrongush* degan tulpor otining oldiga keladi. Jiyrongush ham shunday ot: *to‘rt oyog‘ teng tushgan: biqini yoziq keng tushgan, qarchig‘ayning havosi tekkan*.

Ravshan Jiyrongushga minib, **Shirvon yurtiga** yo‘l oladi:

**Ravshan mindi Jironqushning beliga,
Haybat qilib yigit sog‘-u so‘liga,**

³⁴ **Bol Avaz** – Avazning «asalday shirin» ma’nosini bildiruvchi laqabi.

Otasi Takali Yovmit yurtidan,
Talab qildi, ko‘ring, Shirvon eliga.

Tomosh qing Chambilning shunqorini,
Mindi yigit Jiyronqushday otini,
Yig‘latib otasi – Hasan mardini,
Qon yig‘latib xon Dalliday suluvni,
Ravshan izlar bo‘ldi Shirvon yurtini.

Shahar darvozasi oldida otasini ko‘rib qoladi, chunki otasi oddiy darvozabon bilan do‘st tutingan edi. Otasining savlati bosgani, uyalgani uchun Ravshan Chambildan bosh olib ketayotganini unga aytishga ikkilanadi. “*Yolg‘iz bola yovdan yomon*”, Hasanxon o‘g‘lini uzoq joyga yuborgisi kelmaydi, “*Sen bo‘lmasang, otang holi ne kechar? Sensiz menga falak kafanto‘n bichar...*” deb o‘g‘liga murojaat qiladi, lekin mardligi uchun tavakkal qilib, o‘g‘lining begona yurtlarga ketishiga rozi bo‘ladi.

Ravshan Shirvonga yetib keladi. U Zulxumorni *asov toyga* qiyoslaydi:

**Shunday asov toyday yorni
Qo‘lga keltirsam deb keldim.
Qshiligim shu barnoga
Endi bildirsam deb keldim...**

Ravshanbek Zulxumorning qalpoq tikib, har bozor kuni yigitlarga sotishni rasm qilganini, bozordagi ko‘shkning ustida yuzini ochib “*jamoli chillaning qoriday tingjirab, yaltirab*” o‘tirishini, yigitlar ko‘rmanaga *bir la‘li* tilladan hadya qilib, uni tomosha qilishlarini bilib oladi. O‘sha yurtda Ravshanga bir kampir ona tutinadi.

Ravshan Shirvon bozorini (*dostonda bu bozorning tasviri 145 misradan iborat*) aylanib, ***pichoq va qin bozoridan keyin*** joylashgan qalpoq bozoriga yetadi, Zulxumorning husni jamolidan mast bo‘ladi.

Ravshan kechasi qizlar orqasidan ergashib boradi, bog‘dagi gul tagida pisib o‘tirganidan qo‘rqib ketgan qizlar qiy-chuv qilishib, Zulxumorning yoniga borishadi. Zulxumor ***Oqqiz*** degan kanizini yigit kim, qayerlik ekani, nimaga kelganini so‘rab,

ko'rmanasini olib kelishga yuboradi. Ravshan tillasi yo'qligi uchun Yunus pari bergan sehrli uzukni beradi. Zulxumor unda o'zining ismi va suratini ko'radi. Bir necha kunni Ravshanbek Zulxumor bilan shod-xurram o'tkazadi. Ravshanga ko'p iltifot qilsa-da, uning e'tiborini qozona olmagan **Oqqiz** alamidan Zulxumorning bog'ida o'zbek yigiti Ravshan yashayotganini onasi **Mastonga** aytib beradi. Onasi hamma gapni **Qoraxonga** yetkazadi. Ravshan yosh va tajribasiz, oqko'ngil bo'lganligi uchun band etilib, zindonga tashlanadi. Qoraxon Zulxumorni kanizlari bilan qamab qo'yganda uni qo'riqlash uchun 500 sarboz qo'yadi.

Ravshanga 40 kun muhlat beriladi. Zulxumor undan yashirincha xabar olib turadi va ular **mayna** qushi orqali maktub yo'llashadi. Mayna Chambilga yetadi, avval Hasanxonning tomiga tushadi, nola-fig'on qilib yurgan **Dallini** ko'rib, ayolning Ravshanga ona ekanligini fahmlab, qattiq sayraydi-da, uning qo'liga kelib qo'nadi. Bu paytda 20 kun muhlat qolgan edi.

Hamma voqeadan xabar topgan, Go'ro'g'li tarbiyasini olgan dongdor polvon, sherday haybatli, g'ayratli **Hasanxon** Go'ro'g'lining **G'irko'k (G'iro't)** otida uch oylik yo'lni 20 kunda bosib o'tadi. Dostonda Hasanxonning yo'lda ketish holati quyidagicha aks ettirilgan:

**Qulon¹ yurmas yerlardan,
Quvib o'tib boradi.
Bulon² yurmas yerlardan,
Bo'g'ib o'tib boradi.
Qarsoq³ yurmas yerlardan
Qalqib o'tib boradi.
Bo'ri yurmas yerlardan
Bo'zlab ketib boradi.
Qush uchmagan cho'llardan,
So'na yuzgan ko'llardan,
Odami yo'q yo'llardan,
Dim uchi yo'q cho'llardan,
Tomosha qing, mard Hasan,
Qistab o'tib boradi.**

1-yovvoyi eshak, 2-kiyik, 3-tulkiga o'xshash, lekin undan kichikroq yirtqich hayvon, shevalarda «shag'ol», «chiyabo'ri» deb ataladi.

Ravshanga ona tutingan kampir Ravshanni qutqarishni iltimos qilib, to'rtta kalning kattasi – **Aynoq kalning** yoniga boradi. Aynoq yordam berishlarini aytadi.

Hasanxon Shirvonga yetib keladi. Uni birinchi bo'lib **Jaynoq kal** taniydi va kallarga aytadi. Aynoq bunga ishonmay: "*Hasan mard shunday bo'lsa, G'irko 'k ot – ovozasini olamni tutib yurgan ot; bu ot Ishrat devonaning otidan ham yomon, o'libdimi shunday bo'lsa?*" deb ukasini koyiydi. Tersak uni sinlab, Hasanxon ekanligini aytgach, aka-uka kallar Hasanxonni rosa mehmon qilishadi va ertangi urushning g'amini g'amlab, xotirini jamlab o'tiraveradilar.

Ravshanni dor tagiga olib borishadi va amaldorlar unga qo'yilgan shartlarga ko'nishni aytadilar.

Ravshan dorning tagida amaldorlarga qarata: "*Men o'lmasam, o'z elimdan kechmayman!*" deya eli va dinini muqaddas va daxlsiz, hatto o'z hayotidan azizroq deb biladi. Otasini ko'rib yig'lab yuboradi va "**Mehribonim kelgan ekan ming shukur, Tulporini yelgan ekan, ming shukur...**" degan gaplarni aytadi.

Hasanxon zolim Qoraxon lashkariga qarshi jang qilib, shirvonlik og'a-ini botirlar – **Aynoq** (*polvon, «ot, tuya, arava ko'tarolmas edi. Doim bir yoqqa ko'chirmoqchi bo'lsa, piyoda ketar edi...»*), **Jaynoq** (*masxaraboz, «har tusli bo'la berar edi. Agar birovni aldamoqchi bo'lsa, har tusli bo'lganda o'zining jo'ralari ham tanimas edi»*), **Ersak** (*mergan, «oqshomlari kamonni qo'liga olsa, qushni ko'zidan urar edi»*), **Tersak** (*sinchi, «yilqining tulporini suyagidan tanir edi, qilichning o'tkirini qinidan bilar edi»*)lar ko'magida Qoraxonni yengadi ("*Egnidan sop nayzasin, O'pkasidan o'tkazib, Qoraxonni o'ldirdi...*"), o'g'lini o'limdan qutqaradi. Hasanxon Zulxumorni Ravshanga nikoh qilib beradi, Shirvon shahriga **Aynoqni** podsho, ukalarini vazir, mahram qilib qaytadi).





6-MAVZU. XALQ DOSTONLARI

«KUNTUG‘MISH» dostoni

«Kuntug‘mish» dostoni ham ishqiy-qahramonlik dostonlaridan biridir. Bu dostonning *Ergash Jumanbulbul o‘g‘li, Bekmurod Jo‘raboy o‘g‘li, Nurmon Abduvoy o‘g‘li, Egamberdi Ollamurod* aytgan variantlari bor. Dostonning bosh qahramonlari *Kuntug‘mish* va *Xolbeka* orqali sof sevgi va adolat tantanasiga bo‘lgan ishonch ko‘rsatib berilgan. Asardagi *Qosim qofilaboshi* (u Kuntug‘mishni halokatdan saqlab qolgan), *Xolmo‘min yasovulboshi, Mullavachcha, Zamonqul* va boshqa shu kabi obrazlarsiz Kuntug‘mish va Xolbeka taqdirini to‘laqonli tasavvur qilish mumkin emas. Dostonda *mubolag‘alar, o‘xshatishlar, kinoya* va shu kabi tasvir usullari ko‘p qo‘llangan bo‘lib, u asarning badiiy qimmatini oshirgan. Amaldagi 8-sinf «Adabiyot» darsligida ushbu dostonning *Ergash Jumanbulbul o‘g‘li* dan yozib olingan nusxasi keltirilgan³⁵.

Dostonning qisqacha mazmuni quyidagicha:

«No‘g‘ay podsholaridan *Avliyoyi Qoraxon* degan bor ekan, luqabi *Qilichxon* ekan. Odamlar uni *Avliyo ota* ham der ekan. Uning Kuntug‘mish degan yakka-yu yagona o‘g‘li bor ekan, u 14 yoshgacha ilm-hunar, kasb-kamolot hosil qilib, o‘n to‘rt dan o‘tgandan keyin sipohilik ishlarini o‘rganibdi.

Zangar degan shahar podshosi *Buvraxonning* ikkita vaziri bor edi: *Shoir* vazir va *Tohir* vazir. Ikkovi aka-uka ekan. Kunlardan bir kuni *Shoir* vazir qizli bo‘ladi, ismini *Xolbeka* deb qo‘yadi, *Tohir* vazir o‘g‘illi bo‘lib, ismini *Xolmo‘min* deb qo‘yadi. Xolmo‘minning onasi o‘lib, ikkala farzandni

³⁵ Qarang: S.Olim, S.Ahmedov, R.Qo‘chqorov. Adabiyot (Umumiy o‘rta ta‘lim maktablarining 8-sinfi uchun darslik). – T.: G‘.G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2019. – 13–40-betlar.

Xolbeking onasi emizib katta qiladi, ular emikdosh (ko'kaldosh, shirxo'ra (bir onani emishganlar)) bo'lib qoladilar. Xolbeka o'n to'rt yoshdan o'tgandan so'ng uning husni zeboligini eshitgan podsholar va xonzodalar sovchi qo'yadilar. Xolbeka shart qo'yadi: «*Har kimki meni olaman deb kelsa, nard o'yinni qo'yaman, yutsa tegaman, yutdirsa so'yaman*». Hech kim uni yengolmaydi. Podsho Buvraxon ham sovchi yuboradi, Xolbeka o'z gapida turib oladi. Buvraxon a'yonlarining maslahatiga ko'ra, qizning baxtini bog'lab, «Xolbeka» degan ismni aytishni taqiqlab qo'yadi.

Bir kuni **Xolbeka bir tush ko'radi**: *chiltanlar va mardon g'oyiblar bir tongda suhbat qilib o'tirib edi, bir chiltan kelib, Xolbeking ruhini olib bordi, bittasi kelib Kuntug'mishning ruhini olib bordi. Chiltanlar to'y qilib, Xolbekani to'raga topshirdilar. Kuntug'mish va Xolbeka tushlarida uzuklarini almashadilar. Xolbeka dardini Bahragul degan kaniziga aytadi. Kanizi suratkash olib kelgach, Xolbeka o'z suratini qog'ozga soldirib, bir sandiq tayyorlab, ichini mumlab, sirtini tilla bilan qoplab, o'zining sochidan bir tola soch olib, Kuntug'mishning uzugini o'zining suratiga o'rab, necha arzi hollarini ham arz qilib, sandiqni qulflab, kalitini sandiqqa bog'lab, "Shu ko'rgan tushim rahmoniy bo'lsa..., to'radan boshqaga tegmasin" deya daryoga oqizadi.*

Kuntug'mish qirq yigiti bilan daryoning yoqasida ov qilib yurganda, sandiqni ko'rib qoladi. Yigitlari sandiqning «tishini». Kuntug'mish ichidagini oladi. Kuntug'mish sandiq ichidagini ko'rib, bir ishqiga yuz ishq qo'shiladi, behush yiqiladi. Shahzodaning kasali ishq dardi ekanligini dastlab *qushnoch* biladi. Qoraxon Xolbeking suratini ko'radi: «... bir qiz turibdi qayqayib: qoshini kerib, labini burib, chikka bel bo'lib, shirin qilib kulib, taraqqos boylab, suqsurdan bo'ylab, to'vusday taranib, bellari buralib turibdi». Otasi noiloj javob bergach, Kuntug'mish Xolbeking ishqida **qirq yigitini** olib, xachirlarga mol-dunyo ortib, Zangar sari otlanadi.

Bir bazzoz qiyofasida ko'shk yonida mato sotib o'tirganda Xolbeka o'z kanizlariga bu yigitni saroyga olib kelishlarini buyuradi. Shartga binoan ular nard o'ynashadi va Xolbeka yengiladi.

Podsho Xolbekaga «Har kun tong vaqtidan kichik choshkaga dovur ko'shkiga chiqsin, yuzidan niqobini olsin, olamni tomosha qilsin» – deb aytgan edi. Xolbeka uch kun ko'shkiga chiqmagach, podsho 200 jallod, 400 mirg'azabiga Xolbekadan xabar olishni buyuradi. Qirq ko'shk ichkima-ichki bo'lib, bir tarafi Xolbekaning ko'shki edi. Podshoning mirg'azablari kelayotganidan xabar topgan Kuntug'mish va Xolbeka o'zlarini ko'shkdan tashlab qochadilar, lekin qo'lga tushadilar. Podsho buyurib, bir tuyani so'yib, **tulup** (so'yilgan jonliqning terisini buzmay shilib olish) qilib, ikkovini zich qilib, xom teriga tiqib, bir asov baytalning dumiga bog'lab, bir cho'l-jaziramaga haydab yuboradilar. **Olti kun** deganda ular otdan uzilib, cho'l-jaziramaga tushib qoladilar, bir **quzg'un** bahona balodan qutuladilar.

Alqissa, **Kuntug'mish** issiq qumda oyoqlarini oldirib, suvsizligi g'olib kelib, avvalgi kunlari yodiga tushib, falakdan shikoyat qilib boradi:

**Bir vaqtinda edim No'g'ayning shoyi,
Xizmatimda edi uch lak sipoyi.
Qancha xor aylasang, falak, rizoman,
Bo'ldim endi qultum suvning gadoyi...**

Ular **Mug'oltog'**ga kelishadi. «*Shukur, ajalimiz yetgani yo'q ekan, o'lmay shu tog'ga keldik, albatta, chashmazor suvlar, har alvon mevalar bo'lsa kerak*» deb, shu tog' darasidagi bir chashma bo'yini manzil qiladilar va birga hayot kechirib, egiz o'g'illi bo'ladilar.

Zangarlik bir savdogar **Azbarxo'ja** non beraman deb, Kuntug'mishni ajdarga qarshi yo'llaydi. Kuntug'mish ajdarni o'ldirgach, Azbarxo'ja Qur'oni karimni o'rtaqo'q'ib, Kuntug'mish bilan do'st tutinadi. Xasis, xudbin, razil kishi bo'lgan Azbarxo'ja do'stining xotini Xolbekaning husni jamolini ko'rib, fe'li ayniydi, do'stiga xiyonat qilib, uni mast qiladi va kigizga o'rab, ustidan tosh bostirib, ikki o'g'lini **Zarchaman** cho'lida qoldirib, Xolbekani bandi qilib olib ketadi. O'ziga kelgan Kuntug'mish o'g'illarini olib, ularning izidan borib, **Tajandaryodan** o'tishda bir o'g'lini baliq yutadi, birini bo'ri

olib qochadi. Shahzoda falak kajraftordan shikoyatlar qilib, ichi g'amga to'lib quyidagi so'zlarni aytib yuradi:

**Xonumonim bo'ldi chun barbod dastingdan, falak,
Bo'lmadi g'amgin bu ko'nglim shod dastingdan falak...**

**Otimni Kuntug'mish deydi, men No'g'ayning xoniman,
Dilbaridan ayrilib, men bir ajab sarsoniman,
Oldirib ikki qo'zimni diydayi giryoniman,
Onadan baxti qaro tug'dim, shuning hayroniman,
Dod dastingdan, falak, bedod dastingdan falak!**

Kuntug'mish nima qilarini bilmay yurganda, bir cho'ponga duch keladi. Cho'pon undan "*Yusufmisan Zulayho, Laylimisan Majnun, Zebomisan Yozi, qaydin kelasan?*" deya so'raganda, Kuntug'mish bor kechmishini unga aytib beradi. Cho'pon «Ey bechora», – deb o'tib ketadi. Shahzoda yo'lini ham unutib, quyidagi so'zlarni aytib yuradi:

**Mosuvoday ko'kka uchdim,
Ajal sharobidan ichdim,
Bu dunyo bahridan kechdim,
Qalandar bo'lganim bo'lgan...**

Cho'ponlar bo'ridan qutqarib olgan bolaga *Gurkiboy*, Olim sayyod baliq ichidan topgan bolaga baliqchilar *Mohiboy* deb nom beradilar. Azbarxo'ja (Aldarxo'ja) Xolbekani Buvraxonga olib borgach, podsho uni zindonga tashlab, Xolbekani Xolmo'minga beradi.

Gurkiboy cho'ponlar orasida voyaga yetib, bir kuni o'z taqdiridan voqif bo'ladi va kechasi bilan yig'lab chiqadi. Ertasiga qo'ylarni haydab borib, bir joyda yonboshlab uxlab qoladi. 10 ta bo'ri qoylarni bo'g'izlab tashlaydi, qo'ylarning uchdan biri qoladi. Gurkiboy cho'ponlardan qo'rqib, qochib ketadi.

Mohiboy baliqchilar bergan baliq kabob pulini, ustidagi bir-ikki yupqa ozoda to'nini oshiq o'ynab yutqizib qo'yadi va u ham qochib ketadi. Daryoning bu yog'idan Gurkiboy, u

yogʻidan Mohiboy kelib qoladi. Shunda Gurkiboy Mohiboydan otini aytishni soʻraydi:

**Yaxshilarning yuzin koʻrsang – jannatdir,
Yomon odam qilgan ishi – minnatdir,
Achchigʻlanmay javob bergin, chirogʻim,
Ot soʻramoq, zot soʻramoq sunnatdir.**

Shu tariqa bolalar bir-birini topadilar, Zangar shahriga kirib borishda Xolmoʻmin yasovulboshiga duch keladilar va unga ishlash uchun yollanadilar.

Buvraxon vafot etgach, davlatqush uch marta kelib Kuntugʻmishning boshiga qoʻnadi. Shuning uchun uni oq kigizga chiqarib, podsho qilib koʻtaradilar. Jarchilar «*Zamon kimning zamoni, qalandarxonning zamoni*» deb koʻchalarda jar soladilar. Kuntugʻmish podsho boʻlgach, amaldorlarga jilovxonada bir hafta-bir hafta yashab ketishlarini shart qilib qoʻyadi.

Ona va oʻgʻillar Xolmoʻminning uyida topishadilar. Farzandlar onasining gapiga kirib, shahardan chiqib ketadilar. Ular Zangar shahridan chiqishda *darvozabon qoʻrboshi* bilan janjallashib, uni oʻldirib ketishadi. Yoʻlda Mohiboy (*u «biroz shaddod, biroz quv» edi*) Gurkiboyning gapiga quloq solmay, yilqilarni quvib soladi, choʻponlar bilan jang boʻladi, aka-uka gʻolib chiqishadi. Yilqilarni Noʻgʻay yurtiga haydab ketishadi. Besh kunlik yoʻl yurishgandan soʻng bir joyga borib, horib-chachab uxlab qolishadi. Lashkar kelib, ularni bandi qilib, Zangar shahriga haydab ketadi. Kuntugʻmish bolalardan qilmishi haqida soʻrganida Mohiboy “*Mardlarning parvoyi boʻlmas oʻlimdan...*” deb, haqiqatni aytadi.

Bolalar dorga osilayotganda Xolbeka dorga qarata: «*Haqiqat izlagan senga osildi*”, “*Analhaq deb Mansur senga osildi*”, *Assalomu alaykum, dorning ogʻochi*» deya nola qiladi, bunda u **Bobo Zangi podachiga** murojaat qilib, undan madad soʻraydi. Mohiboyning soʻzlaridan soʻng Kuntugʻmish bolalarini tanib qoladi, bolalar dordan ozod qilinadi, ota-ona va farzandlar topishadilar. Gurkiboy va Mohiboy zindondagi Azbarxoʻjadan qasos oladilar.

Xolmo‘minni Zangarga podsho qilib, Kuntug‘mish ikki bolasi, qoshida Xolbeka yori bilan, qancha xizmatkor, kanizaklari bilan eliga boradi, to‘y-tomosha qilib, murod-maqsadiga yetadi».





7-MAVZU. XALQ DOSTONLARI

«RUSTAMXON» dostoni

«Rustamxon»³⁶ ishqiy-sarguzasht doston hisoblanib, bu dostonni Hodi Zarif 1937-yilda baxshi Fozil Yo‘ldosh o‘g‘li tilidan yozib olgan.

Dostonning qisqacha mazmuni quyidagicha:

Oqtosh viloyatida Sul-tonxon degan o‘tadi. Sul-tonxon uch zaifasining ham tug‘maydigan aybi bor ekan. Bir qancha vaqt o‘tib ularning o‘rtanchasi – Huroyim homilador bo‘ladi.

Sul-tonxon Huroyim yoriga “*Dunyoda «bir qo‘rqan yomon, bir quvongan yomon» degan gap bor. Men quvongandan yuragim yorilib o‘lib qolmayin... oldimga suyunchi deb chiqqan kishiga ayamasdan tanga-tilla berarman, balki qo‘rg‘onbegi qilarman*” deb Qurudum mamlakatiga safarga ketadi va 14 yilda borib kelishini aytadi. Ketish oldidan Sul-tonxon qozikalonlar bilan taxtni kimga topshirishni maslahat qiladi. Qozikalonlar taxtni Huroyimga topshirishni maslahat beradilar. Sul-tonxon taxtni Huroyimga topshirib, o‘g‘il tug‘ilsa, ismini Rustamxon deb qo‘yishini tayinlab, 600 mahrami bilan Qurudum mamlakatiga safarga ketadi va borib joylashadi. O‘sha joydagi amaldorlar Sul-tonxonga borishli-kelishli bo‘ladilar.

Oqtosh mamlakatida Huroyim podsholik qila boshlaydi. Uning **Ximcha degan kanizi** bor edi. Ximcha “*tillari bulbulcha, kimki yaxshi desa, shuncha, ikki yuzi ochilgan gulcha, bellari xipcha, o‘zi suluv oyimcha*” edi. U Huroyimga ko‘mak beradi. Huroyimning ish tutishi ikki kundoshiga yoqmay boraveradi.

³⁶ *Qarang:* A.Rafiyev, N.G‘ulomova. Ona tili va adabiyot (Akademik litsey va kasb-hunar kollejlari uchun darslik). – T.: Sharq, 2013. – 129-143-betlar; B.To‘xliyev, B.Karimov, K.Usmonova. Adabiyot (O‘rta ta‘lim muassasalarining 10-sinfi va o‘rta maxsus, kasb-hunar ta‘limi muassasalarining o‘quvchilari uchun darslik-majmua. -T.: “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, 2017. – 8-26-betlar.

Vaqtı yetib, Huroyim o'g'il tug'adi, otini Rustam qo'yadi. Rustam voyaga yetib, tilga enganda madrasadan bir mulla kelib unga saboq beradi.

Ikki kundosh nima qilarini bilmay, Oqtosh viloyatidagi daftari mastondan uch yuz oltmish maston boshlig'i Momogul mastondan bir qop tilla evaziga Huroyim va uning o'g'lini yo'qotishni iltimos qiladilar.

Momogul maston Huroyim ustidan fitna-g'iybat to'la arznoma yozdihadi, firib bilan Oqtosh ahliga tasdiqlatadi va Sultonxonga olib boradi. Sultonxon g'azab ustida o'zi safardan qaytguncha Huroyimni shahardan haydab, dorga osishga buyuradi. Jallodlar Huroyimni dorga osmoqchi bo'layotganlarida Rustam onasini qutqaradi. Rustam enasini otga mindirib, tozilarini ergashtirib, «*Adashganning oldi yo'l*», deya yo'lga tushadi va ular Hukumu tog'iga borib, shu yerda qo'nim topadilar.

Bir kuni Rustam zarur anjomlar topish uchun yo'lga tushadi va tog' bag'ridagi o'tovni ko'radi.

U yerga qarasa, ikki qo'li orqasiga bog'langan, sochidan uyning keragasi (*o'tovning chetan (to'qima devor)ga o'xshatib ishlangan devori*)ga bog'lab qo'yilgan bir qiz bor ekan: *ajab suratli bir qiz, jamoli kunni xira qilguday, har kim husnini ko'rsa, aqli ketib, otdan yiqilib qolguday*. Rustam hayron bo'lib, «*Shunday odamni ham ovloq bir cho'lda, ko'z ko'rmagan yerda boylab tashlaydigan ham gaplar bor ekan-da! Kel-e, o'ylab turguncha so'ylab bilayin*», deb qizdan gap nimadaligini so'raydi. Qiz shahrini ajdahr olgani, uy boshiga bir qizdan soliq solgani, bugun uning navbati kelganini aytib, Rustamning tez ketishini ta'kidlaydi. Rustam «*Oh ursam to'kilar ko'zimning yoshi, O'limdan qaytarmi, bilgin, mard kishi, Bundan qo'rqib ketmoq nomardning ishi!...*» deya ajdar keladigan tomonni qizdan bilib olib, ajdar bilan to'qnashadi va uni yengadi, «*Ajdahor belgisi*» bir tasma kesib oladi.

Ajdahor zulmidan qutulgan Bujul shahri va uning shohi Rustamni shohlikka ko'taradilar va Oftoboyimni unga to'y qilib olib beradilar. Rustam Bujulda uch kun podsho bo'lib turadi. So'ngra enasi va tozi itlari yoniga qaytadi...

...Huroyimning ikki kundoshi Rustam va Huroyimning tirik ekanligini eshitgach, yana shum kampirni ishga soladilar. Shum kampir Bahra tog'iga kelib, Oqrabotga kiradi. Huroyimni zindonband qilib, uning qiyofasiga kiradi va dev yordami bilan Rustamni o'ldirmoqchi bo'ladi. Qizil dev kampirning o'zini o'ldirib, Rustamni qutqaradi. Rustamni Oftoboyim parvarish qiladi, Huroyimni zindondan qutqaradi. Ular Bahra tog'ida baxtli yashay boshlaydilar. Rustam va Huroyim haqidagi haqiqatni bilgan Sultonxon o'z gunohini yuvish va ulardan afv so'rash ilinjida **qalandar qiyofasiga kirib**, yurt kezadi, qirq qalandarga qo'shiladi, o'g'li va Huroyimni qidiradi, kamxarj bo'lganda, gadoylik qiladi, izlab-izlab ularni Oqrabotdan topadi. U dastlab Oftoboyim bilan uchrashadi, *"Dardim ko'pdir, kim biladi ishimni, Qo'limdan qochirdim olg'ir qushimni..."* deya Oftoboyimga murojaat qiladi. Oftoboyim u kishi Rustamning otasi ekanligini bilib oladi. Sultonxonni Huroyimning oldiga olib boradi, Rustam ovdan kelib, qalandarning boshiga xanjar solmoqchi bo'ladi. Shunda Huroyim Rustamga: *"Tavba qilib o'zi axtarib keldi, Chopib tashlab, bolam, senga ne bo'ldi? «Rustam otasini chopibdi», degan lanqa (ta'na) gapni, qo'zim, o'zingga olma"* – deya uni to'xtatadi. Ular bir qancha vaqt birga bo'lishib, keyin Oqtoshga qaytib borishadi. Ikki kundoshning kirdikorlari oshkora bo'lib, ular o'limga mahkum etiladi. Sultonxon Rustamga podsholikni bermoqchi bo'ladi, lekin u qabul qilmaydi. Shunday qilib, Huroyim ham, Rustamxon ham murod-maqsadiga yetadi.





8-MAVZU. XALQ DOSTONLARI

“GO‘RO‘G‘LINING TUG‘ILISHI” dostoni³⁷

O‘zbek xalq dostonlari orasida «Go‘ro‘g‘li» turkumi katta o‘rin tutadi, uning tarkibida oltmishdan ortiq doston mavjud. «Go‘ro‘g‘lining tug‘ilishi» – shu turkumning ilk dostoni. 11-sinf “Adabiyot” darsligida Muhammad Jomurot o‘g‘li Po‘lkan shoir (1874–1941)dan yozib olingan varianti berilgan.

Dostonda ko‘plab badiiy timsollar: xalq boshliqlari, oddiy fuqarolar, ko‘plab yigitlar, qiz va ayollar zo‘r badiiyat bilan tasvirlangan. Umuman olganda, ushbu doston xalqning qadimiy va boy tarixini, jangovar o‘tmishini, milliy-ma’naviy qadriyatlar mazmuni va mohiyatini yuksak badiiyat bilan ko‘rsatib bera olgan ajoyib badiiy-qomusiy merosdir.

Dostonning qisqacha mazmuni quyidagicha:

Burungi zamonda Yovmit degan el, Taka turkman degan yurt, Mari degan yana bir qo‘rg‘on bor ekan. Yovmit yurti podshosi Odilxonning ikki o‘g‘li bo‘lib, kattasining oti Urayxon, kichkinasining oti Ahmadbek ekan. Uning Bibi Oysha degan qizi ham bo‘lgan ekan.

Mari yurtining Qovishtixon degan xoni bo‘lib, uning To‘liboy sinchi degan o‘g‘li bor ekan. Kunlardan bir kuni Qovishtixon Odilxon podshoning bozorchi savdogarlarini yo‘lda talaydi, molini oldirgan odamlar Odilxon podshoga arz qiladi. Odilxon podshoning achchig‘i kelib, birdan sarboz askar chiqarib, to‘p-to‘pxonasi bilan Mari yurtini teptekis qilib yuboradi, Qovishtixon bekni to‘pga solib otib

³⁷ B.To‘xliyev, B.Karimov, K.Usmonova. Adabiyot (O‘rta ta‘lim muassasalarining 11-sinfi va o‘rta maxsus, kasb-hunar ta‘limi muassasalarining o‘quvchilari uchun darslik-majmua. I qism. - T.: “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, 2018. – 8-51-betlar.

yuboradi. Qovishtixonning yetti yoshli o'g'li – To'liboy sinchini bandi qilib olib keladi, uni gunohsiz bilib, o'z oldiga xizmatkor qiladi. To'liboy o'n to'rtga kirguncha o'qib, xat-savodini chiqaradi, otlarning yaxshi-yomonini biladigan sinchi bo'ladi.

Bir kuni To'liboy sinchining xizmati yoqqanligidan: «Bu ham o'zimning suyagim-da», – deb Odilxon podsho Bibi Oysha qizini unga nikohlab beradi. Ular farzandli bo'lib, otini Ravshanbek qo'yadi. Ravshanbekni besh yoshida maktabga berishadi, 8 yoshida uning xat-savodi chiqadi.

Taka turkman degan yurtida Jig'alixon degan bek bo'lib, uning Gajdumbek degan o'g'li, Bibi Hilol degan qizi bor ekan.

Zargar shahrining Shohdorxon degan podshosi bir kuni ikki yuz guburlarini (amaldorlarini) yig'ib, Yovmit yurti Odilxonni yo'q qilib, mol-mulkini egallamoqchi ekanligini aytadi. Shunda uning vaziri Holmon dastlab elchi yuborish kerakligini aytadi, lekin uning gapiga hech kim quloq solmaydi. Lashkar tortiladi, Shohdorxon ham noibi Subyon deganni o'zining o'rniga o'tqazib, lashkar ortidan ketaveradi. Shohdorxonning lashkari uch oy yo'l yurib, Taka-Yovmit Urganch yurtining Asqar degan tog'iga yetib boradi.

Taka-Yovmit elining o'quvchi bolalari har kuni o'qib, payshanba kuni tushdan keyin dam olishar ekan. To'liboy sinchining o'g'li Ravshanbek katta-kichik mullavachchalarga bosh bo'lib, tog'da sayohat qilmoqchi bo'lishadi. Bolalar birdan lashkarga duch kelib qolishadi. Askarlar ularni bandi qilib, Shohdorxon podshoning huzuriga olib borishadi. Podsho ularga rahm qiladi.

Taka-Yovmit eli mullavachchalarni axtarib, shu tog'ga, qo'shinning ustiga kelib qolishadi. Shohdorxonning qo'shini quvib, ularning yarmini bandi qilib oladi. Qochganlar Odilxon podshoning oldiga boradi. Odilxon podsho kelganlarning kim ekanligini bilib kelish uchun o'zining Taka begi Zamon degan lashkar boshlig'ini bir necha odamlarga qo'shib, elchi qilib yuboradi.

Elchilar Shohdorxon oldiga kelishadi, uning niyatini Odilxonga yetkazishadi. Odilxon ham lashkar to'plab, Asqar

tog'dan oshib, dushmanga qarama-qarshi turib oladi. Ikki taraf podsholari urush taraddudini ko'radilar. Shunda birdan Odilxon podshoning lashkariga Nazar degan kishi boshchiligida ko'p lashkar kelib qo'shiladi. Buni ko'rgan Shohdorxon podshoning rangi o'chadi.

Urush boshlanadi, shu kuni jang to'qqiz soat davom etadi. Odilxon podsho Shohdorxon podshodan g'olib keladi. Shohdorxon podsho Odilxondan muhlat so'raydi va qo'lga tushgan mullavachchalarni qo'yib yuboradi.

Shohdorxonning Hamza degan bir odami Ravshanni o'g'il qilib olmoqchi bo'lib, bir sandiqqa solib qo'yadi. Odilxonning beklaridan Jig'alixonning o'g'li Gajdumbek bilan qizi Bibi Hilol ham bularning ichiga qo'shib, o'lja bo'lib ketadi. Urush tamom bo'lib, podsholar o'z taraflariga qaytadilar. Odilxon Ravshanxon o'lgan deb o'ylab, undan umidini uzadi.

Shohdorxon o'z yurti Zargarga yetib kelgach, ertasiga uning xos xizmatkori Odilxon odamlaridan bir ayol, bir erkak bandi bo'lib kelganini aytadi. Shohdorxon Gajdumbekka yasovul boshliq amalini beradi, Gajdumbek shahardan uzoqroq yerdan sakkiz oshyonlik imorat soladi. Oradan yetti yil o'tib ketadi, Gajdumbekning singlisi Bibi Hilolning bo'yi yetib qoladi.

Hamza Ravshanbekni o'g'il qilib, uni yaxshi parvarish qiladi. Ravshanbek ko'rganlar havasda, ko'rmaganlar armonda, kamsiz, suluv-xushro'y yigit bo'ladi.

Shohdorxon podsho bir kuni yomon tush ko'radi. Shunda qurandoz – munajjimlarini, hukamo-ta'burchilarini yig'ib, tushining ta'birini so'raydi. Yusuf degan bir qurandozi tushining ta'birini aytib beradi, podsho Ravshanbek va Gajdumbekni topib kelishni buyuradi, bu ikkovining qaddi-qomatini ko'rib, o'ldirmoqqa ko'ngli bo'lmay, ularni ozod etadi.

Ravshanbek kunlardan bir kuni ko'chalarda tomosha qilib yurib, yo'li Gajdumbekning ko'chasiga tushib qoladi. Hiloloy sakkiz oshyonlik imoratning yuqorisidan ko'chaga qarab, ko'zi Ravshanga tushadi. Undan hol-ahvol so'raydi. Bibi Hilol Ravshanbekning turkman ekanligini bilib, tashqari ayvonga chiqadi. Ravshanbek Bibi Hilolga qarab, uning go'zalligidan lol qoladi. Qiz uning ismini, zotini, qayerdanligini so'raydi. Ravshanbek barcha bilganlarini aytadi.

Ravshanbek Hamzadan norozi bo'ladi, Hamza uni qul bozoriga olib boradi. Gajdumbek Ravshanbekni ming tanga evaziga sotib olib keladi va Bibi Hilolni Ravshanbekka nikohlab beradi, xazina-dafinasini Ravshanbekka topshirib, xizmat ishlarini buyurib yura beradi.

Gajdumbek bilan Ravshanbek Bibi Hilolni keyin olib ketish o'yi bilan o'z yurtlarini ko'rib kelishga ketishadi. Hamma ularni qochib ketdi deb, Bibi Hilolni o'ldirishmoqchi bo'lishadi. Gajdumbekning Rustambek degan xizmatkori Bibi Hilolni olib ketmoqchi bo'ladi, lekin u ko'nmaydi. Bibi Hilol Xudoga yolbarib, barcha payg'ambarlar, o'tgan azizlarni shafe keltirib, yig'laydi va jon beradi.

Rustambek Bibi Hiloloyini go'riga qo'yib, Gajdumbekning hovlisiga keladi. Gajdumbekdan qolgan barcha hovli-haram, mol-pullarga ega bo'lib qoladi. Rustam Badgir deganning singlisini oladi. Xotinidan bir bola bo'ladi. Otini Qo'ng'irboy qo'yadi.

Go'rda o'lib yotgan Bibi Hilolning o'lganiga uch oy, to'qqiz kun, to'qqiz soat, to'qqiz daqiqa o'tadi. Ravshanbekdan olti oylik gumona qolgan edi. Bibi Hilol o'lgan bo'lsa ham, bolasi o'lmagan ekan. Xudoning rahmati bilan asrovda edi. U tug'ayotganda Momo Havo, Anbar ena, Fotma buvi keladi. Shunda turib yig'ilgan azizlar bolaning otini Go'ro'g'li qo'yadi. Barcha abdal, ovtar, qirq chiltanlar bir-bir olib suydi. Hazrati Xizr ham farzandim deydi. Hiloloyga jon kirmaydi, ammo bolaga sut kelib yotadi. Shunday qilib, oradan uch yil o'tadi...

Rustambek Go'ro'g'lini olib kelib tarbiyalaydi, shu tariqa Go'ro'g'libek pahlavon yigit bo'ladi, Turkman yurtiga jo'nab ketadi.

Go'ro'g'libek Rayhon arabning shahriga yo'l oladi, G'irko'k otini yashinday uchirib, yo'lda qancha sarguzashtlarni boshidan kechirib, Rayhon arabning qizi Xumoroy (laqabi Zaydinoy) ni Xoljuvon yordamida olib qochadi, Rayhon arab uning orqasidan quvadi. Go'ro'g'libek Zaydinoyini olib keladi, uni Ahmadbekka nikohlab beradilar. Ahmadbek o'zida bor bo'lgan barcha amallarni, podsholik va bekklik ishlarini, barcha mol-hol, tanga-zarlarini Go'ro'g'libekka topshiradi. Shunday qilib, barchasi murod-maqsadiga yetadilar.



II BO'LIM

ADABIYOT NAZARIYASI

9-MAVZU.

BADIIY ASAR VA UNING TUZILISHI

Asar arabcha so'z bo'lib, "alomat", "belgi", "nishon" kabi ma'nolarni ifodalaydi. Asar ijodiy mehnat mahsulidir.

Badiiy asarlarda mazmun va shakl uyg'unligi aks etadi. Umuman olganda, mazmun, shakl, g'oya, badiiylik va shu kabilar yaxlitlangandagina badiiy asar vujudga keladi.

Badiiy asar poetikasi

Badiiy asar poetikasi³⁸

deganda asarning tuzilishi, sujet va kompozitsiyasi, til xususiyatlari, hikoya qilish yo'sini, ifoda tarzi, tasvir usullari va vositalari, ohangi va, umuman, uning badiiy olami tushuniladi. «Poetika» so'zi yunoncha bo'lib, «san'at, badiiyat» kabi ma'nolarni anglatadi.

Badiiy asar pafosi

Pafos (yun. «hissiyot»,

«ehtiros», «iztirob») yozuvchini maftun etgan va butun asarga singib ketgan, undagi badiiy tasvirning yo'nalishini belgilab beradigan jo'shqin tuyg'u, g'oya, his-hayajondir³⁹. Pafos adabiy asarda badiiy g'oyaning ehtiros bilan g'oyat ta'sirchan, o'quvchini hayrat va larzaga solar darajada ifoda etilishi bo'lib, adib unda o'z nuqtayi nazari va qarashlarini yashirmaydi. Asar pafosi o'quvchining o'z nuqtayi nazarini aniq belgilab olishga ham ko'mak beradi.

³⁸ N.Karimov va boshq. Adabiyot (Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 11-sinfi uchun darslik). – T.: O'qituvchi, 2004. – 122-bet.

³⁹ Q.Yo'ldoshev va boshq. Adabiyot (Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 9-sinfi uchun darslik). – T.: Yangiyo'l Poligraph service, 2010. – 288-bet.

**Badiiy asar
mavzusi**

ijtimoiy yoki axloqiy muammo bilan birga tugʻiladi.

Badiiy gʻoya

Gʻoya – asarlarning tasvir obʻyekti ustidan chiqarilgan «hukm», yaʼni hayot hodisalari haqida kishilarning tasavvurlari va oʻsha hodisalarga munosabatlarini ifodalagan tafakkurlaridir. **Badiiy gʻoya** badiiy asarda tasvirlangan hodisa, tuygʻu, qahramonlar xarakteri, ruhiyati, xatti-harakati va taqdiridan kelib chiqadigan fikr boʻlib, kitobxon qalbida tugʻilgan his-hayajon, oʻylari, adib oʻz oldiga qoʻygan badiiy niyatning amaliyotdagi samarasidir⁴⁰.

**Badiiy asar
kompozitsiyasi**

Kompozitsiya (lot. «tuzib chiqish, tartibga solish») – badiiy asardagi qismlar, obrazlar va badiiy vositalarning maʼlum bir gʻoyaviy maqsadga xizmat qiladigan tartibda joylashishi, ularning tasvirdagi mezoni va muvofiqligidir.

**Badiiy asar
qahramoni**

Badiiy adabiyotda aks ettirilgan inson obrazi **adabiy asar qahramoni** deb ham yuritiladi⁴¹. Badiiy asar qahramonlari oʻzining tasvir va talqin darajasi, voqealardagi ishtiroki, asarda koʻtaradigan «yuki»ga koʻra **personaj, obraz, tip** degan darajalarga ega boʻladi⁴².

Badiiy asarda ishtirok etuvchi hamma shaxslarga nisbatan **personaj** atamasi qoʻllaniladi. Koʻpincha asardagi epizodik obrazlar **personajlar** deb yuritiladi.

OBRAZ keng maʼnoda ijodkorning fikr-tuygʻulari singdirilgan hayot manzarasi, tor maʼnoda esa badiiy asarda aks ettirilgan inson siymosidir.

⁴⁰ N.Karimov va boshq. Adabiyot (Umumiy oʻrta taʼlim maktablarining 9-sinfi uchun darslik). – T.: Maʼnaviyat, 2002. – 234-bet.

⁴¹ N.Karimov va boshq. Adabiyot (Umumiy oʻrta taʼlim maktablarining 11-sinfi uchun darslik). – T.: Oʻqituvchi, 2004. – 86-bet.

⁴² S.Ahmedov va boshq. Adabiyot (Umumiy oʻrta taʼlim maktablarining 5-sinfi uchun darslik). – T.: Sharq, 2007. – 346-bet.

Badiiy adabiyotda insonning aniq shaxs qiyofasida yaratilgan, ayni paytda badiiy umumlashma xususiyatlarga va hissiy ta'sir kuchiga ega bo'lgan surati **badiiy obraz** deyiladi⁴³.

Obrazlar turli xil bo'ladi:

1. **Realistik obrazlar** – hayot haqiqatiga monand obrazlar.

2. **Romantik obrazlar** – hayotda aynan bo'lmagan, ammo bo'lishi orzu qilingan obrazlar.

3. **Xayoliy-fantastik obrazlar** – haddan tashqari bo'rttirilgan, ilohiylashtirilgan, mo'jizaviy xarakterga ega bo'lgan obrazlar.

4. **Afsonaviy obrazlar** – butunlay xayoliy bo'lib, ular bitmas-tuganmas kuch-qudratga, yuksak fazilatlarga ega bo'ladi.

5. **Ramziy obrazlar** – narsalar, o'simliklar, jonivorlar, ranglar orqali ijtimoiy hodisalarni umumlashtiruvchi obrazlar.

6. **Mifologik obrazlar** – afsonalar asosida yaratilgan asotiriy obrazlar.

7. **Satirik-komik-yumoristik obrazlar** – kulgi bilan tasvirlangan obrazlar.

8. **Bosh obrazlar** – asar voqealari markazida turib, asar ziddiyatining hal etilishida yetakchi rol o'ynaydigan, sujet voqealarini harakatga keltiruvchi, yozuvchi g'oyasini ifodalaydigan obrazlar.

9. **Ikkinchi darajali obrazlar** – asar markazida turmasa ham, biror jihati bilan yozuvchi g'oyasini ifodalaydigan, uni to'ldirishga xizmat qiladigan obrazlar.

10. **Epizodik obrazlar** – voqealar zanjirida bir-ikki o'rindagina qatnashib, keyin tushib qoladigan obrazlar.

11. **Tragik obrazlar** – fojialardagi obrazlar, ular haqiqatan tarixiy shaxs, qadimgi afsona, rivoyat, hikoyalarda tasvirlangan qahramon yoki muallif badiiy tafakkurining mahsuli sifatidagi to'qima obraz ham bo'lishi mumkin. Tragik obraz zamirida hayot haqiqatiga asoslangan badiiy haqiqat yotadi, ular keskin, beayov, murosasiz kurashni boshdan kechiradilar.

XARAKTER (yun. «xususiyat, belgi») obrazning mukammallashgan ko'rinishi, turli xususiyatlari aniq ko'rinib turgan, yakka xususiyatlari kashf etilgan shaklidir. Xarakter

⁴³ Q.Yo'ldoshev va boshq. Adabiyot (Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 7-sinfi uchun darslik-majmua). – T.: Sharq, 2013. – 160-bet.

qahramonning muhim xususiyatlarini aniqlaydigan asosiy belgilar majmuyi hisoblanadi.

Adabiy qahramonga mansub ichki fe'l-atvor, fazilatlar, xususiyatlar birligi; qahramonning fikrlash tarzi, tabiati, his-tuyg'ularining, ma'naviy-axloqiy belgilarning namoyon bo'lishidagi o'ziga xosliklar; badiiy asarda harakat qiluvchi kishining, personajning individualligini ifoda etuvchi shaxs o'zligi estetikada va adabiyot ilmida umumlashtirilgan holda *xarakter* deb yuritiladi⁴⁴.

Abdulla Qahhor xarakter darajasiga olib chiqilgan qahramonni «*Adabiyot uy daftarida bir odamning paydo bo'lishi*» deb baholagan edi.

TIP (*yun. «iz, nusxa, tamg'a; namuna, obraz»*) – xarakterning g'oyat mukammallashtirilgan ko'rinishi, unga mos xususiyatlarni butun to'laligi bilan aks ettiruvchi shaxs obrazi. U muayyan tarixiy sharoitdagi jamiyatning butun bir sinfi yoxud butun bir toifasiga mansub bo'lgan kishilarning tipik xususiyatlarini o'zida mujassamlashtirgan mukammal badiiy obraz hisoblanadi.

PROTOTIP (*yun. «ilk, dastlabki nuqta, nishona»*) – badiiy umumlashtirilgan obraz, tip yaratishga asos, manba bo'lgan, hayoti va xarakteri yozuvchi tomonidan asar qahramoni qiyofasida mujassamlashtirilgan hayotdagi kishi, aniq shaxs.

BADIIY ASAR SUJETI

Sujet (*frans. «narsa, mazmun, mavzu»*) – badiiy asarlarning bevosita mazmunini tashkil etgan, o'zaro bog'langan va rivojlanib boruvchi hayotiy voqealar tizimi. Sujet xarakter bilan voqealar o'rtasidagi munosabatni ifodalaydi. U quyidagi qismlardan tashkil topadi:

1. Ekspozitsiya (*lot. «tushuntirish»*) – sujetning kirish, boshlanish qismi, voqealar yuz beruvchi o'rin-joy, asar qahramonlarining xarakterini shakllantiruvchi ijtimoiy muhit va shart-sharoitlar tasviri.

⁴⁴ N.Karimov va boshq. Adabiyot (Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 11-sinfi uchun darslik). – T.: O'qituvchi, 2004. – 318-bet.

2. **Konflikt** (lot. «ixtilof, to‘qnashuv») – asar sujeti asosida yotgan hayotiy ziddiyat. U dramatismni kuchaytiradi, voqealar rivojiga turtki va keskinlik beradi.

3. **Tugun** – badiiy asarda voqea va qahramonlar o‘rtasidagi ziddiyatning, asosiy voqealarning boshlanishi, badiiy asar sujetida ziddiyatlarning paydo bo‘lishi, boshlanishiga sabab bo‘luvchi voqea. Tugun ekspozitsiyadan o‘sib chiqadi.

4. **Voqea rivoji** – tugundan so‘ng asarda voqealarning kuchayib, keskinlashib borishi.

5. **Kulminatsiya** (lot. «cho‘qqi») – badiiy asardagi voqealar rivojining eng oliy nuqtasi, yuksak cho‘qqisi, ish-harakat va kurashning g‘oyat keskinlashgan o‘rni.

6. **Yechim** – badiiy asar asosida yotgan ziddiyatning hal etilishi, xarakterlar kurashining yakunlanishi.

7. **Epilog** (yun. «so‘nggi so‘z») – asar oxirida qahramonlarning keyingi taqdiri haqida ma‘lumot beruvchi xotima.

BADIIY IJOD USULLARI haqida

Badiiy obraz yaratish usuli, ya‘ni san‘atkorning hayot dalillarini tanlash usuli, badiiy umumlashtirish va badiiy tasvir usuli tamoyillari **badiiy ijod usuli** deyiladi. San‘at va adabiyotda bir necha badiiy ijod usuli bor. Bulardan eng asosiylari quyidagilar:

1. **SENTIMENTALIZM** (frans. «hissiyot, his qilish»). Bu oqim XVIII asr o‘rtalarida Angliyada feodalizm sarqitlariga qarshi kurashni, oddiy kishilarning oliyanobligini, qalbini tasvir markaziga olgan. Sentimentalizm oddiy qahramonlar qismatini har qanday kitobxonni achintiradigan tarzda tasvirlaydi⁴⁵.

2. **SYURREALIZM** (frans. “yuksak realizm”) – Fransiyada XX asr boshlarida vujudga kelgan bo‘lib, bu usul orqali hayot voqea va hodisalarning mohiyati, ichki dunyo murakkab ramz va shakllarda, kutilmagan obrazlarda tasvirlanadi. Bunda fikr va tuyg‘ularning zanjirli, ramzli va murakkab qirralari kashf etiladi.

⁴⁵ Qarang: H.Umurov. Adabiyot qoidalari (Akademik litseylar uchun o‘quv qo‘llanma). – T.: O‘qituvchi, 2002. – 195 – 196-betlar.

3. MODERNIZM (*frans. «yangi, zamonaviy»*). U XX asr boshlarida Yevropada yuzaga kelgan. Modern adabiyotda hayot haqiqatiga rioya qilish muhim hisoblanmaydi. Modern yozuvchilar uchun tasvirning hayotdagiga, borliqdagiga o'xshashi emas, balki odamning ichki olamini, ruhiy kechinmalarini aks ettirishi muhim sanaladi. Bunda deyarli hech narsa o'z oti bilan atalmaydi.

Avstraliyalik adib **Frans Kafka** asarlari modern adabiyotning mumtoz namunalaridir⁴⁶. Modernizm da ruhiy tahlilning «ong oqimi» deb atalgan turi ham paydo bo'lgan.

4. ROMANTIZM – turmushning o'zidan ko'ra ko'proq turmush haqidagi orzularni tasvirlashdir. V.Belinskiy ta'biri bilan aytganda, romantizm “idealga moslab hayotni qayta yaratishdir”.

5. REALIZM – voqealarni haqqoniylik bilan tasvirlash. Realist san'atkorlar hayotning xarakterli tomonlarini topa oladi. Tipik xarakterlarni tipik sharoitlarda haqqoniyat bilan tasvirlash realistik san'atning negizidir. «*Realizm*» lotincha so'z bo'lib, «*moddiy*», «*hayotiy*» degan ma'nolarni anglatadi. Realizm ijodiy oqim sifatida badiiy asarda xarakter va voqealarni o'z ko'rinishida ko'rsatish demakdir. **Realist adiblar quyidagilar:** *U. Shekspir, O. Balzak, L. Tolstoy, F. Dostoyevskiy, M. Sholoxov, A. Qodiriy, Oybek, A. Qahhor* va boshq.

Realizm betinim yangilanib, o'zgarib, yangi xususiyatlar bilan boyib boradigan ijodiy oqimdir. Uning *ma'rifatchilik realizmi, tanqidiy realizm, magik realizm* kabi turlari bor⁴⁷.



⁴⁶ N. Karimov va boshq. Adabiyot (Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 11-sinfi uchun darslik), T.: O'qituvchi, 2004. – 354-bet.

⁴⁷ N. Karimov va boshq. Adabiyot (Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 9-sinfi uchun darslik). – T.: Ma'naviyat, 2002. – 116-bet.



10-MAVZU.

LIRIK TUR (SHE'RIYAT) HAQIDA MA'LUMOT

She'riyat (lirika) – badiiy adabiyotning asosiy turlaridan biri bo'lib, biror hayotiy voqea-hodisa ta'sirida inson qalbida tug'ilgan ruhiy kechinma, fikr va tuyg'ular orqali voqelikni aks ettiradi. **Lirika** so'zi yunoncha bo'lib, «lira jo'rligida kuylash» degan ma'noni anglatadi.

Lirik asarlarda voqelikning inson tuyg'ulariga ta'sirini tasvirlash muhim o'rin tutadi. Obrazlilik, jonlantirish, istiora kabilar shoirona fikr va she'rni shakllantiruvchi badiiy vositalardir.

Lirika mazmun va mohiyatiga ko'ra ikki xil bo'ladi:

1. ***Intim lirika*** (lot. «eng ichki», «yashirin»). Unda shoir o'zining ruhiy kechinmalari va hissiy olamini aks ettiradi.

Misollar: Cho'lponning “Qalandar ishqi”, Fitratning “Go'zalim, bevafo gulistonim...” kabi she'rlari va boshq.

2. ***Ijtimoiy lirika***. Unda real hayotda ro'y bergan voqea va hodisalar tasvirlanadi. Jamiyatdagi adolatsizlik, bosqinchilik, zo'ravonlik, odamlarning beburdligi, riyokorlik, sotqinlik va boshqa shu kabi illatlar ijtimoiy lirikani yuzaga keltiruvchi omillardir.

Misollar: Cho'lponning “Ko'ngil”, “Yong'in”, “Buzilgan o'lkaga”, “Vijdon erki”, “Kishan”, Fitratning “Mirrix yulduziga”, “O'gut” kabi she'rlari va boshq.

Shoirning ichki kechinmalari ifodasi bo'lib, ma'lum bir qolipga solingan, ohang jihatidan ma'lum bir tartibga keltirilgan, his-tuyg'u ifodasi sifatida vujudga kelgan o'lchovli va hayajonli ritmik nutq she'r(nazm) deyiladi.

She'r (ar. «*nazm, poeziya*») ma'lum vazn va qofiyali kichik badiiy asardir⁴⁸. Rus tanqidchisi N.A.Dobrolyubov she'r uchun **uch xususiyat** – *ezgulik, go'zallik, donolik* shart bo'lishini ta'kidlagan edi⁴⁹. Maqsud Shayxzoda esa o'zining «*She'r chin go'zallik singlisi ekan*» she'rida she'riyatni «*ma'rifatdan, hayotga muhabbatdan kam bo'lmagan darajadagi ehtiyoj sanalmog'i darkor*» deb aytgan edi.

She'riy shaklning o'ziga xosligini, ya'ni musiqaviyligi va ohangdorligini ta'minlovchi bir qancha unsurlar bor. Ulardan asosiylari quyidagilardir:

1. **MISRA** (ar. «*eshikning bir tabaqasi*») – bir qator she'r.

2. **BAYT** (ar. «*uy*») – ikki misra she'r.

3. **BAND** (*strofa*) – she'rning muayyan qofiya tartibiga ega bo'lgan, mazmun va ohang jihatidan tugallangan, musiqiylikni yuzaga keltiruvchi yirik ritmik bo'lagi. O'zbek she'riyatida 2 misradan tortib 24 misragacha bandlar mavjud. Masalan, *Omon Matjonning «Bahor nafasi» she'ri 3 misrali band usulida, A.Oripovning «Ayol» she'ri, Muhammad Yusufning «Mehr qolur» she'ri 4 misrali band usulida, Furqatning «Sayding qo'yaber, sayyod...» she'ri 6 misrali band usulida yozilgan va hok.*

4. **RAVIY** (ar. «*yukni tuyaga bog'laydigan arg'amchi*») – qofiya asosini tashkil etgan, tub so'zlarda o'zak oxirida, yasama so'zlarda esa negiz so'ngida keluvchi cho'ziq unli (*qisqa unlilar raviy bo'la olmaydi*) yoxud undosh, ohangdoshlikni hosil qiluvchi tirkak tovushdir. Misollar: *shaydo, paydo, yo qofiyadosh so'zlaridagi «o» unlisi, jonimsan, zabonimsan so'zlaridagi birinchi «n» undoshi, ko'zimdan, yuzimdan, o'zimdan so'zlaridagi «z» tovushi, lola, piyola so'zlaridagi «l» undoshi, banda, xanda so'zlaridagi «d» undoshi, muftalo, oshno, muddao, mosivo so'zlarigadi cho'ziq «o» unlisi raviy hisoblanadi.*

Quyidagi baytda ham qofiyadosh so'zlarning ohangdoshligini ta'minlovchi raviy “n” tovushidir:

⁴⁸ O'zbek tilining izohli lug'ati. 4-jild. – T.: “O'zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, 2008. – 565-bet.

⁴⁹ S. Ahmedov va boshq. Adabiyot (Umumiy o'rta ta'lim maktablarning 5-sinfi uchun darslik). II qism. – T.: Sharq, 2011. – 24-bet.

Azm ayla sabo ul gul-u *xandojimg'a*,
Ne gulki, quyoshdek mohi *tobojimg'a*.

Mumtoz she'r ilmiga ko'ra raviy so'zning asosida bo'lishi talab etilgan. Ba'zan ushbu talabdan chetga chiqish holati ham kuzatiladi⁵⁰. Masalan, Uvaysiyning «*Kun va tun*» chistonida raviy («n» *tovushi*) o'zakda emas, qo'shimchaning tarkibida kelgan:

Ikki mahbubni ko'rdim, bir-birisin ko'rmagan,
Ikkisining o'rtasida, do'stlar qil ham sig'magan.

5. QOFIYA (ar.«*ergashtiruvchi*») – ritmik jihatdan uyushgan nutqda, ya'ni she'riy misralarning muayyan bir o'rnida, ko'proq misra so'ngida so'z, ba'zan esa so'z birikmalarining ohangdosh bo'lib kelishidir.

Misol: *qon, fig'on, osmon* va boshq.

Qofiya she'r tuzilishida, uning musiqiyligini, ohangdorligini va ta'sirchanligini kuchaytirishda katta ahamiyat kasb etadi, she'rning yod olinishini ham osonlashtiradi.

Qofiyaning quyidagicha turlari mavjud:

a) muqavvad qofiva – raviy bilan tugallangan qofiya. Misol:

Ul na gumbazdir eshigi, tuynugidin yo'q *nishon*,
Necha gulgunpo'sh qizlar manzil aylabdur *makon*.

(Uvaysiy)

b) mutlaq qofiva – raviydan keyin harflar kelgan qofiya.

Misol:

Ul nadurkim sabz to'nlik, yoz yog'ochning *boshida*,
Qish yalang'och aylagay barcha xaloyiq *qoshida*.

(Uvaysiy)

Jamoling vasfini qildim *chamanda*,
Qizordi gul uyottin *anjumanda*.

(Atoyi)

⁵⁰ Q.Yo'ldoshev va boshq. Adabiyot (Umumta'lim maktablaring 7-sinfi uchun darslik). – T.: Sharq, 2005. – 259-bet.

**Bukun, ey do'stlar, farzandi *jononimni* sog'indim,
Gado bo'lsam ne ayb, ul shohi *davronimni* sog'indim.**

(Uvaysiy)

d) **to'liq (to'q) qofiya** – bunda qofiyadosh so'zlarning tovush tarkibi to'la mos keladi: «*bahorim – dildorim*», «*so'ralar – mo'ralar*», «*yuragimgacha – suyagimgacha*».

e) **to'liqsiz (och) qofiya** – bunda so'zlarning tovush tarkibi qisman mos keladi: «*dahriy – qahridan*», «*tutun – Alovuddin*» singari.

f) **zulqofiyatayn** (ar.«*qo'sh qofiya keltirish*») – bayt misralarida ikki so'zning qofiyadosh bo'lib kelishi. Misol:

**Ko'zingki, ne *balo qaro* bo'lubtur,
Kim, jonga *qaro balo* bo'lubtur.**

She'riyatda qofiyaning unlilar yoki undoshlar ohangdoshligiga asoslangan turlari ham mavjud.

Quyidagi she'riy parchadagi 1- va 3-misralarda to'liq, 2- va 4-misralarda to'liqsiz qofiya qo'llangan:

**Seni yaxshi bilaman, go'zal,
Petrarkani o'qiganim bor.
Buyuk Rimning Sapposi azal
Xayolimni oshiqday tortar.**

(U.Nosir, «Monolog»)

Qofiyalarning tartibi degan tushuncha ham bor. U she'r bandidagi misralarning o'zaro qofiyalanish tartibini anglatadi⁵¹. She'riy asarlarning qay tarzda qofiyalanishi, ko'pincha, uning *janrini* belgilaydi. Qofiyalanish tartibini ko'rsatish uchun ulifboning kichik harflaridan foydalanish qabul qilingan. **Misol:**

**Andin berikim, qoshimda *yorim* yo'qtur, – a
Hijronida juz nolayi *zorim* yo'qtur, – a
Dasht uzra quyun kibi *qarorim* yo'qtur, – a
Sargashtaligimda *ixtiyorim* yo'qtur. – a**

(A.Navoiy ruboiysi)

⁵¹ S.Olim va boshq. Adabiyot (umumiy o'rta ta'lim maktablarining 8-sinfi uchun darslik-majmua). – T.: G'.G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, "O'zbekiston" nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2010. – 175-bet.

6. RADIF (ar. «otning orqasiga ergashib boruvchi», «izma-iz keluvchi») – qofiyadan soʻng butun sheʼr davomida aynan takrorlanib keluvchi soʻzlar va soʻz birikmalari. Sheʼrda ifodalanayotgan yetakchi fikrni taʼkidlash, oʻquvchi eʼtiborini asosiy gʻoyaga jalb etib, shoirning gʻoyaviy niyatini oʻquvchi qalbiga toʻlaroq yetkazish maqsadida xizmat qiladigan va aynan takrorlanadigan soʻz va soʻzlar birikmasi *radif* deyiladi⁵².

Misollar:

Ashkima gar kanora yoʻq, *boʻlmasa boʻlmasun, netay,*
Ohima ham shumora yoʻq, *boʻlmasa boʻlmasun, netay.*

(Ogahiy)

Sayding qoʻya ber, sayyod, sayyora *ekan mendek,*
Ol domini boʻynidin, bechora *ekan mendek.*
Oʻz yorini topmasdan ovora *ekan mendek,*
Iqboli nigun, baxti ham qora *ekan mendek,*
Hijron oʻtidin jismi koʻp yora *ekan mendek,*
Kuygan jigari-bagʻri sadpora *ekan mendek.*

(Furqat)

Lirikada sheʼr qofiyasi yoki radifining soʻroq bilan tugashi hamisha taʼsirchanlikni – hayajonni, qalamga olinayotgan masala yo voqea-hodisaga hissiy (shaxsiy) munosabatni kuchaytiradi.

7. RITM (zarb) – sheʼriy asarda misralarning bir oʻlchovli, bir hajmli boʻlib kelishi, yaʼni bir xil takrorlanuvchi ohangdir. Uning sheʼriy asarlardagi aniq koʻrinishi yoki sheʼriy nutqni oʻlchaydigan mezon **vazn** deb ataladi.

8. HOJIB (ar. «darvozabon; pardali») – sheʼrda qofiyadosh soʻzlar orasida aynan takrorlanib keladigan soʻz yoxud soʻzlar birikmasi.

Misol:

Biri ulki yuz lutf *erur* zotigʻa,
Ki «Farhod-u Shirin» *erur* otigʻa.

(A.Navoiy, «Xamsa»dan)

**Sheʼriyatdagi ramzlar
va timsollar**

Sheʼriyatda maʼshuqaning tik, chiroyli, adil qaddi **sanuvbarga**, **alifga**, **shamshodga**, sochlari **sunbulga**, koʻzlari **jodu**, **ohuga**,

⁵² A.Hojjahmedov. Sheʼriy sanʼatlar va mumtoz qofiya. – T.: Sharq, 1998. – 156-bet.

qoshlari **kamon**, **yoy**, **mehrob**, **yarim oyga**, kipriklari **o'qqa**, lablari **shahd-u shakkar**, **aqiq**, **obi hayot**, **la'lga**, tishlari **inju**, **marjonga** o'xshatilgan. **Qadni**, **ayriliqdan ezilgan oshiq holatini** dolga (yoyga), **yuzni** oyga, quyoshga, bo'zga, **qizil yuzni** arg'uvonga, **oshiqni** parvonaga, **tiriklik(hayot)ni**, **o'tkinchi dunyoni** rabotga, **yigitlikni** arg'umoqqa, **bilimni** kimyoga, mash'alga, **so'zni** zaharga, shakarga, **ko'ngilni** dengizga, shishaga, **zolim amaldorlarni** bo'riga, **xalqni** qo'yga, podaga va **bekni** qo'ychivon(cho'pon)ga o'xshatish yozma adabiyotda an'anaga aylangan.

She'riyatda **may** – hayot ramzi, **burgut** – mag'rurlik ramzi, **chumoli** – mehnatsevarlik, tirishqoqlik ramzi, **gul** – ma'shuqa ramzi sifatida qo'llanadi.

Mumtoz adabiyotimizda **ko'z** arab alifbosidagi «sod»ga, **qosh** «nun»ga o'xshatiladi. **Mirrix (Mars) sayyorasi** jang-u jadal, payg'ambarlardan **Yusuf** go'zallik (*Beqiyos husn timsoli sifatida tilga olinadigan «Yusuf» nomi g'azal baytlarida asosan Ya'qub nomi bilan birga uchraydi*), **Iso** jon baxsh etish, **Ayyub alayhissalom** sabr-toqatning timsoli bo'lsa, **Kashmir** sehdodning vatani sifatida qaraladi.

Mumtoz she'riyatda asosiy tasvir manbayi **ko'ngil** (qalb, yurak) bo'lib, u «*shisha*», «*ko'za*», «*ayog'*» (*idish*), «*kosa*» kabi timsollar orqali ifodalanadi, «*may*», «*sharob*», «*boda*» so'zlari esa **ishq**, **muhabbat**, **mehrni** ifodalaydi. Ya'qubning ayriliqdagi hayoti she'riyatda «*Bayt ul-hazan*» (g'am uyi) sifatida tilga olinadi.

Devon tuzish an'anasi va tartibi

Sharqda devon tuzish shoirning yetuklik belgisi bo'lgan, shoirlar o'z devonining mazmunder va rang-barang bo'lishiga katta e'tibor qaratganlar. **Devon** (*fors.* «*to'plam*») biror shoir she'rlarining qofiya yoki radiflariga ko'ra alifbo sirasi bilan tartib etilgan to'liq to'plamidir. Devonda g'azallar misradagi oxirgi harflar hisobga olingan holda alifbo bo'yicha joylashtiriladi. Unda arab alifbosi tartibi bo'yicha barcha harflarga tugaydigan g'azallar bo'lishi shart. Bo'lmasa, u devon hisoblanmaydi.

Devonga ko‘pincha birinchi o‘rinda *g‘azallar va qasidalar*, oxirida esa *fard va muammolar* kiritilgan.

Rasmiy mukammal devon tuzishda lirik turga mansub asarlar muayyan tartibda joylashtiriladi, har bir janrga mansub asarlar radifi tugagan harfga binoan qat‘iy alifbo tartibida tiziladi, har bir harf turkumi Alloh, uning payg‘ambari, chahoryor-u boshqa diniy siymo hamda ilohiy tushunchalar madhiga bag‘ishlangan asarlar bilan boshlanadi, bunday devonda maxsus **debocha** (*fors. «zar va durlar qadab tikilgan ipak kiyim», badiiy nasrning o‘ziga xos turi, mumtoz adabiyotda shoirning o‘z devoniga yozgan «so‘z boshi»*) bo‘lib, devon maxsus nomlanadi.

Devonlarga misollar: *A.Navoiy «Badoye’ ul-bidoya», «G‘aroyib us-sig‘ar», Munis «Munis ul-ushshoq», Ogahiy «Ta’viz ul-oshiqin»* va boshq.

She’riy nutq

She’riy nutq – muayyan bir o‘lchov (vazn) asosidagi ritmga, musiqiy jarangga ega bo‘lgan, hissiy jihatdan to‘yintirilgan nutqdir⁵³.

Nasriy (sochma) nutqdan farqli ravishda she’riy (tizma) nutq muayyan ohangga bo‘ysundirilgan bo‘lib, musiqiy jarangi bilan birga insoniy his-tuyg‘ularga ham boy bo‘ladi.

Adabiyotshunoslarning ta’kidlashicha, she’riy nutq o‘zining kelib chiqishi jihatidan nasriy asarlarga nisbatan qadimiyroq hisoblanadi.

Lirik qahramon

Lirik qahramon o‘y-fikri, hishayajonlari va kechinmalari lirik she’rda ifodalangan shaxs obrazidir. Lirik asarlarda shoir o‘zidan boshqa

shaxs yoki shaxslarning umumlashtirilgan obrazini tasvirlashi mumkin. Ayrim lirik she’rlarning qahramoni esa shoirning o‘z obrazi ham bo‘lishi mumkin. Shunday lirik she’rlar ham bo‘ladiki, uning qahramonida shoirga daxldor bo‘lmagan fazilatlar bilan bir qatorda, bevosita uning o‘ziga xos bo‘lgan xislatlar ham ifodasini topadi. Bunday qahramonlar o‘zga shaxs

⁵³ S. Ahmedov va boshq. Adabiyot (Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 6-sinfi uchun darslik-majmua). – T.: Ma’naviyat, 2005. – 69-bet.

ham, shoir shaxsi ham bir obrazda mujassamlashgan lirik qahramon obrazi sanaladi.

Adabiyotshunoslikda lirik qahramon tushunchasi ilk bor rus olimi **Y.N.Tinyanov** tomonidan 1921-yilda qo‘llangan. Lekin bu atama XX asrning 40-yillari oxiridan boshlab keng qo‘llanila boshlangan.

Lirik asarlarda shoirdan boshqa obrazlarning kechinmalarini batafsil tasvirlash imkoni yo‘qligi uchun ham lirikadagi “**raqib**”, “**rind**”, “**soqiy**”, “**ag‘yor**” va yana boshqa timsollar lirik qahramon darajasiga ko‘tarila olmaydi⁵⁴.

Lirik parchalar

Lirik asarlarda shoirning o‘z qahramonlariga bo‘lgan munosabatini ochib beradigan parchalar **lirik parcha** hisoblanadi. Lirik parchalar asarning boshida, o‘rtasida va oxirida kelishi mumkin. Lirik parcha asar yoki epizodning boshida kelsa, **lirik kirish** deb, voqealar davomida kelsa, **lirik chekinish** deb, oxirida kelsa, **lirik xotima** deb ataladi.

Muallif tili yoki nutqi ba‘zan asarda qalamga olingan voqea bayoni bilan bog‘lanmay qoladi, bu o‘rinda muallif voqea bayoni va kishilar xarakterini tasvirlashdan chekinib, o‘zida tug‘ilgan fikr, his va hayajonni lirik ifodalashga beriladi. Mana shu o‘rinlar **lirik chekinish** deyiladi. Masalan, *G‘.G‘ulomning «Sen yetim emassan»* she‘rida lirik chekinish «*Yetimlik nimadir – Bizlardan so‘ra...*» misralari bilan boshlanadi.



⁵⁴ Q.Yo‘ldoshev va boshq. Adabiyot (Umumiy o‘rta ta‘lim maktablarining 9-sinfi uchun darslik). – T.: Yangiyo‘l poligraf servis, 2014. I qism. – 104-bet.



11-MAVZU. SHE'RIY JANRLAR

Har bir adabiy tur o'z janrlariga ega. "*Janr*" fransuzcha so'z bo'lib, «*tur, jins*» degan ma'nolarni bildiradi. Masalan, epik turga *roman, qissa, hikoya*, dramatik turga *tragediya, komediya, drama* kabi janrlar kiradi. She'riy (lirik) turga esa *g'azal, qasida, muxammas, musaddas, sonet, ballada* kabi juda ko'plab janrlar mansub bo'lib, quyida ularning ko'pchiligi bilan tanishasiz.

MUMTOZ ADABIYOTGA XOS SHE'RIY JANRLAR

FARD

Mumtoz she'riyatdagi eng kichik she'r shakli **fard** bo'lib, u o'zaro qo'fiyalanuvchi ikki misradan iborat bo'ladi. Ba'zan ular qo'fiyasiz bo'lishi ham mumkin. Fardlarda turli ichki kechinmalar, tarbiyaviy qarashlar ifodalanadi.

«**Fard**» arabcha so'z bo'lib, «*yakka*», «*yolg'iz*», «*yagona*», «*tanho*», «*boshi ochiq*», «*sheriksiz*», «*benazir*», «*bir kishi*», «*ajralib turadigan*» kabi ma'nolarni bildiradi. Fardning ko'pligini **mufradot** (fardlar) deyishadi.

Fard ayrim yirik asarlarda qissadan hissa tarzida xulosa aytish uchun ham keltiriladi. Masalan, Xorazmiyning "Muhabbatnoma" asari quyidagi fard bilan yakunlangan:

Niyozim bu turar sendin, nigoro,
Unutma bandani, bahri xudoro.

Fardning qo'fiyalanishi: *a-a* yoki *a-b*.

Misollar:

**Bu gulshan ichra yo'qtur baqo guliga sabot, – a
Ajab saodat erur, yaxshilik bila chiqsa ot. – a**

(A.Navoiy)

* * *

**Kishi aybing desa, dam urmag'ilkim¹, ul erur ko'zgu, – a
Chu ko'zgu tiyra² bo'ldi, o'zga aybing zohir aylarmu?! – a**

(A.Navoiy)

1 – nafas urmagin, ya'ni indamay qo'ya qol; 2 – xira.

QIT'A

Juft misralari qofiyalanib, toq misralari ochiq qoladigan, ijtimoiy-siyosiy, falsafiy, odob-axloq mavzularidagi she'r qit'adir. U ikki baytdan 20-30 baytgacha hajmda bo'lishi mumkin. Ko'pincha to'rt misra (ikki bayt)dan tashkil topadi.

«Qit'a» arabcha so'z bo'lib, «kesik», «qism», «bo'lak», «parcha» degan ma'nolarni bildiradi. Uni matla'si yo'q g'azalga o'xshatish mumkin. Bu janrdagi aruzning hamma vaznlari qo'llaniladi, u g'azalning o'rtadagi bir necha baytini yulib olinganga o'xshaydi.

A.Navoiy turkiy tilda 300 dan ortiq qit'a yozgan. Shulardan 210 tasi «Xazoyin ul-maoniy» kulliyotida joylashgan.

Qit'a ikki xil bo'ladi: birinchi xili mustaqil asar shaklida, ikkinchi xili esa g'azal, qasida, tarje'band kabi boshqa janrdagi she'rlar tarkibidan ajratib olish tarzida.

Qofiyalanishi: *b – a, d – a.*

Misollar:

Chun g'araz so'zdin erur ma'ni ango, – b

Noqil o'lsa xoh xotun, xoh er. – a

So'zchi holin boqma, boq so'z holini, – d

Ko'rma kim der oni, ko'rgil kim ne der. – a

Bu qit'a so'zlash madaniyati haqida bo'lib, Navoiy qalamiga mansubdir.

Kamol et kasbkim, olam uyidin,

Sanga farz o'lmag'ay g'amnok chiqmoq.

Jahondin notamom o'tmak biaynih,

Erur hammomdin nopok chiqmoq.

(A.Navoiy)

MASNAVIY

Masnaviy dastlab o'zaro qofiyalanuvchi ikki misradan iborat she'riy shakl bo'lgan. Keyinchalik usulga aylangan. Masnaviy usuli voqea va hodisalarni epik ko'lamda aks ettirishga imkon bergani uchun ham *doston*lar ko'pincha shu yo'l bilan yoziladi. Bundan tashqari *qasida*, *she'riy noma* va boshqa turdagi asarlar ham masnaviy shaklida yaratilishi mumkin.

«*Masnaviy*» so'zi arabcha bo'lib, «*ikkilik*», «*juft*» degan ma'nolarni bildiradi. Masnaviy o'rta asr mumtoz adabiyotimizda eng ko'p qo'llangan. Bu usulda yozilgan asarlarga misol qilib quyidagilarni keltirish mumkin: «*Xamsa*»lar, *M.Solih* «*Shayboniyнома*», *Muqimiy* «*Tanobchilar*», *Furqat* «*Ilm xosiyati*» va hok.

Masnaviyini «*doston*» ham deyishadi. A.Navoiy masnaviy janrini «*vasye (keng) maydon*» deb ta'riflagan.

Masnaviyning qofiyalanishi: *a-a, b-b, d-d...*

Fors tilidagi masnaviyning ilk yirik namunasi *Firdavsiyning* «*Shohnoma*»si bo'lib, o'zbek adabiyotidagi dastlabki masnaviy yo'li bilan yaratilib, bizgacha to'la holda saqlangan asar esa *Yusuf Xos Hojibning* «*Qutadg'u bilig*» dostonidir.

Masnaviyga misol:

...Nedur ahvoling, ey zori g'aribim, – a
Visolim davlatidin benasibim? – a

Chekardin g'am tog'in holing nechukdur? – b
Bu yukdin jismi chun noling¹ nechukdir?... – b

(*A. Navoiy, Shirinning Farhodga maktubidan*)

¹Nol – qamish qalam ichidagi ingichka tomir, qiltiriq.

G'AZAL

Mumtoz she'riyatda har bir ijodkorning maqomi, o'rni, davrug'i uning g'azalchilikdagi mahorat darajasi bilan belgilangan.

G'azal arabcha so'z bo'lib, uning ma'nosi «*oshiqona so'z*» yoki «*xotin-qizlar bilan yoqimli muomalada bo'lish*» demakdir. G'azal atamasi dastlab VI–VII asrlarda arab she'riyatida

paydo bo‘lib, X asrda fors adabiyotiga, XIV asr boshlarida turkiy adabiyotga kirib kelgan. Uning turkiy tildagi dastlabki namunalarini *Xorazmiy* va *Rabg‘uziy* yaratgan. Turkiy adabiyotda g‘azalning ilk namunasi «*Qisasi Rabg‘uziy*» asarida uchraydi.

G‘azal adabiy atama sifatida aruz vaznida ishq-muhabbat haqida yozilgan, *a-a, b-a, d-a, e-a,...* tarzida qofiyalanadigan, matla’ va maqta’ga ega bo‘lgan she’rni anglatadi⁵⁵.

Ilmiy adabiyotlarda g‘azallar hajmi o‘rtacha 3 baytdan 19 baytgacha bo‘lishi qayd etilgan. O‘zbek adabiyotida 5 baytdan 21 baytgacha bo‘lgan g‘azal namunalari bor.

G‘azalning birinchi bayti *matla’* (*mabda’*, ar.«*boshlanma, chiqish*») deb atalib, undagi misralar o‘zaro qofiyalanadi (a-a), qolgan baytlardagi juft misralar matla’ga qofiyadosh bo‘ladi. Ba’zan g‘azalning ikkinchi bayti ham o‘zaro qofiyalanishi (a-a, a-a) mumkin, bunga g‘azalning pardozi sifatida *husni matla’* yoki *zebi matla’* deyiladi. Agar g‘azalning barcha baytlari o‘zaro qofiyalangan bo‘lsa (*a-a, a-a, a-a, a-a, ...*), u *g‘azali zeb qofiya* deb, g‘azalda ichki qofiyalar bo‘lsa, *g‘azali musajja’* deb ataladi.

G‘azalning oxirgi bayti *maqta’* (ar.«*tugallanma, kesilish*») deb atalib, unda shoirning adabiy taxallusi keltiriladi.

G‘azalga misol:

Matla’	{	Ul sanamkim, suv yaqosinda paritek o‘lturur,	– a
		G‘oyati nozuklukindin suv bila yutsa bo‘lur.	– a
		To magarkim, Salsabil obina javlone qila,	– b
		Keldi jannat ravzasindin obi kavsar sori hur.	– a
		Ul ilikkim suvdin orig‘tur, yumas oni suda,	– d
		Balki suvni pok bo‘lsun deb ilik birla yuyur.	– a
		Emdi bildim rost ermish, balki ko‘rdim ko‘z bila,	– e
		Ulki derlar, suv qizi goh-goh ko‘zga korinur.	– a
Maqta’	{	Qoshlaring yosin Atoiy ko‘rgali husn ichra toq,	– f
		Subhidam mehroblarda surayi Yosin o‘qur.	– a

(*Atoiy*)

⁵⁵ B.Qosimov va boshq. Adabiyot (10-sinf uchun darslik). – T.: O‘qituvchi, 2004. – 135-bet.

G'azallar g'oyasi va mavzusiga ko'ra *oshiqona, orifona, rindona* (mumtoz she'riyatda may ta'rifida kelgan g'azallar), *hajviy, yumoristik, axloqiy, ta'limiy, publitsistik, ijtimoiy-ma'rifiy* va *tabiat tasviriga bag'ishlangan* bo'lishi mumkin.

G'azallarda ko'pincha **2 ta markaz** bo'lgan: *biri* – lirik qahramonning ahvoli, *ikkinchisi* – *ma'shuqa ta'rifi*. Barcha obraz va ifodalar shu ikki markazga kelib tutashgan. Ishqiy g'azallarda *ma'shuqa, oshiq* va *raqib* obrazlari asosiy obraz hisoblanadi. *Ma'shuqa* – ishqqa sabab bo'lgan, oshiq ko'nglini rom etgan go'zal yor, uning go'zalligi chiroyli tashbehlar bilan ifodalanadi. Sharq she'riyatida **nozikklik** go'zallikning muhim belgisi sanalgan. *Oshiq* – ishqqa muhtalo bo'lgan, o'zini unutgan kishi. U raqibga o'zining nafratini ochiq bayon etadi, oshiqlik timsollari bo'lmish *bulbul, Majnun, Farhod, Vomiq* obrazlariga o'xshatiladi. *Raqib* – ma'shuqaning vasliga da'vogar bo'lgan boshqa bir oshiq. Bu obraz *g'ayr, ag'yor, o'zga* nomlari bilan ham yuritiladi. Tasavvuf adabiyotida yuqoridagi obrazlar yangicha ma'no kasb etadi: **ma'shuqa**(yor) – Alloh yoki payg'ambar yoxud pir (ustoz), do'st ma'nosida, **oshiq** – Allohga ruhan yaqinlashishga intilayotgan inson, so'fiy banda; **raqib** esa nafs, dunyo ma'nolarida keladi⁵⁶.

Sharq mumtoz adabiyotining g'azal shakli Yevropa adabiyotida ham shunday shakllar paydo bo'lishiga turtki bo'lgan.

NAZARIY MA'LUMOT

Begona bayt

Mumtoz she'riyatimizda «**begona bayt**» degan tushuncha bo'lib, u maqta'dan oldingi baytni bildiradi. Shoir Abdulla Oripov aytganidek, «*bu baytda shoir kimni maqtagisi kelsa maqtaydi, kimni yomon ko'rsa, undan alamini oladi, g'azal umumyo'nalishiga u qadar bo'g'lanmaydiganroq gapi bo'lsa ham, shu yerda aytib qoladi*».⁵⁷

⁵⁶ Q.Yo'ldoshev va boshq. Adabiyot (Umumta'lim maktablarining 7-sinfi uchun darslik). – T.: Sharq, 2005. – 165–167-betlar.

⁵⁷ S.Olim va boshq. Adabiyot (Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 8-sinfi uchun

TUYUQ

Bevosita turkiy adabiyotda shakllangan, qat'iy ramali musaddasi maqsur (*foilotun, foilotun, foilon(foilun)*) vaznida

yoziladigan, to'rt misradan iborat bo'lgan, misra oxirida radiflar omonim so'zlardan iborat bo'lgan she'r tuyuq deyiladi. U adabiy atama sifatida XIV asrdan boshlab qo'llangan bo'lib, faqat turkiy she'riyatga xos janrdir.

Bu janr so'z o'yiniga tayanadi, u tajnisni qofiya qilib keltirish asosida yaratiladi. «**Tuyuq**» sof turkcha so'z bo'lib, «*tuymoq*» (*bog'lamoq*), «*yechilmaydigan qilib tuymoq*», «*chigallashtirmoq*» kabi ma'nolarni anglatadi. A.Navoiy tuyuqni «*turk shuárosining xossasi*» deb ta'kidlagan va o'zining «*Mezon ul-avzon*» asarida quyidagicha ta'rif bergan: «*Birisi tuyug'dir kim, ikki baytqa muqarrardur va sa'y qilurlarkim, tajnis aytilg'ay va ul vazn ramali musaddasi maqsurdur...*».

Tajnis – jinsdosh shakldosh so'zdir. U asosan, qofiya yo radif o'rnida kelgan. Navoiy qaydiga ko'ra, tuyuqlar asosan tajnisli bo'ladi. Lekin tajnissizi ham uchraydi. Bobur tuyuqning bir necha turlari borligi haqida «*tuyuq bir necha na'vdur...*» deya tajnisli tuyuqlarning 6 xilini ko'rsatib o'tgan.

Tuyuq janriga qo'yiladigan talablar asosan quyidagilar:

1. 4 misradan iborat bo'ladi.
2. Ruboiy kabi qofiyalanadi.
3. Ramali musaddasi maqsur vaznida bo'ladi.
4. Qofiyalari tajnisli bo'ladi.

Turkiy yozma adabiyotda dastlabki tuyuq namunalarini Yusuf Xos Hojib yaratgan. A.Navoiy 13 ta, Bobur 17 ta, Lutfiy 70 ta, Ogahiy 8 ta, Habibiy 9 ta tuyuq yozgan va hok.

Tuyuqning qofiyalanishi: *a-a-a-a* yoki *a-a-b-a*.

Misollar:

Tajnissiz tuyuq:

Yo'qturur nozingdin ozore manga,
Noz agar qilsang manga matlubdir.
Xoh ko'rsat lutf-u xohi javr qil,
Har ne voqe' bo'lsa sendin xo'bdur.

(Z.M.Bobur)

Tajnisli tuyuq:

Tig'i ishqing yorasidur butmagan¹ – a
Dardini har kimga aytib butmagan² – a
Hajr sahrosidur ohim o'tidin – b
Anda gul yoxud gyohe butmagan³ – a

(A.Navoiy)

1 – bitmagan; 2 – tugatmagan; 3 – unmagani, o'smagan.

Ba'zida tuyuqlar *a-b-d-b* shaklida ham qofiyalanishi mumkin:

Ul pari ishqida bu devonani,
Eyki, istarsen, kelib gulxanda ko'r.
Bir qadah ul gulni xandon ayladi,
Ey ko'ngul, nazzora qil, gulxanda ko'r.

(A.Navoiy)

Tuvuqlarga boshqa misollar:

Kechti umr-u, tushmadi ul yor ila¹,
Qo'rqaram ko'nglum bu g'amdin yorila².
Bu vafosizliqki, sendin ko'rmisham,
E'tiqodim qolmadi hech yor ila³.

(A.Navoiy)

1 – yor (sevgili bilan); 2 – yoriladi; 3 – do'st bilan.

Raxshi himmat men tutib mahkam yolin¹,
Yor izidin yet, karam qil, deb yolin².
Yo'q-u borimni yoqib kul ayladi,
Ishq o'tidin ko'kka chirmoshg'on yolin³.

(Munis)

1 – otni yoli; 2 – yalinmoq; 3 – yolqin, olov.

Men sening ilkingdin, ey dil, bandamen¹,
Vah, qachon yetkaymen ul dilbanda men².
Bevafolarg'a meni qilding asir,
Sen menga sultonsen, ey dil, banda men³.

(Lutfiy)

1 – yurak, (men) bandaman (bog'lanib qolganman); 2 – dilbandga men;
3 – yurak, banda men (man).

Charxi kajraftor elidin yozamen¹,
Chiqmadim hijron qishidin yoza men².
Bir meni yorliq bila yod etmas ul,
Har necha ul shahg'a qulluq yozamen³.

(Lutfiy)

1 – yozg'iramen (shikoyat qilaman); 2 – yozga men; 3 – yozamen (bitaman).

**Qomatimni necha qoshing yo qila¹,
Necha hajr o'ti jonimda yoqila².
G'amza birla to'kti qonim ul sanam,
To hinotek qon elina yoqila³.**

(Lutfiy)

1 – yoy (kamon) qiladi; 2 – yoqiladi; 3 – surtiladi.

**Qoshlaring xush lojuvard-u toq erur¹,
Xush ichinda benazir-u toq erur².
Torta olmasman firoqing, netayin,
Qilcha tanga bori ishqing toq erur³.**

(Lutfiy)

1 – toqdir (yolg'izdir); 2 – yakka-yu yagonadir; 3 – (toqatim) toqdir.

**Vasldin so'z derga yo'q yoro¹ manga,
Hajr aro rahm aylagil, yoro², manga.
O'qung etti ko'p yamon yoro³ manga,
Marhami lutfung bila yoro⁴ manga.**

(Z.M.Bobur)

1 – mador, quvvat; 2 – ey yor; 3 – yara, jarohat; 4 – yordam ber

RUBOIY

O'zbek mumtoz adabiyotida keng qo'llanib kelingan, hazaj bahrining axram va axrab shajaralaridagi 24 ta vazndagina yoziladigan, to'rt misradan iborat ishqiyy, axloqiy, falsafiy, ijtimoiy-siyosiy mavzulardagi she'r **ruboiy** hisoblanadi. «**Ruboiy**» atamasi arabcha bo'lib, «to'rttadan», «to'rtlik» ma'nolarini bildiradi. Forsiyalarda «**dubaytiy**» (ikki baytli) deb ham atalgan. Bu janr dastlab forsiy (Rudakiy, Shahid Balxiy) va turkiy (Lutfiy) she'riyatda vujudga kelgan.

Alisher Navoiyning «Xazoyin ul-maoniy» kulliyotida (o'zbekcha ruboiylari "G'aroyib us-sig'ar"ga kiritilgan, "Debocha"da 30 ta ruboiy keltirilgan) **133 ta** ruboiy bor. Navoiy jami o'zbek tilida 500 ga yaqin, forsiy tilda 100 ga yaqin ruboiy yozgan.

Ruboiylar 2 xil bo'ladi:

1. Xosa ruboiylar. Qofiyalanishi: *a-a-b-a*.

2. Taronayi ruboiylar. Qofiyalanishi: *a-a-a-a*.

Misollar:

Xosa ruboiy:

G'urbatda¹ g'arib² shodmon bo'lmas emish, – a

El anga shafiq-u³ mehribon bo'lmas emish. – a

Oltun qafas ichra gar qizil gul butsa, – b

Bulbulg'a tikondek oshyon bo'lmas emish. – a

(A.Navoiy)

1 – musofirlik; 2 – bechora, musofir; 3 – shafqatli, marhamatli.

Taronayi ruboiy:

Ko'z bila qoshing yaxshi, qabog'ing yaxshi, – a

Yuz bila so'zing yaxshi, dudog'ing yaxshi. – a

Iying birla menging yaxshi, saqog'ing yaxshi, – a

Bir - bir ne deyin boshdin ayog'ing yaxshi. – a

(A.Navoiy)

MUSTAZOD

Mustazod (ar. «orttirilgan»)

g'azalga monand she'r misralaridan har biriga yana yarim misra orttiriladigan, har qatori bir yarim g'azal misrasiga teng keladigan she'rdir. A.Navoiy «Mezon ul-avzon» asarida mustazodni «*qo'shiq*» deb atagan va quyidagicha ta'rif bergan: «*Va yana xalq orasida bir surud bor ekandurkim, hazaji musammani axrabi makfufi mahzuf vaznida anga bayt bog'lab bitib, aning misrasidin so'ngra hamul bahrning ikki rukni bila ado qilib, surud nag'amotig'a keltururlar ermish va ani mustazod derlar emish...*».

Mustazod xuddi g'azal kabi qofiyalanadi: *a-a, b-a, d-a, e-a, ...*

O'zbek adabiyotida Ogahiyga nisbatan «*mukammal mustazod kashfiyotchisi*» degan ta'rif qo'llashadi. Chunki u mustazoddagi yarimta misrani juftlashtirgan.

Misollar:

Ey yor, sango ushbu jahon bog'i aro gul

Bir oshiq hayron,

Diydoringga shaydo.

**Bir sheftadur kokuli mushkinga sunbul,
Ham holi parishon
Ham boshida savdo...**

(Ogahiy)

**Din ofati ul mug'bachayi mahliqodur,
Mayxora-yu bebok.
Kim ishqidin oning vatanim dayru fanodur,
Sarmast-u yaqom chok...**

(Navoiy)

**Bul xasta vujudimni meni o'rtadi butkul,
Ul zulfi parishon,
U gul yuzining ishqida men volau bulbul,
Ul g'unchai xandon...**

(Mashrab)





12-MAVZU. SHE'RIY JANRLAR (Davomi)

MUAMMO

Muammo (ar.«a'mo» – «berkitilgan», «ko'r qilingan», «yashirilgan») bir bayt, ba'zan ikki-uch baytdan iborat bo'lgan, arab harflari orqali biron narsani yashirishga suyangan ta'kid yoki ishora asosida yozilgan topishmoq-she'rdir. Agar she'riy bayt boshdan-oxir shu asosga qurilgan va tugallangan bo'lsa, u holda **muammo** deyiladi. Shunchaki baytlar orasida kelsa, she'riy vosita, poetik san'at (usul) deb qaraladi.

Qofiyalanishi: *a-a* yoki *a-b* yoki *a-a, b-a*.

Muammo XV asrda keng tarqalgan, bunda yashirilgan so'z shoirning imo-ishoralari asosida topiladi. Mumtoz adabiyotda muammo zehn va idrokni sinash vositasi ham hisoblangan.

Alisher Navoiy **500 ga yaqin** muammo yozgan bo'lib, «Xazoyin ul-maoniy» kulliyotida 52 ta muammo bor. Boburning **600 ga yaqin** muammosi yetib kelgan.

Muammo, ko'pincha, ikki ma'no asosiga quriladi: *birinchisi – tashqi, chalg'ituvchi ma'no, ikkinchisi – ichki, asosiy ma'no.*

Misol:

*Firoqu rashqu hajru oh ila dard,
Biror harf ibtidodin aylabon fard.*

*(A.Navoiy «Farhod va Shirin»,
Farhod ismi yashirilgan)*

**Xast dar silsilayi xoqoniy,
Muhrdoreki nadorad soniy.**

(Zayniddin Vosify)

(Bu baytda muammo qoidasiga ko'ra, ikkinchi harfning tushirilishi haqida ishora qilinyapti. Arab yozuvida «muhrdor» so'zining ikkinchi harfi «h» hisoblanadi. U tushib qolsa, «muhrdor» so'zi «murdor»ga aylanadi. Bunda baytning ma'nosi quyidagicha bo'ladi: «Xoqoniyalar

silsilasida (podshohlik tarixida) shunday bir muhrdor borki, ikkinchi unday murdorni topa olmaysiz»⁵⁸.)

CHISTON

Biror narsa yoki hodisaning o'ziga xos xususiyatlari va belgilarini ta'riflash orqali o'sha narsa yoki hodisani topishga undaydigan topishmoq-she'r **chiston** sanaladi. «**Chiston**» forscha «*chist on?*» so'zidan olingan bo'lib, «*nima u?*» degan ma'noni beradi. Uning hajmi cheklanmagan, lekin ko'pincha ikki yoki to'rt misra bo'ladi. Adabiyotda «**lug'z**» (ar. «*yashirin ma'noli gap*») nomi bilan ataladi.

Turkiy adabiyotda ilk chistonlar XV asrda A.Navoiy tomonidan yaratilgan. Navoiy 10 ta lug'z yaratgan. *Qalam, tanga, igna, miqroz, o'q, anor, bel, yumurtqa, poki, parvona* kabi bu lug'zlar dastlab «Badoye' ul-bidoya» devoniga joylashtirilgan, keyin esa «Xazoyin ul-maoniy»ning «Badoye' ul-vasat» devoniga ko'chirilib, «**chistonlar**» sarlavhasi bilan berilgan.

Shoira Jahon Otin Uvaysiy bu janrda barakali ijod qilgan. Uning quyidagi chistonlari diqqatga sazovordir:

«Anor»

Ul na gumbazdur: eshigi, tuynugidin yo'q **nishon**, – a
Necha gulgunpo'sh qizlar manzil aylabdur **makon**. – a
Sindurub gumbazni, qizlar holidin olsam xabar, – b
Yuzlarida parda tortig'liq, turarlar bag'ri **qon**. – a

«Yong'oq»

Ul nadurkim, sabzto'nlik, yoz yog'ochning boshida,
Qish yalang'och aylagay barcha xaloyiq qoshida.
Barcha qushlarning so'ngoki ichida,
Ul na qushdurkim, so'ngoki toshida.

«Kun va tun»

Ikki mahubni ko'rdum, bir-birisin ko'rmagan,
Ikkisining o'rtasiga, do'stlar, qil sig'magan.

⁵⁸ B.Qosimov va boshq. Adabiyot (10-sinf uchun darslik). – T.: O'qituvchi, 2004. – 126-bet.

Chistonlar ikki xil bo'ladi: **majoziy chistonlar** («Anor») hamda **oddiy chistonlar** («Yong'oq», «Kun va tun»).

NOMA

Noma (fors. «*xat, maktub*»)

Sharq adabiyotida she'riy maktub tarzida yaratilgan asarlarning bir turi.

Noma o'zbek mumtoz adabiyotida

dastlab g'azal shaklida paydo bo'lib, oshiqning ma'shuqaga yozgan she'riy maktubidan iborat bo'lgan. Keyingi davrlarda biror tarixiy shaxs yoki badiiy asar qahramoni bilan bog'liq voqealarning she'riy va nasriy tasviri **noma** deb yuritilgan. Ayrim badiiy asarlarning nomlaridagi «**noma**» so'zi («*Boburnoma*», «*Xumoyunnoma*») maktub ma'nosini yoki «noma» janrini emas, balki o'sha shaxs haqidagi tarixiy asar ma'nosini bildiradi.

Noma badiiy asar sifatida birinchi bo'lib **Firdavsiy** ijodida paydo bo'lgan. Bu turdagi asarlar, o'z navbatida, doston janrining tug'ilishi va shakllanishida poydevor vazifasini bajargan. O'zbek mumtoz adabiyotidagi noma janrining birinchi namunasi XIV asrda yashab ijod etgan *Xorazmiyning «Muhabbatnoma»* asaridir. Yana noma janrida *Xo'jandiyning «Latofatnoma»*si, *Yusuf Amiriyning «Dahnoma»*si, *Said Ahmadning «Taashshuqnoma»*si, *Said Qosimiyning «Haqiqatnoma»* va «*Sadoqatnoma»*si va boshqa shu kabi asarlar bitilgan.

QASIDA

Shohlar, amirlar, mashhur

kishilar, tarixiy voqealarga bag'ishlangan maqtovli va dabdabali xarakterga ega bo'lgan she'rga

qasida deyiladi. Uning baytlar miqdori cheklanmaydi. «**Qasida**» arabcha «*qasd*» so'zidan olingan bo'lib, «*maqsad*», «*niyat*», «*biror ishga qasd qilish*» kabi ma'nolarni bildiradi. Qasidaning umumiy hajmi 15-20 baytdan kam bo'lmaydi.

Qasidaning «**qo'nug'**» deb atalgan dastlabki namunalarini Mahmud Koshg'ariy o'z asarida keltirgan. Mumtoz adabiyotimizdagi qasidalarining asosiy qismi aruz vaznida bitilgan bo'lib, ular 12 baytdan bir necha yuz baytgacha

hajmdadir. Qasida voqelikni aks ettirish usuli, xarakteri va mazmuniga ko'ra turlicha bo'ladi. O'zbek adabiyotida turli hukmdorlar, yirik tarixiy voqealar, tabiat go'zalliklari va o'z ruhiy holati to'g'risida qasidalar bitilgan. Masalan, *A.Navoiyning «Hiloliya»* qasidasi sulton Husayn Boyqaroga, *Ogahiyning «Ogohnoma»*si Muhammad Rahimxon II – Feruzga, *Sakkokiyning* 4 ta qasidasi esa Mirzo Ulug'bekka bag'ishlangan va hok.

Qasidalar ko'pincha g'azal shaklida (*a-a, b-a, d-a,...*) yoki masnaviy shaklida (*a-a, b-b, d-d, e-e...*) qofiyalanadi.

Qasidalar mavzu yo'nalishiga ko'ra **vasf, madh, marsiya, hujv, munojot, falsafiy qasidalar** kabi turlarga ham bo'linadi. Tuzilishiga ko'ra esa ular **to'liq qasidalar** va **chala (mujarrad) qasidalar** tarzida ikki turga ajratiladi. To'liq qasidalar **nasib** (*bu qismda tabiat tasviri beriladi*), **gurizgoh, madh, qasd** singari maxsus qismlardan tashkil topadi.⁵⁹

Misol:

Ulug'bek madhi

**Jahondin ketti tashvish-u mabodoyi amon keldi,
Xaloyiq, aysh etish, bu kun sururi jovidon keldi.**

**Tan erdi bu ulus barcha aningtek joni bor yo yo'q,
Bihamdillah o'g'on fazli bila ul tanga jon keldi...**

**...Salotin dunyoda ko'p keldi-yu, kechti seningtek bir,
Falakning gar tili bo'lsa ayitsunkim, qachon keldi...**

**...Shaho, lutfungni topqom deb duochi banda Sakkokiy,
Belin joni bila bog'lab, bu xizmatga ravon keldi...**

(Sakkokiy)

Qasida g'arb adabiyotidagi **oda** (*yun. «qo'shiq»*)ga mos keladi. Zamonaviy o'zbek adabiyotida *M.Shayxodaning «Toshkentnoma»*, *E.Vohidovning «O'zbekim»*, *A.Oripovning «O'zbekiston»* kabi asarlari qasidachilik rivojiga qo'shilgan ulkan hissadir.

Misol:

⁵⁹ B.Qosimov va boshq. Adabiyot (10-sinf uchun darslik). – T.: O'qituvchi, 2004. – 146-bet.

O'zbekiston

Yurtim, senga she'r bitdim bu kun,
Qiyosingni topmadim also.
Shoirilar bor, o'z yurtin butun –
Olam aro atagan tanho.
Ular she'ri uchdi ko'p yiroq,
Qanotida kumush diyori.
Bir o'lka bor dunyoda biroq,
Bitilmagan dostonidir bori:
Faqat ojiz qalamim manim,
O'zbekiston, Vatanim manim!...

...Zavol ko'rma hech qachon, o'lkam,
Zavol bilmas shu yoshing bilan.
Muzaffar bo'l, g'olib bo'l, o'ktam
Do'st-u yoring, qardoshing bilan.
Asrlarning silsilasida
Boqiy turgay koshonang sening,
Hur xalqlarning oilasida
Mangu yorug' peshonang sening.
Mangu yorug' maskanim manim,
O'zbekiston, Vatanim manim!

(A. Oripov)

MARSIYA

Marsiya biror kishining vafoti munosabati bilan g'am-alam, hasrat va qayg'uni ifodalagan lirik she'r yoki qo'shiqdir. Ularda inson ruhiy kechinmalari chuqur va dardli aks ettiriladi. «*Marsiya*» arabcha so'z bo'lib, «*yig'lash*», «*yig'i berish*» degan ma'nolarni bildiradi. Xalq og'zaki ijodidagi marsiyalar *yig'i* deb ham ataladi. Marsiya turli she'riy shakllarda yozilishi mumkin. Adabiyotimizning keyingi bosqichlarida *g'azal*, *qasida*, *murabba'*, *muxammas*, *musaddas*, *tarji'band*, *tarkibband* shakllarida yozilgan marsiyalar uchraydi.

Misol:

Alp Er To'nga o'ldimi?
Yomon dunyo qoldimi?
Zamon o'chin oldimi?
Endi yurak yirtilur.

Dunyo fursat ko'zladi,
O'g'ri tuzoq sozladi.
Beklar begin izladi,
Qanday qochib qutulur...

(M.Koshg'ariy, «Alp Er To'nga»dan)

MADHIYA

Madhiya (ar. «*madh etish, maqtash*») biror kishi, hodisa yoki qadrlı narsaga atab, uni madh etib yozilgan she'rdır. Uni **gimn** (yun. «*tantanali qo'shiq*») ham deyishadi. Gimn qadimgi Yunonistonda afsonaviy xalq qahramonlari yoki xudolarni maqtab aytiladigan tantanali qo'shiq, she'rdır. Keyinchalik biror hodisa, shaxs yoki voqeani kuylovchi tantanali qo'shiqlar, millat, davlat va sinfnıng birligini ulug'lab kuylangan tantanali ashulalar ham **gimn** deb yuritila boshlangan.

SHIR-U SHAKAR

Ma'lum bir tartıbda ikki til, ba'zan uch til ishtirokida yozilgan she'r **shir-u shakar** (fors.«*sut-u shakar*») deyiladi. Agar bunday she'r uch tilda bitilsa, «*shahd-u shir-u shakar*» deb ataladi. O'zbek mumtoz adabiyotida shir-u shakarlar, asosan, arabcha-o'zbekcha va forscha-o'zbekcha tillarda yaratilgan.

NAZIRA

Lirikada ergashish yo'li bilan, javob va o'xshatish tariqasida, adabiy musobaqa tarzida yoziladigan she'rga **nazira** deyiladi. «*Nazira*» arabcha so'z bo'lib, «*o'xshash*» degan ma'noni bildiradi. Fors-tojik adabiyotida uni **tatabbu'** («*izidan borish*») deb atashadi.

TARKIBBAND

Har biri hajman g'azalga teng bo'lgan va g'azal singari (*a-a, b-a, d-a, ...*) qofiyalanuvchi bandlardan tuzilgan she'r **tarkibband** (ar. «*bandni biriktirish*») bo'lib, bunda har qaysi band oxiridagi ikki misra band qofiyasidan ajralib turuvchi mustaqil ohangdoshlikka ega bo'ladi. Ular bir-biriga qofiyalanadi. Tarkibband fors-tojik adabiyotida X–XI asrdan, o'zbek adabiyotida XV asrdan boshlab yozila boshlangan.

TARJI'BAND

Tarji'band (ar. «tarji'» – qaytarish, «band» – bog'lash) – qofiya tuzilishi tarkibbandnikiga o'xshash she'r shakli. Adabiy atama

sifatida, bir necha banddan iborat bo'lib, g'azal singari qofiyalanadigan, birinchi bandning maqta'si qolgan bandlarning so'ngida ham takrorlanadigan she'r turi **tarji'band** hisoblanadi⁶⁰.

Tarji'bandlar 16–24 misrali 5–10 banddan tashkil topadi. Bu janr, ko'pincha, falsafiy mavzuda bo'ladi. Alisher Navoiy «Xazoyin ul-maoniy» kulliyotiga 4 ta tarji'band kiritgan. Uning «*Xarobot aro kirdim oshuftahol...*» tarji'bandi «G'aroyib us-sig'ar» devonidan joy olgan:

I band

Ketur soqiy, ul mayki, subhi alast,
Aning nash'asidin ko'ngul erdi mast.
Mayekim, qilur quysalar jom aro,
O'zi mast-u kayfiyati mayparast.
Eshit sarguzashteki, bir kun manga,
Necha mayparast o'ldilar hamnishast.
May olmoqqa piri mug'on jazbasi,
Meni chekti andog'ki, mohini shast.
Qilib xirqa may rahni-yu zarfining,
Etib og'zini mum ila sangbast.
Kelur erdim egnimda mayliq sabu,
Bo'lub to'quz aflok ollimda past.
Ki ogoh o'lub, to'sh-to'shindin qabab,
Manga toptilar ehtisob ahli dast.
Shikastim mening oncha ermas erdi,
Ki may zarfi topti aroda shikast.
Chu sindi sabu, choraye topmadim,
Meni muflisi ur-u giryonni mast.
Xarobot aro kirdim oshuftahol, } takror
May istarga ilgimda sing'on safol... } keladi

⁶⁰ B.Qosimov va boshq. Adabiyot (10-sinf uchun darslik). – T.: O'qituvchi, 2004. – 191-bet.



13-MAVZU.
SHE'RIY JANRLAR (Davomi)
MUSAMMAT VA UNING TURLARI

Musammat (ar.«*ipga terilgan marvarid*») bandli she'rlardir. Musammat deganda, *musallas, murabba', muxammas, musaddas, musabba', musamman, mustasne', muashshar* shakllari anglashiladi. Musammat she'r bandlarining baytdan tashqari turlarini anglatuvchi umumiy atama hisoblanadi.

Musammatlar yaratilish xususiyatiga ko'ra ikkiga bo'linadi:

1. *Mustaqil* (tab'i xud) *musammatlar*.

2. *Tazmin* (biror g'azal asosida – zaminida yaratilgan) *musammatlar*⁶¹.

Musammatlar banddagi misralar soniga ko'ra quyidagi 8 turga ajratiladi:

MUSALLAS

Musallas (ar.«*uchlik*») – uch misrali band usulida yozilgan she'r. G'arbda *tersina* deb atashadi.

Qofiyalanishi: *a-b-b, d-e-e...*

yoki *a-b-a, d-e-d...* yoki *a-a-a, b-b-b...*

Misol:

Dardiga darmon istamas

Bizni Turkiston eli dardiga darmon istamas – a

Zulmat ichra kechsa umri, mohi tobon istamas, – a

Uxlama ko'p, o'zbek eli, asri taraqqiy vaqtida. – b

Ko'nglidur oshuftai¹ lavhi tarab², nafs-u havu³, – d

Tilsa zillat hanjari bag'rini Luqmon istamas, – a

Uxlama ko'p, o'zbek eli, asri taraqqiy vaqtida... – b

(Hamza)

⁶¹ S.Olim, S.Ahmedov, R.Qo'chqorov. Adabiyot (Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 8-sinfi uchun darslik-majmua). – T.: O'zbekiston nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2010. – 125-126-betlar.

¹ Oshufta – oshiq, shaydo. ² Lavhi tarab – shodlik yozuvi. ³ Nafs-u havо – nafs istagi, maishatga mayl.

MURABBA'

Murabba' (ar. «to'rtlik») –

to'rt misralik band usulida yozilgan she'r.

Qofiyalanishi: a-a-a-a, b-b-b-a, ...

Emdi sendek, jono, jonon qaydadur, - a
Ko'rib gul yuzingni bog'da bandadur, - a
Saqlay ishqing toki jonim tandadur, - a
O'zim har joydaman, ko'nglum sandadur. - a

Mehring o'ti nogah tushdi jonlarga, - b
Parvoyim yo'q zarra xon-u monlarga, - b
Lola yanglig' to'lib bag'rim qonlarga, - b
O'zim har joydaman, ko'nglum sandadur... - a

(Muqimiy)

MUXAMMAS

Muxammas (ar. «beshlik») –

beshlik band usulida yozilgan she'r.

Qofiyalanishi: a-a-a-a-a, b-b-b-b-a, d-d-d-d-a,...

Muxammaslar ikki xil bo'ladi:

1. Bir shoirning o'z muxammasi (mustaqil muxammaslar).

Misol: *Zavqiyning «Yuzingni ko'rsatib avval...»* muxammasi.

2. Taxmis – boshqa shoirga ergashib, izdoshlik, maslakdoshlik, uning g'azalidan ta'sirlanish, ilhomlanish, unda o'z fikr-kechinmalariga hamohanglik ko'rish asosida o'xshatma usulida yozilgan muxammaslar. Misol:

Qaysi falak burjining mehri puranvorisan, - a
Qaysi sadaf durjining gavhari shahvorisan, - a
Qaysi Xo'tan ohusi nofayi totorisan, - a
Qaysi chamanzorning lolayi gulnorisan, - a
So'yla menga, ey sanam, kimni sevar yorisan. - a

Qomatinga bandadur bog' aro sarvi ravon, - b
La'li labing rashkidin g'uncha erur bag'ri qon, - b
Chunki chaman sahnida bo'lsa yuzing gulfishon, - b
Nolasin aylar fuzun bulbuli bexonumon, - b
So'yla menga, ey sanam, kimni sevar yorisan... - a

(K.Xorazmiy)

Musammanda kechinmalar tasviri, fikr va holatlar bayoni boshqa janrlarga nisbatan kengroq va batafsilroq ifoda etiladi.

Navoiyning "Bo'lmag'ay erdi jamoling...", Mashrabning "Va'da qildi bir kelay deb...", Furqatning "Manam sho'rida bulbul...", "Kishi holimni bilmas...", Zavqiyning "Ajab ermas", Munisning "Shirinsuxan Laylivashim vaqtiki qohir bo'lg'usi...", K.Xorazmiyning "Qaysi falak burjining..." kabi she'rlari ham muxammas janrida bitilgan.

MUSADDAS

Musaddas (ar. «oltilik») – har bir bandi olti misradan iborat bo'lgan she'r.

Qofiyalanishi: a-a-a-a-a-a, b-b-b-b-a, d-d-d-d-a,... yoki a-a-a-a-a-a, b-b-b-b-a-a, d-d-d-d-a-a,...

Musaddaslar ikki xil bo'ladi:

a) mustaqil yaratilgan musaddaslar;

b) o'zga shoir tomonidan yaratilgan g'azallarning vazni va qofiyasiga mos yaratilgan musaddaslar.

Misol:

Sayding qo'ya ber, sayyod...

Sayding¹ qo'ya ber, sayyod, sayyora ekan mendek, - a
Ol domini² bo'ynidin, bechora ekan mendek. - a
O'z yorini topmasdan ovora ekan mendek, - a
Iqboli nigun, baxti ham qora ekan mendek, - a
Hijron o'tidin jismi ko'p yora ekan mendek, - a
Kuygan jigari-bag'ri sadpora ekan mendek. - a

Kes rishtanikim, qilsun chapaklar otib jasta³, - b
Hajrida alam tortib, bo'ldi jigari xasta, - b
Tog'larga chiqib bo'lsun yori bila payvasta, - b
Kel, kuyma balo domi birla oni pobasta⁴. - b
Hijron o'qidin jismi ko'p yora ekan mendek, - a
Kuygan jigari-bag'ri sadpora ekan mendek. - a

(Furqat)

1- ov; 2- tuzoq; 3- asta; 4- oyog'i bog'li, tutqun.

MUSABBA'

Musabba' (ar.«yettilik») – har bandi yetti misradan tashkil topgan she'r.

Qofiyalanishi: *a-a-a-a-a-a-a, b-b-b-b-b-a, d-d-d-d-d-a...yoki a-a-a-a-a-a, b-b-b-b-b-a-a, d-d-d-d-d-a-a...*

MUSAMMAN

Musamman (ar.«sakkizlik») – sakkiz misrali band usulida yozilgan she'r.

Qofiyalanishi: *a-a-a-a-a-a-a, b-b-b-b-b-b-b-a, d-d-d-d-d-d-d-a... yoki a-a-a-a-a-a-a, b-b-b-b-b-a-a, d-d-d-d-d-d-a-a...*

Avaz O'tarning "Har odamning talab yo'lida gar ixlosi komildur..." she'ri ham musamman janrida yozilgan.

MUSTASNE'

Mustasne' yoki **tasne'** (ar.«to'qqizlik») – har bandi to'qqiz misradan iborat she'r.

Qofiyalanishi: *a-a-a-a-a-a-a-a, b-b-b-b-b-b-b-b-a, d-d-d-d-d-d-d-d-a... yoki a-a-a-a-a-a-a-a, b-b-b-b-b-b-b-a-a...*

MUASHSHAR

Muashshar yoki **mashru'** (ar.«o'nlik») – har bandi o'n misradan iborat she'r.

Qofiyalanishi: *a-a-a-a-a-a-a-a-a, b-b-b-b-b-b-b-b-b-a... yoki a-a-a-a-a-a-a-a-a, b-b-b-b-b-b-b-a-a...*

Ba'zan muashsharlarning boshdan oyoq barcha bandlarida avvalgi sakkiz misra mustaqil qofiyalanib, bandlar oxirida bir bayt aynan takrorlanib keladi. Masalan, *Nodiraning «Firoqnoma»* muashshari shu tarzda bitilgan:

Ohkim, behad menga javr-u jafu aylar falak,
Furqat ichra qismatim dard-u balo aylar falak,
Yordin ayru menga ko'p mojaro aylar falak,
G'am bila guldek yuzumni kahrabo aylar falak,
Bevafodur, oqibat kinga vafo aylar falak,
Hasrat-u dard-u alamga muftalo aylar falak,
Yorni, albatta, yoridin judo aylar falak,
Gul bila bulbulni be barg-u navo aylar falak,

**Hech kim, yo Rab, jahonda yoridin ayrilmasun,
Jondin ortuq, mehribon dildoridin ayrilmasun.**

Sabr qilsam ishq dardi beqaror aylar meni,
Kasbi hush etsam junun beixtiyor aylar meni,
Dam-badam faryodim eldin sharmisor aylar meni,
Hajr dog'i dardmand-u dilfigor aylar meni,
O'ylakim javri falak zor-u nazor aylar meni,
Yorsiz hijron balosig'a duchor aylar meni,
Charxi dun tokay firoq ilgida zor aylar meni,
Oqibat bu dard-u g'am Majnunshior aylar meni,
**Hech kim, yo Rab, jahonda yoridin ayrilmasun,
Jondin ortuq, mehribon dildoridin ayrilmasun...**

ZAMONAVIY SHE'RIY JANRLAR

SONET

Sonet (*ital. «jaranglamoq»*) – jahon she'riyatida keng tarqalgan lirik janr bo'lib, 14 misradan tashkil topadi, ko'pincha a-b-b-a, a-b-b-a, d-d-e, e-f-e (boshqa variantlari ham bor) shaklida qo'fiyalanadi. U dastlab XIII asrda italyan adabiyotida vujudga kelgan. O'zbek adabiyotiga XX asrning 20–30-yillarida kirib kelgan. Sonetning go'zal namunasi XX asrning 30-yillarida Usmon Nosir yaratgan. Barot Boyqobilov ham bu janrda barakali ijod qilgan.

Sonet tuzilishi jihatidan ikki qismdan tashkil topadi:

1. *To'rtlik band* (katren).

2. *Uchlik band* (terset).

YANA SHE'RIMGA

4 { She'rim! Yana o'zing yaxshisan, - a
Boqqa kirsang, gullar sharmanda. - b
Bir men emas, hayot shaxsisan, - a
Jonim kabi yashaysan manda. - b

4 { Yuragimning dardi - naqshisan, - a
Qilolmayman seni hech kanda! - b
O't bo'lurmi ishq yo'q tanda? - b
Dardimsanki, she'rim, yaxshisan. - a

- | | | | |
|---|---|--|-----|
| 3 | { | Sen orada ko‘prik bo‘lding-da, | - d |
| | | Geyne bilan o‘rtoq tutindim. | - e |
| | | Lermontovdan ko‘mak o‘tindim. | - e |
| 3 | { | Butun umrim sening bo‘yningda, | - d |
| | | Saharda qon tupursam, mayli. | - f |
| | | Men – Majnunman, she‘rim, sen – Layli! | - f |

(U.Nosir, 1935)

OQ SHE’R

Vazni aniq, lekin qofiyasiz she‘r **oq she‘r** hisoblanadi. Vazni, misralardagi rang-barang ritmik qurilish oq she‘rning ohangdorligini, musiqiylikini ta‘minlaydi. O‘rta asrlar o‘zbek mumtoz adabiyotida «harora» deb nom olgan qofiyasiz she‘r turi ham bo‘lgan. **Oq she‘r** atamasi misralarning qofiyalanmay qolishidan, ya‘ni «oq» qolishidan olingan. Oq she‘r shoirga o‘z fikri va hissiyotini to‘laroq ifodalash imkonini beradi va undagi ritmik izchillik esa she‘r g‘oyasiga kuchli ta‘sirchanlik bag‘ishlaydi. O‘zbek adabiyotida *Usmon Nosir, Hamid Olimjon, Maqsud Shayxzoda, A.Oripov, R.Parfi* kabi shoirlar ijodida oq she‘rning ajoyib namunalari uchraydi. *Maqsud Shayxzoda «Mirzo Ulug‘bek»* tragediyasi, *Shekspirning «Otello», «Hamlet», «Qirol Lir», «Romeo va Julyetta», Sofoklning «Shoh Edip»* kabi asarlarining tarjimalari oq she‘rda yaratilgan.

SOCHMA (NASRIY) SHE’R

Bunday she‘rlarda lirik kechinmalar sochma nutq shaklida ifodalanib, jo‘shqin ritmi bilan she‘rga monand bo‘ladi. Nozim Hikmat ta‘sirida **Mirtemir** o‘zbek she‘riyatiga «**sochma**» shaklni olib kirgan. Nasriy she‘rda ham nasrga, ham she‘rga xos xususiyatlar bo‘lib, uning asosiy belgilari quyidagilar⁶²:

- a) ma‘lum vaznga va qofiyaga ega emasligi;
- b) ramziy tasvir uslubining ustunligi va fikriy umumlashmaning kuchliligi;
- d) his-hayajonning balandligi va ritorik qaytarishlarning ko‘pligi;

⁶² S.Ahmedov va boshq. Adabiyot (Umumiy o‘rta ta‘lim maktablarining 5-sinfi uchun darslik). II qism. – T.: Sharq, 2011. – 25-bet.

e) o'ziga xos ritmik tuzilishi va to'xtam (pauza)larning ko'pligi.

Nasriy she'r *nasrdagi nazmlar, mansur she'rlar, mansuralar, sochmalar* kabi nomlar bilan ham aytiladi. Nasriy she'rlarning go'zal namunalari *Fitrat, Oybek, Mirtemir, Omon Muxtor, Omon Matjon, Ibrohim G'afurov* kabi shoirlar ijodida ko'plab uchraydi.

Misol: «*Tingla, hayot! Tingla, qirg'oqsiz dengizday cheksiz koinot...Soz kuylaydi...Talvasalarga to'lib kuylaydi soz; toshib kuylaydi soz...*». (Mirtemir)

BALLADA

Liro-epik poeziyaning bir turi **ballada** (*frans. «raqs qo'shig'i»*⁶³) dir. Qahramonlik xarakteridagi biror hayotiy epizodni tasvirlovchi kichik

sujetli she'rga **ballada** deyiladi. O'zbek adabiyotida balladalar ko'proq *tarixiy-fantastik* va *qahramonlik* yo'nalishlarida bitilgan.

Misollar: *H.Olimjon «Jangchi Tursun», M.Shayxzoda «Kapitan Gastello», Shuhrat «Mardlik afsonasi», «Ona va farzand», «Jamila», «Raymonda»* va boshq.

SARBAST SHE'R

Sarbast (*fors. «erkin»*) she'r-ning asosiy xususiyati shundaki, unda vazn, qofiya, band qurilishida ancha erkinlik, qadimiy qoidalardan

chetga chiqish yuz beradi, ayrim misralardagi bo'g'in (so'z) larni (ma'no va ohangni kuchaytirish maqsadida) bir necha qatorga zinapoya tartibida joylashtiriladi. **Erkin she'r** misralardagi hijolar miqdori, ularning cho'ziq yoki qisqaligi hech qanday ahamiyatga ega bo'lmagan she'r turi bo'lib, «**verlibr**» (*fran.«erkin she'r»*) atamasi bilan ham yuritiladi. Bunda misralarning turlicha turoqlanishi, qofiyalanishdagi erkinlik shoirga o'z fikrini izchil ifodalash imkonini beradi.⁶⁴

O'zbek adabiyotida sarbast (erkin) she'r ommalashgan davr XX asrning 20-yillariga to'g'ri keladi. Bu davrda

⁶³ Q.Yo'ldoshev va boshq. Adabiyot (Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 7-sinfi uchun darslik-majmua). – T.: Sharq, 2017. – 38-bet.

⁶⁴ S.Ahmedov va boshq. Adabiyot (Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 5-sinfi uchun darslik). II qism. – T.: Sharq, 2011. – 24-bet.

V.V.Mayakovskiy ta'siri ostida o'zbek she'riyatiga sarbast kirib keldi. *Cho'lpon, H.Olimjon, G'.G'ulom, M.Shayxzoda, Usmon Nosir, Mirtemir* kabi shoirlar ijodida erkin she'rlar ko'p uchraydi.

Misol:

Cho'chima, jigarim,

O'z uyingdasan.

Bu yerda

na g'urbat,

na ofat,

na g'am...

(G'. G'ulom)

TO'RTLİK

O'zbek she'riyatining ruboiy va tuyuq vaznida yozilmagan, 4 misradangina iborat bo'lgan janri **to'rtlik** sanaladi. To'rtliklar *a-b-a-b, a-a-b-a, a-b-b-a, a-a-a-a, a-b-d-b* tarzida qo'fiyalanadi. Bu janr hozirgi adabiy jarayonda asosan barmoq vaznida yoziladi, lekin u aruzda ham yozilishi mumkin. Qadimgi to'rtliklar *M.Koshg'ariyning «Devonu lug'otit-turk»* asari orqali ham yetib kelgan.

Misol:

Do'stlar, yaxshilarni avaylab saqlang!

«Salom» degan so'zning salmog'in oqlang.

O'lganda yuz soat yig'lab turgandan,-

Uni tirigida bir soat yo'qlang!

(M.Shayxzoda)

NAZARIY MA'LUMOT

Yozma dostonlar haqida

Yozma adabiyotdagi dostonlar quyidagi turlarga bo'linadi⁶⁵:

1. **Lirik dostonlar** (*Mirtemirning «Surat», A.Oripovning «Yuzma-yuz» dostonlari*). Bu dostonlar boshqalariga nisbatan hujm jihatidan kichikroq bo'lib, ularda voqelik lirik usulda tasvirlanadi.

2. **Epik dostonlar** (*M.Shayxzodaning «Toshkentnoma», Oybekning «Davrim jarohati», E.Vohidovning «Istanbul fojiasi» dostonlari*). Bunday dostonlarda voqea va hodisalar, ichki olam, o'y-fikrlar keng hamda chuqur aks ettiriladi.

3. **Dramatik dostonlar** (*Fitratning «Shaytonning tangriga isyoni», A.Oripovning «Jannatga yo'l» dostonlari*). Bu turga mansub dostonlar sahnaga qo'yish uchun emas, asosan o'qish uchun yaratiladi, epik xususiyatlar kuchliroq bo'ladi. Ana shu jihatlari bilan u **she'riy dramadan** farqlanadi.

Yuqoridagi yozma doston turlaridan tashqari adabiyotimizda lirik va epik xususiyatlarni o'zlarida mujassamlashtirgan **liro-epik dostonlar** ham mavjud.

NAZARIY MA'LUMOT

Ertak-dostonlar haqida

Ertak-doston degan janr ham mavjud⁶⁶. U, asosan, shoirlar tomonidan yoziladi, ularda ham ertaklarning, ham dostonlarning xususiyatlari mavjud bo'ladi. Ertak-doston mazmunan ertakka, shaklan dostonga o'xshaydi. Jahon adabiyotida *Ubayd Zokoni*, *A.S.Pushkin*, *K.Chukovskiy*, *S.Marshak*, o'zbek adabiyotida esa *A.Avloniy*, *Q. Hikmat*, *Z.Diyor*, *H.Olimjon*, *M.Shayxzoda*, *Q.Muhammadiy*, *P.Mo'min* kabi ijodkorlar bu janrning go'zal namunalarini yaratishgan. Ertak-dostonlar **she'riy ertaklar** (**adabiy ertaklar**) deb ham ataladi. **Adabiy ertaklar** xalq ertaklarini qayta ishlash yoki mustaqil sujet asosida biror adib tomonidan yozilgan ertaklardir. **Misol:** *H.Olimjon «Oygul bilan Baxtiyor», A.Muxtor «Adolat»* va boshq.

⁶⁵ N.Karimov va boshq. Adabiyot (Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 11-sinfi uchun darslik). – T.: O'qituvchi, 2004. – 335-bet.

⁶⁶ S.Ahmedov va boshq. Adabiyot (Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 5-sinfi uchun



14-MAVZU. SHE'RIY TIZIMLAR

She'riyat (poeziya) o'ziga xos, murakkab san'atdir. U insonning nozik his-tuyg'ularini, fikr va ehtiroslarini juda ta'sirchan tusda jozibali aks ettiradi. Ulug' mutafakkir Gyote «*Shoir lirikada benihoya ko'p rol ijro etuvchi aktyordir*» deganda, mutlaq haq edi.

Adabiyotshunoslikda nutqning ma'lum tarzda qolipga, o'lchamga solinishi *vazn* yoki *she'riy tizim* deyiladi. She'riy tizimlari mana shu qolipga solingan nutqqa nimaning asos qilib olinishiga ko'ra bir-biridan farq qiladi.

O'zbek she'r tizimlari o'ziga xos bo'lib, olimlarning tadqiqotlarida o'zbek she'riyati 5 ta she'r tizimi asosida yaratilganligi ta'kidlanadi. Shulardan **barmoq** va **aruz** tizimlari o'zbek she'r tuzilishining asosini tashkil qiladi⁶⁷.

ARUZ she'r tizimi haqida

Aruz (ar.«arz qilmoq»; «ustun») deganda Sharq xalqlari adabiyotida keng qo'llanilgan murakkab vaznlar tizimi tushuniladi. Bu tizim she'r misralarida qisqa va cho'ziq bo'g'inlarning ma'lum tartibda guruhlanib takrorlanishiga, ya'ni misradagi hijolar miqdori va sifatiga, ochiq-yopiqligiga asoslanadi.

Aruz she'r tizimi XI asrdan, ya'ni Yusuf Xos Hojib ijodidan boshlab turkiy adabiyotda keng qo'llanila boshlangan. Bu she'riy tizim asoschisi *Xalil ibn Ahmad* (719–791) bo'lib, «**aruz**» atamasi ham u yashagan joy yaqinidagi vodiy nomidan olingan.

Aruz she'r tizimida *qisqa*, *cho'ziq* va *o'ta cho'ziq* hijolar mavjud:

darslik). I qism. – T.: Sharq, 2011. – 86–87-betlar.

⁶⁷ T.Boboyev. She'r ilmi ta'limi (O'zbek she'riyati poetikasidan saboqlar). – T.: O'qituvchi, 1996. – 20-bet.

1. **Oisqa bo'g'in** (ochiq hijo) – qisqa talaffuz qilinuvchi unli (a,e,i,u,o')dan iborat bo'lgan, urg'u tushmagan yoki oxiri unli bilan tugagan bo'g'inlar (**a, bi** kabi). **Belgilanishi:** «V»

2. **Cho'ziq bo'g'in** (yopiq hijo) – cho'ziq talaffuz qilinuvchi unli (o, e, o')dan iborat bo'lgan, cho'ziq unli bilan tugagan ochiq bo'g'inlar (**bo, ro'** kabi), tarkibida qisqa unli bo'lgan undosh bilan tugagan yopiq bo'g'inlar (**nay, lin** kabi). **Belgilanishi:** «~»

3. **O'ta cho'ziq bo'g'in** – tarkibida cho'ziq unli bo'lgan (**ob, ro'y** kabi), qator undosh bilan tugallanuvchi yopiq bo'g'inlar (**lism, dard, charx** kabi). **Belgilanishi:** misra ichida «-V», misra oxirida «~»

Aruz she'r tizimida bo'g'inlarning qisqa, cho'ziq va o'ta cho'ziqligi so'zlarning yozilishiga ko'ra emas, balki vaznga muvofiq o'qilishiga qarab belgilanadi.

Har bir misra ohang jihatidan bir necha bo'lakka bo'linib, ular **rukn** nomi bilan ataladi. Misradagi ruknlar bir-biridan qisqa sukut – pauza bilan ajraladi. Ruknlar hijolarning miqdori va cho'ziq yoki qisqaligiga qarab 8 aslga bo'linadi hamda ularning har biri arabcha «*faala*» («harakat») so'zidan yasalgan maxsus nom (qolip) bilan yuritiladi:

№	Nomi	Paradigmasi (taqte'si)	Bahri
1.	Fa - u - lun	V - -	mutaqorib
2.	Fo - i - lun	- V -	mutadorik
3.	Fo - i - lo - tun	- V - -	ramal
4.	Ma - fo - iy - lun	V - - -	hazaj
5.	Mus - taf' - i - lun	- - V -	rajaz
6.	Ma - fo - i - la - tun	V - V V -	vafir
7.	Mu - ta - fo - i - lun	V V - V -	komil
8.	Maf' - u - lo - tu	- - - V	-

Ayni paytda, ruknlarning har biri hijolarning qisqarishiga qarab turli shakl oladi. U shakllar **zihoflar** deyiladi. She'riy misrani hijolarga qarab, uning qaysi vaznga aloqadorligini aniqlashda har bir vaznga xos ruknlarni ko'rsatuvchi asosiy qolip – chizmalar **paradigma (taqte')** deyiladi.

Aruzdagi ruknlarda bo'lgan so'zlarni bo'g'inlarga ajratish har doim ham til qoidasiga muvofiq kelavermaydi. Ba'zan ayrim tovushlar vaznga sig'may tushib qolishi, o'zidan keyingi so'z tovushlariga singib ketishi va birgalikda talaffuz etilishi mumkin. Shuningdek, ayrim vaqtlarda ruknda unli tovushsiz ham hijo bo'la oladi. Navoiyning quyidagi baytida ham shu kabi hijo mavjud:

Ruknlar	1-rukn	2-rukn	3-rukn	4-rukn
1-misra	Meh-r ko'p ko'r -	guz-di- <u>mam-mo</u>	meh-ri-bo- ne	top-ma-dim,
Taqti'lar	- V - -	- V - -	- V - -	- V -
2-misra	Jon ba-se qil -	dim fi-do o-	ro-mi-jo-ne	top-ma-dim.
Taqti'lar	- V - -	- V - -	- V - -	- V -

Aruz she'riy tizimida qator atamalar mavjud bo'lib, ularning asosiylari quyidagilar:

1. **Rukn** (*sutun*) – baytda cho'ziq va qisqa hijolarning ma'lum bir tartibda takrorlanib keluvchi bo'lagi.

2. **Vasl** (*ar. «ulanish»*) – hijolarning bir-biriga ulashib ketish hodisasi.

3. **Sabab** – mustaqil cho'ziq hijo (*bir cho'ziq yoki ikki qisqa*).

4. **Zihof** (*o'zgarish*).

5. **Sadr** – birinchi misraning birinchi rukni.

6. **Aruz** – birinchi misraning oxirgi rukni.

7. **Ibtido'** – ikkinchi misraning birinchi rukni.

8. **Zarb** – ikkinchi misraning oxirgi rukni.

9. **Hashv** – orada qolgan ruknlar.

10. **Solim** (*ar. «sog'lom, o'zgartirgan»*) – bunda asl ruknlar o'zgarishga uchramagan bo'ladi.

11. **Maqsur** (*ar. «kemtik», «qusurli», «qisqa qilingan»*) – faulun, mafoiylun va foilotun asllarining «qasr» («qisqa qilish») zihofiga duch kelishi oqibatida yuzaga kelgan **faul** (chizmasi V ~), **mafoiyl** (chizmasi V – ~), **foilon** (chizmasi – V ~) tarmoq ruknlarining nomi.

12. **Mahzuf** (*ar. «oxiri tashlangan»*) – faulun, mafoiylun va foilotun asllarining «hazf» («tashlash») zihofiga duch kelishi natijasida hosil bo'lgan **faal** (chizmasi V–), **faulun** (chizmasi

V–), **foilon** (chizmasi – V –) tarmoq ruknlarining nomi va boshq.

Mumtoz she'rlarni to'g'ri o'qish va vaznini to'g'ri aniqlash uchun quyidagi jihatlariga e'tibor qaratish lozim⁶⁸:

1. **VASL** (*yetishish*): undosh bilan tugagan bo'g'indan keyin unli bilan boshlanadigan bo'g'in kelganda, ularning qo'shib, bo'g'in hosil qilishi.

Misol:

Ke-cha kel-gul /-dur de-bo-nul / sar-vi gul-ro' / kel-ma-di

- V - - / - V - - / - V - - / - V -

(A.Navoiy)

2. **IMOLA** (*cho'zish*): aruz qolipiga tushirish uchun qisqa hijolarning ham cho'zib o'qilishi.

Misol:

O'n sa-kiz mi-ng o-la-m o-shu-bi a-gar-bo-shin-da-dur

- V - - / - V - - / - V - - / - V -

(A.Navoiy)

3. **ZIHOF** (*qisqartirish*): vazn talabi bilan cho'ziq hijoning qisqa yoki o'ta cho'ziq hamda qisqa hijoning cho'zib o'qilishi.

Misol:

Ko'r-ga-li hus-/nung-ni zo-ru/ mub-ta-lo bo'l-dum sa-ngo

- V - - / - V - - / - V - - / - V -

(A.Navoiy)

4. **MAD** (*qattiq cho'zish*): bunda undosh bilan tugagan hijoning so'nggi tovushi hisobiga yarim hijo orttiriladi.

Misol:

Voy, yuz ming/ voykim dil/ dordin ay /rilmisham

- V - / - V - / - V - / - V -

(Fuzuliy)

Aruz vaznida **bahr** (*ar. «dengiz», ya'ni «ko'p vazn»*) deganda o'zaklari bir-biriga yaqin vaznlar turkumini tushunamiz. Vaznlarni bahrlarga bo'lishda asliy ruknlar asos qilib olingan. Ruknlarning o'zaro munosabati va takrori asosidagi ko'rinishlari **bahr** deyiladi.

Aruz tizimida quyidagi 19 ta bahr mashhurdir: **hazaj, ramal, rujaz, mutaqorib, mutadorik, vofir, komil, tavil, madid, basit,**

⁶⁸ B. Qosimov va boshq. Adabiyot (10-sinf uchun darslik). – T.: O'qituvchi, 2004. – 244–245-betlar.

munsarix, muzori', muktazab', mujtass, sari', jadid, karib, hafif, mushokil.

O'zbek she'riyati tarixida hazaj, ramal va mutaqorib bahrlari ko'proq qo'llangan. Quyida shu bahrlarning ba'zi vaznlarini jadvallarda keltiramiz:

I. HAZAJ BAHRI VAZNLARI:

1. Hazaj murabba'i solim (8)

Ma - fo - iy - lun	ma - fo - iy - lun
V - - -	V - - -
Ma - fo - iy - lun	ma - fo - iy - lun
V - - -	V - - -

2. Hazaj musaddasi solim (12)

Zi - hi - rux - so - Ma - fo - iy - lun	ri - ngol - di - da ma - fo - iy - lun	qu - yosh tiy - ra ma - fo - iy - lun
V - - -	V - - -	V - - -
Qu - yosh - din yo'q - Ma - fo - iy - lun	ki, on - din el ma - fo - iy - lun	ko' - zi tiy - ra ma - fo - iy - lun
V - - -	V - - -	V - - -

3. Hazaj musammani solim (16)

A - zal - din to Ma - fo - iy - lun	a - bad ko'ng - lum ma - fo - iy - lun	qu - tul - mas ishq ma - fo - iy - lun	ba - lo - si - din ma - fo - iy - lun
V - - -	V - - -	V - - -	V - - -
Yu - ro - kim rah - Ma - fo - iy - lun	na - lar bo'l - di, ma - fo - iy - lun	bu ishq - ning mo - ma - fo - iy - lun	ja - ro - si - din. ma - fo - iy - lun
V - - -	V - - -	V - - -	V - - -

A.Navoiyning «Meni men istagan», Atoiyning «Qaro ko'zlar», Nodiraning «Fig'onkim gardishi davron...», Ogahiyning «Yuzing ochkim...» kabi she'rlari shu vaznda yozilgan.

4. Hazaj musaddasi mahzuf (11)

Ne du - rah - vo - Ma - fo - iy - lun	li - ng, ey zo - ri Ma - fo - iy - lun	g'a - ri - bim fa - u - lun
V - - -	V - - -	V - -
Vi - so - lim dav - Ma - fo - iy - lun	la - ti - din be - Ma - fo - iy - lun	na - si - bim fa - u - lun
V - - -	V - - -	V - -

Lutfiyning "Ayoqingg'a tushar har lahza gisu...", "Haq ul kunkim..." kabi g'azallari, Navoiyning "Farhod va Shirin" dostoni shu vaznda bitilgan.

5. Hazaj musaddasi maqsur (11)

Ja - hon - da qol - Ma - fo - iy - lun	ma - di ul yet - Ma - fo - iy - lun	ma - gan ilm ma - fo - iyl
V - - -	V - - -	V - ~
Il - lib tah - qi - Ma - fo - iy - lun	qi - ni kas - b et - Ma - fo - iy - lun	ma - gan ilm. ma - fo - iyl
V - - -	V - - -	V - ~

6. Hazaj musammani mahzuf (15)

Ma - fo - iy - lun	ma - fo - iy - lun	ma - fo - iy - lun	fa - u - lun
V - - -	V - - -	V - - -	V - -
Ma - fo - iy - lun	ma - fo - iy - lun	ma - fo - iy - lun	fa - u - lun
V - - -	V - - -	V - - -	V - -

7. Hazaj musammani maqsur (15)

Ma - fo - iy - lun	ma - fo - iy - lun	ma - fo - iy - lun	ma - fo - iyl
V - - -	V - - -	V - - -	V - ~
Ma - fo - iy - lun	ma - fo - iy - lun	ma - fo - iy - lun	ma - fo - iyl
V - - -	V - - -	V - - -	V - ~

va boshq.

II. RAMAL BAHRI VAZNLARI:

1. Ramali murabba'i solim (8)

Ael - gul, ey rux - fo - i - lo - tun	so - ri ze - bo fo - i - lo - tun
V - -	- V - -
Alm, bo' - lur - men fo - i - lo - tun	no - shi - ke - bo fo - i - lo - tun
- V - -	- V - -

2. Ramali musaddasi solim (12)

fo - i - lo - tun	fo - i - lo - tun	fo - i - lo - tun
- V - -	- V - -	- V - -
fo - i - lo - tun	fo - i - lo - tun	fo - i - lo - tun
- V - -	- V - -	- V - -

3. Ramali musammani solim (16)

<i>Kel - ki, ish-qing-</i> Fo - i - lo - tun	<i>din ko' - ngul - da</i> fo - i - lo - tun	<i>yo'q - tu - rur sab-</i> fo - i - lo - tun	<i>ru qa - ro - rim</i> fo - i - lo - tun
- V - -	- V - -	- V - -	- V - -
<i>Bo - shi - ma yet-</i> Fo - i - lo - tun	<i>kur qa - dam - kim,</i> fo - i - lo - tun	<i>had - din osh - ti</i> fo - i - lo - tun	<i>in - ti - zo - rim.</i> fo - i - lo - tun
- V - -	- V - -	- V - -	- V - -

4. Ramali musaddasi mahzuf (11)

<i>So'z - chi ho - lin</i> Fo - i - lo - tun	<i>boq - ma boq so'z</i> fo - i - lo - tun	<i>ho - li - ni</i> fo - i - lun
- V - -	- V - -	- V -
<i>Ko'r - ma kim der</i> Fo - i - lo - tun	<i>o - ni, ko'r - gil</i> fo - i - lo - tun	<i>kim ne der</i> fo - i - lun
- V - -	- V - -	- V -

5. Ramali musaddasi maqsur (11)

<i>Gul - sha - ning - din</i> Fo - i - lo - tun	<i>el - dek ey ra' -</i> fo - i - lo - tun	<i>no ni - hol</i> fo - i - lon
- V - -	- V - -	- V ~
<i>Men yo - mon bor -</i> Fo - i - lo - tun	<i>dim va - le sen</i> fo - i - lo - tun	<i>yax - shi qol</i> fo - i - lon
- V - -	- V - -	- V ~

Tuyuq janriga oid she'rlar shu vaznda bitiladi.

6. Ramali musammani mahzuf (15)

<i>Char - x - ning men</i> Fo - i - lo - tun	<i>ko'r - ma - gan jab -</i> fo - i - lo - tun	<i>ru ja - fo - si</i> fo - i - lo - tun	<i>qol - di - mu?!</i> fo - i - lun
- V - -	- V - -	- V - -	- V -
<i>Xas - ta ko'ng - lum</i> Fo - i - lo - tun	<i>chek - ma - gan dar -</i> fo - i - lo - tun	<i>du ba - lo - si</i> fo - i - lo - tun	<i>qol - di - mu?!</i> fo - i - lun
- V - -	- V - -	- V - -	- V -

A.Navoiyning "Kelmadi", "Bo'ldum sanga", «O'n sakiz ming olam oshubi...», «Orazin yopqach...», «Ko'rgali husningni...», Furqatning «Surmadin ko'zlar qaro...», Hamzaning «Dardiga darmon istamas», E.Vohidovning «Barcha shodlik senga bo'lsin...» kabi she'rlari shu vaznda yozilgan.

7. Ramali musammani maqsur (15)

<i>So'r - ma ho - lim -</i> Fo - i - lo - tun	<i>ni - ki, bo'l - dim</i> fo - i - lo - tun	<i>bur - no - g'i - din</i> fo - i - lo - tun	<i>zor - roq,</i> fo - i - lon
- V - -	- V - -	- V - -	- V ~
<i>His - m jon - din</i> Fo - i - lo - tun	<i>zo - ru jo - nim</i> fo - i - lo - tun	<i>jis - m - din af -</i> fo - i - lo - tun	<i>gor - roq.</i> fo - i - lon
- V - -	- V - -	- V - -	- V ~

A.Navoiyning "Jong'a chun dermen...", "Yo'q", Almaiyning «Hayot», Komil Xorazmiyning «Sham'», Muqimiyning «Loy» kabi g'azallari shu vaznda bitilgan va boshq.

III. MUTAQORIB BAHRI VAZNLARI:

1. Mutaqoribi musammani mahzuf (11)

<i>O - lay de -</i> Fa - u - lun	<i>sa kon - tor -</i> Fa - u - lun	<i>da yo'q bir</i> Fa - u - lun	<i>pa - qir</i> Fa - al
V - -	V - -	V - -	V -
<i>De - sa ol -</i> Fa - u - lun	<i>ma - yi - nul</i> Fa - u - lun	<i>za - ko - lat</i> Fa - u - lun	<i>ku - tir.</i> Fa - al
V - -	V - -	V - -	V -

2. Mutaqoribi musammani maqsur (11)

Fa - u - lun	Fa - u - lun	Fa - u - lun	Fa - ul
V - -	V - -	V - -	V ~
Fa - u - lun	Fa - u - lun	Fa - u - lun	Fa - ul
V - -	V - -	V - -	V ~

Turkiy va forsiy mumtoz adabiyotda shohlar haqidagi asarlar asosan *mutaqoribi musammani mahzuf (yoki maqsur)* vaznida bitilgan.

3. Mutaqoribi musammani solim (12)

Fa - u - lun	Fa - u - lun	Fa - u - lun	Fa - u - lun
V - -	V - -	V - -	V - -
Fa - u - lun	Fa - u - lun	Fa - u - lun	Fa - u - lun
V - -	V - -	V - -	V - -

Shuni ta'kidlash kerakki, muayyan bir aruz vaznini uch xil tarzda ifodalash mumkin⁶⁹:

⁶⁹ Qarang: S.Olim, S.Ahmedov, R.Qo'chqorov. Adabiyot (Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 8-sinfi uchun darslik). – T.: G'.G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2019. – 62-bet.

1. **Nomi aytiladi:** *hazaji musammani mahzuf, ramali musaddasi solim* va hok.

2. **Afoilu tafoili aytiladi:** *mafoiylun mafoiylun faulun, foilotun foilotun foilotun foilun* va hok.

3. **Taqte'si beriladi:** «-V---/-V---/-V---», «V----/V----/V----/V---» va hok.

Aruzshunoslik masalalari Ahmad Taroziyning "*Funun al-balog'a*" (turkiy tildagi she'riyat qoidalariga bag'ishlangan ilk asar), Alisher Navoiyning «*Mezon-ul avzon*» (turkiy tildagi aruzga oid dastlabki asar), Z.M.Boburning «*Muxtasar*», Fitratning «*Aruz haqida*» nomli asarlarida tadqiq qilingan.

Bobur o'z asarida bahrlar sonini 21 taga yetkazadi va ulardan hosil bo'lgan 537 vaznni tasnif etgan. Har bir bahr haqida to'xtab, undagi vazn miqdori, shulardan qanchasi qo'llaniladi («*musta'mal*»), qanchasi ixtiro qilingan («*muxtare'*»)ligi bilan tanishtirgan⁷⁰.



⁷⁰ B.Qosimov, N.Jumaxo'ja. O'zbek adabiyoti (10-sinf uchun darslik). – T.: O'qituvchi, 2000. – 178-bet.



15-MAVZU. SHE'RIY TIZIMLAR

BARMOQ she'r tizimi haqida

Barmoq misralardagi hijolarning bir miqdorda, turoqlarning bir tekisda takrorlanib kelishiga va shu tarzda ritm hosil qilishga asoslangan she'r tuzilishi tizimidir. U dastlab *Mahmud Koshg'ariyning «Devon-u lug'ot at-turk»* asarida qo'llangan bo'lib, undan keyin *Ahmad Yassaviy* hikmatlariga tatbiq etilgan. O'zbek she'riyatida bu she'r tizimi XX asrning 20–30-yillarida ommalashgan.

Barmoq she'r tizimida misralarda bo'g'inlar soni bir xil miqdorda takrorlanadi va bir xil guruhlanadi, biroq bo'g'inlarning sifati, ya'ni ochiq-yopiqligi, uzun-qisqaligi muhim emas.

Barmoq vaznida **bo'g'in** vazn o'lchovi bo'lib xizmat qiladi va misralardagi hijolar jami *vazni* tashkil etadi.

Vazn (ar.«o'lchov») she'riy nutqni nasriy nutqdan ajratib turuvchi asosiy unsurlardan hisoblanadi. Odatda, bir turkumdagi she'r misralari, baytlari va bandlarida turoqlar va bosh turoqlarning muayyan qonuniyat asosida ishlatilishidan kelib chiqadigan ritmik hodisa – ohang *vazn* deyiladi.

Vaznlar ritmni vujudga keltiradi. *Ritm* (yun.«vazndosh, ohangdosh») she'r misralaridagi bir-biriga teng nutq bo'laklarining bir tekisda izchil takrorlanib kelishidan paydo bo'ladigan **ohangdoshlik** (*zarb*) hisoblanadi⁷¹. Vaznlarning o'zi *bo'g'in* (*hijo*), *turoq*, *turkum*, *pauza*, *urg'u* kabi unsurlardan paydo bo'ladi.

Turoq barmoq she'r tizimida misralardagi bo'g'inlarning muayyan guruhlariga bo'linishi, ya'ni pauza bilan ajratiladigan,

⁷¹ T.Boboyev. She'r ilmi ta'limi (O'zbek she'riyati poetikasidan saboqlar). – T.: O'qituvchi, 1996. – 21-bet.

teng bo‘laklardan tizilgan va misralar bo‘yicha ma’lum tartibda takrorlanadigan misra bo‘lagidir. Turoqlar bo‘g‘inlardan tashkil topadi.

Misollar:

Tuproq ko‘chalardan / chopgan bolalik, $6+5=11$

Yillar changi ichra / asta yo‘qoldi. $6+5=11$

(E.Vohidov)

Garchi shuncha/ mag‘rur tursa ham $4+5=9$

Piyolaga/ egilar choynak. $4+5=9$

Shunday ekan/ manmanlik nechun, $4+5=9$

Kibr-u havo/ nimaga kerak? $4+5=9$

(E.Vohidov)

Turoq (stopa) aruz tizimidagi ruknga yaqin turadi. She’riy misralarda ikki va undan ortiq turoq bo‘lishi mumkin:

	1-turoq	2-turoq	Turoqlar tartibi
1-misra	Vodiylarni/	yayov kezganda, //	
<i>Bo‘g‘inlar soni</i>	4	5	$4+5=9$
2-misra	Bir ajib his /	bor edi menda. //	
<i>Bo‘g‘inlar soni</i>	4	5	$4+5=9$

Barmoqda ikki xil vazn bor: **sodda vazn va qo‘shma vazn**. Agar she’rning boshidan oxirigacha misralardagi bo‘g‘inlar miqdori bir xil bo‘lsa **sodda**, ikki-uch xil ko‘rinishda bo‘lsa, **qo‘shma vazn** hisoblanadi⁷².

Sodda va qo‘shma vaznlarda bo‘g‘inlar miqdori bir xil yoki har xil bo‘lgan misralarning muayyan tartibi she’r oxirigacha qat’iy saqlanadi. **Misollar:**

⁷² Q.Yo‘ldoshev va boshq. Adabiyot (Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 7-sinfi uchun darslik-majmua). – T.: Sharq, 2017. – 54-bet.

Sodda vazn:

Yigitlar ³ / maktubin ³ / bitganda ⁵ qondan, // 3+3+5=11

Kelinlar ³ / firoqdan ³ / chekkanda ⁵ yohu. // 3+3+5=11

Uning ham ³ / panohi ³ / qaytmadi ⁵ jangdan, // 3+3+5=11

O'n to'qqiz ³ / yoshida ³ / beva ⁵ qoldi u. // 3+3+5=11

(A. Oripov «Ayob»)

Qani, ayt, maqsading nimadir sening? – 11

Nega tilkalaysan bag'rimni, ohang? – 11

Nechun kerak bo'ldi senga ko'z yoshim, – 11

Nechun kerak, rubob, senga shuncha g'am? – 11

(A. Oripov)

Qo'shma vazn:

Alisherga alla aytib uxlatgan =11

Sen – ona.=3

Og'ushida Bobur kamoiga yetgan=11

Sen – ona.=3

(Mirtemir)

Erkin Vohidovning «Majnuntol» nomli she'ri ham qo'shma vaznda yozilgan:

Qubbon sohilida qomating bukib, – 11

Oltin barglaringni ko'l uzra to'kib, – 11

Nimalar haqida surasan xayol, – 11

So'yla, majnuntol? – 5

She'rdagi turoqlar, misralar yoki bandlar orasidagi to'xtalish pauza deb ataladi. Turoq va misralar orasidagi qisqa to'xtalish kichik pauza, bandlar orasidagi katta to'xtalish katta pauza hisoblanadi⁷³.

⁷³ Q. Yo'ldoshev va boshq. Adabiyot (Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 7-sinfi uchun darslik-majmua). – T.: Sharq, 2009. – 96-bet.

NAZARIY MA'LUMOT

Erkin she'r tizimi haqida

Hozirgi o'zbek she'riyatiga xos vaznlardan yana biri **erkin she'r tizimidir**. Bu vaznda bir o'lchamdan boshqasiga erkin o'tib ketilaveradi. Unda bo'g'inlar va turoqlar sonining bir xilligiga rioya qilinmaydi. Erkin she'rda shoirning badiiy niyati, qanday fikr-u tuyg'uni qay shaklda ifodalash istagi hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi⁷⁴.



⁷⁴Q.Yo'ldoshev va boshq. Adabiyot (Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 7-sinfi uchun darslik-majmua). – T.: Sharq, 2017. – 54-bet.



16-MAVZU. EPIK TUR VA DRAMATIK TUR HAQIDA MA'LUMOT

EPIK TUR va uning janrlari

Bir yoki bir necha odamning hayoti, taqdiri, ularning boshqa odamlar bilan munosabati haqida hikoya qiluvchi, obrazlarning xarakter xususiyatlarini aks ettiruvchi badiiy asarlar *epik turdagi asarlar* (*eposlar* (yun.«rivoya, hikoya»)) deyiladi⁷⁵. Ular ko'proq nasriy yo'lda bitiladi.

Misollar: *N.Dumbadze «Hellados»* (hikoya), *Ch.Aytmatov «Qiyomat»* (roman), *Oybek «Navoiy»* (roman), *O.Yoqubov «Tengdoshlar»* (qissa), *«Izlayman»* (qissa), *S.Ahmad «Tortiq»* (hikoyalar to'plami) va boshq.

Epik turga mansub asarlarning uch xususiyatini alohida qayd etish mumkin. Bular – tasvirning obyektivligi, voqeabandligi va ko'lamdorligidir.⁷⁶

Hayot hodisalarini badiiy qamrash ko'lamli jihatidah epik asarlarni quyidagicha tasniflash mumkin⁷⁷:

a) **kichik epik janrlar:** *latifa, masal, ertak, hikoya, rivoyat, afsona, badia, etyud, ocherk, esse.*

b) **o'rta epik janr:** *qissa (povest).*

d) **katta epik janrlar:** *epos, epik doston, roman, epopeya.*

Bu janrlarning ba'zilar bilan tanishib o'tamiz:

HIKOYA

Hikoya – yozuvchi tomonidan kuzatilgan, idrok etilgan ibratli voqea va hodisalarni ixcham shaklda badiiy

⁷⁵ Q.Yo'ldoshev va boshq. Adabiyot (Umumta'lim maktablarining 7-sinfi uchun darslik). – T.: Sharq, 2005. – 364-bet.

⁷⁶ Izzat Sulton. Adabiyot nazariyasi. – T.: O'qituvchi, 2005. – 162-bet.

⁷⁷ S.Ahmedov va boshq. Adabiyot (Umumta'lim maktablarining 6-sinfi uchun darslik-najmua). – T.: Ma'naviyat, 2009. – 26-bet.

ifoda etuvchi nasriy asar⁷⁸. U kichik epik janr bo'lib, birgina voqea asosiga quriladi. O'zbek adabiyotida hikoya qadimda «hikoyat» nomi bilan ham yuritilgan. Hikoyaning eng ixcham ko'rinishi **novella** (ital. «yangilik») hisoblanadi.

Voqeyi hikoyalarda hayotda bo'lgan voqealar tasvirlanadi. Masalan, O'.Hoshimov «Gilam paypoq», Sh.Xolmirzayev «O'zbek xarakteri» va boshq.

Hikoyalarning zamonaviy namunalari o'zbek adabiyotida XX asr boshlarida paydo bo'lgan. **Misollar:** A.Qodiriy «Jinlar bazmi», «Uloqda», Cho'lpon «Novvoy qiz», «Oydin kechalarda», «Qor qo'ynida lola», «Oq podshoning in'omi», A.Qahhor «O'g'ri», «Bemor», «Boshsiz odam», «Dahshat», G'.G'ulom «Elatiyada bir ov», «Hiylayi shar'iy», «Mening o'g'rigina bolam», O'.Hoshimov «Urushning so'nggi qurboni», N.Eshonqul «Shamolni tutib bo'lmaydi», E.A'zamov «Ko'k eshik», N.Norqobilov «Olim o'g'il» va boshq.

Jahon adabiyotida Prosper Merime, Gi de Mopassan, O.Genri, A.P.Chexov, Jek London, I.Bunin, S.Sveyg, D.Djoys, A.Morua kabi adiblar hikoyachilikda katta shuhrat topganlar.

OCHERK

Ocherk (rus. «chizmoq, tasvirlamoq») – epik tur janrlaridan biri bo'lib, voqea-hodisalarni, dalillarni va aniq kishilar faoliyatini aynan tasvirlaydi. U ma'lum bir tarixiy davrda yuz bergan tarixiy voqealar, qahramonlar hayoti va faoliyatini aniq hujjatlar asosida yoritib beruvchi publitsistik janrdir. Shuning uchun ocherk «**hujjat adabiyoti**» deb ham yuritiladi. Ocherkda badiiy to'qimaga keng yo'l qo'yilmaydi.

ESSE

Esse (lot. «chamalayman») – erkin kompozitsiyaga ega bo'lgan, shaxsiy mulohaza va qarashlarni ifodalovchi asar.

QISSA

Qissa (povest) – hayot va qahramonlarni aks ettirishdagi

⁷⁸ S.Ahmedov, B.Qosimov, R.Qo'chqorov, Sh.Rizayev. Adabiyot (Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 5-sinfi uchun darslik). I qism. – T.: Sharq, 2011. – 145-bet.

butafsillik, ya'ni sujetning murakkabligi jihatidan hikoya bilan romanning o'rtasida turadigan janr. Uning boshqa epik janrdagi asarlardan farqi yozuvchi tomonidan singdirilgan mazmun-mohiyat ko'lamidadir. **Misollar:** T.Murod «Yulduzlar mangu yonadi», Ch.Aytmatov «Oq kema» va boshq.

ROMAN

Roman (fr.«roman guruhiga mansub tillarda yozilgan asar»; «yangi») – nasr usulida yozilib, hayot keng qamrovda ko'rsatiladigan, hajmi jihatdan hikoya, qissa va boshqa janrlardan ajralib turadigan eposning katta janri. Roman deganda qahramonlarning boshqalarga o'xshamaydigan, o'ziga xos jihatlarini biror voqea-hodisa asosida ko'rsatib beradigan katta hajmli epik asar tushuniladi. Roman tillari (fransuz, nemis va boshqalar)da yozilgan har qanday asar dastlab roman deb atalgan. Keyinchalik markazida alohida bir shaxs taqdiri turgan, shu shaxs xarakterining shakllanish va rivojlanish jarayoni tasvirlangan asarlar roman deb yuritila boshlangan.

Roman janrining dastlabki namunalari Yevropa davlatlarida Uyg'onish davrining oxirlarida (XVI–XVII asrlarda) yaratila boshlangan. Valter Skot, Migel de Servantes, Stendal, Balzak, Turgenev, Dostoyevskiy, Lev Tolstoylar bu janrda shuhrat qozonganlar⁷⁹.

Ilk romanlar bundan 2,5 ming yillar oldin yuzaga kelgan va sochma yo'lda qora so'z bilan bitilgan⁸⁰.

Romanlar qamroviga, tuzilishiga, hajmiga ko'ra 3 xil ko'rinishda bo'ladi:

I. Dilogiya – ikki kitobdan iborat bo'ladi. Masalan, P. Qodirovning «Yulduzli tunlar», «Avlodlar dovoni», H.G'ulomning «Mash'al», M.Ismoilning «Farg'ona tong otguncha», X.To'xtaboyevning «Sariq devni minib», «Sariq devning o'limi», H.Nu'mon va A.Shorahmedovning «Ota» romanlari. O'zbek adabiyotidagi birinchi dilogiya Cho'lponning «Kecha va kunduz» romanidir.

⁷⁹ S.Ahmedov va boshq. Adabiyot (Umumta'lim maktablarining 6-sinfi uchun darslik-majmua). – T.: Ma'naviyat, 2009. – 269-bet.

⁸⁰ Q.Yo'ldoshev va boshq. Adabiyot (Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 9-sinfi uchun darslik-majmua). II qism. – T.: Yangiyo'l poligraf servis, 2014. – 62-bet.

II. Trilogiya – uch kitobdan iborat bo‘ladi. Misol: *S. Ahmad* «Ufq» (a) «Qirq besh kun»; b) «Hijron kunlarida»; d) «Ufq bo‘zag‘asida»). Jahon adabiyotida *L.N.Tolstoy*, *S.T.Aksakov*, ingliz yozuvchisi *Jon Golsuorsining* «Forsaytlar haqida qo‘shiq», arab yozuvchisi *Najib Mahfuzning* «*Xan al-Xalili*», *Vasily Yanning* «Chingizxon», «Botu», «So‘nggi dengizgacha» kabi trilogiyalarini roman-trilogiyalarning mukammal namunasi, desa bo‘ladi.

Muhammad Alining «Ulug‘ saltanat» trilogiyasi «*Jahongir Mirzo*», «*Umarshayx Mirzo*», «*Mironshoh Mirzo*» nomli romanlardan iborat.

III. Epopeya – necha kitobdan iborat bo‘lishiga qaramaydi, uning asosiy belgisi hayotni katta oqim sifatida ko‘rsatishi, bosh qahramon butun xalq bo‘lishidir. *Sadriiddin Ayni*ning «*Qullar*» romani o‘zbek adabiyotidagi birinchi epopeya hisoblanadi. **Epopeyalarga misollar:** *Balzak* «*Insoniyat komediyasi*», *M.Avezov* «*Abay*», *Tolstoy* «*Urush va tinchlik*», *M.Sholoxov* «*Tinch Don*», *A.Serafimovich* «*Temir oqim*», *A.Nurpeisov* «*Qon va ter*» va boshq.

To‘rt kitobdan iborat romanlar **tetralogiya** deyiladi (boshqa manbada «uchdan ortiq kitobdan iborat bo‘lgan romanlar tetralogiya deb ataladi» deyilgan⁸¹.) **Tetralogiyalarga misollar:** rus adibi *V.Katayevning* «*Qora dengiz to‘lqinlari*» tetralogiyasi, *Tohir Malikning* «*Shaytanat*» romani. Besh kitobdan iborat bo‘lgan romanlar **pentalogiya** deb yuritiladi.

To‘rt dan ortiq kitobdan iborat roman shakllarini **romanlar turkumi** deb atash rasm bo‘lgan. Romanchilik tajribasida bunday asarlar turkumiga fransuz adiblari *Romen Rollanning* o‘n jildlik «*Jan Kristof*», *Roje Marten dyu Garning* sakkiz jildlik «*Tibo oilasi*» romanlarini misol qilib keltirish mumkin.

Romanlar mavzu yo‘nalishiga qarab **tarixiy, falsafiy, siyosiy, maishiy, biografik, fantastik, detektiv** kabi xillarga ham ajratiladi. Misol: tarixiy romanlar – *A.Qodiriy* «*O‘tkan kunlar*», *O.Yoqubov* «*Ulug‘bek xazinasi*» va «*Ko‘hna dunyo*», *Oybek* «*Navoiy*», *P.Qodirovning* «*Yulduzli tunlar*»; harbiy romanlar

⁸¹ Qarang: *A.Kattabekov* va boshq. *Adabiyot (8-sinf uchun darslik-majmua)*. – T.: O‘qituvchi, 2001. – 309-bet.

– Oybek «*Quyosh qoraymas*», Shuhrat «*Shinelli yillar*»; zamonaviy romanlar – P.Qodirov «*Olmos kamar*», O.Yoqubov «*Diyonat*»; sarguzasht va fantastik romanlar – X.To‘xtaboyev «*Sariq devni minib*»; ijtimoiy-falsafiy romanlar – A.Muxtor «*Davr mening taqdirimda*» va boshq.⁸²

Tarixiy romanlar voqea-hodisalari va qahramonlari uzoq hamda yaqin o‘tmishdan olib yozilgan, qalamga olingan davr va shaxslar haqida haqiqiy tasavvur beruvchi romanlardir. Bunday romanlar quyidagi turlarga bo‘linadi:

1. Tarixiy-biografik roman – birgina tarixiy shaxs hayoti tasvirlangan roman. Misol: Oybek «*Navoiy*» romani.

2. Tarixiy-avtobiografik roman – yozuvchining o‘z hayoti asos qilib olingan roman.

3. Tarixiy-inqilobiy roman – inqilobiy davr voqealari asos qilib olingan roman. Misol: Oybek «*Qutlug‘ qon*» romani.

⁸² S.Olim va boshq. Adabiyot (Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 8-sinfi uchun darslik-majmua). – T.: G‘. G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2006. – 280-282-betlar.

NAZARIY MA'LUMOT

She'riy roman haqida

She'riy roman⁸³ ham odatdagi romanlar kabi tafsilotlarni bayon qilishga asoslangan janr bo'lib, unda epik va lirik xususiyatlar aralash keladi. She'riy romanda epik xususiyatlar sujetning kengligida, bayon qilishning xolisligida ko'rinsa, lirik jihatlar tasvirga muallifning bermalol aralashishi, o'z tuyg'ularini erkin ifoda qilishida ko'rinadi.

Misollar: A.S.Pushkin «Yevgeniy Onegin» (rus adabiyotidagi birinchi she'riy roman), Mirmuhsin «Ziyod va Adiba» (birinchi o'zbek she'riy romani), Muhammad Ali «Boqiy dunyo», H.Sharipov «Bir savol» va boshq.

DRAMATIK TUR va uning janrlari

Dramatik asarlarda tasvirlangan voqealarga ham, unda ishtirok etayotgan obrazlarga ham muallifning munosabati bevosita ifodalanmaydi, ular sahnada namoyish etish uchun monolog va dialog shaklida bitiladi. Bunday asarlar pardalarga, pardalar esa ko'rinishlarga bo'linadi.

Bu turga quyidagi janrlar kiradi:

DRAMA

Drama (yun.«harakat») – tor ma'noda, kulgili vaziyat yetakchilik qilmagan va qahramon yoki qahramonlarning halokati bilan tugamagan sahna asari. Bunday asarlarda yozuvchi voqeani hikoya qilish usulidan foydalanmaydi.

Drama adabiyotning boshqa turlariga nisbatan xarakterlarning yorqin, konfliktning esa o'tkir bo'lishini taqozo qiladi. Dramaning *lirik drama*, *ertak-drama*, *fantastik drama* singari ko'rinishlari mavjud⁸⁴.

⁸³ Q.Yo'ldoshev va boshq. Adabiyot (Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 9-sinfi uchun darslik-majmua). II qism. – T.: Yangiyo'l poligraf service, 2014. – 162-bet.

⁸⁴ N.Karimov va boshq. Adabiyot (Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 11-sinfi uchun darslik). – T.: O'qituvchi, 2004. – 102-bet.

KOMEDIYA

Komediya (yun. «*xushchaq-chaq to 'da qo 'shig 'i*») – voqealar, xarakterlar, kolliziya (to'qnashuvlar) kulgi, hajv,

yumor asosida tasvirlanadigan dramatik asar. Misollar: A.Qahhor «*Tobutdan tovush*», Sh.Boshbekov «*Temir xotin*» va boshq.

Komediya dastlab Yunonistonda eramizdan oldingi V–IV asrlarda yuzaga kelgan bo'lib, uning asoschisi Aristofandir. O'zbek komediyasi xalq o'rtasida muqallid, taqlid kabi janrlar sifatida uzoq zamonlardan mavjud edi. Biroq haqiqiy komediya janri XX asr boshlarida yuzaga keldi. Komediyaning o'zi ham *fars* (unga keng ommaviylik, hajviy ruhning ustunligi, fikrni erkin bayon etish xos), *vodevil* (unda voqealar tez kechadi, kutilmagan yechim bo'ladi, vatanparvarlik, inqilob g'alabasi kuylanadi), *hazil* singari qator janrlarga bo'linadi.

TRAGEDIYA

Tragediya (yun.«*echki qo 'shig 'i*») – qahramonlarning boshiga tushadigan eng og'ir holatlarni bo'rttirib ko'rsatish yo'li

bilan hayotda hamisha mavjud bo'lgan fojeaviylikni yorqin tasvirlaydigan dramatik asar. Tragediya (fojia)ning boshqa sahna asarlaridan farqi shundaki, u qahramonlar o'rtasidagi kuchli ziddiyatlar asosiga quriladi, qahramonlar taqdiri fojia bilan yakun topadi, ular o'rtasidagi konflikt (ziddiyat) shiddatli va keskin tus oladi. Fojeaviy asar qahramonlar xarakterining yorqinligi, ichki kolliziya (qarama-qarshilik) kuchliligi, personajlar o'rtasidagi ziddiyatning o'ta kuchli ekanligi bilan farqlanadi⁸⁵. Hayot haqiqatiga erishish uchun tragediya, asosan, *makon, zamon, qahramon* uzviy birligiga amal qilishi kerak.

Yunonistonda milodgacha bo'lgan antik davrda har yil fevral oyida hosil va may xudosi – Dionis sharafiga xalq bayramlari o'tkazilgan. O'sha tantanalarda Dionis kiyimidagi kishi tushgan aravaning orqasidan bir to'p qiziqchilar ergashib, o'sha davr odatiga ko'ra echki terisini yopinib olishgan. Bularni

⁸⁵ S.Olim va boshq. Adabiyot (Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 8-sinfi uchun darslik-majmua). – T.: G'.G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2006. – 217–218-betlar.

«tragoslar» deb atash rasm bo'lgan ekan. Keyinchalik bu atama adabiyotga ko'chib, o'zining asl ma'nosidan uzoqlashgan. Birinchi tragediyaning vatani ham Yunoniston bo'lib, «tragediya otasi» *Esxildir* (er.av.VI–V asr).

Fojialarga misollar: Esxil «*Zanjirband Prometey*», «*Oresteya*», Sofokl «*Shoh Edip*», «*Antigona*», Evripid «*Elektra*», «*Medeya*», «*Gerakl*», Shekspir «*Otello*», «*Gamlet*», «*Romeo va Julyetta*», Pushkin «*Boris Godunov*», «*Motsart va Salyeri*», Fitrat «*Abulfayzxon*» (1926, o'zbek adabiyotidagi birinchi fojia), Maqsud Shayxzoda «*Jaloliddin Manguberdi*» (1944), «*Mirzo Ulug'bek*» (1961), Behbudiy «*Padarkush*» (1911) va boshq.





17-MAVZU. BADIY SAN'AT TURLARI

Qadimda «ilmi bade'» («badiylik ilmi», u poetik obraz yaratish vositalarini o'rgatgan), «ilmi qofiya» (she'rdagi qofiyadoshlik bilan shug'ullangan), «ilmi aruz» (she'r vaznini tekshirgan) kabilar maxsus fan sifatida o'rgatilgan. Bu uch yo'nalishda o'rganilgan she'riyat ilmini eron olimlari «*Ilmhoyi segona*» («*Bilimlar uchligi*») deb ataganlar.

«Ilmibade'»ning boshqachan nomi «*Badoye'us-sanoye*», ya'ni badiiy san'atlardir. «*San'at*» arabcha «*sun*» so'zidan olingan bo'lib, «*yaratmoq*», ya'ni badiylik yaratish demakdir. Badiylik yaratishning yo'llari ko'p. Badiiy san'atlar asarda ifodalangan g'oyalarning hayotiyroq, ta'sirchanroq ifodalanishini, lirik va epik timsollarning yorqinroq gavdalanirishini, misralar, bayt va bandlarning lafziy nazokati, jozibadorligini ta'minlovchi vositalardir. Ular quyidagi ikki turga bo'linadi:

1. *Ma'naviy* (ma'noga tegishli) *san'atlar*.

2. *Lafziy* (shaklga oid) *san'atlar*⁸⁶.

Adabiyotda eng ko'p ishlatiladigan badiiy vositalar jami ko'chim bo'lib, adabiyotshunoslikda u *metafora* atamasi bilan ham yuritiladi. Ko'chim so'zni ko'chma ma'noda qo'llash yoki narsa-hodisaga xos sifatlarni qaysidir jihati bilan shularga o'xshaydigan boshqa narsa-hodisalarga ko'chirish san'atidir⁸⁷. Ko'chimning *majoz*, *istiora*, *ramz*, *timsol* singari ko'rinishlari bor.

Quyida badiiy san'atlarning ba'zilari bilan tanishasiz.

ALLEGORIYA

Allegoriya (majoz) ramzning bir ko'rinishi bo'lib, voqea-hodisa yoki narsa buyumning mavhum

⁸⁶ B.Qosimov va boshq. Adabiyot (10-sinf uchun darslik). – T.: O'qituvchi, 2004. – 313-bet.

⁸⁷ Q.Yo'ldoshev va boshq. Adabiyot (Umumta'lim maktablarining 7-sinfi uchun darslik). – T.: Sharq, 2005. – 355-bet.

tushunchasi o'rnida aniq tasvirni ifodalovchi ramziy so'z (obraz)ni qo'llash, ya'ni adabiy asarda o'quvchiga noaniq bo'lgan tushunchani ko'pchilikka ma'lum bo'lgan narsalarga xos belgilar bilan ifodalash usulidir.

Misol: *tulki* – ayyor va aldamchi kishi, *bo'ri* – ochko'z, *chumoli* – zahmatkash kishi va hok.

ANAFORA

Banddagi misra, gaplarning boshidagi so'z yoki so'z birikmasining boshqa misralar boshida ham aynan takrorlanib

kelishi **anafora(takror)**dir.

Misol:

Endi odam quldek sotilmas,

Endi odam o'tga otilmas.

Endi unga qafas bo'lmas jon,

Endi dunyo bo'lmaydi zindon.

(H. Olimjon «Zaynab va Omon»dagi Sobir gap)

ALLITERATSIYA

Tovushlar ohangdorligi, asosan, bir xil tovushlarning takrorlanishidan hosil bo'lgan ohangdorlik **alliteratsiya** (tavze)

bo'lib, bunda she'rda, jumlada, bandda va qisman nasriy asarlarda ham bir xil tovushlar takrorlanadi.

Misol:

Qaro qoshing, qalam qoshing,

Qiyiq qayrilma qoshing, qiz.

Qilur qatlimga qasd, qayrab

Qilich gotil qaroshing, qiz... (Erkin Vohidov)

BALOG'AT

Balog'at kam so'z qo'llab, ko'p ma'no chiqarish mahorati.

“Qay pari paykarg'a, – dersen, – telba bo'lding bu sifat?”

Ey pari paykar, ne qilsang, qil manga bo'ldum sanga.

(A.Navoiy)

Bu baytda radifda kelgan “bo'ldum sanga” so'zlari mantiqan “telba bo'ldum sanga” deb tushunishni taqozo etadi.

HARF SAN'ATI (Kitobat)

Kitobat badiiy tasvirda arab alifbosidagi harflardan foydalanish san'atidir.

Misollar:

Nigoro, bori g'am birla faqiri notavon aylab,
«Alif»dek qomatimni «lom-alif» yanglig' duto qilding.
(Huvaydo)

«Ayn»u «shin»u «gof»inga to bo'ldi ko'nglum muftalo,
«Dob»u «ro»u «dol»u hajringdin dame erman judo.
(K.Xorazmiy)

Sarv qadlar suratin chekkanda naqqoshi azal
Bir alif shaklida yozmish qaddi zebo surating.
(Furqat)

HUSNI TA'LIL

Husni ta'lil (ar.«chiroyli dalillash») adabiy asarlarda tasvirlanayotgan biror hodisaga shoirona biror sabab ko'rsatish, she'rda biror voqeani unga daxli bo'lmagan boshqa hodisa bilan izohlashdir. Uning asosida muayyan bir hodisani real – hayotiy mantiq bilan emas, balki shoirona xayol – badiiy mantiq bilan «isbotlash» yotadi.

Misollar:

Garchi shuncha mag'rur tursa ham
Piyolaga egilar choynak.
Shunday ekan, manmanlik nechun,
Kibr-u havo nimaga kerak?
(E.Vohidov)

Kelgil, ey o'tlug' ko'ngul, eski chopong'a qone' o'l,
Kim, hamisha jismig'a kuldin qilur axgar libos.
(Ogahiy)

Bu oqshom mahvashim ruxsori oy birla taloshibdur,
Emas anjum, falak ahli ochib ko'zlar qaroshibdur.
(Ogahiy)

Nozuklik ichra belicha yo'q tori gisuyi
O'z haddini bilib belidin o'turur quyi.
(Lutfiy)

Kuyib, o'rtanib sham suv bo'ldi pok,
Asar qildi so'zi gudozin mening.
(Nodira)

Sabo tahrکیدin yo‘q, balki og‘zing sharmidin boshin
Quy solmoqqa moyil bo‘lg‘usidir har zamon g‘uncha.

(Munis)

Quyosh oydek yuzungning xijlatidin
Qochib, to‘rtinchi ko‘k uzra chiqibdur.

(Lutfiy)

Qutlug‘ oyog‘ing yerga tegibdur, oning uchun,
El yerga qo‘yub bosh, qilur barcha ibodat.

(Lutfiy)

IYHOM

Iyhom (ar. «shubhaga solish», «adashtirish») – baytda biri aniq, biri yashirin bo‘lgan ikki ma‘noli so‘zni qo‘llash usulidir. Bunda shoir aslida ikkinchi ma‘noni ko‘zda tutsa ham dastlab yaqin, birinchi ma‘no e‘tiborni tortadi.

Ulus ichinda turur *o‘z begim* qiyo ko‘zluk,
Xayoli *to‘qtamish* andin ko‘ngil saroyinda.

(Lutfiy)

Bu baytdagi «o‘z begim» so‘zi «o‘zimning begim» va «o‘zbekim» ma‘nolarini ifodalaydi. Bunda muallif «xalq» ma‘nosini ko‘zda tutayotganini payqash qiyin emas. «To‘qtamish» va «saroy» so‘zlarida ham shu xususiyat bor.

IRSOLI MASAL

She‘riyatda xalq og‘zaki ijodida mashhur bo‘lib ketgan biror maqol, matal, ibora yoxud hikmatli so‘z keltirib, nutq ta‘sirchanligini oshirish usuliga **irsoli masal** (ar. «*irsol*» – keltirish, «*masal*» – misol, tamsil, maqol, matal, ibora; «*masal keltirmoq*», «*maqol kiritish*») deyiladi.

Eski o‘zbek tilida maqol, matal va iboralar **masal** yoki **zarb ul-masal** deb nomlangan.

Shoirming «irsoli masal» san‘atini qo‘llashdan maqsadi o‘z fikrini maqol, matal, ibora yo hikmatli so‘z orqali quvvatlab olish, o‘quvchi ishonchini kuchaytirish va ifoda ta‘sirchanligini oshirishdir.

Misollar:

Xunob ichar vaqtimda xush kelding, ko'ngulkim, xalq aro,
Yaxshi masaldurkim: «Kelur yaxshi kishi osh ustina».

(Ogahiy)

Ayoqingga tushar har lahza gisu,
Masaldurkim: «Charog' tubi qarong'u».

(Lutfiy)

Tilar vaslingni Lutfiy, qil ijobat, –
Ki ayturlar: «Tiloganni – tilogu».

(Lutfiy)

Har kishikim birovga qozg'oy choh,
Tushgay ul choh aro o'zi nogoh.

(A.Navoiy)

Sabr qilsang g'o'radin halvo bitar,
Besabrlar o'z oyog'idan yitar.

(Gulxaniy)

ISTIORA

Badiiy asarlarda so'zni o'z ma'nosidan boshqa bir ma'noda, ya'ni majoziy ma'noda qo'llash san'ati **istiora**(metafora)dir. Bu san'at so'z ma'nolari ko'chishining bir turi bo'lib, u narsa va hodisalar o'rtasidagi o'xshashlikka asoslanadi. Shu jihatdan **istiora** tashbeh (o'xshatish) san'atiga yaqin turadi. **«Istiora»** arabcha so'z bo'lib, **«biron narsani omonatga (vaqtincha) olmoq»** (“qarz olmoq”) degan ma'noni ifodalaydi. Tuzilishiga ko'ra bir so'zdan yoki iboradan tashkil topgan **istiora sodda istiora**, birikmali **istioralar murakkab istiora** sanaladi. Navoiyning

**Furqatingdin za'faron uzra to'karmen lolalar,
Lolalar ermaski, bag'rimdin erur pargolalar**

– baytidagi **«sarig' yuz»** ma'nosidagi **«za'faron»** so'zi sodda **istiora**, **«qonli yosh to'kaman»** ma'nosidagi **«to'karmen lolalar»** iborasi murakkab **istiora** misol bo'la oladi.

Yana boshqa misollar:

**Keldi ochilur chog'i o'zliging namoyon qil,
Parchalab kishanlarni har tomon parishon qil.**

(Hamza)

**Sher yurakli bu Lochin
Qoqib qanot - qulochin,**

Quzg'unlardan asradi
Elning xotin - xalochin.

(M.Shayxzoda «Kapitan Gastello»)

Bunda Lochin – kapitan Gastello, quzg'unlar – fashistlar ma'nosida ishlatilgan.

Tamanno qilg'ali la'lingni ko'nglum,
Kishi bilmas oni kim, qoldi qanda.

(Atoyi)

Ul oy o'tlug' yuzin ochsa, Navoiy, tegmasin de ko'z,
Muhabbat tuxmidin o'zga ul o't uzra sipand etmas.

(Navoiy)

ISHTIQOQ

Ishtiqaq (ar. «so'zdan so'zni ajratmoq») she'r baytlarida bir xil o'zakdan yasalgan so'zlarni keltirish san'ati hisoblanadi.

Misollar:

Ganja vatan, ko'ngli oning *ganixez*.
Xotiri *ganiuru* tili *ganirez*.

(A. Navoiy)

Ganja ganjurikim chekib ko'p ranj,
Qo'yimish erdi jahonda besh ganj.

(A.Navoiy)

JONLANTIRISH

Odamlarga xos bo'lgan xususiyatlarni jonsiz narsalar, tabiat hodisalari, hayvon, parranda, qush kabilarga ko'chirish orqali hosil bo'ladigan tasvir usuli **jonlantirish**dir. Jonlantirishning 2 xil ko'rinishi bor:

1. **TASHXIS** – jonsiz narsalarni jonlantirish. «Tashxis» arabcha, «shaxs» o'zagidan hosil bo'lgan bo'lib, «shaxslantirish» ma'nosini bildiradi⁸⁸. Narsa va jonli mavjudotlarni insonga xos bo'lgan xususiyatlar bilan jonlantirish orqali shoir o'z asarida chiroyli va nafis obrazlilikka erishadi.

Jamoling vasfini qildim chamanda,
Qizordi gul uyottin anjumanda.

(Atoyi)

⁸⁸ Q.Yo'ldoshev va boshq. Adabiyot (Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 9-sinfi uchun darslik-majmua). – T.: Yangiyo'l Poligraph service, 2006. – 156-bet.

Nastaran yuvib yuzni, yosumon tuzib o'zni,
Nargis ochibon ko'zni intizori yoronlar.

(Furqat)

Yuksakda raqs etar bir tup na'matak,
Quyoshga bir savat gul tutib xursand!

(Oybek)

Barg ostidan muloyim boqqan iboli g'uncha,
Ne sirni saqlagaysan, bag'ring necha tuguncha?

2. INTOQ – nutqsiz narsalarni nutq egasi sifatida tasvirlash.

Misollar:

Bunda qorning taglarida qish,
Bahor uchun so'zlaydi olqish.

(H.Olimjon)

Erta tong shamoli sochlarin yoyib,
Yonimdan o'tganda so'rab ko'raman.
Aytadir: bir ko'rib, yo'limdan ozib,
Tog'-u toshlar ichra istab yuramen!

(Cho'lpon «Go'zal»)

LAFF VA NASHR

Bu san'at she'r baytida avval bir necha narsa yoki tushuncha nomini ketma-ket keltirib, keyin ular haqidagi hukmlarni ketma-ket bayon qilishni nazarda tutadi. *Laff* (ar.) «yig'ish», *nashr* (ar.) «yoyish» demakdir. XV asr adabiyotshunosi Atoullah Husayniy uni shunday tushuntiradi: «*Laff-u nashr ondin iboratturkim, bir nechani zikr qilurlar, andin so'ng ul bir nechaga aloqador bir necha nimani bu nimalarning har biri ul bir nechaning qaysi birig'a taalluqlug' erkonin aniq bilmay zikr qilurlar*»⁸⁹.

Bunda shoir biror narsa yoxud hodisani sanab, so'ng shu tartibda ularga tegishli o'xshatishlarni tizib chiqadi.

LITOTA

Litota (*tafrit, ifroq*) tasvir ob'yektini ataylab kichraytirib, zaiflashtirib tasvirlash usuli, ya'ni behad kichraytirilgan mubolag'adir.

Misollar:

⁸⁹ N.Karimov va boshq. Adabiyot (Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 9-sinfi uchun darslik). – T.: Ma'naviyat, 2002. – 67-bet.

Bo'ying sarvu sanubardek, *beling qil*.
Vafo qilg'on kishilarga vafo qil.

(Xorazmiy)

Bu so'zning mazmuni shu qadar issiq,
Quyosh bir kichik sham uning yonida.

(Uyg'un)

Nozuklik ichra belicha yo'q tori gisuyi
O'z haddini bilib belidin o'turur quyi.

(Lutfiy)

MUBOLAG'A
(giperbola)

Mubolag'a (ar.«lof urish, bo'rttirish») – tasvirlanayotgan narsa, shaxs va voqea-hodisaning muayyan jihatlarini bo'rttirib, kuchaytirib tasvirlash usuli. Sharq klassik she'riyatida mubolag'a san'atiga she'r ziynati sifatida qarab, «*Ahsanahu akzabahu*» (*eng yaxshi she'r – eng yolg'on she'rdir*) degan naqlga amal qilganlar.

Mubolag'a quyidagi turlarga bo'linadi:

1. **Tablig'** – tasavvur qilish mumkin-u, amalga oshirish qiyin bo'lgan bo'rttirilgan tasvir usuli.

Misol:

Ey sabo, holim borib sarvi xiromonimg'a ayt,
Yig'larimning shiddatin gulbargi xandonimg'a ayt.

(A.Navoiy)

2. **Ig'roq** – tasavvur qilish qiyin, amalda mutlaqo bo'lmaydigan bo'rttirilgan tasvir usuli. Misol:

Otlar kishnar, qizlar kuylar, *tinmay ishlar dehqonlar*.
Quyosh oltin buloqdir, qaynar, toshar... Ko'k tiniq.

(Oybek)

3. **G'uluvv** – tasavvur qilish juda qiyin bo'lgan, amalda bo'lishi sira mumkin bo'lmagan bo'rttirilgan tasvir usuli.

Misol:

Vah, muhabbat ko'yida *qon vig'ladim*.
Yetti iqlim g'arq bo'ldi yoshima.

(Mashrab)

Xalqog'zaki ijodivamumtoz adabiyotimizdaba'zan orttirmali mubolag'alar ham uchraydiki, ular adabiyotshunoslikda *bulug'* yoki *ifrot* deb yuritiladi.

Misollar:

Tikilsam quriydi daryoning gumi,
Na'ra tortsam qular qo'rg'onning timi.

(«Alpomish»dan)

Turfa qishloqi g'azabkarda, ki parrandalari –
Tovuqi ignachi-yu, o'rdagu g'ozi kapalak.

(Maxmur «Hapalak»)

Janobi shahg'a keldim bu jihatdin,
Ko'zim yoshig'a toya-toya navro'z. (Ogahiy)

MUSOVİYATTARAFAYN

(Masnu' (ar. san'atli,
sersan'at))

Bunda she'r misralari odatdagi o'qilishidan tashqari yuqoridan pastga qarab o'qilganda ham bir xil matn hosil bo'laveradi.

«Musoviyattarafayn»⁹⁰ arabcha so'z bo'lib, «*ikki tomonlama teng, bir xil*» degan ma'noni bildiradi.

Ogahiyning quyidagi musoviyattarafayn usulida yozilgan she'ri adabiyotimiz tarixida juda kam uchraydigan hodisalardan hisoblanadi:

Ul sho'xki	ochildi	xat-u	ruxsori
Ochildi	rayohinda	yuzi	gulnori
Xat-u	yuzi	besabr-u qarori	man man
Ruxsori	gulnori	man man	zori

Yana bir misol:

Yetti meni	o'lturgali	oxir	hijron
O'lturgali	qo'yma	meni qutqar	ey jon
Oxir	meni qutqar	bu firoq	asru yomon
Hijron	ey jon	asru yomon	oh-u fig'on

(Z.M.Bobur)

NIDO

Nido bevosita inson qalbidagi his va hayajonlarni ochiq va kuchli tasvirlab bera olishdir. Insonning ichki tuyg'ulari junbushga kelganida

⁹⁰ Q.Yo'ldoshev va boshq. Adabiyot (Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 9-sinfi uchun darslik-majmua). – T.: Yangiyo'l Poligraph service, 2006. – 144-bet.

lirik qahramon olamdagi har qanday narsa-hodisalarga, tabiatdagi istalgan narsaga, o'zining qalbiga, suhbatdoshiga murojaat etishi mumkin⁹¹.

Misollar:

- Quloq solgin xon otangning tiliga,
Oo'zim, ketayik-da Oqtosh eliga.

(“Rustamxon” dostonidan)

Sensiz u jahon ayshi alamdur manga, ey do'st,
Shodlig'i ham mehnat-u g'amdur manga, ey do'st.

(Atoy)

Ey sabo, holim borib sarvi xironomning'a ayt,
Yig'larimning shiddatin gulbargi xandoning'a ayt.

(A.Navoiy)

QAYTARISH SAN'ATI

Qaytarish san'ati (radd-ul-ajuz il-as-sadr yoki radd-ul ajuz min-as-sadr) baytdagi mazkur o'rinlardan biridagi so'zning yana boshqa bir o'rinda takrorlanishini nazarda tutadi. Qaytarish san'atida quyidagilarni bilish lozim: **Sadr** – birinchi misraning boshlanishi, **aruz** – birinchi misraning oxiri, **ibtido** – ikkinchi misraning boshi, **ajuz (zarb)** – ikkinchi misraning oxiri, **hashv** – misralarning o'rta qismi. Buni quyidagicha ko'rsatish mumkin:

SADR HASHV ARUZ
IBTIDO HASHV AJUZ (yoki zarb)

Qaytarish san'atining quyidagi turlari mavjud:

1. **Radd-us-sadr ilal-ibtido** (bayt boshidagi so'zning ikkinchi misra boshida kelishi):

Husni to huvaydo qildi xoliq

Husn birla vafo bo'lmas muvofiq. (Xorazmiy)

2. **Radd-ul-aruz ilal-ibtido** (birinchi misra oxiridagi so'zning keyingi misra boshida kelishi):

⁹¹ B.To'xliyev, B.Karimov, K.Usmonova. Adabiyot (O'rta ta'lim muassasalarining 10-sinfi va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalarining o'quvchilari uchun darslik-majmua. -T.: “O'zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, 2017. – 181-bet.

Atoyini agar olamga sotsang.

Sot. ey zohidki, ul xublar qulidur. (Atoiy)

3. Radd-ul-aruz il-al-ajuz (birinchi misra oxiridagi soʻzning bayt oxirida kelishi):

Kitobat boshladim anjoma yetgay.

«Muhabbatnoma» Misr-u Shoma yetgay. (Xorazmiy)

4. Radd-us-sadr ilal-hashv (bayt boshidagi soʻzning misra oʻrtasida kelishi):

Gunah qildimki, hajringda tirildim,

Vale mendin gunah, sendin karamdur. (Atoiy)

5. Radd-us-sadr ilal-ajuz (sadrning ajuzda takrorlanishi):

Uqush boʻlsa asgʻi edi – oʻq oʻkush.

Qamugʻ edgulik ulgi – ul bu uqush. (Y.X.Hojib)

6. Radd-ul-hashv ilal-ibtido (birinchi misra oʻrtasidagi soʻzning ibtidoda takror kelishi):

Qali edguka boʻlsa, esiz eshi,

Esiz boldi qilqi ul esiz tushi. (Y.X.Hojib)

7. Radd-ul-hashv ilal-hashv (birinchi misra oʻrtasidagi soʻzning keyingi misra ichida qaytarilishi):

Ul sanamkim suy yaqosinda paridek oʻltirur,

Gʻoyati nozukligindin suy bila yutsa boʻlur. (Atoiy)

8. Radd-ul-hashv ilal-ajuz (misra ichidagi soʻzning keyingi misra oxirida kelishi):

Ula nang kishika yetur ham ichur,

Seni nang kechurgay. ani sen kechur.

9. Radd-ul-aruz ilal-hashv (birinchi misra oxiridagi soʻzning keyingi misra ichida ham kelishi):

Nektu ter eshitkil kur erdamlug er,

Bu erdam bila er tilak arzu yer. (Yu.X.Hojib)

10. Radd-us-sadr ilal-aruz (bayt boshidagi soʻzning birinchi misra oxirida kelishi):

Jamolingtek kishining yoʻq jamoli.

Daregʻo, boʻlmasa erdi zavoli. (Xorazmiy)

11. Radd-ul-ibtido ilal-hashv (ikkinchi misra boshidagi soʻzning shu misra oʻrtasida kelishi):

Boʻyung sarv-u sanubartek, beling qil,

Yafu qilgʻon kishilarga yafu qil. (Xorazmiy)

12. Radd-ul-ibtido ilal-ajuz (ikkinchi misra boshidagi soʻzning bayt oxirida kelishi):

Bu dunya ishi koʻr oʻyun – ul oʻyun,

Oʻyunqa qatilma nerak bu oʻyun. (Y.X.Hojib)



18-MAVZU.

BADIIY SAN'AT TURLARI (Davomi)

RAMZ

Ramz (simvol) majoz turlaridan biridir. «*Simvol*» yunoncha soʻz boʻlib, qadimgi paytda yunonlarda maxfiy tashkilot aʼzolarining bir-birini tanib olishi uchun qoʻllanilgan shartli belgi boʻlgan. Ramz tasavvur etilishi mushkul boʻlgan hodisa va tushunchalar ifodasi uchun yaqqol koʻrinadigan narsalarning koʻchma maʼnoda qoʻllalishidir⁹². Oʻquvchi anglashi murakkabroq boʻlgan mavhum axloqiy sifatning shu sifatlarga koʻproq ega boʻlgan narsa va jonivorlar orqali ifodalanishiga ramz deyiladi⁹³. Misollar: gul – *maʼshuqa ramzi*, oq kabutar – *tinchlik ramzi*, sariq gul – *ayriliq ramzi*, tun – *hasrat ramzi*, may – *hayot ramzi*, burgut – *magʻrurlik ramzi* va boshq.

Hamid Olimjonning quyidagi misralarida ham ramz qoʻliangan:

*Men bir qora kunda tugʻildim,
Tugʻildim-u, shu on boʻgʻildim...
Oʻlkada tun koʻrardi umr,
Goʻshalarga tushmas edi nur.*

RADD UL-QOFIYA

Gʻazaldagi matlaʼda va maqtaʼda soʻzni takroriy qofiya tarzida qoʻllash radd ul-qofiya hisoblanadi. Bu sanʼat Fuzuliyning «*Mani jondan oʻsondirdi...*» gʻazalida qoʻllangan.

RADD UL-MATLAʼ

Gʻazaldagi matlaʼ birinchi misrasining maqtaʼdagi ikkinchi misrada takrorlanishi, yaʼni gʻazal-

⁹² Q.Yoʻldoshev va boshq. Adabiyot (6-sinf uchun darslik-majmua). – T.: Yozuvchi, 2002. – 87-bet.

⁹³ Q.Yoʻldoshev va boshq. Adabiyot (Umumtaʼlim maktablarining 7-sinfi uchun darslik). – T.: Sharq, 2005. – 355-bet.

ning birinchi misrasini uning oxirida takrorlash san'ati **radd ulmatla'** (ar.«matla'ning qaytarilishi») hisoblanadi. Masalan, Ogahiyning «Bizki bukun jahon aro kishvari faqr shohimiz...» yoki «Ashkima gar kanora yo'q, bo'lmasa bo'lmasun netay...» deb boshlanadigan g'azallarida birinchi misralar asarlar oxirida takrorlanib, shoirning g'oyasini ta'kidlashga xizmat qilgan.

Misol:

Qoshi yosinmu deyin, ko'zi qarosinmu deyin,
Ko'ngluma har birining dard-u balosinmu deyin?!

Ko'zi qahrinmu deyin, kirpiki zahrinmu deyin,
Bu kudurat ichra ruxsori safosinmu deyin?!

Ishqi dardinmu deyin, hajri nabardinmu deyin,
Bu qatiq dardlar aro vasli davosinmu deyin?!

Zulfi dominmu deyin, la'li kalominmu deyin,
Birining qaddin, yana birning adosinmu deyin?!

Turfa xolinmu deyin, qaddi niholinmu deyin,
Movi(y) ko'nglak uzra gulrangi qabosinmu deyin?!

Charx ranjinmu deyin, dahr shikanjinmu deyin,
Jonima har birining javr-u jafosinmu deyin?!

Ey Navoiy, dema qosh-u ko'zining vasfini, ayt,
Qoshi yosinmu deyin, ko'zi qarosinmu deyin?!

(A.Navoiy, «Navodir ush-shabob»ning 483-g'azali)

RUJU'

Ruju' (ar.«qaytish») she'riyatda shoirning oldingi misra yoki baytda ifodalangan fikri, qo'llagan badiiy tasviriy vositalaridan qaytgandek bo'lib, keyingi misra yoki baytda unga qaraganda kuchliroq ifoda, she'riy san'atni keltirish yoki oldingi fikrni aniqlashtirish, to'ldirish usulidir. Ruju'ning mohiyati o'z-o'zini inkor etib, fikrni kuchaytirishdadir.

Misol:

O'n sakiz yil dema, yuz sakson yil o'lsa, uldurur
Husn shohi, ul balolarkim, ko'z-u qoshindadur.

(A.Navoiy)

Meni ishqdin man' etar soda shayx,
Dema soda shayx, aytkim, loda shayx.

(A.Navoiy)

SAJ'

Gapdagi ayrim bo'laklarning vazn yoki qofiyada moslashishi, nasriy asarlardagi qofiya saj' (ar.«qofiyali nasr») deyiladi.

Misollar:

«Har kim maydonga ot soladi, otini o'zdirgan odam oladi. Har kimning o'z ko'ngli o'zidan qoladi».

(«Alpomish» dostonidan)

«Ravshanxon bu bog' devorlariga qarasa, tik paxsasini ishlagan, devorining tagini g'ishlagan, juda mahkam qilib tashlagan, devorlarni ganilagan...».

(«Ravshan» dostonidan)

«Shunda bolalar kundan kun o'tib, oydan oy o'tib, birdan ikkiga kirib, ikkidan uchga kirib, ularning tili chiqib, elga enib uchchovini ham maktabga qo'ydi».

(«Alpomish»)

«Xonning Chibor oti poyganing oldini olib, shashti bilan kelib, baxmal o'tovni yetti marta aylanib, otning tizginini ushlab Qorajon to'xtatdi».

«Xaloyiqlar ham ko'rdi: tarzi gul yuzli, shirin so'zli, bir siyosatli kishi qalandar bo'lib kelayotir».

Quyidagi misralarda ham saj' san'atini ko'rish mumkin:

Labing bag'rimni qon qildi, ko'zumdin qon ravon qildi,
Nechun holim yamon qildi, men andin bir so'rorim bor.

(Bobur)

Yurakda dard-u g'am qat-qatki, menda qolmadi toqat,
Agar bir zarrasin bul vaqt desam, ishq bayon o'rtar.

(Mashrab)

SIFATLASH

Sifatlash (*epitet*) narsa, voqea-hodisa, tushuncha va kishilarning belgi-xislatlarini aniqlovchi, izohlovchi, tavsiflovchi

so'zni qo'llashdir.

Misollar:

Suvsiz cho'lda mard Hasan,
Yakka ketib boradi.

(«Ravshan» dostonidan)

Sallalari boshlarida oq savat,
Ko'rpacha tagda hamavaqt uch qavat.

(Muqimiy)

TA'DID

Ta'did (*Ta'zil, shumur, siyoqat-ul a'dod, e'dod, te'dod*) fikriy rivoj, ketma-ketlik, tadrijiylikni bildiradi. U grammatik

qurilmalarning bir xil shaklidan ketma-ket foydalanish orqali ham yuzaga chiqishi mumkin.

Misollar:

Oti Farrux, o'zi farxunda axtar,
Aning hukminda ul iqlim-u kishvar.

(«Gul va Navro'z»)

Tilingni ko'dazgil, ko'zingni ko'daz,
Bo'g'uzni ko'dazgil, halol, yegil az.

(Y.X.Hojib)

Dardga to'lding, g'amga to'lding, telba bo'lding,
Ishq dardini so'rsang hargiz darmoni yo'q.

(A. Yassaviy)

O'qi bu Lutfiy mungluq niyoznomasini,
Savob-u olqish-u yuz ming duo kerak bo'lsa.

(Lutfiy)

Ta'lim gulchehra nargis ko'zlilar bor,
Shakar dudog'li, shirin so'zlilar bor.

(Xorazmiy)

TAJNIS (jinos)

She'r baytida ma'no jihatidan har xil, ammo shakli bir xil yoki shaklan bir-biriga yaqin bir necha so'zni keltirib, ular vositasida muayyan fikr, lavha yoki timsolni ta'sirchan ifodalash san'ati **tajnis** (*ar. «oxshash»; «jinsdosh», «shakldosh»*) deyiladi. Bunda muallif bir necha so'zlar ishtirokida ohoriy (original, ya'ni birmartalik) shakldoshliklar yaratishi mumkin. Masalan, *ul Oy, u loy, uloy (ulay)* so'z birikmalari tilda omonim emas. Demak, tajnisga omonim so'zlarni qo'llash deya oddiygina ta'rif berish xato⁹⁴.

Tajnis san'atining xususiyatlari quyidagicha:

1. Nutqda shakli bir xil, ammo ma'nosi har xil so'zlar yoki so'zlar turkumini qo'llash.

⁹⁴ S.Olim va boshq. Adabiyot (Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 8-sinfi uchun darslik-majmua). – T.: O'zbekiston nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2010. – 79-bet.

2. Tajnis ham lafziy, ham ma'naviy san'at.
3. Unda qofiyaga olingan so'zlar turkumi o'zaro shakldoshlik paydo qilishi shart.

4. Turkiy tillar tajnis yaratish uchun katta imkoniyatga ega.

5. Tajnis qofiyaga olinganda shuning o'zi qofiya vazifasini o'taydi. Misollar:

Ulkim ko'ngul oldi zulfi xoli.
Ko'ngludin emas xayoli xoli. (Lutfiy)

Bo'yung sarv-u sanuvbartek, beling qil.
Vafo qilg'on kishilarga vafo qil. (Xorazmiy)

Raqiblarg'a qilur la'ling tabassum,
Qonimni g'ussadin toshurmog'ing ne?

Ko'ngul shishasida mehring mayidir,
Jafo birla anga tosh urmog'ing ne? (Atoyi)

Zulm o'zinga fisqdur, ey hushvor.
Gum qil ani, bo'lsa sanga xush vor.

Ag'yor ko'z olida-u ul ayon yo'q,
G'am xori ko'ngul ichra-yu g'amxor topilmas.

Ey gul, meni zor etmaki husnung chamanida,
Ko'zni yumub ochquncha, bu gulzor topilmas.

(Z.M.Bobur)

Dilbarimning zulfi sunbul, chehrasi gulzor erur,
Bo'yina oshiq sanavbar, yuzina gulzor erur.

(S.Saroyi)

Ey bag'ritosh, ko'nglum evin aylama xarob,
Kim surating chizilmish aning ich-u toshinda.

(Xorazmiy)

Yuz ochg'il, ko'z seni to'yguncha ko'rsin,
Necha bo'lg'ay bu ko'zim muntazir, och.

(Lutfiy)

TAJOHIL UL-ORIF

Baytda aks ettirilayotgan bironta obrazli iborani aniq aytmasdan o'zini bilib bilmaslikka olgandek ko'rsatish **tajohil ul-orif** (ar.«bilib turib bilmaslikka olish») san'ati hisoblanadi.

Misollar:

Jonbaxsh la'ling ustida ul xoli hindularmudur,
Yo chashmai hayvon uza zog'i siyahmo'larmudur.

(K.Xorazmiy)

Nahot shuncha ma'sum, shuncha pok
Sevishmoqda alam bor shuncha?

(Zulfiya)

Mengiz yo ravzai rizvonmudur bu?
Og'iz yo g'unchai xandonmidur bu?

(Atoyi)

Xo'blarda seningdek bir mahbub qani nozuk?
Boshdin oyoqi zebo, bel-u badani nozuk.

(Lutfiy)

TAKRIR

She'rda u yoki bu so'zni takror qo'llash san'atiga **takrir** (ar.«takrorlash») deyiladi.

Misollar:

Ko'ni bo'l, ko'ni qil, otin' ko'ni.
Ko'ni teyu' bilsun haloyiq seni.

(A. Yugnakiy)

1 - to'g'ri, rost, haqqoniy. 2 - atan, nom ol. 3 - deb.

Qaysi gulning men kibi bir andalibi zori bor,
Qaysi bulbulning seningdek bir guli bahori bor.

(Munis)

Ishqqa tushding, o'tg'a tushding, kuyib o'lding.
Parvonadek jondin kechib axgar bo'lding.

(A. Yassaviy)

TALMEH

Talmeh (ar.«chaqmoq chaqilishi»; «bir nazar tashlash») she'rda o'tmishdagi mashhur zotlarga, mashhur qissa, mashhur bayt yoki mashhur maqolga ishora qilish, mashhur tarixiy yoki adabiy qahramonlar nomini keltirish usulidir.

Misollar:

Hoki taning barbod o'lur oxir jahonda necha yil,
Sayr et Sulaymonddek agar taxting qurub bod ustina.

(Ogahiy)

Ham yana Erhubbi bo'lodur tag'o,
Ammamizning erlaridur Nurato. (Muqimiy «Tanobchilar»)

Bir oh ila kul bo'ldum, ey charx, tilab topib,
Farhod ila Mainung'a oshliqlik ishin o'rgat. (A.Navoiy)

Jomi Jam birla Xizr suvi nasibimdur mudom,
Soqiyo, to tarki joh aylab gado bo'ldum sanga. (A.Navoiy)

Filotun ish darsida menga shogird erur, lekin
Xatingni ramzidin ogoh emas ta'bi xiradmandim. (Amiriy)

Lavli andin qo'ydi Majnun ko'nglida raxti g'amin,
Kim, yo'q erdi manzil ul vodiya andin pokrok. (A.Navoiy)

Sulavmon saltanatlik podshosen,
Masih anfoslik, Yusufliqosen. (Xorazmiy)

TAMSIL

Tamsil (ar.«*misol keltirish*») fikrni isbotlash uchun bironta misol keltirish san'atidir. Bunda ba'zan maqol ham keltirilishi mumkin.

Misol:

Umri jovid istasang, fard o'liki, bo'ston hizridur,
Sarvkim, da'b ayladi ozodalig' birla maosh.

(A.Navoiy)

TANOSIB

She'r baytlarida bir-biriga bog'liq va bir-biriga yaqin tushunchalarni anglatuvchi so'zlarni qo'llash san'ati **tanosib** (ar.«*bog'lanish*»; «*munosabat*») deyiladi. Shoir biror hodisani tasvirlar ekan, ma'no jihatidan unga yaqin so'zlarni ishlatadi va bu uning yorqinroq, ishonchliroq tasvirlanishiga yordam beradi.

Misollar:

Zulfing cheriki jamol mulkin
Oldi ko'zung ittifoqi birla. (Atoiy)

Uzun sochingdin uzmasmen ko'ngulni,
Avoqing qanda bo'lsa boshim anda. (Atoiy)

Mayl qo'yki, vola-u zor ul,
Jon berib vasliga xaridor ul. (A.Navoiy)

Sango doyim bo'lub davlat qushi rom,
Shikor andoz-u dastomuz bo'lsun. (Ogahiy)

Ko'z bila qoshing yaxshi, qabog'ing yaxshi,
Yuz bila so'zing yaxshi, dudog'ing yaxshi.

Iyng birla menging yaxshi, saqog'ing yaxshi,
Bir - bir ne deyin boshdin ayog'ing yaxshi. (A.Navoiy)

Olma yanoqing ko'rgach, men bandi nechuk o'lmay?
Bodom ko'zi fitna, pista dahani nozuk. (Lutfiy)

TARSE'

She'rda birinchi misra so'zlari bilan ikkinchi misra so'zlarining bir-biriga ohangdosh, vazndosh, qofiyadosh bo'lib kelishi **tarse'** (ar.«ziynatlash, «bezash», «ipga marjon tizish») hisoblanadi.

Misollar:

Yod etmas emish kishini g'urbatda kishi.

Shod etmas emish ko'ngulni mehnatda kishi.

(Bobur)

Jismimni talashsa erdi itlar,
Qonimni yalashsa erdi itlar.

(A.Navoiy)

TARDI AKS

Tardi aks (ar.«teskari qilib takrorlash») so'z takroriga asoslangan lafziy san'atdir. U she'rning birinchi misrasida keltirilgan so'z yoki so'z birikmalarini keyingi misrada o'rnini almashtirib qaytarishni nazarda tutadi. «Tard»ning ma'nosi «qaytarib berish», «qochirish», «uzoqlashtirish» demakdir. Aks esa «zid», «teskari», «chappa» ma'nolarini bildiradi⁹⁵.

Misollar:

Erursen shoh – agar oghosen, sen,
Agar oghosen, sen – shoh sen sen.

(A.Navoiy)

Yuz uza ikki nargising, vah, ne balo qaro. dedim,
Ko'nglunu joning olg'uchi ikki qaro balo. dedi.

(Ogahiy)

Menga dushvor erur sensiz tirilmoq,
Senga men bo'lmasam, ey jon, ne g'amdur.

(Atoyi)

⁹⁵ B.To'xliyev, B.Karimov, K.Usmonova. Adabiyot (O'rta ta'lim muassasalarining 10-sinfi va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalarining o'quvchilari uchun darslik-majmua. -T.: "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti, 2017. – 179-bet.

Ko'zung ne balo qarq bo'lubtur
Kim, jong'a qaro halo bo'lubtur.

Majmu'i davoni dard qildi,
Dardingki, manga davo bo'lubtur.

Ishq ichra oning fidasi yuz jon.
Har jonki, sango fido bo'lubtur.

Begona bo'lubtur oshnodin.
Begonag'a oshno bo'lubtur. (A.Navoiy)

TASBE

Tasbe⁹⁶ so'zlar takroriga asoslanadi, bunda baytning birinchi misrasi oxiridagi so'z uning ikkinchi misrasi boshida takrorlanadi. Bu san'at qaytarish san'atining *radd ul-aruz ilal-ibtido* turi bilan bir xildir.

Misol: Kuchum yetguncha ko'p qildim yafolar.
Yafoli qulni asrar podsholar. (Xorazmiy)

TASDIR

Tasdir⁹⁷ ham so'zlar takroriga asoslanadi, bunda bayt boshidagi so'z uning oxirida ham takrorlanadi. Bu san'at qaytarish san'atining *radd ul-sadri ilal-ajuz* turi bilan bir xil. Tasdirilar ikki turli bo'ladi: *sodda va murakkab*. Sodda tasdiralarda birgina so'z takrorlanadi.

Misol:

Men bu yuz mushtoqidurmen, bog'-u bo'stonkim bo'lur,
Bo'lmasin nasrin-u lola, arg'uvon sizens menga. (Atoyi)

TAZMIN

Tazmin (ar.«bir narsani ikkinchi narsa orasiga qo'ymoq») she'rga o'zga shoir (ko'pincha ustozlar) she'ridan bir misra yoki bir bayt olib, o'sha vazn, o'sha qofiya va radifda mazmunga

⁹⁶ *Qarang:* B.To'xliyev, B.Karimov, K.Usmonova. Adabiyot (O'rta ta'lim muassasalarining 10-sinfi va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalarining o'quvchilari uchun darslik-majmua. -T.: "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti, 2017. - 178-bet.

⁹⁷ O'sha kitob, 178-bet.

muvofiq she'r bitish san'ati hisoblanadi. Masalan, **Mashrab** o'zining

Sensan sevarim, xoh inon, xoh inonma,
Qondir jigarim xoh inon, xoh inonma –

tarzida boshlanuvchi g'azalida **Lutfiyning** mashhur g'azalidan bayt keltiradi.

TAZOD

Baytda ma'no jihatidan o'zaro zid, qarama-qarshi bo'lgan (antonim) so'zlarni qo'llab, ta'sirchan badiiy timsollar, lavhalar yaratish **tazod**

(ar.«zid qo'yish», «qarshilantirish») san'atidir. Bu san'at «**kontrast priyomi**» deb ham yuritiladi.

Misollar:

Podshoh yo'qlatsalar nogoh, **gado** deb axtaring,
Tutmang hargiz nomimi, baxti qaro deb axtaring.

(Muqimiy)

Qovoq solib osmon ko'zi yosh sochar,
Chechak-maysa **quvnoq kulib** yuz ochar.

(Y.X.Hojib)

Buxl erur borcha sifatdin xasis,
Lek **saxo** javhari asru nafis.

(A.Navoiy)

Qatrayam nochiz, ammo zoti qulzum Turdiman,
Kelturan amvojga bahri talotun Turdiman.

(Turdi Farog'iy)

Gahi bo'ldum faqir-u, gahi shoh-u, gah gadodurman,
Ajab devonaman fardoki mahshargohg'a sig'mamdur.

(Mashrab)

Boqib ko'z uchidin pinhon' fosh etding tag'ofillar,
Yo'q-u borim hamul pinhon ila foshingdin aylansun.

(Ogahiy)

Men qachon dedim, vafo qilg'il manga – zulm aylading,
Sen qachon deding, fido bo'lg'il manga – bo'ldum sanga.

(A.Navoiy)

Kuymas, dedilar, ma'murayi ganj,
Obod edim men, vayrona bo'ldim. (Mashrab)

Og'la, og'la, Nihoniy, kecha bo'ldi kunduzlar.
Falakda ko'rinmayur mohtob ila yulduzlar. (Hamza)

Nekxohim deganim barcha bor erkan badxoh,
Onikim anglar edim yaxshi, yomon topdim oni. (Munis)

Axi erni o'g'il o'gar ersa sen,
Baxilg'a qatig' yo o'qun kezlagil. (A. Yugnakiy)

Bunda oq bilan qaro.
Zulmat, ziyo, shoh-u gado.
Jang qilurlar doimo,
Ul yon o'zing, bul yon o'zing.

(E. Vohidov, "Inson" qasidasidan)

Yaxshidir achchiq haqiqat.
Lek shirin yolg'oz yomon.

(E. Vohidov)

Manga sensiz tirilgandin o'lim yuz qatla ortuqdur,
Bu so'zda, haq bilur, ko'nglum tilim birla muvofiqtur.

(Atoyi)

Bu kun vaslingni tark ayla, tilar jannat zohidlar,
Berurlar nasyag'a naqdni, u ne nodon xaloyiqtur? (Atoyi)

Mengizlari gul-gul, mijalari xor.
Qaboqlari keng-keng, og'izlari tor. (A. Navoiy)

TASHBEH

Tashbeh (ar.«o'xshatish») –

biror obraz yoki voqeani boshqa
biror narsa yoki voqeaga qiyoslash
orqali o'xshatishdir. Bunda so'zlarda

ifodalangan ikki yoki undan ortiq narsa va hodisalar, xususiyatlar
o'rtasida mavjud bo'lgan o'xshashlik, sifat, belgidagi
umumiylik qiyoslanadi, o'zaro solishtiriladi, tasvirlanayotgan
narsa-hodisalarning ayrim xususiyati yorqin va ta'sirliroq
shaklda ochib beriladi.

Tashbehda o'xshatilgan narsa *mushabbah*, o'xshagan narsa
mushabbahbihi, bir predmetning ikkinchisiga o'xshatilish
sababi (asosi) *vajhi shaboh*, o'xshatish vositasi *holati tashbeh*
(-dek, -day, -cha, -simon, -vor, -saro, -vash, -oso, -iy, misli, kabi,
go'yo, xuddi, yanglig', singari va boshq.) deb ataladi.

Masalan,

Ko'zlaring cho'lpona o'xshar, qoralig'da sochlaring
Orazing oydin munavvar, osmondir qoshlaring

– baytidagi **cho'lpon, oy, osmon** so'zlari *mushabbahun*
bihilardir.

Ermas alar tufrog'-u, sen nuri pok,
Xilqat alarg'a-u sanga – tiyra xok.

(A. Navoiy qalamiga mansub bu baytda tashbeh unsurlaridan vosita tushib
qolgan)

**Qilibdur mahliqolarning yuzini
Latofat mus'hafig'a oya navro'z.**

(Bu baytda qo'llangan favqulodda tashbehlar: *mahliqolar yuzi – oyat, latofat – Mus'hafig' (Qur'on)*)

“Yuzing go'zallikda gul kabidir” deyilganda yuz – o'xshamish, gul – o'xshatilmish, go'zallikda – asos, kibi – vositu hisoblanadi.

Tashbehning quyidagicha turlari mavjud⁹⁸:

1. Tashbehi sareh (mutlaq tashbeh, aniq o'xshatish).
Bunda asos va vositaning qo'llanish yoki qo'llanmasligidan qat'i nazar o'xshamish va o'xshatilmish ishtirok etadi.

**Shahar chu do'zax kabi zindon edi,
Tashqari bir ravzai rizvon edi.**

(«Yusuf va Zulayho»)

**Ermas alar tufrog'-u, sen nuri pok,
Xilqat alarg'a-vu sanga-tiyra xok.**

(A.Navoiy, «Hayrat ul-abror»ning «Salotin bobi»dan)

2. Tashbehi mashrut (shartli o'xshatish):

**Kimning himmati bo'lmasa u o'lug,
Ekagun ajunda bu bulmas ulug.**

(Y.X.Hojib)

3. Tashbehi tafzil (chekinish yo'li bilan o'xshatish):

**Sadoqatli xizmatkor bag'ir (dil) kabidir,
Bag'irdan ham yaqinroq yurak qonidekdir.**

(Y.X.Hojib)

4. Tashbehi aks – bunda o'xshagan va o'xshatilgan narsa bir marta o'z holicha, ikkinchi marta bir-birlarining o'rni almashgan holda keladi.

5. Tashbehi muzmar (yashirin o'xshatish):

**Jahon shoirlari, ey gulshani bog',
Kimi bulbuldurur so'zda, kimi zog'.**

(S.Saroyi)

6. Tashbehi tavsiya (barobar o'xshatish) – bunda ikki predmet bir narsaga o'xshatiladi.

⁹⁸ Boqijon To'xliyev. Adabiyot (Akademik litsey va kasb-hunar kollejlari uchun darslik). – T.: O'qituvchi, 2002. – 264-268-betlar.

7. **Kinoya tashbeh** (ishora o'xshatish). Bu o'xshamish mahib qolgan, o'xshatilmish o'xshamishga ishora qilgan o'xshatish san'atidir. Masalan,

**Bo'rini dog'i galadin dur qil,
Suv beribon bog'ni ma'mur qil**

– baytida 4 ta kinoya tashbeh bor: *bo'ri* – bo'ridek talovchilar, *gala* – gala singari xalq, *suv* – suvdek (zarur) adolat, *bog'* – bog'ga o'xshash mamlakat⁹⁹.

Yana misollar:

**Holbuki orzulardan judo ham bo'lganim yo'q,
Yulduzday kulganim yo'q, oy kabi to'lganim yo'q.**

(A.Oripov, "Birinchi muhabbatim" she'ridan)

Raiyat qo'y erur, sulton anga shubon-u yo bo'ri.

Bo'ri o'lg'o-yu qo'y ting'oy, chu Musofek shubon keldi.

(Sakkokiy)

(*Bu baytda talmeh san'ati ham qo'llangan*)

Ul sanamkim, suv yaqosinda paritek o'lturur,

G'oyati nozukligidin suv bila yutsa bo'lur.

(Atoyi)



⁹⁹ Q.Yo'ldoshev va boshq. Adabiyot (Umumta'lim maktablarining 7-sinfi uchun darslik). – T.: Sharq, 2005. – 344-bet.



III BO'LIM

O'ZBEK ADABIYOTI TARIXI

19-MAVZU.

QADIMGI ADABIY YODGORLIKLAR HAQIDA

MA'LUMOT¹⁰⁰

O'zbek adabiyoti ko'p ming yillik tarixga ega. Agar «*Avesto*» ko'zda tutilsa, salkam 3000 yillik, «*Alp Er To'nga marsiyasi*» e'tiborga olinsa, 2700 yillik, «*O'rxun-Enasoy yodgorliklari*»dan boshlaydigan bo'lsak, 1400 yillik tarixga ega.

Dastlabki yozma manbalar VI–VIII asrlarga tegishlidir. Ular *O'rxun-Enasoy* obidalarl nomi bilan mashhur bo'lib, so'g'd, turkiy run, arab va uyg'ur yozuvlaridagi bitiklardir. M.Koshg'ariy «*arab tili bilan ikki uloqchi ot singari teng poyga qilib, o'zib borayotgan turk tili*»ni ulug'lar ekan, uyg'ur yozuvi haqida: «...*barcha hoqonlar va sultonlarning kitoblari, yozuvlari qadimgi zamonlardan shu kungacha, Qashqardan Chingacha hamma turk shaharlarida shu yozuv bilan yuritiladi*», – deb yozgan edi. Bu yozuv hatto arab yozuvi bilan yonma-yon holda XV asrgacha, Xitoydagi uyg'urlar orasida esa keyingi asrlarda ham iste'molda edi. So'g'd yozuvi asosida shakllangan bu yozuvda 18 ta harf bo'lgan. Uyg'ur yozuvi o'ngdan chapga qarab yozilgan.

X asrda *Beshbaliq (Sharqiy Turkiston)* shahrida yashagan *Singqu Seli Tutung* «*Oltin yorug'*» asarini xitoy tilidan tarjima qilgan. Bu asar tarjimasi ham uyg'ur yozuvida bitilgan.

¹⁰⁰ Qarang: Boqijon To'xliyev. Adabiyot (Akademik litsey va kasb-hunar kollejlari uchun darslik). – T.: O'qituvchi, 2010. – 21–26-betlar; B.Qosimov va boshq. Adabiyot (10-sinf uchun darslik). – T.: O'qituvchi, 2004. – 38–42-betlar.

Shuningdek, «O'g'uznoma», «Muhabbatnoma» (Xorazmiy), «Lutofatnoma» (Xo'jandiy), «Mahzan ul-asror» (Mir Haydar) va boshqa ko'pgina asarlarning uyg'ur yozuvidagi nusxalari ham mashhurdir.

Turkiy tilda yaratilgan yozma yodgorliklar orasida eramizning V asriga tegishli bo'lgan «Xuastuanift» yodgorligi ham mavjud. U moniylarning tavbanomasi bo'lib, yig'ma matnlardan tashkil topgan.¹⁰¹

O'zbeklarning millat sifatida shakllanishi uzoq tarixga ega bo'lib, ular qadimgi turkiylarning avlodlaridir. Ajdodlarimiz bir vaqtlar **iskit** (sharqda «sak», «saq», «saqa», Yevropada «skif») nomlari bilan yuritilganlar. Herodot (mil.avv. 490/480–430/424) sharq qabilalari orasida *turg'itoylar* yoki Iskit yurtidagi *turkiy (yurkey)*lar haqida yozib qoldirgan. «Tavrot»da *to'lharmalar* nomi zikr etilgan. Manbalarda *xunlar* deb nom olgan xalqlar ham turkiylarning qadim ajdodlaridir. Qadimgi Xitoy manbalarida *tik, di, tuku*y qabilalarining nomi qayd etilgan. Aslida bularning barchasi «turk» so'zining turlicha nomlaridir. «**Turk**» so'zi «qalpoq», «dubulg'a», «go'zal», «yetuklikchog'i», «tark etilgan», «dengiz qirg'og'ida o'tirgan odam», «jazm etmoq», «tarqalmoq», «yoyilmoq», «kuch-quvvat», «bo'ri» kabi ma'nolarni anglatadi. Nuh payg'ambarning o'g'illaridan birining oti Yofas bo'lib, Yofasning to'ng'ich o'g'lining ismi ham **Turk** bo'lgan.

XX asrning mashhur shoirlaridan biri **Mag'jon Jumaboy**: «*Turkiston – ikki dunyo eshigidir, Turkiston – er turklarning beshigidir*», – deb yozgan edi.

Yurtsevarlik tuyg'usi bobolarimizda g'oyat baland bo'lgan. Qadim bir rivoyatga ko'ra, dushman turklarni urushga tortish uchun bahona izlaydi. Elchi dastlab turk hukmdorining sevgan otini, so'ngra sevgan xotinini so'raydi. Hukmdor ularni beradi. Lekin dushman turk davlatining bir chetidagi hosilsiz, elatsiz, yayoq quruq yerni so'raganda, hukmdor «*Yurt bizninggina mulkimiz emas, mozorda yotgan otalarimizning va qiyomatga qadar dunyoga keluvchi ajdodlarimizning bu tuproqda haqlari*

¹⁰¹ Qarang: O'zbek mumtoz adabiyoti namunalari (Eng qadimgi davrlardan XIV asrgacha. Tuzuvchilar: N.Rahmonov, H.Boltaboyev). – T.: Fan, 2003. – 31–41-betlar.

bordir...» deya dushmanga urush ochadi. Bu qudratli Turk saltanatining xoqoni **Medexon** edi.

VI–VIII asrlar bo‘yicha *umumturkiy adabiyot* degan atama mavjud. Bu davrlarda turkiylar yagona, mushtarak etnik qatlam sifatida yashadilar. Oromiy va yunon yozuvlari iste‘molda bo‘lib, keyinchalik oromiy yozuvi asosida shakllangan so‘g‘d va xorazmiy yozuvlari ham keng qo‘llanila boshlandi. Xorazmiy yozuvining eng qadimgi namunasi Qo‘yqirilgan qal‘adan topilgan bo‘lib, eramizdan oldingi III asrga oiddir. So‘g‘d yozuvining yodgorligi esa *Tali Barzu* (So‘g‘d)dan topilgan sopol idish sinig‘ida o‘yib yozilgan bo‘lib, eramizdan oldingi I asrga tegishli. Bu yozuv namunalarining II–III asrlarga oid obidalarini Dunxuan (Sharqiy Turkiston)dan topilgan. Ularda Samarqandda yashagan ona va Dunxuanda turadigan qiz o‘rtasidagi oilaviy turmush haqidagi yozishmalar ifodalangan.

Ajdodlarimiz haqidagi ma‘lumotlar ko‘pgina manbalar orqali ham yetib kelgan. Shulardan ba‘zilari bilan tanishib o‘tamiz:

1. **Herodot** (mil.av. 490–480 – 430–424-yillar orasida yashagan yunon tarixchisi)ning «*Tarix*» asari 9 kitobdan iborat bo‘lib, har bir kitobi yunonlar e‘zozlaydigan 9 muzadan biriga bag‘ishlangan (*Klio, Evderna, Galia, Menpanena, Terpsixora, Erato, Poligimniya, Urganiya, Kalliopa*). Bu kitoblarda fors (Eron) podshohlari, iskiqabilalari, Madiya va Yunoniston (Ellada) kabi davlatlar o‘rtasida kelib chiqqan urushlarning sabablarini aniqlashga intiladi. Tarixchining fikricha, yaxshilikka yomonlik, yovuz, axloqsiz, adolatsiz ishlar xalqaro urushlarni keltirib chiqaradi.

2. **Arrian Flaviy** II asrda yashagan yunon tarixchisi va yozuvchisidir. «*Iskandarning yurishi*» va boshqa asarlarida makedoniyalik Iskandarning So‘g‘dionaga qanday bostirib kelgani, Spitamen kabi milliy qahramonlarimizning jasoratlari tasvirlangan.

3. Arab sayyohi **Ibn Batuta** O‘rta Osiyo xalqlarining geografiyasi, tarixiga oid ko‘p qimmatli ma‘lumotlarni yozib qoldirgan. Bu mashhur sayyoh o‘zining 28 yillik sayohatlari davomida Shimoliy va G‘arbiy Afrika, Arabiston yarim oroli, Hindiston, Ispaniya, Turkiya, Eron, Sharqiy Yevropa, Xitoy

va O'rta Osiyoda bo'lgan, O'rta Osiyoda mo'g'ul istilosi asoratlarini o'z ko'zi bilan ko'rgan. Ibn Batutaning to'liq ismi *Shamsiddin Abu Abdulloh Muhammad ibn Ibrohim ibn Yusuf al Lavati at-Tanjiydir*.

Eramizdan oldingi V asr oxiri IV asr boshlarida yashagan *Ktesiy* (430–354-yy.) ham bir rivoyatni yozib qoldirgan. Uning ma'lumotlari tarixchi *Apellodor* (mil.avv. I asr)ning «*Tarixiy kutubxona*» asari orqali yetib kelgan. Bayondan ko'rinishicha, «*Zarina va Straingiya*» rivoyatining mazmuni «To'maris» rivoyatiga yaqin keladi. Eramizdan avvalgi IV asrda yashagan tarixchi *Xores Miitlenskiy* orqali «*Zariadr va Odatida*» afsonasi yetib kelgan. O'z tarjimalari bilan turkiy adabiyotga hissa qo'shgan adib *Singku Seli Tutung* bo'lib, u «*Olin yorug'*» asarini nasriy usulda xitoy tilidan tarjima qilgan. Bu asar X asrda Beshbaliqda yaratilgan. *Aprinchur Teginning* she'rlari Turfon matnlari orasida mavjud bo'lib, u moniylik dini g'oyalari ifodalaydi. Uning «*Bizning tengrimiz...*» deb boshlanuvchi she'ri 12 misradan iborat bo'lib, to'rtliklar shaklidir.

VIII–XII asrlarda madaniyat, ilm-fan o'ziga xos rivojlanish yo'liga o'tdi. O'rta Osiyo olimlari arab tili orqali dunyo ilm-faniga yo'l ochdilar. *Abu Nasr Utbiy* arab tilida «*Tarixi Yaminiy*» asarini yozdi. Unda Sabuk tagin hamda Mahmud G'aznaviy hukmronligi davriga oid ko'plab tarixiy ma'lumotlar mavjud. G'aznaviy davridagi eng yirik tarixchilardan yana biri *Abu Said Gardiziydir*. Uning fors-tojik tilidagi «*Zaynul-axbor*» («Xabarlar chiroyi») kitobi mashhur. Shu davrda yashagan *Abdul Fazl Bayhaqiy* (996–1077) 30 jilddan iborat «*Tarixi Ma'sudiy*» yoki «*Tarixi Bayhaqiy*» deb nomlangan asarni yaratadi. Bu asarda sulton Mahmud va uning o'g'li Ma'sud davri (1000–1050)da bo'lgan voqealar, Bag'dod xalifaligi, Misrdagi fotimiylar xalifaligi bilan bo'lgan munosabatlar, ijtimoiy va madaniy hayot, hokimiyat uchun kurashlar bayon qilingan.

Abu Nasr Asadi Tusiy (vafoti 1070) *Firdavsiy* «*Shohnoma*» si izidan borib, «*Gershaspnoma*» dostonini yaratgan. U fors-tojik adabiyotidagi ilk yozma munozaralar muallifidir. Bular «*Yer va osmon*», «*Kecha va kunduz*», «*Nayza va kamon*», «*Musulmon va kofir*», «*Arab va ajam*»dir. Shuningdek, u fors tilining eng

qadimgi izohli lugʻatini ham yaratgan. Lugʻatda 80 ga yaqin oʻsha davr shoirlarining sheʼrlaridan namunalar berilgan.

Qadimgi turkiy sheʼriyat asosan barmoq vaznida bitilgan. Sheʼrlarda soʻzlar takrori asosiy oʻrin tutib, bandlarning rang-barangligi koʻzga tashlanadi. Qofiyalarda feʼl soʻz turkumiga oid soʻzlar koʻproq uchraydi, bu turkiy tilning gap qurilishiga bogʻliq.

Eng qadimgi sheʼriy asarlar muayyan urf-odatlar, marosim va eʼtiqodlarga bogʻliq holda yaratilgan. Masalan, «*Tong tangrisiga madhiya*» sheʼri qadimgi sheʼriyatning oʻziga xos namunasi boʻlib, unda soʻzlar takrori yetakchi mavqe tutadi.

«AVESTO» haqida

«**Avesto**» Oʻrta Osiyo xalqlarining mushtarak yodgorligidir. Unda ham turkiy, ham eroniy xalqlar dunyoqarashi, urf-odatlari, yashash tarzlariga oid maʼlumotlar uchraydi. U zardushtiylik dinining muqaddas kitobidir. “*Avesto*” soʻzi “oʻrnatilgan, muqarrar qilingan hayotning asosiy yoʻriqnomasi” maʼnosini ifodalaydi.

Zardushtiylik yurtimizda bundan 3000 yilcha oldin tarqalgan. «**Avesto**» kitobi esa, bundan 2700 yil muqaddam Xorazmda dunyoga kelgan. Xorazmlik **Beruniy (973–1048)** «**Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar**» asarida: «*Podshoh Doro ibn Doro xazinasida «Avesto»ning 12 ming qoramol terisiga tilla bilan bitilgan bir nusxasi bor edi. Iskandar otashxonalarini vayron qilib, ularda xizmat etuvchilarni oʻldirgan vaqtda uni yondirib yubordi. Shuning uchun oʻsha vaqtdan beri «Avesto»ning beshdan uch qismi yoʻqolib ketdi. «Avesto» oʻttiz «nask» edi. Majusiylar qoʻlida oʻn ikki nask chamasi qoldi. Biz Qurʼon boʻlaklarini haftiyaklar deganimizdek, nask «Avesto» boʻlaklaridan har bir boʻlakning nomidir*», deb maʼlumot bergan¹⁰². Iskandar (Aleksandr Makedonskiy) oʻz yurishlarida uni qoʻlga kiritib, Yunonistonga yuboradi va uning buyrugʻi bilan bu «**Avesto**» nusxasi sinchiklab koʻrib chiqilib, ilm-fanga

¹⁰² Boqijon Toʻxliyev. Adabiyot (Akademik litsey va kasb-hunar kollejlari uchun darslik). – T.: Oʻqituvchi, 2010. – 18-bet.

tegishli deb hisoblangan qismlari saqlab qolinadi, qolganlari esa kuydirib yuboriladi. Bizgacha saqlanib qolgan qismi unchalik ko‘p emas.

«Avesto» bizgacha ikki ko‘rinishda yetib kelgan:

1. **Gatlar** («**Gotlar**») deb ham yuritiladi. U Zaratushtra tilidan aytilgan o‘ziga xos 17 qo‘shiqdan iborat.

2. **Zend** (Bu «Avesto»ga bitilgan pahlaviy tilidagi sharhlar bo‘lib, uning pahlaviy tilidagi eng eski nusxasi 1288-yilga tegishli.

“Avesto” quyidagi qismlardan iborat:

1. **Gohlar**: Zardusht she’rlari va ibodat payti ijro etiladigan matnlar.

2. **Yashtlar**: maxsus ohanglar asosida ijro etiladigan qo‘shiqlar.

3. **Vendidod**: devlar, zulmat kuchlariga qarshi qonunlar majmuasi, turli mavzulardagi asarlardan parchalar.

4. **Visparad**: ibodat matnlari va yo‘sinlari¹⁰³.

«Avesto» tili o‘lik tildir. «Avesto»da «Xvayrizem» (ma’nosi «quyosh yeri»), ya’ni Xorazm va «Aranha» (Amudaryo) hamda ushbu joylar bilan bog‘liq geografik joylar nomi tez-tez uchrab turadi.

«Avesto»dagi Zardushtning to‘liq nomi Zaratushtra bo‘lib, uning ma’nosi «qari tuya egasi»dir.

Asardagi asosiy timsollar **Hurmuz** va **Axriman** bo‘lib, Hurmuzning to‘la nomi Axuramazda, Axrimanning ikkinchi nomi Angiramanyudir. Hurmuz – ezgulik timsoli, Axriman – yovuzlik ramzidir.

Ahura Mazda zardushtiylik dinining xudosi, yaratuvchi, xoliq sifatida tasvirlangan. U haqiqat va adolatni, rostgo‘ylik va poklikni himoya qiladi, yorug‘lik va farovonlik xudosi hisoblanadi.

«Avesto»da olam ikki asos, ya’ni yorug‘lik va zulmat, yaxshilik va yomonlikning kurashidan iborat, deb izohlanadi. Bu aslida dunyoni harakatga solib turgan ikki kuch – shayton va rahmon orasidagi abadiy kurashdir.

¹⁰³ A.Rafiyev, N.G‘ulomova. Ona tili va adabiyot (Akademik litsey va kasb-hunar kollejlari uchun darslik). – T.: Sharq, 2013. – 147-bet.

Zardushtiylikka ko‘ra, dastlab dunyo nurdangina iborat bo‘lgan. Yo‘qlikdan borliqqa birinchi qadamni qo‘ygan zotning oti **Zirvon** ekan. U nur olamiga 9999 yil iltijo qilgandan so‘ng, shubha va gumondan Ahriman, ishonch va e‘tiqoddan esa Hurmuz homila bo‘ladi.

«Avesto»da yozilishicha, zardushtiylikda qo‘riq yer ochib, bog‘-rog‘ qilgan odam ilohiyot rahmatiga erishadi. Undagi ta‘limotga ko‘ra, yaxshilik qiluvchi odam pokizalik urug‘larini ekadi, bu yaxshilik urug‘lari **iymonni** oziqlantiradi. Yaxshilik qilmay, jabr-zulm qiluvchilar **imonsiz, do‘zaxiy** odamlardir.

«Avesto»da **Kayumars, Mitra** (u «shafqatli, qudratli, bilgich, tik qomat va uyg‘oq, yuz ming tuman ko‘zli», «o‘tkir ko‘z shijoatkor», «duoni tinglaguvchi» deya ta‘riflangan), **Yima, Gershasp, Arjasp** va boshqalar haqidagi miflar, afsonalar **ezgu fikr, ezgu so‘z** va **ezgu amalni** ulug‘lashga xizmat qiladi.

«Avesto»da kishilarga baxt-saodat keltiruvchi yengilmas kuchga ega bo‘lgan pahlavon **Mitra** (“*Mitraning izidan yugurib boradigan g‘azabnok qobon misoli serjahl, o‘tkir tishli, xanjardek qoziq tishli*” timsol **Varaxrandir**), Axura Mazda tomonidan yaratilgan birinchi odam **Gaya Martan** (**Kayumars**) haqida va boshqa rivoyatlar ham mavjud. Mitraning yordamchisi sifatida **Narya Sanhaning** nomi keltirilgan. E‘tiqod duosi «**Axuna Varya**» deb, Sirdaryo «**Ranxa**» deb nomlangan. Asardagi **Asha** haqiqat timsoli, **Bushyasta** esa dangasalik timsoli, “**parastishgoh**” qurbonlik qilinadigan joydir.

«Avesto» o‘sha davrlar tarixi, fani, madaniyati haqida ma‘lumot beruvchi qomusiy asar bo‘lib, unga sharhlar ham yozilgan. Uning qisqartirilgan nusxasi «**Zand Avesto**» nomi bilan mashhur.

«Avesto»ni o‘zbek tiliga birinchi bo‘lib tarjima qilgan shoir **Asqar Mahkamovning** xizmatlari juda katta. **Mirsodiq Is‘hoqov** ham bu asarni tarjima qilgan.

O‘zbekistonda «Avesto»ning 2700 yilligi 2001-yilda nishonlandi. Shu munosabat bilan Xorazm viloyati markazi Urganch shahrida ulkan obida qurildi.

O'RXUN-ENASOY YODGORLIKLARI

Dastlab, O'rxun, Selenga va To'li daryolari atrofidan – Shimoliy Mo'g'ulistondan toshga bitilgan obidalar, keyinchalik Enasoy daryosi qirg'oqlaridan ham shunday yodgorliklar topilgan. Shu sababli ular O'rxun-Enasoy yodgorliklari nomini olgan. Ushbu yodgorliklar, asosan, VI-VIII asr voqealarini aks ettiradi¹⁰⁴.

O'rxun-Enasoy yodgorliklarining topilishi va o'rganilishi XVIII asrdan boshlangan. Bu yodgorliklar haqidagi ma'lumotlar 1260-yildayoq *Jo'vayniyning «Tarixi jahonkushoy»* asarida qayd etilgan.

Rus xizmatchisi **Remezov**, shved zobiti **Ioann Strallenberg**, olim **Messershimdt** yodgorliklarni Yevropa ilm ahliga taqdim qilgan edilar. Ulardagi yozuvlarni bir qancha vaqt o'qiy olmadilar, shu sababli Yevropada bu yozuvlar «runik» (sirli) deb nom oldi.

V.V.Radlov, **V.Tomsen**, **P.M.Melioranskiy** kabi olimlar bu sirli yozuvlarni o'qishga harakat qilganlar. 1893-yilning 25-noyabr kuni **V.Tomsen** birinchi bo'lib bitiktoshlar sirini ochganligini e'lon qiladi. Bu vaqtda **V.V.Radlov** 10 ta harfni o'qib ulgurgan edi¹⁰⁵. 1894-yilda rus olimi **V.Radlov** ularni nashr qilib, dunyoga ma'lum qiladi. Bu olimlardan keyin yodgorliklarni **S.Malov**, **S.G.Klyashtorniy**, **I.V.Stebleva**, **X.O'rxun**, **T.Tekin**, **Najib Osim**, **G.Aydarov**, o'zbek olimlaridan **A.Qayumov**, **A.Rustamov**, **G'Abdurahmonov**, **N.Rahmonov**, **Q.Sodiqovlar** ham o'rganishgan.

Mazkur yozuvlar Enasoy hamda O'rxun daryolari havzalaridan topilganligi uchun ular **O'rxun-Enasoy yozuvlari** deb atalgan. Hozirda ularning 700 ga yaqin namunalari fanga ma'lum.

Bu yodgorliklar o'zbek tiliga bir necha marta o'g'irilgan. **A.P.Qayumov «Qadimiyat obidalarini»** kitobida,

¹⁰⁴ B.To'xliyev, B.Karimov, K.Usmonova. Adabiyot (O'rta ta'lim muassasalarining 10-sinfi va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalarining o'quvchilari uchun darslik-majmua.-T.: "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti, 2017. – 42-bet.

¹⁰⁵ A.Nurmonov, A.Sobirov, N.Qosimova. Hozirgi o'zbek adabiy tili. I kitob. – T.: Ilm ziyo, 2013. – 28-bet.

G'.Abdurahmonov va A.Rustamovlar «Qadimgi turkiy til» kitoblarida yodgorliklardan namunalar keltirishgan.

Runiy yozuvdagi yodgorliklar “To‘nyuquq”, “Kul Tegin”, “Bilga xoqon” kabi faqat toshga emas, balki qog‘ozga (“Irq bitigi”) va boshqa turli buyumlarga ham yozilgan.

Run yozuvlari Talas vodiysidan ham topilgan. U hozirgi Avliyo ota va Tarozi shahri yaqinida bo‘lgan qoyalardagi yozuvlardir. Shuningdek, kumush ko‘zalarga yozilgan runiy yozuvlar Sibir o‘lkasidan ham topilgan. Ermitaj (Sankt-Peterburg)da saqlanayotgan 2 ta ko‘zacha shu haqda ma’lumot beradi. Minusinsk muzeyida esa teriga yozilgan runiy bitiglar mavjud. Oyna, qayish to‘qasi, qog‘ozga yozilgan boshqa runiy yozuvlar ham ko‘pdir. Turfon (Sharqiy Turkiston)dan Le Kok tomonidan topilgan runiy yozuvlar orasida eski fors tilidagi bitiklar ham mavjud. Vena (Avstriya) muzeyida saqlanayotgan oltin idish-tovoqlarda ham runiy yozuvdagi yodgorliklar bo‘lib, ular bajnoq (pecheneg) tilida yozilgan. Yog‘ochga yozilgan run bitiklari Ermitajda saqlanadi¹⁰⁶.

Birgina Enasoy bo‘yida topilgan yodgorliklar salkam 250 nafardir¹⁰⁷.

O‘rxun-Enasoy obidalarida nasr usuli, tasvirdan ko‘ra bayonchilik yetakchilik qiladi. Bitiktoshlarning asosiy mavzusi *vatanparvarlik va qahramonlik*dir. Qahramonlar ichki olami tasviri ancha sodda tarzda namoyon bo‘lgan. Bu mavjud an’analar hamda ijodiy tajribalarning o‘sha davrlardagi holati bilan izohlanadi.

O‘rxun-Enasoy bitiktoshlari, aslida, she’riy yo‘lda bitilgan bo‘lib, ularning hozirgi o‘zbek tiliga qilingan tabdili nasrdadir.

«TO‘NYUQUQ» bitiktoshi haqida

“To‘nyuquq” bitiktoshi 2 ta ustunga yozilgan bo‘lib, ularning biri 170, ikkinchisi 160 smdan iborat. U 1897-yili Yelizaveta va Dmitriy Klemenslar tomonidan Shimoliy

¹⁰⁶ Boqijon To‘xliyev. Adabiyot (Akademik litsey va kasb-hunar kollejlari uchun darslik). – T.: O‘qituvchi, 2010. – 29-bet.

¹⁰⁷ B.Qosimov va boshq. Adabiyot (10-sinf uchun darslik). – T.: O‘qituvchi, 2004. – 45-bet.

Mo'g'ulistondan, ya'ni Ulan-Batordan 66 km janubi-sharqdagi Bain-Sokto manzilidan topilgan va hozir ham shu yerda saqlanadi.

Yodgorlikdagi yozuv 62 satrni tashkil qiladi. Ushbu asar 712–716-yillarda (ya'ni Bilga xoqon davrida) To'nyuquqning o'zi tomonidan toshga o'yib yozdirilgan.

To'nyuquq – shaxs nomi. U ikkinchi turk xoqonligiga asos solgan Eltarish xoqonning maslahatchisi va sarkardasi bo'lgan. To'nyuquq **ashida** urug'idan bo'lib, Bo'g'u Tarxon va Eltarish xoqon (692-yilda vafot etgan) bilan birga mamlakat mustaqilligi, el-yurt farovonligi, yurt osoyishtaligi va chegaralar daxlsizligi uchun tinimsiz kurash olib borgan. To'nyuquqning xitoycha nomi **Yuanchjen** bo'lib, uning tarjimasi *“to'ng'ich javhar”* degan ma'noni bildiradi.

To'nyuquqning olib borgan kurashlari maxsus toshlarga o'yib yozilgan. Bu bitiktoshda voqealar To'nyuquq tilidan hikoya qilingan. To'nyuquq *«Turk Bilga xoqon davlatida bu bitikni yozdirdim»* deydi. Bilga xoqon Eltarish xoqonning o'g'li edi.

Mustamlaka azobi, o'zga xalq tahqiri yodgorlikda qisqa va lo'nda, lekin ta'sirchan ifodalanadi: *«...Tabg'achga taslim bo'lganligi uchun tangri, o'l degan shekilli, turk xalqi o'ldi, yo'q bo'ldi, tugadi. Turk Sir xalqi yerida birorta urug' qolmadi»*.

Yodgorlikda To'nyuquq xalq yetakchisi, dono maslahatchi, kuchli va botir sarkarda sifatida namoyon bo'ladi. U 700 kishini birlashtirib, *«shad»* degan unvon oladi. To'nyuquq shaxsiyatida tavakkalchilik, dovyuraklik, jasorat, jur'at, ba'zan keskinlik, cho'rtkesarlik, ayni vaqtda bosiqlik, vazminlik xislatlari aniq ko'rinib turadi. U vatanparvar shaxs timsolidir.

Dushmanning *«Xoqoni bahodir ekan, maslahatchisi alloma ekan»* degan bahosida To'nyuquqning o'z vatani, xoqoni, qo'shini, xalqi bilan faxrlanishi yodgorlik matniga puxta singdirilgan. Dushmanning turkiylar ustiga hujum uyushtirish haqidagi yovuz niyatini eshitgan To'nyuquqning *«O'sha gapni eshitib, tun uxlagim kelmadi, kunduz o'tirgim kelmadi»* deyishi uning taqdirini xalq va yurt taqdiri bilan naqadar yaxlit holda tasavvur qilishini ko'rsatadi. To'nyuquq iftixoridagi eng

asosiy nuqta quyidagicha ifodalanadi: «*Bu turk xalqiga qurolli dushmani keltirmadim, yalovli otni yugurtirmadim*».

Bitiktoshda To'nyuquq Eltarish xoqon bilan birgalikda Tabg'achga qarshi 17 marta hujum qilgani yozilgan.

Ushbu obida *vatan haqidagi madhiyadir*. Unda murojaat, undov, chaqiriq yetakchilik qilib, o'ziga xos boshlanma, voqealar rivoji, xotima mavjud. Asarda oltinga «sariq», kumushga «oq», tuyaga «egri» kabi sifatlashlar qo'llangan. Undagi eng ko'p qo'llangan badiiy tasvir vositasi esa *alliteratsiyadir*.

Bitiktoshda qo'llanga **“Inju o'g'uz”** Sirdaryoning qadimgi nomidir.

«KUL TEGIN» bitiktoshi haqida

«Kul Tegin» bitiktoshi mazkur yodgorliklar orasida ham hajman, ham mazmunan eng salmoqli hisoblanadi. Bu bitiktosh Eltarish xoqonning o'g'li Bilga xoqonning inisi Kul Tegin (685–731) sharafiga qo'yilgan.

«Kul Tegin» bitiktoshi marmardan ishlangan, balandligi 3 m 15 sm, qalinligi 41 sm. Yodgorlik matnining hajmi 66 sm. Yozuvlar o'ngdan chapga va yuqoridan pastga qarab bitilgan. Boshqa barcha bitiktoshlardan farqli ravishda uni yozgan muallif nomi bizgacha yetib kelgan. Bu **Yo'lluq Tegindir**. Yo'lluq Tigin turkiy xalqlarning nomi saqlanib qolgan eng qadimiy yozuvchilaridan biri bo'lgan. U 20 kun davomida bu bitiktoshni yozgan. «Kul Tegin» bitiktoshida Kul Teginning qabr toshidagi naqshni *Tuyg'un Eltabar* keltirgan.



Ushbu bitiktosh 732-yilda yozilgan bo'lib, u 1889-yilda rus ziyolisi **N.M.Yadrinsev** (1842–1894) tomonidan Mo'g'ulistonning Kosho Saydam vodiysidagi Ko'kshin-O'rxun daryosi qirg'og'idan topilgan. Bitiktosh Kul Tegin («kul» – ulug', «tegin(tikin)» – sarkarda) qahramonliklarini, uning vatan, ona-yurt oldidagi buyuk xizmatlari, mamlakat mustaqilligi, el-

yurt farovonligi, yurt osoyishtaligi va chegaralar daxlsizligi uchun tinimsiz kurashini sharaflashga qaratilgan.

Ushbu bitiktoshda: «...uy, dunyogagina qaraydigan, ko'ziga faqat mol-mulk ko'rinadigan beklar, sizlar gumrohsizlar», «Tangri yorlaqani uchun, iste'dodim, baxtim bor uchun men sizlarga xoqon bo'ldim. Xoqon bo'lib, yo'q qashshoq xalqni yaxshilab oyoqqa turg'azdim. Qashshoq xalqni boy qildim» kabi fikrlar mavjud.





20-MAVZU.

VIII-X ASRLARDAGI TURKIY ADABIYOT

Arablar bosqinidan soʻng Movarounnahrda ham islom qabul qilindi, arab tili keng tarqaldi. Mashhur qomusiy olimlarimizning ilmiy ijodlari ham, asosan, arab tilida yozilgan. Ammo badiiy ijod uch tilda: **turkiy**, **forsiy** va **arab** tillarida davom etgan. Arab tilida ijod qilgan adiblar haqidagi toʻliq maʼlumot **Abu Mansur Saolibiyning «Yatimat ad-daxr fi mahosin ahl al-asr» («Asr ahlining fozillari haqida zamonasining durdonasi»)** asari orqali yetib kelgan.

Islomning asosiy aqida va gʻoyalari muqaddas Qurʼonda oʻz ifodasini topgan. U Alloh tomonidan Muhammad paygʻambarga nozil qilingan ilohiy kitob boʻlib, 114 suradan iborat.

Qurʼonning 751 oʻrnida ilm soʻzi qoʻllangan. Bu kitobning oʻzbekcha izohli tarjimasini 1992-yilda Alouddin Mansur amalga oshirgan, 2001-yilda Abdulaziz Mansur uni ikkinchi marta oʻzbek tiliga oʻgiran.

Islomda Qurʼondan keyingi ikkinchi muqaddas manba hadisi shariflardir.

«**HADIS**» arabcha soʻz boʻlib, uning quyidagicha maʼnolari bor:

- 1) yangi, yangi narsa, voqea;
- 2) soʻz, hikoya, naql, rivoyat;
- 3) Muhammad paygʻambar yoki uning sahobalari haqida hikoya qiluvchi xabar yoki rivoyat, paygʻambarning diniy va axloqiy koʻrsatmalari.

Hadislar ikki qismdan – **matn** va uning **sanadidan** iborat. Hadislarni bir-biridan eshitib, avloddan-avlodga qoldirib kelgan roviylar roʻyxati **hadisning musnadi** deyiladi¹⁰⁸.

Hadislarni toʻplab, ularning haqiqiyliklarini aniqlash bilan shugʻullangan olimlar **muhaddis** deyilgan.

¹⁰⁸ S.Ahmedov va boshq. Adabiyot (Umumiy oʻrta taʼlim maktablarining 5-sinfi uchun darslik). I qism. – T.: Sharq, 2011. – 33-34-betlar.

Movarounnahrda birinchi bo'lib hadislarni jamlagan muhaddis Imom Abdulloh ibn Muborak al-Marvaziydir. Bindan tashqari Imom al-Buxoriygacha 10 ta olim hadis ilmi bilan shug'ullangan.

Abu Abdulloh Muhammad ibn Ismoil al-Buxoriy (*u «muhaddislar imomi» degan nom olgan*), **Muslim ibn Xajjoj**, **Imom Termiziy**, **Abu Dovud**, **Nasoviy**, **Ibn Mojja**, **Dorimiy**, **Bayhaqiy**, **Tabaroniy**, **Xotib**, **Hokim**, **Abu A'lo**, **Daylamiy** kabi ko'pgina muhaddislarning nomi mashhur.

O'zbek adabiyotida ham hadislardan ilhomlanib asarlar yaratishdagi dastlabki tajriba Yusuf Xos Hojib nomi bilan bog'liq. Uning quyidagi to'rtligida hadislar bilan ma'naviy uyg'unlikni sezish mumkin:

Atang pandini sen qatig' tut, qatig',
Qutadg'a kunung bo'lg'a kundin tatig'.
Atangni, anangni sevindur tushi,
Yanut berg'a tapg'ing tuman ming asig'.

Ahmad Yugnakiy ham «Hibat ul-haqoyiq» asarida hadislardan ta'sirlanib, Yusuf Xos Hojib izidan borgan va Payg'ambar sha'niga alohida maqtovlar bag'ishlagan:

*Aning madhi birla tatir bu tilim,
Aning yadi birla shakar shahd anga.
(Uning madhi bilan tilim shirindir,
Uning yodi tilimga shakar va asal bag'ishlaydi.)*

Hatto asardagi bir bobga «*Tangrining mo'jizalari, johillikdan tiyilish, xudoning rasuliga sodiq bo'lish haqida payg'ambar alayhissalomning aytgan so'zlari*» deb nom qo'yilgan.

Hadislardan ijodiy foydalanish keyingi asrlarda ham davom etdi. Bu yo'nalishda *Jomiyning «Chil hadis»* va *Alisher Navoiyning «Arba'in»* («*Qirq hadis*») asarini ko'rsatish mumkin. Zamondoshlarizdan *Abdulla Oripovning «Haj daftari»* kitobi ham asosan hadisi shariflarga ijodiy yondashish orqali yaratilgan.

IMOM AL-BUXORIY¹⁰⁹ (810 – 870)

“Kishi ilm bobida nafaqat o‘zidan yuqori yoki tengdoshlaridan, balki o‘zidan past bo‘lganlardan ham hadis olmaguncha, yetuk muhaddis bo‘la olmaydi”.

Imom Buxoriy

Buxoriyning to‘liq ismi *Abu Abdulloh Muhammad ibn Ismoil ibn Ibrohim ibn al-Mug‘iyra ibn Bardazbeh al-Juafiy al-Buxoriydir*.

Butun islom dunyosidagi eng nufuzli manbalar deb tan olingan oltita ishonchli hadislar to‘plamining mualliflaridan biri, hadis ilmida “*amir al-mo‘miniyn*” degan sharafli nomga sazovor bo‘lgan, muhaddislar imomi, Qur’oni karimdan keying muqaddas kitob hisoblangan “Sahih Buxoriy”ning muallifi sifatida butun dunyoda tan olingan **Imom Buxoriy** milodiy 810-yil 21-iyulda (hijriy 194-yil shavvol oyining 13-kuni) Buxoroda katta olim oilasida tug‘ilgan. Muhammad go‘dakligidayoq otasi dunyodan o‘tadi va onasining qo‘lida qoladi. Aytishlaricha, Imom Buxoriyning ko‘zi yoshligida ojizlanib qolib, keyin ochilgan. Al-Buxoriy 16 yoshlarida onasi va akasi Ahmad bilan birga Hijozga safar qiladi, hajga borib, Makka va Madinani ziyorat qiladi va 6 yil Hijozda yashaydi.

Muhaddis olim yoshligidanoq o‘zining o‘tkir zehni va kuchli iqtidorini namoyon qiladi. U 10 yoshidan boshlab o‘z yurtidagi turli roviylarning, Abdulloh ibn al-Muborak va Vakiy kabi olimlarning hadis to‘plamlarini mutolaa qilib, keyinchalik Balx, Basra, Kufa, Bag‘dod, Damashq, Misr, Makka va Madina singari ko‘plab shaharlardagi hadisshunos olimlardan saboq oladi. Bu paytda Buxoriy mashhur muhaddislar Abdulloh ibn al-Muborak va boshqalarning hadis to‘plamlarini to‘lig‘icha yod olib ulgurgan. Al-Buxoriy 18 yoshga kirganda bir qator yirik ilmiy asarlar muallifi edi.

Allomaning ustozlari orasida Muhammad ibn Sallom al-Poykandiy (777–839), Abdulloh ibn Muhammad al-Ju‘fiy

¹⁰⁹ *Qarang:* Q.Yo‘ldoshev va boshq. Adabiyot (Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 9-sinfi uchun darslik). – T.: O‘zbekiston, 2019. – 129-131-betlar.

(vafoti 843) bor edi. Buxoriyning ustozlaridan Shayx Doxiliy shogirdining quvvayi hofizasiga, bahslashish mahoratiga, dalillarni keltirishdagi izchil mantig'iga ko'p marta qoyil qolgan, tan bergan va uni olqishlagan edi. Buxoriy islom mamlakatlarini kezib, jami 600 ming hadis yod olgan. Al-Buxoriy 863–868-yillarda Nishopurda yashab, madrasada hadis ilmidan saboq bergan.

Al-Buxoriy umrining so'nggi kunlarini Samarqand yaqinidagi Xartang qishlog'ida o'tkazadi va milodiy 870-yil 31-avgustda (hijriy 256-yilda) 60 yoshida shu yerda vafot etadi.

Buxoro amiri Xolid ibn Ahmad az-Zuhaliy Imom Buxoriyga chopar jo'natib, saroyga kelib bolalariga dars berishini aytganda, u «*Men ilmni xor qilmayman, uni hukmdorlar eshigiga olib bormayman*» deya rad etgan ekan.

Olimlar «**Al-jome' as-sahih**» to'plamiga kirgan 7397 hadis olim yod bilgan 600 ming hadislar ichidan tanlab olinganligini qayd etadilar. Mazkur to'plam ustida muallif 16 yil ishlagan, u 97 kitob (fasl) va 3405 bobdan iborat.

Alloma ibn Salohning ta'kidlashicha, al-Buxoriyning bu asariga kiritilgan ishonchli hadislarning soni takrorlanadiganlari bilan birga 7275 ta bo'lib, takrorlanmaydigan holda esa 4000 hadisdan iborat¹¹⁰.

«Al-Jome' as-sahih»ning barcha hadislar 183 ta sahoba vositasi bilan rivoyat qilinib, ularning 31 tasi ayollardir. Asar islom olamida Qur'ondan keyin ulkan mavqega ega. To'plamning turlicha nusxalari nashr etilgan. "Buloq" nomli 8 jilddan iborat bo'lgan nusxasi sulton Abdul Hamid tasarrufi bilan 5000 nusxada chop etilgan.

«Al-Jome' as-sahih» XX asrning 90-yillarida o'zbek tiliga tarjima qilinib, 4 jildda nashr etilgan.

Imom Buxoriydan bizgacha 20 dan ortiq ilmiy asar yetib kelgan.

ASARLARI: «*Al-jome' as-sahih*» ("Sahihi Buxoriy", tarjimasi «*Ishonarli to'plam*»), «*Al-adab al-mufrad*» («Adab durdonalari»), «*Kitob afhol il-ibod*», «*Kitob ul-favoid*», «*At-*

¹¹⁰ *Qarang:* Q.Yo'ldoshev va boshq. Adabiyot (Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 9-sinfi uchun darslik). – T.: O'zbekiston, 2019. – 140-bet.

ta'rix al-kabir» («Buyuk tarix», Al-Buxoriyning dastlabki asari), «*Tarixi us-siqot vazzuafomin ruvotil-hadis*», «*Qazoyi as-sahabat vat-tobe'ni*», «*Tarixi kabir*», «*Tarixi Buxoro*», «*At-ta'rix as-sag'ir*», «*At-ta'rix al-avsot*», «*Kitob al-ilal*», «*Barr ul-volidayn*», «*Asomi us-sahoba*», «*Kitob al-kuna*» va boshq.

«AL-ADAB AL-MUFRAD» KITOBIDAGI HADISLARDAN NAMUNALAR:

32-hadis. Abu Hurayra aytdilar: Rasululloh: «*Uch toifa kishilarning duosi hech shubhasiz Alloh Taolo qoshida maqbuldir: mazlum kishining duosi, musofirning duosi va ota-onaning duosi*», – deganlar.

300-hadis. Ubaydulloh ibn Muhsan al-Ansoriy (roziyollohu anhu) aytdilar: Rasululloh (sallollohu alayhi va sallam): «*Kimki o'z oilasi ichida tinch, tani sog' bo'lib tursa va oldida shu kuniga yetarlik taomi bo'lsa, u odamga go'yo butun dunyo berilgan hisoblanadi*», – dedilar.

469-hadis. Hazrati Oysha aytdilar: «Men o'jar, bo'yin bermaydigan tevaga mingan edim, Rasululloh uni urganimni ko'rib: «*Muloyim bo'l, kimda muloyimlik bo'lsa, husn va kamolotga erishadi va kimda muloyimlik xislati bo'lmasa, u aybli va nuqsonli bo'ladi*», dedilar».

“AL-JOME' AS-SAHIH”dan

Sahoba Ammor aytganlar:

«Uchta xislatni o'zida mujassam qilgan kishining iymoni mukammal bo'lg'aydir:

- *insofli va adolatli bo'lmoq;*
- *barchaga salom bermoq;*
- *kambag'alligida ham sadaqa berib turmoq”.*

Abu Hurayra rivoyat qiladilar:

«Rasululloh sollallohu alayhi vasallam: «*Birovni (kurashib) yiqitgan polvon ermas, balkim g'azablangan vaqtida jahlini yutgan odam polvondir!*» – dedilar”...

ABU MANSUR AS-SAOLIBIY

(961 – 1038)

Abu Mansur Abdumalik ibn Muhammad ibn Ismoil as-Saolibiy 350 (961)-yili Nishopurda tug‘ilgan va 429 (1038)-yili shu yerda vafot etgan. Unga amir va shoir Abul-Fadl al-Mikoliy va Sabukteginlar homiylik qilgan. Saolibiy yirik olim (*50 dan ortiq ilmiy asarlar muallifi*) bo‘lib, tarix, adabiyot, mantiq, tilshunoslik kabi fanlar bilan shug‘ullangan, Xorazm Ma‘mun akademiyasining sermahsul ijod qilgan namoyandalardan biri bo‘lgan. U 992–993-yillarda Buxoroda ham bo‘lgan.

Saolibiyning *«Yatimat ad-daxr fi mahosin ahl al-asr»* asari 4 qismida X–XI asrlarda yashagan 415 ta arab tilida ijod qilgan adib va yozuvchilar haqida ma‘lumotlar va ijodlaridan namunalar keltirilgan. 4-qismga esa 124 ta xurosonlik va movarounnahrlik shoir kiritilgan va ularning nasriy hamda nazmiy asarlaridan namunalar berilgan. Bu qismga 4160 baytga yaqin she‘r ham kiritilgan. Ular qasida, vasf, hajv, marsiya, masnaviy, g‘azal, urjuza janrlariga mansubdir.

ASARLARI: *«Yatimat ad-daxr fi mahosin ahl al-asr»* (*«Asr ahlining fozillari haqida zamonasining durdonasi»*), *«Afzal xulqlar»*, *«Til qonunlari va arab tili sirlari»*, *«Metonimiya va imo-ishoralar»*, *«Notiqlik xislatlari va mukammal nutq sirlari»*, *«Ajoyib ma‘lumotlar»* va boshq.

“YATIMAT AD-DAHR”

asaridan parchalar:

Dengiz suvi toshib yotgani ayon bo‘lib tursa ham, it undan tili bilan ichadi.

O‘z davringda baxtingni taqdir qo‘lidan xalos et.

Odam uchun eng yaxshi xursandchilik – o‘z qo‘li bilan ekkani daraxt mevalarini yeyish, yozgan she‘rining kuylanganini (eshitish) va sevgan farzandlari uning xizmatida turganini (ko‘rish).

Kimki quyoshni jahl bilan bekitmoqshi bo‘lsa, xato qiladi. «Quyoshni choyshab bilan yopib bo‘lmaydi».

Eshak balchiqqa yumalab (istagan) narsasiga erishdi va ishdan qutildi.

Ikkita narsa (bor), agar ko'zlarim ular haqida qon to'kib yig'laganda, ularga halokatdan xabar qilingan bo'lardi (va) ular (yashashi) kerak bo'lgan (vaqt)ning o'ndan birini ham ko'rmagan bo'lardilar: (biri) yoshlikning o'tib ketishi, (ikkinchisi) do'stlardan judo bo'lish.

Echki faqat ovqat bilan semiradi, «echki muloyim gap bilan semirmaydi».

Donolarga tegishli fors maqollaridan: «Kiyim bo'yoqchi qo'lida garovdir».

NAZARIY MA'LUMOT

Tazkira haqida

Tazkira (ar. «*zikir, eslatib o'tish, qayd etish, yozib qo'yish*») – shoirlarning hayoti va ijodi haqida ma'lumot, asarlaridan qisqacha namuna va tahlillar keltirilgan majmua. Birinchi tazkira hisoblanadigan *Abu Mansur as-Saolibiyning «Yatimat ad-dahr fi mahosini ahli asr»* («Zamona ahlining fazilatleri haqida yagona durdona») asari (XI asr), *Muhammad Avfiyning «Lubob ul-albob»* («Mag'izlarning mag'izi», XIII asr), turkiy adabiyotdagi birinchi tazkira bo'lgan *A. Navoiyning «Majolis un-nafois»* («Nafis majlislar», 1491-1493), *Davlatshoh Samarqandiyning «Tazkirat ush-shuaro»* (1486), *Hasanxoja Nisoriyning «Muzakkiri ahbob»* (1566-y), *Mutribiyning «Tazkirat ush-shuaro»* (1604-1605), *Maleho Samarqandiyning «Muzakkir ul-ashob»* («Suhbatdoshlarning zikri», 1692), *Fazliy Namangoniyning «Majmuat ush-shuaro»* (XIX asr) va shu kabi boshqa asarlar tazkirachilikning go'zal namunalaridir.

O'RTA OSIYONING QOMUSIY OLIMLARI

AL-XORAZMIY

(780 – 850)



Abu Abdulla Muhammad ibn Muso 780-yilda Xivada tug'ilgan. Xorazmiy dunyoga mashhur matematik va astronom sifatida tanilgan. Uning nomini tarixda qoldirgan buyuk asar «*Al-jabr va-l muqobala*» risolasidir. Olim 850-yilda Bag'dod shahrida vafot etgan. Al-Xorazmiy Ma'mun akademiyasining ilk tashkilotchilaridan va eng faol a'zolaridan

biri bo'lgan. U Yer meridianini o'lchashda ham ishtirok etgan olimdir.

ASARLARI: «*Kitob surat al-arz*» («Yerning surati haqidagi kitob»), «*Astronomik jadvallar*», «*Tarix risolasi*», «*Musiqa risolasi*», «*Mafotix ul-ulum*» («Ilmlarning kalitlari», 9 kitobdan iborat), «*Quyosh soatlari to'g'risida*», «*Hisob al-hind*» («Hind arifmetikasi haqida kitob»), «*Sinus zijklari*», «*Yer sathini o'lchash*» va boshq.

ABU NASR FOROBIY

(873 – 950)



Abu Nasr Muhammad ibn Muhammad ibn O'zlug' Tarxon Forobiy 873-yilda Forob (hozirgi Janubiy Qozog'iston viloyatining Temurlang shaharchasi)da tug'ilgan. Dunyo ahli Arastuni birinchi muallim deb bilishsa, Forobiyni «*Muallim us-soniy*», ya'ni «*Ikkinchi muallim*» deb atashgan.

Olim boshlang'ich ma'lumotni ona yurtida olgan, keyin Toshkent, Buxoro, Samarqandda o'qigan, Bag'dod, Isfahon, Hamadon, Ray shaharlarida bo'lgan. Forobiy 70 dan ortiq tilni bilgan, falsafa, arifmetika, geometriya, astronomiya, musiqa, tabiat, fizika,

kimyo, optika, tibbiyot, biologiya va boshqa fanlar sohasidagi kashfiyotlari bilan katta shuhrat qozonib, 160 dan ortiq asar yozgan.

Forobiyning musiqa bilan ham shug'ullanib, **qonun** nomli asbob yasaganligi haqida rivoyatlar ham mavjud.

Bizgacha olimning qirqaqa yaqin asari yetib kelgan. U Arastu, Afлотun, Yevklid, Ptolomey kabilarning asarlariga sharhlar ham yozgan.

Abu Nasr Forobiy 950-yilda Damashqda vafot etgan.

ASARLARI: «*Arastu qonunlarining mohiyati haqida*», «*She'r san'ati haqida*» (Arastuning «*Poetika*» asariga sharh sifatida yozilgan risola), «*Fozillar shahri aholisining fikrlari*», «*Ilmlarning kelib chiqishi va tasnifi*», «*Baxt-saodatga erishuv haqida risola*» va boshq.

ABU RAYHON BERUNIY

(973 – 1048)



Abu Rayhon Beruniy («*Berun*» so'zi «*tashqari*» degan ma'noni anglatadi) 973-yil 4-sentabrda Xorazmning Qiyot (Kat) shahrida dunyoga kelgan. Dastlabki ta'limni ona shahrida olgan, mashhur olim Abu Nasr ibn Ali Iroqdan ilmi nujum, riyozat kabi fanlardan dars oladi. U 17 yoshida ilk astronomik kuzatishlarni o'tkazadi. Beruniy 152 ta ilmiy asar yozgan bo'lib, shundan 28

tasi bizgacha yetib kelgan.

Abu Rayhon Beruniy dunyoda birinchi bo'lib globus yasagan, Amerika qit'asini bashorat qilgan va Xorazm «Ma'mun akademiyasi»ga asos solgan olimdir. U dunyo she'riyatining uch buyuk vazni: metrika (yunon), shloka (hind) va aruz (arab) ni o'zaro qiyoslab, ular orasida o'xshashliklar topgan.

Buyuk bobokalonimiz 1048-yil 13-dekabrda G'aznada vafot etgan.

ASARLARI: «*Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar*» (bu asarda taqvim va yil hisobi, shuningdek, so'g'diylar, qadimgi

xorazmliklar, forslar, yunonlar, yahudiylar, xristianlar va musulmonlarning bayramlari, urf-odatlarini to'g'risida ma'lumot berilgan), «Geodeziya», «Quyosh harakatini aniqlash yo'li», «Mineralogiya», «Saydana», «Hindiston» va boshq.

ABU ALI IBN SINO

(980 – 1037)



Buyuk daho **Abu Ali Husayn ibn Abdulloh ibn Sino** hijriy 370(milodiy 980)-yilda Buxoroning Afshona, hozirgi Isfana qishlog'ida Abdulloh va Sitorabonu oilasida tug'ilgan. U yoshligidanoq o'tkir zehni va ilmga qiziqishi bilan hammani lol qoldirgan. Ibn Sino An-Notiliy qo'lida tarbiya oladi. U astronomiya, falsafa, matematika, fizika, kimyo, tibbiyot, mantiq, adabiyot,

mineralogiya va boshqa shu kabi fanlar bilan shug'ullangan.

Ibn Sino 10 yoshida «Qur'on»ni yod olgan, 16 yoshdayoq atoqli tabib bo'lgan.

U Buxoro amiri **Nuh ibn Mansurni** davolab, saroyning boy kutubxonasidan foydalanish huquqini qo'lga kiritgan. Ibn Sino 1002-yilda Buxorodan chiqib ketadi, Urganch, Obivard, Naso, Nishopur, Jurjon, Ray, Isfahon, Hamadon kabi shaharlarda bo'ladi. U 1037 (hijriy 428)-yilda 57 yoshida Hamadon shahrida vafot etadi.

Mutafakkirning turli fanlarga oid 280 dan ortiq ilmiy asarlar yaratganligi ma'lum. Biroq bizgacha Ibn Sinoning 160 ta asari yetib kelgan¹¹¹.

Ibn Sino Sharqda «**Shayxur-Rais**», G'arbda esa «**Avitsenna**» nomi bilan mashhur.

Ibn Sinoning asarlari ichida eng mashhuri «**Al-Qonun fi-t-tibb**» («**Tib qonunlari**») asaridir. Uning «**Yusuf qissasi**» asari Qur'on sujeti asosida yozilgan birinchi asar bo'lib, ramziy-majoziy usuldadir. «**Risolat-at tayr**» («**Qush risolasi**»), «**Uyg'oq**

¹¹¹ B.Qosimov va boshq. Adabiyot (10-sinf uchun darslik). – T.: O'qituvchi, 2004. – 57-bet.

o'g'li Tirik» («Hayy ibn Yaqzon») kabi asarlari ham ramziy-majoziy uslubda, «*Salomon va Ibsol*» esa ishqiy-sarguzasht asardir. Ibn Sino shoir sifatida **doston, qasida, g'azal, ruboiy, fardlar** yaratgan.

She'riyatning nazariy masalalari uning «*Musiqa ilmida katta to'plam*» asarida ham tadqiq etilgan. «*She'r obrazli so'zlardan iborat bo'lib, ritmli, bir-biriga muvofiq iboralardan tarkib topgan hamda misralari bir-biriga teng, vaznlari takrorlangan, oxirgi tovushlar bir-biriga o'xshash bo'lib kelgan satrlarga aytiladi*», – deydi Ibn Sino. U tibbiy yo'l-yo'riqlarni, ko'rsatmalarni she'riy yo'l bilan bayon etgan. Bular *o'rjo'zalar* deb atalgan. Bunga sabab ularning *rajaz bahrida* yozilganidir.

Ibn Sino fors va arab tillarida ijod qilgan. U fors tilida ruboiy janrini boshlab bergan. Abu Ali ibn Sino *Sharq ko'proq nasihat bilan, G'arb esa hayotni real ko'rsatish orqali kishini tarbiyalashga moyilligini* maxsus qayd etgan.

ASARLARI: «*Kitob ush-shifo*» (olimning 20 qismdan iborat bo'lgan tabiiy fanlar haqidagi eng mashhur asari), «*Donishnoma*», «*Kitob al-qonun fi-t-tib*» («Tib qonunlari kitobi»), 5 kitob, 14 jilddan iborat bo'lgan), «*Al-Manzuma fi-t-tibb*» («Tibbiy doston» yoki «o'rjo'za», 8 bobdan iborat, «Qonun» asaridan keyingi eng muhim asar), «*Salomon va Ibsol*», «*Yusuf qissasi*», «*Risolat at-tayr*» («Qush risolasi»), «*Fann ash-she'r*» («She'r ilmi», Ibn Sinoning adabiyotshunos sifatida yozgan, she'riyat hamda yunon she'riyatining tur va shakllari haqidagi asari), «*Musiqa ilmida katta to'plam*» va boshq.





21-MAVZU.

X – XI ASRLAR ADABIYOTI NAMOYANDALARI

X – XI asrlar adabiyoti haqida

X asr o'rtalarida Qoraxoniylar davlati tashkil topdi. 992-yilda qoraxoniylar Buxoro va Samarqand kabi poytaxt shaharlarniegallaydi. Qoraxoniylarning poytaxt shaharlari **Isfijob (Sayram), O'tror, Shosh, Bolasog'un, Xo'tan** bo'lib, ularning davlati Markaziy Tiyonshon, Yettisuv, Chu va Talas vodiylarini o'z ichiga olgan edi. Qoraxoniylar davlati Xorun, Bug'raxon, Tamg'ochxon va Ibrohim Bo'ritegin davrlarida ancha kuchaygan, nisbatan iqtisodiy va madaniy yuksalishga erishgan¹¹². Bu davrda madaniyat, ilm-fan va adabiyot rivojlandi, turkiy adabiy til ham taraqqiy etdi. Qoraxoniylar davrida *Mahmud Koshg'ariyning «Devonu lug'ot at-turk», Yusuf Xos Hojibning «Qutadg'u bilig», Ahmad Yugnakiyning «Hibat ul-haqoyiq»* asarlari yaratildi.

Y.E.Bertels X asrdagi Buxoroda yaratilgan adabiyot haqida *«Aslini aytganda, til nuqtayi nazaridan bu davr adabiyotini fors va arab adabiyotiga bo'lish – haqiqatan shartli narsadir. Aslida biz mavzu, uslub, tashqi ko'rinishi bir xil, faqat tildagina farqi bo'lgan yagona adabiyotga egamiz...»*, – deb yozgan edi.

XI asr sharoitida Yusuf Xos Hojib shoirlarni *«so'z teruvchilar»* deb, XIV asrda esa Sayfi Saroyi *«so'z bulbuli»* deb, Navoiy esa *«ruh chamanining xushxon bulbullari»* deb ta'riflagan.

XI asrda Yusuf Xos Hojib boshlab bergan dostonchilik an'anasi *Ahmad Yugnakiy, Sayfi Saroyi, Qutb, Haydar*

¹¹² B.To'xliyev, B.Karimov, K.Usmonova. Adabiyot (O'rta ta'lim muassasalarining 11-sinfi va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalarining o'quvchilari uchun darslik-majmua. I qism. - T.: "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti, 2018. – 52-bet.

Xorazmiy kabi shoirlar ijodida davom ettirildi. Shu davrdan boshlab adabiyotda didaktik usul yetakchilik qila boshlagan.

MAHMUD KOSHG'ARIY



Mahmud Koshg'ariyning asl ismi *Mahmud ibn Husayn ibn Muhammadil Koshg'ariy* bo'lib, ba'zi manbalarda Koshg'ariyning to'liq ismi *Shamsiddin Mahmud Ibn Husayn* tariqasida keltirilgan. Mahmud Koshg'ariyning yozishicha, uning otasi *Barsg'an* shahridan ekan. Bu shahar hozirgi Qirg'iziston hududida bo'lgan. Boshqa manbalarda bu haqda quyidagicha ma'lumotlar keltirilgan: *Mahmud Qoshg'ar shahrining janubi-g'arbidagi O'pol qishlog'ining Ozig' mahallasida tug'ilgan. U qoraxoniylar hukmdorlaridan Yusuf Qodirxonning evarasi. Otasi Husayn ibn Muhammad (Qodirxonning nevarasi) «Arslon elig» nomi bilan 1056–1057-yillarda Barsxon amiri bo'lgan. Mahmudning ona tomondan buvasi Xo'ja Sayfiddin buzrukvor ham o'qimishli kishi bo'lgan.*

Mahmud Koshg'ariyning ilk ustozlaridan biri qashqarlik *Husayn xalifa* bo'lib, keyinchalik Koshg'ariy Samarqand, Buxoro, Bag'dod, Marv, Nishopurda tahsil olgan, arab, fors, rumoniy kabi 8-9 tilni mukammal egallagan. Mahmud ko'p o'lkalarni kezadi va 1118-yilda Qashg'arga qaytib kelib, madrasada dars beradi. Olim 97 yoshida vafot etadi va O'poldagi ajdodlari maqbarasiga dafn etiladi. Maqbara hozirgacha «*Hazrati Mullom mozori*» nomi bilan mashhur.

M.Koshg'ariy ilk geograf, botanik, zoolog, turkiy til grammatikasini ishlab chiqqan birinchi tilshunos olim, folklorshunos, elshunos (etnograf), adabiyotshunos, shoir, tarixchi va qomusiy olimdir.

«Devonu lug'ot at-turk» («Turkiy tillar lug'atlari»)¹¹³ milodiy 1072-yilda yozila boshlangan va 1074-yilda tugatilgan (hijriy 464–466-yy). Muallif bu haqda shunday degan: «*Kitob 464-yilda(hijriy) jumadul avval boshlarida boshlandi va to'rt karra yozilgandan (ko'chirilgandan) va tuzatilgandan so'ng 466-yil jumadul oxirning 12-kuni bitirildi*». Bu vaqtda muallif 50 yoshda bo'lgan. Umuman olganda, bu asar XI asrda yozilgan bo'lib, turkiy so'zlar lug'ati hisoblanadi.

«Devonu lug'ot at-turk» asarining asl qo'lyozmasi bizgacha yetib kelmagan. Uning yozilgan sanadan 200 yil o'tgach ko'chirilgan birdan bir nusxasi Istanbul kutubxonasida saqlanmoqda. 3 jilddan iborat bu kitob 1939–1941-yillarda hozirgi turk tiliga tarjima qilinib nashr etilgan. O'zbekistonda «Devon»ning birinchi tadqiqotchisi va qisman noshiri professor **Fitrat**dir. Bu asarni filologiya fanlari doktori, taniqli tilshunos olim S.Mutallibov hozirgi o'zbek tiliga o'giran.

Asar *Abulqosim Abdulloh binni Muhammad al-Muqtadoga* bag'ishlangan. Bu kitobda O'rta Osiyoda yashagan turkiy xalqlarning XI asrgacha bo'lgan badiiy ijodi to'g'risida juda qimmatli ma'lumotlar jamlangan bo'lib, unda qadimgi qabilaviy hayot, ovchilik, dehqonchilik, chorvachilik bilan bog'lanib ketadigan lavhalar ko'p uchraydi. Muallif unda so'zlarning ma'nosini arab tilida izohlab bergan. Misol sifatida ko'plab xalq maqollari, hikmatlari, qo'shiqlaridan keltirgan. Bu haqda Mahmud Koshg'ariyning o'zi quyidagicha yozadi: «*Men bu kitobni maxsus alifbo tartibida hikmatli so'zlar, saj'lar, maqollar, rajaz va nasr deb atalgan adabiy parchalar bilan bezadim... Bu ishda misol tariqasida turklarning tilida qo'llanib kelgan she'rlaridan, shodlik va motam kunlarida*

¹¹³ *Qarang*: B.To'xliyev, B.Karimov, K.Usmonova. Adabiyot (O'rta ta'lim muassasalarining 11-sinfi va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalarining o'quvchilari uchun darslik-majmua. I qism. - T.: "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti, 2018. - 54-60-betlar; Boqijon To'xliyev. Adabiyot (Akademik litsey va kasb-hunar kollejlari uchun darslik). - T.: O'qituvchi, 2010. - 59-74-betlar; B.Qosimov va boshq. Adabiyot (10-sinf uchun darslik). - T.: O'qituvchi, 2004. - 59-62-betlar.

qo'llaniladigan hikmatli so'zlaridan, maqollaridan keltirdim».

«Qo'shiq», «she'r», «qasida», «marsiya», «afsona», «maqol» kabi atamalar ilk bor shu asarda qo'llangan va uyg'ur yozuvi haqida ham ilk ma'lumotlar keltirilgan. Mahmud Koshg'ariy «Devonu lug'ot at-turk» asarida nazariy jihatdan **qo'shiq, she'r, qasida** kabi tur va janrlarga to'xtamagan. U «**qo'shiq**» atamasiga «**she'r, qasida**» deb izoh bergan.

Asarda mehnat va marosim qo'shiqlari, lirik qo'shiqlar va o'gitnomalar, «Qish va Bahor» munozarasi, «Alp Er To'nga» (*Afrosiyob*) marsiyasi, savlar (*afsonalar*), maqollar, «Oltin qon» afsonasi (*unda qadimgi turkiy ajdodlarimizning Iskandar Zulqarnaynga qarshi mardliklari hikoya qilinadi*), «Tangutlar bilan jang», «Yaboqular bilan jang» kabi parchalar va shu kabilar keltirilgan. Koshg'ariyning bu asarida **20 ta** turkiy qabilalar nomi izohlari bilan keltirilgan. Asarda turkiy xalqlar turmush manzaralari bilan bog'liq bo'lgan she'riy parchalar katta o'rin egallaydi. Ularda xalqning urf-odati, yashash tarzi, mashg'uloti, ishonch-e'tiqodlari ifodasi ochiq ko'rinadi.

Yigitlarni ishga safarbar qilish, meva terish, ovchilikka da'vat kabi qadimgi turmush tarzidan olingan qo'shiqlar maxsus berilgan. Asarda ovchilik, chorvachilik, ajdodlarimizning turmush manzaralari, yashash tarzi bilan bog'liq ko'pgina mehnat va marosim qo'shiqlari keltirilgan. «Devon»dagi xalq qo'shiqlarida *o'xshatish, sifatlash, qarshilantirish, jonlantirish* va *qiyoslar* tez-tez ko'zga tashlanadi.

«Devonu lug'ot-at-turk» asariga kirgan adabiy shakllarning asosiy qismini **to'rtliklar (murabba'lar)** tashkil qiladi. Ular a-a-a-b va a-a-a-a yoki a-b-d-b shaklidagi qofiyadoshlikka ega. To'rtliklarda Vatan va yurt muhabbati, xalq uchun jang qilgan bahodirlar bilan faxrlanish, tabiat manzaralari go'zalligi, mehnat shavqi, turli insoniy kechinmalar talqini mavzusi yetakchilik qiladi.

«Devonu lug'ot at-turk»dagi she'riy parchalarning ko'p qismi pand-nasihati, o'gitlardan iborat. Asardagi xalq qo'shiqlarining tasvir usullari ham nihoyatda xilma-xil. «**Qaqlar qamug' ko'lardi**» («*Yomg'ir va seldan qoq yerlarning barchasi ko'l bo'ldi...*») to'rtligi, «**Qish va Bahor**» munozarasida

Jumlatlirish, «*Bulnar meni ulas ko'z*» («*Xumor ko'zli (go'zal) meni asir qiladi...*») to'rtligida esa **sifatlash** asosiy o'rin tutadi.

Umuman olganda, "Devonu lug'ot at-turk" asari XI asrda yozilgan bo'lsa-da, undagi xalq og'zaki ijodi namunalarining ko'pchiligi asar yozilgan davrdan 5 – 6 asr qadimroqdir.

«ALP ER TO'NGA» marsiyasi haqida

Alp Er To'nga – turklarning qadimiy qahramoni. Yusuf Xos Hojib tojiklar uni Afrosiyob deb atashlarini yozgan. Mahmud Koshg'ariy Afrosiyobni Qashqarda – O'rdukan shahrida turar edi, deb ko'rsatadi. To'nga Alp Er – yo'lbars kabi kuchli bahodir odam, demakdir. Shuningdek, uning **Barman, Barsg'an** degan o'g'illari hamda **Qaz** ismli qizi haqida ham ma'lumotlar saqlanib qolgan. Qaz haqida asarda quyidagi ma'lumotlar keltirilgan: «*Qaz – Afrosiyob qizining nomidir. Qazvin shahrini shu qurgandir. Bu so'zning asli qaz o'yini – g'oz o'ynaladigan joy demakdir... Qazning otasi To'nga Alp Er – Afrosiyobdir. U Tahmuraspdan 300 yil keyin Marvni bino qilgan. Ba'zilar butun Movarounnahrni turklar o'lkalaridan deb bilganlar. U Yankanddan boshlanadi. Uning bir oti Dizro'yindir. U sariqligiga ko'ra mis shahri demakdir. Buxoroga yaqindir. Bu yerda Afrosiyobning qizi – Qazning eri Siyovush o'ldirilgan. Majusiy – otashparastlar har yili bir kun bu yerga kelib, Siyovush o'lgan joy atrofida yig'laydilar. Mollar so'yib, qurbonlik qiladilar...*»

Mahmud Koshg'ariy Afrosiyobning bolalari xoqon, xon deb atalganini eslatadi. Marsiyada Afrosiyob – Alp Er To'nganing o'limi achchiq qismat, dahshatli fojia, o'rmini to'ldirib bo'lmaydigan yo'qotish sifatida baholanadi. Bu marsiya murabba' shaklida bo'lib, misralar asosan a-a-a-b qofiyalanish tartibiga ega. Alp Er To'nga marsiyasi barmoq vaznidadir. Uning har bir misrasi yetti bo'g'indan tuzilgan. Turoqlar tartibi 4+3 shaklida. Marsiyani A.Qayumov hozirgi o'zbek tiliga o'giran.

**“DEVONU LUG‘OT AT-TURK” asaridagi
maqollardan namunalar**

1. *«Tulku o‘z iniga ursa, ujuz bo‘lur»* («Tulki o‘z uyasiga qarab ulisa, qo‘tir bo‘ladi»). Mahmud Koshg‘ariy izohlashicha, «bu maqol o‘z elini, urug‘ini va mamlakatini yomonlovchilarga qarata aytiladi».

2. *«Erik erni yag‘lig‘, ermagu bashi qanlig‘»* («Tirishqoqning labi yog‘lik, erinchoqning boshi qonlik»). Bu maqol yalqovlikni tashlashga, g‘ayrat bilan ishlashga undab aytiladi.

3. *«Suv ichirmasga sut ber»*. U senga yomonlik qilganga ham yaxshilik qil, degan ma‘noda ishlatiladi.

4. *«O‘kuz azaqi bo‘lg‘incha, buzag‘u bashi bo‘lsa yik»* («Ho‘kizning oyog‘i bo‘lguncha, buzoqning boshi bo‘lgan yaxshiroq»). U «mustaqillik bo‘ysunishdan yaxshi» degan ma‘noda qo‘llanadi.

5. *«Tavg‘ach xanning to‘rqusi telim, tenglamazib bichmas»* («(Qoraxitoy) xoqonining ipak gazmoli ko‘p, lekin o‘lchamay kesilmaydi»). Bu maqol ishni boshida puxta o‘ylab qilishga undab, isrofgarchilikka qarshi aytilgan.

6. *«Uma kelsa, qut kelar»* («Mehmon kelsa qut kelar»). Bunda «senga mehmon kelsa, u bilan birga baraka, qut-baxt keladi, qo‘noqni yaxshi qarshi oladilar, malol olmaydilar» degan fikr ilgari surilgan.

7. *«Qiz kishi savi yo‘rig‘li bo‘lmas»* («Baxil odamning ovozasini chiqmaydi, shuhratlanmaydi»). Bu maqol odamlarni yaxshi nom chiqarish, saxiy bo‘lish uchun undab aytiladi.

8. *«Erdam bashi til»* («San‘at, fazilatlarining boshi til(da)dir»).

9. *«Tilin tugmishin tishin yazmas»* («Til bilan tugilganni tish bilan yechib bo‘lmas»).

10. *«Emgak ekinda qolmas»*. («Mehnat bekor ketmaydi»).

11. *«Kim kur bo‘lsa, kuvaz bo‘lur»*. («Dovyurak [alp] odam mag‘rur bo‘ladi»).

12. *«Qul savi qalmas, Qag‘il bag‘i yazilmas»*. («Keksalar so‘zi, nasihati bekor ketmaydi, Tolning ho‘l novdasining bog‘i yozilmaydi»).

ASARDAN PARCHALAR:

Suvga tayanma, chunki dunyo ne'matlarining shirinligiga, bahor go'zalligiga suyangan kishilar suvga suyanganlar kabidir.

* * *

Sevgilisini maqtab shunday yozadi: uning ko'zi kishi (ko'nglini) ovlaydigan sehrgardir. O'zi musofirdir, yuzi to'lin oydir. Qarashi bilan u meni otib, yuragimni yordi.

YUSUF XOS HOJIB¹¹⁴

(1019 – vafot etgan vaqti noma'lum)



Yusuf Xos Hojib turkiy tilda ilk yirik hajmli adabiy-ma'rifiy asar yaratgan iste'dodli shoir, davlat arbobi, donishmand, turkiy o'g'itnoma – didaktik yo'nalishni yuqori darajaga olib chiqqan adibdir. U **Quz O'rdu** (*Bolosog'un, u hozirgi Qirg'izistonning Talas vodiysi hududidagi qadimgi shahar bo'lgan*) shahrida taxminan XI asrning 20-yillarida tug'ilgan. Yettisuvning poytaxti - Bolosog'unning qadimiy nomlaridan biri bo'lgan Quz O'rdu turkiylar istiqomat qiladigan qadimiy shaharlardan biri bo'lgan.

Bu shahar Mahmud Koshg'ariyning «Devonu lug'ot at-turk» asarida ham bir necha marta tilga olingan. Jumladan, Mahmud Koshg'ariy bu shaharning arg'un lahjasida **Quz ulus**, o'g'uz lahjasida esa **Quz O'rdu** deb yuritilishini yozib o'tgan.

Yusuf Xos Hojib tarix, badiiy adabiyot, astronomiya, geometriya, matematika, tabiiyot, geografiya va shu kabi zamonasining boshqa fanlarini, fors-tojik va arab tillarini chuqur o'rgangan. Adib hayoti va ijodiy faoliyati haqida ma'lumot beruvchi yagona manba uning «**Qutadg'u bilig**» asaridir.

¹¹⁴ Qarang: S.Olim va boshq. Adabiyot (Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 8-sinfi uchun darslik-majmua). – T.: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, "O'zbekiston" nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2010. – 45–62-betlar; Boqijon To'xliyev. Adabiyot (Akademik litsey va kasb-hunar kollejlari uchun darslik). – T.: O'qituvchi, 2010. – 112–136-betlar; B.Qosimov va boshq. Adabiyot (10-sinf uchun darslik). – T.: O'qituvchi, 2004. – 63–74-betlar.

«QUTADG‘U BILIG» asari haqida

Yusuf Xos Hojib o‘z asarini yozish uchun juda katta tayyorgarlik ko‘radi: Chin (Xitoy), Mochin (Sharqiy Turkiston), Eron va Turon bo‘ylab safar qiladi. U yerdagi turli yodgorliklarni o‘rganadi. Shuning uchun ham adib asarda o‘z davrining nihoyatda ahamiyatli bo‘lgan turli mavzularini qamrab oladi.

«Qutadg‘u bilig» («Baxt-saodatga eltuvchi bilim») asari hijriy 462-yil, milodiy 1069–1070-yillarda yozilgan. Asarni yozish uchun muallif 18 oy (bir yarim yil) vaqt sarflagan. Asar hajmi 6 409 bayt bo‘lib, 73 fasl (bob)dan iborat.

«Qutadg‘u bilig»da nasriy va she‘riy muqaddima bo‘lib, ulardan tashqari 71 maxsus bob mavjud. 12-bobdan asar voqeasi boshlanadi. Asosiy bo‘lim Kuntug‘dining ta‘rifi haqida. Xususan, asarning 31-bobi «Beklikka loyiq bek qanday bo‘lishini aytadi» deb nomlangan bo‘lib, unda **rahbar ma‘naviyati** haqida so‘z yuritilgan. Bunda bek quyidagi 5 illatdan ehtiyot bo‘lishi uqtirilgan: *birinchisi – shoshqaloqlik, ikkinchisi – ochko‘zlik, uchinchisi – jaholat (aql bilan emas, jahl bilan ish ko‘rish, bilimsizlik), to‘rtinchisi – buzug‘ fe‘llilik, beshinchisi – yolg‘onchilik.*

Olimlar quyidagi misralarga tayanib, muallif asarni 50 yoshlarida yaratgan deb hisoblaydilar:

Tegurdi menga algi ellik yoshim,
Qug‘u qildi quzg‘un tusidek boshim.
Oqir ellik emdi mengar kel teyu,
Pusug‘ bo‘lmasa, bordim emdi naru.

Ma‘nosi:

Ellik yoshim menga qo‘l tegizdi,
Qora quzg‘un tusidek boshimni oq (qush) qildi/ ya‘ni sochim oqardi/.

Ellik /yosh/ endi men tomon kel, deb chorlamoqda,
Pistirma /ya‘ni nogahoniy o‘lim/ bo‘lmasa, endi u tomon boraman¹¹⁵.

¹¹⁵ S.Olim va boshq. Adabiyot (Umumiy o‘rta ta‘lim maktablarining 8-sinfi uchun darslik-majmua). – T.: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, “O‘zbekiston” nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2010. – 45-bet.

Kitob Qashg'ar hukmdori *Tavg'ach ulug' Bug'ro Qoraxon* *abo Ali Hasan binni Arslonxonga* tortiq qilingan va buning evaziga muallif Xos Hojib («*muqarram, eshik og'asi*») lavozimi bilan taqdirlangan. Shundan keyin u Yusuf Xos Hojib nomi bilan shuhrat qozongan.

Turkiy adabiyotda aruz vaznidagi dastlabki yirik tajribani ham Yusuf Xos Hojib boshlab bergan. U o'z asarini mutaqorib bahri (*mutaqoribi musammani mahzuf (yoki maqsur)*)da yozgan, tajnisli qofiyalarni ishlatgan. Adib so'z qudratini, ona tilining ichki imkoniyatlarini nozik darajada his etib, quyidagicha yozadi: «*Men turkcha so'zlarni yovvoyi tog' kiyigi singari deb bildim, shunga qaramay ularni avaylab-asrab qo'lg'a o'rgatdim*». Yusuf Xos Hojib tilni «*bilim va aql-idrok tarjimoni*» deb ataydi, ilmni esa insonlar yo'lini yorituvchi mash'alga qiyoslaydi. «*Qutadg'u bilig*»da «*hamma qimirlagan jonga bulardan manfaat bo'ladi, hamma nafas oluvchi tiriklar bularga hojatmand bo'ladi*», «*...qo'li ochiq bo'ladi. Ko'nglini xudo berganidan ham ziyod keng tutadi*» – deb dehqonlarga ta'rif beriladi.

«*Qutadg'u bilig*» pandnoma (didaktik) asar bo'lib, unda tilning fazilati, foyda va zararlari, bilim, o'quv-idrok farqi, bir yigitga qirq hunar ozligi, beklikka loyiq bo'lish haqida qimmatli fikrlar keltirilgan. Asarda keltirilgan quyidagi to'rtlikni turkiy yozma adabiyotdagi ilk tuyuqlardan biri deb aytish mumkin:

Qayu erda bo'lsa uqush bila o'g, (aql)
Ani er atag'il, necha o'gsa o'g, (maqta)
Uqush, o'g, bilig kimda bo'lsa tugal,
Yavuz ersa kaz te, kichig ersa – o'g. (ulug'la)

Mazmuni:

Qaysi bir kishida aql va zakovat bo'lsa,
Uni (haqiqiy) kishi deb atagin, qancha maqtasang maqta.
Zakovat, aql, bilim kimda yetuk bo'lsa,
Yomon bo'lsa (ham) yaxshi de, kichik bo'lsa (ham) katta deb
ulug'la.

Adibning bu asarini vatan, *el-yurt madhiyasi* deb atash mumkin. Asarda muallif o'xshatish (tashbeh) san'atidan

unumli foydalanagan. Yusuf Xos Hojib *yilqi (hayvon)* obrazini nodon, bilimsiz, zakovatsiz, ochko'z va umuman, yomon xulqli kishiga nisbatan, *bo'ri* obrazini lashkarboshi, yovdushman, o'lim kabilarga nisbatan qo'llagan. Lashkarboshining kuchliligi, yovga dahshat solishi *arslonga*, doimiy xushyorligi *zag'izg'onga*, baquvvatligi *qoplonga*, hujumkorligi va dushmanga hamlasi *to'ng'izga*, mardonavorligi *bo'riga*, jangda mohirligi, hiylakor va tadbirkorligi *tulkiga*, shiddati *ayiqqa*, qasoskorligi *qo'tos* va *tuya erkagiga* o'xshatilgan.

«Qutadg'u bilig» istioralari ham o'ziga xos. *Tun* bir o'rinda «qora yuz bog'i» istiorasi bilan ifodalansa, boshqa o'rinlarda «zangi yuzi», «sevuglar qoshi», «qora soch bo'dug'i», «qora ko'ylak», «zog'rangi», «xabash qirtishi», «tul to'ni», «qunduz terisi» istioralari bilan ifodalangan. Shoir yigitlikni *kezuvcchi bulutga*, yoshlikdagi yuzni *arg'uvonga*, sochni *iporga*, qomatni *qayin* va *o'qqa* tashbeh qiladi. Quyosh «rumiy qizi», «sata» (marjon), «sata qalqani» (marjon shodasi), «yorug'yuz», «sara qiz yuzi» istioralari bilan ifodalangan. Yusuf Xos Hojib yigitlikni «tiriglik tatg'i», «qamug' ko'rk», «sevug jon sevunchi» deb ataydi.

Asarda keltirilgan «Bahor madhi»ni turkiy adabiyotdagi ilk qasida sifatida baholash mumkin. Bu qasida 59 baytdan iborat bo'lib, masnaviy tarzida (a-a, b-b, d-d,...) yozilgan.

«Qutadg'u bilig» davlatning mafkuraviy ta'limoti sifatida ham alohida ahamiyatga ega bo'lib, unda beklkning mustahkam bo'lishi uchun *kuchli lashkar, boylik, badavlat xalq, adolatli siyosat* kerakligi aytilgan, «bek» so'zi «bilig» so'zi bilan bog'langan va u muallif tomonidan chiroyli tarzda ifoda qilingan, bek xalqini bilim bilan zabt etishi ta'kidlangan. Quyidagi fikrlar ham shu asarda uchraydi: «Agar arslon itlarga bosh bo'lsa, itlar arslonga aylanadi, lekin it arslonlarga yetakchilik qilsa, arslonlar itlar kabi bo'lib qolishi mumkin». Yusuf Xos Hojib «Ikki narsa el uchun mahkam bog'ichdir» deganda *hushyorlik, siyosatni nazarda tutgan*.

Muallifning yozishicha, «Qutadg'u bilig»ni chinliklar «Adab ul-muluk» («Podshohlar odobi»), mochinliklar «Amin ul-mamlakat» («Mamlakat omonliklari»), Sharqda «Ziynat ul-

amirliklar «*Shohnomayi turkiy*» («Turkiy shohnoma»), turonliklar «*Qutadg‘u bilig*», ba‘zilar esa «*Pandnomayi muluk*» («Podshohlar pandnomasi») deb atashgan. Abdurauf Fitrat uni «*Baxtliklanish bilimi*» deb tarjima qilgan. Yusuf Xos Hojib esa o‘z asarini «*Turkiy shohnoma*» deb atagan.

«Qutadg‘u bilig» XII–XIV asrlarda Yevropada «*zersal*» deb nomlangan janrning paydo bo‘lishiga sabab bo‘lgan.

Asarni **Qayum Karimov** baytma-bayt bugungi o‘zbek tiliga ilmiy tarjima qilgan bo‘lsa, **Boqijon To‘xliyev** she‘riy yo‘l bilan ommabop qilib o‘zbekchalashtirgan.



Yusuf Xos Hojib maqbarasi (Koshg‘ar, XI asr)

«QUTADG‘U BILIG» ASARI NUSXALARI HAQIDA

«Qutadg‘u bilig» asari haqida dastlab **XIX asrning birinchi choragida** (1823-yili) fransuz sharqshunosi **Jaubert Amedee** ma‘lumot bergan. Bu asarning 3 qo‘lyozma nusxasi ma‘lum:

1. Vena nusxasi. U milodiy 1439-yili Hirotda uyg‘ur yozuvi bilan ko‘chirilgan. Kitob Turkiyaning Tugot shahriga, 1474-yili esa Istanbulga keltirilgan. Uni Istanbulda Hammer Purgshtall sotib olib, Venadagi Saroy kutubxonasiga olib kelgan.

2. Qohira nusxasi. U 1896-yili asarning arab yozuvi asosidagi turkiy alifboda ko‘chirilgan nusxasidir.

3. Namangan nusxasi. Dastlab sharqshunos Valizoda 1914-yilning 20-aprelida Farg‘ona ekspeditsiyasi haqida yozgan hisobotida namanganlik Muhammad hoji Eshon Lolaresh degan kishining qo‘lida «Qutadg‘u bilig»ning boshqa bir nusxasi

mayjudligi haqida ma'lumot bergan. Abdurauf Fitrat 1924-yili Muhammad hoji Eshon Lolareshdan shu qo'lyozmani olgan.

«Qutadg'u bilig» asari qahramonlari haqida

Asarda to'rtta yetakchi qahramon bor. Bular quyidagilar: elig (podsho) **Kuntug'di** («chiqqan kun (quyosh)»), u adolat ramzi), vazir **Oyto'ldi** («to'lgan Oy»), u baxt va davlat ramzi), vazirning o'g'li **O'gdulmish** («aqlga to'lgan»), u aql va zakovat ramzi), vazirning qarindoshi **O'zg'urmish** («uyg'ongan, xushyor qiluvchi, sergaklantiruvchi»), u qanoat, ofiyat, ya'ni sog'lomlik ramzi).

Muallif o'z fikr-mulohazasini obrazlarning o'zaro savol-javobi va munozaralari yo'li bilan ifoda etadi. Asar qahramonlarning o'zaro suhbatlari asosiga qurilgan. Unda **Kuntug'di** va **Oyto'ldi** dunyo hodisalari haqida suhbatlashadi.

Asardagi Kuntug'dining adolati haqidagi gaplar butun dunyoga tarqaladi. Yurtda nizom va qoida ustuvor bo'lib, shu darajada adolat qaror topadiki, xazina oltinga to'lib, qo'zi bo'ri bilan yonma-yon omonlikda yashay boshlaydi. Yusuf Xos Hojib **Kuntug'dini** «*qilmishlari to'g'ri, fe'l-u tabiati rost, tili chin, yetuk, ko'zi va ko'ngli boy, bilimli, zakovatli, hushyor, yomonlarga misli bir olov edi*» deb tasvirlagan. Kuntug'di bir kuni uch oyoqli kumush kursi ustida, qo'lida pichoq, chap tomonida o'rog'un degan dori va o'ng tomonida shakar qo'yilgan holda turadi. Oyto'ldi buning sababini so'raganda, Kuntug'di quyidagicha javob beradi: «*Men ustida o'tirgan kursining oyog'i uchtadir. Barcha uch oyoqli narsa siljimas, mustahkam bo'ladi. Agar poyalardan birortasi siljisa, u kursi yiqiladi. Qo'limdagi pichoq esa qirquvchi va kesuvchi narsadir. Kim adolatimdan bahra olsa, shakardek chuchuk bo'lib ketadi-sevinadi. Zo'ravon, zolimlar esa urog'un ichgandek yuzi burishadi*».

Bir kuni Elig – hukmdor **Oyto'ldi** (vazir, ayni paytda davlat ramzi)ni chaqirtirganda u ko'zini yumib, yuzini o'girib, koptokning ustiga o'tirib oladi. Buning sababini Oyto'ldi quyidagicha tushuntirgan: «*Sen o'rin berding, men esa avvaliga*

«Bilmadim, chunki mening o'rnim yo'q, buni bilib ol, demoqchi bo'ldim. Koptok menga o'xshaydi. U o'ransiz dumalab yurgani kabi Davlat ham beqarordir. Iltifot qilganingda ko'zimni yumganligim va yuzimni o'giranligim mening qilmishlarim jafu, menga ishonma, deganim edi». Asarda Oyto'ldining asar davomida vafot etishi ham bejiz emas. U o'g'li O'gdulmishga vasiyat qilgan.

O'gdulmish asardagi eng faol qahramon bo'lib, bu nom **«aql bilan ziynatlangan»** demakdir. O'gdulmish bilimdon, donishmand kishi. U hayotning hamma sohalaridan puxta xabardor. O'gdulmish va O'zg'urmishning savol-javoblari ba'zan keskin munozara darajasiga yetadi. Shunda ham O'gdulmish bosiqlik qiladi, aql bilan ish yuritadi, natijada O'zg'urmishni o'z g'oyalarga ishontiradi.

O'zg'urmish (*«hushyor qiluvchi», «sergaklantiruvchi»*) ning «boshqalardan o'zib ketuvchi» degan ma'nosi ham bor. Uning zo'hid qiyofasida ko'rinishida shu ma'noga uyg'unlik bor. O'zg'urmish behuda ishlar bilan band bo'lish, har xil mayda-chuyda orzu-havaslariga ovunib qolishdan ogohlantiradi. O'zg'urmish qat'iy fikrli inson bo'lib, u podshoning taklifini rad etadi. Garchi bu taklif uch marta takrorlansada, u fikrini o'zgartirmaydi. Faqat O'gdulmishning oqilona tushuntirishlaridan so'ng, ziyorat maqsadidagina Elig huzuriga boradi. O'zg'urmish Eligga *so'ngsiz tiriklik, qarilik ko'rmas yigitlik, doimiy sog'lik, tunganmas boylik* kabi to'rt shart qo'yadi («Saddi Iskandariy»da shahzoda Iskandarga ham shunday shartlar qo'yilgan). So'ngra o'z manziliga – tog' etagidagi g'orga qaytadi va shu yerda vafot etadi. O'zg'urmish din va diyonatni hamma narsadan ustun qo'yadi. U O'gdulmishga quyidagi fikrlarni aytgan: *«Sen tansiq taomlarni, men esa oddiy arpa oshni yeymiz. Uxlab tursak, ikkimiz ham och qolamiz. Shunday ekan, bunday ovqatlarga ruju qo'yishning nafi yo'q. Sen kimxoblarga o'ranib yurasan. Men esa qopdan tikilgan to'n bilan kifoyalanaman. Ertaga o'lim kelsa, ikkimiz ham yalang'och ketamiz-ku! Demak, tanni emas, ruhni boyitish lozim».*

“Qutadg'u bilig” bundan 10 asr ilgari yaratilgan, boshqaruv ilmi, rahbarga qo'yiladigan talablar yuksak darajada tahlil

etilgan asardir. Umuman, Yusuf Xos Hojib o'z qahramonlari timsolida Davlat Adolat va Aql bilan boshqarilmog'i kerak, degan fikrni ilgari surgan.

ASARDAN PARCHALAR:

**Biliglig uqushlug' bilir bilsa ish,
Biliglig uqushlug' qilur qilsa ish.**

*Ma'nosi: Ishni bilsa, bilimli, zakovatli bo'ladi,
Ish qilsa, bilimli, zakovatli qiladi.*

(Bu baytda takrir, qofiya, radif kabi she'riy san'atlar qo'llangan)

**Beklikka tekkan dard davosi aql va bilim,
Uni aql bilan emla, ey xalqi muloyim.**

**El boshlig'i ikki narsa bilan yurtni buzadi,
Egri yo'lga kiradi, to'g'ri yo'ldan ozadi.**

**Biri – zo'rlik, biri – g'ofillik,
Bek bu ikki narsa bilan elini buzadi.**

**Zulm yonib turgan o'tdir, yaqinlashsang kuydiradi,
Adolat suv kabidir, oqsa, ne'mat unadi.**

**Esib keldi Sharqdan bahorning yeli,
Jahon ko'rki-chun ochdi firdavs yo'li.**

**Qora bosh yovi bu qizil til turur.
Necha bosh yedi u, yana ham yeyur..**

**Bezandim, ulug'vor begim bo'ldi xon,
Bag'ishladim, unga fido ushbu jon.**

**Tag'in bir toifasi dehqonlardir,
Bular mutlaqo kerakli kishilardir.**

**Dehqon kishilar qo'li ochiq bo'ladi,
Ko'nglini xudo berganidan ham ziyod keng tutadi.**

**Yolg'onchi kishilar vafosiz bo'lar,
Vafosiz kishi xalqqa tengsizlik qilar.**

**Qaror va sabr hek uchun ziyatdir,
Bular beklik yumushlarini bog'lovchi rishtalardir.**

**Qayu begda bo'lsa bu arquq qilinch,
Ishi barcha tetru sevinchi saqinch.**

NAZARIY MA'LUMOT Didaktik adabiyot haqida

Didaktik adabiyot¹¹⁶ (yun. «ibratli, saboq bo'larli, nasihatomuz»; «o'qitadigan, o'rgatadigan») – o'z oldiga axloqiy-tarbiyaviy hamda ma'rifiy muammolarni badiiy tarzda tasvirlashni maqsad qilgan adabiyot. Didaktik (pandona) asarlarni, adabiy shakliga ko'ra, quyidagicha tasnif qilish mumkin:

a) *nasriy didaktik asarlar* (misollar: «Qutadg'u bilig» asari yaratilgan davrdan 7 asr ilgari, ya'ni milodiy IV asrda Hindistonda sanskrit tilida yaratilgan «Pantachantra» (keyinchalik «Kalila va Dimna» nomi bilan mashhur bo'lgan), arab ertaklari asosida shakllangan «Ming bir kecha», Kaykovusning «Qobusnoma»si, XVI asr o'zbek adibi Xojaning «Gulzor» hamda «Miftoh ul-adl» («Adolat kaliti») asarlari va boshq.);

O'zbekiston xalq shoiri Shukrulloning «Javohirlar sandig'i» asari zamonaviy o'zbek adabiyotidagi didaktik ruhdagi asarlarning ajoyib namunasi bo'lib, u nasrda bitilgan.

b) *she'riy didaktik asarlar* (misollar: Yusuf Xos Hojibning «Qutadg'u bilig», Ahmad Yugnakiyning «Hibat ul-haqoyiq», Haydar Xorazmiyning «Gulshan ul-asror», Alisher Navoiyning «Hayrat ul-abror» dostonlari va boshq.);

d) *nasriy-she'riy didaktik asarlar* (misollar: Sa'diy Sheroziyning «Guliston» asari, Alisher Navoiyning «Mahbub ul-qulub»i, Gulxaniyning «Zarbulmasal»i va boshq.).

¹¹⁶ Olim va boshq. Adabiyot (Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 8-sinfi uchun darslik-majmua). – T.: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, "O'zbekiston" nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2010. – 63–64-betlar.



22-MAVZU. XI – XII ASRLAR ADABIYOTI NAMOYANDALARI

TASAVVUF haqida umumiy ma'lumot

TASAVVUF¹¹⁷ – insonning ilohiyotga munosabatini, umuman olganda, yashamoqning ma'no-maqsadini o'ziga xos tarzda talqin etuvchi ma'naviy, diniy, falsaviy birlikdagi ta'limot tizimidir. Komil inson bo'lib yetishishga intilish va shu maqsadda uning ta'limotida belgilangan yo'llarni bosib o'tish zarurati tasavvufning asosiy muddaosidir.

Tasavvuf – ham ruhan, ham jisman pok bo'lish, bularga maxsus riyozat bosqichlari orqali yetib borish ta'limotidir. **Abu Rayhon Beruniy** «*Tasavvuf*» so'zining lug'aviy ma'nosini «faylasuf» so'zidagi «suf» so'zi bilan bog'laydi. So'fiy so'zi ham «so'f»dan yasalgan, «*Tasavvuf*», «*mutasavvuf*» so'zlari bilan o'zakdoshdur. Ilmda tasavvuf tarixidagi ikki bosqich, **zohidlik** va **oriflik** ajratiladi. Zohidlik davriga xos xususiyat Alloh yo'lida toat-ibodat qilish va farzdir. **Ibrohim Adham**, **Hasan Basriy**, **Abdulloh Muborak** shu oqim vakillaridir. IX asr o'rtalaridan oriflik davri boshlanadi. XIII–XIV asrlarga kelib, tasavvufda nazariy-ilmiy jihatdan ham yuksalish davri kuzatiladi. Tasavvuf insonning ma'naviy kamolotga erishish yo'lidir. Bu yo'l 4 qismga ajraladi:

- a) **shariat** (ma'naviy komillikning ilk bosqichi, birinchi qadami);
- b) **tariqat** («yo'l»), tasavvufning amaliy qismi. U albatta ustoz (pir, murshid) bilan egallanadi);

¹¹⁷ Qarang: Boqijon To'xliyev. Adabiyot (akademik litsey va kasb-hunar kollejlari uchun darslik). – T.: O'qituvchi, 2002. – 79-81-betlar; Q.Yo'ldoshev va boshq. Adabiyot (Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 9-sinfi uchun darslik). – T.: Yangiyo'l Poligraph service, 2010. – 99-100-betlar; B.Qosimov va boshq. Adabiyot (10-sinf uchun darslik). – T.: O'qituvchi, 2004. – 233-235-betlar.

d) ma'rifat (ar.«bilmoq»), bu bosqichga erishgan zohid dunyoning hamma jismida, har bir voqea-hodisada Alloh irodasini, uning sifatlarini ko'ra oladi. Ammo bu hali o'zlashtirishning aql bilan bog'langan bosqichi);

e) **haqiqat** (tasavvufning eng yuqori – oliy bosqichi).

Tasavvufda haqiqat yo'li «*suluk*», bu yo'lga kirgan inson «*solih*», «*so'fiy*», «*murid*» deb, birlik, Alloh bilan birlashish yo'li esa *vahdat* deb ataladi. Tasavvuf vakillari so'fiylikda **avliyo, abdal, solik, faqr-u fano ahli, darvesh, qalandar, oshiq, orif** kabi nomlar bilan ham yuritilgan.

Tasavvufda ilohiy ishqqa alohida e'tibor qaratiladi. Bu haqda Mansur Halloj shunday degan: «*Ishq o'zingdan xalos bo'lib, sevgiling sifatleri bilan yashamoqdir*».

So'fiylikda **kibr-u havo** va **manmanlik** inson fe'lining eng katta qusurlaridan biri sifatida qaralgan. Amalsiz taqvo(dindorlik)ni tasavvuf namoyandalari **riyokorlik** hisoblaganlar.

Boy, rang-barang mumtoz she'riyatimizning asl tarovat-u purma'nolarni to'g'ri idrok qilmoq uchun tasavvuf ta'limotidan xabardorlik, tasavvuf istilohlarini bilish zarur. Tasavvufdagi eng ko'p qo'llanadigan istilohlar quyidagilar:

1. **Ma'shuqa** – Alloh, payg'ambarimiz Muhammad alayhissalom, komil inson; pir (ustoz); do'st.

2. **Ishq** – tasavvuf she'riyatida nafsni yengish quroli bo'lib, u ikki xil: a) majoziy (insoniy muhabbat), b) boqiy va o'lmas ishq (insonning Allohga ishq). Ishq ko'pincha **may, sharob** istilohlari orqali ham ifodalanadi. Ilohiy ishq «ilohiy iroda»ning hokim bo'lishidir.

3. **May, sharob** – Allohning ishq.

4. **Boda** – iymon.

5. **Soqiy, piri mayxona, piri ishq** – ma'naviy ustoz, pir, ma'rifat ulashuvchi.

6. **Jom, qadah** – kamolga yetgan kishining qalbi.

7. **Lab** – komil va orif kishining, haqiqiy yoki majoziy yorning kalomi, ko'rsatmalari, purma'no so'zlari.

8. **Bo'sa** – ma'rifatning sir-u asrorlaridan bahramandlik vositasi; oshiqning yor visolidan bahramandligi.

9. **Vasl ahli** – komillikka yetishgan, Haqqa yaqinlashib borayotgan, avliyolik siyratini kasb etgan zotlar.

10. **Darvesh (qalandar)** – Haqqa oshiq bo‘lgan, uning visoliga erishmoqni o‘ziga vazifa qilib qo‘ygan, dunyoning barcha huzur-halovati-yu aysh-ishratidan, orzu havasidan voz kechib, Haqni izlab, kezib yuruvchi so‘fisiyrat kishi.

11. **Butxona, xarobat, mayxona** – oqil, dono, kamolotga yetgan kishilarning ilohiyot, ishq haqida majlis quradigan, Alloh nomi muttasil zikr etiladigan joy.

12. **Kofir** – insonni yomonliklarga undaydigan nafs.

13. **Ko‘ngil** – Allohning inson bag‘ridagi uyi.

14. **Lomakon** – jismi yo‘q, faqat ruhlargina yashovchi olam.

15. **Tajalli** – jilvalanish; tasavvufda insonda Alloh jamolining jilvalanishi.

16. **Nafs** – asosan, iymon, axloqning bosh dushmani, inson tabiatidagi salbiy xohishlarni, yomon xislatlarni tajassum etuvchi kuch. *Nafs* deganda yemoqlik, ichmoqlik, kiymoqlikdan tashqari yana johillik, ilmsizlik, manmanlik, kibr-u havo, dunyoparastlik, zulm, o‘g‘rilik, tanballik, g‘urur, tama, ko‘rolmaslik, baxillik, mansabparastlik, shahvat, ko‘ngli torlik, g‘azab, umuman, inson ruhini, qalbini bulg‘aydigan, uni Allohdan uzoqlashtiradigan barcha illatlar yig‘indisi tushuniladi.

17. **Dunyo** – kiyimlari bilan dastlab juda chiroyli ko‘rinadigan, lekin aslida badbashara, buning ustiga bevafo ayol; yovuzlik, nomardlik, sotqinlik, yolg‘onchilik timsoli; nafsoniy xuruj, shaytoniy istaklar jamlangan voqelik.

18. **Jonon** – Alloh.

19. **Vahdat mayidan mast bo‘lish** – Alloh taoloning jamoliga yetishmoqlikdan sarxushlik.

20. **Oshiq** – Allohga yetishmoqni istagan kishi; so‘fiy banda.

21. **Raqib** – nafs yoki dunyo.

22. **Aysh-ishrat** – Allohga yaqinlik payti.

23. **Xarobot ahli** – darveshlar.

24. **Faqirlik** – Allohdan boshqasiga muhtoj bo‘lmaslik.

25. **Gulzor** – ko‘ngilning ilohiy muhabbatdan yashnashi.

26. **Oh, nola chekish** – ishqning komil bo‘lganiga ishora.

27. **Riyo-vu zuhd ahli** – ko‘zbo‘yamachilik bilan o‘zini tasavvuf ahlidan deb hisoblaguvchilar.

28. **Fano ahli** – tasavvuf vakillari.

29. **Qo‘l berish** – poklanish uchun ahd.

30. **Tarso** – o‘zini Olloh ishqiga yetishmoqqa baxshida etgan inson.

31. **Xaloyiq** (*xalq, mardum, el*) – haqiqiy ishqdan bexabar kimsalar yoki dunyoga ko‘ngil bergan nafs bandalari.

32. **Nay** – ilohiy ishq bilan to‘lgan qalb ramzi.

33. **Yuz** – ilohiy go‘zallik ko‘rinadigan makon.

34. **Ter** – pokizalik, fayz, tarovat, yor jamolining porlashi.

35. **Soch** – dunyo ramzi, Alloh sirlariga ishora.

36. **Jomi Jam** – vasl sarxushligi, mastligi va boshq.

So‘fiylikda zuhd ahli hamda fano ahli o‘rtasidagi farq **ishq** bilan o‘lchanadi.

Tasavvuf oqimi o‘z adabiyotini ham yuzaga keltirdiki, **Muhammad G‘azzoliy, Yusuf Hamadoniy** (vaf. 1141) singari allomalar uning nazariy asoslarini yaratdilar.

Turkiy adabiyotda tasavvuf ta‘limoti Yusuf Xos Hojibning «Qutadg‘u bilig» asaridan boshlab ifodalana va rivojlangan boshlagan.

Ahmad Yugnakiy va Ahmad Yassaviylar ham tasavvuf adabiyotining zukko bilimdonlaridir.

AHMAD YUGNAKIY

(XII asr oxiri – XIII asrning I yarmi)

Ulug‘lukka yetsang, yanglishma o‘zing,

Agar kiysang atlas, unutma bo‘zing.

(«*Hibat-ul haqoyiq*»dan)

Adib Ahmad Yugnakiy didaktik adabiyotning mashhur vakili, turk mashoyixi va iste‘dodli shoiridir. Uning «Hibat-ul haqoyiq» («Haqiqatlar tuhfası» yoki «Sevimli haqiqatlar») nomli yagona ta‘limiy-ma‘rifiy dostoni yetib kelgan. A.Navoiy o‘zining «*Nasoyim ul-muhabbat*» («*Muhabbat shabbodalari*») asarida Ahmad Yugnakiyning turk elidan chiqqan «ziyrak va zakiy» kishi ekanligi, Bag‘dod yaqinida maskan tutib, mashhur

Imom A'zam saboqlariga piyoda kelib ketishi, ko'pchilik elning unga e'tiqod qo'ygani, hikmatli va nozik mazmunli misralari turk xalqi orasida keng yoyilgani xususida xabar beradi.

Shoirning oti **Ahmad**, otasining ismi **Mahmuddir**. Adib tug'ilgan joy Yugnak deb atalgan. Yugnak nomli shahar 3 joyda uchraydi: Samarqand atrofida, Farg'onada, Turkiston (Qozog'iston)da. Manbalarda bu shaharning qadimgi nomi Sig'noq deyilib, u Samarqand yaqinida bo'lganligi haqida ma'lumotlar bor.

Adib Ahmadning tug'ma ko'rliqi haqida dostonidagi ma'lumotni A.Navoiy yanada aniqlashtirib, shoirning «*ko'zlari butov (yopiq, bitgan) ermishki, aslo zohir ermas emish. Basir (ko'rmaydigan) bo'lub, o'zga basirlardek andoq emas ermishki, ko'z bo'lg'ay va ko'rmas bo'lg'ay. Ammo bag'oyat ziyrak va zakiy va zohid va muttaqiy (taqvodor, parhezkor) kishi ermish... Haq subhonahu taolo agarchi zohir ko'zin yopuq yaratqondur, ammo ko'ngli ko'zin bag'oyat yoruq qilg'ondur*», – deydi.

Adibning «Hibat ul-haqoyiq» («Haqiqatlar armug'oni») asari pandnoma bo'lib, Dod Sipohsolorbekka (*bu nom «bosh qo'mondon» ma'nosini bergan*) bag'ishlangan. U 14 bob, 256 bayt (512 satr)dan iborat. Ushbu asar ham aruzning mutaqorib bahrida yozilgan. Asarning «qoshg'archa» til bilan yozilganligi alohida ta'kidlangan:

**Tamomi erur koshg'ariy til bila,
Aytmish adib riqqati til bila.**

Asarda muallif to'g'rilik va egrilik, odob bilan odobsizlik kabi mavzular ustida to'xtalar ekan, turli badiiy tasvir vositalari – *o'xshatish, tazod, jonlantirish, takrir* kabilardan ustalik bilan foydalangan. Adib «o'q yarasi, aqldan ozish, til jarohati va uni tiyish» haqida quyidagi fikrlarni bayon etadi:

**Nekim kelsa erga tilidin kelur,
Bu tildin kim edgu, kim aqir bo'lur...**

(Ma'nosi: Kishi boshiga nima yomonlik kelsa, tili tufayli keladi, tili tufayli birovlar ezgu, baxtli, birovlar haqir, xor-u zor bo'ladi).

«*Hibat ul-haqoyiq*» asarining 1-boʻlimi ilm manfaati, jaholatning zarari haqida («*Bilik birla bilinur saodat yoʻli, Bilik bil saodat yoʻlini bula*» kabi misralar shu boʻlimda uchraydi), 2-boʻlimi tilni tiyish va adab-axloq haqida, 3-boʻlimi dunyoning oʻzgarib turishi haqida, 4-boʻlimi saxovat va baxillik oqibati haqida, 5-boʻlimi tavozeilik manfaati, kibrilik va harislikning zarari toʻgʻrisida, soʻnggi boʻlim axloqning karomati, harislikni tashlash haqidadir¹¹⁸.

Ahmad Yugnakiy Yusuf Xos Hojib qoʻllagan «*koʻnilik (toʻgʻrilik) toʻni*», «*muruvvat yoʻli*», «*ati (nomi) oʻluk*» singari istioralaridan ham unumli foydalangan. «*Hibat ul-haqoyiq*»da barcha oʻgitlar faqat muallif tilidan bayon qilingan. Asar boshidan oxirigacha taʼrif-tavsifga qurilgan.

Arslon Xoʻja Tarxon A. Yugnakiyning «*Hibat ul-haqoyiq*» asarini koʻchirtirgan hukmdor sifatida tarixda qolgan.

«*Hibat ul-haqoyiq*» 3 nusxada yetib kelgan boʻlib, bu nusxalar bir-biridan kichik farqlarga ega. Ulardan eng eskisi Samarqanda *Zaynul Obiddin Sulton Baxt Jurjoniy* degan xattot tomonidan uygʻur yozuvida koʻchirilgan boʻlib, 1444-yilda Turkiyaga borib qolgan. Abdurazzoq baxshi degan kishi 1480-yilda ushbu kitobdan arab va uygʻur yozuvida 2 nusxa koʻchirgan. Har 3 nusxa Istanbulda saqlanadi. Keyinroq asarning yana ikki nusxasi topilib, hozirda bu kitob qoʻlyozmasining 5 nusxasi mavjud.

Zaynul Obiddin nusxasida kitobning nomi «*Atebat ul-haqoyiq*» («*Haqiqatlar eshigi*») deb berilgan. Shuning uchun Turkiyada uni koʻproq shu nom bilan ataydilar. Koʻchirilgan nusxalarning birida «*Aybat ul-haqoyiq*», ikkinchisida «*Hibat ul-haqoyiq*» deb ham yozilgan.

Asar oʻzbek adabiyotida «*Hibat ul-haqoyiq*» nomi bilan shuhrat topdi.

Uni oʻrganishda olimlarimizdan *Qayum Karimov, Qozoqboy Mahmudov*larning xizmati katta boʻldi. Ushbu asar 1951-yilda Arat Rahmatiy tomonidan birinchi marta Istanbulda, 1971-yilda Qozoqboy Mahmudov tomonidan Oʻzbekistonda nashr etilgan.

¹¹⁸ B.Toʻxliyev, B.Abdurahmonova. Adabiyot (Akademik litseylarning birinchi bosqich oʻquvchilari uchun majmua). – T.: Bayoz, 2016. – 81-102-betlar.

“HIBAT UL-HAQOYIQ”

asaridan parchalar:

Baxillik dori bilan tuzatib bo'lmaydigan kasallikdir. Baxillik harislik (mol-dunyoga hirs qo'yish) bilan yonma-yon yuradi. Baxil mol-dunyoga quldir. Saxiyga esa mol-dunyo quldur...

* * *

Bir kishida ikki narsa bo'lsa, u kishiga muruvvat yo'li yopiladi. Birinchidan, behuda so'zlar bilan vaysasa, ikkinchidan, bu kishining so'zlari yolg'on bo'lsa...

* * *

Bu dunyo avraydigan ilon kabidir, uni yuvosh, yumshoq deb yo'ysang, ichi achchiq ichimlik kabi og'udir. Ilon yumshoq, yuvosh bo'lib ko'rinsa ham, yomon fe'llidir...

* * *

Bilimli kishi (qimmat) baholik dinordir, ilmsiz, johil kishi qimmatsiz yemishdir (mevadir).

* * *

Agar bir umrga yetadigan mol-dunyo yig'gan bo'lsang, eng avval bo'rk kiyuvchi bosh kerak.

* * *

**Axi erni o'ggil o'gar ersa sen,
Baxilg'a qatig' yo o'qun kezlagil.**

Ma'nosi: Maqtasang, saxiy kishini maqtagin, baxil kishiga qattiq yoy o'qini saqlab qo'yg'in.

AHMAD YASSAVIY

(Tug'ilgan yili noma'lum – 1166)

Ahmad Yassaviy atoqli mutasavvuf shoir, *shayxul mashoyix*, *sultonul orifin* laqablariga musharraf bo'lgan buyuk zot, Yassaviya (jahriya) nomli tariqatning asoschisidir. Farididdin Attor Yassaviyni «*Piri Turkistoniy*» deb atagan.

Ahmad Yassaviy hozirgi Qozog'iston Respublikasining Sayram shahrida tug'ilgan. Sayram (Saryom) O'rta Osiyoning qadimiy shaharlaridan hisoblanib, bir paytlar «*Isfijob*», «*Madinat ul-bayzo*» («Oq shahar») nomlari bilan mashhur bo'lgan. Alisher Navoiy Ahmad Yassaviyning tug'ilgan yerini Yassi deb ko'rsatgan. Yassi bugungi Turkiston shahrining qadimgi nomidir.

Yassaviy Sayram shahrida Shayx Ibrohim ota va Oysha ona (Qorasoch momo) oilalarida dunyoga keladi. Uning Latif va Mustafouqli kabi aka-ukasi, Javhari Shahnoz ismli opasi bo'lgan, degan ma'lumotlar bor.

Yassaviyning tug'ilgan yili aniq emas. Manbalar uning Yusuf Hamadoniy qo'lida o'qiganligini tasdiqlaydi. Shunga qaraganda, Ahmad Yassaviy taxminan XII asrning ikkinchi yarmida tug'ilgan.

Ahmad Yassaviyning otasi Ibrohim shayxlik martabasida bo'lgan. Uning hazrati Ali avlodlaridan bo'lganligini ham naql qiladilar. Yana boshqa bir rivoyatga ko'ra, Shayx Ibrohim uning otasi Mahmud, bobosi Iftixor va boshqalar orqali Muhammad payg'ambarning qizi – Fotima naslidandir.

Ahmadning onasi Oysha shayx Ibrohimning shogirdlaridan bo'lgan Musa shayxning qizidir. Ahmad oilada ikkinchi farzand bo'lgan.

Ma'lumotlarga ko'ra, Ahmad Yassaviy 7 yoshida otasidan yetim qoladi, dastlab Arslonbobdan ta'lim oladi, uning vafotidan keyin taxminan 1110-yillardan boshlab Buxoroda o'qiydi. Mashhur Yusuf Hamadoniydan tahsil oladi. Uning xalifasi (yordamchisi), izdoshi darajasiga ko'tariladi. So'ngra Turkistonga qaytib shayxlik qiladi, ovozasini ortadi.

Ahmad Yassaviyning pirlilik maqomi shu darajada yuqori bo'lganki, xalq orasida «*Madinada Muhammad, Turkistonda Xoja Ahmad*» degan naql paydo bo'ladi.

Rivoyatlarga ko'ra, Ahmad Yassaviy 63 (payg'ambar yoshi) ga yetgach, yer ostida hujra yasatib, «chilla»ga kirgan, qolgan umrini toat-ibodat qilib, qimmatli hikmatlar yozib, riyozatlar chekib, yer ostida o'tkazgan.

Yassaviy mutasavvuf – pir sifatida ilm-fanga alohida e'tibor qilgan. U o'z masjidini tepasiga «*Talabul ilm farizaturun ala kulli muslimin va muslimatin*» («Ilm talab qilish har bir musulmon erkak va ayol uchun farzdir») degan hadisni yozdirib qo'ygan ekan.

Ahmad Yassaviyning necha yil umr ko'rgani haqida turlicha fikrlar mavjud. Ba'zilar 63 yoshda vafot etgan desalar, ayrimlar bu sanani 73, yana birlari 85 deb ko'rsatadilar. Ko'prulizoda

120, rus turkologi V.A.Gordlevskiy 125 deb belgilaydi. Bunday xulosa chiqarishga uning hikmatlari ham ma'lum darajada asos beradi. Masalan, bir hikmatida shunday satrlar bor:

**Eranlardan fayz-u futuh ololmadim,
Yuz yigirma yoshga kirdim, bilolmadim,
Haq taolo toatlarin qilolmadim,
Eshtib, o'qub yerga kirdi Qul Xoja Ahmad¹¹⁹.**

Ahmad Yassaviy taxminan 1103-yilda tug'ilib, 1166-yili vafot etgan, degan fikr ham bor. Ko'pgina manbalarda uning yashagan davri 1041–1166-yillar deb ko'rsatilgan. Bir rivoyatga ko'ra, u 133 yil umr ko'rgan ekan. Umuman olganda, buyuk so'fiyning 1166-yilda Yassida vafot etgani aniq, tug'ilgan yili esa noma'lum. Qabri Yassi – Turkistonda.

Ahmad Yassaviy bir o'g'il, ikki qiz ko'rgani ma'lum. O'g'lining oti *Ibrohim* bo'lib, yoshlik paytlarida vafot etgan. Qizlari – *Gavhari Shahnoz* va *Gavhari Xushnoz*. Yassaviyning hozirgacha yashayotgan avlodlari Gavhari Shahnoz ismli qizidan tarqalgan.

Amir Temur 1395–1397-yillarda ulug' shayx va shoir Ahmad Yassaviyga e'tiqodi, hurmati yuzasidan u dafn etilgan joyga muhtasham maqbara qurdirgan.

Yassaviy nomi turk dunyosida ikki jihatdan shuhrat topgan:

1. *Pir, karomatlar ko'rsatgan avliyo.*
2. *Shoir, hikmatlar muallifi¹²⁰.*

Ahmad Yassaviydan bizgacha «**Devoni hikmat**» degan hikmatlar to'plami yetib kelgan bo'lib, u «**Faqrnoma**» degan so'zboshi bilan boshlangan.

Yassaviy she'rlarini to'rtlik shaklida yaratgan. Hikmatlarga «**Qul Xoja Ahmad**», «**Xoja Ahmad Yassaviy**», «**Ahmad ibn Ibrohim**», «**Sulton Xoja Ahmad Yassaviy**», «**Yassaviy miskin Ahmad**», «**Ahmadiy**», «**Miskin Yassaviy**», «**Xoja Ahmad**», «**Qul Ahmad**», «**Miskin Ahmad**» kabi taxalluslar qo'yilgan.

¹¹⁹ B.Qosimov, B.To'xliyev, Q.Yo'ldoshev. Adabiyot (10-sinf uchun darslik). – T.: O'qituvchi, 2004. – 88-bet.

¹²⁰ B.Qosimov, B.To'xliyev, Q.Yo'ldoshev. Adabiyot (10-sinf uchun darslik). – T.: O'qituvchi, 2004. – 88-bet.

Yassaviy hikmatlarida **jaholat** va **nodonlik** qoralangan. «*Devoni hikmat*» «Daftari soniy» («Ikkinchi daftar») deb ham atalgan.

Shoir ijodi uchun Qur'on, hadis va umuman diniy ma'rifat yetakchi xususiyat hisoblanadi. Yassaviy ishqi ilohiyni rasmiy shariat doirasidan uzoqlashmagan holda sharhlagan. Adib asarlarida hayotning barcha bosqichlari «shariat», «tariqat», «ma'rifat» va «haqiqat»dan iborat degan tasavvufona g'oya o'z ifodasini topgan. Ahmad Yassaviy «*O'n ikkida bu sirlarni ko'rdim mano*» deya din, dunyo va tasavvuf sirlarini yilma-yil o'rganib borganini ta'kidlagan, inson yoshi bilan bog'lab uchlik va to'rtliklar yaratgan. «Devon»dan she'rning bir turi sifatida «*Munojotnoma*» ham o'rin olgan.

Ahmad Yassaviy she'riyatidagi obrazlar tuzilishi ham tasavvuf ta'limoti, ham og'zaki ijod an'analari bilan chambarchas bog'lanib ketgan. Shoir she'rlarida uchraydigan **pir, darvesh, oshiq, obid, zohid, ishq, oqil, tolib, rasul, ummat, ishq, shayton, iymon** kabi timsollar tasavvuf bilan, **o'q, yo'l, rabot, karvon** kabi timsollar xalq o'g'zaki ijodi bilan bo'g'liq holda yuzaga kelgan. Yassaviy hikmatlarining tili xalqning jonli so'zlashuv va xalq qo'shiqlari tiliga yaqin turadi. Yassaviyning «Hikmatlar»ida **ikki yuz qirqaqa yaqin** she'r jamlangan. Lekin hikmatlarning birida Ahmad Yassaviyning 4400 hikmat aytganiga ishora qilinadi.

Sulaymon Boqirg'oni (xorazmlik Hakim ota), Ubaydiy (Buxoro xoni Ubaydullaxon) kabi shoirlar Ahmad Yassaviy hikmatlaridan ta'sirlanib, shu yo'lda she'rlar yaratgan. Shoir **Yusuf Saryomiy** o'z she'rlarida Ahmad Yassaviyni «*karomatlar xazinasi*», «*oriflar sultoni*» deya ta'riflagan, yozuvchi Sa'dulla Siyoyev esa bu avliyo haqida ikki kitobdan iborat roman yozgan.

Yassaviy haqidagima'lumotlarni birinchi marta to'plab, jiddiy tadqiq qilgan olim turkiyalik Muhammad Fuod Ko'prulizodadir. U 1918-yilda «*Turk adabiyotida ilk mutasavviflar*» degan kitobini e'lon qilgan. Abdurauf Fitrat 1927-yilda Yassaviy va uning ijodiy qiyofasi haqida maqola yozgan. 1972-yilda esa professor E.Rustamovning «*Ahmad Yassaviy hikmatlarida tarix*

va hayot sadosi» maqolasi («O‘zbek tili va adabiyoti» jurnali, 4-5-sonlar) chop etilgach, sho‘ro idoralari tomonidan muallif boshiga turli savdolar tushgan. 1991-yildan keyingina uning hikmatlarini va u haqdagi tadqiqotlarni nashr etish keng yo‘lga qo‘yildi¹²¹.

**AHMAD YASSAVIY HIKMATLARIDAN
NAMUNALAR:**

Nafsdin kechib, qanoatni pasha qilg‘on,
Har kim tepsa, rozi bo‘lub bo‘yin sung‘on,
Yaxshilarg‘a xizmat qilib, duo olg‘on,
Andog‘ oshiq mahshar kuni armoni yo‘q.

* * *

Yer ostig‘a qochib kirdim nodonlardin,
Ilkim ochib, duo tilab mardonlardin,
G‘arib jonim yuz tasadduq donolardin,
Dono topgay, yer ostiga kirdim mano.

* * *

Ko‘zim namlik, dilim g‘amlilik, jon alamlik,
Nechuk iloj etorimni bilmam, do‘stlar.
Bu hasratda, nadomatda yoshim oqib,
Qayu taraf ketorimni bilmam, do‘stlar.

(Bu hikmat barmoq vaznining 4/4/4/=12 ko‘rinishida yozilgan)

Gunohingga tavba qilib yig‘lab yurg‘il,
Ketarman deb yo‘l boshig‘a borib turg‘il.
Ketganlarni ko‘rub sen ham ibrat olg‘il,
Ibrat olsang yotmish yering bo‘lur gulzor.

¹²¹ B.Qosimov, B.To‘xliyev, Q.Yo‘ldoshev. Adabiyot (10-sinf uchun darslik). – T.: O‘qituvchi, 2004. – 86-bet.

NAZARIY MA'LUMOT

Hikmat haqida

Hikmat¹²² – bu soʻz Qurʼoni karim oyatlarida paygʻambarimizning haq yoʻlni koʻrsatuvchi vaʼzlari maʼnosida qoʻllanilgan. Lugʻatlarda esa, unga ilm va adolat birligini koʻzda tutuvchi haqiqatlarning maʼrifati; odat va axloqqa oid maxsus soʻz; insonning haqiqatni bilib, xayrli ishlar qilmogʻi; sirli, yashirin sabab; narsaning ich va tashi (surati va siyrati) holidan bahs etuvchi ilm; aql va harakatlardagi uygʻunlik; Tangri haqiqatini ifoda etgan diniy-tasavvufiy xos soʻz tarzida taʼriflar beriladi. Qisqacha qilib aytganda, **hikmat** «diniy-tasavvufiy yoʻnalishga ega maʼnodor soʻz»dir.

Hikmatlar X asrdan buyon tasavvufga doir kitoblarda ishlatilib kelingan.



¹²² B.Qosimov va boshq. Adabiyot (10-sinf uchun darslik). – T.: Oʻqituvchi, 2004. – 105-bet.



23-MAVZU.
XIII – XIV ASRLAR ADABIYOTI
NAMOYANDALARI

NAJMIDDIN KUBRO¹²³
(1145 – 1221)

Najmiddin Kubro Xiva yaqinidagi Sayot qishlog'ida tug'ilgan. U kishining nomi tirikligidayoq yetti iqlimga ovoza bo'lgan. O'z zamonasi ilm-u urfonida Najmiddin Kubroga teng keladigan birorta olim bo'lmagan. Shuning uchun unga «Kubro» ismi berilgan. Alisher Navoiyning «Nasoyim ul-muhabbat» asarida bu haqda shunday qaydlar bor: *«Alarg'a kubro ondin laqab bo'ldiki, har kim bila munozara va mubohasa qilsalar ermish, ul kishi g'olib bo'lurlar ermish».*

Najmiddin Kubroning «valiytarosh», ya'ni valiyalar yetishtiruvchi, «tummatul kubro (balo-qazolarning oldini oluvchi, buyuk bashoratchi)», «abuljannob (parhez qiluvchi, dunyoviy ikir-chikirlardan uzoq turuvchi)» kabi nom va laqablari ham bo'lgan.

Najmiddin Kubro ilm istab Misr, Tabriz va boshqa ko'plab o'lkalarni kezzagan, tinimsiz mehnat, izlanish, mashaqqatlar bilan komillik darajasiga ko'tarilgan, u botiniy bilim, g'ayb asrorini o'rgangan.

Chingizxon bosqini davrida Xorazmshoh tashlab qochgan vatan himoyasiga qilich ko'tarib, shohdan marhamat ko'rmagan pok imonlilarga bosh bo'lib 76 yoshli Najmiddin Kubro chiqadi. Alisher Navoiyning yozishicha, Najmiddin Kubro bir hamlada dushman bayrog'ini tortib olgan va o'lganidan keyin ham uni qo'lidan bo'shatmagan.

¹²³ Qarang: A.Rafiyev, N.G'ulomova. Ona tili va adabiyot (Akademik litsey va kasb-hunar kollejlari uchun darslik). – T.: Sharq, 2011. – 180–183-betlar.

Najmiddin Kubro ulkan olim sifatida kishi ruhiyati, ruhiy xislatlarini chuqur tahlil qilgan, insonning nozik holatlarini, ruhiy kechinmalarini puxta o'rgangach, inson ruhi ko'zga ko'rinmas, latif markaziardan iborat ekanligini kashf etgan, ya'ni «latoyif nazariyasi»ni ishlab chiqqan.

Najmiddin Kubroning «Al usul al-ashara» («O'n usul»), «Risolayi Najmiddin» asarlarida o'z-o'zi bilan kurashish, gunoh ishlarni qilmaslik, nafsni yengish va sabr-qanoatli bo'lish kabi g'oyalar ilgari suriladi. Allomaning fikricha, ma'naviy tubanlik va insonlikni yemiradigan illatlarni nafs keltirib chiqaradi.

Najmiddin Kubroning ruboiylari ham buyuk shayxning falsafiy qarashlari, ichki dunyosi, botiniy kechinmalarini yorqinroq his etishga yordam beradi. Allomaning ruboiylari o'zbek tiliga iste'dodli shoir **Jamoi Kamol** tomonidan tarjima qilingan.

SHE'RLARIDAN NAMUNALAR:

Ishq yetsa ko'ngilga, dilga u dard aylar,
Dardi dili mardni boz mard aylar.
O'z otashi ishqida yonar ul, vale
Do'zaxni chu o'zgalar uchun sard aylar...

* * *

Ay tun, qorong'u tun, sahar bo'lgaysen,
Bu dardli dilimga sen samar bo'lgaysen.
Ay subh, otlanib kelarsan oyo
Maqsudi dilim sari xabar bo'lgaysen...

* * *

Ishq dardi g'arib tanimdagi jon bo'lg'ay,
Dard cheksa kishi axiyri insen bo'lg'ay.

* * *

Bir dev bor ichimda, asti pinhon bo'lmas,
Boshini egmak oning oson bo'lmas.

PAHLAVON MAHMUD

(1247 – 1326)



Xorazmda Najmiddin Kubrodan boshlangan javonmardlik tariqatining davomchisi, Sharqda nomi chiqqan pahlavon, «*Puryoyvaliy*» («aziz va mukarram») laqabini olgan, hayotida mardlik va jasurlikni, muhtojlarga beminnat saxovat ko'rsatishni hidoyat etgan ijodkor, mashhur faylasuf olim, insonparvar shoir **Pahlavon Mahmud** haqidagi ma'lumotlar *Shamsiddin Somiyning «Qomus ul-a'lam», Lutf Alibek Ozarning «Otashkadayi Ozariy», Kamoliddin Husayn Fanoiyning «Majolis ul-ushshoq»* singari asarlarida, qator lug'atlarda keltirilgan.

Pahlavon Mahmud 1247-yili Xiva yaqinida po'stindo'z oilasida tug'ilgan. U hayotda mardlik va jasurlikni, muhtojlarga beminnat saxovat ko'rsatish, o'zi uchun esa hech narsa tama qilmaslikni targ'ib etgan. U Ko'hna Urganch va Xiva madrasalarida ta'lim olgan, kuragi yerga tegmagan bahodir sifatida shuhrat qozongan. Adib fors-tojik tilida ijod qilib, «*Qitoliy*» (bu so'zning ma'nosi «bir-biri bilan jang qilmoq, kurashmoq» demakdir) va «*Puryoyvaliy*» (Puryorvaliy) taxalluslarini qo'llagan, po'stindo'zlik va telpakdo'zlik bilan shug'ullangan. «*G'iyos ul-lug'at*»da bu haqda quyidagi fikrlar bayon qilingan: «*Puryoyvaliy (yoki Puryoyi Vali) xorazmlik Pahlavon Mahmudning laqabidir. Bunda kurash ilmidan mahorat qozongan keksa pahlavon, zo'rxona pahlavonlarining boshlig'i nazarda tutiladi. Zero, qaysi bir kurashchi zo'rxonaga kirmoqchi bo'lsa, dastlab Puryoyvaliyning qadamiga (oyog'iga) bosh qo'yadi. Shu jihatdan "puryoyvaliy" so'zi majozan aziz va mukarram ma'nosini ham bildiradi.*»

Adib fors tilida «*Kanz ul-haqoyiq*» nomli masnaviy va ko'plab ruboiylar yozib, so'fiyona g'oyalarni bayon etgan. Shoir 1326-yilda ona shahrida vafot etgan. Hamshaharlari uning qabri

ustida muhtasham maqbara tiklaganlar (*maqbara devorlari peshtoqlariga uning ruboiylari badiiy naqsh sifatida tushirilgan*). XIX asr boshlarida Muhammad Rahimxon II (Feruz) bu joyni ziyoratgohga aylantirgan.

Pahlavon Mahmud Umar Xayyomdan keyin ijodini faqat ruboiy orqali boyitgan shoirdir. Uning ruboiylarini *Imomiddin Qosimov (Ulfat), Omonulla Valixonov (Boqir), Muinzoda, Shoislom Shomuhamedov, To'xtasin Jalolov, Vasfiy, Matnazar Abdulhakim, Ergash Ochilovlar* o'zbek tiliga tarjima qilishgan.

RUBOIYLARIDAN NAMUNALAR:

Tuproq to'shagida yotgan ko'p ko'rdim,
Yer qaro bag'riga botgan ko'p ko'rdim,
Yo'qlik olamiga ko'z tashlaganda,
Kelmagan ko'p ko'rdim, ketgan ko'p ko'rdim.

* * *

Uch yuz Ko'hi Qofni kelida tuymoq,
Dil qonidan bermoq falakka bo'yoq.
Yoinki bir asr zindonda yotmoq,
Nodon suhbatidan ko'ra yaxshiroq.

* * *

Borma aytmaganning dasturxoniga,
Qo'l uzotsang, qadring ketar, noniga.
Qo'shma o'zgalarning barra kabobin
Qotgan non-u sovuq suvning soniga.

RABG'UZIY¹²⁴

(XIII – XIV asrlar oralig'i)

Nosiruddin Burhoniddin o'g'li Rabg'uziy XIII asrning oxiri XIV asrning boshlarida Xorazmning Raboti o'g'uz degan

¹²⁴ Qarang: Boqijon To'xliyev. Adabiyot (Akademik litsey va kasb-hunar kollejlari uchun darslik). – T.: O'qituvchi, 2010. – 172–180-betlar; Q.Yo'ldoshev va boshq. Adabiyot (Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 9-sinfi uchun darslik). – T.: Yangiyo'l Poligraph service, 2010. – 29–31-betlar; B.Qosimov va boshq. Adabiyot (10-sinf uchun darslik). – T.: O'qituvchi, 2004. – 112–119-betlar.

Joyida yashab ijod etgan. Otasi Burhoniddin O'g'uz Rabotining qozisi bo'lgan. Rabg'uziy o'zbek nasriy adabiyotining birinchi yirik namunasi «Qisasi Rabg'uziy» («Qisas ar-Rabg'uziy») nomli asar muallifi, atoqli shoir va olimdir.

«QISASI RABG'UZIY» asari haqida

Bu asar turkiy tilda bitilgan bo'lib, u e'tiborli mo'g'ul beklaridan Nosiruddin To'qbo'g'aning «*O'qimoqg'a keraklik, og'ranmakka yarog'liq*» payg'ambarlar qissalaridan iborat asar yozib berish iltimosiga ko'ra, hijriy 709 (milodiy 1309–1310) yilda yozilgan bo'lib, jami 72 qissadan iborat. Bu qissalar asosini tarixiy-ilohiy voqealar tashkil etib, ularga xalq og'zaki ijodining *latifa* janriga xos bo'lgan belgilar ham ko'chib o'tgan. «Qisasi Rabg'uziy» asarining oxirgi qissasi Muhammad alayhissalom va u zotning oilasi, avlodlari haqidadir.

Asarda muallif To'qbo'g'ani «...yigitlar arig'i (*poki*), *ulug' otlig'*, *qultug' zotlig'*, *ezgu xulqlig'*, *islom yo'rig'lig'*, *odamiylar inonchi*, *mo'minlar quvonchi*, *himmati adiz (yuksak)*, *aqli tengiz beg...*» deya ta'riflagan. To'qbo'g'abekka bag'ishlangan she'riy madhiyada bu bekning «ortug' yaroqlig' siyrati», «arslon mengizlik savlati», «ko'rklug' sifatlig' surati», «tuz so'zlayur so'zni uqa» singari sifatlari ham keltiriladi¹²⁵.

Asosan payg'ambarlar hayotini hikoya qiluvchi bu asarning o'ziga xos yaratilish tarixi bor. Sharqda bu mavzuda «Qisas ul-anbiyo» («Payg'ambarlar qissasi») nomi bilan mashhur ko'plab asarlar yaratilgan. Lekin asarda yozilishicha, ularning «*ba'zisi mustaqim (to'g'ri, haqiqiy) bor, ba'zisi nomustaqim. Bir onchasi (bir qanchasi) muqarrar (puxta, tugal) va bir onchasi mubattar (notugal) bor*». Shuning uchun ham bek To'qbo'g'a adibdan «*o'qimoqg'a keraklik, o'granmakka yarog'liq*» payg'ambarlar qissalaridan iborat asar yozib berishini so'ragan ekan. Ulkan salohiyat, katta mahorat bilan ushbu vazifani uddalagan

¹²⁵ B.To'xliyev, B.Karimov, K.Usmonova. Adabiyot (O'rta ta'lim muassasalarining 11-sinfi va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalarining o'quvchilari uchun darslik-majmua. I qism. - T.: "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti, 2018. - 100-bet.

adibning asari «Qisasi Rabgʻuziy», «Qisas ul-anbiyoyi turkiy» nomlari bilan shuhrat topgan. Rabgʻuziy qadimiy sharq qissa va afsonalarini qayta ishlab, manzarali lavhalar, jonli tasvirlar, pishiq, his-hayajon va kechinmalarga boy obrazlar yaratgan, kerakli oʻrinlarda sheʼriy parchalar qoʻllagan. Asarda eʼtiqod va imonga sodiqlik, pok insoniy axloqning badnafslilik, hirs-u hasad, qonxoʻrlik va nohaqliklar ustidan gʻalabasi tasvirlangan.

Rabgʻuziy oʻzining «Qissas ul-anbiyo» (yoki «Qisasi Rabgʻuziy») asari bilan XIII–XIV asrlarda oʻzbek nasrini oʻz davrida yuqori choʻqqiga olib chiqqan. Undagi qissalarda *Shish, Muso, Iso, Sulaymon, Nuh, Dovud, Muhammad* kabi paygʻambarlar, Xorut va Morut kabi farishtalar, Qobil va Xobil kabi shaxslar (*jami 33 paygʻambar, 4 xalifa, 7 tarixiy shaxs va boshqalar*) haqida turli-tuman voqealar bayon qilingan. Rabgʻuziy ushbu asarini Qurʼoni karim, hadis va Imom Yaʼqub Sufyon, Majididdin Anbugoniy, Qaffol Shoshiylarning tafsirlaridan foydalanib yaratgan.

«Qisasi Rabgʻuziy»ning eng qadimgi qoʻlyozmasi XIV asrning 40-yillarida – muallif hayotligida koʻchirilgan boʻlib, u Londondagi Britaniya muzeyida saqlanadi. Sharqshunos K.Gronbek 1948-yilda Kopengagenda asarning faksimilesi (qoʻlyozmaning aynan tiklangan nusxasi)ni chop ettirgan. Shu nashr asosida *E.Fozilov, A.Yunusov, H.Dadaboyevlar* uni oʻzbek tilida ikki jildda nashr qildirganlar.

Asardagi «**Namrud hikoyati**»da Namrud makr-u hiyla bilan toʻrtta karkas bolasi yordamida osmonga chiqib tushgani, «*Nuh paygʻambarning kema safari hikoyati*»da esa qanday qilib qaldirgʻoch odamlarni ilonlarga yem boʻlishidan saqlab qolganligi hikoya qilinsa, «**Uzum hikoyati**»da Nuh alayhissalom va Shayton orasidagi voqea tasvirlanadi (unda Shayton uzumni tulki, sher va toʻngʻiz qoni bilan sugʻoradi (bundan chogʻir (may) paydo boʻladi), Nuh alayhissalom esa *zanjabil, salsabil* suvi bilan sugʻoradi. Zanjabilidan shinni, salsabilidan sirka paydo boʻladi).

«**Uchar otlar hikoyati**»da Sulaymonning qanday qilib uchar otlarni qoʻlga kiritgani haqida («Ey, Samandun, Sulaymon oʻldi, devlar qutuldi» degan soʻzlar ham shu hikoyatda keltirilgan),

«**Bilqis hikoyati**»da Sulaymon va Bilqis orasidagi mojarolar haqida (Bilqisning otasi Ahmad podsho, onasi farishta edi. Bilqis Sabo shahrida hokim edi, Hudhud uning husni jamoli, shon-u shavkatlarini ta'rif va tavsif qiladi. Bilqis Rafi' degan vazirini, Tab' degan kanizini Sulaymon huzuriga yuboradi).

«**Sulaymon va chumoli**» hikoyati to'lig'icha ikki tomonning muhabbati asosiga qurilgan. Unda Manzara Sulaymondan *"Qorong'u kechalarda sizga mute bo'lg'on xalqning holidin xabardormisiz?"* deya so'ragan. Hikoyat yakunida Sulaymon **Manzara** ismli chumoli (qarinchqa)ning dono gaplarini eshitgandan so'ng *"Ilohi, man o'zimni dono bilib yurur edim, manim bilganim bu murchaning oldida hech nimarsa ekan"*, deb tavba qilgan.

Asardagi «**Odamning yaratilishi**» hikoyasida Alloh Odamni yaratish uchun yer yuziga dastlab Jabroilni, so'ngra Isrofilni, keyin Mikoilni va oxiri Azroilni yuborishi, shulardan faqat Azroil qattiqko'ngillik qilib, yer yuzidan bir hovuch tuproq olib kelganligi aytiladi. Alloh Azroilga barcha mavjudotlarning jonini olishni taqdir qiladi.

«**Qisas ar-Rabg'uziy**»dagi yana bir hikoyada Azozil Odamga sajda qilmagach, uning la'natlanishi tasvirlangan.

«**Rasul alayhissalom vafoti so'zlari**» qissasida Rasul alayhissalom *«Kimning menga da'vosi bor?»* deb so'rganlarida Ukosha bir kun safarda tuyada minib ketayotganlarida qamchining uchi bilan kuragiga urib yuborganlarini sabab qilib ko'rsatadi, u Rasul alayhissalomning orqasidagi, egnidagi payg'ambarlik muhrini ko'rmoqchi bo'lgani uchun da'vosi borligini aytadi. Qissadagi «**Malak ul-mavt**» Azroil (u badaviy arabdek bo'lib kirib kelgan) bo'lib, u Rasul alayhissalomga *«Ummatingga salom tegurgil, bo'g'uz uchun imonni ilikdin chiqarmasunlar, ...o'lumni unutmasunlar»* deydi. Sahobalar Rasul alayhissalomga qarata *«Olamni ilm birla yorutding, shaytonni adl birla surding, mo'jizalar ko'rg'uzding...»* deya nola qiladi.

«**Qisasi Rabg'uziy**» o'ziga xos etnografik xarakterdagi chizgilarga ham ega bo'lgan asar hisoblanadi. Unda turkiy xalqlarning ba'zi rasm-rusumlari ham tasvirlangan. Misol

uchun, Rum viloyatida musiqa yordamida bebosh tuyalarni qo'lga o'rgatish odati yoki «*xalq orasida rasm bor, do'st do'stga safar qilib qaytar bo'lsa, bir hadya ola borurlar*» kabi tasvirlar shular jumlasidandir.

«Qisasi Rabg'uziy»da komillikka erishish yo'lida nafsning zarari haqida «*bir nafsning ishini yetmish shayton qilolmaydi*» deb ta'kidlanadi. Quyidagi fikrlar asarning 72-qissasida keltirilgan: «*Bo'g'uz uchun imonni ilikdin chiqarmasunlar... Hiqd va hasaddin iroq tursunlar, shari'at ahkomini berk tutsunlar*».

Asarda *tashbeh, tanosub, tazod, tajnis, takrir, jonlantirish* kabi tasvir vositalari ko'p qo'llangan bo'lib, asarning ta'rif va tavsif o'rinlarida asosan *saj'* usulidan foydalanilgan.

«Qisasi Rabg'uziy» asarida katta-kichik nasriy qissalardan tashqari **600 misra she'r** ham keltirilgan. Bahor vasfiga bag'ishlangan, «*Kun hamalga kirdi ersa keldi olam navro'zi...*» deb boshlanadigan **birinchi o'zbek g'azali** ham Rabg'uziy qalamiga mansub. Bu g'azalda jonlantirish, sifatlash va o'xshatishlar keng qo'llangan bo'lib, u *ramali musammani mahzuf* vaznida bitilgan. O'zbek adabiyotida maqta'da taxallusni qo'llash ham ilk bor Rabg'uziy ijodida uchraydi.

SAYFI SAROYI

(1321 – 1396)



Sayfi Saroyi g'azalnavis shoir, tarjimondir. U 1321-yilda Xorazmning «Qamishli» degan qishlog'ida hunarmand-qurolsoz oilasida tug'ilgan. Dastlabki bilimni o'z yurtida olgan Sayfi (bu so'zning ma'nosi «*qilich*» demakdir) o'qishni davom ettirish uchun Oltin O'rdaning markazi Saroyga boradi. Bu yerda u qunt bilan o'qib, shoir sifatida taniladi. Bu haqda uning o'zi quyidagilarni yozgan:

**Qamishli yurt mening tuvg'on elimdi,
Biling, g'urbatga kelturg'on bilimdi.
Kelib bo'ldum saroyda she'r fidoyi,
Saroyning shoiri, elning gadoyi.**

Urushlar tufayli Sayfi Saroyi dastlab Eronga, keyin Turkiyaga boradi. U umrining oxirlarida Misrga borib, o'sha joyda taxminan 1396-yilda vafot etgan. Quyidagi misralarda Sayfi Saroyi o'z qismatiga ishora qilgan:

**O'sib tuprog'im uzra nayzalar, men evdin ayrildim,
Vatandin benishon o'ldim-da, o'zga yurtga evrildim.
Nechun menga falak jabr ayladi, qanday gunohim bor?
Ilohe, ayla kam jabring, men elga sodiq ul erdim¹²⁶.**

Shoirning bizgacha bir qancha g'azal, qasida, ruboiy va masnaviylari yetib kelgan.

O'zidan oldingi yashab ijod etgan shoirlar ijodini o'rganib, Sayfi Saroyi quyidagi misralarda ijod maydonini bog' gulshaniga, shoirlarni esa shu bog'dagi qushlarga qiyoslagan:

**Jahon shoirlari, ey gulshani bog',
Kimi bulbuldurur so'zda, kimi zog'.**

U ijodkorlarning turli guruhlar mavjud ekanligini (bulbul, zog'), shunga muvofiq ularning taqlidchi (to'ti) yoki mustaqil ijodkor bo'lishi va boshqa xususiyatlari haqida to'xtalib o'tadi.

ADABIY MEROSI: «*Topilmas husn mulkinda...*», «*Ko'rinur*», «*Bahor tasviri*», «*Taollalloh, zebi surat...*», «*Bu falak nechun meni...*», «*Dilbarimning zulfi sunbul...*», «*Meningdek nechalar hayron*», «*Ul yuzi oykim,...*», «*Qamar yuzingdin*» kabi g'azallari, «*Vasf ul-shuaro*» («*Shoirlar vasfi, bu masnaviyini adabiy tanqidchilikning o'ziga xos bir ko'rinishi sifatida ham baholash mumkin*, «*Suhayl va Guldursun*» dostoni (u hijriy 796 (1394)-yilda yozilgan, 82 bayt (164 misra)dan iborat, hazaji musaddasi maqsur vaznida. Dostonda

¹²⁶ B. To'xliyev. Adabiyot (Akademik litsey va kasb-hunar kollejlari uchun darslik). – T.: O'qituvchi, 2002. – 188-bet.

inson erki haqida kuchli mulohazalarga keng o'rin berilgan), «*Guliston bit-turkiy*» («Turkiy Guliston», Sa'diy asarining erkin tarjimai) asari va boshq.

«GULISTON BIT-TURKIY» asari haqida

Sayfi Saroyining «*Guliston bit-turkiy*» asari (1391, bu asarni muallif Misr amiri Batxasbekka bag'ishlagan) 8 bobdan iborat: 1-bob «Sultonlar haqidagi hikoyatlar», 2-bob «Faqirlar axloqi haqidagi hikoyatlar», 3-bob «Qanoatning foydasi haqidagi hikoyatlar», 4-bob «Sukutning foydasi haqidagi hikoyatlar», 5 - bob «Ishqdagi yigitlik sifati haqidagi hikoyatlar», 6-bob «Qarilikdagi zaiflik sifatlari haqida», 7-bob «Tarbiyaning ta'siri haqida», 8-bob «Suhbat odoblari haqida».

«Joh bir kun eshikdan chigib ketar, dag'i oltunni, kumushni safarda haromiy olur, yo shaharda o'g'ri, yo sohibi yeb tugatur, ammo erdam (odob, hayo, yaxshi xulq) – bir chashma dururkim, doim suvi toshib kela durur, dag'i erdam egasi davlatindan tushsa, gayg'usi yo'q turur. Aning uchunkim, erdam egasining davlati turur, qanda borsa oltun berurlar...» kabi fikrlar ham shu asardagi hikoyatda uchraydi.





24-MAVZU.
XIV – XV ASRLAR O‘ZBEK ADABIYOTI
NAMOIYANDALARI

XORAZMIY
(XIV asr)

Shoir Xorazmiy hayoti va ijodi haqida juda kam ma'lumotlar saqlangan. «Muhabbatnoma» degan yagona asari yetib kelgan bu adibning taxallusi o'z asarida qayd etilgan.

«MUHABBATNOMA» asari haqida

«Muhabbatnoma» asari hijriy 754(1353)-yilda yozilgan. U to'lig'icha *hazaji musaddasi mahzuf* vaznida. Shoir bu asarda Muhammad Xo'jabekni «*olam podshosi*», «*qamuq ko'rkliklari uzra podshosen*», «*gulchehralar molik riqobi*», «*shohi qaboyil*», «*ohu nazarlar shahriyori*» kabi ifodalar bilan madh etgan, bu hukmdorning Qo'ng'iro't urug'idan ekanini qayd etgan. Asarda shoirning o'zi ta'kidlashicha, Muhammad Xo'jabek Xorazmiydan: «*Bu qish mening yonimda yurib, bizning tilda (ya'ni turkiy tilda) bir kitob yozsang*», – deb iltimos qilgan:

Tilarmenkim, bizning til birla paydo
Kitobe aylasang bu qish qotimdo...

Asarda muallif **noma**, **g'azal**, **soqiynoma**, **munojot**, **qit'a**, **masnaviy**, **fard** kabi janrlarni jamlagan. Xorazmiy XIV asr o'zbek adabiyotida **g'azal**, **qit'a** va **fardning** dastlabki namunalarini yaratgan. Shoir «Muhabbatnoma»ni 10 noma qildim deb aytgan holda asarni 11 noma shaklida yozib tugatadi. U asarning **masnaviy qismida** bu haqda shunday yozgan:

Bu yerga yetti so'z oxir bo'ldi,
Burun o'n dedim, u o'n bir bo'ldi.

Adib asar yaratilgan joyni ham eslatadi:

**«Muhabbatnoma» so‘zin munda ayttim,
Qomug‘in Sir yaqosinda bitidim.**

Xorazmiy «zullisonayn» (ikki tilli) shoirdir. Adib asarning ikki bobini forsiy tilda yaratgan. Bu haqda muallif shunday yozadi:

**Qiloyin ikki bobin porsu ham,
Kim atlas to‘n yaroshur bo‘lsa mu‘lam.**

“Muhabbatnoma” jami 946 misra bo‘lib, uning 634 misrasi o‘zbek, 312 misrasi fors-tojik tilida bitilgan. Asardagi **2 ta noma** (4- va 8-noma), **masnaviy** va dastlabki **g‘azal** forsiy tilda yozilgan.

Xorazmiyning «Muhabbatnoma» asaridagi **masnaviy** qismi bir xil bayt bilan yakunlangan. Asarning **2-nomasida** muallif «tong nasimi»ga murojaatning go‘zal holatini bera olgan.

Xorazmiy bir baytda kecha va kunduzni bir chiroyli qiz yoki kelinchak kabi tasvirlab, Alloh uning qizil yuzida meng, ya‘ni katta xol yaratdi, shuningdek, bo‘yi bilan sochini teng yaratdi, deya ta‘riflagan. Bundan Navoiy ham ijodiy foydalangan.

Turkiy adabiyotda ilk ishqiy doston ham hisoblanadigan «Muhabbatnoma» asari noma janri rivojida katta yutuq bo‘lib, Xorazmiy ushbu asari bilan o‘zbek adabiyotida **noma** janriga asos solgan. «*Shakardek til bilan olamni tutgan*» shoir muhabbatni zavq-shavq bilan kuylagan.

«Muhabbatnoma» ta‘sirida **Yusuf Amiri**ning «*Dahnoma*», **Xo‘jandi**ning «*Latofatnoma*», **Said Ahmad ibn Mironshoh**ning «*Taashshuqnoma*», **Sayyid Qosimi**ning «*Haqiqatnoma*» va «*Sadoqatnoma*» asarlari yuzaga kelgan.

«Muhabbatnoma» asari nusxalari haqida

«Muhabbatnoma» asarining **2 ta** qo‘lyozma nusxasi ma‘lum bo‘lib, ular Britaniya muzeyida saqlanadi. Ulardan biri 1432-yilda Yazdda Mir Jaloliddin degan kishi taklifi bilan Boqi Mansur tomonidan uyg‘ur yozuvida ko‘chirilgan. Arab

yozuvidagi ikkinchi nusxa esa 1508–1509-yillarda ko‘chirilgan bo‘lib, 473 baytdan iborat.

«MUHABBATNOMA» ASARIDAN PARCHALAR:

Saodat ma‘dani, iqbol ganji
Muhammad Xo‘jabek – olam kunji!

* * *

Agar desam seni Rustam, yararsen,
Qiliching birla saflarni yorarsen.

* * *

Bo‘yung sarv-u sanubartek, beling qil,
Vafo qilg‘on kishilarga vafo qil.

(bu bayt asarning 1-nomasida keltirilgan)

* * *

Saburdin yaxshi yo‘qtur pasha qilsam,
Bu yo‘lda sabr yo‘q, andesha qilsam.

* * *

Niyozim bu turar sendin, nigoro,
Unutma bandani, bahri xudoro.

(Asar ana shu fard bilan yakunlangan)

XO‘JANDIY¹²⁷

(Taxm. XIV asr oxiri – XV asr I yarmi)

Xorazmiyning «Muhabbatnoma» asari ta‘sirida¹²⁷ yaratilgan «Latofatnoma» asarining muallifi Xo‘jandiydir. Bu shoir haqida ma‘lumotlar yetib kelmagan. Uning yakka-yu yagona asari bo‘lmish «Latofatnoma» o‘sha davrdagi hukmron – *Mahmud sultonga* bag‘ishlangan. Mahmudxon kichik Muhammadning o‘g‘li bo‘lib, u Tog‘ay Temurning avlodlaridan bo‘lgan. Tog‘ay Temur Xorazm xoni Jo‘jining 13-og‘li edi. Mahmudxon 1411-hamda 1422–1424-yillarda Xorazmga podsholik qilgan.

Xo‘jandiyning «Latofatnoma» asari boshdan-oyoq **masnaviyda** bitilgan bo‘lib, undagi so‘z o‘yinlari, tajnislarning

¹²⁷ B. To‘xliyev, B. Abdurahmonova. Adabiyot (Akademik litseylarning birinchi bosqich o‘quvchilari uchun majmua). – T.: Cho‘lpon nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2007. – 172-bet.

ko'p qo'llanilishi, muallifning arabcha va forscha so'zlar, ko'proq o'zbekcha imkoniyatlarni izlagani asarning ta'sirchanligini oshirgan.

«LATOFATNOMA» ASARIDAN PARCHALAR:

Muhabbat jomidin ichsang sharobe,
“Muhabbatnoma”ga aysang javobe.

* * *

Tilimda so'z, elimda xoma bo'ldi,
“Latofatnoma” ham o'n noma bo'ldi.

ATOYI

(XIV asr oxiri – XV asr I yarmi)



Atoy shirin kalom lirik shoir, majoziy ishq vasfidan ilohiy ishq lazzatini topolgan kishi, Xo'ja Ahmad Yassaviyning jiyanidir.

A.Navoiy o'zining «**Majolis un-nafois**» asarida shunday yozadi: «*Mavlono Atoy Balxda bo'lur erdi, Ismoil ota farzandlaridandur, darveshvash va xushxulq, munbasit (oq ko'ngil) kishi erdi. O'z zamonida atrok (turkiylar) orasida ko'p shuhrat tutti.*

Atoy devoni qo'lyozmasining oxirida «*Devoni Shayxzoda Atoy*» degan qayd Atoyining shayxlar oilasidan kelib chiqqaniga qo'shimcha dalolat bo'ladi¹²⁸.

O'sha davrlarda to'g'ri, tushunarli va oddiy ifoda yo'sinidan foydalanishni «turkona» deyishgan. Navoiy Atoyini ham «*turkona aytur edi*» deb ta'riflagan¹²⁹.

¹²⁸ B.To'xliyev, B.Karimov, K.Usmonova. Adabiyot (O'rta ta'lim muassasalarining 10-sinfi va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalarining o'quvchilari uchun darslik-majmua. -T.: "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti, 2017. – 59-bet.

¹²⁹ Q.Yo'ldoshev, B.Qosimov, V.Qodirov. Adabiyot (Umumta'lim maktablarining 7-sinfi uchun darslik). – T.: Sharq, 2005. – 164-bet.

Atoyi Mirzo Ulug'bek saroyida xizmat qilgan. Hozirgi Qozog'istonning Turbat qishlog'ida unga nisbat berilgan qabr bor. Chamasi, uning hayoti Sayram, Balx, Samarqand, Hirot shaharlarida kechgan.

Taxallusini mashhur shayx ota-bobolariga ishora qilib, «*Ato*» («ota») deb olgan. Uning bizgacha bir devoni yetib kelgan bo'lib, 260 g'azalni o'z ichiga olgan.

Atoyi g'azallari haqida

Atoyi g'azallari sodda va ravonligi, vaznlarining o'ynoqiligi, tasvirlarining quymaligi va yuksak badiiyati bilan ajralib turadi.

Shoir devonidagi g'azallar 5 baytdan 14 baytgacha bo'lib, ularning ko'pchiligi 7 baytdan iborat. Atoyi g'azallari 1958-yilda nashr etilgan.

Atoyining «*Ul sanamkim...*» deb boshlanuvchi g'azalida «suv parisi» obrazli o'xshatmasi bo'lib, bunda shoir sanamni «qizning go'zalligi, tiniqligi, pokizaligi shunchalikki, u qo'lini suvda yuvib tozalamaydi, balki qo'lini yuvib suvni poklaydi» deb tasvirlagan.

Atoyi bir g'azalida «husn»ni «Mus'haf» («Qur'on»)ga, «meng» (xol)ni oyatga o'xshatib, yor go'zalligini tasvirlashdan maqsad Alloh ekanligiga ishora qilgan, yorning qop-qora sochini laylat ul-qadrga, oppoq yuzini esa subhi sodiqqa o'xshatgan.

G'AZALLARI: «*Jamoling vasfini...*» (Hazaji musaddasi mahzuf vaznida bitilgan), «*Netti, ne bo'ldi?*», «*Manga sen bo'lmasang...*», «*Ul sanamkim...*» (Ramali musammani mahzuf vaznida bitilgan), «*Ko'ngul olding, begim, yoshurmog'ing ne?*» (bu g'azal boshdan oyoq savol tarzida bitilgan), «*Agar ko'nglung tilar jonimni olmoq*», «*Kel, ey dilbarki,...*», «*Hosili umrum...*», «*Qon bo'ldi ko'ngul...*», «*Ko'ngulni olg'ali...*», «*Ey, begim*», «*Soching chun laylat ul-qadr-u...*», «*Hajringda, begim,...*», «*Mengiz yo ravzayi rizvonmudur bu?...*», «*Sipehri husn ichinda...*», «*Seni men ongladim,...*» (bu g'azalda ijodkorga yori tomonidan «ko'zi to'yimas gado» ta'rifi berilgan), «*Manga*», «*Ey do'st*» («Sensiz bu jahon ayshi...», hazaji musammani axrabi makfufi maqsur vaznida bitilgan), «*Qaro ko'zlar*», «*Labing qonim to'karga...*» va boshq.

GADOIY (XV asr)

...Huloguxon zamonidin, sultoni sohibqiron Temur Ko'ragon zamonidin farzandi xalafi Shohruh Sulton zamonining oxirigacha turk tili bilan shuaro paydo bo'ldilar. Va ul hazratning avlod va ahfodidan ham xushtab' salotine zuhurga keldi: shuaro Sakkokiy va Haydar Xorazmiy va Atoiy va Muqimiy va Yaqiniy va Amiriy va Gadoiydeklar.

...Mavlon Gadoiy turkigo'ydur, balki mashohirdindur. Bobur Mirzo (Abulgosim Bobur(1452-1457-yillarda hukmronlik qilgan)) zamonida she'ri shuhrat tutti... Mavlononing yoshi to'qsondin o'tibdur.

Alisher Navoiy

Gadoiy XV asrda yashab ijod etgan. Shoir haqida ma'lumot Navoiyning «Majolis un-nafois» taskirasida va «Mahbub ul-qulub» asarlaridagina mavjuddir. Bunday ma'lumotlarga asoslanib Gadoiyini taxminan 806 (1403-1404)-yilda tug'ilgan deyish mumkin.

Faxri Hirotiyning «Radoyif ul-ash'or» tazkirasida Gadoiyning fors-tojik tilida yaratilgan g'azali mavjud. Demak, Gadoiy zullisonayn shoir bo'lgan.

Gadoiyning yagona devoni Parij Milliy kutubxonasida saqlanadi. Shoir devonida mustazod, qit'a va g'azallar mavjud bo'lib, uning g'azallarida sof muhabbat, vafo, visoldan g'oyat sevinish kabi insoniy tuyg'ular ifodalangan.

G'AZALLARI: «Mubtalo bo'ldi yana», «Unutma», «Sanga», «Yoz fasli...», «Yana yoz bo'ldi-yu,...» va boshq.

SAKKOKIY

(Taxm. XIV asrning oxiri – XV asr)

...Uyg'ur iboratining fusahosidin va turk alfozining bulag'osidin Mavlon Gadoiy va Mavlon Lutfykim, birining shirin abyoti ishtihori Turkistonda bag'oyat va birining latif g'azaliyoti intishori Iroq va Xurosonda benihoyatdurur ham devonlari mavjud bo'lg'ay.

Alisher Navoiy



Atoqli lirik shoir Sakkokiyning hayoti va faoliyati haqida juda kam ma'lumot saqlanib qolgan. Sakkokiyning o'z devonida, Navoiyning «Majolis un-nafois», «Muhokamat ul-lug'atayn», «Xutbai-davovin» kabi asarlarida uning XV asrda yashab ijod qilganligi ma'lum bo'ladi.

Alisher Navoiy «Majolis un-nafois» asarida Sakkokiyning Movarounnahrda ekanligini aytib, u haqida yana shunday yozadi: «Samarqand ahli onga ko'p mu'taqiddurlar» (e'tiqod qo'yganlar) va bag'oyat ta'rifi qilurlar».

Shoir Yaqiniy o'zining «O'q va Yoy» munozarasida Sakkokiyning «Turk shoirlarining mujtahidi (g'ayratlisi)» deb ta'riflaydi.

Sakkokiy shoirning taxallusi bo'lib, «Sakkok» («pichoqchi») so'zidan olingan. Shoir ijodi Ulug'bek hukmronligi davrida kamol topgan. Sakkokiy Ulug'bekka bag'ishlangan bir qasidasida shunday yozadi:

Salotin dunyoda ko'p keldi-yu kechti, seningtek bir,
Falakning gar tili bo'lsa, ayitsunkim, qachon keldi?
yoki

Shaho, lutfingni topqom deb duochi banda Sakkokiy,
Belin joni bilan bog'lab, bu xizmatga ravon keldi.

Sakkokiy Xalil Sultonga, Xo'ja Muhammad Porsoga, Mirzo Ulug'bekka, Arslon Xo'ja Tarxonga bag'ishlab qasidalar bitgan, oshiq, yor va raqib obrazlari yaratilgan go'zal ishqiy g'azallar yozgan. Xalq og'zaki ijodi Sakkokiy ijodining gurkirab ketishida muhim omil bo'lgan.

Sakkokiy g'azallarining bosh mavzusi muhabbatdir. U bir g'azalida «Ey sarvinoz, sen mening ko'z yoshlarimga bir nazar sol. Oqar suvga qarasa, ko'ngil ravshan bo'ladi, deydilar-ku» deb yozgan.

Sakkokiy devonining bir necha qo'lyozma nusxalari ma'lum bo'lib, ular Londonda, Britaniya muzeyida, Toshkentdagi Sharqshunoslik institutida saqlanmoqda.

G'AZALLARI: «*Kim ermas ul oy muhtalosi...*», «*Ey jon*», «*Bo'lsa edi*», «*Yoqa keldi*», «*Ey gul...*», «*Sentek jahonda...*» va boshq.

G'AZALLARIDAN PARCHALAR:

**Kim ermas ul oy muhtalosi,
Yolg'uz menga yo'q aning balosi.**

* * *

**Sentek jahonda ko'zlari ayni balo qani?
Mentek aning balosi bila muhtalo qani?**

LUTFIY (1366 – 1465)



Lutfiy o'z zamonasida boshqa shoirlar orasida yuksak mahorati va zukko iste'dodi bilan ajralib turgan shoirdir. Shu sababli uni «**malik-ul kalom**», ya'ni «so'z podshosi» deb e'zozlashgan. Manbalarda taxallusi oldidan «ulug' ustod» ma'nosidagi «**Mavlon**» sifatining qo'shib tilga olinishi ham shundan¹³⁰.

Lutfiy taxminan 1366-yilda Hirot shahri yaqinidagi Dehikanor degan joyda tug'ilgan. Ahmad Taroziy uni «Shoshiy» degan. Shoirning asl ismi Lutfulla bo'lgan, shuning uchun «Lutfiy» («latif, go'zal lutfli, shirinsuxan») taxallusini olgan, degan qarashlar bor.

Shoir «Lutfiy» nomi bilan ulkan so'z san'atkori sifatida Sharqda tanilgan. U avval maktab, so'ngra Hirot madrasalaridan birida ta'lim olgan, adabiy manbalarda aytilishicha, Lutfiy tasavvuf shayxlaridan Shahobiddin Xiyoboniy huzurida tahsilni davom ettirgan. U Navoiyning shoirlik istiqboliga zo'r umid va

¹³⁰ S.Olim va boshq. Adabiyot (Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 8-sinfi uchun darslik). – T.: G'.G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2019. – 44-bet.

ishonch bilan qaragan.

Navoiy «**Majolis un-nafois**» asarida: «*Mavlono Lutfiy... o'z zamonasining malik ul-kalomi erdi, forsiy va turkiyda naziri yo'q erdi, ammo turkiyda shuhrati ko'prak erdi va turkcha devoni ham mashhurdir...*» deb shoirga yuksak baho bergan. Bundan tashqari bu tazkirada shoirning umri so'ngida «oftob» radifli she'r bitgani, barcha zamondosh shoirlar unga tatabbu' (o'xshatma) qilganliklari ham aytilgan. A.Navoiy Lutfiyning o'ziga nisbatan ka'ta muhabbati borligini eslab: «*Bu faqir borasig'a ko'p iltifoti bor erdi va fotihalar o'qur erdi*», – deb yozgan hamda Lutfiyni ijodkorlar orasida alohida ta'kidlagan: «*Bir Mavlono Lutfiydin o'zgakim, bir necha matla'lari borkim, tab'ahli (nozik didli adabiyotchilar) qoshida o'qusa, bo'lur*».

Xondamir «**Makorim ul-axloq**» asarida Lutfiyni turkiy tilda Navoiygacha bo'lgan davrda ijod qilgan eng yirik shoir sifatida ta'riflagan¹³¹.

Navoiy o'zining «**Majolis un-nafois**» asarida yozishicha, Lutfiy 1437-yilda Sharafiddin Ali Yazdiyning «**Zafarnoma**» asarini Shohruh Mirzoning taklifi bilan o'zbek tiliga she'riy yo'lda ijodiy tarjima qilib, doston yaratgan, lekin oqqa ko'chirilmagani uchun u bizgacha yetib kelmagan.

Uzoq yillar davomida «**Gul va Navro'z**» dostoni ham Lutfiyga nisbat berilar edi, lekin ma'lum bo'lishicha, bu dostonni Haydar Xorazmiy yozgan ekan.

Oddiy va kamtarona umr kechirgan Lutfiy 1465-yil 99 yoshida Hirotda vafot etgan va o'zi tug'ilgan Dehikanordagi bog'iga dafn etilgan. Navoiy «**Nasoyim ul-muhabbatmin shamoyim ul-futuvvat**» asarida bu haqda shunday yozadi: «... *To'qson to'qquz yoshida olamdin o'tdi, qabri Dehikanordadur, o'z maskani erdi*».

Lutfiy fors va o'zbek tillarida taxminan 10–12 ming bayt ijod qilgan, degan ma'lumotlar bor.

Lutfiyning 2 ta devoni bizgacha yetib kelgan.

¹³¹ B. To'xliyev, B. Abdurahmonova. Adabiyot (Akademik litseylarning birinchi bosqich o'quvchilari uchun majmua). – T.: Cho'lpon nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2007. – 197-bet.

Lutfiy turkiy devonining XVI–XX asrlarda ko‘chirilgan jami 33 nusxasi yetib kelgan. Umumiy hisobga ko‘ra, Lutfiy 3 ming baytga yaqin she‘r yozgan ekan. Bularning 75 foizini g‘azal janridagi she‘rlar tashkil qiladi.

Shoirning turkiy devonidan o‘rin olgan lirikaning **qasida**, **g‘azal**, **ruboiy**, **tuyuq**, **qit‘a**, **fard** kabi janrlardagi she‘rlaridan 450 dan ortig‘i, ya‘ni 4560 misradan ko‘proq qismi bizgacha yetib kelgan. Uning she‘rlari ko‘proq ishqiy mavzuda yozilgan. Lutfiy o‘zbek adabiyotini **g‘azal**, **tuyuq** va **qit‘alar** bilan boyitgan adibdir.

Lutfiy tuyuqlarida, asosan, turkiy o‘zakli so‘zlar tajnisga olingan.

LUTFIY G‘AZALLARI HAQIDA

Lutfiy g‘azalchilik an‘anasiga ko‘plab yangiliklar kiritgan adibdir. U «*Sanga ne*» g‘azalida ilk marta *subhat-dialog* usulini g‘azalning boshidan oxirigacha davom ettirgan. Yana bir g‘azalida yorning yuzini jannat bog‘iga, ma‘shuqaning o‘zini esa «rashki rizvon» (jannatning rashkini keltiruvchi) deya ta‘riflagan shoir yorning yuzi haqida yana shunday yozadi:

**Yuzungizda o‘g‘on nuri ayondur,
Ko‘zingiz fitnai oxir zamondur.**

Bu baytda muallif yor yuzida «*o‘g‘on nuri*» (Alloh nuri), ko‘zlarida esa zamon fitnasi borligini tasvirlagan.

1. «Xoh inon, xoh inonma» g‘azali haqida. 7 baytli bu g‘azal *hazaji musammani axrabi makfufi mahzuf (yoki maqsur)*, ya‘ni maf‘uvlu – mafoiylyu – mafoiylyu – faulun (yoki mafoiyly) vaznida bitilgan bo‘lib, uning taqte‘si quyidagicha: -- V/ V -- V/ V -- V/ V -- (yoki V -- ~).

Ushbu g‘azalda radifning 4 so‘zdan tashkil topgani, amalda 8 misrada ularning qaytarilishi ohang ustuvorligini kuchaytirgan. Radifning o‘zida mavjud bo‘lgan **tazod** alohida badiiy joziba kasb etgan. G‘azaldagi «*guzar*» so‘zini «*ketish*» deb tushunish kerak.

G'azal maqta'sida lirik qahramonning yuzi azbaroyi hijron azobidan sarg'ayib, oltinni yashiradigan darajaga yetganligi, ya'ni tilloning sariqligi uning oldida hech narsa bo'lmay qolganligi aytilgan. Yusuf degan o'g'lidan ayrilgani uchun ko'zlari ko'r bo'lib qolgan Yoqub payg'ambar nomi ham ushbu g'azalda tilga olingan. Ushbu g'azal ta'sirida **Mashrab o'xshatma**(tazmin) g'azal bitgan.

2. «Oiladurg'on bu ko'nguldur, bu ko'ngul» radifli g'azali haqida. Bu g'azal ham 7 baytdan iborat bo'lib, *ramali musammani mahzuf (yoki maqsur)*, ya'ni foilotun – foilotun – foilotun – foilon (yoki foilon) vaznida yozilgan. Taqte'si quyidagicha: – V – – / – V – – / – V – – / – V – (yoki – V ~).

G'azalda 5 so'zdan iborat faqat turkiy so'zlar radif sifatida qo'llangan. Uning qofiyasidagi so'zlar arabiy-forsiy kalimalardan iborat. Lutfiy g'azalda «Qorong'i kechada sochining tolasiga jonni savdo qiladigan ham, do'st-u dushman ichida g'ofil bandani qo'lsiz-oyoqsiz qilib qo'yadigan ham – shu» deya ko'ngilni tasvirlagan. Bu g'azalga XIX asrning birinchi yarmida yashagan shoirimiz Nodira o'xshatma yozgan.

3. «Avodiqing'a tushar har lahza gisu...» g'azali haqida. Bu Lutfiyning Lutfiyga xos lutf bilan qog'ozga tushgan 5 baytli g'azali bo'lib, hazaji musaddasi mahzuf (*mafoiylun – mafoiylun – faulun* (V – – – / V – – – / V – –)) vaznida yozilgan. Ushbu g'azalda beshta bir-biriga qofiyadosh so'z bilan tugaydigan maqol qo'llangan. Muallif «*Charog' tubi qorong'u*» (1-baytda), «*Oqqan ariqqa oqar su(v)*» (2-baytda), «*Kishining ko'zidur, ore, tarozu*» (3-baytda), «*Qo'r qar, qaydakim qon ko'rsa, hindu*» (4-baytda), «*Tiloganni – tilogu*» (5-baytda) kabi maqollarni har bir baytda bittadan qo'llagan. Ushbu g'azalni adabiyotimiz tarixida kam uchraydigan **irsoli masal** qo'llashning yuksak darajasida yozilgan g'azal sifatida baholaganlar.

4. «Haq ul kunkim. jamoling bor etibdur» g'azali (7 bayt) hazaji musaddasi mahzuf (*mafoiylun – mafoiylun – faulun*) vaznida bitilgan bo'lib, unda *manzar*, ya'ni fikr qaratilgan, tasvirlanayotgan shaxs *go'zal yordir*. G'azal qofiyasidagi so'zlarning barchasi o'zbekcha so'zlardan tashkil topgan.

G'azaldagi qofiyadosh so'zlar o'zaro o'ta ohangdor fe'llar hisoblanmasa ham, bunga she'riyatda sof milliy so'zlarni qofiyaga olishga urinish sifatida qaralishi mumkin. G'azalning oltinchi baytida tasvir shamga qaratilgan. "Quyosh yorning oydek yuzini ko'rib, xijolat chekkanidan to'rtinchi osmonga chiqib ketgani" ifodasi ham shu g'azalda berilgan.

5. «Ne bo'lursan?» radifi g'azal 5 baytdan iborat bo'lib, unda yorning chiroyli yurishi tog' kakkligiga o'xshatilgan. Yusuf payg'ambar hayotining bir qismi Misrda o'tganidan kelib chiqib, lirik qahramon yor harakatini shirin deb ta'riflagan holda yoriga «Misrning nabot-u shakariga kim bo'lasan?» – deya savol bergan. G'azalda **tanosib** (o'zaro mutanosiblik) san'atiga qat'iy amal qilingan. Uning oxirgi baytida **iyhom** san'ati qo'llangan.

G'AZALLARI: «*Ko'rgali la'ling aqiqin...*» («Tortadur»), «*Jonim chiqadur dard ila, jononima ayting...*», «*Nigoro, sensizin mandin ne hosil?..*», «*Qon bo'ldi ko'ngul...*», «*Nozuklik ichra...*», «*Bu kechar jahonda, soqiy...*», «*Holiyokim, davri ishrattur iliktin jomni*», «*Agar sen bo'lmasang...*» va boshq.

TUYUOLARI: «*Dog'i bor*» tajnisli tuyuq, «*Bandamen*» tajnisli tuyuq, «*Yozamen*» tajnisli tuyuq, «*Yoqila*» tajnisli tuyuq va boshq.

HAYDAR XORAZMIY

(XIV asrning II yarmi – XV asr boshlari)

Mavlono Haydarning turkiy va forsiy tillarda bitgan yaxshi she'rlari bor va u Nizomiyning «Mahzan ul-asror»iga o'zbek tilida javob yozib, uni shahzoda Iskandar otiga bag'ishladi.

Davlatshoh Samarqandiy

Yana Mavlono Haydar Xorazmiy turkigo'yning «Gulshan ul-asror»idur, pand-u nasihatga yaxshi abyoti bor...

Z.M. Bobur



Haydar Xorazmiy¹³² Xorazmda yashagan, og'ir vaziyatda hayot kechirgan shoirdir. U birmuncha vaqt Umarshayxning o'g'li, Temurning nevarasi Sulton Iskandar huzurida saroy shoiri sifatida xizmat qilgan.

Haydar Xorazmiy fors, arab tillarini va falsafiy bilimlarni yaxshi bilgan. 1409–1414-yillarda *«Mahzan ul-asror»* (*«Gulshan ul-asror» deb ham ataladi*)

falsafiy-didaktik dostonini yaratgan va uni shahzoda Sulton Iskandarga bag'ishlagan. Doston 23 bob, 615 baytdan iborat. Dastlabki 7 bobi xudo, payg'ambarlar va xalifalar haqidagi an'anaviy gaplardan, Sulton Iskandar madhidan iborat. Qolgan 16 bobi maqolat, mav'iza (nasihat) va hikoyatlardan tashkil topgan. Unda *«Pulini yo'qotgan kishi hikoyati»*, *«Bo'z to'quvchi kampir va bazzoz hikoyati»*, *«Xotami Toy hikoyati»*, *«Mahmud G'aznaviy haqida hikoyati»*, *«Xorun bila Bahlul hikoyati»*, *«Temurbek hikoyati»* kabilar keltirilgan. Bu dostonga asosiy manba bo'lgan asar Nizomiy Ganjaviyning *«Mahzan ul-asror»*idir. Asarning yaratilishi haqida shoirning o'zi shunday yozadi:

**Menki pishurdim bu laziz oshni,
Shayx Nizomiydin olib choshni.**

Haydar Xorazmiy turkiy tilda ijod qilish bilan ham faxrlanadi:

**Turk zuhuridir ochunda bu kun,
Boshla uluq yir bila turkona un!**

Asardagi *«Bo'z to'quvchi kampir va bazzoz hikoyati»*da qalloblik va tamagirlik qoralanadi. Bu hikoyatda Xoja haqparast darveshning istehzoli, kinoyali gaplaridan keyin haq yo'lga kiradi va tarkidunyo qiladi.

Yangi ma'lumotlarga ko'ra, *«Gul va Navro'z»* dostoni ham Haydar Xorazmiy qalamiga mansub ekan. U 1411-yilda Sulton Iskandarning farmoni bilan yozilgan.

¹³² Qarang: B.To'xliyev. Adabiyot (Akademik litsey va kasb-hunar kollejlari uchun darslik). – Toshkent: O'qituvchi, 2002. – 209-215-betlar.

«GUL VA NAVRO'Z» dostoni haqida

Navshodning keksa podshosi **Farrux** o'g'il ko'radi. Bola Navro'zda tug'ilgani uchun unga **Navro'z** deb nom beradilar. Navro'z aqlli, baquvvat bo'lib yetishadi. U **Farxor** o'lkasining shohi **Mushkinning** qizi **Gulni** tushida ko'rib, sevib qoladi. **Gul** ham **Navro'zni** tushida ko'rib, uning ishqiga giriftor bo'ladi. Navro'z ko'p sarguzashtlarni boshidan kechirib, Farxorga yetib keladi. Biroq Mushkin Gulni Xitoy xoqoniga tortiq qilmoqchi bo'ladi. O'zaro ahdlashgan Gul bilan Navro'z Xitoy chegarasiga yaqinlashganda qochib ketadilar va sarguzashtlarni kechirib, bir daryoga yetib keladilar. Dahshatli to'liqin sevishganlarni bir-biridan ajratadi: Gul Adanga, Navro'z Yamanga tushib qoladi. Ikkalasi ham askar boshlig'i etib tayinlanadilar. Adam bilan Yaman o'rtasida urush boshlanadi. Yakkama-yakka jangda Gul yamanlik pahlavon **Bahromni** yengadi. Jang maydoniga Navro'z chiqadi. U g'olib Gul bilan olishishi kerak edi. Biroq Navro'z bilan Gul bir-birlarini tanib qoladilar, urush yarashga aylanadi. Navshod, Farxor, Adan va Yaman shohlari kengashadilar, to'rt davlatni birlashtirib, yagona davlat qilishga va Navro'zni shoh qilib ko'tarishga qaror qiladilar. Navro'z adolatli va ma'rifatparvar podsho bo'ladi.

Asar qahramonlari quvidagilar: *Farrux* («go'zal, baxtli, muborak, qutlug' yuzli»), *Navro'z* («yangi kun»), *Yaldo* («qish mavsumidagi eng sovuq, uzun va qorong'u kecha»), *Najd* («yerning baland qismi, to'siq»), *Navshod* («xalqi go'zallik va chiroyi bilan mashhur bo'lgan shahar»), *Farxor* («orasta, chiroyli va shinam joy»), *Baxman* («qishning eng ayozli kunlari»), *Savsan*, *Javhar* va boshq.

Asardagi *Yaldo*, *shayx Najdiy*, *Baxman* kabilar salbiy obrazlardir. Ushbu dostonidan olingan quyidagi bayt *tarse'* san'ati bilan ziynatlangan:

Gahe eltub ayyog'ini o'ziga,
Gahe surtub iligini ko'ziga¹³³.

¹³³ B.To'xliyev. Adabiyot (akademik litsey va kasb-hunar kollejlari uchun darslik). – T.: O'qituvchi, 2002. – 215-bet.

DURBEK¹³⁴

Durbekning «Yusuf va Zulayho» degan dostoni yetib kelgan. Bu asar sharqdagi eng mashhur va qadimiy qissalardan biri bo'lib, hijriy 812 (milodiy 1409)-yilda yozilgan.

«Yusuf va Zulayho» dostoni masnaviy shaklida, aruzning sari' bahri (muftailun– muftailun–foilun)da bitilgan.

Doston muqaddimasida ta'kidlanishicha, asar Balx shahrida yozilgan ekan. Bu asarda Balx shahrining qamali tasvirlangan. Dostonda aytilishicha, Mag'rib (G'arb)da nomi dunyoga ketgan shoh bo'lib, uning ismi Taymus edi. Taymus shohning go'zal qizi bo'lib, u dostonda quyidagicha tasvirlangan:

**Bir qizi bor erdi mohi xovariy,
Orazig'a shams-u qamar mushtariy.**

**Yuzi quyosh erdi, vale bezavol,
Barcha funun bobida sohib kamol.**

**Hosili umri edi ul shohning,
Oti Zulayho edi ul mohning.**

Zulayho tushida Yusufni ko'rib, ishq o'tida o'rtana boshlaydi. Nihoyat, u tushidan onasini xabardor qiladi. Onasi esa Taymus shohga aytadi. Taymus shoh Misrga – Yusufning yurtiga elchilar yuboradi. Bu orada Yusufni aka-ukalari qul o'rnida sotib yuboradilar. Ana shu qul Taymus shoh ixtiyoriga kelib qoladi va shoh uni Zulayho xizmatiga beradi. Zulayho o'z sevgisini enaga orqali bildiradi. Enaga Yusufning gaplarini Zulayhoga yetkazadi va uni ishq yo'lida sabr-bardoshli bo'lishga chaqiradi. Ikki dil uzoq yillar davomida turli ixtiloflar tufayli bir-biriga yetisha olmaydilar va nihoyat qariganlarida orzu-umidlariga yetishadilar. Yusuf akalarining munofiqona xatti-harakatlari ularning o'zlarini sharmandai sharmisor qiladi.

Asardagi yetakchi qahramonlar Zulayho bilan Yusufdir. Dostonda turli badiiy-tasviriy vositalardan unumli foydalanilgan.

¹³⁴ Qarang: B.To'xliyev. Adabiyot (Akademik litsey va kasb-hunar kollejlari uchun darslik). – T.: O'qituvchi, 2002. – 247-252-betlar.

Muallif bayoni qatorida qahramonlar nutqi, monolog, dialog kabi shakllardan ustalik bilan foydalangan.

HUSAYN BOYQARO

(1438 – 1506)

Ham forsiy demakka qodir va ham turkcha aytmoqqa mohir erdi, ammo turkiy devon tadviniga mayl qildilar va dilpazir abyot va benazir g'azaliyot tartib berdilar.

A.Navoiy



Husayn Boyqaro ham shoh, ham shoirdir. U Alisher Navoiy bilan zamondosh bo'lib, Navoiyga homiylik qilgan. Husayn Boyqaro 1438-yilda Hirotda tug'ilgan. Otasi Mansur ham, onasi Feruzabegim ham Temur avlodidan edilar. Shu sababli Z.M.Bobur uni «*Karim ut-tarafayn*» («ikki tomonlama ulug'») deb atagan edi. Boyqaro 1457-yilda Abulqosim Bobur Mirzo vafot etgach, taxt uchun kurashga

kirishadi va 1469-yil 24- martda Hirotni egallaydi hamda temuriylar saltanatini 1506-yilgacha boshqaradi.

Husayn Boyqaro shaxs sifatida mard, shijoatli, adolatli bo'lib, qilichbozlikda temuriylar orasida unga teng keladigani bo'lmagan, adabiyotni, san'atni sevgan.

Husayn Boyqaroning eng katta kamchiligi maishatparast va sharobxo'rlik bo'lgan. Ma'lumotlarga qaraganda, Husayn Boyqaroni hushidan ketganda, amaldorlar dushman yaqinlashayotgani bois, shoshilinch ravishda uni o'lgan hisoblashib, tezda dafn qilganlar. Keyinchalik Boyqaro qabrini Hirotdagi o'zi qurdirgan madrasaga shohona dafn qilish uchun ochishgan. Qabrni ochgan navkarlar lol bo'lib qolgan: murdaning tirnoqlari sinib ketgan, kafan yarim yechilgan, hamma yoqda qon dog'lari qotib qolgan edi. Lekin Boyqaroga qabrdan chiqish nasib etmagan¹³⁵.

¹³⁵ Umid Bekmuhammad. Navoiyning armonlari. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2011. – 117-bet.

Husayn Boyqaro «*Husayniy*» taxallusi bilan she'rlar yozgan. Undan bizga bir «*Devon*» va «*Risola*» nomli tarixiy-adabiy-ma'rifiy asari meros bo'lib qolgan.

Devondagi she'rlarning ko'pchiligi ishq va may mavzusida bo'lib, g'azallarining hammasi bir vaznda – *ramali musammani maqsur* (foilotun–foilotun–foilotun–foilon)da yozilgan.

Husayniyning «*Risola*»si (1485) «o'zbek nasrining ilk namunalaridan biri» deya baholangan. Asar Alloh inoyat etgan podshohlik shukronasi bilan boshlanadi. Unda muallif A.Jomiyni, A.Navoiyni hurmat bilan tilga olgan. Asarda Jomiy «*jumlaning a'lami(olimi) va afzali, fazoil (fazilatlar) daryosining duri poki*» deya ta'riflangan. Navoiyning "haq so'z adosinda daler (botir, qo'rqmas)"ligi alohida ta'kidlangan.

Alisher Navoiy Husayn Boyqaro she'riyatiga yuksak baho berib, «*Majolis un-nafois*» tazkirasida unga maxsus bir fasl (8-majlisni) ajratgan.

SHE'RLARI: «*Bo'ldi gul vaqti-yu...*», «*Furqatingdin xasta ko'nglum qatra-qatra qon erur...*», «*Ey ko'ngul...*», «*G'unchani og'zing desam...*», «*Chun junun zanjirig'a bo'ldum giriftor, ey ko'ngul...*», «*Necha kuygay hajr ila farsuda jonim dam-badam*», «*Hech musulmong'a, nigoro, dog'i hijron bo'lmasun...*», «*Ey sabo, bergil xabar, sarvi ravonim keldimu...*», «*Bir quyosh hajrida...*», «*Vahki, g'am dashtida...*» kabi g'azallari, «*La'li jonbaxshingdin ayru obi hayvonmu netay?*» (Navoiy g'azaliga muxammas) va boshq.





25-MAVZU.

ALISHER NAVOIYNING HAYOTI VA IJODI

*...turk tilining o'lgan jasadig'a Masih anfosi bila ruh
kiyurdi va ul ruh topqonlarg'a turkiy oyin alfoz tor-u
pudidan to'qulg'on hulla va harir kiydurdı.*

...Aning nazmi vasfida til qosir va bayon ojizturur.

... "haq so'z adosinda daler (botir, qo'rqmas)"dur.

Husayn Boyqaro

* * *

*...turkiy tilda hech kim Navoiydek ko'p va xo'p she'r
aytmagan hamda nazm gavharlarini sochmagan edi.*

A.Jomiy, «Bahoriston»dan

* * *

*Alisherbek naziri yo'q kishi erdi. Turkiy til bila to she'r
aytubturlar, hech kim oncha ko'p va xo'p aytqon emas. Olti masnaviy
kitob nazm qilibtur... Yana musiqada yaxshi nimalar bog'labtur.
Yaxshi naqshlari va yaxshi peshravlari bordur¹³⁶.*

Zahiriddin Muhammad Bobur

* * *

*Agar bu ulug' zotni avliyo desak, avliyolarning avliyosi,
mutafakkir desak, mutafakkirlarning mutafakkiri, shoir desak,
shoirlarning sultonidir.*

Islom Karimov¹³⁷



Buyuk mutafakkir, olim, musiqachi, rassom va davlat arbobi, o'zbek adabiy tilining asoschisi, Bobur ta'biricha, «*tili Andijon shevasi bilan rost*» bo'lgan shoir **Nizomiddin Mir Alisher Navoiy**dir. «Nizomiddin» – “din nizomi”, mansab egaloriga nisbatan aytilgan «mir» – “amir” demakdir.

¹³⁶ Z.M.Bobur. Boburnoma. – T.: Yulduzcha, 1990. – 153-154-betlar.

¹³⁷ Islom Karimov. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – T.: Ma'naviyat, 2008. – 47-bet.

Butun turk dunyosi Navoiyni «shamsul millat» – millat quyoshi deb ulug‘laydi¹³⁸.

Navoiy 1441-yil 9-fevralda Hirotning Bog‘i Davlatxona atalmish joyida xizmatchi oilasida dunyoga kelgan. Otasi *G‘iyosiddin Muhammad* (G‘iyosiddin Kichkina) temuriylar saroyidagi amaldorlardan bo‘lib, u 1453-yilda ozgina muddat Sabzavor shahri hokimi ham bo‘lgan. Onasi Shayx Abu Said Changning qizi, tog‘alari Mir Said (Mirsayid) Kobuliy shoir, Muhammad Ali G‘aribiy esa shoir, sozanda va xattot sifatida nom chiqargan edilar. Alisherning Bahlulbek ismli akasi (u Xorazmda hokim bo‘lgan) va Darveshali ismli ukasi (Balx hokimi) bo‘lgan.

Alisher dastlabki maktabda bo‘lajak sulton Husayn Boyqaro bilan birga o‘qigan.

1447-yilda Alisherlar oilasi yurt notinchligi sababli Iroqqa ko‘chib ketadi, yo‘lda Navoiy mashhur tarixchi *Sharafiddin Ali Yazdiy* bilan uchrashadi. Alisherlar oilasi 1451-yilda Hirotga qaytadi.

Alisher 12 yoshda ekanligida (1453-yil) uning otasi G‘iyosiddin Muhammad vafot etadi. Navoiy Xuroson podshohi Abulqosim Bobur (u adabiyot va san‘atni sevgan, ijodkorlarni qadrlagan, o‘zi ham o‘zbek va fors tillarida g‘azallar yozgan) saroyiga xizmatga kiradi. 1456-yilda Abulqosim Bobur o‘z poytaxtini Xurosondan Mashhadga ko‘chirgandan so‘ng Alisher ham o‘z do‘sti Husayn Boyqaro bilan Mashhadga boradi. U yerda Alisher *Kamol Turbatiy*, *Mavlono Abdussalom Sheroziy*, *Sayyid Hasan Ardasher*, *Pahlavon Muhammad* kabi yirik olim-u fuzalolar bilan tanishadi. Alisherga Sayyid Hasan Ardasher va Pahlavon Muhammadlar otalik qiladi.

Navoiy sabzavorlik olim va shoir **Darvesh Mansur**dan aruz bo‘yicha ta‘lim olgan.

1457-yilda Abulqosim Bobur Mirzo vafot etadi. Uning o‘rmini Abusaid Mirzo egallaydi. Navoiy Mashhad madrasalarida o‘qiydi, mantiq, falsafa, riyozat (matematika) kabi fanlar bilan shug‘ullanadi. 1464-yilda u Hirotga qaytadi. Abusaid Mirzo taxtga da‘vogar bo‘lgan Husayn Boyqaroning yaqin kishilarini

¹³⁸ Q.Yo‘ldoshev va boshq. Adabiyot (Umumiy o‘rta ta‘lim maktablarining 7-sinf uchun darslik-majmua). – T.: Sharq, 2009. – 166-bet.

ta'qib ostiga oladi. Alisherning ota mulkini musodara qiladi, tog'alari Kobuliy va G'aribiylarni qatl ettiradi.

Navoiy taxminan 18–19 yoshlarida Abdurahmon Jomiy bilan tanishadi, Jomiy uni ham farzand, ham shogird sifatida qadrlaydi. Navoiy 24 yoshligida Jomiy vafot etgan.

Navoiy 1466-yilda Samarqandga keladi va ta'lim olish boshlaydi. Samarqandda olim-u fozillardan Ulug'bek madrasasi mudarriisi *Xoja Xurd*, shoirlar – *Uloyi Shoshiy*, *Yusufshoh Badiiy*, *Safoyi Andijoniy*, *Riyoziy*, *Javhariy*, *Xavofiy* kabilar Alisherning hayotida o'chmas iz qoldiradi.



Navoiy Samarqandda mashhur olim **Xoja Fazlulloh Abulays Samarqandiydan** saboq oladi. Unga Samarqandning ma'rifatparvar hokimi Ahmad Hojibek (*u "Vafoiy" taxallusi bilan she'rlar yozgan*) homiylik qiladi.

1469-yilda Hirot taxtini Husayn Boyqaro egallaydi va maxsus noma bilan Alisherni Hirotga chaqirib oladi. Shoir Husayn Boyqaroning taxtga chiqish munosabati bilan unga bag'ishlab *«Hiloliya»* qasidasini yozadi.

Navoiy davlat arbobi sifatida 1469–1472-yillarda muhrdor, 1472–1476-yillarda vazir, 1487–1488-yillarda Astrobodga hokimlik qiladi.

Alisher *«Amiri kabir»* ("ulug' amir"), *«Amir ul-muqarrab»* ("podshohga eng yaqin amir"), *«Muqarrabi shohiy»* ("shohning eng yaqin kishisi") unvonlariga musharraf bo'lgan.

1489–1493-yillar shoir uchun og'ir judolik yillari bo'ldi: do'stlari, ustozlaridan Sayyid Hasan Ardasher, Abdurahmon Jomiy, Pahlavon Muhammad ketma-ket vafot etdilar.

Navoiy Husayn Boyqaro va uning o'g'illari o'rtasiga tushadi, Badiuzzamonga maslahatlar berib, uni yo'lga soladi. 1499-yilda Marvda Husayn Boyqaroning yana bir o'g'li *Abulmuhsin* otasiga bosh ko'targanda, otasi bilan sulh tuzish uchun Alisherning podshoh nomidan vakil bo'lib kelishini shart qilib qo'ygan. Hajga otlangan Alisherni Mashhaddan qaytarishadi. U ota-o'g'ilni yarashtirib, Hirotga qaytadi.

Navoiy o'z iltimosiga ko'ra, Hirotdagi mashhur *Xoja Abdulla Ansoriy* xonaqohiga *jobubkash* (supuruvchi, xizmatkor) qilib tayin etilgan.

Navoiy ko'pgina xalqparvarlik siyosatini amalga oshirishga uringan: shaharlarni obod qildirgan, ariqlar qazdirgan, shifoxonalar, kutubxonalar qurdirgan. U *Ixlosiya*, *Nizomiya*, *Xusraviya* kabi madrasalar, *Xalosiya*, *Fanoiya* kabi xonaqohlar, «*Shifoia*» tabobatxonasi, «*Dorul-huffoz*» nomli qiroatxona, o'nlab masjidlar, 52 rabot, 20 hovuz, 16 ko'prik va 9 hammom qurdirgan. Har yili 2 mingga yaqin beva-bechoralarga homiylik yordamini ko'rsatadi.

Davlatshoh Samarqandiy o'zining «*Tazkirat ush-shuaro*»sida Navoiy boshchiligida Xurosonning mashhur buloqlaridan biri – Tus viloyatining yuqori qismida bo'lgan *Chashmai gil* suvi 80 km ariq qazilib, muqaddas Mashhad shahriga olib kelangani sababli xalqning suvsizlik azobidan xalos bo'lgani haqida yozgan.



*Xondamir*ning yozishicha, shoirning sa'y-harakati bilan zilzila bo'lib, butkul vayron bo'lgan Hirotdagi *Jome' masjidi* qayta tiklangan, 1500-yil 16-martda barcha ishlar tugagan, Alisher elni to'plab osh bergan va imoratni bitirishda ishtirok etgan 100 ga yaqin ustaga in'omlar ulashgan. Shoirning bu boradagi ishlarining batafsil ro'yxatini *Xondamir* o'zining «*Makorim ul-...*» keltirgan. «*Vaqfiya*» asarida ham bu haqda ...lar uchraydi.

...mi ...kkir 1501-yil 3-yanvarda sakta (miya insulti) kasalligidan vafot etgan.

Shoirning 500 yillik yubileyi 1948-yil may oyida keng nishonlangan.

Toshkentdagi «O'zbekiston Milliy bog'i»dagi Alisher Navoiy haykali ustiga bino qilingan toq girdiga shoirning quyidagi misralari bitilgan:

**Olam ahli, bilingizkim, ish emas dushmanlig',
Yor o'lung bir-biringizgaki, erur yorlig' ish.**

NAVOIYNING IJODIY FAOLIYATI

Alisher Navoiy 4-5 yoshlaridanoq tojik shoiri Qosim Anvarning g'azallarini yod oladi, Shayx Sa'diyning «Guliston» va «Bo'ston» asarlarini (*bu ikki asarni sevib o'qiganligini shoir o'zining «Lison ut-tayr» asarida alohida ta'kidlab o'tgan*), Farididdin Attorning «Mantiq ut-tayr» («Qush nutqi») asarini berilib o'qiydi.

Navoiy «Muhokamat ul-lug'atayn» asarida yoshlik chog'ida mashhur o'zbek va fors shoirlari ijodidan 50 ming bayt (100 ming misra) she'rni yod bilganini qayd etgan. Xondamirning «Makorim ul-axloq» asarida yosh Alisherning Lutfiy huzurida «*Orazin yopqoch ko'zimdin, sochilur har lahza yosh...*» misralari bilan boshlanuvchi g'azalni o'qib, buyuk shoirning olqishiga sazovor bo'lganligi haqida ma'lumot keltirilgan.



(**Izoh:** *Ushbu Alisher Navoiy ishlagan va ijod qilgan uy rasmi Qamchibek Kenjaning "Buyuklar izidan" (Afg'oniston bo'ylab 17 kun) nomli kitobidan olindi.*)

Navoiy 7–8 yoshlaridan boshlab she'rlar yoza boshlagan va 15 yoshida shoir sifatida tanilgan. O'zbekcha she'rlariga «*Navoiy*» («navo» – kuy, ohang; bahra; dard, g'am), forscha she'rlariga «*Foniy*» («o'tkinchi») taxalluslarini qo'llagan.

Navoiy o'z she'rlaridan biriga «*Isfahon*» degan kuy ham ijod qilgan ekan.

Navoiy tarixchi *Mirxond*, she'r ilmining bilimdoni *Atoullloh Husayniy*, ko'p fanlarni egallagan *Husayn Voiz Koshifiy* kabi

adiblarni tarbiyalagan. Mashhur rassom *Behzod*, xattot *Sulton III* kabi kishilar ham bevosita Navoiyning homiyligida kamolga yetganlar.

Alisher Navoiy *Sulton Husayn tarixi, Yusuf va Zulayho* haqida ham turkiy tilda asar yozajagini ma'lum qilgan edi. U «*Lison ut-tayr*»da Shayx San'on muhabbatini hikoya qilib, o'z muhabbatini ham bir doston qilishini aytib o'tgan.

NAVOIYNING LIRIK MEROSI

Navoiy o'z ijodida Sharq she'riyatining 16 xil janridan (*g'azal, mustazod, muxammas, musaddas, musamman, tarji'band, tarkibband, masnaviy, qasida, soqiynoma, qit'a, ruboiy, muammo, chiston, tuyuq, fard*) foydalangan (Navoiy ularni «sinflar» deb atagan). Shoir g'azallarining umumiy soni 3 154 tani tashkil etadi.

Navoiy «Mahbub ul-qulub» asarida ishqni *avom ishq*, *xos ishq, siddiq ishq* (ishqi ilohiy) tarzida uch turga ajratadi va «*pok niyat, pok ko'ngil, pok ko'z*» xos ishq kishilarida bo'lishini ta'kidlagan.

Buyuk mutafakkir nafsni yengish quroli ISHQ ekanligini ta'kidlagan, o'zining ruboiylaridan birida jon qancha shirin bo'lmasin, lekin umr barchasidan azizroq, degan falsafani yoritib bera olgan.

Shoir chinakam inson bu dunyo g'am-alamlarisiz yashashi mumkin emasligini, aksincha, ko'ngilda g'am yo'qligi buyuk g'am, alam yo'qligi esa og'ir alam ekanini ta'kidlagan.

Alisher Navoiy g'azalnavislikda **Xusrav Dehlaviy, Hofiz Sheroziy, Abdurahmon Jomiy**larni ustoz deb bilgan.

Navoiyning barcha devonlari janr jihatdan rang-barang. Shoirning 8 ta devoni mavjud. Shulardan 7 tasini o'zi tuzgan, bittasi zamondoshlari tomonidan tuzilgan. Ular quyidagilar:

1. **Ilk devon** (zamondoshlari tomonidan tuzilgan bu devon shoirning 24-25 yoshlik davrida (1465–1466) Sultonali Mashhadiy tomonidan ko'chirilgan, unga shartli ravishda shunday nom berilgan).

2. «**Badoye' ul-bidoya**» (1472–1476, shoirning o'zi tartib qilgan birinchi devoni. Unda muallif «*yeti-sakizimdin she'r*

tartib berish shavqi rag'batini xayolimni band etdi», – deb yozgan edi).

3. «Navodir un-nihoya» (1486, shoirning o'zi tartib qilgan ikkinchi devoni).

4. «Xazoyin ul-maoniy» («Ma'nolar xazinasini», 1491/1492–1498/1499-yillarda tartib berilgan). U xalq orasida «*Chor devon*» deb ham atalib, turkiy tildagi 4 devondan iborat. «Xazoyin ul-maoniy»dagi devonlarning har biriga baravar – 650 tadan g'azal kiritilgan. Bu kulliyotdagi she'rning umumiy hajmi 22450,5 bayt yoki 44901 misradan iboratdir¹³⁹.

Bu devonlar quyidagilar:

a) «G'aroyib us-sig'ar» («Bolalik g'aroyibliklari» (*tufuliyat avoni*), 7–8 yoshdan 20 yoshgacha, bahor);

b) «Navodir ush-shabob» («Yigitlik nodirliklari» (*shabob zamoni*), 20 yoshdan 35 yoshgacha, yoz);

d) «Badoye' ul-vasat» («O'rta yosh yangiliklari» (*kuhulat ayyomi*), 35 yoshdan 45 yoshgacha, kuz);

e) «Favoyid ul-kibar» («Qarilik foydalari (xulosalari)» (*fusulning qishi*), 45–60 yoshlar, qish, unda 86 ta fard mavjud).

5. «Devoni Foni» (1493, unga fors-tojik tilidagi 1131 ta she'r bo'lib, ularning hajmi 12 000 misradan ortiq. Devonga 554 ta g'azal kiritilgan).

NAVOIY G'AZALLARI VA ULARGA XOS JIHATLAR

«*Yordin ayru ko'ngul...*», «*O'n sakiz ming olam oshubi...*», «*Garjaf qil, gar vafokim...*», «*Qizil, sorig', yashil*» («*Xil'atin to aylamish...*»), «*Lolazor ermashi...*» (Bu tadrij asosida yaratilgan yakpora g'azaldir), «*Junun vodiysig'a moyil ko'rarmen...*» (bu g'azal «Xazoyin ul-maoniy»ning «G'aroyib us-sig'ar» devoniga kiritilgan), «*Kimga qildim bir vafokim,...*», «*Bizing shaydo ko'ngul...*», «*Sen o'z xulqingni tuzgil...*», «*Ashraquat min...*», «*Har gadokim...*», «*Sho'x ikki g'izolingni...*», «*Ko'nglung istar yorlar...*», «*Ko'nglum o'rtansun agar...*», «*Tiflar toshiki...*», «*Gulruxi ra'noqadim...*», «*Ey sabo...*»

¹³⁹ Alisher Navoiy. Xazoyin ul-maoniy. – T.: O'zbekiston Fanlar akademiyasi nashriyoti, 1959. – 13-bet.

(*Ramali musammani maqsur* vaznida bitilgan), «*Ko'zung ne hulo qaro bo'lubtur...*» (*Hazaji musaddasi axrabi maqbuzi mahzuf* vaznida bitilgan), «*Do'stlar, ahli zamondin...*», «*Ko'z qonidin dema,...*», «*Ko'nglung ichra dard-u g'am...*», «*Oshiq bo'ldum...*», «*Ko'kragimdur subhning...*», «*Ne navo soz aylagay...*», «*Havo xush erdi-yu...*», «*Har qachonki, kamaga...*», «*Navbahor ayyomi bo'lmish...*», «*Orazin yopqoch ko'zumdin...*», «*Kechti umrum naqdi g'aflat birla...*», «*Men jahondin kechtim-u...*», «*Mehr ko'p ko'rguzdum, ammo...*», «*Ochmag'ay erding jamoli...*», «*Yordin hijron chekar...*», «*Lolagun to'n ichra...*», «*Do'stlar, mahram deb elga...*», «*Meni men istagan...*» (*Hazaji musammani solim* vaznida bitilgan), «*Menga nomehribon yor...*», «*Rahm etib, ey do'stlar...*», «*Mening firoqim-u...*», «*Kimki bir ko'ngli buzug'ning...*», «*Sarig' og'rig' bo'ldum...*», «*Oqara boshladi bosh-u...*» va boshq.

8 baytli «Oilg'il» («*Qora ko'zum*») g'azali radifi sof turkiy so'z bo'lib, qofiyasi arabiy («*fan*», «*vatan*», «*rasan*», «*kafan*»), forsiy («*ko'hkan*», «*shikan*», «*anjuman*»), o'zbekcha («*tikan*») so'zlardan iborat. G'azalda «kuz kelib, xazon sipohi yurish boshlasa, ey bog'bon, bu bog' tomida ignadan tikan qilib qo'ysang ham, unga monelik qilolmaysan» deya umrning o'tkinchiligiga, vaqt g'animatligiga zimdan ishora qilingan. G'azalning boshidan oxirigacha har baytda kutilmagan timsol, ifoda va tasvir qo'llangan.

7 baytli «Bo'ldum sang» («*Ko'rgali husnungni...*») g'azali *ramali musammani mahzuf* (*foilotun-foilotun-foilotun-foilun*) vaznida yozilgan bo'lib, unda Xizr suvi (u abadiy yashashga, ya'ni Yaratgan vasliga yetishga ishora) tilga olingan va talmeh san'ati namunasi yaratilgan.

«Devin» radifli 7 baytli g'azalda «deyin» so'zi badiiy maqsad uchun 20 marta takrorlangan (radifda 8 marta, misralarda 12 marta), u radd ul-matla' san'ati asosiga qurilgan.

Shoirning «Kelmadi» radifli g'azali *ramali musammani mahzuf* (*foilotun-foilotun-foilotun-foilun*) vaznida yozilgan bo'lib, unda qat'iy bir qoidaga amal qilinganki, har bir baytda tazod san'atiga kamida bir marta duch kelamiz. Bu badiiy san'at

turi g'azalda asosiy ifoda va tasvir vositasiga aylangan. G'azal «Munojot» kuyi bilan aytiladi.

«**Jong'a chun dermen...**» g'azali Navoiyning "Favoyid ul-kibar" devoniga kirgan bo'lib (597-g'azal), unda she'riyatdagi savol-javob usulidan unumli foydalanilgan. G'azal *ramali musammani maqsur* (foilotun-foilotun-foilotun-foilon) vaznida yozilgan. Bunda lirik qahramon so'roqni jondan boshlaydi, keyin **jism, bag'ir, ko'ngil** va **ko'zga** savol bilan murojaat qiladi. Umuman olganda, g'azalda *jon aybni jismga, jism bag'irga, bag'ir ko'ngilga, ko'ngil esa ko'zga yuklaydi*. G'azal maqta'sida lirik qahramon ishqda yonish uning azaliy qismati ekanini tan oladi. G'azalning ikkinchi baytida lirik qahramon **jismga** murojaat qilib, undan «*Bu vaz'ingga ne erdi sabab?*» deb so'raganda, jism «*Bunga o'tlik bag'irning hirqati sabab bo'ldi*» deb javob bergan.

7 baytli «**Fano fariqida har kimki hosil etti rusux**» g'azali tasavvufiy xarakterda bo'lib, "Navodir ush-shabob" devonining 107-g'azalidir. G'azalda ikki toifa din ahli – *ahli fano* va *riyovu zuhd ahli* bir-biriga qarama-qarshi qo'yilgan, haqiqiy shayx bilan soxta shayxlar bir-biriga zid qo'yilib, *riyokor, tamagir* shayxlar qoralangan, shoir ommani soxta, riyokor, tamagir shayxlar ketidan ko'r-ko'rona ergashib ketavermaslikka chaqirgan. Bunda **fano ahli** tasavvuf vakillari bo'lib, **riyovu zuhd ahli** zohidlik darajasidan nariga o'tmagan, Allohga ishqning ta'mini totmagan, uni dildan his qilolmaydigan, soxta, yolg'onchi kishilardir.

6 baytli «**Yo'q**» radifli g'azali "G'aroyib us-sig'ar" devonidan joy olgan bo'lib (310-g'azal), u *ramali musammani maqsur* (foilotun-foilotun-foilotun-foilon) vaznida yozilgan. G'azalning matla'sida yordan ayri ko'ngil sultoni yo'q mamlakatga, joni yo'q jismga o'xshatiladi.

"Navodir ush-shabob" devonida keltirilgan 10 baytli «**Shayx**» radifli g'azal («*Meni ishqdin man'etar soda shayx*») dagi «**soda shayx**» «*soxta shayx*»dir. Shoir bu g'azali bilan asl tasavvufni soxta tasavvufdan himoya qiladi. «...*Dema soda shayx, aytkim, loda shayx*» misrasidagi «*loda*» so'zi «*ahmoq, aqlsiz, befahm, hayosiz*» kabi ma'nolarni bildiradi.

NAVOIY QIT'ALARI VA ULARGA XOS JIHATLAR

“Tengri xonin ochuq aqida qilib...”, “Debon bergan kishi erdur, va lekin...”, “Agar oqil ersang, uzgil jahon ahlidin ulfatkim...”, “Jahon ganjig‘a shoh erur ajdaho...” va boshq.

«Kamol kasbiga dalolat-u...» (*«Kamol et kasbkim,...»*) qit‘asi *«G‘aroyib us-sig‘ar»* devonidan o‘rin olgan (10-qit‘a). Bu qit‘ada Navoiy kishi o‘zini kamolga yetkazishni kasb qilib olishini g‘oya sifatida ilgari surgan. Bunda shoir kelajak avlodga – yoshlarga *«Kamol et kasbkim»* deb samimiy istak bildirgan. Qit‘ada dunyoga kelib, o‘zini rivojlantirmagan kishi xuddi hammomga kirib, chala yuvinib, nopok holda chiqqan odamga qiyoslangan.

«Falokatdin ovog‘iga kafsh bo‘lmaganda...» qit‘asi (*“Badoye‘ ul-vasat”, 41-qit‘a*)da har qanday kishi ahvolidan hikoyat qilishdan oldin orqa-oldiga, yon-atrofiga qarasin, qiyoslasin, keyin xulosa chiqarsin, degan oqilona o‘git yashiringan.

NAVOIY RUBOIYLARI

“Farzand ato qullig‘in chu odat qilg‘ay...”, “El qochsa birovdin, el yomoni bil oni...”, “Gardun gah manga jafou dunluq qildi...”, “Ahhob, yigitlikni g‘animat tutunguz...”, “Jondin seni ko‘p sevarmen, ey umri aziz...”, “G‘urbatda g‘arib shodxon bo‘lmas emish...”, “Ko‘z bila qoshing yaxshi, qabog‘ing yaxshi...”, “Eldin qochib, ulki, tutsa tog‘ ichra qaror...”, “Kim istasa saltanat, saxodur anga shart...”, “Kim ko‘rdi ekin jahonda oyo xushluq...”, “O‘lsam, yasamang munda mazorimni mening...” kabi ruboiylari va boshq.

NAVOIY TUYUQLARI

“Bormog‘in”, “O‘tkali ul sarvi gulrux soridin...”, “Butmagan”, “Yo qoshingdin necha bir o‘q ko‘z tutay...”, “Charx tortib xanjari hijron bu tun...”, “Ul pari ishqida bu devonani...”, “Naqsh tushmish ko‘zda ul yoshim mening...” kabi tajnisli tuyuqlari va boshq.

NAVOIY FARDLARI

“*“Bel-u og‘zidin, – dedilarkim, – degil afsonae...”*”,
“*“Yuqar yamonlig‘ angakim,...”*”, “*“Ulki, sanga eldin erur aybgo’...”*”, “*“Men – sinuq, ko‘nglum – sinuq...”*”, “*“Ulki, Haq borinda maqsud istagay...”*”, “*“Tama etma, ko‘p bo‘lsa...”*”, “*“Yetar chu rizqing,...”*”, “*“Muruvvat – borcha bermakdur,...”*”, “*“Takalluf erur tang‘a...”*”, “*“El ichra, ey hasud,...”*”, “*“Xoliq o‘lg‘on saxiydin elga bo‘ldi...”*” va boshq.

Navoiyning “Favoyid ul-kibar” devonida jami 86 ta fard mavjud.

MUXAMMASLARI: “*“Bo‘lmaq‘ay erdi jamoling...”*”, “*“Halqayi zulfungda ko‘nglum bo‘lg‘ali g‘am mahrami...”*” va boshq.

TARJI‘BANDLARI: «*Ketur soqiy, ul mayki, subhi alast...»* (“*Xarobot aro kirdim oshuftahol, May istarga ilgimda sing‘on safol*” misralari har bir band oxirida takrorlangan), “*Jahon qasrig‘adur su uzra bunyod...*” va boshq.

NAVOIYNING TARIXIY, ILMIY VA DIDAKTIK ASARLARI

Alisher Navoiy ko‘plab nasriy asarlar ham yaratgan. Uning tarix, din va tasavvufga oid «*Tarixi muluki Ajam*» («*Eron mamlakatlari tarixi*», 1488. U «*Muhokamat ul-lug‘atayn*»da «*Zubdat ut-tavorix*» («*Tarixlar qaymog‘i*») deb atalgan), tarixiy-biografik «*Tarixi anbiyo va hukamo*» («*Nabilar va hakimlar tarixi*», 1485-1488), «*Nasoyim ul-muhabbat min shamoyim ul-futuvvat*» («*Muhabbat shabadalari*», 1495–1496. U Jomiyning 1475–1475-yillarda yozilgan «*Nafohat ul-uns min hazorat ul-quds*» nomli kitobining erkin tarjimasini (Navoiy uni ayrim qisqartirish, qo‘shimcha va o‘zgartirishlar bilan o‘zbek tiliga tarjima qilgan) bo‘lib, unda 750 ta mutasavvuf shayx haqida ma‘lumot berilgan. Navoiyning ushbu asari butun islom olamidagi XV asr ikkinchi yarmigacha o‘tgan jamiki shayxlar haqida ma‘lumot beruvchi boy ilmiy-tarixiy manba hisoblanadi), «*Vaqfiya*» (1481–1482. Bu asarda Navoiy

quyidagi fikrlarni yozgan: «*Ilgimdan kelganicha zulm tig'in ushotib (sindirib), mazlum jarohatig'a intiqom marhamini (qasos malhamini) qo'ydim. Va ilgimdin kelmaganni ul Hazrat (Husayn Boyqaro) arzig'a yetkuzdim*»¹⁴⁰), ilmiy-memuar yo'nalishdagi «*Xamsat ul-mutahayyirin*» («Besh hayrat», 1492-1494. Asar Jomiya bag'ishlangan. Navoiy Jomiyini «Nuran maxdum» deb e'zozlagan), «*Holoti Said Hasan Ardasher*» (1490, u haqda Navoiy «*Bu faqir turk va sart orasida ondin tamomroq (mukammalroq) kishini ko'rmaydurmen*», deya e'tirof etgan. Bu asarda tasvirlanishicha, Sayyid Hasan Ardasher xos ma'naviy suhbatlar chog'ida bodaxo'rlik qilishni xush ko'rganlar. Lekin har gal ichkilikbozlikdan keyin Yaratganga iltijo qilib, mayxo'rlikdan tavba berishni so'ragan ekanlar), «*Holoti Pahlavon Muhammad*» (1496, Navoiy uni «shams-ul millat» deb atagan), falsafiy-axloqiy «*Mahbub ul-qulub*» («Ko'ngillarning sevgani», 1500), til, adabiyot va turli ilmlarga bag'ishlangan «*Majolis un-nafois*» (1491–1493), «*Mezon ul-avzon*» («Vaznlar o'lchovi», 1492. Unda aruz vazning mohiyati, tuzilishi, bu vaznning turlari, juzv va ruknlari, bahrlari haqida, *tuyuq. qo'shiq, chinga* (yor-yor), *muhabbatnoma, aruzvoriy, turkiy* singari she'riy shakl va janrlar haqida ma'lumotlar berilgan), «*Muhokamat ul-lug'atayn*» («Ikki til muhokamasi», 1498–1499. Bu asarda turk va fors tillari qiyoslab yozilgan. Unda Navoiy «*Mundin so'ngra uch nav' tildurkim, asl va mo'tabardur... Ammo turkiy va forsiy va hindiy asl tillarning mansha'idurki, Nuh payg'ambar...ning uch o'g'lig'akim, Yofas (Abu-t-turk) va Som va Homdur, yetishur*» deb yozgan), «*Munshaot*» (1499, 88 ta xat jamlangan. Navoiy bu asarda may ichmaslikning foydasi haqida so'z yuritib, Muhammad payg'ambarning **chog'irni** “*umm ul-xabois*” (“yaramasliklar onasi”) degan gaplarini ta'kidlab o'tganlar), «*Mufradot*» («Risolayi muammo», 1491-yilda fors-tojik tilida yozilgan) asarlari shular jumlasidandir.

Navoiy «*Muhokamat ul-lug'atayn*» asari bilan o'zbek (turk) tilining buyuk bilimdoni va homiysi bo'lib maydonga chiqdi.

¹⁴⁰ Q.Yo'ldoshev, B.Qosimov, V.Qodirov, J.Yo'ldoshekov. Adabiyot (Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 7-sinfi uchun darslik-majmua). – T.: Sharq, 2013. – 164-bet.

Bu tilning boshqa tillardan mutlaqo qolishmasligini amalda isbot qilib bergan shoir mazkur asarida bu muhim xulosasini ilmiy-nazariy jihatdan asoslab ko'rsatgan.

Navoiy o'z ijodiy faoliyati davomida «*Sab'at abhur*» («Yeti dengiz», lug'atshunoslikka oid, arab tilining izohli lug'ati), «*Siroj ul-muslimin*» («Musulmonlik chirog'i», 1488), «*Nazm ul-javohir*» («*Gavharlar tizmasi*», 1485. U «*Nasr ul-laoliy*» («*Marvarid hikmatlar*») asarining she'riy tarjimai bo'lib, 270 ruboiydan tashkil topgan), «*Chihil hadis*» («Arba'in» («Qirq hadis») hadislar asosidagi 40 ruboiyni o'z ichiga olgan), «*Munojot*» («*Tavba-tazarru*»), «*Tuhfat ul-afkor*» (qasida), «*Ayn ul-hayot*» (qasida), «*Fusuli arba'*» («To'rt fasl», qasidalar to'plami), «*Sittayi zaruriya*» («Olti zaruriyat», qasidalar to'plami), «*Risolayi tir andoxtan*» (o'q otish haqida) va boshqa shu kabi asarlarni ham yozgan.

NAVOIYNING BA'ZI ASARLARI HAQIDA MA'LUMOTLAR

«MAJOLIS UN-NAFOIS» tazkisasi haqida

«*Majolis un-nafois*» («*Nafis majlislar*») asari 1490-yillarda yozilgan, 1498-yilda Navoiy tomonidan qayta ko'zdan kechirilib, to'ldirilgan. Unda jami 459 ta shoir haqida ma'lumot berilgan. Shulardan 39 tasi turkig'oy bo'lib, ular orasida «zullisonayn»lari ham bo'lgan.

«*Majolis un-nafois*» turkiy tildagi ilk taskiradir. Asar 8-qism (majlis)dan iborat bo'lib, unda muallifning salafari, zamondosh shoirlar, Xuroson, Samarqand, Xorazm, Qarshi, Badaxshon va qo'shni mamlakatlardagi shoirlar haqida ma'lumotlar berilgan. Tazkiraning 7-majlisi temuriylarga mansub shoirlarga, 8-majlisi esa Husayn Boyqaroga bag'ishlangan.

«*Majolis un-nafois*» XVI asrdayoq 3 marta fors tiliga tarjima qilingan. Uning bir necha nusxalari Vena, Parij, Boku, Tohskent va boshqa joylarda saqlanmoqda.

«MAHBUB UL-QULUB» asari haqida

Bu asar¹⁴¹ buyuk mutafakkirning yaxshilik va yomonlik haqidagi qarashlarini o'zida ifodalagan bo'lib, 1500-yilda yozilgan. U dunyoning achchiq-chuchugini ko'rgan, goho «komronlig'», goho «notavonlig'» topgan buyuk shoir Navoiyning 60 yillik hayotiga yakun bo'lgan asardir.

«*Mahbub ul-qulub*» (“*Ko'ngillarning sevgani*”) asari uch qismga bo'lingan:

I qism har xil odamlarning fe'l-atvori va ahvoli haqida.

II qism yaxshi fe'l xosiyati va yomon xislat kasofati haqida.

III qism turli foydali kuzatishlar va misollar haqida.

Navoiy ushbu asarning kirish qismida quyidagi fikrlarni bayon etgan:

«Bu xoksor va parishonro'zg'or kamina bolalikdan to qarilikka qadar ko'hna davron voqealaridan, aylanuvchi osmon hodisalaridan, fitna qo'zg'ovchi dunyo buqalamunligidan – tovlamachiligidan, zamonaning rang singari gunogunligidan ko'p vaqt va uzoq muddat har xil xayol va taraddudlar bilan daydib yurdim; har tovor va ravishda bo'ldim va turli yo'llarga kirdim, yaxshi-yomonning xizmatini qildim; katta-kichikning suhbatida bo'ldim; goh xorlik va qiyinchilik vayronasida nola qildim; goho izzat va ma'murlik bo'stonida majlis qurdim.

Masnaviy:

Gahi topdim falakdin notavonlig'.

Gahi ko'rdim zamondin komronlig'.

Base issig', sovug' ko'rdim zamonda,

Base achchig', chuchuk totdim jahonda».

Navoiy bu asarida **saxovatsiz odamni** yog'insiz bahor bulutiga, **yolg'onchilarni** kumushga oltin qoplab sotuvchi zargarlarga o'xshatgan.

Quyidagi ibratli fikrlar ham “Mahbub ul-qulub” asarida keltirilgan:

“Isrof qilish – saxiylik emas”.

¹⁴¹ *Qarang:* S.Ahmedov va boshq. Adabiyot (Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 6-sinfi uchun darslik-majmua). II qism. – T.: Ma'naviyat, Cho'lpon nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2013. – 32-48-betlar.

“Maqtanish uchun mol bermoq – o‘zini ko‘z-ko‘z qilmoq va shunday qilib o‘zini “saxiy” demoq – behayolik bilan nom chiqarmoq”.

“Zarur vaqtida berilgan eski chopon va bo‘z to‘n – saxovat; bemahal hadya qilingan zarbof chopon – yaramaslikdir”.

“Safar – ayriliqqa uchraganlarni maqsadiga yetkazuvchi va mahrumlarni murod uyiga olib kiruvchidir... Issiq-sovuqda jonga orom beruvchi ham u; achchiq-chuchukdan ko‘ngilni ogohlantiruvchi ham u”.

NAVOIY SHE‘RLARIDAN PARCHALAR:

Kimki, bir ko‘ngli buzug‘ning xotirin shod aylagay,

Oncha borkim, Ka‘ba vayron bo‘lsa, obod aylagay.

(Bu g‘azal matla‘si shohbayt bo‘lib, unda tazod aks etgan.

Bunda siniq ko‘ngil vayron bo‘lgan Ka‘baga qiyoslangan)

Azal ham sen, abad ham sen, na avval birla oxirkim,

Unda yo‘q ibtido paydo, bunda yo‘q intiho paydo.

* * *

Yuzing visolig‘a yetsun desang ko‘ngullarni,

Sochingni boshtin-ayoq chin ila shikan qilg‘il.

(Mazkur baytda «soch» so‘zi vositasida Allohning sirlariga yetishishga ishora qilingan)

Riyo bahri ichra tama‘ zavraqin

Solibtur asodin tutub xoda shayx.

(Bayt mazmuni: Riyo dengiziga tama qayig‘ini solib, hassasini uni haydash uchun eshkak qilib olgan)

Ne navo so‘z aylagay bulbul gulistondin judo,

Aylamas to‘ti takallum shakkaristondin judo.

* * *

O‘z vujuding‘a tafakkur aylagil,

Har ne istarsen – o‘zungdin istagil.

(“Lison ut-tayr” asaridan)

NAZARIY MA‘LUMOT

Hikmatli so‘zlar haqida

Chuqur va o‘tkir mazmunga ega bo‘lgan, aniq, qisqa va lo‘nda bayon etiladigan ibora, bayt yoki jumla **hikmatli so‘z** (aforizm) deyiladi.

Aforizmlar (yun. «hikmatli so‘z») aniq va ixcham ifodalaniib, tugal fikrni anglatuvchi, muallifi aniq hikmatli so‘zlardir. Ular xalq maqollaridan muallifi aniqligi bilan furqlanadi, shakl jihatidan mukammal holga kelib, ko‘pchilik tomonidan keng qo‘llanila boshlagach, maqolga aylaniib ketadi.

Hikmatli so‘zlar o‘zicha mustaqil bo‘lib, asosan, tarbiyaviy yo‘sindagi pand-nasihah, o‘git va tanbeh shaklida ifodalaniadi.

Hikmatli so‘zlar badiiy asarlarda qo‘llanganda badiiylikni oshiradi, xalq orasida bu asarlarning ommalashishiga ko‘mak beradi.

Misollar: «Ko‘p degan ko‘p yengilur, ko‘p yegan ko‘p yiqilur», «Tilga ixtiyorsiz – elga e‘tiborsiz», «Har kimki so‘zi yolg‘on, yolg‘ono zohir bo‘lg‘on», «Vafosizda hayo yo‘q, hayosizda vafo yo‘q», «Chin so‘z mo‘tabar, yaxshi so‘z muxtasar», «Oz-oz o‘rganib dono bo‘lur», «Bilmaganni so‘rab o‘rgangan olim va orlanib so‘ramagan o‘ziga zolim». (A.Navoiy, «Mahbub ul-qulub»dan)





26-MAVZU.

«XAMSA»CHILIK TARIXIDAN

«Xamsa» (ar.«*beshlik*») besh mustaqil dostonidan iborat bo'lib, har bir doston ma'lum bir voqeani, mavzuni keng va atroflicha masnaviy yo'li bilan yoritib beradi. Har bir asar «Xamsa» bo'lishi uchun:

- a) besh dostonidan tashkil topishi;
- b) birinchi doston pand-nasihath ruhidagi ta'limiy, falsafiy bo'lishi;
- d) ikkinchi doston Xusrav va Shirin mojarolariga bag'ishlanishi;
- e) uchinchi doston Layli va Majnun muhabbatini mavzu qilib olishi;
- f) to'rtinchi doston Bahrom haqida bo'lishi;
- g) beshinchi doston Iskandar haqida yozilishi shart edi.

Sharq adabiyotida *Nizomiy Ganjaviy*, *Xusrav Dehlaviy*, *Abdurahmon Jomiy* va *Alisher Navoiylar* «Xamsa» yaratishgan.

NIZOMIY GANJAVIY

(1141–1143-yillar orasida tug'ilgan, vafoti 1209-yil)



Abu Muhammad Ilyos binni Yusuf Nizomiy hozirgi Ozarbayjonning Ganja shahrida tug'ilgan. Uning hayoti haqida juda kam ma'lumot qolgan. Nizomiy fors, arab, yunon, qadimgi pahlaviy, sanskrit va boshqa ko'p tillarni o'rgangan, falsafa, mantiq, ilohiyot, adabiyotshunoslik, kimyo, astronomiya, matematika singari fanlarni puxta bilgan. Nizomiy Ofoq nomli xotinidan tug'ilgan o'g'li Muhammadni

ilm-ma'rifatli qilib tarbiyalagan, dostonlarida o'z o'g'liga nasihatlar qilgan.

Nizomiy Ganjaviy Sharq adabiyotida «Xamsa» yozishni boshlab bergan. U yozma adabiyotda birinchi bo'lib *Mehinbonu* va *Farhod* obrazlarini yaratgan. Nizomiy asarlari boshqa shoirlar ijodiga ta'sir qilgan. Barcha shoirlar Nizomiyni ustoz deb bilishgan.

Xusrav Dehlaviy, *Abdurahmon Jomiy*, *Alisher Navoiy* kabi shoirlar «Xamsa»chilik an'anasini davom ettirganlar.

Qutb «*Xusrav va Shirin*» dostonini (1342-yilda), Ogahiy «*Haft paykar*» asarini, Haydar Xorazmiy «*Maxzan ul-asror*» asarini tarjima qilgan va hok.

NIZOMIYNING «XAMSA»SI

Nizomiy Ganjaviyning dastlab «Panj ganj» («Besh xazina») deb nomlangan «Xamsa»si 1173–1201-yillar orasida (28 yil davomida) yozilgan. Unda quyidagi dostonlar bor:

1. «*Maxzan ul-asror*» («Sirlar xazinasi»), bu hamdnoma 1173–1179-yillarda Arzinjon hokimi Faxriddin Bahromshohga bag'ishlab yozilgan).

2. «*Xusrav va Shirin*» (1180–1181, bu doston Iroq hukmdori To'g'ul II ning iltimosiga ko'ra yozilgan bo'lib, unda muhabbat va qahramonlik ifodalangan).

3. «*Layli va Majnun*» (1188, unga 118 ta nazira bitilgan. Bu asar Shirvonshohlardan Axsatan I buyrug'iga ko'ra yozilgan).

4. «*Haft paykar*» (1196, «Yetti go'zal». Bu asar Alovuddin Ko'rpa Arslonning topshirig'i bilan yuzaga kelgan. «Haft paykar» Bahrom va Fitna sarguzashtlariga bag'ishlangan asar bo'lib, doston voqealariga bog'lanmaydigan besh hikoya berilgan. Nizomiyning bu dostonidagi daraxt shoxiga osib qo'yilgan it hikoyasida Bahromshoh xiyonatkorlikdan, adolatsizlik kuchayayotganidan ogohlantiriladi. Asar so'ngida Bahrom ov izidan g'orga kirib ketib qaytib chiqmaydi).

5. «*Iskandarnoma*» (1196–1201, bu doston 2 qismdan iborat: a) «*Sharafnoma*» b) «*Iqbolnoma*»).

XUSRAV DEHLAVIY (1253 – 1325)



Yamuniddin Abulhasan Amir Xusrav ibni Amir Sayfuddin Mahmud Dehlaviy 1253-yilda Hindistonning Patyoli degan shaharchasida dunyoga keladi. Uning otasi asli Shahrisabzlik bo'lib, avlodi turkiy elatlarning lochin urug'idan bo'lgan. Ammo u mo'g'ullar hujumining dastlabki yillaridayoq tarki vatan etib, Dehli hukmroni Shamsiddin Eltutmish saroyiga xizmatga kiradi va 1261-yilda mo'g'ullarga qarshi jangda halok bo'ladi.

Xusrav Dehlaviy bobosi Imodulmulk qo'lida tarbiyalanadi, Qozi Sa'duddin Muhammad ta'limini oladi. 20 yoshida Xusrav iste'dodli shoir, qomusiy bilim sohibi olim, sozanda va bastakor bo'lib yetishadi. U umri davomida 7 hukmdorning dargohida xizmat qilib, umrining oxirgi 30 yilini Dehlida o'tkazadi. Ulug' shoir 1325-yili Dehlida vafot etgan.

Xusrav Dehlaviyning she'rlari 5 ta devonga jamlangan bo'lib, u 400 000 dan ortiq bayt ijod qilgan. Abdurahmon Jomiyning ta'kidlashicha, Xusrav Dehlaviy 99 ta kitob muallifidir. Dehlaviy Nizomiy «Xamsa»siga hammadan yaxshiroq javob aytgan, «Xamsa»chilikka asos solgan shoirdir.

DEHLAVIYNING «XAMSA»SI

Xusrav Dehlaviyning «Xamsa»si (1299–1301) tarkibida quyidagi 5 doston mavjud:

1. «*Matla' ul-anvor*» («Nurlarning boshlanmasi»).
2. «*Shirin va Xusrav*».
3. «*Majnun va Layli*».
4. «*Hasht behisht*» («Sakkiz jannat», uni Ogahiy tarjima qilgan. Xusrav Dehlaviy «Hasht behisht» dostonining Nizomiy «Haft paykar»idan farqlari shundaki, unda kanizakning nomi Dilrom deb o'zgartirilgan, yetti hikoya hind eposidan olingan.
5. «*Oyinayi Iskandariy*» («Iskandar oynasi»).

BOSHQA ASARLARI: «*Tuhfat us-sig'ar*» («Yoshlik tuhfasini»), «*Vasat ul-hayot*» («Hayot o'rtasi»), «*G'urrat ul-kamol*» («Kamolot ibtidosi»), «*Baqiyayi naqiya*» («Saralarning tansisi»), «*Nihoyat ul-kamol*» («Kamolot cho'qqisi»), «*Qiron us-sa'dayn*» («Ikki saodatli sayyoraning qo'shilishi»), «*Miftoh ul-futuh*» («G'alabalar kaliti»), «*Xazoyin ul-futuh*» («G'alabalar xazinalari»), «*Duvalroniy va Xizrxon*», «*Nuh ul-pehr*» («To'qqiz qavat osmon»), «*Tug'uluqnom*», «*Tarixi Dehli*», «*E'jozi Xusraviy*» («Xusrav mo'jizasi») va boshq.

ABDURAHMON JOMIY (1414 – 1492)



Ulug' fors-tojik shoiri va mutafakkiri **Abdurahmon Jomiy** 1414-yil 7-noyabrda Xurosonning Jom shahrida shayxulislom – Nizomiddin Ahmad oilasida tug'ilgan. Jomiy go'dakligida uning oilasi Hirotda ko'chib boradi. Shoir dastlab maktabda, keyin Hirotdagi Dilkash va Samarqanddagi Ulug'bek madrasalarida ta'lim oladi. Mavlono Junayd qo'lida, keyinroq Shahobiddin Muhammad Jojarmiy va Aloididdin Ali Samarqandiylardan ta'lim olgan.

Abdurahmon Jomiy Samarqandga kelib Qozizoda Rumiy darslariga qatnashgan. U til, adabiyot, falsafa, matematika, astronomiya, huquq va boshqa fanlar bilan shug'ullangan. Din va tasavvufni sinchkovlik bilan o'rgangan.

Jomiy Shayx Sa'diddin Koshg'ariydan tasavvuf bo'yicha ta'lim olgan.

Ulug' shoir 1492-yil 8-noyabrda Hirotda vafot etgan.

A. Jomiy Navoiyning «*Farhod va Shirin*» dostonining muqaddimasida filga qiyoslab madh etilgan, Husayn Boyqaroning «*Risola*» asarida «*jumlaning a'lami (olimi) va afzali, fazoil (fazilatlar) daryosining duri poki*» deb ta'riflangan. «*G'azallari sho'rangiz (olamga g'avg'o soluvchi, ya'ni kishida kuchli his va hayajon uyg'otuvchi), baytlari lutfomuz (lutfga boy)*» ekanligi uqtirilgan.

JOMIYNING «XAMSA»SI

Dastlab «Xamsa» deb nomlangan Jomiyning ushbu asari keyinchalik «*Haft avrang*» («Yetti taxt») deb nomlangan. Unga quyidagi asarlar kiritilgan:

1. «*Silsilat uz-zahab*» («Oltin zanjir», 1472).
2. «*Salomon va Absol*» (1480–1481).
3. «*Tuhfat ul-ahror*» («Hur kishilarning tuhfası» (1481–1482), Jomiy «Xamsa»sining 1-dostoni).
4. «*Sabhat ul-abror*» («Yaxshi kishilarning tasbihi», 1482–1483).
5. «*Layli va Majnun*» (1483).
6. «*Yusuf va Zulayho*» (1483).
7. «*Xiradnomayi Iskandariy*» (1485).

BOSHQA ASARLARI: «*Bahoriston*» (o'g'li Ziyovuddin Yusuf uchun yozgan), «*Aruz haqida risola*», «*Arab tili darsligi*», «*Ruboiy sharhi*», «*Munshaot*», «*Qofiya haqida risola*», «*Naqshi fusus*» («Javohirlar naqshi»), «*Lujjat ul-asror*» (qasida), «*Nafohat ul-uns*» («Do'stlik tarovati») va boshq.

NAVOIYNING «XAMSA»SI

Navoiy «Xamsa»si XV asrdagi xalqimiz ma'naviy taraqqiyotining ko'zguşidir. Asarda o'sha davr ijtimoiy turmushi, xalq hayoti, urf-odatları, din-diyonat, axloq-odob haqidagi qarashlar o'z aksini topgan.

Zayniddin Vosifiyning «Badoye' ul-vaqoye'» asarida yozilishicha, Navoiy o'z «Xamsa»sini tugatib, Husayn Boyqaroga taqdim etganda, shoh undan qattiq hayajonga tushgan. Husayn Boyqaro shoirni oq otiga mindirgan va unga jilovdorlik qilgan. Bu voqeadan ta'sirlangan Navoiy hushidan ketgan ekan.

Navoiyning sevib o'qigan shoirlari *Nizomiy Ganjaviy* va *Xusrav Dehlaviy* edi. Navoiy bu ustozları haqida o'zining «Xamsa»sida shunday yozadi:

**Kichik erkonimdin bo'lib qoshima,
Ulug' muddao soldingiz boshima.**

Navoiyning quyidagi misralar bilan boshlanuvchi o'giti Badiuzzamonga qaratilgan:

**Shohki ish adl ila bunyod etar,
Adl buzuq mulkni obod etar.**

**Oz ish uchun tund itob aylama,
Qatl-u siyosatda shitob aylama.**

Jami 51 230 misradan iborat bo'lgan Navoiyning «Xamsa»si 1483–1485-yillarda yozilgan bo'lib, 5 dostonidan iborat. Ular quyidagilar:

«HAYRAT UL-ABROR» dostoni haqida

1483-yilda yozilgan, axloqiy-ta'limiy, falsafiy doston bo'lgan «**Hayrat ul-abror**» («Yaxshi kishilarning hayratlanishi») asari 7976 misra (3988 bayt) bo'lib, 63 bobdan iborat¹⁴².

Bundan 21 bobi muqaddima, 20 bobi maqolat va 20 bobi hikoyat va masallar, so'nggi 2 bobi esa asar xotimasidir.

Navoiyning ushbu dostoni falsafiy-ta'limiy doston bo'lganligi uchun mavzu biror voqeani hikoya qilish asosida emas, balki muallif fikr-mulohazalarining bayoni tarzida yoritilgan.

«Hayrat ul-abror» asarida shoir o'z fikrlarini ta'sirchan ifodalashda **tazod, tashbeh, tanosub, irsoli masal** kabi she'riy san'atlardan unumli foydalangan.

Asar aruzning **sariyi musaddasi matviyi makshuf** vazni (muftailun-muftailun-foilun (- V V - - V V - - V -))da yozilgan bo'lib, an'anaviy muqaddima – «hamd va na't» bilan boshlanadi. Dastlabki ikki bob ustozlar ta'rifiga bag'ishlangan. Quyidagi misralarda **Jomiy** ta'riflangan:

¹⁴² Qarang: Q.Yo'ldoshev va boshq. Adabiyot (Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 9-sinfi uchun darslik-majmua). – T.: Yangiyo'l Poligraph service, 2006. – 62-bet; A. Navoiy. Hayrat ul-abror. – T.: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2006.

Ulki bukun qutbi tariqatdur ul,
Koshifi asrori haqiqatdur ul.

Ko'ksi haqoyiq duri ganjinasi,
Ko'ngli maoniy yuzi oyinasi.

Keyingi ikki bob so'z va uning ma'nolari haqida («*Mahbub ul-qulub*», «*Shayboniyнома*» asarlarida ham so'z ta'rifi berilgan). So'ng *Husayn Boyqaroga*, ulug' pirlari *Bahovuddin Naqshband*, *Xoja Ahrorga bag'ishlovlar* keladi. Nihoyat, 22-bobdan maqolatlar boshlanadi. Asardagi har bir maqolat ma'lum bir mavzuga bag'ishlangan bo'lib, ularga mutanosib birorta hikoyat ham keltirilgan:

1-maqolat *iymon* haqida (unda Navoiy «iymon insonni hayvondan ajratib turadigan asosiy mezon» deydi va shunday yozadi: «*Kimki jahon ahlida inson erur, Bilki nishoni anga iymon erur*»).

2-maqolat *islom* haqida.

3-maqolat «Salotin bobida» («*Sultonlar haqida*»). Bu maqolatda shoirning adolat haqidagi qarashlari bayon etilgan bo'lib, «Shoh G'oziy» hikoyati ham keltirilgan. «*Bo'ldi raiyat galav-u sen shubon, Ul shajari musmir-u sen bog'bon. Qo'yni shubon asramasa oy-u yil, Och bo'rilar tu'masidur bori bil*» kabi misralar ham shu maqolatda keltirilgan, unda sultonlar haqida fikr yuritilgan.

4-maqolat riyokor shayxlar xususida.

5-maqolat xayr-u ehson (karam) haqida (unda «Xotami Toyi» hikoyati keltirilgan. *Yoyar anga supraki, ul och emas, Berur anga to'nki, yalong'och emas* – misralari ham mana shu maqolatdan olingan).

6-maqolat adablilik (odob va kamtarlik) haqida (unda «*No'shiravon hayo bog'ida*» hikoyati keltirilgan).

7-maqolat qanoat haqida (unda «Qanoat qiluvchi juvonmard bilan tamagir» hikoyati bor).

8-maqolat vafo haqida (unda «*Ikki vafoli yor*» hikoyati keltirilgan bo'lib, voqealar Hindistonda bo'ladi).

9-maqolat ishq o'ti haqida.

10-maqolat rostgo'ylik va to'g'rilik haqida. Unda «*Sher bilan Durroj*» masali keltirilgan bo'lib, yolg'onchilik illati

qoralangan. Navoiy «*Soʻzda, Navoiy, ne desang, chin degil, Rost navo nagʻmaga tahsin degil*» deydi. Bunda shoir *xalq qoʻli egri odamlarning qoʻlini kesib "toʻgʻrilaydi"*, degan fikrni ham aytib oʻtgan.

11-maqolat ilm osmonining yulduzlardek baland martabaliligi haqida.

12-maqolat qalam va qalam ahllari haqida.

13-maqolat bulutdek foyda keltiruvchi odamlar haqida («*Odamiy ersang demagil odamiy, Oniki, yoʻq xalq gʻamidin gʻami*») hikmatli gapi shu maqolatda uchraydi).

14-maqolat osmon tuzilishidan shikoyat.

15-maqolat jaholat mayining quyqasini ichadiganlar haqida.

16-maqolat xunasasifat oliftalar haqida.

17-maqolat bahor yigitligining sofligi haqida.

18-maqolat falak gʻamxonasi haqida.

19-maqolat Xurosonning misli yoʻq viloyati bayoni haqida (unda Xuroson va Hirot vasf etilgan).

20-maqolat maqsadning oʻtalgani haqida.

Shuni taʼkidlash kerakki, asardagi hikoya va masallarning bosh qahramonlari *tarixiy shaxslar, mashhur din va davlat arboblari*dir. Navoiy «Hayrat ul-abror» dostonining XIV–XV boblarida badiiy ijod, badiiy soʻzning qudrati va insonga taʼsiri haqidagi mavzularni ham keng yoritgan.

Nizomiy Ganjaviyning «Maxzan ul-asror»iga 40 dan ortiq nazira bitilgan. Shundan 3 tasigina chigʻatoy tilida boʻlib, shulardan biri «*Hayrat ul-abror*» boʻldi.

ASARDAN PARCHALAR:

Soʻz guharigʻa erur oncha sharaf
Kim, boʻla olmas anga gavhar sadaf.

Toʻrt sadaf gavharining durji ul,
Yetti falak axtarining burji ul. («*Soʻz taʼrifida*»)

* * *

Solik ani «arshi muallo» dedi,
Sufiy ani «olami kubro» dedi...

Kim bu haloyiqqa erur sajdagoh,
Ul biri xoliqqa erur jilvagoh. («Ko'ngil ta'rifida»)

* * *

Siyam kuchidan bo'lubon siymbar,
Xalq laqab aylab anga «Zoli zar»
(«Shoh G'oziy» hikoyatidan)

* * *

«Har qanday yaxshi sozanda qancha yaxshi chalsa-yu, so'zsiz (ashula aytmasdan) uzoq chalsa, undan aql ahllariga malol yetadi. Agar sozanda mashq orasida Navoiyning olov sochuvchi g'azallaridan birontasini o'qisa, u vaqt bazmda shovqin-suron qo'zg'aladi, eshituvchilar o'z yoqalarini yirtadilar, oh-u voy bilan o'zlarini yo'qotib qo'yadilar.»

* * *

Kimki o'zi ayladi yolg'on so'zin,
Kizb, der el, chin desa, qolg'on so'zin.
(Ma'nosi: Kimki o'zini yolg'onchi sifatida tanitgan bo'lsa, rost gapirsa ham, xalq uning hamma gapini yolg'on hisoblaydi.)

* * *

Kulgu bila qildi ishorat menga,
“Tuhfa” bilan berdi bashorat menga.
(Ushbu parchada Jomiy “Xamsa”sining birinchi kitobi haqida so'z borgan)

«FARHOD VA SHIRIN» dostoni haqida

«Farhod va Shirin» asari 1484-yilda yozilgan bo'lib, 54 bob, 5782 baytdan iborat.

U *hazaji musaddasi mahzuf* (mafoiylun–mafoiylun–faulun (V --- V --- V ---)) vaznida yozilgan.

Navoiy bu dostonni «*Mehnatnoma*» va «*shavq dostoni*» deb ham atagan.

Asar ilgari «Xusrav va Shirin» shaklida mashhur bo'lgan. Milodiy 590-yilda taxtga chiqib, 628-yilda o'ldirilgan Eron shohi Xusrav Parvezning go'zal Shiringa bo'lgan muhabbati ko'pgina

tarixiy asarlarda qayd etilgan. Tarixchi *Tabariy* (923-yilda vafot etgan) fikricha, zamonasida undan go'zal ayol bo'lmagan¹⁴³.

Bu go'zal malika haqida rivoyat va afsonalar to'qilgan. Hatto, arab sayyohi Yoqut (1179–1229) Shirin muhabbati haqida Bisutun tog'ida Doro yozdirgan yozuvlarni o'z ko'zi bilan ko'rganini ma'lum qiladi. U haqda birinchi bo'lib yozma adabiyotda *Firdavsiy* doston yozib, «*Shohnoma*»siga kiritgan. Nizomiy esa uni ishqiy-sarguzasht doston holiga keltirgan¹⁴⁴.

Alisher Navoiy Farhodni bosh obraz qilib oldi va bu bilan doston qurilishini, uning mazmunini o'zgartirdi. Mazkur o'zgarish xamsachilikka shoir kiritgan eng katta yangilik hamda dostonga "Farhod va Shirin" nomining berilishiga asos bo'ldi.

«Farhod va Shirin» asarida yozgan asarlarini durga o'xshatgan Navoiy uni sindirganlarning qo'lini sindir, yaxshi qabul qilganlarga yaxshilik qil, deb tangridan so'rab: «*Ani sindurg'an elni qil shikasta, Xujasta ko'rgan elga tut xujasta*» – deya birinchi bobni tugatgan.

Dostonning ikki bobida payg'ambarimiz hazrati Muhammad alayhi-s-salomning ikki mashhur karomati – ko'rsatkich barmoq ishorati bilan oyni ikkiga bo'lganlari hamda me'roj, ya'ni Buroq otida Quddus shahriga qilgan tungi sayohatlaridan so'ng Jabroyil ko'magida yettinchi osmonga – Alloh huzuriga parvozlari talqin qilingan.

Navoiy ustozlari va piri – «*hazrati shayx ul-islomiy mavlono Nuriddin Abdurahmon Jomiy*» madhida uni shunday ta'riflaydi:

**Iki pil o'lsa Xusrav yo Nizomiy,
Erur yuz pil chog'lig' pil Jomiy.**

Asar muqaddimasidagi quyidagi baytlarda Navoiy «Xamsa» yozishda o'z yo'l-yo'yiqlarini bayon etgan:

**Ani nazm etki, tarhi toza bo'lg'ay,
Ulusqa mayl beandoza bo'lg'ay.**

¹⁴³ B. Qosimov va boshq. Adabiyot (10-sinf uchun darslik). – T.: O'qituvchi, 2004. – 205-bet.

¹⁴⁴ B. Qosimov, N. Jumaxo'ja. O'zbek adabiyoti (10-sinf uchun darslik). – T.: O'qituvchi, 2000. – 117-bet.

**Yo'q ersa nazm qilg'onni xaloyiq
Mukarrar aylamak sendin ne loyiq?**

«Farhod va Shirin» dostonidagi voqealar Chin va Armanistonda kechadi.

Asarning qisqacha mazmuni quyidagicha:

Doston Chin xoqonining farzandsizligi va bundan uning so'ngsiz iztiroblarga tushganligi tasviri bilan boshlangan. Alloh uning iltijolarini ijobat qilib, o'g'il ato etadi. Unga Farhod deb ism qo'yishadi.

Farhod – Chin xoqonining yakka farzandi. U boshqalarga o'xshamaydi: jisman g'oyat baquvvat, aqlli, nihoyatda ziyrak, axloqan benazir. Lekin juda g'amgin. Hamma hayron. Xoqon tashvishda. Ko'ngilochar tadbirlar yordam bermaydi. Yilning to'rt fasliga moslab to'rt qasr quradilar. Shu asnoda Farhod **Qorandan tosh yo'nish, Boniydan me'morlik, Moniydan naqqoshlikni** o'rganadi. Qasrlar bitgach, har faslga mos shohona bazmlar boshlanadi, biroq Farhodda o'zgarish bo'lmaydi. Xoqon o'z taxtini in'om etmoqchi bo'ladi. O'g'il yuksak odob va tavoze' hamda oqilona dalillar bilan rad etadi. Ota esa umrning o'tkinchiligini, uningdek farzandi bilan iftixor etishini, o'g'il otaning davomchisi ekanini o'rta qo'yib, ko'zi ochiqligida uni o'z taxtida ko'rishni iltijo qiladi. Xullas, o'g'il yana yutib chiqadi: taxtni oladi, lekin shoh bir-ikki yil inoyat qilsalar, yonlarida hozir bo'lib, davlat ishlarini o'rgansa...

Uzr qabul qilinadi. Saltanat ishlari bilan tanishtirish boshlanadi. Shahzoda xazinani tomosha qilar ekan, tilsimli sandiqqa duch keladi. Uni har qancha ko'zdan uzoqlashtirishga harakat qilmasinlar, foyda bermaydi. Farhod inson tafakkurining qudrati haqidagi «*Dedi: Har ishki qilmish odamizod. Tafakkur birla bilmish odamizod*», degan gaplarini shu munosabat bilan aytadi. Sandiqni ochadilar. Oyna chiqadi. Hech narsa ko'rinmaydi. Orqasida yozuv: «Bu – Iskandar oynasi. Uni to'rt yuz olim necha yil umrini sarflab, tilsim qilgan. Kim ochsa, kelajagidan voqif bo'ladi. Biroq sharti bor. Yunon mamlakatiga borib, uch xatarlik ofatni yengib, Suqrotga uchrashmog'i kerak».

Manzillardan birinchisida ajdahoni, ikkinchisida Ahraman devni, uchinchisida tilsimni yengish kerak bo'ladi. Farhod bularning hammasini bajarib, tilsimni ochishga muvaffaq bo'ladi va Jamshid jomini, Sulaymon uzugini, Iskandar boyligini qo'lga kiritadi. Suqrot bilan uchrashadi, Suqrot bashorat qiladi va jon beradi.

Farhod Yunonistondan qaytgach, oynada o'z taqdirini ko'radi. Arman diyoridagi Shirindan xabar topadi. Ishq mojarosi boshlanadi. Eron shohi Xusrav bilan to'qnashadi. Farhod Xusravga tanbeh ham beradi: «*Bu bo'lg'ay dard-u ishq o'yini, vah-vah! Vafo-u mehr sharti, ollah-ollah!*». Yana Xusravga qarata: «*...Begunohlarning qoni sening gardaningda, sipohingni o'z qo'ling bilan qirmoqchisan... bu tosh boshingdagi dubulg'angning uchini uchirajak, bu toshga nishon bayrog'ingning uchidagi oydir...*» – deydi.

Farhodni kuch bilan yengolmagach, Xusrav uni makr bilan qo'lga oladi. Bir makkor erkak behush qiluvchi dori sepilgan gulni hidlatib, Farhodni asir qiladi. Xusrav va Farhod o'rtasida suhbat-dialog bo'lib o'tadi. Farhodning javoblaridan jahli chiqqan Xusrav unga nisbatan «*bir necha kun dorda osig'liq tursin, xaloyiq uni toshbo'ron qilib o'tsin, keyin o'likni gulxanga tashlab kuydirsinlar-u, kulini ko'kka sovursinlar!*» – deya hukm chiqaradi va Farhodni qatl qilish uchun qo'rg'on oldida dor hozirlashni buyuradi. Shirindan voz kechishni talab qiladi. Farhod voz kechmaydi.

Xusrav uni Salosil qo'rg'oniga qamaydi. G'orda Farhod Suqrot o'rgatgan bir sehrli ismni aytib, bari bandlarni yechib, temir darvozalarni ham ochib, bermalol chiqib ketaveradi. Shirin Shopur vositasida Farhoddan xabar topadi. Farhod va Shirinning bir-birlariga sadoqatini ko'rgan Xusrav o'zining rad etilishini nomus deb biladi. Farhodni oradan ko'tarib, maqsadiga zo'rlik bilan erishmoqchi bo'ladi. Yana makr-hiyla ishga tushadi. Makkor kampir Farhodni topib, yolg'ondan unga Shirin vafot etganligini xabar qiladi. Sodda va to'g'ri Farhod boshini toshlarga urib, o'zini halok etadi.

Doston qahramonlari: *Farhod, Shirin* va *Mehinbonu* jon beradilar. Farhodning otasi bilan onasi ham o'g'illari firoqida

vafot etib ketadi. Chin mamlakatiga Farhodning amakisi podsho, Bahrom esa lashkarboshi bo'ladi. Bahrom lashkar tortib, Arman diyoriga keladi va Shopur bilan birga Farhodning qabrida mujovir (ya'ni turg'un yashab qoluvchi) bo'lib qoladi.

«Farhod va Shirin» dostonining 16-bobi Farhod uchun yil fasllariga moslangan to'rt qasr qurilishiga bag'ishlangan. Bu qasrlar ta'rifiga bag'ishlangan 17-bobi boshlanmasi Xorazmiy «Muhabbatnoma»si ta'sirida yaratilgan. Doston so'ngida shahzoda Abulfavoris Shohg'arib Bahodirga nasihat ham keltirilgan.

Farhod obrazi orqali shoir komil insonlik g'oyasini ilgari surgan va uni zamonasidagi barcha shahzodalarga o'rnatqilib ko'rsatgan.

Navoiy Farhod va Shirin obrazlari orqali xalqlar do'stligi g'oyasini ham ilgari surgan. Bu dostonda *vafodorlik* va *sadoqat* kabi insoniy fazilatlar ulug'langan.

“Farhod va Shirin” dostonidagi asosiy qahramonlar va ularga oid ma'lumotlar

1. Farhod. Dostonidagi «*Shabistonida tug'di bir yangi oy, Yangi oy yo'qki, mehri olamoroy*» misralaridagi «yangi oy» birikmasining istioraviy ma'nosi Farhodning tug'ilishini ifodalagan. Farhod tug'ilganidayoq «*Yuzinda ishq asrori yozilg'on, Ichinda dard ta'vizi qozilg'on*» edi. Bu obrazni Navoiy «*Dard elining shohi*», «*Dard o'ti ogohi*» deb ataydi, «*Demonkim, ko'ngli pok-u, ham ko'zi pok, Tili pok-u, so'zi pok-u, o'zi pok*» deya tasvirlaydi. Farhod ta'limning dastlabki 3 oyida butkul savod chiqaradi, 1 yilda **Qur'oni karimni** yod oladi. Uning Shiringa maktubi «...*Nigoro, mahvasho, iffatpanoho,...*» misralari bilan boshlanadi. Farhod o'z vasiyatini **bodi sabo** (tong shamoli)ga aytadi, uning o'limidan so'ng vahshiy hayvonlar uvvos ko'taradilar, alamdand o'zlarini tirnaydilar. Farhod mukammal yaratilgan komil inson obrazidir.

Quyidagi misralarda ham Farhod tasvirlangan:

Agar bir qatla ko'rdi har sabaqni,
Yana ochmoq yo'q erdi ul varaqni.

...Jahonda qolmadi ul yetmagan ilm,
Bilib tahqiqini kasb etmagan ilm.

Bo'lub o'n yoshda umrining mururi
Yigirma yoshcha qadd-u jism-u zo'ri.

Asiri dard ichi-yu toshi oning
Ki, to o'n to'rt bo'ldi yoshi oning.

2. Shirin. U 400 kanizi va Mehinbonu bilan *Gulgun* laqabli otida Farhod tomoshasiga borgan, uning Farhodga maktubi «... *Nedur ahvoling, ey zori g'aribim...*» misralari bilan boshlanadi. Dostondagi «*Mening jismimda to jondin ramakdur, Ishim qo'rg'onda o'zni asramakdur*» degan misralarni, «*Kunduzi quyosli yanglig' suhbatdoshing, tunlari soyadek izdoshing bo'lib, kaftingga adovat tikanlari kirgudek bo'lsa, kipriklarim ignasi bilan chiqarsam edi*» kabi fikrlarni ham Farhodga u yozgan.

Quyidagi misralarda ham **Shirin** vasf etilgan:

Ne anglaykim, qayu mahro ekansen,
Ichim qon aylagan senmu ekansen?!...

Chiqib jonim unungdin bo'lg'ach ogoh,
Yuzungni ko'rmay o'ldum oh, yuz oh!

* * *

...Harimi iffat ichra shoh ul ermish,
Sipehri ismat uzra moh ul ermish.

3. Boniy. Ko'ngilga ishq binosini qurgan va qurishni o'rgatgan piri komil.

4. Moniy. Alloh ishqini qalbg'a naqshlash sirlarini anglatgan ustoz.

5. Qoran. Ko'ngildagi toshdan ham qattiq nafsoniy istaklarni parchalash ilmini bildirgan murshid.

6. Suhaylo hakim. U oynayi Iskandariy tilsimini bilish uchun otlangan Farhodga Samandarning yog'ini hadya qilgan.

7. **Suqrot hakim.** U Farhodning, otasining va atobegi Mulkoroning taqdiri haqida bashorat qilgan.

8. **Shopur.** U Farhod tirikligi haqidagi yangi ma'lumotni xalq to'qigan qo'shiqlardan bilib oladi va uni Mehinbonu va Shiringa yetkazadi.

9. **Xusrav.** Ajam yurtining hukmdori, komillikdan yiroq, ishqda beqaror, muhabbatdan toj-u taxtni ustun qo'yuvchi xudbin shaxs, odam qiyofasidagi shayton.

10. **Sheruya.** Xusravning o'g'li, padarkush, odam qiyofasidagi shayton.

ASARDAN PARCHALAR:

Erursan shoh – agar ogohsen, sen,
Agar ogohsen, sen – shohsen, sen.

* * *

Hunarni asrabon netkumdur oxir,
Olib tufroqqamu ketgumdur oxir?!

Birovkim, qilsa olimlarga ta'zim,
Qilur go'yoki payg'ambarg'a ta'zim.

* * *

Emas oson bu maydon ichra turmoq,
Nizomiy panjasiga panja urmoq.

* * *

Tugangan fahm etib umri baqosin,
Sovug' oh urdi yod aylab atosin.

Anosi ham ko'zi oldig'a keldi,
Ko'zidin ikki qonlig' rud ochildi.

(Bu baytlarda Farhod holati aks etgan)

«LAYLI VA MAJNUN» dostoni haqida

«Layli va Majnun» asari ham 1484-yilda yozilgan bo'lib, 38 bob, 3623 baytdan iborat. U *hazaji musaddasi axrabi*

maqbuzi mahzuf (maf'uvlu-mafoilun-fauvlun (-- V V - V - V --)) vaznida yozilgan.

Sharq adabiyotidagi sevgi haqidagi dostonlar orasida «Layli va Majnun» eng g'amgin va dardli asar hisoblanadi.

Shoir ushbu dostonda ruhiyat tasviriga alohida e'tibor qaratadi.

Navoiyning ushbu asari quyidagi misralar bilan boshlanadi:

**Men turkcha boshlabon rivoyat,
Qildim bu fasonani hikoyat.**

Navoiy asarning mazmuni chuqur ekanligini ta'kidlagan, afsonaning faqat libos ekanligini aytib o'tgan:

**Men xastaki, bu raqamni chekdim,
Tahriri uchun qalamni chekdim.**

**Yozmoqqa bu ishq jovidona,
Maqsudim emas edi fasona.**

**Mazmunig'a bo'ldi ruh mayli,
Afsona edi aning tufayli.**

**Lekin chu raqamg'a keldi mazmun,
Afsona anga libosi mavzun.**

Nizomiy Ganjaviy birinchi bo'lib, ushbu qissani yaxlit dostonga aylantirgan. Uning dostonida Marv shohi va uning devdek-devdek odamxo'r itlari haqidagi hikoya ham keltirilgan.

Navoiyning «Layli va Majnun» dostoni haybatli tun tasviri bilan boshlanadi. Unda ikki yoshning dardga to'la ishq-muhabbati haqida so'z boradi. Ular bahor faslida sevishib qoladilar va tabiat so'lg'in tus olgan kuz faslida halok bo'ladilar.

Asarning qisqacha mazmuni quyidagicha:

Majnun arab amirlaridan birining tilab olgan o'g'li. Oti asli Qays (Otasi unga o'z otasining ismini qo'ygan edi). U chiroyli, esli-hushli bo'lib o'sadi. Lekin Qays tug'ilishidayoq ishq uchun tug'ilgan edi. Bu ishq maktabdayoq namoyon bo'ladi,

saboqdoshi Layliga bog'lanib qoladi. Bu dard kundan-kun kuchayib boradi va Qaysni xalq «Majnun» (telba) deb ataydi.

Laylining otasi malomatga qolgan yigitdan nomus qiladi, qizini unga bermaydi. Qaysning otasi o'g'lini Ka'ba ziyoratiga olib boradi, Allohdan ishqdan xalos etishini tilatmoqchi bo'ladi. Qays esa, «kam bo'lsa, ko'p qil» deb iltijo etadi:

**Demonki, meni tarabg'a xos et,
Yoxud g'ami ishqdin xalos et!**

**Dermenki, menga bu o'tni har dam,
Afzun qil-u, qilma zarraye kam!**

**...Bo'ynum uza "Ayn" in aylagil tavq,
"Shin" in ichimga shu'layi shavq.**

**"Qof" in menga ayla ko'hi anduh,
Ko'nglumga g'amini ko'h to ko'h.**

Ota umidlari uzilib, o'g'lini olib qaytadi. Qays Majnunga aylanib, sahrolarga bosh olib ketadi. Hayvonlar orasida panoh topadi. Tasodif bilan ushbu voqeaning ustidan chiqqan Navfal unga yordam qilmoqchi bo'ladi, o'rtaga tushadi. Laylining otasi ko'nmagach, qizni Qaysga zo'rlik bilan olib bermoqni bo'ladi.

Layli boshiga o'lim xavfi tushadi. Majnun bundan tushi orqali ogoh bo'ladi. Urushni to'xtatadi. Navfal uni o'z qiziga uylantirib qo'yadi. Biroq Majnun o'sha to'y kechasiyoq Laylini qo'msab, sahroga chiqib ketadi. O'sha kuni soxta oshiq – Ibn Salomga nikoh qilingan Layli bilan sahroda uchrashadi...

Xullas, asar har ikki oshiqning o'limi bilan yakun topadi. Asar xotimasida quyidagi baytlar keltirilgan:

**Ya'ni bu sifat firoqnoma,
Bo'ldi manga qatraz xoma.**

**So'gin nechakim uzottim oxir,
Yig'lay-yig'lay tugottim oxir.**

Asarda o'lim qahramonlar uchun fojia emas, balki azobli hijrondan qutqaruvchi xaloskor, Yaratganning vasliga noil qiluvchi vosita edi.

Asarning so'ngida «Ishq ta'rifida» degan maxsus bob bor. Shoir unda Layli va Majnun taqdiri orqali aks ettirilgan mazmuni sharhlaydi. Navoiy ishq haqida shunday yozadi:

**Ey ishq, g'arib kimyosen,
Bal oyinayi jahonnamosen.**

Navoiyning bu asarida Iskandarning po'latdan bir oyna yasaganligi, Rumda baland minora qurib, oynani Farangistonga quratiib o'rnatganligi, oynada butun Farangiston aks etib turganligi ham aks ettirilgan.

Asarning asosiy qahramonlari quyidagilar: *Layli* («Layli» so'zi arabcha «tungi» demakdir. U Hay qabilasidan bo'lib, muhabbat uchun o'zining 2 kanizi oldida yer o'padi), *Qays* (u bani Omar qabilasidan edi), *Zayd* (Layli va Majnun orasida vositachilik qilgan), *Navfal*, *Ibn Salom* (soxta oshiq) va boshq.

ASARDAN PARCHALAR:

**K-ey yigit, ne holating bor?
Ne nav' g'amu malomating bor.**

**Kim shodlig'ing yo'q o'zgarardek,
Obodlig'ing yo'q o'zgarardek».**
(Laylining Majnunga murojaatidan)

**...As'hobg'a mayli lolav-u bog',
Ul ikki ichinda loladek dog'.**
(Bu baytdagi «ul ikki» deganda Layli va Majnun nazarda tutilgan)

**...Boqay desa, dog'i quvvati yo'q,
Boqmay desa, dog'i toqati yo'q...**

**Bir necha kun uyda edi poband,
Faryod anga goh baland-u goh past.**

Yo'q kunduzu kecha xo'rdu xobi,
Dom ichida qushdek iztirobi.

(Bu misralarda Majnun holati aks etgan)

«SAB'AYI SAYYOR» dostoni haqida

Ishqiy-sarguzasht asar bo'lgan «Sab'ayi sayyor» («Yetti sayyora») 1484-yilda yozilgan bo'lib, 38 bob, 5009 baytdan iborat. Bu asar *hafifi musaddasi maxbuni mahzuf* vazni (foilotun-mafoilun-failun (-V- -V-V-VV-))da yozilgan bo'lib, unda «hikoya ichida hikoya» usuli qo'llangan.

Asarning bosh qahramoni – **Bahrom**. Bahrom – Mars yulduzining nomi. Arabchasi – Mirrix. U qulon(go'r) oviga haddan ziyod berilganligi uchun Sharq adabiyotida **Bahrom go'r** nomini ham olgan.

Asar voqealari 12-bobdan boshlanadi. Bunda Bahrom **Moniy** aytgan va suratini ko'rsatgan Diloromga telbalarcha oshiq bo'lib, davlat va mamlakat ishlarini unutadi. Xitoyning bir yillik xirojini to'lab, qizni saroyga keltiradi. Ishrat-maishatga beriladi. Mamlakat ishlari xiyonatkor, fitnachilar qo'liga o'tadi.

Ovdagi hodisadan so'ng maqtoovni kutgan mast Bahrom Diloromdan zid munosabatni ko'rgach, uning oyoq-qo'lini uzun sochlariga bog'lab, biyobonga tashlab kelishni buyuradi. Ertasi kuni g'azab va mastlik tarqab, uni izlaydi va topa olmaydi:

...Bildikim, qahr sarsari esmish,
O'z qo'li birla o'z boshin kesmish.

Shoh uzlatga beriladi. 400 tabib ham uni davolay olmaydi. Hakimlar maslahati bilan yetti iqlim shohi yetti qasr quradilar. Bu qasrlar shohning mamlakatiga olib boradigan yo'l ustiga quriladi. Moniy uning har birini o'zga bir rang bilan bezaydi. Yetti iqlim shohi bittadan o'z qizlarini Bahromga beradilar. Shohona to'ylar o'tkaziladi.

Bahromning buyrug'iga ko'ra xizmatchilar har tunda bir musofirni boshlab keladilar. Ulardan podsho quyidagi hikoyatlarni eshitadi:

1-hikoyat. Bahrom **shanba kunini** qora liboslar kiyib, qora rang gumbazga kirib, hind malikasi huzurida o'tkazadi.

Hindistonlik musofir saxiylikning betimsol namunasini ko'rsatgan *Farrux va saxiy Axiy haqidagi hikoyatni* aytib beradi.

2-hikovat. Bahrom yakshanba kuni zarnigor (sariq) qasrda zarbof kiyimlar kiyib, rumlik musofirdan *Zayd Zahhob haqidagi hikoyatni* tinglaydi.

3-hikovat. Bu hikoyat *Sa'd jasorati haqida* bo'lib, dushanba kuni yashil qasrda shahrisabzlik musofir tomonidan aytilgan.

4-hikovat. *Shoh Jo'na va saxiy Mas'ud haqidagi* bu hikoyat seshanba kuni gulrang libosda gulnoriy (gulgun) qasrda tarozlik (hindistonlik) musofir tomonidan aytilgan.

5-hikovat. Bahrom bu hikoyatni chorshanba kuni havoning kiyimlarda moviy qasrda beshinchi iqlim yo'lidan kelgan musofirdan eshitadi. *Mehr* («quyosh», *shoir Mehrning beqiyos go'zalligini 8 baytda chizib ko'rsatgan*) va *Suhayl* («porloq yulduz») haqidagi bu hikoyatda suv va quruqlikda zulmni o'ziga kusb qilib olgan zolim qaroqchi *Jobir* («jabr yetkazuvchi») va uning makoni haqida so'z boradi. Bu hikoyatda *Suhayl* (*u nikoh orzusida yo'lga chiqqanda Jobir tuzog'iga tushgan*) Jobirga «*Sen agar zohir etting itlikni, Men sanga ko'rguzay yigitlikni*» degan gaplarni aytgan. Hikoyatda kemada sayr qilayotgan manzara tasvirida «*Dengiz – osmon, kema – yarim oy, Mehr – yulduz*» kabi o'xshatishlar qo'llangan.

Bunda podsho *Nu'mon* (Yaman podshosi, *Suhaylning otasi*) "*Anda bir shoh hokim-u voliy, Mulki ma'mur-u himmati oliy*" deya tasvirlanadi, *Navdarshoh* (*Mehrning otasi*) ov ketidan quvib sipohidan ajraladi va *Jobir* (*yo'lto'sar qaroqchi, uning na o'rtog'i, na do'sti bor edi*) tuzog'iga ilinadi.

6-hikovat. *Muqbil va Mudbir haqidagi bu hikoyat* payshanba kuni sandal rangli kiyimda sandal qasrda oltinchi iqlim yo'lidan kelgan musofirdan tinglangan.

7-hikovat. Bahrom juma kuni oq libosda oq qasrda xorazmlik (yettinchi iqlimdan kelgan) musofirdan *Dilorom haqidagi hikoyatni* tinglaydi. Bunda *Dilorom* xorazmlik sozchi-musiqachiga o'z sirini aytganda, uning Xorazmdan ketishini shart qilib qo'yadi.

Shunday qilib, Bahrom yori bilan qayta topishadi, lekin yana ovga, aysh-ishratga beriladi. Bir kuni ov paytida hayvonot qoni daryo bo'lib oqadi. Xuddi shu paytda sharros yomg'ir quyib, selga aylanadi. Ular to'plangan o'tloqning tagi bir vaqtlar

botqoq bo'lgani sababli ochilib ketadi. Shahanshohning barcha qo'shini adadsiz hayvonot bilan birga botqoq qa'riga kirib ketadi. Boshqacha aytganda, ularni yer yutadi.

Navoiy Bahrom timsolida «*Ishq ila shohlig' muvofiq emas, Ishq lofida shoh sodiq emas*»ligini ko'rsatgan.

**Ki jahon kimsaga vafo qilmas,
Shohlig' tarkiga kiro qilmas.**

**Shahki, ming yil oning hayotidir,
G'araz – o'lganda yaxshi otidur**

– misralari ham shu asardagi Bahrom nomidan aytilgan.

Navoiy «Sab'ayi sayyor»ining Movarounnahr va Xuroson hayoti bilan bog'liq jihati shuki, unda **Shahrisabz** va **Xorazm** haqida maxsus hikoyalar kiritilgan.

Alohida bir bobda Navoiy tushida Bahrom bilan uchrashganini, uning Husayn Boyqarodan tashvishda ekanini ham yozgan.

Bahrom qissasi Navoiydan keyin o'zbek adabiyotida keng tarqaldi. XVIII asrdan yozma va og'zaki adabiyotda Bahrom va Gulandom turkumi paydo bo'ldi. Koshg'arlik G'aribiy XIX asrda «*Shoh Bahrom va Dilorom*» asarini yozdi. Umar Boqiyning «*Qissayi haft manzarayi Bahrom*» asari maydonga keldi¹⁴⁵.

ASARDAN PARCHALAR:

**«Men bir paytlar shu butxonada peshvo-yo'lboshchi edim.
Men ham o'z ahvolim to'g'risida bir tush ko'rishni orzu qildim.
Lekin ilm-u hikmat bunga mone' edi. Oqibat havas g'ulu qildi,
kechasi beixtiyor butxonaga kirib ko'zni yumdim, tush ko'rdim».**

(G'or ichidagi bir nuroniy cholning gapi)

**Qon to'kardaki, yo'q xaros elga,
Bo'lubon lolagun libos elga.**

¹⁴⁵ B.Qosimov va boshq. Adabiyot (10-sinf uchun darslik). – T.: O'qituvchi, 2004. – 229-bet.

**Qondin ul yerda guliston butti,
Go'yyokim ul elni qon tutti.**

«SADDI ISKANDARIY» dostoni haqida

«Saddi Iskandariy» («Iskandar devori») asari 1485-yilda yozilgan, 89 bob, 7215 baytdan iborat bo'lib, «Xamsa» dostonlari ichidagi hajm jihatidan eng kattasidir. Asarning 1–14-boblari kirish, 15–87-boblari asosiy qism (*bunda 18 ta mavzu yoritilgan*), 88–89-boblari xotima qismi hisoblanadi. Bu asar aruzning mutaqoribi musammani mahzuf vazni (fauvlun–fauvlun–fauvlun–faal (V – V – V – V –))da yozilgan.

«Xamsa»ning bu dostonida ham Navoiyning adolatli hukmdor, odil podshoh haqidagi orzulari o'z ifodasini topgan. Muallif asarni yozishda qadim yunon jahongiri Aleksandr Makedonskiyning Sharqqa yurishlari asosida maydonga kelgan rivoyatlarga, uning shaxsi bilan bog'liq hikoyatlar, tadbirkorligi talqinlariga suyanadi.

Oldingi xamsanavislarning bu mavzudagi asarlari singari Navoiy Iskandari ham tarixiy Aleksandr emas. Tarixiy Aleksandr qadami yetgan joylarda qirg'in va vayronalik qoldirgan mustabid hukmdor edi. Badiiy Iskandar esa, adolatni bayroq qilib ko'targan, mamlakatni ilm-ma'rifat asosida boshqargan, zamonasining barcha olimlarini bu ishga jalb etgan podshohdir.

Nizomiy o'z «Iskandarnoma»sida uning donishmandligiga e'tiborni qaratgan bo'lsa, Xusrav Dehlaviy o'z asarini «Oyinayi Iskandariy» deb atab, Iskandarning olimlar yordamida jahonni ko'rsatuvchi oyna yaratganligiga diqqatni qaratgan. Abdurahmon Jomiy o'z asarini «Xiradnomayi Iskandariy» («Iskandar aqlnomasi») deya nomlab, uning olim va donishmandligini yanada chuqurlashtirgan.

Navoiy esa bu mavzudagi asariga «Saddi Iskandariy» deb nom bergan. Asarda shoir Iskandar tarixini yozishni maqsad qilgan emas, balki Iskandar bilan bog'liq voqealar mohiyatini o'z o'quvchisiga ochib berishni niyat qiladi.

Asarda Iskandar Zulqarnaynning («Zulqarnayn» so'zining ikki ma'nosi bor: 1. Shoxli. 2. Kun chiqish va botish hukmdori)

aholini odamxo'r ya'juj-ma'jujlardan qutqarish uchun nihoyatda xarob holga kelib qolgan Qirvon o'lkasidagi Qof tog'ining etagida ulkan devor qurishi haqida so'z boradi. Devor fors tilida "sad" deyiladi. Bu devor ramziy ma'noda ezgulikni yovuzlikdan himoya qilish devori edi.

Asarda tasvirlanishicha, Faylaqus (Filipp) onasi o'lgan go'dakni (Iskandarni) topib olib, o'z tarbiyasiga olgan. Iskandar taxtga chiqqach, ko'p joylarni bosib oladi. Uning Doru bilan to'qnashuviga bag'ishlangan tasvirlar ham qiziqarli: «*Rum mulki Eronga har yili tuxum shaklidagi ming oltin xiroj to'lar edi. Iskandar buni to'xtatadi va elchiga: «Tuxum beradigan qush allaqachon uchib ketgan»* – deydi. Doru g'azabga kelib, bir chavgon va to'p, bir xalta kunjut bilan boshqa bir elchini yuboradi. Buning ma'nosi quyidagicha edi: «*Sen hali dimog'ingdan sut hidi ketmagan bir go'daksan, chavgonni olib, to'p o'yna, askarlarimiz sanog'ini mana shu kunjutlar qadar bilgin!*». Iskandar esa bundan boshqa ma'no ko'radi. Koptok uningcha yer yuzi bo'lib, uning Iskandarga taqdim etilishi dunyoni olajagiga ishoradir. Kunjutni esa u o'zining qushlari (askarlari) uchun himmat qilingan oziq deb hisoblaydi...».

Ikki orada urush boshlanadi. Doru noiblarining xiyonati tufayli yarador holda Iskandar qo'liga asir tushadi. Navoiy buni o'z davridagi Abusaid Mirzoning asir tushganiga qiyoslaydi.

Asarda Iskandar Eronni, Xuroson va Movarounnahrni egallaydi. Hind shohi urushsiz taslim bo'ladi. Chin xoqoni elchi kiyimida Iskandar huzuriga kelib, uning sha'n-u shuhratiga tan beradi. Shu tariqa Navoiy Iskandar donishmandligini saqlagan holda uning yoniga insonparvarligini, adolat kurashchisi ekanligini ham qo'shadi va insoniyat orzusidagi Iskandar timsolini yanada takomillashtiradi, voqealarni esa ko'proq Movarounnahr va Xurosonga bog'lashga urinadi.

Asarda *Samarqand* va *Hirotning* bino qilinishi ham tilga olingan.

Iskandar umrining so'ngida onasi (tarbiyachisi) **Bonuga** vasiyatnoma yozib, uzr so'raydi. Vafot etar ekan, bir qo'lini tobutdan chiqarib qo'yishni iltimos qiladi.

Bu asarda gadolig' ixtiyor etgan podsho, balki, podsholikka yetgan gado hikoyati ham keltirilgan. Bunda tarkidunyo qilgan darveshning Iskandar huzuriga ikkita so'ngak (bosh chanog'i) olib kelishi va shohga bergan dono javoblari, aytgan 4 sharti ham juda asosli va nozik tarzda ifodalangan.

ASARDAN PARCHALAR:

**Boshi toj tarkin qilib ixtiyor,
Bo'lub tarki toji bila baxtiyor.**

* * *

**Gadoyeki, bo'lg'ay biyik himmati,
Anga past erur shohlig' rif'ati.**

* * *

**Agar qilmadi el himoyat sanga,
O'zungdin keraktur shikoyat sanga.**

* * *

**Birovkim erur rostliqdin yiroq,
Aningdek kishi bo'lmag'on yaxshiroq.**

* * *

**Vatan tarkini bir nafas aylama,
Yana ranji g'urbat havas aylama.**

* * *

**Musofir bo'l, ammo vatan ichra bo'l,
Tila xilvat-u anjuman ichra bo'l.**

* * *

**Yana ilm tahsili aylar kishi,
Agar istasa rushd topqay ishi.**





27-MAVZU.
XV–XVI ASRLAR O‘ZBEK ADABIYOTI
NAMOYANDALARI

MUHAMMAD SOLIH
(1455–1534)¹⁴⁶

Nur Saidbekning o‘g‘lidurkim, ko‘p vaqtlar Chahorjo‘y navohisidin Adoq navohisiga degincha amorat qildi va Sulton Abu Said Mirzo eshigida, Ulug‘bek va Jo‘gi Mirzo eshigida sohib ixtiyor va jumlat ul-mulk erdi».

A.Navoiy, «Majolis un-nafois»dan



Muhammad Solih Nur Saidbek o‘g‘li 1455-yilda Xorazmda tug‘ilgan. Otasi Xorazm hokimi bo‘lib, Ulug‘bek, Jo‘gi Mirzo, Abusaid Mirzo saroylarida xizmat qilgan edi. Muhammad Solihning bobosi Amir Shoh Malik Mirzo Ulug‘bekka vasiylik va murabbiylik qilgan.

Muhammad Solih dastlabki ma‘lumotni olgach, Hirotda Abdurahmon Jomiy huzurida tahsil ko‘radi. U bu yerda arab, fors-tojik tillarini, xattotlik va naqqoshlik san‘atini o‘rganadi, tarix, falsafa bilan shug‘ullanadi. Otasi vafotidan so‘ng bir qancha vaqt temuriylar saroyida xizmat qiladi va 1499-yili saroydan ketadi. O‘z taqdirini shoir «*Shayboniynoma*» asarida quyidagicha tasvirlaydi:

¹⁴⁶ Quyidagi manbalarda bu sanalar 1455–1535 tarzida berilgan: B.Qosimov, N.Jumaxo‘ja. O‘zbek adabiyoti (10-sinf uchun darslik). – T.: O‘qituvchi, 2000. – 148-bet; N.M.Mallayev. O‘zbek adabiyoti tarixi. – T.: O‘qituvchi, 1976. – 609-bet; O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi. 6-jild – T.: 2003. – 192-bet.

**Laqabi Solih-u, o'zi tolih,
Nur Said o'g'li Muhammad Solih.**

**...Mani gardun sitami qildi yetim,
Ayladi kishvari g'am ichra muqim.**

**Xorliqlar bilan o'stum bisyor,
Zorlig'lar bila ko'rdum ozor...**

Muhammad Solih Shayboniyxon tomoniga o'tadi va uning faol hamrohiga aylanadi. Shayboniyxon uni yaxshi kutib oladi va o'z saroyida Muhammad Solihni *“amir ul-umaro”* («amirlar amiri»), *“malik ush-shuaro”* («shoirlar shohi») maqomiga ko'taradi. U Chorjo'yda va Ashg'abod yaqinidagi Niso shahrida hokimlik qilgan.

Muhammad Solihning Mirzo Ulug'bek ismli o'g'li ham bo'lgan.

Shayboniyxon (1451–1510) vafotidan so'ng shoir Buxoroga qaytgan va 1534-yilda o'sha yerda vafot etgan.

Muhammad Solih she'rlar yozgan, ularni to'plab bir devon tuzgan bo'lsa ham, bu devon topilgan emas.

«SHAYBONIYNOMA» dostoni haqida

Muhammad Shayboniy (1451–1510) haqida Mulla Shodiyning «Fathnomayi xoniy», Kamoliddin Binoiyning «Shayboniynomayi Binoiy», Ro'zbehxonning «Mehmonnomayi Buxoro», Po'ltan shoirning «Shayboniyxon» dostoni kabi asarlar yaratilgan. Bularndan Po'ltan shoirning asaridan boshqasi fors tilida yozilgan.

Muhammad Solihning *«Shayboniynoma»* asari o'zbek tilida yozilgan, aniq va real tarixiy voqealar tasviriga bag'ishlangan *birinchi voqeyiy tarixiy jangnoma dostonidir*. Bu asar shoirning to'liq yetib kelgan asari bo'lib, u taxminan 1506–1507-yillarda yozib tugallangan.

Muhammad Solih *«Shayboniynoma»* asarini masnaviy usulida yozgan. Doston jami 76 bob, 8902 misradan tashkil topgan (bundan 3 bobi «Hamd», «Munojot», «Na'v», 4-bobdan

14-bobgacha (102 bayt) Shayboniyxon madhi, 15-bobdan kitob nazmining sababi hamda asosiy voqealar tasvirlangan) bo'lib, uning 60 bobida Shayboniyxonning 1500–1506-yillardagi harbiy yurishlari haqida gap boradi. Shoir asarda temuriylar haqida shunday yozadi:

**Ichadurlar kecha-kunduz boda,
Din-u iymon soridin ozoda.**

**Bir-biri birla muxolif barcha,
Bir-biridin taqi xoyif borcha.**

Muallif Shayboniyxonni madh etadi, uning she'rlaridan namunalar keltiradi, uni Navoiylar orzulagan «*surati shoh-u, siyrati darvesh*» hukmdor darajasiga ko'taradi.

Bu jangnomada XV asr oxiri – XVI asr boshlarida o'zaro urushlarda Qarshi, Hisor, Samarqand, Andijon kabi shaharlarning qamal qilinishi, ocharchilik, qahatchilik yuz berishi va boshqa adolatsizliklar, fojialar tasvirlangan.

«Shayboniyнома» Amir Temur yaratgan buyuk davlatchilikning barbod bo'lishi, milliy parchalanish, mustahkam davlat va jamiyatning parokandalikka uchrashi kabi fojialardan achchiq saboq beruvchi badiiy solnomadir.

XOJA (1480 – 1547)

Xoja o'zbek mumtoz adabiyotining taniqli namoyandasidir. Uning to'liq ismi **Ibodullo Sayid Poshshoxo'ja binni Abdulvahhobxoja** bo'lib, Xoja uning adabiy taxallusidir. U toshkentlik mashhur avliyo Zangi ota avlodlaridan bo'lib, 1480-yilda Ashxobod yaqinidagi Niso shahrida shayxulislom Abdulvahhobxoja oilasida tug'ilgan.

Xojaning o'g'li **Hasanxoja Nisoriy** (1516–1597) o'zining «**Muzakkiri ahhob**» («Do'stlar yodnomasi») asarida otabobolari haqida, xususan, Xoja haqida batafsil ma'lumot bergan.

Xoja Niso, Marv madrasalarida o'qiydi, Samarqand va Buxoroda yashaydi. 16 yoshlarida temuriylar saroyida ishlay

boshlaydi, bir qancha vaqt vaqf yerlarining hisobi ustidan nazorat olib boruvchi sadrlik lavozimida faoliyat yuritadi.

Balx hokimligi Kistan Qaro sulton qo'liga o'tgach, u Xojani din ahlari va ulamolar boshlig'i – shayxulisiomlik mansabiga tayinlaydi.

Xoja Shayboniylar saltanatida Darun viloyati hokimi, jumlat ul-mulk kabi lavozimlarda ham ishlagan. Adib nihoyatda chiroyli xat yozganligi va she'riy ijod bilan shug'ullanganligi uchun xonlar o'rtasidagi yozishmalarni ham olib borgan.

Xoja 1529-yilning kuzida Hirotning, 1534-yildan Balx shahrining shayxulislomi vazifasiga tayin etilgan. U 1547-yilda Buxoroda vafot etgan va Bahouddin Naqshbandiy qabri yoniga dafn qilingan.

Mashhur "xojagon" silsilasining ko'zga ko'ringan vakillaridan biri bo'lgan adib mohir hikoyanavis, qasidanavis bo'lish bilan birga ruboiy, g'azal, qit'a kabi janrlarda ham barakali ijod etgan. Nisoriyning ma'lumotiga ko'ra, Xoja turkcha va forscha devon tuzgan, lekin ular bizgacha yetib kelmagan.

Xojaning «*Miftoh ul-adl*» («*Odillik kaliti*» yoki «*Adolat kaliti*»), «*Gulzor*» va «*Maqsad ul-atvor*» kabi asarlari mashhurdir. Bu asarlar hikoyat, qit'a, ruboiy, masnaviy, fard kabi janrlardan tashkil topgan.

XOJA ASARLARI HAQIDA

«*Miftoh ul-adl*» asari haqida. Bu asar 1508–1510-yillarda yozilgan bo'lib, Shayboniyxonning o'g'li Temur Sultonga bag'ishlangan. U 15 bobdan iborat. Ushbu hikoyalar to'plamida «har kim ekkani o'radi» maqoli ham badiiy jihatdan talqin etilgan.

«*Miftoh ul-adl*» asaridan keltirilgan bir hikoyatda bir podsho yigirma marta piyoda haj qilgan bir zohiddan bir hajning savobini sotib olmoqchi bo'ladi. Zohid bir soat adolat qilganning savobini odamlarning, hurlarning va farishtalarning ibodatidan ortiq ko'radi.

Yana bir hikoyatda bir tolibul ilm yigit kelib, Sulton Mahmud G'aznaviyga qozining ustidan arz qiladi. Chunki qozi tolibul

ilm yigit qoldirgan omonatga xiyonat qiladi. Tolibul ilm yigit sultonga laklak qush haqidagi hikoyatni ham aytib beradi.

Shayx Bahlul haqidagi hikoyatda Shayx Bahlul Xorun ar-Rashid xalifaning taxti ustiga o'tirganda, yasovullar uning boshiga tayoq bilan uradilar. Shunda shayx kulganda, xalifa buning sababini so'raydi. Shayx aytadi: "Men bir soat sening taxtingda o'tirganda boshimni urib, yordilar. Sen yillar davomida bu taxtda o'tiribsan, sening holing nima bo'lgan, deb kularman". Shunda xalifa zor-zor yig'laydi, shayxning oyog'i ostiga o'zini tashlab, uzr so'raydi.

«Gulzor» asari haqida. Bu asar Kistan Qaro Sultonga (laqabi «Odil» bo'lgan) bag'ishlab 1538-yilda yozilgan. U ham hikoyalar to'plami bo'lib, asarda Navoiyning «Saddi Iskandariy» dostonidan ijodiy foydalanilgan. Asardagi Sulaymon payg'ambar bilan bog'liq bir hikoyatda tilsimli obi hayot sirini Butimor degan qush aytib beradi.

«Maqsad ul-atvor» (1514–1520) asari haqida. Bu doston Kistan Qaroning tog'asi Jonibek Sultonga bag'ishlangan bo'lib, Nizomiy Ganjaviyning «Maxzan ul-asror» asariga nazira shaklida yozilgan.

«Miftoh ul-adl» va «Gulzor» asarlarining birgalikda muqovalangan bir necha nusxasi mavjud bo'lib, ular O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Sharqshunoslik instituti Qo'lyozmalar fondida saqlanadi.

ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR

(1483 – 1530)

...Bobur fe'li-sajiyasiga ko'ra Sezarga qaraganda sevishga arzigulikdir.

Eduard Xolden

«Bobur bunyod etgan davlat garchi bobolariniki singari bepoyon mintaqalarga yoyilmagan bo'lsa-da, u o'z saltanatining sultoni, buyuk imperatori darajasiga ko'tarildi. O'z mulkida boshqaruv tizimini mahkam tutib, uni mohirlik bilan idora qildi. Bu o'lkani 332 yil davomida mahorat bilan boshqargan buyuk sulolaga asos soldi».

Rumer Goden



Zahiriddin Muhammad Bobur

(«Zahiriddin» soʻzining maʼnosi «sergul daraxt», «Bobur» arabcha «sher» demakdir)

1483-yil 14-fevralda Fargʻona viloyatining poytaxti Andijonda tugʻilgan. Uning otasi Umarshayx (1455–1494) 1494-yil 9-iyunda Axi qoʻrgʻonida jordan kabutarxonasi bilan qulab, halok boʻladi (39 yoshida). Boburning shajarasi quyidagicha: Umarshayx Mirzo –

Abdusaid Mirzo – Sulton Muhammad Mirzo – Mironshoh – Amir Temur. Demak, Umarshayx Mirzo Amir Temurga toʻrtinchi avlod – evara edi.

Onasi Qutlugʻ Nigorxonimning otasi Toshkent hokimi Yunusxon oʻzbeklashgan moʻgʻul urugʻidan boʻlib, 12 avlod bilan Chingizxonga tutashgan. Bobur uni «Chingizxonning ikkinchi oʻgʻli Chigʻatoyxon naslidandur» deb aytgan.

Umarshayx Mirzoning uch oʻgʻli (Z.M.Bobur, Jahongir Mirzo, Nosir Mirzo), besh qizi (Xonzodabegim, Mehrbonubegim, Shahrbonubegim, Yodgor Sultonbegim, Ruqiya Sultonbegim) boʻlib, Bobur oʻgʻillarining eng kattasi edi. Bobur va uning besh yosh katta opasi Xonzodabegim bir onadan edilar.

Otasi vafotidan soʻng (1494-yil) Andijon taxtiga Bobur oʻtiradi. 12 yoshli Bobur *Shayx Mazidbek*, *Boboqli Roboalibek*, *Qosim Qavchin* kabi beklar yordamida hokimiyatni boshqaradi. U taxt uchun tinimsiz kurashib, 1497–1500-, 1501-yillarda Samarqandni, 1502–1503-yillarda Oʻsh va uning atroflarini egallab oladi, Ahmad Tanbaldan yengiladi. 1503-yilda Bobur Kobul va Gʻaznani jangsiz qoʻlga kiritadi.

1505-yilda Boburning onasi Qutlugʻ Nigorxonim vafot etadi.

Bobur Samarqandda ekanligida Alisher Navoiydan xat oladi. Darhol unga javob yozib, orqasiga sheʼr ham bitib yuboradi.

Shayboniyxon siquvi natijasida Bobur Hindiston tomonga chekinib, Hindistonga 1507-yildan boshlab 5 marta yurish qiladi, 1526-yil 12-aprelda Panipat jangida 12 ming kishilik qoʻshini bilan hind sultoni Ibrohim Loʻdiyning 100 ming

kishilik qo‘shinini yengadi va shu tariqa Shimoliy Hindistonda Boburiylar sulolasining hukmronligiga asos soladi. Bu davlat Yevro‘pada «Buyuk mo‘g‘ul imperiyasi» nomini olgan.

Bobur Hindistonni egallagach, adolatli qonunlar chiqardi, **juz‘ya** (g‘ayridinlik solig‘i)ni bekor qilgan, o‘lgan erning tirik xotinini murda bilan birga yoqishni taqiqlaydi.

1526-yil 21-dekabrda Bobur dushmanlari tomonidan zaharlangan va tasodif tufayli omon qolgan. Shoir 1527-yil 13-oktabrdan 25-26 kun chamasi og‘ir yotib qoladi.

Bobur 1530-yil 26-dekabrda 47 yoshida Agrada vafot etadi. U Jamna daryosining chap sohilidagi Nurafshon bog‘ining markaziy qismiga dafn etiladi. 1539-yilda esa xoki, uning vasiyatiga muvofiq, Kobulga («Bog‘i Bobur»ga) ko‘chiriladi.

Boburiylar sulolasi 1483–1858-yillar mobaynida hukm surgan. Boburning 4 ta o‘g‘li, 3 qizi bo‘lib, shulardan Komron ismli o‘g‘li she‘riy devon tuzgan.

Boburning ijodiy merosi haqida

Z.M.Bobur 20 yoshida «*Xatti Boburiy*» yozuvini kashf etgan, *Xo‘ja Ahrorning «Volidiya»* asarini she‘riy yo‘l bilan o‘zbekchaga tarjima qilgan.

ASARLARI: «*Boburnoma*», «*Mubayyin al-zakot*» («Zakot bayoni», o‘g‘li Humoyunga bag‘ishlagan, 1521), «*Muxtasar*» risolasi (1523–1525, aruz vazni haqida), «*Harb ishi*» va «*Musiqa ilmi*» (bu ikki asar topilmagan), «*Kobul devoni*» (1519, bu devon topilmagan), «*Hind devoni*» (1528-1529) va boshq.

Bobur she‘riyati haqida

Zahiriddin Muhammad Bobur 16-17 yoshi (1500-yil)dan boshlab badiiy ijod bilan shug‘ullanadi, o‘zbek va tojik tillarida she‘rlar yozadi. U dastlabki she‘rlarini fors tilida yozgan.

Bobur asosan hajman ixcham g‘azallar yaratgan, uning she‘riy asarlarining yarmini ruboiylar tashkil qiladi.

Bobur o‘zbekcha she‘rlarini to‘plab, 1519-yilda Kobulda («*Kobul devoni*»), 1528-1529-yillarda Hindistonda («*Hind*

devoni») devonlar tuzgan. Bizgacha yetib kelgan she‘rlarining umumiy soni 400 dan oshadi. Shulardan 119 tasi g‘azal, 231 tasi ruboiydir.

Bobur lirikasining asosiy janrlari *g‘azal*, *ruboiy* va *tuyuq* bo‘lib, shoir *masnaviy*, *qit‘a*, *muammo*, *fard* kabi janrlarda ham ijod qilgan.

Shoir she‘rlarida Vatan ishq mavzusi yetakchilik qiladi, ularning ko‘pchiligi hasbi hol xususiyatiga ega. Bobur she‘rlarining deyarli hammasi benihoya samimiy tuyg‘ular bilan yo‘g‘rilgan.

Bobur she‘riyatini o‘qib bir narsaga amin bo‘lasiz: u hayotni sevadi, umrning har daqiqasini g‘animat biladi.

«*Meningko‘nglumki...*», «*Agarchisensizinsabraylamak...*» g‘azallarida, «*Beqaydman-u xarobi siym ermasmen*», «*Tole yo‘qi jonimg‘a balolig‘ bo‘ldi*» kabi ruboiylarida, «*Bir kecha xotirim mushavvash edi*» masnaviysida Boburning ziddiyatga to‘la hayoti tasvirlangan¹⁴⁷.

Boburning «*Ey, alarkim, bu Hind kishvaridin*» deb boshlanadigan qit‘asi uning yaqin navkarlaridan Xoja Kalon va Xoja Mirmironlarning Hindiston issig‘iga chiday olmay Kobul tomonga ketib qolganliklari munosabati bilan, «*Ko‘ngli tilagan murodiga yetsa kishi...*» deb boshlanuvchi ruboiysi Andijondan ketib, tog‘- u toshlarda yurgan vaqtida yozilgan.

Boburning «*Hajringda bu tun ko‘ngulda qayg‘u erdi...*» deb boshlanuvchi ruboiysida fojia hazil bilan beriladi.

G‘AZALLARI: «*Qoldimu?!*» radifli g‘azali (1507-yilda *Hirof-Qobul yo‘lida* yozilgan), «*Topmadim*» radifli g‘azali (bu g‘azalning yozilish tarixi «*Boburnoma*»da keltirilgan bo‘lib, unda «*Samarqandni ikki marotaba qo‘ldan berish tiyirobi*» yoritilgan. «*Jonimdin o‘zga yori vafodor topmadim*» deb boshlanuvchi bu g‘azalni Boburning birinchi tugatgan g‘azali sifatida e‘tirof etishadi), «*G‘urbatda ul oy hajri*» g‘azali (bu g‘azal Boburning so‘nggi g‘azallaridan biri sifatida taxmin qilinadi), «*Kerak*», «*O‘lum uyqusig‘a borib jahondin bo‘ldum osuda...*», «*Keltursa yuz baloni o‘shal bevafo*

¹⁴⁷ Q.Yo‘ldoshev va boshq. Adabiyot (Umumiy o‘rta ta‘lim maktablarining 9-sinfi uchun darslik). – T.: Yangiyo‘l Poligraph service, 2010. – 83-bet.

manga...», «Ne xush bo'lg'ayki, bir kun uyquluq baxtimni uyg'otsam...», «Sochining savdosi tushti boshima boshdin yana...», «Ko'ngulga bo'ldi ajoyib balo qaro soching...», «Baloyi ishqki, har dam manga jafoyedur...», «Sening ishqingda...», «Xazon yaprog'i yanglig'...», «G'ofil o'lma...», «Gul jamolin yopqon ul gulning iki rayhonidur...», «Bahor ayyomidur...», «G'uribatda ul oy hajri...», «Mushkuldur», «Mening ko'nglumki...», «Xating aro uzoring – sabza ichinda lola...», «Topilmas», «Yaxshilig'», «Qaro zulfing firoqida...» (bu g'azalda «Oshiqning hayoti (ro'zgori) ma'shuqa zulfi firoqida parishon, yor yuzining ishtiyoqi, lab tamannosi uning sabr-qarorini intihosiga yetkazadi» kabi fikrlar uchraydi. Sof oshiqona kechinmalar bayoni bilan boshlangan bu g'azalning keyingi baytlarida shoir hasbi hollik yo'siniga o'ta boshlaydi: “Jahondin menga g'am bo'lsa, ulusdin gar alam bo'lsa...”. Bunda tanosub va saj' san'atlarining qo'llanilishi g'azalga yanada badiiylilik baxsh etgan), “Yoz fasli, yor vasli, do'stlarning suhbatii” va boshq.

SHE'RLARIDAN NAMUNALAR:

Xazon yaprog'i yanglig' gul yuzung hajrida sarg'ardim,
Ko'rub, rahm aylagil, ey lolarux, bu chehrai zardim...

* * *

Ahbob, yig'ilmoqni farog'at tutungiz,
Jam'iyatingiz borini davlat tutungiz.
Chun gardishi charx budurur, tengri uchun
Bir-birni necha kuni g'animat tutungiz. (Ruboiy)

* * *

Har vaqtgi ko'rgaysen mening so'zimni,
So'zumni o'qub sog'ingaysen o'zimni...

* * *

Sen gulsen-u men haqir bulbuldurmen,
Sen shu'laseu ul shu'lag'a men kuldurmen.
Nisbat yo'qtur deb ijtinob aylamakim,
Shahmen elga, vale sanga quldurmen. (Ruboiy)

* * *

Oyog'im yetgancha Boburdek ketar erdim, netay,
Soc'ining savdosi tushti boshima boshtin yana.

* * *

Visoli lazzatidin zavq topmog'liq erur dushvor,
Firoqi shiddatinda yo'qsa jon bermaklik osondur.

(Bu baytda tazod san'ati fikr va ruhiy holat ifodasida muhim
ahamiyat kasb etgan)

* * *

Mijozing nozik-u sen tund, men bir beadab telba,
Sanga holimni qilmoq, ey pari, izhor mushkuldur.

* * *

Jahondin menga g'am bo'lsa, ulusdin gar alam bo'lsa,
Na g'am yuz muncha ham bo'lsa, seningdek g'amgusorim bor.

«BOBURNOMA» asari haqida

Bu asar dastlab «*Vaqoyi'*» («Voqealar») deb atalgan. Keyinroq «*Voqoeti Boburiy*», «*Voqeanoma*», «*Tuzuki Boburiy*», «*Boburiya*» nomlarini olgan. «*Boburnoma*» nomi bilan shuhrat qozongan.

Asarda 1494–1529-yillarda Movarounnahr, Xuroson, Afg'oniston va Hindistonda ro'y bergan voqealar aks etgan. 910 (1504–1505), 915 (1509–1510) – 924 (1518–1519), 927 (1520–1521), 928 (1521–1522), 930 (1523–1524), 931 (1524–1525)-yillarning voqealari asarda berilmagan.

«Boburnoma»ning o'ndan ortiq qo'lyozma nusxalari bo'lib, turli kutubxonalarda saqlanadi. Asarni 1857-yilda Qozonda N. I. *Ilimskiy*, 1905-yilda Londonda *Beverij xonim* nashr etganlar. O'zbekistonda dastlab *Abdurauf Fitrat* 1928-yilda «Boburnoma»dan parchalar e'lon qilgan. Asar 1948–1949-yillarda 2 jildda nashr etilib, 1960-, 1989-, 2002-yillarda uning tuzatilgan nashrlari amalga oshirilgan. «Boburnoma» XVI asrdayoq turli sharq tillariga tarjima qilingan. 1586-yildayoq fors tiliga o'girilgan.

Avtobiografik ocherklarni eslatuvchui voqeyi hikoyalardan iborat bu yodnoma Yevro'paga XVIII asrning boshida kirib borgan. 1705-yilda *Vitsen* kitobni golland tiliga tarjima qilib, Amsterdamda chop etgan. 1871-yilda *Pave de Kurteyl* fransuzcha tarjimasini, 1926-yilda *J.Leyden* va *V.Erksin* asarning inglizcha tarjimasini nashr qilganlar. XX asrda bu asarni *Rashit Rahmati Orat* turkchaga, *Mixail Salye* ruschaga tarjima qilgan. 1826–1985-yillar davomida «Boburnoma» 4 marta ingliz (1826, 1905, 1921, 1922), 3 marta fransuz (1871, 1980, 1985), 1 marta nemis (1878) tiliga o'g'irilib, nashr etilgan.

«Boburnoma»da ilm-fan, san'at, adabiyot ahli haqida ham keng fikr yuritilgan, ularning asarlaridan namunalar ham keltirilgan.

«Boburnoma»da Xoja Kalonning «*Agar sog'-salomat Sinddan o'tib ketsam, Hindistonni yana havas qilsam, yuzim qora bo'lsin*» degan she'riga javoban Bobur yozgan «*Yuz shukr de, Boburki, karim-u G'affor*» deb boshlanadigan ruboiy ham keltirilgan.

Boburning hayoti va faoliyatiga oid o'nlab badiiy asarlar ham yaratilgan. O'zbek adabiyotida *Oybekning «Bobur»*, *E.Vohidovning «Kelajakka maktub»*, *B.Boyqobilovning «Kun va tun»*, *X.Sultonning «Boburnoma»*, *P.Qodirovning «Yulduzli tunlar»i* Bobur hayotining ayrim bosqichlariga bag'ishlangan asarlardir.

“BOBURNOMA” ASARIDAN PARCHALAR:

«Tengri taoloning inoyati bilan... o'n ikki yoshta podshoh bo'ldum...»

«... bu tarixgacha uch kishi Hinduston viloyatig'a musallat (ega) bo'lub, saltanat qiliburlar. Bir Sulton Mahmud G'oziy (G'aznaviy). Ikkinchi Sulton Shahobiddin G'uriy...Uchinchi mendurmen, vale mening ishim ul podshohlarning ishiga o'xshamas...»

Husavn Boyqaro tasviri:

«Valodat va nasabi valodati sekkiz yuz qirq ikkida Hirida Shohruhmirzo zamonida edi. Sulton Husaynmirzo binni Mansur binni Boyqaro binni Umarshayx binni Amir Temur... Onasi Uruzabegim edi. Temurbekning nabirasi. Sulton Husaynmirzo Mironshoh mirzoning ham nabirasi bo'lur edi. Sulton Husaynmirzo karimuttarafayn edi...»

...mafosil (revmatizm) zaxmati jihatidan namoz qila olmas edi. Harrof (ulfat) va xushxulq kishi erdi...

Tab'i nazmi (she'riy iste'dodi) bor edi. Devon ham tartib qilur edi. Turkiy aytur edi. Taxallusi «Husayniy» edi. Ba'zi baytlari muon emasdur, vale Mirzoning devoni tamom bir vazndadur...

...Shujo' (shijoatli) va mardona kishi edi. Temurbek naslidin hech kim ma'lum emaskim, Sulton Husayn Mirzocha qilich chopmish bo'lg'ay».

Alisher Navoiy tasviri:

«Alisherbek naziri yo'q kishi erdi. Turkiy til bila to she'r aytubturlar, hech kim oncha ko'p va xo'b aytqon emas...»

Ahli fazl va ahli hunarg'a Alisherbekcha murabbiy va muqavviy ma'lum emaskim, hargiz paydo bo'lmish bo'lg'ay. Ustoq Qulmuhammad va Shayxi Noyi va Husayn Udiykim, tozda saromad edilar, bekning tarbiyat va taqviyati bila muncha taraqqiy va shuhrat qildilar...

O'g'ul va qiz va ahlu ayol yo'q, olamni tavre fard (yolg'izlik) va jarida (tanholikda) o'tkardi...

...Yana musiqada yaxshi nimalar bog'labtur. Yaxshi naqshlari va yaxshi peshravlari bordur».

Andiion tasviri:

«...Oshlig'i vofir, mevasi farovon, qovun va uzumi yaxshi bo'lur. Qovun mahalida poliz boshida qovun sotmoq rasm emas. Andiionning noshpotisidin yaxshiroq noshpoti bo'imas. Movarounnahrda Samarqand va Kesh qo'rg'onidan so'ng mundin ulug'roq qo'rg'on yo'qtur. Uch darvozasi bor. Arki janub tarafida voqe bo'lubtur. To'qqiz tarnov suv kirar. Bu ajabturkim, bir yerdin ham chiqmas...»

...Eli turkdur. Shahr va bozorisida turki bilmas kishi yo'qtur. Elining lafzi qalam bila rostdur...

... Elining orasida husn xayli bordur. Yusuf Xojakim musiqiyda mashhurdir, Andijoniydur. Havosining ufunati bor. Kuzlar el bezgak ko'p bo'lar».

* * *

Samarqand tasviri:

«...Samarqandcha latif shahr kamroqdur. Beshinchi iqlimdindur. Shahri Samarqanddur, viloyatini Movarounnahr derlar. Hech yog'iy (dushman) qahr va g'alaba ila munga dast topmog'on uchun «baldayi mahfuza» derlar...

...Samarqandni Iskandar bino qilg'ondur. Mo'g'ul va turk ulusi Semizkand derlar...

...Eli tamom sunniy va pok mazhab va mutasharri'(shariatga bo'ysunuvchi)...eldur. Hazrati risolat (janob Payg'ambar) zamonidin beri ul miqdor aimmai islomkim (islom imomlari), Movarounnahr din paydo bo'lubtur...

...Sharqi Farg'ona va Koshg'ar, g'arbi Buxoro va Xorazm, shimoli Toshkand va Shohruhiyakim, Shosh va Banokat bitirlar, janubi Balx va Tirmiz. Ko'hak suyi (Zarafshon) shimolidin oqar...

...Samarqand shahri ajab orasta shahredur, bu shaharda bir xususiyate borkim, o'zga kam shaharda andoq bo'lg'ay. Har hirfagarning (hunarmand) bir boshqa bozori bor, bir-birlariga maxlut (aralash) emastur, tavr rasmedur (yaxshi odatdir). Xub nonvoliqlari va oshpazliklari bordur. Olamda yaxshi qog'oz bu shahrdin chiqar...

...Vale ikki meva Samarqanddin mashhurdir: sebi Samarqand (olma turi) va sohibiyi Samarqand (uzum turi)...

...Samarqandning sharqida ikki bog' solibtur (Temurbek), birikim, yiroqroqtur, Bog'i Bo'ldudur, yovuqrog'i Bog'i Dilkushodur. ...Dilkushoda ham ulug' ko'shk soldirubtur, ul ko'shkta Temurbekning Hindiston urushini tasvir qilibturlar.

... Yana ...bir masjid solibtur, Masjidi Muqatta' derlar. Bu jihattin Muqatta' derlarkim, qit'a-qit'a yig'ochlarni tarosh qilib, islimiy va xitoyi naqshlar solibturlar...

...Samarqand qal'asining ichida yana bir qadimiy imorattur, masjidi Laqlaqa derlar. Ul gumbazning o'rtasida yerga tepsalar, tamom gumbazdin laq-laq un kelur, g'arib amredur, hech kim muning sirrini bilmas..."

* * *

«...Yaxshi viloyati va tumonoti bor. Ulug' viloyatikim, Samarqand qarinasidur, Buxorodur. ...Tavr shahre voqe bo'lubtur. Mevasi ko'b

bo'lur va xo'b bo'lur, qovuni bisyor yaxshi bo'lur, Movarounnahrda
Iluxoro qovunicha ko'p va xo'b qovun bo'lmas... ».

* * *

«Hindiston mamoliki vase va purmardum va purhosil viloyat
voqe bo'lubtur... Bizning viloyatlarg'a boqa o'zga olamedur. Tog' va
daryosi, jangal va sahrosi, mavozi va viloyoti va hayvonot va nabototi,
dill va tili va yomg'uri va yeli borcha o'zgacha voqe bo'lubdur... ».

NAZARIY MA'LUMOT

Memuar asar haqida

Memuar asarlar (Yodnomalar) – muallifning o'zi qatnashgan yoki o'z ko'zi bilan ko'rgan o'tmish voqealari haqidagi asarlar. *Memuar* (frans. «*esdaliklar, xotiralar*») – yozuvchi o'zi ishtirok etgan yoki shohidi bo'lgan voqealarni jonli tasvirlagan esdaliklar tarzida yozilgan asardir.

Memuar asarlarga xos asosiy jihat shuki, unda muallif ishtirokchi yoxud tonig'(guvoh) sifatida tasvirlanayotgan voqealar markazida turadi¹⁴⁸.

Bayon qilish shakli, izchilligi jihatidan yodnomalar kundaliklarga yaqin tursa, materiali, uning ishonchliligi, badiiy to'qimaning yo'qligi jihatidan esa ilmiy asarlarga yaqin turadi. O'zbek adabiyotida memuarlarning asosan ikki – *tarixiy-yodnoma* va *badiiy-yodnoma* kabi turlari ko'proq uchraydi. «*Boburnoma*» asari XVI asr boshlarida yaratilgan o'zbek tarixiy-badiiy yodnomasining nodir namunasidir. *S.Ayni*ning «*Esdaliklar*», *A.Qahhor*ning «*O'tmishdan ertaklar*», *Oybek*ning «*Bolalik*» asarlari hozirgi zamon o'zbek badiiy-yodnoma adabiyotiga misol bo'la oladi.

¹⁴⁸ Q.Yo'ldoshev va boshq. Adabiyot (Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 9-sinfi uchun darslik). – T.: Yangiyo'l Poligraph service, 2010. – 90-bet.



28-MAVZU.

XVII – XVIII ASRLAR O‘ZBEK ADABIYOTI NAMOYANDALARI

ABULG‘OZI BAHODIRXON (1603 – 1664)



Abulg‘ozi Bahodirxon davlat arbobi, shoir, xon, tarixnavis olim, nafis san‘at bilimdonidir. Xiva xoni Arab Muhammadning yetti o‘g‘lidan biri bo‘lgan Abulg‘ozi sarkarda sifatida toblanish yillarida Turkiston, Samarqand va Buxoroda bo‘ldi, Eron Isfahonida o‘n yil hayot kechirdi, fors-tojik, arab, mo‘g‘ul tillarini o‘zlashtirdi.

Abulg‘ozi o‘z otasining nomi bilan ataluvchi Arabmuhammad madrasasida tahsil olgan. U akasi Asfandiyorxon vafotidan so‘ng 1643-yilda taxtni egallay boshlagan va 1645–1663-yillar mobaynida hukmronlik qilgan.

Xorazmning o‘tmish madaniyati Abulg‘ozida katta ishtiyoq va qiziqish uyg‘otgan edi. Abulg‘ozi «*Shajarayi tarokima*» (1661), «*Shajarayi turk*» (1664) va tabobatga oid «*Manofe‘-ul inson*» (1664) kabi nodir asarlar yozgan va Xorazm tarixchilik maktabiga asos solgan.

«*Shajarayi turk*» asarida Chingizxon va uning avlodlari, xususan, Shayboniyxonlar xususida gap boradi. Abulg‘ozi bu asarini 1663-yilda yoza boshlagan va uni oxiriga yetkazolmay, 1664-yil 61 yoshida vafot etgan. Uning o‘g‘li Anushaxon zamonasining tarixchilaridan Mahmud binni Mulla Muhammad Zamon Urganjiyga buyurib, «*Shajarayi turk*» asarini oxiriga yetkazgan.

Tabiiy sodda va samimiy tilda yozishi bilan Z.M.Bobur an‘analarini davom ettirgan Abulg‘ozi Bahodirxon asarlarida

muallifning elshunoslik va tilshunoslik borasidagi fikrlari uyg‘un ifodalangan.

Abulg‘ozi Bahodirxon yaratgan jami she‘rlar soni 6 ta bo‘lib, 80 misrani tashkil etadi.

“SHAJARAYI TURK” ASARIDAN PARCHALAR:

“Bu tarixning yaxshi va yomon barchalari bilsun teb turkiy til birlan aytdum. Turkiyni ham andaq aytubmanki, besh yashar o‘g‘lon tushunur. Bir kalima chig‘atoy turkisindin va forsiydin va arabiydin qo‘shmayman, ravshan bo‘lsun teb”.

O‘g‘uzxonning dunyoga kelganining zikri

“Qoraxonning ulug‘ xotinidin bir o‘g‘li bo‘ldi. Ko‘rki oy, kundin ortiq, uch kecha-kunduz onasini emmadi, har kecha ul o‘g‘lon onasining tushig‘a kirib aytur erdi: ey ona, musulmon bo‘lg‘il, agar bo‘lmasang, o‘lsam o‘larman, ammo emmasmen teb erdi, onasi o‘g‘lini qiya bilmadi, taqi Tangrining birlikina imon kelturdi... otini O‘g‘uz qo‘ydilar taqi aytdilar kim bir yashar o‘g‘lonning mundaq so‘zni so‘zlaganini hech zamonda hech kim eshitgan va ko‘rgan yo‘q turur teb...”.

“...Hech podshoh va amir va hech hakim va donishmand o‘z tarixini o‘zi aytg‘on ermas turur...”

...Bu faqirg‘a xudoyi taolo inoyat qilib ko‘b nimarsa bergan turur. Xususan, uch hunar bergan turur. Avval, sipohiylikning qonuni va yo‘sinikim, nechku otlanmoq va yurumak va yovga yosoq yasamoq, ko‘p birlan yugurganda nechuk qilmoq, oz birlan yugurganda nechuk qilmoq, do‘stg‘a, dushmang‘a nechuk so‘zlashmak. Ikkinchi, masnaviyyot va qasoyid va g‘azaliyot va muqattaot va ruboiyot va barcha ash‘orni fahmlamaklik, arabiy va forsiy va turkiy lug‘atlarning ma‘nosini bilmaklik. Uchinchi, Odam ahndindin to bu damgacha Arabistonda, Eron va Turonda va Mo‘g‘ulistonda o‘tgan podshohlarning otlari va umurlarning va saltanatlarning kam va ziyodin bilmaklik...”

Uyg'ur elining zikri

“Uyg'urning ma'nosi yopishqur temak bo'lur. Ayturlar sut uyidi. Sut erkaninda bir-birindin ayrilur, uyig'andin so'ng ayrilmas. Uyidi, ya'ni yopishdi. Taqi ayturlarki, imomg'a uydin...”

TURDI FAROG'IY

(Taxm. 1640 – 1699/1700)



Adabiyotimiz tarixida satirik-tanqidiy yo'nalishni ancha baland cho'qqiga olib chiqqan ijodkor, o'zbek adabiyotida hajviyot rivojiga sezilarli hissa qo'shgan shoir **Turdi Farog'iy** Buxoroda tug'ilgan. Uning umri Buxoro xonlari Nodir Muhammadxon (1642–1645) va uning o'g'illari Abdulazizxon (1645–1680) hamda Subxonqulixon (1681–1702) saltanati davrida kechgan. 1645-yilda Nodir Muhammad Xivani o'ziga bo'ysundirish uchun qo'shin tortadi. Xondan norozi bo'lgan yuz urug'i Xo'jandda Boqi Yuz boshchiligida qo'zg'olon ko'targan, ular orasida Turdi ham bo'lgan.

1681-yil Samarqand yaqinidagi Miyonkol qo'zg'olonida ham ishtirok etgan Turdining 1680-yillardan keyingi hayoti xorlik va darbadarlikda kechgan. U umrining so'nggi davrini Xo'jandda, Oqbo'tabiy huzurida muhtojlikda o'tkazgan¹⁴⁹.

Turdining ijodiyotidan **434 misradan** iborat (shundan 397 misrasi o'zbekcha, 37 misrasi tojikcha bitilgan) jami **18 ta she'r** yetib kelgan. She'rlaridan 2 tasi fors tilida (*1 ta g'azal va 1 ta muxammas*), qolganlari o'zbek tilida yozilgan. Ushbu merosning tarkibi 5 muxammas, 12 g'azal, 1 ta farddan iboratdir.

Turdi Farog'iy satiralari bilan ham mashhur bo'lgan shoirdir.

Shoir o'z she'rlarida “*Turdi*” va “*Farog'iy*” («*erkin tabiatli kishi*») taxalluslarini qo'llagan.

ADABIY MEROSI: «*Subhonqulixon va uning amir-amaldorlari to'g'risida hajviya*» (*muxammas shaklida*), «*Tor ko'ngullik beklar...*» g'azali («*Kenglik qiling...*», bu

¹⁴⁹ Q.Yo'ldoshev, B.Qosimov, V.Qodirov, J.Yo'ldoshekov. Adabiyot (Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 7-sinfi uchun darslik-majmua). – T.: Sharq, 2013. – 217-bet.

g'azalda muallif millatni birlikka chorlagan, g'azalda o'zbek urug'lari nomiga bog'liq bo'lgan tazod san'ati qo'llangan. U adabiyotimiz tarixidagi xalqni milliy birlikka chaqirgan, o'zaro tenglikka da'vat etgan, hududiy yaxlitlikni targ'ib qilgan siyosiy ruhdagi birinchi she'r sifatida alohida ahamiyatga ega. G'azalning matla'sida 92 o'zbek urug'ining tenglik qilishi so'ralgan, maqta'sida esa maydONTALAB bo'lolmaydigan, turli bo'htonlar bilan el orasini buzadigan kimsalar pardoz qiluvchi satang ayollarga o'xshatilgan. Bunda "bir" so'zi jami 8 marta, 3 baytning o'zida 5 marta qo'llangan), «**Bir sari azm ayla, joyi nomusulmondur bu mulk**» (5 baytli bu g'azalda Subhonqulixon davlatini qoralash, ayblash kuchli), «**Turdiman**» radifli g'azali (bu g'azal 3 baytdan iborat bo'lib, hasbi hol usulida yaratilgan. Unda shoir shaxsiy hayotida tirikchiligi «chashmi so'zan», ya'ni igna teshigidan o'tkazilayotgan ip kabi qiyin o'tganligini qayd qilgan), «**Boshima bir ko'hi g'am...**» (3 baytli g'azal), «**Yod mandin kim berur: yaxshi zamonlar ko'rdiman...**» (muxammas), «**Burun**» radifli muxammasi va boshq.

SHE'RLARIDAN PARCHALAR:

**Xush zamonlar yuz qazoni boshida sarjo'sh edim,
Bu zamon yavg'on qazon ostida qolg'on yundiman.**

* * *

**Har qanda g'ami do'st dili porani istar,
To subh yaqo yirtmadi – mehr o'lmadi paydo.**

SO'FI OLLOYOR (1634 – 1721)

So'fi Olloyorning yashagan davri turli manbalarda turlicha keltirilgan (1634–1721, 1620–vafot etgan yili noma'lum, 1644–1724)¹⁵⁰.

¹⁵⁰Qarang: B.To'xliyev, R.Mirsamiqova, O.Ametova. Adabiyot (Akademik litseylarning ikkinchi bosqich o'quvchilari uchun majmua). – T.: Cho'lpon nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2007. – 210–219-betlar; O'zbek adabiyoti (10-sinf uchun darslik).

– T.: G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2003. – 193–197-betlar; O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi (8-jild). – T.: «O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi» Davlat ilmiy nashriyoti, 2004. – 202-bet.

Ma'lumotlarni umumlashtirganda, tariqat arbobi va mutasavvuf shoir **So'fi Olloyor** Samarqandning Kattaqo'rg'on bekligiga qarashli Minglar qishlog'ida Olloquli ismli taqvodor kishi oilasida tug'ilgan. U boshlang'ich ma'lumotni uyda hamda masjid huzuridagi maktabda olgan.

So'fi Olloyor 10 yoshlarida Buxoroga borib, 15 yil mobaynida Jo'ybor shayxlaridan ilm o'rgangan, 25 yoshida Buxoro bojxonasida ishlagan, shayx Habibullo huzurida 12 yil tahsil olgan. U Buxoroda oila qurib, Muhammadsodiq, Amina, Halima ismli farzandlar ko'rgan.

So'fi Olloyor hayotning ko'plab qiyinchiliklariga va taqdirning son-sanoqsiz sinovlariga duch kelgan, to'ng'ich o'g'li bevaqt vafot etgan, akasi Farhodbiy Buxoro hukmdori Abulfayzxon qo'lida katta amaldorlardan biri bo'lishiga qaramay, qatl etilgan.

Adibning qabri Surxondaryo viloyatining Denov tumani yaqinidagi qishloqlardan birida joylashgan.

So'fi Olloyor diniy adabiyotning yirik namoyandasidir. U o'zbek va fors-tojik tillarida ijod qilgan, adabiyot tarixida bojgirlikdan kechib, karomatgo'y avliyo darajasiga ko'tarilgan allomadir.

So'fi Olloyor o'zbeklarning o'tarchi urug'idan bo'lgan. Bu haqda adibning quyidagi misralari orqali ma'lumot olish mumkin:

**Garchi Olloyor o'tarchidir, erur ul ham yomon,
Oning ham qadri o'tar bir nechaga o'lgan zamon.**

So'fi Olloyor asarlarining asosiy g'oyasi diniy-tasavvufiy, ma'rifiy fikr hamda e'tiqodni omma orasiga tarqatishdan, yoyishdan iborat bo'lib, shoir bu yo'lda Ahmad Yassaviy va Sulaymon Boqirg'oniylar tajribasidan unumli foydalangan.

ASARLARI: *«Maslak ul-muttaqiyn» («Taqvodorlar maslagi»), bu asar masnaviyda yozilgan bo'lib, unda fiqh, shariat ahkomlari, ma'naviyat, axloq qoidalari haqida bahs yuritilgan. Asar hajmi 12 000 baytdan ko'proq. Qiyoslash mumkinki, Yusuf Xos Hojibning «Qutadg'u bilig» asari 6500 baytdan*

ortiqroq edi. *“Maslak ul-muttaqiyn”* asaridagi g‘oyalarni turkiy tilda yoritish zaruratini sezgan adib uni *“Sabot ul-ujizin”* nomi bilan qaytadan yaratgan), *«Sabot ul-ujizin»* («Ojizlar saboti», u turkiy tilda bitilgan bo‘lib, fors-tojik tilida yaratilgan *«Maslak ul-muttaqiyn»* asarining qayta ishlangan nusxasidir), *«Murod ul-orifin»* («Oriflar murodi»), *«Maxzan ul-muteyin»* («Itoatkorlar xazinasi»), *«Favz un-najot»* («Najot tantanasi») va boshq.

BOBORAHIM MASHRAB

(1640 – 1711)



Bir qator ilmiy manbalarda Boborahim Mashrabning tug‘ilgan yili 1640- yoki 1647-yil deb ko‘rsatilgan. Bog‘istoniying *«Tazkirayi qalandaron»* asarini o‘rganish natijasida aniqlanishicha, **Boborahim Mulla Vali o‘g‘li Mashrab** 1653-yilda Namanganda bo‘zchi kosib oilasida tug‘ilgan ekan.

«Qissayi Mashrab»da aytilishicha, Mashrab yoshligidan majnuntabiat, go‘fysurat, odamovi va xomush qiyofada yuradi. Uning g‘ayritabiiy odatlari, gap-so‘zlari, yurgan yo‘lida aytadigan bayt-u g‘azallari ota-onasi va xaloyiqni hayron qoldiradi¹⁵¹. O‘spirinligida qayerda go‘riston bo‘lsa, ziyorat qilib, odamlarning suyaklarini ko‘rib: *“Ey odamzod, oxir o‘lib boshingga tushadurg‘on ish bu”*, – deb yig‘lab yurarkan.

Mashrab otasidan erta yetim qoladi. Onasi Bibi Salima ip yigirish bilan tirikchilik qilgan. Mashrab namanganlik taniqli so‘fiy **Xo‘ja Ubaydullo** (el ichida **So‘fi Eshon mullo Bozor Oxund** nomi bilan tanilgan kishi) qo‘lida ta‘lim oladi.

1671-yilda Samarqandga kelib, bir yil o‘qiydi.

Boborahim 23 yoshlarida Qashqarga – mashhur eshon Hidayatullo Ofoq Xoja huzuriga boradi. She‘rlarining guvohlik

¹⁵¹ Q.Yo‘ldoshev va boshq. Adabiyot (Umumiy o‘rta ta‘lim maktablarining 9-sinfi uchun darslik). – T.: Yangiyo‘l Poligraph service, 2010. – 91-bet.

berishicha, u yetti yil Ofoq Xoja huzurida bo'lgan. «Mashrab» taxallusini ham unga Ofoq Xoja bergan. «Mashrab» so'zi arabchadan tarjima qilinganda, «ichimlik ichiladigan joy», «fe'l, odat, xulq, tabiat» kabi ma'nolarni bildiradi¹⁵².

Mashrab pirining To'tibekach ismli kanizagini sevib qoladi va buni sezgan Ofoq Xoja Mashrabni majruh qilib, dargohidan quvib yuboradi.

Shundan so'ng shoirning qalandarona hayoti boshlanadi. U Namangan – Xo'jand – Toshkent – Samarqand – Buxoro – Makka – Madina – Istanbul kabi shaharlarni kezadi. Mashrab 18 yil ayriliqdan so'ng onasi va singlisi bilan diydor ko'rishadi.

Boborahim Mashrab 1711-yilda Balx hokimi *Mahmud Qatag'on* hukmi bilan *Qunduz* shahrida dorga osib o'ldirilgan. Uning qabri Ishkonmish degan yerdadir.

Haq va haqiqatni tanish va unga fido bo'lish Mashrab orzusi bo'lib, u mana shu yo'lda haqni talab qildi, uni tanidi, Alloh ma'rifati unga ma'lum bo'ldi, Allohni sevdi, uning ishqini bilan yonib yashadi va shu e'tiqodi tufayli qurbon bo'ldi.

Mashrab tasavvuf adabiyotining mashhur namoyandasidir. Uning ijodida targ'ib qilingan *qalandarlik maslagi naqshbandiylik* tariqati shoxobchasi hisoblanadi. Shoirning dunyoqarashi va she'rlarida ruhni tozalab, nafsni jilovlab, o'tkinchi dunyo havaslaridan ustun kelib, Alloh ishqiga yetishmoqlikni tarannum etish markaziy o'rinni egallaydi.

Mansur Xalloy, Ibrohim Adham, Nasimiy kabi adiblarning ijodi, hayot yo'li *vahdat ul-vujud* ta'limotiga mos keladi. Mashrab ham tasavvuf ilmida *Mansur Xalloy, Imomiddin Nasimiy, Alisher Navoiy* izdoshi bo'lgan.

So'fiylardan Ahmad Yassaviy ishqini ilohiyini rasmiy shariat doirasidan uzoqlashmagan holda sharh etadi, Navoiy har qanday yonish-kuyishlarda ham o'ychanlik va bosiqlik bilan ishqini mushohada qiladi. Mashrab esa Allohga bo'lgan muhabbatini oshkora kuylaydi.

Alloh oshig'i bo'lgan Mashrab qalandarlik yo'lini tutgan, Mansur Xalloy izidan borgan va o'shanday o'lishni orzu qilgan. Shoir g'azallarida tariqat odobi, maqsadi va mazmuni bayon

¹⁵² B. Qosimov va boshq. Adabiyot (10-sinf uchun darslik). – T.: O'qituvchi, 2004. – 297-bet.

qilingan bo'lib, u riyokor va ta'magir shayxlarga «*Xudo bersin panoh*» kabi g'azallar bitgan.

Mashrab Buxoroda *Mavlaviyi Sharifdan «Mushkoti Sharif»* tahsilini olgan va Abdullaxonning huzurida bo'lib, uni o'zining karomatlarini bilan lol qoldirgan, Qabadiyonda So'fi Olloyor bilan ham uchrashgan.

Mashrab she'rlaridagi lirik qahramon Imodiddin Nasimiyning «*Manga sig'ar ikki jahon, man bu jahona sig'masam*», deguvchi lirik qahramoniga ma'naviy maslakdoshdir. Buni quyidagi misralarda ham yaqqol ko'rish mumkin:

**Shariat ham, tariqat ham, haqiqat mendadur mavjud,
Chu sultoni azaldurmanki, arshi a'loga sig'mamdur.**

Mashrab o'zbek tasavvuf adabiyotini yangi bosqichga olib chiqdi, asarlarini sodda va jonli tarzda bayon etdi, o'zbekona so'zlarni tabiiy va samimiy jarangi, xalqona ifodalar bilan qo'lladi, maqol va iboralardan unumli foydalandi. Mashrab asarlarining katta qismi *sahli mumtane* san'atining yorqin namunalaridir. Ularda tasavvufning eng qiyin va mushkul muammolari nisbatan oson va qulay shakllarda tasvirlab berilgan¹⁵³.

Mashrab «*yuzi qizil-oq, ostidagi toyloqi o'ynoqlab turgan*», «*asli qalmoq, zoti qirg'iz, lola paypoqli*» sahroyi bo'tako'z qizlarni ham madh etgan.

Mashrabning asarlari qisman turli bayoz va tazkiralalar, asosan, «*Devoni Mashrab*», «*Devonayi Mashrab*», «*Eshoni Mashrab*», «*Hazrati Shoh Mashrab*» nomlari ostida xalq orasida qo'lyozma va toshbosma shaklida tarqalgan qissalar orqali yetib kelgan¹⁵⁴.

¹⁵³ B.To'xliyev, B.Karimov, K.Usmonova. Adabiyot (O'rta ta'lim muassasalarining 11-sinfi va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalarining o'quvchilari uchun darslik-majmua. I qism. - T.: "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti, 2018. - 182-bet.

¹⁵⁴ B.To'xliyev, B.Karimov, K.Usmonova. Adabiyot (O'rta ta'lim muassasalarining 11-sinfi va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalarining o'quvchilari uchun darslik-majmua. I qism. - T.: "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti, 2018. - 181-bet.

Mashrabning tarqoq she'riy merosi 1958–1980-yillarda *Abduqodir Hayitmetov, Abdurashid Abdug'afurov, Vahob Rahmonov, Komiljon Isroilovlar* tomonidan umumlashtirilib, asarlar to'plami tarzida bir necha bor nashr qilingan. Uning *g'azal, mustazod, murabba', muxammas, musaddas, musabba'* kabi janrlardan iborat to'liqroq to'plami 1990-yilda Jaloliddin Yusupov tomonidan «**Mehribonim, qaydasan**» nomi bilan nashr qilingan¹⁵⁵. Bu to'plamda ruboiy janridagi she'rlar uchramaydi.

«SHOH MASHRAB» qissasi haqida

«*Xalq kitobi*» sirasiga kiradigan «**Devoni Mashrab**» («*Shoh Mashrab*») qissasida Mashrab hayotiga oid juda ko'p ma'lumotlar keltirilgan. Bu qissada Xoja Abdulxoliq G'ijduvoniy va Ofoq xoja «*qutb ul-olam*» degan ulug' nom bilan atalgan, Mashrabning ikkinchi, uchinchi taxalluslari «*Mahdiy*» va «*Zinda*» deb bitilgan.

Asarda aytilishicha, Mashrab Ofoqxo'ja huzuriga borganda, hazrat Mashrabdan Hofiz Sheroziyning g'azalini o'qishni so'raydi. Mashrab g'azalni o'qigandan so'ng, Hazrati Ofoqxo'ja: «*Hay, bas, agar mundin ziyoda o'qusang kuyub ketarman!*» – deydilar.

ADABIY MEROSI: «*O'rtar*» («*Agar oshiqlik'im aytsam...*»), «*Ishq vodiysidan bir kecha men hay-haylab o'ttum...*» (bu g'azaldan Mashrabning dunyoga dushmanlarcha qarashining sabablarini bilish mumkin. Unda shoir dunyo mayining achchiqligini bilmoq uchun bir yalab o'tganligini ham aytgan), «*Ajab Majnun erurman, dasht ila sahrog'a sig'mamdur...*» (bu g'azalda lirik qahramon «*mavj urub dunyog'a sig'mamdur*» deganida o'zini nurga qiyoslagan, g'azalda ketma-ket besh baytda talmeh san'atining go'zal namunasini ko'rish mumkin), «*Qildi manga bir jilvaye, nogoh boqa qoldim...*», «*Ruhi jonim arshg'a yetti, man o'zim osmoniman...*», «*Mashrabman*», «*Qaydasan?*», «*Keldi*», «*Chidayolmas*», «*Xoh inon, xoh inonma*» (Lutfiy g'azaliga

¹⁵⁵ Q.Yo'ldoshev va boshq. Adabiyot (Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 9-sinfi uchun darslik). – T.: Yangiyo'l Poligraph service, 2010. – 92-bet.

(tazmin), «Qalandar bo'l, qalandar bo'l» (bu g'azalda baytma-bayt saj' san'atining qo'llanilishi uning ohangdorligini oshirgan), «Bu tani xokini-yu ruhi ravonni na qilay?!...», «Bulbuldayinkim faryod etarman...» (murabba'), «Va'da qildi bir kelay deb, ko'zga uyqu kelmadi...» («Kelmadi», muxammas), «Yorning ko'yida men bormoq edim...» (muxammas), «Na g'urbatlarni chektim, charxi bebunyod dastingdan...» (muxammas), «Ey mug'bacha, marg'ublug'ung haddin o'tubdur...» (musaddas), «Bul xasta vujudimni meni o'rtadi...» (mustazod), «Har kishini dardi bo'lsa, yig'lasin yor oldida...», «Kokulung anbardurur, jon ichida jonon qiz...», «Ishqing o'tig'a kuygoli keldim...», «Ko'rdum yuzungni – devona bo'ldum...», «Dunyog'a kelib...», «Nogoh ko'rubon...», «Oromi jonim qaydasan?», «Tushti savdoyi muhabbat boshima...», «Biryona yig'larman...», «Setor ila savti navo...», «Malaksan yo bashar...», «Oxir umrum o'tti...», «Ko'rsat jamoling...» kabi she'rlari, «Mabdayi nur», «Kimyo» usarlari va boshq.

MASHRAB SHE'RLARIDAN PARCHALAR:

Bu Mashrab dardini, jonoki, hech kim boshiga solma,
Agar mahsharda oh ursam, bihishti jovidon o'rtar.

* * *

Muhabbat dardida ovvora bo'lgan xalqni ko'rdim,
Ko'zi vaqti sahar sayyora bo'lgan xalqni ko'rdim,
Tani dard-u alamdan yora bo'lgan xalqni ko'rdim,
Dili tig'i sitamdan pora bo'lgan xalqni ko'rdim,
Zulm tug'yon etibdur – har birisi bexabar tanho.

* * *

Rizo mulkidaman, halqumni tuttim tig'i Akbarga,
Bu yo'lda siynai poki zabehullo'g'a sig'mamdur.
1 - Alloh yo'lidagi qurbonlik

* * *

Ishq o'tiga o'rtanib, devona bo'lgan o'zginam,
Kuya-kuya kul bo'lub, biryona bo'lgan o'zginam.

Vahdat mayini piri mug'on ilkidin ichtim,
Mansur kabi boshimi dorga tuta qoldim.

(Ushbu misralarda *tazod*, *tanosub*, *talmeh* kabi she'riy san'atlar qo'llanilgan)

Anodin qay kuni bo'ldum, sening ishqingda oh urdim,
Muhabbat dashtida yurgan bo'lub ovvora Mashrabman.

(Bu baytda *oshiq* ishqining boshlanishi Farhod va Majnunni yodga soladi)

XO'JANAZAR HUVAYDO

(Tug'ilgan yili noma'lum – 1780/81)

Xo'janazar G'oyibnazar o'g'li Huvaydo sulolasi o'shlik bo'lib, uning o'zi Farg'onaning Chimyon degan qishlog'ida tug'ilgan va umrining oxirigacha shu yerda yashab, ijod etgan. Uning otasi G'oyibnazar so'fi nomi bilan tanilgan.

Huvaydo boshlang'ich ta'limni Chimyondagi maktabda oladi, Qo'qon madrasalarida o'qiydi, maktabdorlik (muallimlik) bilan shug'ullanadi, kosiblik (to'quvchilik) bilan mashg'ul bo'ladi.

Huvaydo sulolasidan o'g'li *Sirojiddin (Sirojiy)* va nabirasi *Salohiddin (Sohib)* shoir bo'lib yetishgan. Salohiddin bobosining kitobini «*Kulliyoti Huvaydo*» nomi bilan Toshkentda 1908-yili chop ettirgan. Huvaydoning adabiy merosi «*Devon*»ida to'plangan. Bu devondan shoirning 100 dan ortiq g'azali, 28 ruboiysi, 41 to'rtligi, 3 muxammasi, 1 musaddasi, 1 musammani, 1 mustazodi va 3 masnaviysi o'rin olgan.

Shoirning «*Rohati dil*» (didaktik (o'git) hikoyatlardan tuzilgan, masnaviyda yozilgan) manzumasiga kirgan «*Bayoni g'addoriyi dunyo*» hikoyatida nafs yo'lida halok bo'lgan uch qarindosh (aka-ukalar)ning fojiali qismati, mehnatsiz topilgan boyluk hech kimga nasib qilmasligi bayon qilingan.

ADABIY MEROSI: «*Na qildim sanga man...*», «*Hoki poyi yaxshilar bo'l...*» (bu g'azal mazmun va g'oyaviy

yo'nalishi hamda shakliy-badiiy xususiyatlari, hatto aynan bir so'zning radif qilib olinishiga ko'ra ham Turdi Farog'iyning «Jismi qonundin nafas tori uzulmasdan burun» misrasi bilan boshlanuvchi turkiy muxammasiga hamohangdir), «Nafsing seni qattig' balo...», «Qoshingga sajda qildim...», «Topolmasman», «Firoq», «O'ldilar bu dunyodin...» kabi she'rlari, «Rohati dil» manzumasi, «Ibrohim Adham» dostoni va boshq.





29-MAVZU. XVIII – XIX ASRLAR O‘ZBEK ADABIYOTI NAMOYANDALARI

GULXANIY

(XVIII asrning oxiri – XIX asrning 20-yillari)



Muhammad Sharif Gulxaniy XVIII asrning oxiri, XIX asrning birinchi yarmida yashab ijod etgan o‘zbek mumtoz shoiri va masalnavis adibdir. U taxminan XVIII asrning 70-yillarida tug‘ilgan. Asli qorateginlik otasidan juda erta yetim qolgan va Xudoyquli Bahodir degan sarkarda qo‘lida tarbiyalangan.

Gulxaniyning hayoti Qo‘qon va Namanganda kechgan. U tirikchilik qilib, hammomda o‘t yoquvchi bo‘lgan, Qo‘qon xoni Amir Olimxon navkarlari safida xizmat qilgan (1801–1810).

Gulxaniy badiiy ijod bilan shug‘ullanib, Amir Umarxon davrida Qo‘qon adabiy muhitida e‘tiborli o‘rin egallagan. U ikki tilda (forsiy va turkiy), nazmda va nasrda ijod qilgan, «*Gulxaniy*» va «*Jur‘at*» taxalluslarini qo‘llagan.

GULXANIYNING ADABIY MEROSI

Gulxaniyning devoni bo‘lgan, lekin u yetib kelmagan. Undan bizgacha o‘zbek va tojik tillaridagi 12 g‘azali («*Ko‘ngul ozurdadur dunyog‘a arzi ehtiyoj etmas...*») g‘azali, lirik qahramonning ruhiy kechinmalari ta‘sirli ifoda etilgan «*Barmog‘im*», «*Ey, to‘ti*», «*Lola ko‘ksidek bag‘rim tahbatah qaro qonlar...*» kabi g‘azallari, navkarlik davridagi og‘ir hayoti

tasvirlangan «*Bideh*» (“*Bergil, ber menga*”) gʻazali va boshq.), Qoʻqon xoni Amir Umarxonga bagʻishlangan **1 ta forscha qasidasi** va «**Zarbulmasal**» asari yetib kelgan.

«ZARBULMASAL» asari haqida

«Zarbulmasal» asarida muallif xalq ogʻzaki ijodidan foydalanib, asosiy personajlar – qushlarning majoziy obrazlarini yaratgan. Bu asar xalq orasida «**Yapaloqqush hikoyasi**» nomi bilan ham mashhur.

Asarda Gulxaniy xonning atrofini Boyoʻgʻli, Yapaloqqush, Koʻrqush, Kordon, Kulonkir sulton kabi amaldorlar oʻrab olganligini taʼkidlab, mamlakatning tanazzulga yuz tutishini, shohning Boyoʻgʻliga aylanib qolishini majoziy yoʻsinda tasvirlagan. Bunda, asosan, yirtqich va tunda ov qilinadigan qushlarning qahramon qilib olinishida ham nozik ishora bor.

Asarda Yapaloqqush va Boyoʻgʻlining bir-biriga quda boʻlishi (Yapaloqqush oʻgʻli Kulonkir sultonga Boyoʻgʻlining qizi Gunashbonuni olib beradi), Koʻrqushning sovcilikka borishi, dabdabali toʻy boʻlib, kelin-kuyovning murod-mudsadiga yetishi tasvirlanadi. Malikshohin oʻzining pahlavoni boʻlmish Kulonkir sultonning toʻyini podshohlik hisobidan oʻtkazib berish maqsadida oʻz xazinachisi Kordonni toʻy xarajatlarini aniqlash uchun Boyoʻgʻlinikiga joʻnatadi. Boyoʻgʻli qizi Gunashbonu uchun ming chordevor (vayrona) mahr (qalin) soʻraydi. Kordon vayronalar sonini 600 taga tushirishni soʻraydi, Boyoʻgʻli koʻnmagach, qaytib ketadi. Koʻrqush Boyoʻgʻli oldiga kelib, Qoʻqondan topilmasa, mingta vayronani Buxoro muzofotidan topib berishini aytadi.

Yozuvchi asardagi *Yapaloqqush, Boyoʻgʻli, Koʻrqush, Hudhud, Shoʻranul, Malik Shohin, Kordon, Turumtoy, Kulonkir, Gunashbonu* kabi obrazlar va ular aytgan masal, maqol hamda hikoyalar orqali asarning gʻoyaviy mazmunini oqla olgan.

«Zarbulmasal» asari «*masal ichida masal*» usulida yaratilgan boʻlib, unda 400 dan ortiq maqol, matal, naql va 15 dan ortiq katta-kichik masal hamda hikoyat mavjud.

Gulxaniy hind eposi bo'lgan "**Kalila va Dimna**", Jomiyning "**Silsilat uz-zahab**" asari, Sa'diy Sheroziy, Hofiz Sheroziy, Xusrav Dehlaviy, Alisher Navoiy, So'fi Olloyor kabi donishmandlarning hikmatlaridan ham unumli foydalangan.

Asardagi «**Maymun va Najjor**» masalida shoir har bir kasbni yaxshi egallamay turib, unga tutinish kishiga zarar keltirishini alohida uqtiradi va kaltabinlik, nodonlik, shoshma-shosharlik ustidan kuladi. Qo'lidan kelmaydigan ishga uringan maymun haqidagi bu hikoyani **Hudhud** aytadi. Masaldagi voqealar **Kashmirda** bo'lgan.

«**Toshbaqa (sangpusht) va chayon (aqrab)**» masalida do'st tanlashda adashmaslikka e'tibor qaratiladi, unda «**Eshak o'yuni qirq yilda va yana it o'yuni bor anda**» maqoli uchraydi. Bu hikoya asar personaji Navozanda tomonidan aytilgan.

«**Tuya bilan bo'taloq**» masali **Ko'rqush** tomonidan aytilgan. Unda erki o'zida bo'lmagan kishining fojiasi ko'rsatilgan. Bu masal "**Bor edi Farg'onada bir sorbon**" misrasi bilan boshlanadi. Shundan ko'rinadiki, sorbon farg'onalik bo'ladi.

"**Dumsiz eshak**" masalida o'z ahvolidan doim shikoyat qilib yurish, noshukurlik tanqid qilinadi.

Asarda Turumtoy tomonidan aytilgan **Xolboqi misgar** va **Yodgor po'stindo'z** haqidagi, Kordon tomonidan aytilgan **Bozanda** va **Navozanda** ismli kabutarlar haqidagi hikoyalar ham mavjud.

Gulxaniy bu asarida yo'l ustida yotgan ko'zguni topib olgan habash haqida ham yozgan.

«ZARBULMASAL» asaridan parchalar:

Orazidin shams-u qamardur xijil,
So'zlaridin shahd-u shakar munfail.

Hosili umri erdi ul boyni,
Oti Gunashbonu o'shal oyni.

* * *

Shahrni zindonidin ozod o'lub,
Tog'ni Shirinig'a Farhod o'lub.

Sonur edi o'zini tog' Xisravi
Tog'ni o'qub Dehlaviyi ma'navi.

(*"Maymun va najjor"* hikoyatidan)

Ko'rqush nasihati:

"Va aydiki: «Ulug'ning borgohinda xiradmandi donish va ahli xiradi bohush har qancha ko'p bo'lsa ham, oz bo'lur. Xususan, podshohi odilg'a uch toifadin guzir va chora yo'qdur: avval, olimi boamalki, podshohning oxiratlik asbobini taraddudida bo'lsa. Ikkinchi, vaziri sohibi ra'yki, podshohning dunyolik yarog'ini taraddudida bo'lsa. Uchinchi, munshiyi rostnavis, qalamzan-u ulgahdor-u shamshirzan bo'lsa».

* * *

Anda Ko'rqush aydi: «Xayr ishig'a hech istixora hojat emas». Nечukkim, Xoja Hofiz Sheroziy aytibdurlarki:

Darkori xayr hojati hech istixora nest.

(*Yaxshi ishni bajarish uchun fol ochib o'tirishning keragi yo'q*)

MAXMUR

(XVIII asrning oxiri – 1844)

Asli ismi *Mahmud* bo'lgan shoir *Maxmur* XVIII asrning oxirlarida Qo'qon shahrida ziyoli oilasida tug'ilgan. Uning otasi Mulla Shermuhammad Qo'qon shahri atrofidagi Boytuman qishlog'idan bo'lib, madrasa mudarrisi bo'lgan, «*Akmal*» taxallusi bilan she'rlar yozgan, ikkita she'riy devoni bo'lgan (*o'zbekcha va tojikcha*). Onasi esa Hapalak qishlog'idan bo'lib, Turdiali ismli xattotning qizi bo'lgan.

Akademik *Aziz Qayumov* Hapalak qishlog'i haqida ayrim ma'lumotlarni bergan. Uning yozishicha, Qo'qon atrofida *Elash, To'lash, Tovush* kabi qishloqlar ham mavjud bo'lgan.

Maxmur (*bu so'z "mast", "xumor bo'lgan" ma'nosini beradi*) avval uyda, so'ngra Qo'qondagi Mir madrasasida tahsil ko'radi.

Maxmurning uylangani, uchta farzandi bo'lgani, Umarxon qo'lida sipohlik qilgani haqida ham ma'lumotlar bor.

Maxmur kambag'allikda, muhtojlikda yashagan. U o'z hayoti haqida shunday yozgan:

**Kechalar yotgani na xo'shim bor,
Kunduzi ichgani na no'shim bor.**

**Bir hovuch na uyimda g'allam bor,
Ki ikki gaz na boshimda sallam bor.**

Maxmur 1844-yilda Hapalak qishlog'ida vafot etgan.

MAXMURNING ADABIY MEROSI

Maxmur o'z she'rlarini o'zbek va tojik tillarida yozgan. Shoirning bizgacha 3417 misradan iborat **69 she'ri** yetib kelgan¹⁵⁶.

Maxmur xalqning ijtimoiy adolatsizlikka qarshi noroziligini ifodalovchi satirik she'rlar yozgan. U yaratgan *«Hapalak»* g'azalida xarob qishloqlar, ularda qashshoq hayot kechirayotgan dehqonlar turmushi haqqoniy va ta'sirchan ifodalangan.

SHE'RLARI: *«Hapalak»*, *«Amakim»*, *«Qozi Muhammad Rajab Avj»*, *«Hakim Turobiy hazor xalta»*, *«Ta'rifi viloyati Qurama»*, *«Munojot»*, *«Hoji Niyoz»*, *«Takabbur»*, *«Karimqul mehtar»*, *«Vazir»* radifli g'azali va boshq.

SHE'RLARIDAN PARCHALAR:

**Ey jahondori' zafar, kavkabayi' davri falak³,
Go'sh qil⁴ qissayi qishlog'i xarobi Hapalak...**

**Bor-u yo'q uylarini banda⁵ bayon gar qilsam,
Bir katak, ikki kapa, uch olachuq⁶, to'rt katalak⁷.**

(«Hapalak» she'ridan)

1 – ulug' podshoh. 2 – dabdaba, hashamat. 3 – olam. 4 – quloq sol. 5 – men, kamina. 6 – yirtiq, yamoq chodir (chayla, kapa). 7 – katakcha.

* * *

**Osaf, avqot ilgida ado bo'ldim, vazir,
Mufis-u qalshliqdan g'amzade bo'ldim, vazir.**

¹⁵⁶ Q. Yo'ldoshev, B. Qosimov, V. Qodirov. Adabiyot (Umumta'lim maktablarining 7-sinfi uchun darslik). – T.: Sharq, 2005. – 246-bet.

* * *

Kelgil, ey ahhob, avval tarzi raftorimni ko'r,
Ba'd davri gumbazi dastor davrimni ko'r...

...Bir magarmajman ki yuz ming ajdaho gar
uchrasa,
Aylaram bir luqma devi ju'i ashrorimni ko'r.

Garchi men qildim taxallus Avj yolg'ondir hama,
Xalqning ostida qolgan baxti jabborimni ko'r.
(«Qozi Muhammad Rajab Avj» g'azalidan)

MUNIS XORAZMIY (1778 – 1829)



O'zbek mumtoz adabiyotining yirik vakili **Shermuhammad Amir Avazmuhammad o'g'li Munis** (*Munis Xorazmiy*) shoir, tarixchi, tarjimon, xattot, mirob va ma'rifatparvar siymo edi.

Munis 1778-yilda Xiva yaqinida Qiyot qishlog'ida Avazbiy mirob oilasida tug'ilgan. O'z savodini qishloqda chiqargan Munis (bu so'zning ma'nosi «do'st, hamdam, sirdosh, ulfat» demakdir) Xiva madrasalarida tahsilni davom ettirgan. 1800-yili otasi Avazbiy, sal o'tmay onasi va ukasi vafot etadi.

Xon Avazbiy inoq Munisni saroyning farmonnafis kotibi qilib tayinlaydi. 1806-yilda Muhammad Rahim I taxtni egallagach, Munisni bosh miroblik lavozimiga tayinlaydi.

Shermuhammad 1829-yilda xonning Xuroson harbiy safaridan qaytayotganida, yo'lda vabo kasalidan vafot etadi va Qiyotda otasi qabri yoniga dafn etiladi.

1804-yilda Munis o'zining ilk devoni «*Devoni Munis*»ni tuzadi. 1814–1815-yillarda «*hazrati Sultoni Sohibqironning akosi, davlat xil'atining yaqosi, amiri kabir*» *Qutlug'murod Inoqning* maslahat va qistovi bilan shoir o'zining mukammal devoni «*Munis ul-ushshoq*» («*Oshiqlar do'sti*»)ni tuzadi.

Ushbu mukammal devonda g'azal, muxammas, qasida, ruboiy, git'a kabi janrga oid she'rlar jamlangan.

Munis ilohiy va insoniy kechinmalar, san'atkorlar haqida she'rlar yozdi, she'rni jahonni lashkar tortmay egallash mumkin bo'lgan ikki tig'li (dudama) qilich deb atadi, Ogahiy bilan birga Xorazm tarixini yozdi, Navoiyni «maoniy yo'lida pir» deb bildi.

Shoir Mirxondning «Ravzat us-safo» ("Soflik bog'i") asarini ham o'zbek tiliga o'giran.

ADABIY MEROSI: «Devoni Munis», «Munis ul-ushshoq», «Savodi ta'lim» (savod chiqarish va husnixatga oid she'riy risola), «Firdavs ul-iqbob» («Baxtlar bog'i», 1806-yilda yozilgan tarixiy asar), «Arnalar» («Anhorlar»), «So'z», «Shuaro», «Ustozlar e'tirofi» (talmeh san'atiga asoslangan bu g'azalda Nizomiy, Jomiy, Xusrav Dehlaviy, Ansoriy, Hofiz Sheroziy, Farididdin Attor, Firdavsiy, Xoqoniy, Anvari, Sa'diy, Iroqiy, Bedil, Navoiy, Kiromiy kabilarning nomi tilga olingan), «She'r ul tig'i dudamdurkim», «Davlatning borida bordur ahli olam oshno...» ("Oshno"), «Do'stlar, mensiz dame ohangi ishrat qilmangiz...» ("Qilmangiz"), «Base g'am boridin chekmish og'irni...», «Qaysi gulning men kibi...» (Bu g'azalda anafora san'ati qo'llangan), «Istading, ey dil, ko'zin joning kerakmasmu sanga?...» (bu g'azalda shoir o'tli muhabbatga yo'liqqan oshiqning nolatlarini ifoda etish uchun ko'ngil obrazidan foydalangan), «Bo'lmasa jinsi jamolingga xaridor oftob...» ("Oftob"), «Kulbam sari jononim kelmasmu...», «Hanuz», «Ko'ngluma bir gul g'amidin...», «G'uncha», «Ahhob», «Hajrida yomon holim...», «Ko'nglum ochilmaydur hanuz...», «Ishq asrorig'a mendin tarjimonroq yo'q kishi...», «Kimmikim do'st dedim...», «Armon bila yondim...», «Junun tasvirining Behzodi...», «Ishim kecha-kunduz fig'ondur...», «Kishvari mehnat shahimen...», «Yorni ko'rdu qizil to'ni bila...», «Do'st», «Vaslig'a jonboz etti do'st», «Fasli navbahor o'lmish...», «Ishqing o'tidin o'rtanadur joni nazorim...» (mustazod), «Shirinsuxan Laylivashim vaqtiki qohir bo'lg'usi...» (Navoiy g'azaliga muxammas), «Falak shabgun ko'ngul dudin namoyon etdigumdandur...» (Fuzuliy g'azaliga muxammas) va boshq.

SHE'RLARIDAN PARCHALAR:

Qilsa hosid daxli bejo, so'z aro yo'qdur g'amim,
Kim, bu ma'nida Navoiy ruhi homiydur mango.

Muniso, to'kmay yigirma yetti yosh,
Vah, yigirma yetti uzra yetti yosh.
Yosh kibi mashg'ulliq qilmoq nedur,
Har qachonkim suhbatimg'a yetti yosh.

(Bu tuyuq Munisning ilk devoni uning 27 yasharliligida tuzilganidan dalolat beradi).

Sabo tahrikidin yo'q, balki og'zing sharmidin boshin
Quy i solmoqqa moyil bo'lg'usidur har zamon g'uncha.

AMIRIY (1787 – 1822)



Amiriy taxallusi bilan mashhur bo'lgan shoirning ismi **Amir Said Muhammad Umarxon**dir. U 1787-yilda Qo'qonda xon Norbo'tabiy oilasida dunyoga keldi. Yoshligida Muhammad Yoqub qo'lida chuqur bilim olgan Umarxonga Andijon hokimi Rahmonqulibiy otabek qilib tayinlangan. Amiriy madrasa ta'limini ham olgan. Marg'ilon hokimi, ya'ni Umarxonning akasi Olimxon otasi vafotidan so'ng Qo'qonga ko'chgach, Marg'ilon ixtiyori Umarbekka topshiriladi. Yosh hokim Rahmonqulibiyning go'zal qizi *Mohlaroyim*ga uylanadi.

1810-yilda akasi Olimxon (laqabi "Zolimxon") fitna qurboni bo'lgach, taxtga Umarxon chiqadi va Qo'qonga ko'chib keladi.

Saltanat va dinni mustahkamlash yo'lidagi harakatlari yuksak baholanib, «*Amir ul-muslimin*» unvoni bilan taqdirlangan Umarxon Sulton Husayn Boyqaroga havas qilib Qo'qonda Hirotdagidek adabiy muhit yaratishga uringan.

Amiriy shahar qalam ahllari ijodidan maxsus tazkira tuzishni shoir Fazliy Namangoniya topshiradi. «*Majmuat ush-shuaro*» tazkisasi, Amiriyning «*Otalar so'zi*» degan nomda kitob yaratish taklifiga asosan yaratilgan Gulxaniyning «*Zarbulmasal*» asari shu tariqa vujudga kelgan.

Umarxonning o'zi ham *o'zbek* va *tojik* tillarida qalam tebratib, «*Amir*» va «*Amiriy*» taxalluslarini qo'llagan, devon tuzgan. Devonida g'azal, muxammas, musaddas, musamman, tuyuq, ruboiy kabi janrlarga mansub she'rlar mavjud. Umarxon Navoiy va Lutfiy ijodiga katta hurmat bilan qaragan.

ADABIY MEROSI: «*Qoshingg'a teguzmag'il qalamni...*» (bu g'azal «*Chorzarb*» kuyiga solinib, uzoq yillardan beri qo'shiq qilib aytib kelinadi), «*Tabibo, sharbati o'y nob ucharga bermagin pandim...*», «*To ko'zung oshiq lara noz-u itob ustindadur*», «*Lab uyur takallumg'a...*», «*Qizartib chehra maydin oshiqi zoringni kuydurma...*», «*Nega muncha siyohdur kokul...*», «*Junun daryosi tug'yon aylamakni mendin o'rgandi...*», «*Tushti tori zulfi yuzdin ko'ngul ichra pesh-u tob...*», «*Ul yor jafosi meni bezobita etti...*», «*Ne ko'z lardurki, toroj etmaka xunxordurlar...*», «*Sabo lutf et, mengo ul yor payg'omim ravon keltur...*», «*Ko'ngul la'li tamannosi bilan qon o'ldi o'xshaydur...*», «*Ishq asrorin pinhon aylaram ag'yor aro...*», «*Ey pari, may birla yuzni arg'uvon qilmoq nadur...*» va boshq.





30-MAVZU.

XVIII – XIX ASRLAR O‘ZBEK ADABIYOTI NAMOIYANDALARI

UVAYSIY

(XVIII asrning 80-yillari – XIX asrning o‘rtalari)



Yirik mumtoz shoira **Jahon Otin Uvaysiy** 1780-yillar oxirlarida Marg‘ilonning Childuxtaron mahallasida ziyoli oilada tug‘ilgan.

Otasi Siddiq bobo o‘zbek va tojik tillarida she‘rlar yozgan, onasi Chinnibibi ham fozila ayollardan bo‘lgan. Shoiraning akasi Oxunjon hofiz sifatida mashhur bo‘lib, otasi va akasi Jahon otinga dutor, tanbur chalishni o‘rgatganlar.

Fors-tojik va arab tillarini, badiiy adabiyot qoidalarini Jahon otin otasi Siddiq bobodan o‘rgangan. Shoiraning otasi erta vafot etgan.

Uvaysiy yoshligidan fors-tojik va o‘zbek shoirlari asarlarini o‘rganadi, Qo‘qon xoni saroyida Mohlaroyim Nodira bilan ijodiy hamkorlikda bo‘ladi, «Uvaysiy» (Vaysiy) taxallusi bilan she‘rlar yozadi. Bu taxallus payg‘ambarimiz Muhammad alayhissalomga goyibona muhabbat qo‘ygan **Uvays Qaraniy** ismli valiy zotga ishora sifatida, uvaysiylik munosabati tufayli olingan.

17 yoshli Jahon Otin marg‘ilonlik ziyoli Hojixonga turmushga chiqqan. Turmush o‘rtog‘i Hojixon erta vafot etgan.

Uvaysiyning **Muhammadjon** va **Quyoshxon** ismli turzandlari, **Ojiza**, **Jahon bibi**, **Hayot**, **Baqo**, **Dilorom** ismli shoira shogirdlari bo‘lgan. O‘g‘li Muhammadjon «**Majnun**» taxallusi bilan, qizi Quyoshxon «**Xokiy**» taxallusi bilan she‘rlar yozgan.

Uvaysiy hayotining bir qismi malika Nodirabegim huzurida, xon saroyida o'tgan.

1822-yilda Amir Umarxonning vafoti tufayli tashvishli va qayg'uli kunlar boshlangan. Otasi o'rniga taxtga chiqqan Muhammad Alixon shoiraga nisbatan yaxshi munosabatda bo'lmagan. Uvaysiyning o'g'li Muhammadxon sarboz sifatida Qashqarga harbiy yurishga jo'natilib, bedarak ketgan, qizi Quyoshxon marg'ilonlik Abdusamad qori degan kishiga turmushga chiqqan, lekin turmushi baxtsiz kechib, kasallik tufayli 1839-yilda 30 yoshida vafot etgan. 1842-yilda Uvaysiy Marg'ilonga qaytgan.

Jahon Otin qizidan qolgan nabirasi Bibi Xadichani tarbiyalay boshlagan, lekin u 1850-yilda (taxminan 65 yoshlarida) vafot etgan.

Shoiraning adabiy merosi devonlarida jamlangan. Ularda *g'azal, muxammas, musaddas, musamman, masnaviy, ruboiy, tuyuq, qit'a, mustazod, murabba', tarji'band, chiston* va *doston* kabi janrlarga mansub asarlar mavjud. Shoiraning she'rlari orasida *g'azal* asosiy o'rinni tutadi. U *chiston* janrida ham katta shuhrat qozongan.

Uvaysiyning merosi chevarasi **Xoljonbibi** (taxallusi «Mag'ziy») tomonidan fanga tortiq etilgan.

Shoiraning “*Uvaysiyman*”, “*Dog' o'ldi, dog' o'ldi*”, “*Sog'indim*” kabi *g'azallari* hasbi hol tarzida yozilgan.

ADABIY MEROSI: «*Shahzoda Hasan*», «*Shahzoda Husayn*», «*Voqeoti Muhammad Alixon*» (bu asar tugallanmay qolgan) *dostonlari*, «*Uvaysiyman*» (bu *g'azalda* «*benavo*» so'zi qofiyadosh so'z sifatida uchramaydi), «*Ko'ngul dog' o'ldi*», «*Sog'indim*» (bu *g'azalda* o'g'li Muhammadxonning sarbozlikka yuborilish munosabati bilan farzandidan judo onaning iztiroblari aks etgan. Quyidagi bayt ham shu *g'azaldan* olingan: “*Qorong'u bo'ldi olam ko'zima ushbu judolikdin, Ko'z-u ko'nglum ziyosi mohi tobonimni sog'indim*”), «*Mendin o'rgandi*», «*Oshiq bo'lmisham*», «*O'rgulay*», «*Yaxshi*», «*Maqsudi ko'ngul...*», «*Nozuk*», «*Qabul etkil*», «*Ishqida*», «*Ajab yo'q...*» kabi *g'azallari*, «*Qil armon, yo rab...*» *tarji'bandi* (unda “*Qutqar, eyxonim, Hasan boqqol balosidin meni, Qilg'on ul behuda ham jabr-u jafosidin meni*” *misralari* har bir bandda

takrorlangan), «Anor», «Qaychi», «Yong‘oq», «Kun va tun»
kabi chistonlari va boshq.

NODIRA (1792 – 1842)



Yuksak badiiy iste‘od
sohibasi bo‘lgan **Mohlaroyim Nodira**
1792-yilda Andijon hokimi
Rahmonqul otaliq oilasida tug‘ilgan.

Nodiraning onasi – **Oysha begim**
qizining tarbiyasi bilan astoydil
shug‘ullangan. Nodira dastlab otin oyi
qo‘lida ta‘lim oladi, xususiyl mutolaa
bilan shug‘ullanadi, keyinchalik
she‘rlar mashq qilib, shoira sifatida
taniladi.

1807-yilda Qo‘qon xoni
Norbo‘tabiyning o‘g‘li Umarxon bilan oila quradi. Rahmonqul
otaliq Olimxon va Umarxonning tog‘asi edi.

Nodira 1810-yilgacha Marg‘ilonda, undan keyin umrining
oxirigacha Qo‘qonda yashaydi. Shoira Muhammadalixon va
Sulton Mahmudxon ismli o‘g‘illarini tarbiyalagan, «**Nodira**»,
«**Maknuna**» («yashirin»), «**Komila**» taxalluslari bilan
(**Maknuna taxallusi bilan 333 ta, Nodira taxallusi bilan 180**
ta, Komila taxallusi bilan 19 ta) o‘zbekcha va tojikcha she‘rlar
yozgan¹⁵⁷ va **ikkita devon** tuzgan. Uning turkiy devonida
189 ta g‘azal mavjud bo‘lib, ulardan ayrimlari tojikcha.
Shoiraning forsiy she‘rlari «**Devoni Maknuna**»da jamlangan.
Nodira *g‘azal, muxammas, musaddas, musamman, tarji‘band,*
arkibband, muashshar kabi janrlarga oid she‘rlar yozgan.

Nodira turmush o‘rtog‘i vafotidan so‘ng davlat ishlariga
ham bosh-qosh bo‘lgan, «**Nodirayi davron**» nomi bilan shuhrat
qozongan.

¹⁵⁷ Q. Usmonov, U. Jo‘rayev, N. Norqulov. O‘zbekiston tarixi. – T.: O‘qituvchi, 2006. –
117 bet.

U 1842-yilda Qo'qon bosib olingan paytda Amir Nasrullo tomonidan o'g'li Muhammadalixon, Sulton Mahmudxon, Muhammadalixonning o'g'li Muhammad Aminxon va mahramlari Xushholbibi, Norbibi, Oyshabibilar bilan birga qatl etilgan.

Nodira asarlarining umumiy hajmi 10 000 misra atrofida bo'lib, she'rlarining asosiy mavzusi ishqdir. Nodiraning ijodi keyingi davrlarda qalam tebratgan adiblar uchun maktab vazifasini o'tagan. Xususan, Zokirjon Furqatning ayrim she'rlari Nodira asarlariga nazira(o'xshatma, tatabbu') tarzida bitilgan.

NODIRA G'AZALLARI VA ULARGA XOS JIHATLAR

«Marhabo», «Muhabbatsiz kishi odam emasdur...», «Yorning vasli emas ozorsiz...», «Nodira ahvolidan ogoh bo'ling...», «Qilmag'il zinhor izhor ehtiyoj...», «Ko'zlarim mushtoqdur diydor uchun...», «Fig'onkim, gardishi davron...», «Bo'ldi ul fursatki,...» ("Tutay"), «Ey xusho, shisha aro...», «Jonona qilur bahs...», «Jom tut», «Kiyima deb...», «Manga ishq ichra...», «Etmasam bo'lmas», «Aylamas», «Jilva ko'rsatdi chu ul sarvi dilor bog' aro...», «Kel, sanga, ey shahi jahon, mamlakati jahon fido...», «Na gul sayr ayla, na fikri bahor et...» va boshq.

«Doda keldim. ev salotin sarvari. dodim eshit...» g'azali 7 baytdan iborat bo'lib, ramali musammani mahzuf (yoki maqsur) vaznida (Taqte'si: - V - - / - V - - / - V - - / - V - (yoki - V ~)) yozilgan. Unda turkiy so'z ("eshit") radifga olingan. Qofiyadagi so'zlarning barchasi o'zbekcha egalik qo'shimchasi bilan kelgan forscha-tojikcha so'zlardan iborat. G'azalda lirik qahramon gapni to'g'ridan to'g'ri yorga murojaatdan boshlaydi, lekin g'azalning boshidan oxirigacha biror joyda "yor" so'zi ishlatilmagan. Asarda tazod san'atining go'zal namunalari ham uchraydi. Shoiri ushbu g'azalida qomatlarini tasvirlashda "sarvi ozod", "sarvi noz", "naxli oh", "shoxi shamshod" kabi timsollardan mohirona foydalangan.

«Vasli uvin obod qildim...» g'azali 9 baytdan iborat bo'lib, ramali musammani mahzuf (yoki maqsur) vaznida (Taqte'si: - V - - / - V - - / - V - - / - V - (yoki - V ~)) yozilgan. Bu g'azalda "oqibat" so'zi radifga olingan, undagi eng muhim badiiy san'at turi tazoddir. G'azalda talmeh san'ati ham uchraydi (Shayx Man'on, Sulaymon).

«Kel, dahrni imtihon etib ket...» Nodiraning favqulodda tiran fikrlarga boyligi, ifodaning kutilmagan tarzda yorqinligi bilan ajralib turadigan ushbu g'azali 9 baytdan iborat bo'lib, ramali musammani mahzuf (yoki maqsur) vaznida (Taqte'si: - - V / V - V - / V - -) yozilgan. G'azalda "etib ket" so'zlari radifga olingan, unda umri mazmunli, samarali o'tkazish g'oyasi ilgari surilgan.

TARJI'BANDI: «Xating ishtiyogin...» (bunda "Visolingdin, ey jon, topolmay so'rog', Nelar tushti boshimga sendin yirog'" misralari har bir band oxirida takrorlangan) va boshq.

«FIROQNOMA» muashshari haqida

Ushbu she'r shoiraning hijron mavzusida bitilgan maxsus asari bo'lib, u 10 misralik 10 banddan, ya'ni 100 misradan iborat. She'rda Komila taxallusi qo'llangan.

Bu muashsharning naqorat qismida shoiri «Yo rab» degan murojaat jumlanini qo'llagan, ya'ni har bir band oxirida quyidagi misralar takror kelgan:

**Hech kim, yo Rab, jahonda yoridin ayrilmasun,
Jondin ortuq, mehribon dildoridin ayrilmasun.**

Bu she'rning ayrim baytlarida radif qo'llangan, ayrimlarida qo'llanmagan, ya'ni 1-, 2-, 5-, 7-, 8-bandlarda radif bor, qolgan 5 bandda esa yo'q. Birinchi bandda "aylar falak", ikkinchi bandda "aylar meni", beshinchi bandda "qilmadi", yettinchi bandda "bo'lmadi", sakkizinchi bandda "ayladi" so'zlari radif bo'lib kelgan.

She'rning to'rtinchi bandi "Qaydasen, yorim, so'rog'ingda ko'ngul ovoradur" murojaati bilan boshlanadi. Yettinchi

bandida hasbi hol, ya'ni bevosita muallif tarjimayi holi bilan bog'liq jihat yana-da kuchli ifodalangan. Asarning oxirgi bandi shoiraning **mug'anniyga** murojaati bilan boshlangan.

Bu muashshar bilan Abdulla Oripovning "Ayol" she'ri o'rtasida bog'liqlik mavjud.

SHE'RLARIDAN PARCHALAR:

**Belining borlig'in qildi qamarbandi ayon,
Og'zi yo'q erdi, ani qildi padidor hadis.**

(Shoiraning bu she'ri A.Navoiy va Bobur tasvir uslubini eslatadi)

**Harifi sog'aru sahbo qalandar,
Muhabbat ko'yida shaydo qalandar.**

**Yorning vasli emas ozorsiz,
Gulshan ichra gul topilmas xorsiz.**

**Xudodin o'zga yo'qdur takyagohi,
Junun iqlimida yakto qalandar...**

**Qilmag'il zinhor izhor ehtiyoj,
Kim aziz elni qilur xor ehtiyoj.**

**Siyodat xonadoni, shohi Bobur nasli pokimen,
Xudoyo, rahmat ayla barcha ajdodi izomimni.**

**Doda keldim, ey salotin sarvari, dodim eshit,
Sen shah-u men benavo, lutf ayla, faryodim eshit.**
(Ushbu baytda Nodira Allohga va Amir Umarxonga murojaat qilgan)

MUHAMMAD RIZO OGAHIIY

(1809 – 1874)



Shoir, tarjimon, tarixnavis, davlat va jamoat arbobi **Muhammad Rizo Erniyozbek o'g'li Ogahiy** barakali ijod qilgan san'atkor sifatida Navoiyga qiyoslanadi.

Ogahiy 1809-yil 17-dekabrda Xiva shahri yaqinidagi Qiyot qishlog'ida Erniyozbek mirob oilasida tug'ilgan. Yoshligida otasi vafot etib, amakisi Munis qo'lida tarbiyalangan.

Shoir boshlang'ich ma'lumotni Qiyotda olgan, keyin Xiva madrasalarida o'qigan, arab va fors tillarini, tarix ilmini puxta o'rgangan. U «**Ogahiy**» («*ogoh*» – *ziyrak, xabardor*) taxallusi bilan ijod qilgan.

1829-yilda Ogahiy amakisi Munisdan ajralgan, Olloqulixon amakisi Munis o'rniga mirob (suv ishlari boshqaruvchisi) etib tayinlangan. Shoir 1845-yilda otdan yiqilib, oyog'i shikastlanadi va to'shakka bog'lanib qoladi. Shunday dard azobini tortayotgan adib umr yo'ldoshidan ham ajraladi. U 1857-yilda miroblik vazifasidan iste'fo berishga majbur bo'ladi. Lekin Ogahiy bunday musibatlar oldida chekinmadi, tinmay ijod qildi.

Mukammal mustazod kashfiyotchisi ham bo'lgan Ogahiy 1874-yilda 65 yoshida vafot etgan.

OGAHIYNING IJODIY MEROSI

Ogahiydan bizga katta ijodiy meros qolgan. Uning salkam 300 ga yaqin g'azali, mumtoz she'riyatimizning o'nlab boshqa janrlarda yozilgan *muxammas, musaddas, ruboiy, qit'a, tuyuq, qasidalar*, forscha bitgan she'rlari, ko'plab tarixiy asarlari tarjimalari 6 jildda chop etilgan.

TARJIMALARI: Ogahiy tarjimon sifatida forsiydan o'zbek tiliga quyidagi asarlarni o'g'irgan:

Mirxondning «Ravzat us-safo», Muhammad Mahdiy Astrobodiyning «Tarixi jahonkushoyi Nodiriy», Zayniddin Vosifiyning «Badoye' ul-vaqoye'», Mahmud binni Shayx

Ali G'jduvoniyning «Miftoh ut-tolibin», Muhammad Muqim Hirotiyning «Tabaqoti Akbarshohiy», Muhammad Yusuf Munshining «Tazkirayi Muqimxoniy», Rizoqulixon Hidoyatning «Ravzat us-safoyi Nosiriy», Husayn Voiz Koshifiyning «Axloqi Muhsiniy», Kaykovusning «Qobusnoma», Muhammad Vorisning «Zubdat ul-hikoyot», «Sharhi daloyil al-hayrat», Sa'diy Sheroziyning «Guliston» (Bu tarjimada quyidagicha hikoyat bor: «Hazrati imom Muhammad G'azzoliydin so'radilarkim, ulumda mundoq oliy martabag'a nechuk yetushding? Anda imom dedi: «Bilgilkim, har nimarsanikim bilmadum, oni kishidin so'rmoqda mangu nomus qilmadum»)), Abdurahmon Jomiyning «Yusuf va Zulayho», «Salomon va Ibsol», «Bahoriston», Badriddin Hiloliyning «Shoh va gado», Nizomiy Ganjaviyning «Haft paykar», Xusrav Dehlaviyning «Hasht behisht» kabi tarixiy, badiiy asarlari va boshq.

«TA'VIZ UL-OSHIQIN» devoni haqida

«Ta'viz ul-oshiqin» («Oshiqlar tumori») devoni Muhammad Rahimxon II (Feruz) taklifi va talabi bilan tuzilgan. Devonda Ogahiyning 20 dan ortiq janrdagi sal kam 20 000 misrali lirik merosi jamlangan. Ulardan 1300 misradan ortig'i fors tilida bitilgan.

Ogahiy devonida ijtimoiy-siyosiy, axloqiy-didaktik, ishqiy, tabiat tasviri va boshqa mavzulardagi she'rlar jamlangan.

Ogahiy o'z asarlaridan birida **tazod** san'ati vositasida saltanat ishlarini yaxshi yo'lga qo'yish uchun qilinishi shart bo'lgan **yigirma ikki** sifatni va saltanatni tanazzulga olib boradigan **o'n sakkiz** illatni ko'rsatib bergan.

Ogahiyning qish va bahor tasviri chizilgan she'rlarini o'qit ekanmiz, uning peyzaj ustasi, o'tkir nigoh ustasi ekanligi namoyon bo'ladi. U **suvni** "suzuk" deb sifatlab, adabiyotda yangilik yaratgan.

Fasl tarovati, go'zalligini tasvirlashda Ogahiy **tashbeh**, **tashxis(jonlantirish)**, **sifatlash** kabi tasvir vositalarini mohirona qo'llagan. Bir she'rida shoir bahoriy yel rayhonlarga

Masihdek "toza jon" ato qilgani, gul yuzi ochilib, qumri-yu bulbullarning unga vola-yu shaydo bo'lganlari, lola soqiyasi qo'lidan ishrat ahliga qadah tutilgani kabi tasvirlar mavjud.

ASARLARI: «*Firdavs ul-iqbol*» (Bu asarni Munis boshlagan, Ogahiy uni 1839-yilda yozib tugatgan. Asarda Xiva xonligining 1825-yilgacha tarixi aks ettirilgan), «*Zubdat-ut tavorix*» ("Tarixlar qaymog'i", 1845–1846), «*Riyoz ud-davla*» (1844, "Saodat bog'lari". Bu asarda Xiva xonligining 1844-yilgacha bo'lgan tarixi o'z ifodasini topgan), «*Jome ul-voqeoti sultoniy*» ("Sultonlik voqealarining yig'indisi", 1847–1855), XIX asrning 60-yillarida yozilgan «*Gulshani davlat*» ("Davlat gulshani") va «*Shohidi iqbol*» ("Baxt shohidi") kabi turixiy asarlari, «*Ustina*» ("Mushkin qoshining hay'ati...", rajaz bahrida yozilgan bu g'azalda Ogahiy arab alifbosidagi «nun», «sod» harflarini bir-biriga qo'shib, «nas», ya'ni hukm so'zini hosil qilgan), «*Yuzing ochkim...*» (Bu g'azalda yor yuziga quyoshning sadqa bo'lishi, qoshiga yangi oynning tivozu' ko'rsatishi aytilgan), «*Bizki, bukun jahon aro kishvari faqr shohimiz...*» ("Himmatimiz baland erur..."), «*Sallamno*», «*Arzimas*», «*Navro'z*» radifli g'azali, «*Navro'z bo'lsun*», «*Navro'z erur*», «*Choy*», «*Qish*», «*Bo'lmasa bo'lmasun, netay*» (Navoiy g'azaliga nazira, radd ul-matla', radifshakliy va mazmuniy mukammallikni ta'minlagan), «*Donoyi oliyjohlar*» (davlatchilik, davlatni oqilono boshqarishdan, amaldorlar qanday bo'lishi kerakligidan bahs etuvchi g'azali), «*Ey sho'x, ko'z-u qoshingga olam gado...*» ("Jonlarda fikri surating..."), «*lshqing g'amida diydayi giryonima rahm et...*», «*Kishikim faqr ko'yida talabgori qanoatdur...*», «*Dahr uyi bunyodkim, suv uzradur, mahkam emas...*» (bu tarji'band tasavvufiy mazmunga yo'g'rilgan ijtimoiy-falsafiy asar bo'lib, unda dunyo omonat binoga, bo'yi, vafosi yo'q gulshanga, mehr-u vafosi yo'q, jafakor tuban ayyoraga, makkora ayolga o'xshatilgan. Shoir insonni unga ko'ngil berib, aldanib qolmaslikka chaqirgan), «*Oghnomu*» qasidasi (U M. Rahimxon II (Feruz) ga bag'ishlangan. Qasidada saltanatni yuksaltiradigan 22 fazilat izohlangan. «Hayosizdan aslo vafu istama, Vafosizdan aslo hayo istama» misralari ham shu qasidada uchraydi. Bu

qasidada bevafo dunyoning teskariligi bayon etilgan baytlar ham mavjud), «*Qasidayi nasihat*» (*Adabiyotimiz tarixidagi siyosiy-didaktik lirikaning yorqin namunasi bo'lgan bu qasida Muhammad Rahimxon Soniyning taxtga o'tirishi munosabati bilan 1865-yilda yozilgan. Ogahiy fikricha, yurtni boshqaruvchi adolatli, shijoatli, saxovatli, to'g'ri siyosatli, hayoli va va'daga vafoli, toza niyatli, hamiyatli, muhtojlarga yordam ko'rsatadigan bo'lmog'i kerak*), «*O'yla yetkurd jahong'a ziynat-u oro bahor*» g'azali (*bunda shoir tog'lardan mayin oqib kelayotgan suvni noz bilan suzilib borayotgan go'zalga o'xshatgan*), «*Ishrat mayin...*», «*Dard ila g'am hamdamim...*», «*Shoiri diqqat shioringman...*», «*Ne ajab...*», «*Kimki rohat no'shidin bir qatra ichti...*», «*Bashar xayli...*», «*Mujda keldi...*», «*Chashmi jodudir...*», «*Bu qish...*», «*Xarob o'lsun...*», «*Dardi dilim ango dedim...*», «*Ko'tardi yer yuzidin soya navro'z...*», «*Qotig'roq kelmadi hargiz jahong'a ushbu qishdin qish...*», «*Doshhovli*» tasviri» va boshq.

SHE'RLARIDAN PARCHALAR:

Qolmag'ay amniyat osori agar topsa rivoj,
Shahr aro avboshlar, beboklar, berohlar.

(*Pandnoma ruhida, ta'did qo'llangan*)

* * *

Qilib oyini mehr og'oz navro'z,
Kelib qish faslin etti yoz navro'z.

* * *

So'zdur inson ko'nglida bir gavhari qimmatbaho,
Oni xor etma, debon har hushi yo'q hayvong'a so'z...

Bilmagan o'z qadrini, ne bilgusi so'z qadrini,
Hayfdur dono demak, nodon-u beirfong'a so'z.

* * *

Qoziki, yegay rishva¹ bila besh² xiyor³,
Sobit sening uchun qilur o'n har buzag'a⁴ zor.

(*Sa'diy «Guliston»ining Ogahiy tarjimasidan*)

1 – pora; 2 – ko'p, ortiq, ziyod; 3 – bodring; 4 – qovun.

* * *

Ul gul yuzi shavqi bila shaydo ko'ngul shom-u sahar
Bulbuldek aylar yuz navo ming nav'i faryod ustina.

*(Bu baytda tashbeh va tanosub san'atlari fikr ifodasining
go'zallashuvida ahamiyat kasb etgan)*

* * *

Tarab tiflin tug'urdi dahr zoli,
Ango bo'ldi magarkim doya navro'z.

(Bu baytda 3 ta tashxis bor)

* * *

Noz-u ado-u g'amzasi qasdim qilurlar dam-badam,
Vah muncha ofatmu bo'lur bir odamizod ustina.

*(Bu baytda qo'llangan tashxis san'atiga insonning o'zidagi holat,
hislat asos bo'lgan)*

* * *

Chu o'n sakkizga yetti yoshing, ol burqa jamolingdin
Ki, o'n sakkiz ming olam o'n sakkiz yoshingdin aylansun.

*(Ogahiyning ushbu baytida ma'shuqaning olamlarga tatigulik
go'zalligi mubolag'ali yo'sinda tasvirlangan)*

* * *

Shahanshahliq o'lsun muborak sango,
Madadkor Tangri taborak sango.

(«Ogohnoma» qasidasidan)

* * *

...Bugun, podshoho, sanga saltanat
Beribdur Xudo ko'rguzub marhamat.

(Bu misralarda Muhammad Rahimxoni soniy – Feruz vasfetilgan)

* * *

Chu bergung non ila osh, ey saxiy, sidq ahlig'a bergil,
Riyo-vu kizb ahli noning-u oshingdin aylansun.

MUHAMMAD RAHIMXON FERUZ (1844 - 1910)



Said Muhammad Rahimxon Bahodirxon soniy – Feruz davlat arbobi, shoir, musiqashunos, olim va bastakordir. U 1844-yilda Xivada tug‘ilgan. 1863-yil Xorazm taxtiga o‘tiradi. Muhammad Raximxon II (Feruz) Xorazm adabiyoti, san‘ati, madaniyati va ma‘rifatini rivojlantirdi hamda ijod ahliga homiylik qildi. U O‘rta Osiyo xonliklarida birinchilardan bo‘lib taxminan 1874-yilda tosh bosmaxona tashkil qiladi va fotografiya ishlarini yo‘lga qo‘yishda boshqosh bo‘ladi.

Feruz *Ogahiy*ni va *shayxulislom Salimoxun Matpona o‘g‘lini* ustoz va pir tutgan. U Yangiariqlik shoir Muhammad Ya‘qubxo‘ja Xolisga Alisher Navoiyning «Xamsa»sini qayta ko‘chirtirib, uning «Hayrat ul-abror» dostonini nashr qildirgan.

Shoir she‘rlarining lirik qahramoni dunyo tashvishlarini yelkasiga ortgan, jamiyat va xalq farovonligini muttasil o‘ylaydigan, yuksak madaniyatli va ma‘rifatparvar insondir.

ADABIY MEROSI: «*Furqating soldi...*», «*Gulshan ichra...*», «*Oftoboso jamoling...*», «*Ey rafiq*», «*Aylading*», «*La‘li shiriningni...*» (Bu g‘azal har bir baytida shoirlar nomini ketma-ket keltirilishi bilan ajralib turadi, ya‘ni unda *talmeh san‘ati qo‘llangan*) kabi g‘azallari va boshq.





31-MAVZU.
XIX – XX ASRLAR O‘ZBEK ADABIYOTI
NAMOIYANDALARI

DILSHODI BARNO
(1800 – taxminan 1905/1906)

O‘zbek va tojik xalqining iste’dodli shoirasi **Dilshodi Barno** 1800-yilda Istravshan (O‘ratepa) shahrining Mir Mushon mahallasida tug‘ilgan. Otasi Rahimqul so‘fi shoirtabiat kishi bo‘lib, O‘ratepa uchun olib borilgan janglardan birida vafot etadi, onasi 1813-yilda vabo kasalidan ko‘z yumadi. Yetim qolgan shoir 90 yoshdagi enasi bilan ip yigirib kun kechiradi.

1816–1817-yillarda Amir Umarxon O‘ratepaga yurish qiladi va bir qancha aholini asir sifatida Qo‘qonga yayov haydaydi. Bular orasida Dilshodi Barno ham bor edi. Nozikta‘b, go‘zal bu qizni Umarxon huzuriga kiritadilar. Xon uni sinash maqsadida anorni ko‘rsatib «*Ushbu anorga ne deyursan?*» – deydi. Dilshodi Barno «*Qizlar xunidin to‘ldiribsan*», – deb javob beradi. Xon uni saroydan quvib yuboradi.

Shundan so‘ng shoirani o‘z roziligi bilan 50 yoshli Tosh Mahdumga nikohlaydilar. U 57 yoshida ekanligida Maxdum 90 yoshida vafot etadi. Ular sakkiz farzand ko‘radilar, lekin ikki o‘g‘il va bir qizi omon qoladi.

Dilshodi Barno yuz yildan ortiq umr ko‘rgan. U ko‘plab iqtidorli qizlarning kamol topishiga ham hissa qo‘shgan. Iqtidorli shoir Anbar Otin ham Dilshodi Barnoning qo‘lida tahsil ko‘rgan.

DILSHODI BARNONING ADABIY MEROSI

Dilshodi Barnodan bizga qadar o‘zbek va tojik tillarida yozilgan 142 she‘ri, «*Tarixi muhojiron*» («*Muhojirlar tarixi*») asari, «*Tarjimayi hol*» masnaviysi yetib kelgan.

«*Tarixi muhojiron*» asarida XIX asr Qo‘qon xonligidagi tarixiy, ijtimoiy-siyosiy hodisa va voqealarning ishonchli tasviri berilgan.

«*Tarjimayi hol*» masnaviysida esa 1816-yildagi O‘ratepani bosib olish, asirlikka olinish, ko‘pgina asirlarning O‘ttiz adir degan joyga surgun qilinishi, 7 yildan so‘ng ular ozod etilishi va to‘qayzorda Shahrixon shahrining barpo etilishi kabi voqealar tasvirlangan. Xususan, shoira bu asarda «*Umarxon nom zolim, nomi shoir*» deya xonga ta‘rif bergan.

MASNAVIYSI: «*Mani aslim erur olamg‘a ravshan...*».

G‘AZALLARI: «*Bahor ayyomi kelmasdan...*», «*Isming Anbar...*», «*Yillardan ham yiroq bo‘ldi...*», «*G‘azaliyot*», «*Ey, raqiblar...*», «*Kech*», «*Tabx*», «*Laziz*», «*Ey, vatandosh...*», «*Keling, qizlar...*», «*Istravshan*», «*O‘ratepa*» va boshq.

KOMIL XORAZMIY

(1825 – 1899)



Pahlavon Muhammadniyoz Abdulla
Oxund o‘g‘li Komil Xorazmiy shoir, xattot, musiqashunos, tarjimon va davlat arbobidir. Uning asl ismi Muhammadniyoz bo‘lib, ba‘zi zamondoshlari uni «*Niyozmuhammad*», «*Polvonniyoz*», «*Matniyoz*» deb ham atashgan. «*Komil*» («*yetuk, mukammal*») uning adabiy taxallusidir.

Shoir 1825-yilda Xivada ziyoli oilasida tug‘ilgan, otasi madrasada mudarrislik qilgan. Komil bobosi savdogar Xo‘jash Mahram qo‘lida tarbiya topadi, arab, fors tilini o‘rganadi, Xiva xoni Said Muhammad Rahimxon qo‘lida xattot bo‘lib ishlaydi, Muhammad Rahimxon II zamonida mirzaboshi, devonbegi vazifalariga ko‘tariladi. Shoir 1880-yilda devonbegi lavozimidan olinib, mirzaboshi etib tayinlanadi. Tarixda «*Gandimiyon sulhi*» deb nom olgan shartnoma matnini Komil Xorazmiy yozgan edi.

Komil musiqa bilan ham astoydil shug'ullangan, «Rost» muqomiga «*Murabbayi Komil*», «*Peshravi Feruz*» kabi kuylar bog'lagan.

Shoir Toshkentga, Afg'onistonga, Buxoroga, Moskva va Peterburgga boradi, o'zbek musiqasiga Ovro'pa notasini olib kirib, «*Xorazm notasi*» (yoki «Tanbur notasi(chizig'i)») nomli o'z nota tizimini yaratadi.

Umrining oxirlarida Komil Xorazmiyning ko'zi ojizlanib, uyda o'tirib qolgan. U 1899-yilda Xivada 74 yoshida vafot etgan.

Komil Xorazmiy tarjimon sifatida XVIII asr fors adabiyoti namunasi bo'lgan *Barxurdor bin Mahmud turkman Farohiy (Mumtoz)*ning «*Mahbub ul-qulub*» («Ko'ngillarning sevgani») va *Faxriddin Ali Safiyning «Latoyif at-tavoyif»* («Turli toifalarning latifalari») asarlarini o'zbekchaga o'giran.

Komil Xorazmiyning ijodiy merosini shartli ravishda mumtoz yo'nalishdagi va ma'rifatchilik yo'lidagi asarlarga bo'lish mumkin. U o'zgalardan farqli ravishda o'zbek adiblari orasida birinchilardan bo'lib asarlarida odamni faqat ilohiy yaratq sifatida emas, balki tirikchilik tashvishlari va ijtimoiy muammolarga ko'milgan oddiy inson sifatida aks ettirgan.

KOMIL XORAZMIYNING ADABIY MEROSI

«DEVON»i. U 1880/81-, 1895-, 1909-yillarda nashr etilgan. Ushbu devonda *g'azal, murabba', masnaviy, ruboiy, qasida, muammo* janrlariga oid she'rlar jamlangan.

G'AZALLARI: «*G'urbat aro*», «*Kamol*», «*Shuaro*», «*Fuzalo*», «*Ko'rmamish sandek jahonda hech bir gulzor, gul...*», «*Lola*», «*Toshkand*», «*Po'stin*», «*Suv*», «*Yorim uzori avji saodat mahi erur...*» (Komilning ishqiy lirikasida salmoqli badiiy ahamiyat kasb etgan g'azallaridan biri), «*Buxl eliga demagil, ey zubdayi davron so'zung...*» (Komilning ma'rifiy yo'nalishida bitilgan, ma'rifatdan, pokiza tuyg'ulardan yiroq zamondoshlari haqidagi nadomatlarini ifodalangan g'azallaridan biri), «*Ilohi, necha ko'p jinoyat mango...*», «*Mango qilma, ey mohi oliyjanob...*», «*Tokay yuray yo'lingda...*», «*Har qachon kulbama falon jonim*» va boshq.

QASIDASI: «*Dar bayoni ta'rifi va tavsifi Toshkent*» (1/100 misra bo'lib, «*Turkiston viloyatining gazetisi*»da bosilgan).

MASNAVIYSI: «*She'r ko'p vaqt kambaho erdi...*».

MUXAMMASLARI: «*Qaysi falak burjining mehri puranvorisan?...*» («*So'yla menga, ey sanam...*»), «*Dardoki, yo'q jahon elida sharmsorlig'...*» va boshq.

SHE'RLARIDAN PARCHALAR:

Har qachon kulbama falon jonim,
Kelsa o'tru, chiqar anga jonim.

O'lgudekman firoqidin emdi,
Kelmasa bo'yniga erur qonim.

* * *

Dardoki, yo'q jahon elida sharmsorlig',
Ko'rganlar izzatimni menga berdi xorlig'.
Erkan abas o'z elidin do'stdorlig',
Yaxshi kunimda har kishikim qildi yorlig',
Do'ngach zamona, ayladi dushmanshorlig'.

MUQIMIY¹⁵⁸ (1850 – 1903)



XIX asrning ikkinchi yarmi va XX asrning boshlaridagi milliy uyg'onish davri adabiyotining zabardast vakillaridan biri **Muhammad Aminxo'ja Mirzaxo'ja o'g'li Muqimiy** 1850-yilda Qo'qondagi Bekvachcha mahallasida novvoy oilasida tug'ilgan.

Otasi Mirzaxo'ja Mirfozil o'g'li asli toshkentlik, onasi Oyshabibi (uni Xumorbibi

¹⁵⁸ Qarang: B.Qosimov, N.Jumaxo'ja. O'zbek adabiyoti (10-sinf uchun darslik). – T.: O'qituvchi, 2000. – 413–427-betlar; S.Ahmedov va boshq. Adabiyot (Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 6-sinfi uchun darslik-majmua). I qism. – T.: Ma'naviyat, 2017. – 98–101-betlar; N.Karimov va boshq. Adabiyot (Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 11-sinfi uchun darslik). – T.: O'qituvchi, 2004. – 30–41-betlar.

deb ham atashgan) esa xo'jandlik edi. Ularning Tojinisa, Ulug'bib, Saydinisa, Mehrinisa ismli qizlari ham bor edi.

Muqimiyning she'rga havas qo'yishida onasining xizmatlari katta. U yoshligida xalq og'zaki ijodi namunalarini, Hofiz, Navoiy, Fuzuliy ijodini o'rganadi.

Bo'lajak shoir dastlab o'z mahallasidagi mulla Abduxalil domla maktabida, so'ngra Qo'qondagi «Hokim oyim» madrasasida (1864 – 1873), keyin esa Buxorodagi «Mehtar anbar» madrasasida (1873 – 1876) o'qiydi.

1876-yilda shoir o'qishni tamomlab, Qo'qonga qaytadi va o'gay onasi Ziyodabibining Sanambibi degan qiziga uylanadi.

1867-yilda Muqimiyning onasi, 1886-yilda otasi vafot etadi.

Boshiga oila tashvishlari tushgach, Muqimiy 1877-yilda Qo'qon yer mahkamasiga ishga kiradi (mirzalik qiladi), keyin Oqjar qishlog'ida (Sirdaryo yoqasida) paromda pattachi bo'ladi.

Moddiy muhtojlik Muqimiy oilasining buzilishiga ham olib keladi (1879-yil). Xotini moddiy qiyinchilikka chiday olmay, o'g'lini onasiga tashlab, boshqa kishiga turmushga chiqadi.

Muqimiy 1886-yilda otasidan qolgan hovlini sotib, o'g'li Akbarxo'ja bilan birga «Hazrat» madrasasidagi hujraga ko'chib o'tadi, moddiy muhtojlikda yashaydi.

Muqimiy zamonasining yetuk xattotlaridan bo'lgan **Muhammad Yusuf** xattotdan ta'lim oladi. Xattotlik uning asosiy kasbi va tirikchilik manbayi bo'lib qoladi.

Muqimiy hayotini ijod qilishga bag'ishlaydi. Shu bilan birga u Namangan, Andijon, Marg'ilon, Shahrixon va Toshkent shaharlarida sayohatda ham bo'lgan. Shoir dastlab 1887–1888-yillarda, keyinchalik 1892-yilda Toshkentga boradi, qarindosh-urug'larini topadi, do'stlar orttiradi. U Farg'ona vodiysining shahar va qishloqlariga ham sayohat qilgan.

Muqimiy Qo'qonda **Furqat**, **Zavqiy**, **Nisbat**, **Muhayyir**, **G'aribiy**, **Nasimiy**, **Mavlaviy** va boshqa shoirlardan tashkil topgan adabiy guruhga boshchilik qilgan.

Muqimiy 1898–1899-yillarga kelib, tez-tez kasalga chalilib, 4-5 oylab yotib qolgan. U 1903-yil 25-mayda (53 yoshida) sariq kasali bilan og'rib, o'z hujrasida vafot etgan.

MUQIMIYNING IJODIY FAOLIYATI

«*Muqimiy*» (bu soʻzning maʼnosi «bir yerda doimiy turuvchi» demakdir) taxallusi bilan tanilgan shoirning sheʼriy asarlarini quyidagi guruhlarga boʻlish mumkin:

1. **Lirika** (gʻazal, muxammas, murabbaʼ, masnaviy, ruboiy, tuyuq, fard).

2. **Hajviyot** (satira, yumor).

3. **Sayohatnomalar.**

4. **Maktublar.**

1907-yilda Muqimiy devoni, 1910-yilda Portsev litografiyasida shoirning hajviy sheʼrlari «*Muqimiy maa hajviyot*» nomi bilan nashrdan chiqqan. 1912-yilda Muqimiyning yana bir sheʼriy toʻplami chop etilgan.

Muqimiy ijodini samarali oʻrganish XX asrning 30-yillarida boshlangan. Shoir asarlarini toʻplash, oʻrganish va chop etishga **Gʻafur Gʻulom** boshchilik qilgan. Muqimiy asarlari jamlangan «*Muqimiy bayozii*» toʻplami ham Gʻ.Gʻulom tomonidan tuzilgan. 1950-yilda esa Moskvada shoirning «*Lirika i satira*» (“*Lirika va satira*”) nomli ikkinchi toʻplami rus tilida nashr qilingan.

1953-yil Muqimiy ijodini oʻrganishda yangi davr boʻlgan. Shu yili Muqimiy hayoti va ijodiga oid maxsus kitoblar chiqarilgan, uning tanlangan asarlari oʻzbek va rus tillarida chop etilgan.

Muqimiy haqida *H.Yoqubov*, *A.Olimjonov*, *H.Zaripov*, *H.Razzoqov*, *Gʻ.Karimov* kabi olimlar kitoblar yozganlar, ilmiy tadqiqot ishlariga rahbarlik qilganlar.

Muqimiy ijodida hayotni sevish, undan zavqlanishga chaqirish yetakchi mavzulardan hisoblanadi. Shoir sheʼrlarida “tole zabunlik”, “zulm”, “jabr-u sitam”, “charxi kajraftor” dan shikoyat qilib, “bulbullar oʻruini zogʻlar” olgani, “ahli tamiz” xor boʻlib, “nodonlar”ning izzat-ikromda ekanligini tasvirlagan.

Muqimiy XIX asr oxiri – XX asr boshlaridagi yangilana boshlagan oʻzbek adabiyotining gʻoya va mazmunigagina emas, shakl-u ifodalariga ham maʼlum yangiliklar kiritgan. Hajvga alohida eʼtibor bergan, ijtimoiy fikrga, jamiyat tanqidiga

diqqatni qaratgan, sayohatnomani mustaqil janr darajasiga ko'targan, ishqiylirikaga ijtimoiy mazmun baxsh etgan.

Muqimiy **epistolyar adabiyotning** chiroyli namunalarini ham yaratgan. Epistolyar adabiyot – bu adabiy maktublardir.

Muqimiy she'rlarida **Mamajon makay, Nizomjon, Farzincha, Ismoil naychi** kabi o'z davrining taniqli san'atkorlari ham tilga olingan. Shoir 1902-yil 16-dekabrda gi Andijon zilzilasi haqida ta'rix-marsiya yozgan.

MUQIMIYNING ADABIY MEROSI

“DEVON”i. U birinchi marta 1907-yil Toshkentda **“Devoni Muqimiy”** nomi bilan chop etilgan. Devonga shoirning qisqacha tarjimai holi ham kiritilgan, N.Ostroumov unga so'ngso'z yozgan.

G'AZALLARI: *«Yakka bu Farg'onada...», «Arzimni aytay...», «Surating», «Ayrilmasun», «Navbahor...», «Podshoh yo'qlatsalar nogoh, gado deb axtaring...»* (“Axtaring”, Muqimiyning zamon, turmush adolatsizliklaridan, taqdiridan shikoyat mazmunidagi hasbi hol g'azali), *«Aroba», «Loy», «Zulm ila qahr-u g'azab izhor qilmoq shunchalar...», «Kim desun?»*, *«Ohkim, afsus, emas hech ishda rahbar toleyim...»* (bu g'azal Navoiy va Bobur uslubini eslatadi) va boshq.

MURABBA'SI: *«Ko'nglum sandadur»* (“Emdi sendek, jono, jonon qaydadur...”).

HAJVIY ASARLARI: *«Tanobchilar»* (Muqimiyning Qo'qondagi yer qurilishi mahkamasida mirzalik vazifasida ishlab yurgan kezlari yozgan mashhur satirasi. U *«Bo'ldi taajjub qiziq hangomalar, Arz etayin emdi yozib nomalar»* misralari bilan boshlanadi. Satirada dehqon amaldorlar zulmi tufayli boshiga tushgan kulfatlarni birma-bir bayon etadi. Bunda **Sulton Ali** va **Hakimjon** kabi hiylakor amaldorlarning kirdikorlari fosh etiladi), *«Maskovchi boy ta'rifida», «To'y»* (masnaviy), *«Dar shikoyati Laxtin»* (yulg'ich, uchar hajv qilingan), *«Voqeayi ko'r Ashurboy hoji», «To'yi Iqonbachcha»* hajviyasi (bu she'rda o'zbekka xos mehmondo'stlik, bemalollik ko'rinmaydi. Aksincha, ziqna, foydaxo'r, pastkash kishining qaltiragan

tabiati butun jirkanchligi bilan ko'zga tashlanadi), «Hajvi Viktorboy», «Voqeayi Viktor» (masnaviy), o'z davri uchun yangi bo'lgan «Ta'rifi pech», «Saylov» (bu she'rdan saylov odil o'tkazilmaganligi uchun poraxo'rlikka yo'l ochilganligi, saylovda yutib chiqish talabgorning pul sochish musobaqasiga aylanib ketish illatlari haqida yozilgan) va boshq.

NAZARIY MA'LUMOT

Hajviy asar haqida

Hajviy asarlar¹⁵⁹ – tanqidiy va kulgi uyg'otadigan badiiy asarlardir. Ular mazmuni va shakliga ko'ra satirik va yumoristik ruhda bo'ladi. Hajviy asarlar turli usullarda yozilishi mumkin. Masalan, *Muqimiyning «Maskovchi boy ta'rifida», «Dodhohimiz», «Saylov», «Tanobchilar»* asarlari she'riy hikoya tarzida, *Hamzaning «Maysaraning ishi», «Tuhmatchilar jazosi», A.Qahhorning «Og'riq tishlar», Gogolning «Revizor»* asarlari pyesa shaklida, *Chexovning «Yovuz niyatli kishi», «Chiqdi», «Qiyshiq oyna», A.Qahhorning «Adabiyot muallimi»* asarlari hikoya janrida yaratilgan. *Ilf va Petrovlarning «O'n ikki stul», «Oltin buzoqcha», Ne'mat Aminovning «Yelvizak»* asarlari hajviy yo'nalishdagi romanlar sirasiga kiradi.

Hajviy asarlarda jamiyatdagi illatlarni fosh etishda **mubolag'a, fantaziya, sifatlash, o'xshatish, qarshilantirish** kabi badiiy tasvir vositalaridan ham unumli foydalaniladi.

Muqimiyning «SAYOHATNOMA» asari haqida

“Sayohatnoma” asari **rajazi murabba'i solim** vaznida yozilgan bo'lib, jami 244 misradan iborat.

“Sayohatnoma” asari *Qo'qondan Shohimardonga, Qo'qondan Farg'onaga, Qo'qondan Isfaraga* yo'nalishlari bo'yicha bitilgan. Unda muallif **O'ltarma, Qo'shtegirmon,**

¹⁵⁹ S.Ahmedov va boshq. Adabiyot (Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 6-sinfi uchun darslik-majmua). I qism. – T.: Ma'naviyat, Cho'lpon nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2013. – 97–98-betlar.

Do'rmancha, Bo'rbalig, Oq yer, Roshidon, Zohidon, Oltiariq, Chimyon, Vodil, Qudash, Yayfan, Nursux, Beshariq, Rafqon, Konibodom, Yakkatut, Tikka Rabot kabi ko'plab qishloqlarni tilga oladi, shu qatorda Nursuxning iqtisodi yaxshi ekanligini yozadi, Vodil qishlog'ining ko'chalarini «ko'ngilni quvontiruvchi, ko'ngil oluvchi» deya, Do'rmanchani «dashiti qaroqchizor ekan» deya ta'riflaydi, Roshidonni firdavs bog'iga o'xshatadi, Tikka Rabotda bir-ikki hafta turmaganini armon bilan qayd qiladi va hok.

NAZARIY MA'LUMOT "Sayohatnoma" haqida

Sayohat taassurotlari va tafsilotlarini tasvir etuvchi nasriy va she'riy asarlar **sayohatnoma** hisoblanadi. Bu janrning dastlabki namunalari *Navoiy* va *Bobur* ijodida uchraydi, shoir *Maxmur* ham sayohatnoma yozgan. **Muqimiy** o'zining «Sayohatnoma» asari bilan o'zbek adabiyotida bu janrni yuqori cho'qqiga olib chiqdi. **Zavqiy, Furqat, Tajalliy** va boshqa shoirlar ham o'z sayohatnomalarini yaratganlar. Sayohatnomalar ko'pincha she'riy usulda yoziladi, ichki tuzilishi quyidagicha bo'ladi:

1. *Kirish (bunda sayohatga chiqish ehtiyoji, sabablari aytiladi).*
2. *Yo'l xotiralari to'liq bayon etiladi.*
3. *Xulosalar chiqariladi.*

SHE'RLARIDAN PARCHALAR:

Podshoh yo'qlatsalar nogoh gado deb axtaring,
Tutmang hargiz nomimi, baxti qaro deb axtaring.

* * *

O'choq ustida gar yo'talsa birov,
Yer edi yelkasiga katta kosov.
Biri qattiq chiqarsa ovozin,
Bilmasin qo'shni, deb tutib og'zin.

(«To'yi Iqonbachcha»dan)

* * *

Ayru sandin suvdin ayrilgan kabi bolig' hayot
Bo'ldi dardidin judolig' chehrasi sorig' hayot.
Bo'lmadi g'amdin yo'lingda bir nafas forig' hayot.
Ey, xayoli jonim ichra, tanda jon yanglig' hayot
Kelki, sansiz, talx bo'ldi jonima totlig' hayot.

* * *

Oshiq bo'libman, ey yori jonim,
Vaslingni izlab yo'qdir majolim.

ZAVQIY (1853 – 1921)



Shoir Ubaydulla Usta Solih o'g'li
Zavqiy Muqimiy, Furqatlarning taniqli
zamondoshi va hamkoridir.

Zavqiy («zavq» so'zidan olingan)
1853-yilda Qo'qon shahrining Qatag'on
dahasiga qarashli Shayxon mahallasida
Shayxon dahasida mahsido'z kosib
Muhammad Solih oilasida tug'ilgan.

U dastlab mahallasidagi maktabda
o'qigan, 1870–1874-yillarda shoirtabiat tog'asi Muhammad
Siddiq yordamida «Madrasayi Oliy» va «Madrasayi Chalpak»
madrasalarida tahsil olgan. Zavqiy mahsido'zlikni o'rganib,
bo'sh vaqtlarida otasiga yordamlashgan. Onasining vafot etishi,
otasining falaj bo'lib qolishi va moddiy ahvoli yomonlashishi
sababli ota kasbi – kosiblik bilan tirikchilik qiladi.

Bo'lajak shoir ma'lum muddat Qo'qon poyabzal rastasining
xo'jayini Mo'minboy qo'lida mirzalik qilib, Samarqand,
Buxoro, Marg'ilon, Andijon, O'sh, Namangan, Xo'jand va
Toshkent kabi shaharlarda bo'ladi.

XIX asrning 90-yillarida oilaviy hayotida baxtsizliklar
bo'ladi: otasi va ikki ukasi vafot etadi, xotini Tojibibining
ko'zlari ojiz bo'lib qoladi. Zavqiy Muqimiy bilan birga
Shahrixon, Asaka orqali O'shga, Andijonga safar qiladi.

1890-yilda haj safariga otlangan tog'asi Muhammad Siddiq

shoirlarni ham o'zi bilan birga olib ketadi. Olti oy mobaynida u Turkiya va Arabiston mamlakatlarida bo'ladi. Zavqiy haj safiridan qaytib kelgach, ota kasbini davom ettirib, umrining oxirigacha badiiy ijod bilan shug'ullanadi.

Zavqiy ikki oy davom etgan og'ir kasallikdan so'ng 1921-yil may oyida 68 yoshida vafot etgan.

ZAVQIYNING IJODIY FAOLIYATI

Zavqiyning ijodiy faoliyati madrasada tahsil olib yurgan qaytlarida boshlangan. O'sha davrda u Muqimiy, Muhyi, Nisbat, Muhayyir, Furqat kabi shoirlar bilan adabiy (she'rxonlik) majlislarda ishtirok etadi. **Furqat** o'z esdaliklarida ushbu shoirlar tez-tez to'planishib, adabiy suhbat qurganlari, bir g'uzalga ergashib, uning ma'nosini turli shakllarda ifodalab, she'riy bahslar qilganlari haqida yozib qoldirgan.

Zavqiy o'z ijodini lirik she'rlar yozishdan boshlab, hajviyotga katta e'tibor bergan. Ubaydulla Zavqiy o'z hajviy asarlarini ko'pincha muxammas janrida yozgan. Uning she'rlari, maqolalari «*Turkiston viloyatining gazetasi*», «*Sadoyi Farg'onasi*», «*Tirik so'z*», «*Najot*» gazetalarida, «*Al-Isloh*» jurnalida bosilgan, asarlaridan namunalari to'plam va bayozlarga kiritilgan.

Zavqiyning o'z qo'li bilan tuzgan devoni 1930-yilda turmush o'rtog'i Xayrunniso tomonidan Qashqarga olib ketilgan bo'lib, hozirgi vaqtda **Xitoy Xalq Respublikasida** yashayotgan avlodlari qo'lida saqlanmoqda¹⁶⁰.

Shoirning **ellikka yaqin** she'rlarini o'z ichiga olgan merosi «*Zavqiy. Tanlangan asarlar*» nomi bilan Toshkentda 1958-yilda nashr etilgan. 1960-yilda Zavqiyning asarlari yana bir bor nashrdan chiqqan. 2003-yili Zavqiy tavalludining 150 yilligi munosabati bilan mazkur to'plamning to'ldirilgan nashri chop etilgan.

Zavqiy o'zbek adabiyotida hajviyotning **satira** hamda **yumor** yo'nalishlarida barakali ijod qilgan shoirdir.

¹⁶⁰ Q.Yo'ldoshev va boshq. Adabiyot (Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 7-sinfi uchun darslik-majmua). – T.: Sharq, 2013. – 239-bet.

ZAVQIYNING ADABIY MEROSI

G'AZALLARI: «*Jahonda kamsuxan kim bo'ldi...*» («*Nasihat*»), «*Netay*», «*Ahli dil bo'lma, zamonning boyi bo'l, bazzozi bo'l...*», «*Sabo, mandin duo yetkur...*» va boshq.

MUXAMMASLARI: «*Ajab ermas*» (bu muxammasda shoirning yurt kelajagi borasidagi armon, orzu va istaklari aks etgan. Asli yetti banddan iborat bo'lsa-da, sho'rolar davrida mustabid tuzum mafkurasiga moslab, to'rt banddan iborat she'r tarzida taqdim etilgan. Qo'qonlik adabiyotshunos olim Rustamjon Tojiboyev 1997-yilda bu she'rning to'la matnini tiklab, matbuotda e'lon qilgan), «*Yuzingni ko'rsatib avval o'zingga bandalar qilding...*» (mustaqil muxammas) va boshq.

MURABBA'SI: «*Shohimardon xotirasi*».

SATIRALARI: «*Zamona kimniki*» (muxammas shaklida yozilgan), «*Dar mazammati zamona*», «*Ajab zamona*», «*Kajdor zamona*», «*Bo'l*», «*Muncha ko'p*» (muxammas shaklida yozilgan), «*Hajvi ahli rasta*» (1905-yillarning yozida Qo'qondagi qirq olti rasta boylarini hajv qilib yozilgan, g'azal shaklida qofiyalangan ushbu hajviyani Zavqiy odamlar o'qishi uchun katta qog'ozga yirik harflar bilan yozib, Qo'qondagi doim gavjum bo'ladigan Mo'ymarak maydonidagi baland terakka ilib qo'ygan. Bu hajviya tufayli shoir boyvachchalar hujumiga duchor bo'lgan. Hunarmandlar uni 100 so'm jarima evaziga qamoqdan qutqarib qolganlar) va boshq.

BOSHQA SHE'RLARI: «*Talading baring*», «*Ta'rif kalish*», «*Otim*», «*Fonus*», «*Pashshalar*», «*Qahatchilik*», «*Suv janjali*», «*Afandilar*», «*Veksel*», «*Demish xon*», «*Uy puli*» va boshq.

SHE'RLARIDAN PARCHALAR:

Derlar birov ulug', birning past taqdiri,
Biri to'q-u biri och, balolarning sobiri,
Inson sharaffi nomida emasmi har biri,
Yoxud ona tug'ganida bo'lganmidi bir siri,
Yolg'on e'tiqod ila bid'at shior muncha ko'p?

(«*Muncha ko'p*» muxammasidan)

* * *

Istamas bo'lsa zamona Zavqiy yozgan she'rini,
Kim eshitsin arzini xoh rozi, xoh norozi bo'l.

(«Ahli dil bo'lma, zamonning boyi bo'l, bazzozi bo'l...» g'azalidan)

* * *

Ey Zavqiy, xasta og'zing kam ochib, ibrat ko'zing ochg'il,
Ajabkim, qo'l yaqoda yurgudek turfa zamon bo'ldi.

FURQAT¹⁶¹ (1859 – 1909)

O'zbek demokratik adabiyotining yirik namoyandasi, ma'rifatchilik adabiyotidagi eng yorqin iste'dod egasi, o'zbek publitsistikasiga tamal toshlarini qo'ygan **Zokirjon Xolmuhammad o'g'li Furqat** 1859-yilda Qo'qonda savdogar oilasida tug'ilgan.



Otasi Mulla Xolmuhammad ham badiiy ijodga moyil kishi edi. Furqat 7 yoshidan boshlab mahallasidagi Muhammad Olim maktabida o'qiydi, bir yilga yetmay "Haftiyak" va "Chor kitob"ni o'qib tugatadi, 8 yoshida Farididdin Attorning «Mantiq ut-tayr» asarini yod oladi, Hofiz Sheroziy, Bedil, Fuzuliy va Navoiy asarlarini mutolaa qiladi.

Shoir 1870-yilda Ashur Muhammad qoridan Qur'on qiroatini, 1871–1872-yillarda Poshshoxo'jadan arab tilini o'rganadi, 14 yoshidan (1873-yil) madrasaga o'qishga kiradi. Qo'qon xonligi tugatilgach, madrasalar yopilgandan so'ng u Yangi Marg'ilonga borib (1879-yil) do'kondor tog'asiga yordam beradi. Keyinroq o'zi kichik do'kon ochib, savdo ishlari bilan shug'ullanadi. Mutaxassislar fikricha, bo'lajak shoir Yangi Marg'ilonda

¹⁶¹ Qarang: B.Qosimov, N.Jumaxo'ja. O'zbek adabiyoti (10-sinf uchun darslik). – T.: O'qituvchi, 2000. – 428–443-betlar; N.Karimov va boshq. Adabiyot (umumiy o'rta ta'lim maktablarining 11-sinfi uchun darslik). – T.: O'qituvchi, 2004. – 51–68-betlar; Q.Yo'ldoshev va boshq. Adabiyot (Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 9-sinfi uchun darslik). – T.: Yangiyo'l Poligraph service, 2010. – 111–115-betlar.

ekanligidayoq she'rlarida «*Furqat*» («ayriliq») taxallusini qo'llagan. Tadqiqotchi *Nurboy Abdulhakim* Furqatning o'z taxallusini tanlashida Alloh jamolidan judolikni nazarda tutganligini ta'kidlagan. Furqatning ikkinchi taxallusi «*Farhat*» («shodlik, xursandlik») bo'lib, uni Sharifxo'ja taklif etgan. Furqat xususiy darslar bergan, xattotlik va mirzalik qilgan.

1880-yilda otasining qistovi bilan Zokirjon Qo'qonga qaytadi. U badiiy ijod bilan shug'ullanib, tezda shuhrat qozonadi, shoirlardan **Muqimiy, Muhyi, Zavqiy, Nodim, Muhayyir, Nisbatlar** davrasida adabiy yig'inlarda ishtirok etadi. Furqat 21–22 yoshida devon tuzadi.

Taxallusi taqdiriga aylangan shoir («Furqat») 1886–1888-yillarda Marg'ilonda bo'ladi, 1888-yilning oxirlarida Toshkent safariga o'tlanib, Xo'jandga keladi va bu yerda qon-tomir kasalligi bilan o'g'rib, burmuncha muddat qolib ketadi. 1889-yilning o'rtalarida Furqat Toshkentga keladi va bu yerda erlar gimnaziyasi direktori, «Turkiston viloyatining gazetisi» muharriri Nikolay Ostroumov bilan tanishadi. 1890-yilda shoir shu gazetaga tarjimon sifatida ishga kiradi.

1891-yilda Furqat Samarqandga boradi, u yerda do'sti savdogar va etnograf olim Mirzo Buxoriy huzurida bo'ladi. Furqat iyul oyida Buxoroga boradi, so'ngra Kogondan poyezdga o'tirib, *Marv, Ashxobod, Boku, Botum* orqali Istanbulga boradi. Shu yerdan u Yunoniston va Bolgariyaga sayohat qiladi. 1892-yilda Iskandariya, Misr, Shom, Makka va Madina bo'ylab sayohat qiladi, sentabr oyida Hindistonning Bombay shahriga boradi. 1893-yilning bahorida Kashmir, Tibet va Xo'tan orqali Yorkentga o'tib, shu yerda umrining oxirigacha turg'un bo'lib qoladi.

Zokirjon Xolmuhammad o'g'li Furqat Qashqardagi Rusiya musulmonlar idorasida kotib bo'lib ishlaydi, nujum ilmi va tabobat bilan astoydil shug'ullanadi. U Yorkentda **Ra'no** ismli ayolga uylanib, undan *Nozimjon, Hakimjon* va *Nodirjon* degan uch o'g'il ko'radi. Furqat 1906-yilgacha Turkiston bilan, «Turkiston viloyati gazetisi» bilan aloqada bo'lgan. N.Ostroumov va uning «*Turkiston viloyatining gazetisi*» Furqat hayotida katta ahamiyat kasb etgan.

Furqat 1909-yil kuzida Yorkentda vafot etgan.

FURQATNING IJODIY FAOLIYATI

Furqatning adabiy merosi quyidagicha asarlarni o'z ichiga oladi:

1. Lirikasi. 2. Publitsistikasi, nasriy asarlari. 3. Tarjimalari. 4. Ilmiy asarlari.

Furqatning lirikasi *g'azal, masnaviy, muxammas, musaddas, mustazod* kabi janrlardan iborat bo'lib, g'azallarining soni 200 atrofida.

Shoir lirikasida g'urbat va hasrat ohanglari salmoqli o'rin tutadi. Shu bilan birga ma'rifatni targ'ib etuvchi she'rlari ham anchagina.

Shoir "Nozik" radifli g'azalida ma'shuqasining husnini bishariyat tarixidagi eng go'zal inson bo'lmish misrlik Yusuf alayhissalomdan ustun qo'yadi.

She'rlaridan yana birida ma'shuqaning ikki qaro ko'zlarini yonma-yon turib, yoy tortayotgan hindu bolalariga o'xshatgan.

Birinchi o'zbek gazetachisi bo'lgan Furqatning «*Sarguzashtnoma*» («Furqatnoma»)si uning tarjimayi holidir. Bu asar asli «*Xo'qandlik shoir Zokirjon Furqatning ahvoloti. O'zi yozg'oni*» deb atalgan bo'lib, u Furqatni bizga jurnalist va nosir sifatida tanitadi. Bu tarjimayi hol 1891-yilda «Turkiston viloyatining gazetisi»da e'lon qilingan.

«*Sabog'a xitob*» masnaviysi Istambuldan yozib yuborilgan bo'lib, 280 misradan iborat. Asarda muallif Navoiyning «Farhod va Shirin»idan tazmin-iqtibos oladi, olis Toshkentdagi do'stlarini eslaydi.

FURQATNING ADABIY MEROSI

Furqatning «*Devon*»i, «*Hammomi xayol*» risolasi, «*Chor darvesh*», «*Nuh manzar*» kabi tarjima asarlari bizgacha yetib kelmagan.

G'AZALLARI: «*Bir qamar siymoni ko'rdim baldayi Kashmirda*» («*Kashmirda*», bu g'azalda ishqiy kechinmalar, oshiqona savol-javoblar shoir hayoti bilan bog'liq qismat chizgilariga ulashib ketadi: *Aydi: «Ey bechora, qilding na*

uchun tarki vatan?» *Man dedim: «G'urbatda Furqat bor ekan taqdirida»¹⁶²*), «*Surmudin ko'zlar qaro...*» («*Kelinchak*», Fuzuliy g'azaliga tazmin(nazira). Bu g'azal o'zbek kelinchagi tasvirida maxsus yozilgan), «*Surating*», «*Adashganman*», «*Faslinavbahoro'ldi...*», «*Bahor ayyomida gulgash targa bir chaman bo'lsa...*» (ko'ngil armonlari go'zal tarzda ifodalangan g'azal), «*Qosido, ayg'il o'shal dildorg'a...*», «*Muncha zolim bo'lmish ul xunrez qaro ko'zlarining...*», «*Chaman sahnida derlar sarv birla yosuman nozik...*» (“*Nozik*”), «*Ul qaro ko'z ko'zlariga surma bejo tortadur...*», «*Ne jafolar chekmadim bir bevafo dildor uchun...*», «*Biz istig'no eli...*» (“*Bormasmiz*”, bu g'azalda so'fiyona kayfiyat, qalandarona baland himmat ruhi yetakchilik qiladi), «*Bahor ayyomida...*», «*Koshki kulbam aro...*», «*Fig'onkim, ul buti siymin zaqandan ayrilib qoldim*», «*Hasrato, kel-kel beri, ul sho'xi jonondin gapur*” va boshq.

MUXAMMASLARI: «*Kishi holimni bilmas, mehribonidin adashganman*», «*Manam sho'rida bulbul bo'stonidan adashganman*» (bunda shoir “nihoni kuydirib hajr o'ti po'st-u ustixon” aylashini, “boshida xushi yo'q”ligini, “Yetim qo'zi kabi nolon”ligini, “Majnun kabi bir Layli yodida biyobon gardi” ekanligini yozgan) va boshq.

MUSADDASI: «*Sayding qo'ya ber, sayyod*» (bu musaddasning asl mohiyati zulmni qoralashdir. She'rdagi «*ekan mendek*» radifi ham o'ziga xos ma'no ifodalagan. Bu musaddasda yong'ir suvi uchun tog' lolasini jom qilgan adib lirik qahramonning ruhiy holatini tabiat va hodisalar bilan uyg'unlikda ifodalagan. Shoir ushbu she'rida o'zining san'atkor do'sti Sa'dullo haqida yozib o'tgan).

ILMIY ASARLARI:

1. «*To'y tavsifi*» (etnografik xarakterdagi asar).
2. «*Gap ta'rifida*» (etnografik xarakterdagi asar).
3. «*Aza tavsifi*» (etnografik xarakterdagi asar).
4. «*Ilmi ash'orning qoidayi avzoni*» (“*She'r ilmining o'lchov qoidalari*”. Adabiyot havaskorlari uchun mo'ljallangan ushbu qo'llanmada aruz vaznining qoidalari bayon etilgan).

¹⁶² Q.Yo'ldoshev va boshq. Adabiyot (Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 9-sinfi uchun darslik). – T.: Yangiyo'l Poligraph service, 2010. – 113-bet.

MASNAVIYLARI: «*Gimnaziya*», «*Ilm xosiyati*», «*Akt majlisi xususida*», «*Vistavka xususida*», «*Nag'ma bazmi xususida*», «*Suvorov*» va boshq.

SHE'RLARIDAN PARCHALAR:

Mening maktab aro buldur murodim,
Xatimdek chiqa imlo-yu savodim.

(Bu baytni Furqat 9 yoshida yozgan ekan)

* * *

Xudo bermish ikki farzand: Nozimjon, Hokimjon,
Qachon bo'lg'oy ko'ngul uzmoqqa bu ko'zi qarolardin.

* * *

«Ketgil ul yon!», deb ishorat qilsa har gal qoshlaring,
«Kel beri!» - deb aylashur ohista iymo ko'zlaring.

* * *

Kezdim jahonni qolmay, Shom-u Iroq, Zavqiy,
Bir topmadim seningdek ahli vifoq, Zavqiy,
Shavqi visoling ila hargiz qaror yo'qtur,
Jonimni yoqti hajr-u ko'nglim – firoq, Zavqiy!

* * *

Jahon bat-u kushodi ilm birla,
Nadur dilni(ng) murodi ilm birla.

* * *

Jon ila ko'ngil taloshur, ey sanam, dard-u g'aming,
Birni sol ko'nglumg'akim, jon birni tanho tordadur.

(Furqatning ushbu she'rida «dard» so'zi «muhabbat» ma'nosida ishlatilgan)

* * *

Aydi: «Ey bechora, qildi na uchun tarki vatan?»
Man dedim: «G'urbatda Furqat bor ekan taqdirda».

(Ushbu baytni Furqat «Bir qamar siymoni ko'rdim baldayi Kashmirda» g'azalida yozib, o'z hayoti bilan bog'liq qismatni ko'rsatib bergan)

* * *

Qachon ul Yusufi Misriyda bu husn-u malohat bor?
Fasohatda, sabohatda, hama to'g'rida san nozik.

Qoshlari ostida go'yo ikki fatton ko'zlari
Ikki hindu bachchadurkim yondashib yo tortadur.

Kuymasun bu savdodan ne uchun dimog'imkim,
Ranj-u g'ussada dono, kechsa shod nodonlar.

ANBAR OTIN (1870 – 1915)

Anbar Otin Farmonqul qizi Qo'qonda kambag'al kosib – belbog'chi oilasida tug'ilgan. Otasi Farmonqul asli marg'ilonlik bo'lib, shoira Uvaysiyning jiyani bo'lgan. Onasi Ashurbibi Qo'qonlik bir kosibning qizi edi. Anbar 7 yoshidan boshlab o'z mahallasidagi Dilshod otin(Dilshodi Barno)ning maktabida ta'lim olgan, Navoiy va Uvaysiylarni ustoz deb hisoblagan.

Ota va onasi ajralishgandan so'ng Anbar va ukalari o'gay ota qo'lida qoladi. Anbarni Zohidxo'ja ismli nonvoyga turmushga berishadi, ularning Mo'minxo'ja ("*andak yomon*"), Bibixon ("*onasining rohati joni, anisi*"), Usmonxo'ja ("*halim, qobil*") va Ominaxon ismli farzandlari bo'lgan. Ominaxon bevaqt vafot etadi, bu onaning dardiga dard qo'shadi.

Anbar maktabdorlik qilgani uchun "Otin" nomini olgan. U o'zbek va tojik tillarida ijod qilgan.

Anbar Otin uzoq umr ko'rmagan bo'lsa-da, umrining ko'p qismini to'shakda mixlangan holda o'tkazgan.

ANBAR OTINNING ADABIY MEROSI

“DEVON”i. U 1905-yilda tuzilgan bo'lib, unga 41 g'azal, 4 muxammas, 1 qit'a, 1 mustazod va shoiraning she'riy tarjimayi holi (masnaviy shaklida) kiritilgan.

G'AZALLARI: «*Anbar Otinman*», «*Kelib xushnud avlodim...*», «*O'rgilay*», «*Shoir ersang...*», «*Bir juhud...*», «*O't tushsun*» (bu g'azalda shoira “*Ayollar sochi uzun, aqli qisqadur*” deganlarga o't tushsun” deb yozgan) va boshq.

MASNAVIYSI: «*Otam – Farmonquli Marg'iloniy...*»

RISOLALARI: «*Mushoira*», «*Qarolar falsafasi risolasi*»

(«Risolayi falsafayi siyohon», u o'zbek adabiyoti tarixida ayollar qismatiga bag'ishlangan alohida asardir), «Alifbo» va boshq.

AVAZ O'TAR (1884 – 1919)



Ma'rifatparvar shoir Avaz O'tar o'g'li o'zining demokratik va ma'rifatparvarlik ruhidagi asarlari bilan o'zbek adabiyoti tarixida alohida ajralib turadi. U 1884-yil 25-avgustda Xivada usta sartarosh Polvonniyoz O'tar Gadoyniyoz o'g'li oilasida tug'ilgan. Otasi san'at va adabiyotga qizuquvchan kishi bo'lib, Ogahiy, Komil Xorazmiy, Mujrib Xonaxarobiy, Bayoniy kabi shoirlar bilan do'stona munosabatda bo'lgan va uyida ular ishtirokida ko'plab suhbatlar uyushtirgan. Tabiiyki, Avaz ham bu suhbatlarda ishtirok etgan.

Otasi Avazni 8 yoshida maktabga beradi. So'ngra shoir o'qishni madrasada davom ettiradi, Xo'ja Hofiz, Nizomiy, Jomiy, Lutfiy, Navoiy, Fuzuliy ijodini o'rganadi. Avaz O'tar Munis, Ogahiy, Komil, Feruz kabi shoirlar bilan yaqindan muloqotda ham bo'lgan.

Avaz 14 yoshlaridan she'r yozib, 18 yoshlarida shoir sifatida taniladi, Muhammad Rahimxon saroyida Ahmad Tabibiy kabi shoirlar bilan birgalikda ijod qiladi. Avaz she'rlariga hasad bilan qaragan ayrim saroy amaldorlari, shoir va ulamolari turli bo'htonlar bilan uni dinsizlikda ayblaydilar, xonga yomon ko'rsatadilar. Xonning buyrug'i bilan uni 200 darra urib jazolaydilar, qattiq qiynoqlar tufayli holsizlangan Avazni «jinni» deb, yomonotliq qiladilar.

Avaz O'tar saroyini tashlab, otasining kasbi bilan shug'ullanadi. Lekin Muhammad Rahimxon II vafotidan so'ng otasi o'rniga taxtga chiqqan Isfandiyorxon ham uni ta'qib qiladi, Avazga 50 darra urdiradi.

Ma'naviy va jismoniy qiynoqlarni boshidan kechirgan shoir 1919-yilda 35 yoshida vafot etadi.

AVAZ O‘TARNING ADABIY MEROSI

Avaz O‘tar g‘azal, muxammas, masnaviy, mustazod, ruboiy, qit‘a kabi janrlarda ijod qilgan. Uning she‘rlari «*Saodat ul-iqbol*» («Baxtli istiqbol») deb atalgan, 20 ming misradan ortiq she‘rlarni o‘z ichiga olgan devonda to‘plangan.

G‘AZALLARI: «*Til*», «*Maktab*», «*Fidoi xalqim...*» (bu g‘azalda mazlum xalq ahvoliga achinish, uning mashaqqatli hayotidan cheksiz afsuslanish yaqqol sezilib turadi), «*Topar erkan qachon...*», «*Ey ko‘ngul, ishq ichra...*», «*Ko‘nglum agar g‘ayri sori...*», «*Jonimg‘a o‘t tushsun,...*», «*Bo‘lma, ey kimsa, hamisha bu sifat mag‘ruri ganj...*», «*Ey do‘stlar, dahr ahlig‘a...*», «*Husn ichra ul nigor parilar yagonasi...*», «*Birodarlar, jahonning yo‘q vafosi...*» va boshq.

OIT‘ASI: «*Sipohi pora istar...*» (unda «*Sipohi (amaldor) pora so‘rab tursa, mulla tamagirligini qo‘ymasa, dodingni kimga aytasan, kishi?!*» degan fikrlar aytilgan).

MUXAMMASI: «*Dil ishqinda muftalo bo‘lubdur*» («*Bo‘lubdur*”).

MUSAMMANI: «*Har odamning talab yo‘lida gar ixlosi komildir*».

YANA BOSHQA SHE‘RLARI: «*Xalq*», «*Biling, ushbu zamon g‘amnokidurman...*», «*Sipohiylarga*», «*Ulamolarga*», «*Himmat*», «*Shayx*», «*Hurriyat*», «*Yo‘q bo‘ling*», «*Faloni*» turkumiga kirgan she‘rlari va boshq.



XX ASR O'ZBEK ADABIYOTI

32-MAVZU.

JADID ADABIYOTI NAMOYANDALARI

Jadid adabiyoti haqida¹⁶³

XX asr boshlaridagi adabiyot haqida fikr yuritganda, bu davr ijtimoiy-madaniy hayotida jadidchilik harakati alohida o'rin tutganini ko'ramiz. «Jadid» so'zi arabcha bo'lib, «yangi» degan ma'noni bildiradi. XX asr boshlarida taraqqiyotga, yangilikka intilgan kishilarni shu nom bilan atashgan.

1884-yilda Qrimdagi Boqchasaroy shahrida qrim-tatar xalqining buyuk farzandi, alloma va jadid *Ismoilbek G'asprali* «usuli jadid» degan yangi o'quv usuliga asos soladi. O'zi maktab ochib, 12 o'quvchining 40 kunda savodini chiqaradi. So'ngra «*Xo'jayi sibyon*» («*Bolalar muallimi*») nomli birinchi darslikni tuzadi.

1893-yilda Ismoilbek G'aspralining o'zi Buxoroga kelib, umir bilan uchrashadi va yangi maktab ochishga muvaffaq bo'ladi. Ko'p o'tmay Turkistonda jadidchilik harakati keng yoyiladi, ko'plab «usuli jadid» maktablari paydo bo'ladi.

Turkistonda jadidlar o'z g'oyalarini yoyishda nashriyot ishlariga, matbuot sohasiga katta e'tibor berdilar, «*Vaqt*», «*Osiyo*», «*Shuhrat*», «*Hurriyat*», «*Ulug' Turkiston*», «*Buxoroyi sharif*», «*Sadoyi Turkiston*» kabi gazetalarni, «*Al-Isloh*», «*Oina*» kabi jurnallarni nashr etdilar. Jadidlar millatni ma'rifat orqali ozodlikka chiqarsa bo'ladi, deb bilishardi.

¹⁶³ Qarang: N.Karimov va boshq. Adabiyot (Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 11-sinfi uchun darslik). – T.: O'qituvchi, 2004. – 69–72-betlar; N.Karimov va boshq. XX asr o'zbek adabiyoti (11-sinf uchun darslik). – T.: O'qituvchi, 2002. – 13–30-betlar.

Ular o'zbek adabiyotiga **drama, roman, hikoya** kabi yangi janrlarni olib kirdilar. Umuman olganda, jadidchilik harakati Turkistonning rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etdi.

MAHMUDXO'JA BEHBUDIY (1875 – 1919)

«Haq olinur, berilmas».
Behbudiy, «Bayoni haqiqat»dan



XX asr o'zbek adabiyoti va madaniyati tarixida **Mahmudxo'ja Behbudiy** («Behbud» so'zi “foйда, najot, baxtli, tinch, osoyishta” kabi ma'nolarni anglatadi) alohida o'rin tutadi.

Behbudiy jadidchilik harakatining, Turkistondagi asoschisi va rahnamosidir. U 1875-yil 19-yanvarda Samarqand yaqinidagi Baxshitepa qishlog'ida muftiy oilasida tug'ilgan. U tog'asi Muhammad Siddiqning tarbiyasini olgan. Yoshligidanoq arab (*uni kichik tog'asi Mulla Odildan o'rgangan*), fors, turk tillarini mukammal o'rgangan Mahmudxo'ja asr boshida Arabiston (*u 1899-1900-yillarda hay safarida bo'lgan*), Turkiya, Orenburg, Qozon, Ufa, Moskva, Peterburg, Nijniy Novgorod safarlarida bo'ladi, Samarqandda yangi usuldagi maktablar ochadi, 1913-yilda «Samarqand» gazetasi va «Oyna» jurnalini nashr etishda bosh-qosh bo'ladi.

Behbudiy 1911-yilda «Padarkush» dramasini yozib, o'zbek dramaturgiyasiga asos soladi. Adib 1918-yil o'rtalarida «Musulmon ishchi va dehqon sho'rosi»ga maorif xalq komissari bo'ladi, Turkistonning davlat tili to'g'risidagi dekret loyihasini tayyorlashda jonbozlik ko'rsatadi, «Nashriyoti Behbudiy» nomli nashriyot ochadi.

Behbudiy 1919-yil 25-martda Buxoro amirining Shahrizabzdagi kishilari tomonidan qo'lga olinadi va qatl etiladi. Behbudiy qabrining qayerdaligi noma'lum.

O'z zamonasida Behbudiy yoshlarga murojaat etib, shunday yozgan edi: “*Barchamizga oftob kabi ravshan va ayondirki, makotib (maktablar) – taraqqiyning boshlang'ichi, madaniyat*

va saodatning darvozasi. Har millat eng avval makotibi ibtidoiysini zamoncha isloh etib ko'paytirmaguncha taraqqiy yo'lig'a kirib madaniyatdan foydalanmas"¹⁶⁴.

«Agar bizning hayotimiz hurriyat va xalq baxt-saodati uchun qurbonlik sifatida kerak bo'lsa, biz o'limni ham xursandchilik bilan kutib olamiz», — degan edi Behbudiy vasiyatnomasida.

«Yetti pushtini bilmaydigan, ajdod-avlodini tanimaydigan kimsalarni marquq derlar» degan fikr ham Behbudiyga tegishli.

Behbudiy haqli ravishda o'zbek matbuoti hamda pedagogikasining asoschisi sanaladi. 1922-yilda «Zarafshon» gazetasi Behbudiyi «nashri maorif to'g'risida vatanimizning birinchi qahramoni» deb ta'rifladi. O'z davrining Xoji Muin, Mirat, Sadridin Ayniy, Cho'lpon kabi san'atkorlari Behbudiy o'limiga marsiyalar bag'ishladilar. Hojimurod bu alloma qatl etilishi haqida «Maorif qurbonlari» nomli pyesa yozgan.

ASARLARI: «Padarkush», «Turkiston idorasi», «Turkistonda maktab jarida», «Ehtiyoji millat», «Yoshlarga murojaat», «Ikki emas, to'rt til lozim» (Ushbu maqolada Behbudiy turkistonliklarga turkiy, forsiy, arabiy va rusiy tillarni bilish lozimligini ta'kidlagan. U «Arabiy til din uchun na daraja lozim bo'lsa, rusiy ham tiriklik va dunyo uchun lozimdur» deb yozgan. Maqolada Mahmud Abdul Boqiy («Sunbul qasidasi» muallifi), Somiy, Abdulhaq Homid, Akrambek, Sanoyi, Nobiy, Muallim Nojiy kabi ko'plab adiblar nomi ham sanab o'tilgan), «Aholi jo'g'rofiyasiga kirish», «Bolalar uchun kitob», «Rusiyaning qisqacha jo'g'rofiyasi», «Islom qisqacha tarixi» («Tarixi islom», 1904), «Buxoro xonligiga sayohat» (1912, maqola. Unda Behbudiy Kattaqo'rg'on, Jizzax, Samarqand atrofidagi yerlarni o'zlashtirish hamda suv muammosini hal etish kerakligini aytgan), «Felyeton» (unda muallifning «agar biz o'z manfaatlarimizni qattiqroq himoya qilmasak, yaqin yigirma yil ichida ko'p oyoq osti bo'lishimiz ehtimol», degan mulohazalari bor), «Teyotr nadur?» (bu maqolada muallif ta'atni «ibratnamo», «ibratxona» hamda «va'zxona»dir deb yozgan) va boshq.

¹⁶⁴ M. Behbudiy. Tanlangan asarlar. — Toshkent: Ma'naviyat, 1999. -176-bet.

«PADARKUSH» asari haqida

Behbudiyning «Padarkush» nomli pyesasi 1911-yilda yozilgan bo'lib, ilk bor 1912-yilda «**Turon**» ro'znomasida bosilgan, 1913-yilda kitob holida o'zbek tilida nashr etilgan. Uning muqovasida rus tilidagi: «*Rusiyaning fransuz ibtidodidan qutulishi va mashhur Borodino muhorabasi xotiralari yubileyiga bag'ishlayman*» degan yozuv bor edi. Chor senzurasidan o'tish uchun muallif shunday qilgan.

Pyesa Samarqand, Toshkent, Buxoro kabi o'nga yaqin shaharda sahnaga qo'yilgan. Asar **1914-yili** Samarqandda qo'yilganda «**Oina**» gazetasi bunday deb yozgan edi: «*Xalq nihoyat ko'p kelib, bilek yetmagani va joy yo'qligi uchun uch-to'rt yuz kishi qaytib ketdi... Uch so'm berib tikka turmoqqa ham rozilar bo'ldi*». «**Turkiston viloyatining gazetisi**» (1914) «*Pyesa Yevropa teatrlari darajasida qo'yildi*», deb baholagan edi.

Pyesada ilmsizlik qoralanadi. Asar ayrim kamchiliklardan ham xoli emas edi. Xususan, qotillik epizodi sun'iyroq. Behbudi bu asarda adabiyotimizda birinchilardan bo'lib, vatanda yashab turib bewatan qolish muammosini ham ko'tarib chiqqan.

Behbudiyning ta'rificha, asarga «...*kuldurguchi va ham yig'latguchi nosih va nofe' asardur*», deya tabrik va taqrizlar yozilgan.

Asarning asosiy qahramonlari quvidagilar:

Boy (u «...*odamlar boyni mulladan ziyoda izzat qiladurlar*» degan fikrni aytgan), **Toshmurod** (boyning o'g'li), **Domullo** (Yangi fikrlik bir mulla. Xalqimizni savodli qilish yo'lida jonkuyarlik bilan aytilgan quyidagi gaplar uning tilidan aytilgan: «*Xulosa chiqarsak bo'lmaydimi axir, yigirma-o'ttiz yildan beri barcha yirik savdo ishlari yerli xalq emas, chetdan kelganlar qo'lida. Agar o'zimiz, bolalarimiz o'qigan, savodli, ilmli bo'lsak edi, shu kuyga tushmasdik*»), **Xayrulla** (boyning mirza-yu mahrami), **Tangriqul** (Toshmurodning shishadoshi, boyning qotili), **Liza** (rus xotin), **Artun** (armani mayxonachi), **Ziyoli** (Millatchi musulmon. Bu qahramon kuyunchaklik bilan millat taqdiri haqida quyidagi gaplarni aytayotganida boy

bir tarafga og'gancha xurrak ota boshlaydi: «*Bolalarimizni Farangiston, Amriqo, Istanbul dorilfununlariga ta'lim-tarbiya uchun yuborishimiz zarur. Bu borada Kofkoz, Orenburg, Qozon boylaridan ibrat olish kerak, ularning kambag'al bolalar o'qishiga alohida e'tibor berishlaridan o'rnak olsa arziydi*»), **Boybuchcha** (Boyning xotini, 35–40 yashar. Asar uning gaplari bilan yakun topadi), **Davlat** (sandiqdan pul o'g'irlash taklifi undan chiqadi, ya'ni u Toshmurodga otasining sandig'ini ko'rsatib qo'yishni o'rgatadi), **Nor** (bo'z bola) va boshq.

ABDURAUUF FITRAT¹⁶⁵

(1886 – 1938)



XX asr boshidagi o'zbek milliy uyg'onish adabiyotining jarchisi va asoschilaridan biri, o'zbek milliy she'riyati, prozasi, adabiyotshunosligi, tilshunosligi, maorifi, jamiyatshunosligi singari o'nlab sohalarning oyoqqa turishiga, rivojiga ulkan hissa qo'shgan adib **Abdurauuf Abdurahim o'g'li Fitrat** 1886-yil Buxoroda ziyoli oilasida tug'ilgan. Otasi **Abdurahimboy sarroflik** (pul almashtiruvchi) va savdogarlik qilgan. Fitratning Abdurahmon ismli ukasi, Mahbuba ismli singlisi ham ziyoli kishilar bo'lib yetishganlar.

Fitrat o'zbek va fors tilini onasi **Bibijon otin** (Nastarbibi yoki Mustafbibidan) o'rganadi.

Abdurauuf dastlab eski maktabda, so'ngra Mir Arab madrasasida o'qiydi. U 18 yoshlarida bir muddat otasining oilalariga yordam beradi, u bilan birga hajga ham boradi. 1904–1907-yillar mobaynida Turkiya, Eron, Hindiston, Arabiston, Rusiya mamlakatlarida bo'ladi.

¹⁶⁵ Qurang: N.Karimov va boshq. Adabiyot (Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 11-sinfi uchun darslik). – T.: O'qituvchi, 2004. – 73–86-betlar; N.Karimov va boshq. XX asr o'zbek adabiyoti (11-sinf uchun darslik). – T.: O'qituvchi, 2002. – 68–91-betlar; S.Olim va boshq. Adabiyot (Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 8-sinfi uchun darslik-majmua). I qism. – T.: O'qituvchi, 2002. – 159–174-betlar.

1909–1913-yillarda adib «**Tarbiyati atfol**» («Bolalar tarbiyasi») xayriya jamiyati orqali Turkiyaga jo‘natilgan besh nafar talabalardan biri sifatida Istanbuldagi “Dorulmuallimin” – muallimlar gimnaziyasida tahsil oladi. Sadriddin Ayniy «*Fitrat Istanbulga borib o‘qigan talabalar orasida eng iste’dodlisi va fozili edi*» degan fikrni aytgan edi. U yerda zamondoshlari bilan birgalikda «*Buxoro ta’limi maorif jamiyati*»ni tuzadi.

Fitrat 1919–1920-yillarda Afg‘oniston hukumatining Toshkentdagi vakolatxonasida tarjimon, «*Turon*», «*Buxoroyl sharif*», «*Oina*» kabi ko‘pgina gazeta va jurnallarni tashkil etishda bosh-qosh bo‘ladi, 1918-yilda Toshkentda tashkil etilgan, Turkistonda til, adabiyot, san‘at masalalari bilan ilk bor tashkiliy ravishda shug‘ullangan, O‘zbekiston hududida vujudga kelgan dastlabki ilmiy muassasa va o‘ziga xos yozuvchilar uyushmasi bo‘lgan «*Chig‘atoy gurungi*» nomli ilmiy-ma’rifiy tashkilotga rahbarlik qiladi, Buxoro Xalq Respublikasining bir qator rahbar lavozimlarida ishlaydi. Buxoro amiriga berilgan ultimatum ham uning qalami bilan yoziladi.

Fitrat **Shahrisabz** va **Karkida** jadid maktablarini ochadi, «*Yosh buxoroliklar*» partiyasini tuzib, unga sarkotib bo‘ladi. 1917–1918-yillarda Samarqandda chop etiladigan «Hurriyat» gazetasida bosh muharrir bo‘ldi. Fitrat “Hurriyat” gazetasining 1917-yil 7-noyabr sonida “*Rusiyada yangi bir balo bosh ko‘tardi: Bolshevik balosi!*” – deb yozdi.

Fitrat 1918-yilning bahorida Toshkentga chaqiriladi va maorif va madaniy sohalarida faoliyat yuritadi, maktablarda, dorilfununda til va adabiyotdan dars beradi.

1919-yilning boshida Cho‘lpon bilan uchrashadi va ulat abadiy do‘st bo‘lib qoladilar.

1920-yil oxirlarida Fitrat **Fayzulla Xo‘jayev** taklifi bilan Buxoroga qaytib, Buxoro hukumatining yirik lavozimlarida ishlaydi, ikkala davlat arbobi tashabbusi bilan 70 nafar turkistonlik iqtidorli yoshlar Germaniyaga o‘qishga yuboriladi. 1921-yil mart oyidan Buxoro jumhuriyatida turk(o‘zbek) tili davlat tili deb e‘lon qilinadi, Buxoro teatri ish boshlaydi¹⁶⁶.

¹⁶⁶ S.Olim va boshq. Adabiyot (Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 8-sinfi uchun darslik majmua). – T.: G‘. G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, O‘zbekiston nashriyot matbaa ijodiy uyi, 2010. – 132-bet.

1923–1924-yillarda Fitrat Moskvada yashaydi, Sharq tillari institutida pedagoglik faoliyati bilan shug‘ullanadi, hozirgi Sankt-Peterburg universitetining Sharq fakultetida ma’ruzalar o‘qiydi va o‘zbek ziyolilari ichida birinchilardan bo‘lib *professor* ilmiy unvoniga sazovor bo‘ladi.

Adib 1927-yilda O‘zbekistonga qaytadi va Samarqanddagi Oliy pedagogika instituti (hozirgi SamDU)da, keyinchalik esa Toshkentda Fanlar qo‘mitasi va Madaniyat institutida faoliyat yuritadi.

Qomusiy bilim va badiiy iste’dod egasi bo‘lgan Fitrat ilk aspirantlarga rahbarlik qilgan, Buxoroda musiqa maktabi ham ochgan. O‘smirlik yillari u *Mijmar* («Xushbo‘yo‘t yoqiladigan cho‘g‘don») taxallusi bilan, so‘ngra *Fitrat* (“tug‘ma iste’dod”, “tug‘ma tabiat”) taxallusi bilan ijod qilgan.

1930-yillarda vaqtlilik matbuotda, ketma-ket uyushtirilgan majlislarda Fitrat “millatchi”, “turkparast”, “islomparast”, “g‘arbning josusi” sifatida nohaq qoralanadi. U 1937-yil 24-aprelda qamoqqa olinadi va “xalq dushmani” sifatida 1938-yil 4-oktabrda otib tashlanadi. Lekin sud qarori 5-oktabrda chiqariladi.

Fitrat o‘zi faoliyat ko‘rsatgan tashkilotga asossiz qo‘yilgan ayblarni «non orasidan kir izlamak» deya atagan edi. Adib «*ne-ne yurtlarni kezdim, ko‘rdim, biroq Turkistonimiz kabi baxtsiz bir mamlakat yo‘qdir*», deb nola qilgan.

Fitrat XX asr o‘zbek madaniyat arboblari orasida birinchilardan bo‘lib, «Devonu lug‘otit-turk» asarini o‘rganishga kirishgan, mo‘g‘ul tilining lug‘atini tuzishga tayyorgarlik ko‘rgan. U shoirni «*kichik, nozli qanotiga butun bashariyatni qo‘ya oladigan, «o‘ksiz, yo‘qsul ko‘ngillarni» ko‘taradigan bir bulbuldir*» deb ta’riflagan.

Adibning hayoti va ijodini adolatli o‘rganish XX asrning 80-yillari oxirida boshlandi. Uch jilddan iborat «*Tanlangan asarlar*»i bosilib chiqdi. Adib asarlari 1991-yilda *Alisher Navoiy nomidagi Respublika Davlat mukofotiga* munosib deb topildi.

Fitratning hayoti va ijodi to‘g‘risida o‘zbek fitratshunos olimlaridan *H.Boltaboyev, B.Qosimov, I.G‘aniyev, B.Ergashev* va boshqalar o‘zlarining tadqiqotlarini e‘lon qilganlar.

2000-yilda Fitratning 2 jildlik "Tanlangan asarlar"i nashri qilingan, unga "Buyuk xizmatlari uchun" ordeni ham berilgan.

FITRATNING IJODIY MEROSI

SHE'RLARI: "Mirrix yulduziga", "O'gut", "Bir oz kul", "O'qitg'uvchilar yurtiga", "Go'zalim, bevafo gulistonim...", «Sharq» (1920) va boshq.

SHE'RIY TO'PLAMLARI: «Sayha» (1912, «Faryod; na'ra; chorlov»), Fitratning Istanbulda bosilgan ilk she'riy to'plami. Unda shoirning forscha she'rlari jamlangan), «Yurt qayg'usi» (bu sochmaning ikkinchi nomi «Temur oldinda» deb nomlangan), «Uchqun» (u topilmagan) va boshq.

DRAMALARI: «O'g'uzxon» (1919), «Chin sevish» (1920, unda Hindiston hayotidagi voqealar asos qilib olingan), «Abulfayzxon» (1924), «Arslon» (1926, besh pardali drama U dehqonlar hayoti haqida bo'lib, asosiy qahramonlari Arslon, uning sevgilisi To'lg'inoy, sudxo'r Mansurboy, Bek, Yasovulboshi va Darg'alardir), «Begijon» (1916, 5 pardali fojia), «Mavludi sharif» (1916), «Abo Muslim» (1916), «Temur sag'anasi» (1918), «Qon» (1920), «Hind itxilotchilari» (1923, Berlin, Rusiya istibdodiga qarshi kurashga chorlovchi asar), «Vose'qo'zg'oloni» (1927), «Ro'zalar» (1930) va boshq.

PEDAGOGIK ASARLARI (DARSLIKLARI): «Muxtasar islom tarixi» (1915), «O'qu» (1917), «Adabiyot qoidalari» (1926, Adabiyot muallimlari va adabiyot havaslilari uchun qo'llanma) va boshq.

ILMIY ASARLARI: «Bedil» (ilk tadqiqot, ilmiy-ommabop ocherk), «O'zbek tili qoidalari to'g'risida bir tajriba: Sarf (1-kitob), Nahv (2-kitob)», «Sarf-i zaboni tojik», «Eng eski turkiy adabiyot namunalari», «O'zbek adabiyoti namunalari» (1928), «Sharq shaxmati», «Fors shoiri Umar Xayyom», «Arzu haqida» (1936), «XVI asrdan so'nggi o'zbek adabiyotiga bir qarash», «Firdavsiy zamoni va muhiti», «Ahmad Yassaviy», «Navoiyning forsiy shoirligi va uning forsiy devoni to'g'risida», «Mashrab», «Shashmaqom», «Sharq musiqasi»,

«O'zbek klassik musiqasi ham uning tarixi», «O'zbek shoiri Turdi», «Hibat ul-haqoyiq» va boshq.

NASRIY ASARLARI VA MAOOLALARI: «Munozara»

(1909, Fitratning Istanbulda chop etilgan dastlabki yirik asari. Asar fors tilida yaratilgan bo'lib, uning to'liq nomi «Hindistonda bir farangi ila buxorolik mudarrisning bir necha masalalar ham usuli jadid xususinda qilg'on munozarasi»). Uni M. Ayniy «bu asar davr taraqqiyotiga g'oyat kuchli va samarali ta'sir ko'rsatdi», deb baholagan edi), «Amir Olimxon» (risola), «Rahbari najot» (1915), «Oila» (1916), «Me'roj» (hikoya), «Yopishmagan gajaklar» (1929, Boybo'latovga ochiq xat. Unda Fitrat Boybo'latovga qarata «Azizim, O'rta Osiyoning olamga ma'lum bir madaniyati bo'lg'on, bu madaniyatning turkiy asarlari qolgan. Bu asarlarning hammasiga birdan axlat» lar deyish sizning muhokamangizning kirligidan chiqqan yangi bir istiloh bo'lsa kerak» degan fikrlarni bayon etgan. U Fitratning o'ziga nisbatan «panislomist, panturkist, o'tmishni qo'msovchi va uning merosini targ'ib qiluvchi komfirqa va sotsializmning dushmani, millatchi» degan tuhmatni yopishtiruvchilarga qarshi raddiya, ochiq xat sifatida e'lon qilingan maqolasidir), «Ittifoq etaylik» (1917, unda Fitrat «Qo'lni qo'lga beraylik, haq yo'linda, din yo'linda, millat yo'linda jadidimiz, qadimimiz, mullamiz, boyimiz va avomimiz bir yerga to'planaylik, bir-birimizga ko'makchi va madadkor bo'laylik» degan edi), «Hind sayyohi bayonoti» (fors-tojikcha, 1912), «Oq mozor», «Qiyshiq eshon», «Tilimiz» (1919, maqola) va boshq.

DINIY MAVZUDAGI ASARLARI: «Muxtasar islom

tarixi», «Ro'zalar», «Shaytonning tangriga isyoni» (1924, mustabidlik avj olgan zamonda badiiylik va shartlilikning murakkab, yashirin shakllariga murojaat etib yaratilgan, yuzaki qaraganda dahriynamo bo'lib ko'rinsa-da, aslida tubida, zamirida ozodlikka intilish, mustaqillik uchun kurash g'oyalari, Vatan va shaxs erki muammolari badiiy talqin etilgan asar), «Qiyomat» (1923, bu hikoyadagi «Nima qilgan bo'lsam yaratganning irodasi bilan qilganman. Yaratgan mening barcha qilmishlarimdan voqif-ku, bu yerda hisob-kitob

qilib o'tirishning nima keragi bor», – degan fikrlar Pochamirga tegishli) va boshq.

«MIRRIX YULDUZIGA» she'ri haqida

1920-yilda yozilgan bu she'r «Go'zal yulduz, yerimizning eng qadrli tuvg'oni» misrasi bilan boshlanadi. U istiqloq ruhi bilan sug'orilgan, salkam 70 yil davomida millatchilik ruhidagi asar sifatida baholangan bo'lib, unda sotqin, ikkiyuzlamachi, zolim odamlar, «qardosh etin to'ymay yegan qoplonlar» qoralangan.

She'rda muallifning aynan Mirrix yulduziga murojaat qilishining sababi shuki, Mirrix (ya'ni Mars) mifologik qarashlarga ko'ra **jang-u jadal** ramzidir.

Fitrat ushbu she'rda XX asr boshlarida Toshkentda va Turkistonning boshqa chekkalarida bo'layotgan xunrezliklardan kuyinib yozgan va she'rni quyidagi misralar bilan yakunlagan:

...Bormi senda qorin-qursoq yo'lida
Elin, yurtin, borin-yo'g'in sotqonlar?

«O'GUT» she'ri haqida

O'zbek she'riyatida chaqiriq, murojaat shaklida bitilgan bu she'r yigitlarga murojaat bilan boshlanib, unda Fitratning «og'in yigit»ga murojaati bir millatning asriy istagi, qalb chaqirig'i bo'lib eshitilgan. She'rda yigitlar millat dardiga najot sifatida tilga olingan.

G'afur G'ulom ham o'zining «Yigitlarga» deb nomlangan she'rda shunday yozadi: «Yigit omon bo'lsa, xavf-u xatar yo'q...». Fitrat chinakam xalq farzandlarini shiddatga harakatga undagan:

Turma – yugur, tinma – tirish, bukulma – yuksal,
Hurkma – kirish, qo'rqma – yopish, yo'rilma –
qo'zg'al!

She'r sarlavhasi zamirida ham «pand», «nasihat», «maslahat» ma'nolari emas, balki ko'proq «chaqiruv», «da'vat», «uyg'otish» ma'nolari mavjud.

«O'gut» she'ri quyidagi misralar bilan yakunlanadi:

...Qilolmasang shu ishlarni,
Sening uchun xo'rlikda bu...
Yiqil, yo'qol, ket!

«GO'ZALIM, BEVAFO GULISTONIM...» she'ri haqida

Bu she'rda ko'nglining suygan do'stidan ayrilgan lirik qahramon iztiroblari quyuq badiiy bo'yoqlarda ta'sirli ifodalangan. She'r barmoq vaznida bitilgan bo'lsa-da, unda mumtoz she'riyatimizga xos bo'lgan badiiy o'xshatishlar, jonlantirish, istiora, qochirim singari adabiy san'atlardan keng foydalanilgan. Fitrat ushbu she'rida o'z umrini bog'ga qiyoslagan.

Bu she'r Cho'lponning ishqiy mavzudagi she'rlariga hamohang bo'lib, unda muallif yorining xoki poyini surmadek yoshli ko'ziga surishini ham aytgan.

«ABULFAYZXON» fojiasi haqida

Muallif ta'rifi bilan aytganda, "yo'qsul o'lkasining tarixidan besh pardali fojia" bo'lgan «Abulfayzxon» asari birinchi o'zbek fojiasidir. U dastlab 1924-yilda Moskvada nashr etilgan.

Bu asarni yozishda Fitrat Mir Muhammad Amin Buxoriyning «*Ubaydullanoma*», Abdurahmon To'le'ning «*Abulfayzxon tarixi*», Mir Vafo Karmonag'iyning «*Tuhfayi xoniy*» asarlaridan manba sifatida foydalangan. Asarda XVIII asr Buxoro hayoti – ashtarxoniyalar sulolasining oxirgi namoyandalaridan biri Abulfayzxon hokimiyatining tanazzuli va mang'itlar sulolasining dastlabki bosqichi tarixiy haqiqat asosida badiiy aks ettirilgan.

Bu sahna asarida shekspirona teran tragik obrazlar yaratilgan. Asar Qozi Nizom va Mirvafoning shaxmat o'yini tasviridan va Mirvafoning tush ta'biri muhokamasidan boshlanadi. Fojia nihoyasida Siyovush ruhi timsolidagi Xayol ramziy obraziga duch kelamiz (uni yaratishda Fitrat Shekspirning «Hamlet»idan ta'sirlangan bo'lsa, 1960-yillarning avvalida Maqsud Shayxzoda «Mirzo Ulug'bek» tragediyasida shu tarzda obrazni yaratishda

Fitratning mazkur asaridan ilhomlangan). Asar g'oyasi va pafosini ochishda Xayol obrazining katta ahamiyat kasb etadi. U Rahimbiy bilan bahsga kirishar ekan, taxtga qarata shunday deydi: «*Sen «inju tizguvchi adiblarning qalamlarini o'choq supurgisiga aylantirding», «Ey qop-qora saodat sensan»*. Asar oxiridagi «*Ey qop-qora saodat sensan»* degan fikr asarning fojiaiy pafosini belgilaydi, «qop-qora saodat» deganda yangi tuzumning va'da qilgan «saodat»i Turkiston xalqi boshiga qora kunlarni keltirganligi ramziy ishora tarzida ifodalangan.

Quyidagi parcha ham asardagi **Siyovush** tilidan aytilgan:

«Men... sening kabi bir zolim qo'linda mana shuning kabi hech bir narsani bilmayin, onglamayin bo'g'izlang'on bir mazlum... Ey, qora yurakli boyqush, bundan senga qolg'on vayronani qutlamoq uchun keldim. Insonliq dunyosi – esini bir joyg'a to'plab, o'z ishig'a o'zi ega bo'lg'oncha, sen ham, sening kabilarning ham ixtiyoringizdadir».

Asardagi aksar voqealar va shaxslar tarixiydir. Xususan, **Abulfayzxon**, **Nodirshoh** (u «uzoqni ko'zlab ish tutadigan tadbirkor, dushmanini tashqaridan emas, avval ichdan, qatoridagilarni qo'lga olib, munofiq va xiyonatchilardan foydalanib, mahv etish yo'lini tutadiganlar xilidan» deb ta'riflangan), xonning otalig'i **Hakimbiy**, **Rahimbiy**, tarixchi **Mirvafo**, **Ibrohimbiy** tarixiy shaxslardir. **Davlat**, **Ulfat**, **Qozi Nizom** singari obrazlar badiiy to'qima asosida yaratilgan obrazlardir.

Fojia qahramonlari quyidagilar: **Abulfayzxon** (Buxoro xoni), **Abdumo'minxon** (*Abulfayzxonning o'g'li, uni Rahimbiy zaharlaydi*), **Ulfat** (haram boshlig'i, *Farhod otaliqning qonga bo'yalgan boshini xon huzuriga Ulfat olib kiradi*), **Davlat** (to'qsabo), **Qozi Nizom** (Buxoroning qozi kaloni. U xondan Farhod otaliqning “kichkina erkaligi”ni kechirishni, ya'ni uni o'ldirmasligini so'ragan), **Hakimbiy** (xonning inog'i, so'ngra otalig'i), **Mir Vaf**o («*Tuhfayi xoniy*»ning muallifi, *Hakimbiyning odami*), **Doniyolbiy** (Hakimbiyning ukasi), **Oxun** (Buxoroning katta mullasi), **Nodirshoh** (Eron shohi), **Rizoqulixon** (Nodirshohning o'g'li), **Qurbongul** (xizmatkor ayol), **Rahim qurchi** (to'qsabo), **Tog'oyqul bek** (mang'it

beklaridan), *Ibrohimbiy* (Isyonkor, haqiqatparvar inson. U xonga qarata "Ulfat bilan Davlatni rozi qilmasam siz quvonmaysiz, bu ikkisini rozi qilmoqda mumkin emasdur" degan), *Farhod otaliq* (xonni «ota kabi asrag'on» kishi, xonga qizini bermagani uchun qatl etiladi. U "Xonga yaxshi ko'runmak uchun qiz qurbon qilg'uvchilar ko'p, shularning qizlarini oldira beringiz" degan), Eron qo'shini boshliqlari: *Aliqulixon, Husayinxon, Ahmadxon* va boshq.

SHE'RLARIDAN PARCHALAR:

...Turonim, sendan ayrilmoq – mening uchun o'limim,
Sening uchun o'lmoq mening tirikligimdir.

* * *

Erta sahar tavof qilgil, bu vatanimdir,
Na vatan bu, sajdagoh-u jonim va tanimdir.
Ko'kda mohim, osoyish-u izzat-sharafimdir,
Ham ka'bamdir, ham qiblamdir hamda chamanimdir.

ABDULLA AVLONIY

(1878 – 1934)

Har g'amning poyoni bordir, har alamning oxiri,
Har zimistonning bahori, har xazonning oxiri.

Avloniy («Sadoyi Turkiston» gazetasi, 1914)

*«Alhosil tarbiya bizlar uchun yo hayot, yo mamot, yo najot,
yo halokat, yo saodat, yo falokat masalasidir».*

(A.Avloniy)



Mashhur o'zbek ma'rifatparvari, milliy uyg'onish davri o'zbek adabiyotining taniqli vakili, shoir va jamoat arbobi **Abdulla Avloniy** 1878-yil 12-iyulda Toshkentda Mergancha mahallasida hunarmand-to'quvchi oilasida tug'ilgan. Otasining ismi Miravlon, onasining ismi Fotima edi.

Abdulla Avloniy 7 yoshida O'qchi mahallasidagi eski maktabga borib, uni 1890-yilda tugatgach, shu mahalladagi madrasada tahsil oladi. Keyinchalik u Shayxontohurdagi madrasada ham o'qiydi.

Abdulla oiladagi moddiy qiyinchiliklar tufayli bolalik chog'laridan odamlar eshigida mehnat qiladi, qish kunlari o'qib, yoz kunlarida mardikorchiilik qilgan: g'isht quyish, suvoqchilik, pechkachilik, duradgorlik, binokorlik kabi kasblar bilan shug'ullangan, «*Imoratchi usta*» degan nom ham olgan.

Avloniyda she'rga ishtiyoq 15–16 yoshlarida paydo bo'lgan. Uning ilk she'rlari 1894-yilda bitilgan, 1905-yildan boshlab u o'z she'rlari bilan matbuotda qatnasha boshlagan.

Adib 1905–1908-yillar mobaynida “Taraqqiyy”, “Xurshid” va o'zi chiqargan “Shuhrat” gazetasida faoliyat yuritgan. 1905–1917-yillarda matbuotdagi qizg'in faoliyati, ko'plab publitsistik maqolalari bilan «*bir yoqdan milliy islohot uchun mafkura hozirlog'on, ikkinchi yoqdan el orasiga o'zgarish tuxmini sochg'on*» ham Abdulla Avloniy bo'ladi. Avloniy o'zi nashr etgan «*Shuhrat*» nomli gazetasi uning faoliyatini shunday baholagan edi.

“Shuhrat” va “Osiyo” gazetalari yopilgach, jadidchilik harakatining faol tashkilotchilaridan biri bo'lgan Avloniy 1904-yilda Toshkentning Mirobod mahallasida jadid maktablari («usuli savtiya»)ni ochadi va maktabdorlik qiladi.

Avloniy Turkistonda birinchilardan bo'lib maktabga *geografiya, kimyo, handasa, fizika fanlari kiritilishiga ta'sir ko'rsatdi, ta'limni turmush bilan bog'lashga intildi, bir dars bilan boshqasi o'rtasida muayyan tanaffusni, bir sinfdan ikkinchisiga o'tishdagi imtihonni joriy etdi, ta'lim tizimining dunyoviy yo'nalishini kuchaytirishga alohida e'tibor berdi.*

Avloniy 1909-yilda kambag'al, yetim-yesirlarga yordam beruvchi «*Jamiyati xayriya*» uyushmasini, 1913-yilda “Turon” jamiyatini tashkil etadi. U “Turon” jamiyati qoshida «Turon» nomli teatr to'garagini tashkil etib, Nizomiddin Xo'jayev, birinchi o'zbek rejissori Mannon Uyg'ur, Mirshohid va Mirahmad Miroqilov singari iqtidorli yoshlarni to'playdi, ayrim rollarni ijro etishda o'zi ham qatnashdi. Uning o'zi e'tirof

etishicha, 10 taga yaqin pyesani ozarbayjon tilidan o'zbekchaga o'giran, 3 ta yangi pyesa yozib, ularni sahnalashtirgan.

Abdulla Avloniyning *"Hijron"*, *"Nobil"*, *"Indamas"*, *"Shuhrat"*, *"Surayyo"*, *"Shapaloq"*, *"Tangriquli"*, *"Abdulhaq"*, *"Chol"*, *"Ab"*, *"Chegiboy"* degan taxalluslari bo'lgan.

Avloniy *«Turon»* (1917) gazetasiga *«Yashasin xalq jumhuriyati»* degan shiorni tanlaydi, *«Sadoyi Turkiston»* va *«Ish tirokyun»* (1918-yilda unga muharrir bo'lgan) gazetalarida ishlaydi, Afg'onistonda elchi bo'ladi, turli o'quv yurtlarida (umrining oxirgi yillarigacha O'rta Osiyo Davlat universitetida) dars beradi.

Abdulla Avloniy 1927-yilda *«Mehnat qahramoni»*, 1930-yilda *«O'zbekiston xalq maorifi zarbdori»* unvoniga sazovor bo'lgan. U 1934-yil 25-avgustda Toshkentda vafot etgan.

Abdulla Avloniy yashagan Miroboddagi uyda muzey ochilgan, Toshkentdagi ko'chalardan biriga va Respublika Xalq ta'limi xodimlari malakasini oshirish va qayta tayyorlash institutiga uning nomi berilgan.

Avloniy ijodi bo'yicha **Begali Qosimov** ilmiy izlanishlar olib borgan.

ABDULLA AVLONIY ASARLARI

SHE'RLARI: *«Biz, millat»* (u *"Adabiyot yoxud milliy she'rlar"* birinchi juzida keltirilgan), *«Maktab haqida»* (u ham *"Adabiyot yoxud milliy she'rlar"* birinchi juzida keltirilgan), *«Hijron so'zi»* (u *"Maktab gulistoni"* milliy she'rlari beshinchi juzida keltirilgan), *«Chin do'st»* (u *"Ikkinchi muallim"* kitobida keltirilgan), *«Mardikorlar ashulasi»*, *«Vatan* (1916), *«Bog'cha»*, *«Yalqov shogird tilidan»*, *«Tog'lardan bir manzara»*, *«Millatga xitob»*, *«Ishchilarga tortuq»*, *«Ko'klam keldi»*, *«Tovush»* va boshq.

MAQOLALARI: *«Maqsad va maslak»* (1908-yil 9-aprel), *«Holimizga doir»* (1908-yil 14-fevral), *«Kim nimani yaxshi ko'rar?»*, *«Sanoye Nafisa»* va boshq.

PEDAGOGIK ASARLARI (DARSLIKLARI VA OO‘LLANMALARI): «*Birinchi muallim*» («Muallimi avval», 1909), «*Ikkinchi muallim*» («Muallimi soniy», 1912), «*Turkiy Guliston yoxud axloq*» (1913), «*Gulistoni maktab*» («Maktab gulistoni», 1916), «*Adabiyot yoxud milliy she‘rlar*» (1909–1916, 6 qismdan iborat), *7-sinf o‘qish xrestomatiyasi* (uni muallif XX asrning 30-yillarida tuzib nashr ettirgan).

HIKOYATLARI: «*Hasad balosi*», «*To‘g‘rilik*», «*Yalg‘on do‘st*», «*Xurus ila Bo‘ri*», «*Janjalchilik zarari*» va boshq.

PYESALARI: «*Advokatlik osonmi?*» (1914, bir pardalik kulgi. Asar qahramonlari quyidagilar: Davronbek (*Rustambekning o‘g‘li*), Xudoyberdi (“*o‘risga yer sotib, keyin qiynalib*” *yurgan chol*), uyini garovga qo‘yib, qarz hisobiga uylangan Egamberdi (“*Jin charchaganni urar, dev – tegirmonchini*” *maqoli uning tilidan aytilgan*), Xushvaqt (*ot yo‘qotgan tojik*) va boshq.), «*Pinak*» (1916), «*Biz va siz*» (1917), «*Portugaliya inqilobi*», «*Ikki muhabbat*» va boshq.

«TURKIY GULISTON YOXUD AXLOQ» asari haqida

O‘zbek pedagogikasi va adabiyoti tarixida o‘ziga xos o‘ringa ega bo‘lgan, 1913-yilda jadid maktablari muallimlarining iltimosiga ko‘ra yozilgan bu axloqiy-ta’limiy asar «*Axloq*», «*Tarbiya*», «*Yaxshi xulqlar*» (*bu qismda muallif 31 fazilatga ta’rif bergan*), «*Yomon xulqlar*» (unda 20 axloqiy illatga ta’rif berilgan) deb nomlangan qismlarga bo‘linadi. Har bir bobda tushunchalar payg‘ambar hadislari, *Arastu*, *Aflotun*, *Muhyiddin Arabiy*, *Ibn Sino*, *Jaloliddin Rumiy*, *Sa‘diy* kabi allomalar fikrlari bilan bezatilgan.

Muallif bu kitob boshlanishiga «*Man xastayamu millatim o‘lmish nega bemor?*» degan ritorik so‘roq qo‘ygan va asar davomida ushbu savolga javob berishga harakat qilgan. Asarda *diyomat*, *sa‘y* va *g‘ayrat*, *riyozat*, *shijoat*, *qanoat*, *sabr*, *nafs*, *vijdon*, *iffat*, *olihimmatlik* va shu kabi **yuksak axloqiy tushunchalar**, *zulm*, *nifoq*, *ta‘ma*, *xasad*, *loqaydlik*, *g‘iybat*, *haqorat*, *uyatsizlik*, *namimat* (*chaqimchilik*), *adovat* kabi **yomon xulqlar** millat va vatan saodatiga e‘tiborsizlik va

bepisandlik bilan bog'langan holda muhim ijtimoiy muammo sifatida talqin etilgan.

«Amerikaliklar bir dona bug'doy ekub, yigirma qadoq bug'doy olurlar. Ovrupolilar o'zimizdan olgan besh tiyinlik paxtamizni kelturib, o'zimizga yigirma besh tiyinga soturlar! Ammo biz osiyolilar, xususan, turkistonlilar dumba sotub, chandir chaynaymiz. Qaymoq berib, sut oshiyimiz, non o'rniga kesak tishlaymiz!» degan fikrlar ulug' adibning asr boshidayoq vatan ravnaqi xususida nechog'lik chuqur va teran mushohada yuritganini ko'rsatib turibdi.

Kitobda keltirilgan **“Vatanni suymak”** lavhasida muallif Vatan tushunchasining ma'nosini sodda va ta'sirchan tarzda tasvirlagan.

Asarda Avloniy o'zni bilan hadislarga murojaat etgan, «Qur'oni karim»dagi ulug' falsafiy kalomlardan unumli foydalangan. Ayniqsa, *Iskandar, Suqrot, Arastu, Aflotun, Ibn Sino, Mavlono Rumi, Shayx Sa'diy* kabi tarixiy shaxslar bilan bog'liq naqlar, ixcham rivoyatlar, hikoyatlar asar jozibasiga joziba qo'shgan.

“TURKIY GULISTON YOXUD AXLOQ”

asaridan parchalar:

“*Din va e'tiqodi salomat bo'lmagan kishilar haqni botildan, foydani zarardan, oqni qoradan, yaxshini yomondan ayira olmas*”.

“*Sabr shunday bir kuchli narsadirki, shahvatni iffatga, g'azabni shijoatga, shiddatni hilmga, kattalikni tavozu'ga, yomonlikni yaxshilikga aylandurmakga quvvati yetar*”.

“*...Qanoat bir xazinadirki, naqdinasi kundan kun ortar*”.

“*...Hayo dilni ravshan qiladurgan bir nurdirdiki, inson har vaqt shul ma'naviy nurning ziyosiga muhtojdur. ...Iffatning pardasi, vijdonning niqobi hayodir...*”.

“*Har bir millatning dunyoda borligini ko'rsatadurg'on aynai hayoti til va adabiyotidir. Milliy tilni yo'qotmak millatning ruhini yo'qotmakdur*”.

“*Kishi yurtida sulton bo'lguncha, o'z yurtida cho'pon bo'l*”.

“Tillarning eng yaxshisi so‘zga usta til, so‘zlarning eng yaxshisi bilib va oxirini o‘ylab so‘ylangan so‘zdir”.

**ABDULLA AVLONIY SHE‘RLARIDAN
PARCHALAR:**

**Ko‘zingni och, ey millat, ko‘p zamon g‘ofil yotding,
Umring o‘tdi yotmoqda, qayg‘uga toza botding.**

(«Millatga xitob» she‘ridan)

* * *

**Biling, o‘glonlarim, sizlarni g‘amdan qutqarar maktab,
Siroti mustaqim, rohi adamdan qutqarar maktab.**

* * *

**Sening tuyg‘ung yuraklarga savdo solur,
Sening darding boshqa dardni tortib olur.**

(Bu misralarda A.Avloniy vatan tuyg‘usi haqida fikr yuritgan)

* * *

**Aql egasi hiylaga aldanmagay,
Hiylagarning hiylasi boshin yegay.**

(“Ikkinchi muallim” kitobidan)

* * *

**Vatan, vatan deya jonim tanimdan o‘lsa ravon,
Banga na g‘am, qolur avlodima uyu vatanim.**

* * *

**Hayo, nomus iymona dalildur,
Hayosiz doimo xor-u zalildur.
Uyalma ma‘rifat hosil qiluvdan,
Maorifsiz kishilar murda dildir.**

* * *

**Umrini sarf etmish ota-bobolar,
Chekmish ilm uchun jabr-u jafolar,
Bizlar ham bo‘lmayluk baxti qarolar,
Bitsun, yo‘q o‘lsun bu kayf-u safolar.
Ey millat, uxlama, ilm olur chog‘i,
Har millat ilm oldi – yondi chirog‘i.**

* * *

Onamizsan! Bizni(ng) mushfiq onamizsan!
Javlon urib yashaydurgon xonamizsan!
Seni sotmoq mumkinmidur, o'zing o'yla,
Tiling bo'lsa, hasratlaring tuzuk so'yla!

(*"Vatan" she'ridan*)

* * *

Men ketsam-da, sen bo'l omon!
Omon – Vatan, Vatan – omon!

(*"Hijron so'zi" she'ridan*)

MUHAMMADSHARIF SO'FIZODA

(1869 – 1938)



O'z davrining shijoatkor xalqparvari, ma'rifatparvari **So'fizoda** o'z she'rlari bilan xalqimizning milliy uyg'onishiga hissa qo'shgan ilg'or ziyolilaridan biridir. Muhammadsharif Egamberdi o'g'li 1869-yilning 29-yanvarida Namangan viloyati Chust tumanida hunarmand-kosib oilasida tug'ilgan.

Otasi Egamberdi So'fi pichoqchilik, charxchilik ishlari bilan mashg'ul bo'lgan. Muhammadsharif onasi Zaynab xola xohishiga ko'ra Manzura otindan xat-savod chiqaradi, eski maktablarda ta'lim oladi. So'fizoda «**Vahshiy**» taxallusi bilan hajviy she'rlar yozgan, «*Turkiston viloyatining gazetisi*», «*Sudoyi Turkiston*» gazetalarida she'rlari bilan qatnashib turgan, Qo'qon adabiy muhitining mashhur shoirlari Muqimiy, Muhyi, Zavqiy, Nodim Namangoniy bilan yaqin munosabatda bo'lgan. U o'zbekcha, forsa, ozarcha tillarda ijod qilgan.

Shoir 1893-yilda ona shahri Chustda boyonlarni, chor amaldorlarini, mutaassiblarni hajv qiluvchi she'rlari uchun «*Badash*», «*Beadab*», «*Dahriy*» deb ayblangan va o'limga hukm qilingan.

Shoir nohaq ayblovlardan qochib, 14 yil turli mamlakatlarda umr kechirgan. Tiflis, Boku shaharlarida bo'lib, Arabiston, Hindiston, Turkiya, Afg'onistonda yashagan. Adib Istanbul

universitetida tahsil olgan, ma'lum vaqt Hindistonda o'qituvchilik qilgan.

So'fizoda 1918-yilda Afg'oniston maorif vazirining o'rinbosari sifatida Turkistonga afg'on vakolatxonasining tilmochi bo'lib tayinlangan va shu yili yurtiga qaytib kelgan.

ASARLARI: «O'qing, onalar», «Gazeta to'g'risida» («Aylar gazet», unda muallif gazetani «dil g'unchasini yashnatuvchi, fasli bahor etuvchi», «ko'ngil bog'iga suv berib, sabzavor etuvchi» deya ta'riflagan), «Chust boyonlarining bir gapxonada bir-birlariga maqtanishganlari», «O'zbek xonimiga», «Xonimlar isminda», «Vatan», «Muslimalar», «Bayram nashidalari» (1934), «Alvido», «Ozodlik bayrami», «Saylovga», «Quvdi meni johillar o'shandog' vatanimdin...» kabi she'rlari va boshq.





33-MAVZU. JADID ADABIYOTI NAMOYANDALARI

HAMZA HAKIMZODA NIYOZIY¹⁶⁷ (1889 – 1929)

**Millatim nasli bashardur, vatanim kurrayi arz,
Ikkisin xizmati farzdur, ikkisindan jon qarz.**

H.H.Niyoziy



Shoir, dramaturg, tarbiyachi, murabbiy, jamoat arbobi bo'lgan **Hamza** 1889-yil 6-martda Qo'qonda Hakimcha ismi bilan mashhur bo'lgan tabib oilasida tug'ilgan. Otasi **Ibn Yamin Xolboy o'g'li** o'zbekcha va forschadan savodli bo'lib, "Buxoroga borib xalq do'qtiri" bo'lib qaytgan. Shu sababli Hamza o'z taxallusiga tabibning o'g'li ma'nosidagi "Hakimzoda" nomini qo'shgan.

Yozuvchining onasi **Jahonbibi** ham tabobatdan anchagina xabardor ayol edi. O'z tarjimayi holida Hamza 10 yoshida "o'zbekcha, forschaga tom savodli" bo'lganligini yodga oladi.

U 1896–1908-yillarda eski maktab va madrasalarda ta'lim oladi, arab, fors, turk tillarini o'rganadi. 1908-yilda Namanganda

¹⁶⁷ Qurang: N.Karimov va boshq. Adabiyot (Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 11-sinfi uchun darslik). – T.: O'qituvchi, 2004. – 88–102-betlar; N.Karimov va boshq. Xalq o'zbek adabiyoti (11-sinf uchun darslik). – T.: O'qituvchi, 2002. – 92–113-betlar; A.Ahmedov va boshq. Adabiyot (Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 5-sinfi uchun darslik). – T.: Sharq, 2007. – 286–296-betlar; Q.Yo'ldoshev va boshq. Adabiyot (Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 7-sinfi uchun darslik-majmua). – T.: Sharq, 2017. – 14–17-betlar; S.Olim va boshq. Adabiyot (Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 8-sinfi uchun darslik-majmua). – T.: G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, "O'zbekiston" nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2010. – 145–148-betlar.

o'qiydi. O'sha paytda u mahalliy maorif xodimlaridan biri, tatar ma'rifatchisi **Abdulla To'qmullin** bilan uchrashib, «she'riy yozishmalarini» ko'rsatadi. Bu haqda Hamza tarjimaiy holida shunday yozgan: *«Ul... yuz sahifadan ortig' roq eski usuldagi she'riy yozishmalarimni ko'rib, tarbiyalashga kirishdi.»*

Hamza *Lutfiy, Jomiy, Navoiy, Fuzuliy, Muqimiy, Furqat va Zavqiy* asarlarini qunt bilan o'rganadi. 1899–1900-yillardan, ya'ni 10 yoshlaridan boshlab o'zi ham she'rlar yoza boshlaydi.

Hamza 1907-yilda hajga yo'l olgan otasini kuzatib Qashqargacha boradi va jadidlarning «Vaqt», «Bog' chasaroy» gazetalarini bilan ilk bor tanishadi. Bu gazetalari bilan tanishishi uning dunyoqarashi, hayotga munosabatini o'zgartiradi.

Hamza ilm olish uchun 1909-yilda Buxoroga borib yashaydi. U 1910-yilda Toshkentdagi Qashqar mahallasida usuli savtiya (jadid) maktabini ochadi. 1911-yili Qo'qonda ochgan maktabi yopiladi.

Adib 1912-yilda hajga yo'l olib, Afg'oniston, Hindiston, Turkiya va Arabistonning bir qancha shaharlarida bo'ladi. Istanbulda o'qish uchun to'xtaydi, lekin oilaviy sharoit taqozosi bilan uyiga qaytadi.

Hamza Hakimzoda 1914–1917-yillarda Marg'ilon va Qo'qonda yo'qsil bolalarni o'qitish uchun maktablar ochadi, lekin turkistonliklarning savodli bo'lishini istamagan cho'amaldorlari bunday maktablarni zo'rlik bilan yopib tashlab, undagi ashyolarni musodara qiladilar. Bu haqda Hamza 1926-yilning 25-avgustida yozgan tarjimaiy holida shunday eslaydi:

«1914-yillarning oxirlarida Marg'ilonida maktab ochdim. 8 oyga bormay Andreyev ismindagi Skoblev maorif rahbari tomonidan majburiy yopildi. Undan yana Ho'qand kelib, bir qancha o'zimga yaqin kishilar to'plab, ularning yordami bilan yo'qsul bolalar uchun pulsiz o'qitish maktabi ochdim. 20–30, keyin 15–16 kishi bir oygina yordam berdilar, o'zim 4 oycha davom ettirgandan keyin, uyaz nachalningi tomonidan tintuv

bo'lib, yopildi. Lekin hech bir qanday qog'ozlarim qo'liga ushmagani uchun qamalmay qutuldim»¹⁶⁸.

Hamza 1915-yilda Marg'ilonda «G'ayrat» kutubxonasini tashkil etib, xalq o'rtasida turk-tatar jadidlarining ma'rifatparvarlik g'oyalari tarqatishga urinadi.

Hamza Qo'qondagi rus-tuzem maktabida o'qituvchi, "Kengash" va "Hurriyat" gazetalarida muharrir(1917), Farg'ona viloyati madaniy-maorif bo'limida xodim(1918), teatr truppasida rejissor(1919), muhtojlar uchun ochilgan maktabda mudir(1920), Buxorodagi teatr truppasida rahbar(1921), Xorazm viloyatidagi madaniy-ma'rifiy muassasalarda mudir(1921–1924) vazifalarida ishlagan¹⁶⁹ va keyinchalik Farg'onaga qaytib kelgan.

Mutaxassislarning ta'kidlashicha, Hamza 1908-yildayoq sahna asari yaratgan. U bir qancha kuylarni notaga solgan, birinchilardan bo'lib roman va opera yozgan, qo'shiqni o'rniga qo'yib kuylagan, ko'plab milliy va Ovro'po musiqa asboblarini mahorat bilan chala olgan, o'zi yozgan qator pyesalarga rejissorlik qilgan, ularda asosiy rollarni ham o'ynagan¹⁷⁰.

Hamza 1929-yil 18-avgustda Shohimardonda fojiali ravishda halok bo'lgan.

1926-yilda Hamzaga adabiyot va teatr sohasidagi katta xizmatlari uchun birinchilar qatorida «O'zbekiston xalq yozuvchisi» unvoni beriladi. Sho'rolar davrida Hamza «*ahqilob kuychisi*» nomini oladi. Hamza ijodi sovet davrida bir yoqlama o'rganilgan va haddan ziyod sovetlashtirilgan. Adib birinchilardan bo'lib sho'ro (sovet) idoralaridagi mas'ul sodimlarning munofiqona basharalarini ochib tashlagan «zamon kuychisi» edi.

Hamza bir she'rida quyidagi fikrlarni aytgan:

**O'ylama, o'lguncha har kim bu razolatda ketar,
Shohlar bir kun gado, bir kun gado shahzoddir.**

¹⁶⁸ Q.Yo'ldoshev va boshq. Adabiyot (Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 7-sinfi uchun darslik-majmua). – T.; Sharq, 2013. – 13–14-betlar.

¹⁶⁹ S.Olim va boshq. Adabiyot (Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 8-sinfi uchun darslik-majmua). – T.; G'.G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, "O'zbekiston" nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2010. – 145-bet.

¹⁷⁰ Q.Yo'ldoshev va boshq. Adabiyot (Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 7-sinfi uchun darslik-majmua). – T.; Sharq, 2013. – 14-bet.

Ayni shu fikr uning «*Yangi saodat*» asarida ham ilgari suriladi. Unda Maryam: «*Shohlar bir kun gado bo'lar, bizlarga o'xshab. Gadolar yana bir kun shoh bo'lub qolur, bolajonlarim*», – deydi oilasi parokanda bo'lgan kezlarda.

Shoir bir umr ijodiy izlanishda bo'ldi, millat uchun qayg'urdi, uning “tanasidan qon oldirgan bemor” holiga tushganligini ta'kidladi, «*darig' tutmang ilm uchun ketsa mol-u jon*» deyi ilm olishga undadi.

HAMZANING IJODIY MEROSI

Hamza dastlab aruz vaznidagi she'riy shakllarda ijod qilgan, 1905–1914-yillarga oid 214 ta she'rini to'plab, «Devon Nihoniy»ni tuzgan, she'rlarida *Nihoniy* («*pinhon*», «*yashirin*», «*maxfiy*») taxallusini ishlatgan.

Hamza 1915–1919-yillarda xalq kuylariga bastalagan she'rlarini jamlab, «*Milliy ashulalar uchun milliy she'rlar majmuasi*» degan umumiy nom ostida nashr etgan (bu majmuada «*Oq gul*», «*Qizil gul*», «*Pushti gul*» kabi 8 ta turkumdan tashkil topgan). Majmuaga kirgan «*Yor-yorlarim*», «*Sog'inib*», «*Salom ayting*» kabi she'rlari «*Savti chorgoh*» ohangida yozilgan. To'plamdagi she'rlarning aksariyatida Turkiston o'lkasi boshiga tushgan og'ir kunlar tasvirlangan.

Hamza 1914–1915-yillarda «*Yangi saodat*», «*Uchrashuv*» kabi «milliy roman»lar yaratgan. «*Yangi saodat*» 1914-yilda yozilgan bo'lib, uning asosiy g'oyasi ilm-ma'rifat baxt-saodat kaliti ekanligini asoslashdir. «*Yangi saodat*» asari haqida «*Al-isloh*» jurnali so'z yuritib, «*xalqni o'quv va yozuv tarafiga targ'ib qilmoq uchun hozirgacha Turkiston shevasinda buningdek ta'sirli ro'mon nashr o'linmamish*», – deb yozgan edi.

Hamzaning «*Paranji sirlari*», «*Maysaraning ishi*» dramalari o'zbek dramaturgiyasini yangi taraqqiyot bosqichiga olib chiqqan asarlardir.

Ijodkor tavalludining 100 yilligi munosabati bilan uning 5 jildlik «*Mukammal asarlar to'plami*» chop etilgan.

SHE'RLARI: «*Sog'inib*» («*Qattiq tegma menga muncha, yuzboshim*» misralari bilan boshlanadi), «*Yig'la, Turkiston*»

(bu she'rdagi «*Yig'la, yig'la, Turkiston, yig'la, Turkiston, Ruhsiz tanlar tebransun, yig'la, Turkiston*») baytidagi «*ruhsiz tanlar*» birikmasi umidsiz va loqayd kishilarni ifodalaydi), «*Turkiston*», «*O'quv*» (1914), «*Qalam*» (1914), «*Ilm ista*» (1914), «*Maktab*» (1914), «*Dardiga darmon istamas*» (1916, bu she'r «*Milliy ashulalar uchun milliy she'rlar majmuasi*»)ning ikkinchi – «*Oq gul*» bo'limida keltirilgan), «*O'zbek xotin-qizlariga*» (1927, g'azal), «*Jonlarning jononi Vatan*» (bu she'r «*Milliy ashulalar uchun milliy she'rlar majmuasi*»)ning uchinchi – «*Qizil gul*» bo'limida keltirilgan), «*Turkiston muxtoriyatina*», «*To'g'riso'z bola*», «*Vatandoshlarima kitoba*» va boshq.

PEDAGOGIK ASARLARI (DARSLIKLARD): «*Yengil udabiyot*», «*O'qish kitobi*» (1914), «*Qiroat kitobi*» (1915).

DRAMATIK ASARLARI: «*O'ch*» (1914), «*Zaharli hayot yoxud ishq qurbonlari*» (1915), «*Boy ila xizmatchi*» (1918, bu drama «sovet dramaturgiyasining shoh asari» sifatida talqin etilgan), «*Kim to'g'ri?*», «*Tuhmatchilar jazosi*» (1918), «*Burungi saylovlar*» (1926), «*Burungi qozilar yoki Maysaraning ishi*» (1926, komediya. Asar qahramonlari quyidagilar: *Oyxon, Cho'pon, Mulla Ro'zi, Hidoyatxon, Qozi kalon, Mulla Do'st, Maysara*), «*Paranji sirlaridan bir lavha yoki Yallachilar ishi*» (1926, asar qahramonlari: *Xolisxon* (asl ismi *To'laxon*), *Norboyyachcha, Mastura, Rustambek* va boshq.), «*Muxtoriyat yoki avtonomiya*» (1917, drama), «*Ilm hidoyati*», yetib kelmagan sahna asarlari: «*Mulla Normuhammad domlaning kufr xatosi*», «*Loshmon fojiasi*» (1916–1918-yillar, 3 bo'limli), «*Farg'ona fojiasi*» (1919–1920, 4 bo'limli), «*Ochlik qurbonlari*» (1916), «*Qizil qon ichida yosh gavdalar*» (1919), «*Eshonlikka xiyonat*» (1920), «*El quzg'unlari*», «*Jahon sarmoyasining eng o'ldigi kunlari*» (1927) va boshq.

LIBRETTOSI: «*Haqiqat kimda?*» (Hamzaning “eski podshohlar turmushidan havosiz operalik ro'moni”).

MAOOLASI: «*Faqirlik nimadan hosil olur?*» (U 1914-yil 10-avgustda yozilib, “Sadoyi Turkiston” gazetasining 34-sonida bosilgan. “...Kecha bir kafshg'a 20 tiyin olub na'l

qoqub bergan usta, bugun darvozalar tagida “Rabban min, yo rab, yo ramazon!” deb qichqirmakdadir”, “Bu xo‘rlklar ilmsizlikdan kelganin shoyad o‘ylagan va aqlga solib qaragan kishi bilur” degan fikrlar shu maqolada keltirilgan).

«ZAHARLI HAYOT YOXUD ISHQ QURBONLARI» fojiasi haqida

Bu asar 1915-yilda yozilgan bo‘lib, 1916-yilda nashr qilingan. Hamza bu asar janrini «*Turkiston maishatidan olingan qiz-kuyov fojiasi*» deb atagan. Asarda adib markaziy qahramon qilib yoshlarni tanlagan. Muallif bu asarida Mahmudxon va Maryamxonni «*ishq qurbonlari*» sifatida tasvirlagan. «Zaharli hayot» fojiasida ma‘rifatli insonning «jaholat va g‘aflat zindoni»dagi fojiali taqdiri ham ko‘rsatib berilgan. Asarda Maryamxonimning mutaassib otasi yolg‘iz qizini olti xotinlik eshonga nazr qiladi. Pyesa 4 pardadan iborat bo‘lib, uning 1- va 4-pardalarida asosan Mahmudxon, 2- va 3-pardalarida esa asosan Maryamxon harakat qiladi.

Asarning asosiy qahramonlari quvidagilar: *Maryamxon* (Eng faol qahramon, Mahmudxonning sevgilisi. U o‘z sevgilisi Mahmudxonga “Ardoqli millatim, g‘unchayi muhabbatim, suyukli afandim...orzu-havas o‘lsa-o‘lsun, milliyat, insoniyat o‘lmasun...” deya xat yozgan), *Mahmudxon* («xushmo‘ylab, soqolsiz, sochlik, ko‘zida oynak bor, butun ovrupocha kiyingan, Mirzo Hamdamboyning 18 yoshli yolg‘iz o‘g‘li». U “Oh jaholat! Maorifsiz davlat! ...Eh, johil otalar, johila onalar, man orzu-havasni nima qilay?” kabi so‘zlarni aytgan va sevgilisi o‘limidan so‘ng ishq yo‘lida o‘zini-o‘zi o‘ldirgan), *Mirzo Hamdamboy* («Olti yildan baqqa qancha pullar sarf qilib» o‘g‘lini nega, nima maqsadda o‘qitganini o‘zi ham deyarli tushunmaydigan shaxs), *Abduqodirboy* (Hamdamboyning oshnasi), *Mavsum*, *Eshon*, *Sora* (Maryamxonning onasi), *Zaynab* (Mahmudxon va Maryam orasida xat tashuvchi 60 yoshdagi kampir) va boshq.

SHE'RLARIDAN PARCHALAR:

Yaxshi holin yo'qotgan, oqibatsiz Turkiston,
Istiqbolin ushotgan, ofiyatsiz Turkiston,
O'z jismiga o'q otgan, hamiyatsiz Turkiston,
Zillat loyiga botgan, ey g'ayratsiz Turkiston!

(«Turkiston» she'ridan)

* * *

Darig' tutmang ilm uchun ketsa mol-u jon,
O'quv farzligi ming yo'l Qur'onda farmon.
Ma'rifatsiz tonulmas ahkomi imon,
Ilmsizga aytilmas komil musulmon.

(«Yig'la, Turkiston» she'ridan)

* * *

Bizni Turkiston eli dardiga darmon istamas
Zulmat ichra kechsa umri, mohi tobon istamas,
Uxlama ko'p, o'zbek eli, asri taraqqiy vaqtida.

(«Dardiga darmon istamas» she'ridan)

* * *

San onayi zor ekanda, achingoning bor ekanda,
O'lmay laxta qonlar to'kub xor bo'lib yurar ekanda.

(«Jonlarni jononi Vatan»)

* * *

Olaming xurshidi kundir, odaming xurshidi ilm,
Olaming zulmoti tundir, odaming nodori ilm.

(«Ilm ista»)

* * *

Erur ilm-u adab, fazl-u hunar osor maktabdin,
Yetar har rutbai oliy esa takror maktabdin.

(«Maktab»)

ABDULLA QODIRIY¹⁷¹

(1894 – 1938)

...men turli bo'hton, shaxsiyat va soxtalar bilan ikkinchi oqlanmaydurg'on bo'lib qoralandim. Ko'nglida shamsi g'uboroti, teskarichilik maqsadi bo'lmag'on sodda, vijdonli yigitga bu qadar xo'rlikdan o'lim tansiqroqdir.

Abdulla Qodiriyning suddagi nutqidan

(1926-yil 15-iyun, Samarqand)

«Yozuvchini, garchi shaxsan tanilmasa ham, asarlarini o'qib, qanday tabiatli shaxs ekaninig'oyibona bilish, tasavvur qilish mumkin. Chunki u asarlarida, asosan, o'z tabiatini, ruhini tasvirlaydi».

A.Qodiriy

«Abdulla Qodiriy ...qalbi butun, o'ziga xos shaxs, tug'ma epik yozuvchi, keng ko'lamdagi master, yuksak ma'nodagi realist san'atkor».

Oybek



O'zbek tarixiy romanchiligining asoschisi **Abdulla Qodiriy** 1894-yil 10-aprelda Toshkent shahrida bog'bon oilasida tug'ilgan. U 9-10 yoshlarida maktabga boradi, 12 yoshida bir boylga xizmatkor bo'ladi, toqichilik hunarini o'rganadi, bog'dorchilik bilan shug'ullanadi.

1912-yilda Abdulla rus-tuzem maktabini tugatib, ikki yil o'tgach, Toshkentdagi Abulqosim madrasasiga o'qishga kiradi. U 1912-yilda Rasulmuhammadboy ismli savdogar qo'lida ish boshqaruvchilik qiladi, 1914-yilda boylning katta qizi Rahbaroyga uylanadi va *Nazifa (1916-y.t.)*, *Habibulla (1918-*

¹⁷¹ Qarang: N.Karimov va boshq. Adabiyot (Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 11-sinfi uchun darslik). – T.: O'qituvchi, 2004. – 104–122-betlar; N.Karimov va boshq. XX asr o'zbek adabiyoti (11-sinf uchun darslik). – T.: O'qituvchi, 2002. – 115–149-betlar; Q.Yo'ldoshev va boshq. Adabiyot (Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 7-sinfi uchun darslik-majmua). – T.; Sharq, 2013. – 256–258-betlar; Q.Yo'ldoshev va boshq. Adabiyot (Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 9-sinfi uchun darslik-majmua). – T.: Yangiyo'l Poligraph service, 2010. – 120–122-betlar.

y.t.), *Adiba* (1924-y.t.), *Ma'sud* (1926-y.t.), *Anisa* (1928-y.t.) ismli farzandlarni tarbiyalaydi.

Qodiriy yoshligidanoq Sharq va G'arb madaniyati, adabiyoti ruhida tarbiyalangan, arab, fors, rus va turkiy tillarni puxta bilgan, turk milliy adabiyotining o'sha davrdagi mashhur nasrchilari ijodi bilan yaxshi tanish bo'lgan. U arab adibi Jo'rji Zaydonni «roman yozishga havaslantirgan» ustoz deb atagan.

Abdulla Qodiriy ijodiy faoliyatining boshlanishi 1910-yillarga to'g'ri keladi. «*Shu miyonalarda*, – deb eslaydi A.Qodiriy, – bozor vositasi bilan tatarlarda chiqadig' on gazetalarni o'qib, dunyoda gazeta degan gap borlig'iga imon keltirdim. 1913-yilda o'zbekcha «*Sadoyi Turkiston*», «*Samarqand*», «*Oyna*» gazetalari chiqa boshlag'och, menda shularga gap yozib yurish fikri uyg' ondi».

«*Sadoyi Turkiston*» gazetasining 1914-yil 1-aprel sonida Abdulla Qodiriy imzosi bilan «**Yangi masjid va maktab**» sarlavhali xabar bosiladi.

Abdulla Qodiriy 1919-yilda «*Oziq ishlari*» gazetasiga muharrir bo'ladi, so'ngra «*Ro'sta*» gazetasiga muxbir, «*Ishtirokiyun*» va «*Qizil bayroq*» gazetarida xodim bo'lib ishlaydi, «*Mushtum*» jurnalining vujudga kelishida jonbozlik ko'rsatadi. Adib *Gogol* va *Chexov* ijodidan tarjimalar ham qilgan.

Yozuvchi o'z asarlarini «*Qodiriy*», «*Julqunboy*», «*Ju-boy*», «*Kalvak Mahzum*», «*Toshpo'lat tajang*», «*Ovsar*», «*Dumbulboy*», «*Dumbulnisa*», «*Shig'oy*» degan imzo-taxalluslar bilan e'lon qilgan. Qodiriy matbuot, jurnalistika sohasidagi bilim va malakasini oshirish maqsadida 1924–1925-yillarda Moskvadagi oliy jurnalistika institutida ham ta'lim olgan.

Abdulla Qodiriy 1926-yilda «*Mushtum*» jurnalining 3-sonida bosilgan «Yig'indi gaplar» maqolasi uchun «... aksilinqilobiy maqsadda sho'ro rahbarlarini matbuot orqali obro'sizlantirdi» degan tuhmat bilan qamoqqa olinib, sudlanadi. Lekin dalillarning uydirmaligi ko'rinib turgani uchun uni qamay olishmaydi. Bu yozuvchiga nisbatan o'ziga xos «ogohlantirish» edi.

Matbuotda Qodiriyga nisbatan yangi hujumlar boshlanadi, 1937-yil 31-dekabr kuni Qodiriy ikkinchi marta hibsga olinadi.

To'qqiz oylik qamoqdagi so'roq, qiynoq, xo'rliklardan so'ng 1938-yil 4-oktabrda Cho'lpon, Fitrat kabi adiblar bilan birga qatl etiladi, sud qarori esa 5-oktabrda chiqadi.

1958-yildan boshlab Qodiriyning qutlug' nomi, asarlari xalqqa qaytarila boshlandi.

Istiqlol davriga kelib Abdulla Qodiriya Alisher Navoiy nomidagi davlat mukofoti berildi, u **birinchi bo'lib *Mustaqillik ordeni*** bilan taqdirlandi, uning nomida eng yaxshi adabiyot, san'at va me'morchilik asarlari uchun davlat mukofoti ta'asis etildi, bir qancha madaniyat muassasalariga ham uning nomi berildi.

Qodiriyning katta o'g'li Habibulla Qodiriy (1919–1987) shifokor, yozuvchi bo'lib yetishib, «*Otam haqida*», «*Abdulla Qodiriyning so'nggi kunlari*» kabi asarlar muallifi sifatida tanilgan.

Abdulla Qodiriy «*Amir Umarxonning kanizagi*», «*Namoz o'g'ri*», «*Dahshat*» kabi romanlar yaratish orzusida ham bo'lgan.

ABDULLA QODIRIYNING IJODIY MEROSI

MAOOLALARI: «*Yangi masjid va maktab*» (A.Qodiriy yozuvchilik faoliyatiga birinchi qadamni shu asari orqali qo'ygan. U "Sadoyi Turkiston" gazetasining 1914-yil 1-aprel sonida bosilgan), «*O'tkan kunlar*» ham «*O'tkan kunlar*» *tanqidi ostida ba'zi mulohazalar*» (Sotti Husaynga javob), «*Yig'indi gaplar*» (1926) va boshq.

SHE'RLARI: «*To'y*», «*Ahvolimiz*», «*Millatimga*», «*Fikr aylag'il*».

HIKOYALARI: «*Jinlar bazmi*» (Bu mavhum hikoyadagi voqea O'sar aka tilidan so'zlab berilgan. Hikoyada Hamdam xumdonchining nomi ham tilga olingan), «*Juvonboz*» (1915, u «*Padarkush*» pyesasiga taqlidan yozilgan. Bu hikoyada o'qishni tashlab buzuq yo'llarga kirib ketgan boyvachcha otasining mol-mulkini sovuradi, sindiradi; oxiri jinoyatga qo'l uradi, qamaladi), «*Uloqda*» (1916) va boshq.

DRAMASI: «*Baxtsiz kuyov*» (u «Padarkush» pyesasidan ta'sirlanib yozilgan. Qodiriy o'z tarjimaiy holida bu haqda quyidagicha yozgan: «1913-yillarda chiqqan «Padarkush» pyesasi ta'sirida «Baxtsiz kuyov» degan teatr kitobini yozib yuborg'onimni bilmay qoldim (1915-yilda)». Bu dramada amakisining maslahati bilan Solih ismli yetim yigit katta qarz ko'tarib dabdabali to'y qiladi, boy xonadon qiziga uylanadi. Vaqtida qarzini uzolmay, garovga qo'yilgan hovli-joyidan ajralish oldida sharmandalikdan o'zini-o'zi o'ldiradi, sadoqatli umr yo'ldoshi ham o'ziga pichoq uradi).

OISSASI: «*Obid ketmon*» (1934, qishloq hayoti haqidagi asar. Unda kolxozlashtirish tufayli o'zbeklar hayotida ro'y bergan o'zgarishlar aks ettirilgan. **Asar qahramonlari:** *Obid ketmon, Berdi tatar, Xatib domla, mulla Muhsin* va boshq.).

ROMANLARI: «*O'tkan kunlar*» (1926), «*Mehrobdan chayon*» (1928) va boshq.

HAJVIY ASARLARI: «*Kalvak Mahzumning xotira daftaridan*», «*Toshpo'lat tajang nima deydir?*».

«ULOQDA» hikoyasi haqida

Bu hikoya 1915-yilda yozilgan bo'lib, 1916-yilda Toshkentda kitobcha holida nashr qilingan. Asarning bosh qahramoni – **Turg'un** ismli bola. Muallif ushbu asar haqida «*Bolalik davrimning yodgori bo'lganligi uchun ortiqcha o'zgartirishlar kiritmadim*», deb yozgan.

Hikoya oktabr inqilobigacha bo'lgan o'zbek adabiyotidagi realizmning cho'qqisi, realistik hikoyaning eng yaxshi, yetuk namunasi bo'lib, unda uloq voqeasi tasvirlangan. **Oybek** bu asarga yuksak baho berib: «*«Uloqda» hikoyasida tashviqotchining, voizning o'rnini san'atkor oladi. Yozuvchi bu asarda voqealar ustidan muhokama qilmaydi, tushuntirmaydi, isbot qilmaydi, balki obrazlar bilan ko'rsatadi*» – degan fikrni bildirgan edi.

Bu hikoyada adib quvonch bilan o'limni yonma-yon tasvirlab, insonni hamisha aql-u idrok bilan ish tutishga undaydi, behuda narsalarga umrni sarflamay, ma'rifatga, ma'naviy yuksalish va madaniy turmushga intilib yashash g'oyasini ilgari suradi.

Hikova qahramonlari quvidagilar: *Turg'un, Esonboy* (u haqda Turg'un "Bechora bultur hayitda manga yarim so'm hayitlik bergan edi" degan), *Orif sarkor, Nurxon, Mahkam, To'g'onboy, Haydar soqov, Shokir mishiqi* va boshq.

«O'TKAN KUNLAR» romani haqida

«O'tkan kunlar» romanining ma'no-mundarija doirasi keng. Unda xilma-xil ijtimoiy-siyosiy, ma'naviy-axloqiy muammolar qalamga olingan. Biroq ular orasida eng muhimi – yurtning, millatning taqdiri, mustaqilligi masalasidir.

Bu asarni muallif 1919-yilda yoza boshlagan. Romandan parchalar 1922-yilda «*Inqilob*» jurnalida bosilgan. 1925-yili asarning bo'limlari alohida-alohida 3 kitob tarzida, so'ng 1926-yilda yaxlit holda kitob bo'lib chiqadi.

Romanni o'zbek o'quvchisi, butun turkiy tilda so'zlashuvchi xalqlarning zukko kishilari katta bayramdek kutib oldi. Ilk bor xuddi shu roman orqali o'zbek xalqi o'z bisotini, asl qiyofasini, ichki dunyosining kuchli va ojiz tomonlarini bor bo'yicha, go'yo tiniq ko'zgudagidek aniq ko'rdi.

Abdulla Qodiriy bu asarda «Moziyga qaytib» ish ko'rgan, «tariximizning eng kir qora kunlari» bo'lgan «xon zamonlari»ni mavzu qilib olgan.

Bu roman «1264-hijriy dalv oyining o'n yettinchisi, qishki kunlarning biri, quyosh botgan, tevarakdan shom azoni eshitaladir» degan jumla bilan boshlanadi. Asarda o'z manfaatini o'ylovchi kishilar "manfaatparast, dunyoparast va shuhratparast muttahamlar" deb haqorat qilingan.

Asarda Qodiriy bir o'rinda kitobxonni uch ayol bilan tanishtiradi. Bular *Oftoboyim, Oyshabibi* va *To'ybekalardir*.

«*Toshkand ustida qonliq bulutlar*», «*Bek oshiq*», «*To'y, qizlar majlisi*», «*Kutilmagan baxt*», «*Hukmnoma*» nomli boblar, «*Bilgan topib, bilmagan qopib gapirar*», «*Teng-tengl bilan, tezak qopi bilan*» maqollari ham shu asarda uchraydi.

Asarning asosiv qahramonlari quvidagilar: *Otabek* (bosh qahramon, u Avliyo ota ustidagi chor askarlari bilan to'qnashuvda qahramonona urushib shahid bo'lgan,

dushmanlarini loy olingan zovurda kutib turgan), **Kumush** ("Qiz suratida ko'ringan malak" deya ta'riflangan bu qahramon «So'zimni o'zimning oxirgi ham chin baxt islari hiddagan tariximdan boshlayman» deb boshlanuvchi xatini Otabekning jasoratidan so'ng Toshkentga yozgan), **Yusufbek hoji** (u Otabekka «ona-onani haqsiz tashlab qo'ymaslik» va «ota-ona orzusiga ham haq berish»ni tushuntirgan), **Azizbek** (xalqning o'zi jazolab, ot tuyoqlari ostiga tashlagan. Asarda Otabek uni «tulki» deb atagan), **Rahmat, Ziyo shohichi, Mirzakarim Qutidor** (bu uch kishi Otabek Marg'ilon hokimi tomonidan birinchi marta qamalganda, u bilan birga qamalgan edilar), **O'zbek oyim** («Xudoyorxon ham bir kun kechasi kelib, bizga mehmon bo'lganlar» deb maqtangan qahramon. U Otabekning uylanganini Hasanalidan eshitgan. O'zbek oyim uncha-muncha to'y-u azalarga: "Kavshim ko'chada qolg'an emas", deb bormagan), **Rajabbek** (qipchoqlarni qirg'in qilish maslahati uning uyida bo'lgan), **Xudoyorxon, Homid, O'tabboy qushbegi, Qayum ponsad** (asarda asosiy yorliq uning nomiga vazilgan edi), **Musulmonqul** («cho'ltoq supurgi»), **Jannat, Nushro'y** («Men shu choqqacha bandasiga bosh egishni va bandasi oldida tavba qilishni or bildim va shu orlanishim orqasida har kimning ustida yurdim...» degan qahramon), **Zaynab** (Olim ponsadboshining qizi), **Oftoboyim, To'ybeka** (u Otabekni chiroyli yigit, aqllik yigit deb maqtagan, «nax bizga kuyav bo'lading'an yigit ekan» degan, maqtay-maqtay ichagi o'zilgan, o'zi ham Qutidorning «aqli balo» degan maqtoviga mazovor bo'lgan), **Hasanali** («Ota o'rnida ota», «ma'naviy ota»), **Oybodoq** (Hasanalining xotini), cho'ri qiz **Hanifa, Usta Olim** va boshq.

«MEHROBDAN CHAYON» romani haqida

Muallif bu asarni 1928-yil 15-fevralda tugatgan, 1929-yilda u Samarqandda bosilgan. Abdulla Qodiriy «Mehrobdan chayon» asarida tarixiy haqiqatni, shaxslarni «orttirmay va kamitmay», «o'z holicha ko'rsatish», «yo'qni yo'ndirmay, bor gaplarni yozish» yo'siniga amal qilgan.

Romanda Anvar va Ra'ning muhabbat yo'lidagi xilma-xil mojarolari qalamga olinadi, bu jarayonda asar personajlarining qismati, xarakteri, ruhiy olami namoyon bo'ladi.

«Mehrobdan chayon» romanidagi «**Qo'rqinch bir jasorat**» Anvarning Sultonini qutqarish uchun Xudoyorxon huzuriga kelishi edi. Bu holat asarda quyidagicha tasvirlangan: «*Shunda o'rda arbobi bukun peshindan bir oz ilgariroq mujassam bir vijdon, tog'yurak bir yigit va o'lim sari kulib keluvchi bir arslonni o'z tarixida birinchi marotaba ko'rdi va tong ajabdu qoldi. Bu ulug' jasorat bir necha daqiqalargacha zulm itlarini sukutga soldi, ularni ishdan to'xtatdi... Raqibni bu qadar jasoratda ko'rgan Xudoyorning kiprik ostlari uchib, soqol tuklari silkindi va biroz so'z topolmagandek tamshanib turdi*». Shundan so'ng u Anvarga qarata shunday deydi: «*Sen bizga xiyonat qilding', it uvli!*».

Quyidagi parchalar ham «Mehrobdan chayon» romanidan olingan:

...Roziya oyim mendan iymangan qiyofada: – *Xon qursin, uning olgan xotinlarining hisob-kitobi yo'q, bolam, – dedi va manimcha juda to'g'ri so'zni aytdi...*

...Xotin-qizlar jinsidan irodasi kuchli, hatto erlardan ham jasurroq shaxslarni ko'p uchratamiz. Shuning bilan birga, ularni naqadar kuchli irodaga molik bo'lmasinlar, yana hissiyotlarga mag'lub ko'ramiz...

Ra'no portreti: «*...tabiat xasis emas; tikandan gul, aridan bol yarata beradi. ...uni fazl va zakovatda ham o'tkan xon zamonlari asrining nodir uchrayturgan yakto fozila qizlaridan sanaymiz va sanashga ham o'zimizda majburiyat his etamiz. Jodu ko'zi kishiga qattiq qaraganda qoralikdan boshqacha yana bir turlik nur sochar edi. Kipriklari ostida nafis bir surma doirasi bor edi...*».

...Hamma sukutda. Shunday fursatlarda gunohkorni odobsiz so'zlar bilan so'kib turuvchi Xudoyor ham jim. Chunki a'yon nazarida har bir odobsizligiga Anvar tarafidan kuchli haqorat olish ehtimoli bor. **Shayxi Sa'diy** aytganicha, dunyoda hayotidan qo'l yuvguvchidek tili uzun kishi bo'lmas. Darhaqiqat, insonni razolatga solguvchi uning manfaati taqozosi, qola ber...

o'limdir. Bu ikkisidan kechguvchiga esa podshohning qahri va jahannamning qa'ri farqsizdir...

“Qush tilini qush biladi”, “Qarg'a qarg'aning ko'zini cho'qimaydi” kabi maqollar ham shu asarda uchraydi.

«Mehrobdan chayon» asaridan *«Oila va kishilar bilan muomala»*, *«Hayot sha'mi»*, *«Ochiq xat»* kabi bo'limlar ham o'rin olgan. Bu roman asosida *«Zulmatni tark etib»* kinofilmi yaratilgan.

Asarning asosiy qahramonlari quyidagilar: *Salim bo'yoqchi* (Anvarning otasi, u bobosir kasalidan vafot etgan), *Anorbibi* (Anvarning onasi, u “6 oy ichida eridan va ikki bolasidan ayrilib, 4 go'dak orasida beva bo'lib qolgan”. *Anorbibi yurak falajidan vafot etgan*), Anvarning opasi *Nodira* (Onasi vafotidan so'ng 11 yoshli Temur, 9 yoshli Qobil va 6 yoshli Anvarni tarbiya qilish og'irligi uning zimmasiga tushgan), *Anvar* (U “oltin berib quruq duo va minnatdorchilik olishdan, duosiz yeb-ichishni a'lo ko'rgan”. Anvar Sultonolini qutqarish uchun xon saroyiga kelganda, Xudoyorxon uni *«Sen bizg'a xiyonat qilding', it uvli!»* degan gap bilan kutib oladi. Shu muloqot davomida Anvar Xudoyorxonning adolatsizligi, xotinbozligini yuziga soladi va *«Musulmonchilikda yuzlab xotin ustiga, bir kambag'al uylanmoqchi bo'lgan qizga ham zo'rlik qilish bormi, qiblai olam!»* deydi. *«Meni dor ostiga kim keltirdi? Vijdon emasmi taqsir? Sizni bu yerda kim tomoshabin qildi? Ifloslik emasmi taqsir?»*, *«...siz iflos vijdon bilan g'olibsiz, men sof vijdon bilan mag'lubman....»* degan gaplar ham unga tegishli), *Ra'no* (Solih maxdumning qizi, Anvarning sevgilisi), *Solih maxdum* (u *«Xayrul-umuri avsatuho»* («Har ishning o'rtasi yaxshi») hadisini o'ziga shior qilib olgan. Oybek bu qahramonga yuksak baho berib, uni *«asardagi hamma personajlar orasidan eng jonli, eng yorqin, eng tipik figura»* deb atagan), *Nigor oyim*, *Gulshan* (u *«o'zini «onhazratning otgan o'qlari» sanaydigan, xon haramini do'ndiq qizlar bilan to'ldirib turishni kasb qilib olgan»*), *Sultonali*, *Rahim*, *Shahodat mustfi*, *Kalonshoh*, *Abdurahmon domla*, *Xudoyorxon*, *Muhammad Rajab poygachi* (Anvarning o'rtog'i Nasimning otasi), *Safar bo'zchi*, *Roziya oyim* (Xudoyorxon rafiqasi), *Muhammad*

Niyoz domla (u o'limga hukm qilingan Anvarning gunohidan kechishni Xudoyorxondan iltimos qilgan) va boshq.

NAZARIY MA'LUMOT

Badiiy asarda milliy ruh ifodasi

Milliylik tashqi belgi bo'lmay, ichki holatdir. Inson millatni tanlay olmaydi, boricha qabul qiladi.

Badiiy adabiyotda milliylik deganda asarda xalq, millat turmushi manzaralarini, milliy urf-odatlarini, millat vakillariga xos xususiyatlarni jonli, hayotiy ifodalash, asarning ruhida, ichki mazmunida, so'zlash tarzida milliylikning namoyon bo'lishi, uning o'sha millat tilida yaratilishi tushuniladi¹⁷².

Milliy ruh yaqqol aks etgan badiiy asarlarda qahramonlarning harakatlari, o'y-fikrlari va his-tuyg'ulari uning ma'lum bir millat vakili ekanligini namoyon qiladi.

“Otkan kunlar” romanida milliy ruh ifodasi faqatgina milliy urf-odatlar tasviridagina emas, balki qahramonlarning sezimlari, o'y-xayollari aks ettirilgan o'rinlarda ham mohirona tasvirlangan.

CHO'L PON

(1897 – 1938)

Haq yo'li, albatta, bir o'tilg'usi...

Cho'lpon



O'zbek adabiy tilini shakllantirish va rivojlantirishga katta hissa qo'shgan, o'zbek adabiyotini yangi janrlar bilan boyitgan, zamonaviy tarjima maktabiga asos solgan, haqiqat va hurlikni e'tiqodiga aylantirgan, milliy teatrimizning asoschilaridan biri bo'lgan **Abdulhamid Sulaymon o'g'li**

¹⁷² Q.Yo'ldoshev va boshq. Adabiyot (Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 9-sinfi uchun darslik-majmua). – T.: Yangiyo'l Poligraph service, 2010. – 142-bet.

Cho'lpon¹⁷³ 1897-yil Andijon shahrining Qatorterak mahallasida tug'ilgan. Adibning otasi **Sulaymonqul Muhammadyunus o'g'li** dehqonchilik, hunarmandchilik, bazzozlik bilan shug'ullanib, «*Rasvo*» taxallusi bilan hajviy she'rlar ham yozgan, o'g'lining mudarris bo'lishini xohlagan. Onasi **Oyshabibi** esa o'g'lining ijodiga katta ta'sir ko'rsatgan.

Abdulhamid dastlab eski maktabda o'qib, tez fursatda Qur'oni Karimni yod oladi, keyin Andijon va Toshkent madrasalarida, rus-tuzem maktabida o'qiydi. U o'zbek, turk, fors, arab, rus tillarini yaxshi biladigan, Sharq va Ovro'po madaniyatini chuqur o'zlashtirgan ziyoli bo'lib yetishadi, Turkistonda chiqadigan gazetalardan jadidchilik g'oyalari bilan yaqindan tanishadi va shu g'oyalarga xizmat qiluvchi asarlar yoza boshlaydi.

Adibning taqdiriga katta ta'sir ko'rsatgan Toshkent jadidlarining sardori **Munavvar qori Abdurashidxonov** edi.

Qo'qon (Turkiston) Muxtoriyatining kuychisi bo'lgan Cho'lpon uning «*Ozod turk bayrami*» nomli madhiyasini ham yozgan.

U 1918-yilda Orenburgga boradi va Boshqirdiston hukumatining raisiga kotib bo'ladi, so'ngra Toshkentga qaytib, 1920-yilgacha TurkRosTA (Turkiston – Rossiya telegraf agentligi) muxbiri bo'lgan. 1920-yilda Cho'lpon Bokuda o'tkazilgan Sharq xalqlarining qurultoyida qatnashib qaytgan.

Adib 1919-yil «Yangi Sharq» gazetasida, 1921–1922-yillarda Cho'lpon Fitratning taklifi bilan Buxoroga borib, «*Axbori Buxoro*» (“Buxoro axbori”) gazetasida muharrirlik qiladi.

U 1922-yilda Toshkentga qaytib, asarlari bilan «*Inqilob*», «*Haqiqat*» jurnallarida ham qatnashib turadi.

Cho'lpon 1923-yilda Andijondagi «*Darxon*» gazetasida ishlaydi. 1924-yilda esa milliy professional teatrni shakllantirish

¹⁷³ Qarang: N.Karimov va boshq. Adabiyot (Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 11-sinfi uchun darslik). – T.: O'qituvchi, 2004. – 125–143-betlar; N.Karimov va boshq. XX asr o'zbek adabiyoti (11-sinf uchun darslik). – T.: O'qituvchi, 2002. – 151–178-betlar; Q.Yo'ldoshev va boshq. Adabiyot (Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 7-sinfi uchun darslik-majmua). – T.: Sharq, 2013. – 301–303-betlar; Q.Yo'ldoshev va boshq. Adabiyot (Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 9-sinfi uchun darslik-majmua). II qism. – T.: Yangiyo'l Poligraph service, 2014. – 3–6-betlar.

uchun o'qishga yuborilgan 24 nafar iste'dodli yoshlar qatorida Moskvaga boradi. U 1924–1926-yillarda Moskvada tashkil etilgan o'zbek dramstudiyasida tarjimon, adabiy emakdosh va dramaturg sifatida faoliyat ko'rsatadi.

1930-yillarda matbuotda Cho'lponga qarshi maqolalar tinimsiz chiqqan boshlagach, 1932-yilda Moskvaga ko'chib ketib, jon saqlaydi. Hatto Cho'lponning qand kasaliga muhtal bo'lgani sababli shotut yeb yurishi ham uning eskilikka mukkasidan berilganini isbotlovchi dalil sifatida unga qarshi kurashda muxoliflarga dastak bo'lgan. Bu haqda Cho'lponning o'zi: «*Qand kasalimga hech qayda yaxshi davo topa olmagandan keyin sharq tabobatiga ishonib ketib, shotut yeyishim yana bir xatoyim edi*», – deb yozgan edi.

1935-yilning boshlarida esa adib Toshkentga qaytib, Hamza nomli teatrda (shu teatrning tashkilotchilaridan biri Cho'lpon edi) adabiy emakdosh bo'lib xizmat qiladi.

Cho'lpon 1937-yilning iyul oyida qamoqqa olinib, 1938-yil 4-oktabrda Toshkentning Yunusobod tumanidagi qatlgohlarning birida otib tashlanadi. Cho'lponni o'limga hukm qilingan sud qarori ham 1938-yilning 5-oktabrida chiqarilgan.

Shoirning eng sara asarlarini o'zida jamlagan «*Yana oldim sozimni*» kitobi 1991-yilda nashr etildi. Shu yili yangi ta'sis etilgan Alisher Navoiy nomidagi mukofotning dastlabki sohiblaridan biri ham Cho'lpon bo'ldi. Unga 1999-yilda «*Mustaqillik*» ordeni ham berildi.

CHO'LPONNING IJODIY FAOLIYATI

Cho'lpon XX asrning dastlabki choragida o'zbek adabiy tilining imkoniyatlari kengligini, o'zbek she'riyatining shakl-vositalarga boyligini namoyish etib, yangi o'zbek lirikasini boshlab bergan shoirdir.

Cho'lpon «*Qurboni jaholat*» (ilk asari, 1914), «*Do'xtur Muhammadyor*» hikoyalarini hamda «*Yozg'uvchilarimizga*», «*Adabiyot nadur?*» nomli maqolalarini e'lon qilganda 16 yoshda edi. Uning dastlabki asarlari «*Sadoyi Farg'ona*», «*Sadoyi Turkiston*», «*Turkiston viloyatining gazetasi*» kabi nashrlarda e'lon qilinadi.

Shoir «*Qalandar*», «*Mirza qalandar*», «*Andijonlik*», «*Q.*», «*Cho'lpon*» («*Tong yulduzi*»). Bu taxallusni unga Munavvar qori bergan) taxalluslari bilan ijod qilgan.

Cho'lpon lirikasining asosiy mavzusi mavjud ijtimoiy tuzumga nisbatan isyondir. Uning ishqiy she'rlarida soch obrazi muhim ma'no tashiydi. Shoir she'rlaridagi qor obrazi esa mustamlakachi davlatning, tuzumning ramzidir.

U sho'rolar hukumatini dastlab «*Sharqni qul emas, hur qilg'usidir*» deb iliq kutib olgan, oktabr inqilobi bilan murosada bo'lgan, adabiyotni «*o'tkir yurak kirlarini yuvadurg'on ma'rifat suvi*» deb atagan edi.

Cho'lponning «*Ko'ngil*», «*Buzilgan o'lka*», «*Yong'in*» kabi she'rlari ijtimoiy lirikaga mansubdir.

CHO'LPONNING ADABIY MEROSI

SHE'RLARI: «*Turkistonlik qardoshlaring'a*» (u 1914-yil 18-aprelda «*Sadoyi Turkiston*» gazetasida bosilgan bo'lib, shoirning ilk she'ri hisoblanadi), «*Kuz yomg'iri*» (U Moskvada yozilgan. Bu she'r tabiatning rangin tasviri emas, balki qora qalam bilan chizilgan eskizidir), «*Binafsha*» (1922), «*Buzilgan o'lka*» (1921), «*Ko'ngil*» (1922), «*Kishan*» (1922, Cho'lponning o'zi izoh bergan, aruz vaznida yozilgan she'r), «*Go'zal*» (bu she'rda lirik qahramon go'zalni *Yulduz, Oy, tong shamoli* (u go'zalni tog'-u toshlar ichra istab yuradi) va *kundan so'raydi, she'rning 1-bandi esa «Bizdan-da go'zaldir, oydan-da go'zal!»* misrasi bilan tugaydi. Ushbu she'rda *yulduz, oy* obrazlari go'zalni tushda ko'rganini aytadi), «*Sezgi*», «*Diyorim*», «*Bahorni sog'indim...*», «*Kuz yomg'iri*», «*Xazon*» (1923), «*Xalq*» (1921, bu she'rda «*xalq istagi – ozod bo'lsin bu o'lka*» deyilgan), «*Vijdon erki*» (1922, «*Ay, tutqunlar, ay ezilgan, Ay, qiynalgan, yo'qsil ellar, Ay, umidsiz, ay chizilgan Dor oldida... Oppoq dillar!*» hamda «*Bo'rillardan omon kutmak Tentaklarning ishidir ul...*» misralari shu she'rda uchraydi), «*Qo'zg'alish*», «*O'zbekim*», «*Qalandar ishq*» (1920, bu she'rni intim lirikaning yorqin namunasi sifatida qarash mumkin), «*Galdir*», «*Yo'l esdaligi*», «*Sharq uchun*»,

«Amirning o'limi», «Erkinlik istagi», «Men shoirmi?» (1928), «Somon parcha», «Cho'lpon sevgisi», «Kuz», «Qor», «Yong'in» (1921) va boshq.

SHE'RIY TO'PLAMLARI: «Uyg'onish» (1922), «Buloqlar» (1923), «Tong sirlari» (1926), «Soz», «Jo'r» (so'nggi to'plami, nashr etilmay qolgan).

MAOOLALARI: «Yozg'uvchilarimizga», «Adabiyot nadur?» (unda Cho'lpon «Adabiyot har bir millatning hisli ko'ngul tarixining eng qorong'u xonalarida maishat (tirikchilik) ning ketishiga qarab har xil tusda va rangda yetishgan, fayzli til birla taqdir etula olmaydurg'on bir guldur. ...Adabiyot yashasa millat yashar... Hozirda bizg'a birdan lozim bo'lgan narsa – adabiyot, adabiyot, adabiyot...», deb yozgan), «Qaytish yo'q» va boshq.

HIKOYALARI: «Qurboni jaholat» (ilk asari, 1914), «Do'xtur Muhammadyor», «Oydin kechalarda» (hikoya qahramonlari: Zaynab kampir, Qodirjon va boshq.), «Qor qo'ynida lola», «Novvoy qiz», «Oq podshoning in'omi», «Gavharoy», «Nonushta» va boshq.

ROMAN-DILOGIYASI: «Kecha va kunduz».

DRAMATIK ASARLARI: «Yorqinoy» (1921-yilda yozilgan ertak-pyesa, unda o'zbek folklori (ertaklari) motivlari asosida o'zbek xalqining erk va ozodlik uchun olib borgan kurashlari gavdalanitirilgan. **Asar qahramonlari quyidagilar:** Po'lat (“Toj-u taxtning orqasida yurt bor, el bor, xalq bor...” degan fikr unga tegishli), O'lmas botir hamda uning qizi Yorqinoy va boshq. Asarda biz Yorqinoyning vujududa To'marisning qoni jo'sh urib turganiga ishonch hosil qilamiz), «Xalil farang» (1921), «Yana uylanaman» (1926), «Cho'rining isyoni» (1926), «O'rtoq Qarshiboyev» (1928), «Hujum» (1928, V.Yan bilan hamkorlikda yozilgan), «Hijrat» (sahnalashtirilmagan), «Qorovul uyqusi» (drama), «Uzunquloq bobo» (drama), «Mushtumzo'r», «Boy» va boshq.

TARJIMALARI: Shekspir «Hamlet», K.Gossi «Malikayi Turondot», Molyer «Xasis», Goldoni «Ikki boyga bir qarol», Shiller «Bosmachilar», Pushkin she'rlari va «Boris Godunov», «Dubrovskiy» kabi asarlari, Gogol «Tergovchi»,

I. Franko «Feruz», Gorkiy «Ona», Andreyev «Osilgan yetti kishining hikoyasi», I.S. Turgenev «Cho‘ri qiz», Blok hamda Thakur asarlari va boshq.

SHE’RLARIDAN PARCHALAR:

Muhabbatning saroyi keng ekan, yo‘lni yo‘qotdim-ku,
Asrlik tosh yanglig‘ bu xatarli yo‘lda qotdim-ku.

(«Qalandar ishqidan»)

* * *

Kishan, gavdamdagi izlar bukun ham bitgani yo‘qdir!
Temir barmoqlarining dog‘i butkul ketgani yo‘qdir!

(«Kishan» dan)

* * *

Shoirlik menda bir soyami, deyman,
Har bir tushunchamni yoza olmagach,
Rassomdek xayolga chiza olmagach,
Haqir borlig‘imga ko‘p afsus yeyman.

(«Men shoirmi?» she‘ridan)

* * *

Ey, sovuq ellardan muz kiyib kelg‘onlar,
U qo‘pol tushingiz qorlarda yo‘q bo‘lsin!
Ey, mening bog‘imdan mevamni terg‘onlar,
U qora boshingiz yerlarga ko‘milsin!

(«Xazon» she‘ridan)

* * *

Men g‘olibman. Buyuk lashkarman,
Bosib oldim sevgi yurtini.

«KECHA VA KUNDUZ» romani haqida

Bu asar jadid adabiyoti namunasi hisoblanadi. Unga ««O‘tkan kunlar» asari darajasida» deb baho berilgan. «Kecha va kunduz» o‘zbek adabiyotidagi ilk roman-dilogiya bo‘lib, Cho‘lpon bu asarida eng qaltis ijtimoiy-siyosiy masalalar talqinida, imperiya siyosati, jadidchilik harakati ifodasida haqiqatga sodiq qolgan.

Asarning birinchi qismi – «Kecha» 1933–1934-yillarda Moskvada yozilgan. Dastlabki bobi 1935-yilda Toshkentdagi “Sovet adabiyoti” jurnalida bosilgan, asar 1936-yilda to‘liq holda nashr etilgan.

Asardagi voqealar ilk bahorda boshlanib, qish chillasida tugaydi. Cho‘lpon romaniga «*Hamal keldi – amal keldi*» maqolini epigraf qilib olgan.

«Kecha va kunduz», Cho‘lponning badiiy niyatiga ko‘ra, ikki kitobdan iborat roman bo‘lishi kerak edi. Lekin romanning «Bugun» deb atalgan ikkinchi qismining taqdiri to‘g‘risida ma‘lumot yo‘q. Holbuki, «Kecha»da tasvirlangan voqealarning mantig‘iga ko‘ra, romanning «Kunduz» qismida Zebining Sibir surgunidan, Miryoqubning esa Qrim safaridan keyingi hayotlari tasvirlanishi lozim edi.

Birinchi kitobdagi tasvir etilgan voqea birinchi jahon urushi endigina boshlangan kezlarida O‘zbekiston viloyatlarining birida bo‘lib o‘tadi. Asardagi asosiy g‘oya mavjud tuzumni tagtomiri bilan o‘zgartirishdir.

Roman markazida **Zebi** obrazi turadi. Farg‘ona vodiysidagi shaharlarning birida tug‘ilgan Zebi faqat ayollik latofati va oliyjanob insoniy fazilatlari bilangina emas, ayni paytda xush ovozi bilan ham hammaning e‘tiborini qozonadi. Ammo ijtimoiy tengsizlik hukmron bo‘lgan va ayollar qadr-qimmatini oyoq osti qilingan jamiyatda Zebining taqdiri boshqa o‘zanda kechadi. Keksa mingboshi uning orzu-havaslarini yanchib, bir necha xotinlari ustiga xotin qilib oladi. Bechora Zebining romanda tasvir etilgan hayoti fojiali bir yo‘sinda tugaydi: u erini qasddan o‘ldirishda ayblanib, Sibirga 7 yilga surgun qilinadi.

Asarda «*Mastning ko‘ziga mushuk – fil, fil mushuk bo‘lib ko‘rinadi. Mastlikda xotin tanlab bo‘ladimi? Kampirni pari qiz qilib ko‘rsatadigan tilsimli oyna – ichkilikdan boshqa narsa emas!*» deya ichkilik illati ham qoralangan.

Asarda ““*Akbarali mingboshi amalidan bekor bo‘libdi*” degan xunuk gapni ikki boy va Abdisamat kaptarlarining qanotiga ilib, shamolning qo‘ltig‘iga qistirib, yomg‘irning tomchisiga joylab, bulutning qo‘yniga solib uchiradi, har bir uchgan qarg‘a shuni aytib qag‘illaydi, shu bilan ikki kun

ichida u shumli xabar yer yuzini aylanib Makkatilloqacha yetib boradi” deyilgan.

Asar qahramonlari quvidagilar: **Zebi** (15 yoshida beva qoladi, unga nisbatan “Muncha ham ovozi chiroyli bu qizning!.. Ashula aytsa, qulog‘ing mast bo‘lib, o‘ladi odam...”, “Qora sochim” kuyiga aytayotgan ashulasi quloqlarni shirin-shirin qitiqlamoqda edi...” kabi gaplar aytilgan), **Qurvonbibi** (Zebining onasi, ahvoli o‘zgargan obraz. Asarda uni Razzoq so‘fi “Fitna” deb atagan), **Razzoq so‘fi** (Zebining otasi, kulishi kasal odamning kulishiday og‘ir, ziqna odam, ishlamay tishlovchi, tamagirlik va tekinxo‘rlik orqasida kun ko‘ruvchi inson. U boshliq uy – qizi va xotini uchun zindon, uning o‘zi esa shu zindonning ko‘zi ko‘r, qulog‘i kar qorovuli. U eshonnikiga borayotgan tasvir quyidagicha: “Barmoqlari biri ochilib, biri yumilar, ichidan kuchli bir ovoz to‘lqini chiqib kelib ko‘cha o‘rtasida tomog‘iga yopishardi... Uning yaqinidan o‘tganlar mutloq turtildilar, dasturxon ko‘targan xotinlar hammasi deyarlik qarg‘ab o‘tdilar...”), **Miryoqub** (dunyogarashi o‘zgargan obraz, shamolning qaysi tomonga esishiga qarab ish tutadi, ezgulik bilan tubanlik o‘rtasida harakat qiladi. Noyib to‘ra uni “amerikalik tadbirkorlar”ga o‘xshatadi. Uning “epaqa” degan laqabi bo‘lgan. Akbarali mingboshi u bilan Ostanaqul boyning katta bir qovun saylida tanishgan), **Akbarali mingboshi** («odam shaklidagi it», buyruqlarni bajarishnigina bilgan, uning mohiyati, odamlarga foyda-zarari bilan qiziqmaganliklari uchun bosqinchilarga kerak bo‘lgan, millatdoshlarini o‘ylamaydigan, ularga achinmaydigan, odamiylik haqidagi «ortiqcha» injiqliklardan xoli, shuning uchun kattalarning zanjirdagi itiday gapga aylanib qolgan amaldorlar timsoli. U asarda “belida kumush kamari, yonida kumush sopli qilichi, ustida zarbof choponi bo‘lmasa, hech kim uni amaldor demaydi” deya tasvirlangan), **Noyib to‘ra** (asardagi «Soddasan, Akbarali. Podsholik hamma vaqt yurtning obro‘li odamlarini himoya qiladi. Obro‘ davlat bilan topiladi, muni bilasan... Sen xomsan siyosatda...» degan gaplar unga tegishli), **Zunnun** (Akbarali mingboshi o‘rniga osongina o‘tirgan), **Hokim to‘ra**, **Poshshoxon** (uning hiylasidan

Akbarali mingboshi o'ladi, "o'q otib mo'ljaliga tegizolmagan" bu qahramon bir kishining o'limiga, bir kishining surguniga bevosita hamda bir oilaning barbod bo'lishida bivosita aybdor bo'ladi), **Sultonxon**, **Saltanat**, **O'lmasjon** (aravakash, Zebining ko'ngil qo'ygan kishisi), **Xadichaxon** (yangi uylangan mingboshining onasi rolini ado etgan), **Eshon**, **Obrezqora** (u asarda «shaharda bo'lsin, uyezdda bo'lsin, uni tanimagan odam yo'q, o'zi yerlilardan...Obrezqora – yerli xalqlardan chiqqan «advokat»» deb ta'riflangan), **Xolmat** (Asarda uni tasvirlashda "Zindondagi bandini hech bir xayol surmaydi, deb kim aytadi? Gadoy podshoh bo'lmoq istasa, yomonmi?" degan gaplar qo'llangan), **Enaxon**, rus mirzasi **Sokolov**, inoq mirshabi **Mirzobobo**, usta **To'xtash** (uning holatini tasvirlashda "san'at – san'at uchun" degan gap qo'llanilgan), **Hakimjon** (jadidlar tomonidan haftada ikki marta zo'rg'at chiqariladigan gazetani topib ko'rsatganiga dunyo-dunyo pushaymon bo'lgan), **Mulla Rivojiddin** (asarda u "...o'zi ajab bir xushtahrir odam! Yozishini ko'ring: suvday ravon! Hamma uqadi, hamma anglaydi!" deb tasvirlangan), **Domla-imom** (U tilmoshning oldidan ketgach, maktabidan "ozod" bo'lgan eski maktab bolalari singari o'zini eshikka uradi, tilmoch o'z-o'ziga "imon yo'q taqsimda" deydi) va boshq.





34-MAVZU.

XX ASR O'ZBEK ADABIYOTI NAMOYANDALARI

G'AFUR G'ULOM (1903 – 1966)



Mashhur shoir va yozuvchi **G'afur G'ulom** 1903-yil 10-mayda Toshkentdagi Qo'rg'ontegi mahallasida kambag'al dehqon oilasida tug'ilgan. Otasi G'ulom Mirza Orif o'g'li «*Mirza*», «*G'ulom*» taxalluslari bilan g'azallar mashq qilgan.

Otadan (1912), onadan (1918) erta ajragan G'afur etikdo'z kosibga qarashadi, mixkorlik, aravakashlik qiladi, bosmaxonalarda harf teruvchi bo'lib ishlaydi. U kunduz kunlari singillarini boqib, kechqurun tegirmonda qorovullik qiladi, Sariboy degan boyning bog'ini qo'riqlaydi.

G'afur dastlab boshlang'ich maktabda, 1916-yilda esa rus-tuzem maktabiga kirib o'qiydi, 8 oylik muallimlik kursini tugatadi.

Adib yangi maktablarda o'qituvchi, direktor bo'lib ishlaydi, 1923-yildan yetim bolalar uyida tarbiyachi va bir muddat mudirlik ham qiladi. U ko'pgina gazeta va jurnallarda faoliyat ko'rsatadi hamda badiiy ijod bilan shug'ullanadi. O'sha yillarda G'afur G'ulomning yuzlab maqola va felyetonlari "Kambag'al dehqon", "Qizil O'zbekiston", "Sharq haqiqati" singari gazetalarda va "Mushtum" jurnalida chop etiladi.

1943-yilda u Oybek va Hamid Olimjon bilan birga O'zbekiston Fanlar akademiyasining haqiqiy a'zosi etib taylangan va akademik unvonini olgan.

G'afur G'ulom 1963-yilda «*O'zbekiston xalq shoiri*» unvoniga sazovor bo'lgan.

Adib o'zbek adabiyotida **qissa** janrining qaror topishiga va rivojlanishiga katta hissa qo'shdi. U o'zbek adabiyotida uzun donalarini go'zal qiz sifatleri yanglig' jonlantirgan.

G'afur G'ulomga 1999-yil O'zbekiston Respublikasi Prezidenti farmoni bilan «Buyuk xizmatlari uchun» ordeni berildi. 2003-yil may oyida adib tavalludining 100 yilligi Respublikamizda keng nishonlandi, Toshkentdagi istirohat bog'laridan biriga uning nomi berilib, haykali o'rnatildi.

ADABIY MEROSI

G'AFUR G'ULOMNING SHE'RLARI HAQIDA

«**Turksib yo'llarida**» (1930), «**Yalovbardorlikka**», «**Oltin medal**», «**Bizning ko'chada ham bayram bo'lajak**», «**Men – yahudiy**», «**Bog'**» (1934), «**Bilib qo'yki, seni Vatan kutadi**» (1941), «**Bari seniki**», «**Onalar**», «**Kuzatish**», «**Sen yetim emassan**» (1942, bu she'rda Odess dahshati, Kerch fojiasi tilga olinadi. Bu she'r bir xil jumla bilan boshlanib, shu jumla bilan tugaydi), «**Alisher**» (bu she'r ulug' mutafakkir Navoiyning tavallud to'yi munosabati bilan 1948-yilda yozilgan. Unda Alisher Navoiy “erk-u baxt timsoli” deb ham ta'riflangan), «**Sharaf qo'lyozmasi**» (1949) va boshq.

«**Sog'inish**» she'ri 1942-yilda yozilgan bo'lib, G'afur G'ulomning frontda halok bo'lgan o'g'li Jo'raxonga bag'ishlangan. She'r qahramoni – otaga mehrparvarlik, bolajonlik, kelajakka ishonch bilan qarash va insoniylik xos. She'rda insonning insonga, ota-onaning farzandga, sevishganlarning bir-biriga, farzandning vatanga va, umuman, ona zaminga cheksiz muhabbati, hayotga cheksiz sadoqati badiiy ifoda qilingan. Unda «o'zbek otasi»ning bo'rtma, umumiy va yaxlit siymosi yaratilgan. She'rda “Hasharchi qo'shni qizning ma'yus odim bosishi” ifodasi ham berilgan.

«**Vaqt**» she'ri 1945-yilda yozilgan. G'afur G'ulom bu she'rda g'uncha ochilguncha o'tgan fursatni kapalak umriga tenglashtiradi. She'r fashizm ustidan qozonilgan g'alaba munosabati bilan yozilgan, uni shoir o'ziga soat taqdim etgan jiyani – mayor Hamidulla Husan o'g'liga bag'ishlagan, she'rda

shuhratparastlikka intilib, ibodatxonani yoqib yuborgan xudbin Gerostrat qoralangan, shuhrat qozonmoq uchun Gerostratdek ish tutish shart emasligini bayon qilgan. Bu she'ri bilan shoir «lahzaga abadiy haykal qo'ydi» deyish mumkin.

SHE'RIY TO'PLAMLARI: «*Dinamo*» (1931, birinchi she'rlar to'plami), «*Tirik qo'shiqlar*» (1932, ikkinchi she'riy to'plami), «*Sharqdan kelayotirman*» (Urush yillaridagi she'rlari jamlangan bu to'plami uchun shoir 1946-yilda Davlat mukofotini olgan) va boshq.

POEMASI: «*Ko'kan*» (1933, liro-epik asar).

BALLADALARI: «*To'y*», «*Ikki vasiqa*».

HIKOYALARI: «*Mening o'g'rigina bolam*», «*Hiylayi shar'iy*», «*Hasan Kayfiy*» (1965), «*Chorbozorchi*», «*Kim aybdor?*», «*Eng rasvo namozi asr*», «*Elatiyada bir ov*», «*Qizaloq*» (1928), «*Afandi o'lmaydigan bo'ldi*» (1965, bu hikoyada Azroilni ham dog'da qoldirgan Afandi obrazi berilgan) va boshq.

OISSALARI: «*Netay*» (1930), «*Yodgor*» (1936, bu qissadagi voqealar qahramon bilan birga Toshkentdan Ashxobodga, u yerdan Leningradga va yana Toshkentga ko'chib yuradi. Bosh qahramon Jo'ra yashashning mazmunini ulfatlar bilan ko'ngulxushlik qilib, bedana sayratib yurishdan iborat deb biladi. **Asar qahramonlari quvidagilar:** Jo'ra, Mehrixon, Yodgor, Saodat va boshq. G'afur G'ulom butun asar davomida Abdulla Qodiriydan o'rgangan «sir tutish» hamda sujet harakatining muayyan bir tuguniga o'quvchi diqqatini jalb etib turish mahoratidan ustalik bilan foydalangan), «*Shum bola*» (1936), «*Tirilgan murda*» va boshq.

«MENING O'G'RIGINA BOLAM» hikoyasi haqida

Bu voqeiy hikoya 1965-yilda yozilgan. Unda 1917-yillar voqealari aks etgan, o'g'rini insofga keltirgan Roqiyabibi (qashshoq bo'lishiga qaramay, insoniyligini yuksak darajada saqlab qolgan mushtipar o'zbek kampiri, u 4 yetim bolaga qaragan, bolalar uni «qora buvi» deb atashgan) obrazi berilgan.

Hikoya «*Otamizning o'lganiga anchagina yil o'tib ketdi. Bu yil o'n yettinchi yilning ko'klamida onamizdan ham ajralib, shum yetim bo'lib qoldik...*» degan gaplar bilan boshlanadi.

“*Oqshomlari buvim boshliq hammamiz oldi ochiq ayvonda uvunto'da ko'rpa-yostiqlarga o'ralib, bittagina O'ratepaning kir ip sholchasi ustida uxlaymiz*” degan tasvir ham shu hikoyada berilgan.

Asarda Roqiyabibi o'g'riga qarata: «**Tiriklik toshdan qattiq, tuyaning ko'ziday non anqoga shapig'** (tirikchilik og'ir bo'lib qolgan). Ro'zg'orda bo'lsa, ko'z ko'rib, qo'l tutguday arzigulik buyum qolgani yo'q. Bir chekkadan sotib yeb turibmiz. «Turib yeganga turumtog' chidamas», deganlar. Zamon qattiq, o'g'rigina bolam, zamon qattiq!» deganda, unga javoban o'g'ri: «*Mening ham ikki bolam, xotanim, bitta kampir onam bor, bir tovuqqa ham don kerak, ham suv kerak, deganlaridek, shularni boqishim kerak, to'rtta chavati non topish uchun o'zimni o'tga, cho'qqa, Alining tig'iga uraman. Zamon chappasiga ketdi. Kerinska poshsho bo'lgandan keyin urush to'xtaydi degan edilar. Hali-beri to'xtaydigan ko'rinmaydi*», deydi.

Hikoyada hamma kasblarning ham bozori kasodligi aytilgan. Bunda Roqiyabibi Rahmonxo'ja ellikboshini “*bola-chaqasining egiligini (rohatini) ko'rsin*” deb duo qilgan.

Hikoya ikki nochor odamning bir-biriga arz-holigina bo'lib qolgan emas, balki undagi obrazlar o'z taqdiralarida xalqning ahvol-ruhiyasini jamuljam etganlar. Bu hikoya bilan O.Genri hikoyasi o'rtasida muayyan o'xshashlik va umumiylik bor.

«SHUM BOLA» qissasi haqida

Bu qissaning dastlabki «*Shum bolaning sarguzashti*» deb nomlangan birinchi bo'limini adib 1936-yilda yozgan va u o'sha yildayoq «Mushtum» jurnalida bosilib chiqqan. Asar dastlab 1936-yilda kitob holida chop etilganda «*Dovdirash*» deb nomlangan. Yozuvchi qissani yozishda davom etadi va uni ikkinchi bo'lim bilan to'ldiradi. Har ikkala bo'lim yaxlit ko'rinishda 1938-yilda «*Shum bola*» nomi bilan bosilib

chiqadi. Asarning uchinchi qismi «Mushtum» jurnalining 1941-yildagi olti sonida ketma-ket eʼlon qilingan (*Said Ahmad "Yo'qotganlarim va topganlarim" asarida bu haqda yozgan*¹⁷⁴). Biroq «Shum bola» shundan keyin bir necha marta takror-takror nashr etilsa-da, yozuvchi «Mushtum»dagi qismni keyinroq qayta ishlash maqsadi boʻlgani tufayli kitobga kiritmagan. Gʻ.Gʻulom bu qissani jiddiy qayta ishlaydi (salkam 25 yil). Asarning hozirgi holatdagi mukammal varianti kitob holida 1963-yilda adibning 60 yillik toʻyiga nashr etilgan.

Yozuvchining qissani davom ettirish niyati ham boʻlgan. Avvalgi variantlarda Shum bola 17 yoshda deb koʻrsatilgan, soʻnggisida esa uning yoshi 14 da deb oʻzgartirilgan. Qissada avtobiografik janr unsurlari mavjud.

Asarda Shum bolaning Sariboy bilan boʻlgan suhbatida Gʻafur Gʻulomning Sharq xalqlari ogʻzaki ijodidan ijodiy foydalanganligi koʻrinadi. Shum bolaning Sariboyni mot qilish usuli, yaʼni biron muhim voqeani aytish uchun unga mutlaqo aloqasi yoʻq tafsilotlar orqali bayon qilish «*Uch yolgʻonda qirq yolgʻon*» ertagida ham uchraydi. Asarda boʻza haqida "... suzishning oʻz qoidasi bor. U siqib suzilmaydi, balki roʻmolni sidirib suziladi" deyilgan.

Asarning asosiy qahramonlari quyidagilar:

Shum bola (*Qoravoy, u 14 yoshda boʻladi. Shum bola Sariboyning eshigida bir oy-u oʻn toʻqqiz kun ishlagan. U Hasanboy domlada savod chiqargan*), **Omon** va **Yoʻldosh** (*Shum bolaning doʻstlari*), **Sariboy** (*u Kalas qishlogʻida yashagan, Yusufkontorning mevazor bogʻini, bahavo shiyponini qimor oʻynab yutib olgan*), **Boʻriboyvachcha** (*Sariboyning kenja oʻgʻli*), **Hoji bobo** (*asarda Shum bola uni «qoʻli ochiq, mehribon» deb taʼriflagan. U shaharning bir chekkasidagi taroba uyni nashavand-bangilar yigʻiladigan takyaxonaga aylantirgan*), **Sulton** (*Koʻkterak bozorida «pulini oʻgʻirlatgan jabrdiyda»*), **Eshon** (*u shum bolani toʻgʻridan toʻgʻri oʻgʻirlik qilishga yoʻllab, quyidagi gaplarni aytgan: «Oyoq-qoʻling chuqqongina, epchil yigitsan. Sen ham axir qarab turmasdan,*

¹⁷⁴ Qarang: S.Ahmedov va boshq. Adabiyot (Umumiy oʻrta taʼlim maktablarining 6 sinfi uchun darslik-majmua), I qism. – T.: Maʼnaviyat, 2017. – 12-14-betlar.

boshqacharoq yo'l bilan bo'lsa ham tirikchilikning payidan bo'lsang edi, og'lim... Axir kissa-karmon degan gaplar ham bo'ladi...»), Yaxshiqiz (bo'zagar kampir) va boshq.

SHE'RLARIDAN PARCHALAR:

**Aziz asrimizning aziz onlari,
Aziz odamlardan so'raydi qadrin.
Fursat g'animatdir, shoh satrlar-la,
Bezamoq chog'idir umr daftarin.**

(«Vaqt» she'ridan)

**Yetimlik nimadir, bizlardan so'ra,
O'ninchi yillarning sargardonligi,
Isitma aralash qo'rqinch tush kabi
Xayol ko'zgidan o'chmaydi sira...**

(«Sen yetim emassan» she'ridan)

* * *

**Tong otar chog'ida juda sog'inib,
Bedil o'qir edim, chiqdi oftob.
Loyqa xayolotlar chashmaday tindi,
Pok-pokiza yurak bir qatra simob.**

* * *

**Ba'zida bir nafas o'lgulik muddat
Ming yulduz so'nishi uchun yetgulik.**

* * *

**Yuksak tog' oralab o'kirgan sherning,
Na'rasiga tengdir aksi sadosi.
Besh yuz yil yangradi tog'day Vatanda,
Buyuk Alisherning asriy nidosi.**

(«Alisher» she'ridan)

OYBEK (1905 – 1968)

Oybek prozada shoir-u, poeziyada prozaikdir.

Hamid Olimjon



Muso Toshmuhammad o'g'li Oybek

1905-yil 10-yanvarda Toshkentning Gavkush mahallasida dunyoga kelgan. Uning otasi Toshmuhammad aka dastlab bo'zchi bo'lgan, keyin esa baqqolchilik qilgan. Oybekning tarbiyasi bilan onasi Shahodat Nazar qizi va bobosi shug'ullanganlar.

Shoir dastlab eski maktabda, so'ngra «Namuna» maktabida (1918–1921), ta'lim va tarbiya texnikumida (1921–1925) o'qiydi.

U 1925–1930-yillarda O'rta Osiyo davlat universiteti (ToshDU)ning ijtimoiy fanlar fakultetining iqtisod bo'limida o'qiydi (1927–1929-yillarda Sankt-Peterburgdagi Plexanov nomidagi xalq xo'jaligi institutida o'qib kelgan).

Oybek 1935-yilgacha o'zi tugatgan dorilfununda siyosiy iqtisoddan 5 yil davomida dars beradi, so'ngra Til va adabiyot institutida ilmiy xodim bo'lib ishlay boshlaydi. Qatag'onlik yillari yozuvchi institutdan ham, Yozuvchilar uyushmasidan ham haydaladi.

Oybek O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasida rais (1945–1949), 1943-yilda tashkil etilgan O'zbekiston Fanlar akademiyasining haqiqiy a'zosi sifatida faoliyat yuritdi, akademiyaning gumanitar bo'limi boshlig'i lavozimida (1951-yilgacha) faoliyat yuritdi.

O'zbekiston xalq yozuvchisi Oybek 1968-yil 1-iyulda vafot etadi. Uning qabri Forobiy qabristonidadir.

1975–1985-yillarda Oybekning **20 jildli** «Mukammal asarlar to'plami» nashr etildi.

2010-yilda Alisher Navoiy nomidagi Milliy bog'da Oybekning muhtasham haykali qad rostladi.

Oybek o'z xotiralarida yoshlik davri haqida shunday yozgan: «*Xayol daryosi keng edi menda. O'qtin-o'qtin o'zimcha mashq qilib, bitta-yarimta she'r yozib ham qo'yardim. Xo'iramda*

bor, ilk she'rim texnikumning «Tong yulduzi» nomli devoriy gazetasida chiqdi. Keyin shu gazetaga o'zim mas'ul muharrir bo'ldim». Oybekning rafiqasi Zarifa Saidnosirova esa Oybek haqida quyidagicha yozgan: «...«Tong yulduzi» devoriy gazetamizning muharriri edi. U ba'zan yo'limni to'sar, gazetaga biror narsa yozib berishim yoki rasm solishimni so'rar edi...».

«Hozirgi kunlarda bir doston ustida ishlayapman, – deb yozgan edi Oybek 1965-yilning 9-yanvarida yozgan tarjimayi holida, – Doston tarixiy mavzuda, Amir Temur haqida. Asarning nomi ham hozircha «Temur»». Lekin adib o'zining «Studentlar» va «Temur» asarlarini nihoyasiga yetkazolmagan.

OYBEKNING ADABIY MEROSI

SHE'RLARI: «Cholg'u tovushi» (1922, birinchi she'ri, «Tong yulduzi» gazetasida chiqqan), «Na'matak» (1936), «Tog' sayri» (bu she'rda 7 marta «o'n ikki» bilan bog'liq obrazlar tizimi yaratilgan), «Orqangdan yig'lab qoldim...» (1926), «Uzoqdan turib...» (1928, bu she'r Leningradda yozilgan), «O'zbekiston» (1934), «Yig'i kelmadi sira...» (1943), «Kuz yomg'iri», «Qoraxat» va boshq.

SHE'RIY TO'PLAMLARI: «Tuyg'ular» (1926, birinchi to'plami), «Ko'ngil naylari» (1929), «Mash'ala» (1932), «Baxtigul va Sog'indiq» (1933), «Quyosh qo'shig'i», «She'rlar», «Front bo'ylab», «Olovli yo'llar», «Ko'ngil kuylari», «Chimyon daftari» turkumi (bu she'rlar turkumi Oybekning Chimyonda (1936-yil) uch-to'rt oy yashagan vaqtda yozilgan. Adib Chimyon xotiralarini eslab bunday yozgan: «...Zerikkan va charchagan chog'larimizda baland tog' cho'qqilariga chiqib, sayr etib ketardik... Har kun bir-ikki daf'a O'n ikki buloq boshiga chiqardim. Sevardim yolg'iz kezishlarni...») va boshq.

DOSTONLARI: «Dilbar – davr qizi» (1931), «O'ch» (1932), «Baxtigul va Sog'indiq» (1933, u Toshkentlik savdogar tomonidan sotib olingan go'zal qozoq qizi va Toshkentda hunarmandlar va batraklarni boyga qarshi qo'zg'olonga ko'targan, nihoyat o'z sevgilisini ozod qilgan xalq oqini

to'g'risidagi poema-ertakdir, "Navoiy", «Qizlar» (1947), «Hamza» (1948), «Bobo» (avtobiografik xarakterdagi asar), «Mashrab» (1937, lirik doston), "Davrim jarohati" (1952), «Guli va Navoiy» (1968) va boshq.

HIKOYALARI: "Fanorchi ota", "Musicha", "Singan umid", "Tillatopar", "Gulnor opa" va boshq.

OISSALARI: «Nur qidirib» (1958), «Bolalik» (1963, avtobiografik asar), «Bola Alisher» (bu qissa 1974-yilda e'lon qilingan) va boshq.

ROMANLARI: "Qutlug' qon", "Navoiy", "Quyosh qoraymas" (1958, harbiy mavzudagi roman, unga «Olovli yo'llar» to'plami eskiz (qoralama, badiiy asos) bo'lib xizmat qilgan), «Oltin vodiyan shabadalar» (1949), «Ulug' yo'l» (1967, bu romanda 1917–1922 yillar hayot voqealari tasvirlangan) va boshq.

TARIXIY DRAMASI: «Mahmud Torobiy».

TARJIMALARI: Pushkinning «Yevgeniy Onegin» she'riy romani (Oybek tarjimonlik ishining eng asosiy qismi deb shu asar tarjimasini hisoblagan), Gyotening «Faust», Bayronning «Kain», Lermontovning «Maskarad» asarlarini, arman xalq eposi «Sosunli Dovud» dostoni va boshq.

«QUTLUG' QON» romani haqida

«Qutlug' qon» (1938) asarida o'zbek xalqining yaqin o'tmishda rus bosqinchilari va mahalliy amaldorlar tomonidan ezilganligi, xalqning o'z ahvolini anglab, ezuvchilarga qarshi qo'zg'alishi badiiy ifodasini topgan.

O'zbek xalqining milliy ozodlik uchun olib borgan kurashi tarixida 1916-yil qo'zg'oloni alohida o'rinni egallaydi. «Garchi men roman voqealari yuz bergan vaqtda, – deb yozgan edi adib, – hali kichik bola bo'lsam ham xalq turmushini ko'rdim. Kambag'allarning qorong'i va dim uy-joylarini, boylarning atrofi baland-baland devorlar bilan o'ralgan hashamatli imoratlarini, muzdek hovuzi bo'lgan bog'larini ko'rdim. Men keyinchalik romanimda tasvir etilgan turmush va ijtimoiy

munosabatlarning ko'pgina tomonlarini o'sha vaqtdayoq chanqoqlik bilan kuzatgan va tushungan edim».

«Qutlug' qon»ga *«Baxtigul va Sog'indiq»*, *«O'ch»* kabi asarlar «xamirturush» bo'lib xizmat qilgan. Asar 1938-yilda yozib tugatilgan, 1940-yilda o'zbek tilida, 1943-yilda rus tilida, 1949-yilda uyg'ur va chex, 1950-yilda slovak, 1959-yilda qirg'iz va ozarbayjon tillarida kitob holida chop etilgan.

Romanda 1916-yil qo'zg'oloni arafasidagi hayotning fojiali manzaralari haqqoniy aks ettirilgan. Tahlikali vaziyatda bo'lishiga qaramay, roman ilhom og'ushida shiddat bilan yozilgan. Bu haqda adibning sinfdoshi, adabiyotshunos olim **Homil Yoqubov** shunday eslaydi: *“Oybek shu qadar qizg'in ilhom bilan qalam tebratdiki, olti oy badalida milliy ozodlik harakatida mehnatkash xalq ongining munavvarlashishini tasvirlagan, badiiy jihatidan yuksak asar “Qutlug' qon”ni yozib bitirdi”.*

Oybek asarda Gulnorning yo'qolib qolgani xabarini eshitgan va uni qish chillasida qidirgan Yo'lchining ruhiy holatini quyidagi manzara orqali aks ettirgan:

«Kechaning sovug'i. Izg'irin kuchaydi... Charmi toshday, eski etik ichida oyoqlari jonsizlandi... Bir burda sariq, sovuq oy xira nur tumani sepd...».

Asarda **Yo'lchi** og'ir-bosiq, sabr-bardoshli, kechirimli yigit sifatida tasvirlangan. *“Zulm qayerda uchrasa, shu yerda yondirish kerak”* degan fikr ham unga tegishli.

Oybek Mashrab ijodiga hurmat bilan qaragan, unga atab doston ham bitgan edi. Yozuvchi «Qutlug' qon» asarida ham *«choyxonadagi qalandar Mashrab g'azalidan o'qirdi»*, deya qayd etgan.

Adib keyinchalik «Qutlug' qon»da tasvirlangan voqealarni davom ettirib, *«Ulug' yo'l»* romanini yozadi. Bu romanda o'zbek xalqining 1916-yil qo'zg'olonidan keyin milliy ozodlik uchun olib borgan kurashini aks ettirishga intilgan.

Asarning asosiy qahramonlari quyidagilar:

Yo'lchi (U kasal otasini qarotish maqsadida olingan qarzlardan qutulish uchun yerlarini sotadi, tog'asi Mirzakarimboyi qora tortib, Xo'jakentdan Toshkentga keladi.

«Men qamalishdan qo‘rqmayman, dordan ham, o‘qdan ham qo‘rqmayman. Turma! Bu dunyo turmadan yaxshimi? Olam zindondan qorong‘iroq, iflosroq emasmi?» degan. Uning o‘q tegib yiqilgandagi holati asarda quyidagicha tasvirlangan: “Bir nafasdan so‘ng, ko‘zlarini sekin ochdi. Tiniq zangori samo, azamat quyosh uning ko‘zlariga kirdi. Qarshisidagi daraxtga tirmashib, telefon simini qirquvchi qora choponli bir yigitni – do‘sti O‘rozni ko‘rdi...”), **Gulnor** (uning Mirzakarimboyga uzatilgandan keyingi holati quyidagicha tasvirlangan: “Kelin ichki-tashqi dang‘illama hovlida, saroyday hashamatli, boy bezakli uylarda uni hech narsa qiziqitirmas, bu xonadonning odamlari ham, narsalari ham dushman, yot, sovuq ko‘rinar edi...”. Mirzakarimboy uni “Hay, kim” deb chaqirgan), **Mirzakarimboy**, **Xushro‘ybibi** (Yo‘lchining onasi), **Nuri**, **Tantiboyvachcha**, **Hakimboyvachcha** (u “o‘zining va oila a‘zolarining ustiga chang qo‘ndirishni istamas, oilasi bilan hech qanday oilani tenglashtirmas edi”. Olimxon ellikboshi uning taklifi bilan Yo‘lchini jazolashni rejalashtiradi), **Yormat**, **Shokir ota** (u asar so‘ngida Yo‘lchi o‘limidan so‘ng uning singlisi Unsinga: «Qizim, jonim qizim, san ko‘p o‘rtanma... Yo‘lchining o‘limi ancha-muncha o‘lim emas. Bu juda katta o‘lim... Qizim, akang mard yigit edi, nomusli yigit edi. U zulm ildiziga bolta urdi. Inshoollo, zulm daraxti quriydi... Bu qon eng qutlug‘, eng muborak, eng sof qon...»), – deb taskin beradi), **Shoqosim**, **O‘roz** (Yo‘lchi yaralanib yotganda, qora choponli O‘roz daraxtga tirmashib, telefon simini qirqayotgan bo‘ladi), **Qoratoy**, **Unsin** (unga onasidan yodgor bo‘lib kumush bilaguzuk qolgan edi), **Gulsum**, **Salimboyvachcha**, **Qambar cho‘loq**, **Parpixo‘ja** (Shoqosimning hujrasiga yashiringan Gulnorning Mirzakarimboy va Olimxon ellikboshi changaliga tushishiga sababchi bo‘lgan), **Olimxon ellikboshi** va boshq.

«NAVOIY» romani haqida

L.Bat, **Mirkarim Osim** va **Oybek** buyuk mutafakkir Alisher Navoiy haqida nasriy asarlar bitganlar. Butun umri davomida o‘zbek adabiyoti va uning cho‘qqisi – Alisher Navoiy ijodini

sevib o'rgangan Oybek dastlab Navoiy haqida ilmiy maqolalar, keyin «*Navoiy*» lirik dostonini (1936–1937) va nihoyat 1942-yilda «*Navoiy*» romanini yozadi.

Oybekning ushbu romanida Navoiyning hayot yo'li, o'sha davrdagi hayot va murakkab siyosiy voqealar aks ettirilgan.

Oybek bu asarning yaratilishi haqida o'z tarjimaiy holida quyidagicha yozgan edi: «*Navoiy obrazi mening ko'pgina lirik she'rlarimda paydo bo'ldi va, nihoyat, 1942-yilda «Navoiy» romanini tamomladim*».

Bu asar haqida muallif yana quyidagi fikrlarni aytgan: «*Yozishdan avval men qahramonlarimni aniq-tayin ko'rganman, ular, mening xayolimda, bir paytlar tarix shudgoriga tashlangan urug'dan o'sib chiqqandek edilar*».

Bu roman turli muhokamalardan so'ng 1944-yilda nashr etilgan.

Asarning asosiy qahramonlari quyidagilar:

Navoiy (U asarda "...yoshi ulug'roq ko'rinardi. Qomati o'rtadan baland, ingichka, lekin pishiq, barmoqlari uzun va nafis; qora va qisqa soqoli, xushbichim miyiqqlari tekis va silliq; yonoqlari chiqiqroq..." deya tasvirlangan. Asardagi «*Inson uchun toj kiymoq shart emas, balki nomus ham vijdon sohibi bo'lmoq, jamiyat oldida o'z mas'uliyatini sezmoq shart*», «*Davlat arboblari aql va adolatni shior qilsalar, xalqni parvarish etsalar, hayotning zangini oltinga aylantirmoq mumkin*» kabi fikrlar ham unga tegishli), **Sultonmurod**, **Mavlono Fasihiddin**, **Husayn Boyqaro** (u asarda "belidan yuqorisi kengayib borgan, qaboriq ko'krakli, keng yag'rinli, miqti gavdali" deya ta'riflangan), **Darveshali** (Navoiyning «*Siz g'oyat soddasiz. Yolg'iz zohirga qarab hukm qilasiz. Zolimlar borki, bang xayolotini elga karomat deb sotadilar, johillar borki, kitob qo'ltiqlab, olimlik da'vo qiladilar. Mamlakat boshida tili bilan dili bir bo'lgan, yolg'iz xalq manfaatini o'ylagan, oliy ruhli, pok vijdonli insonlar turmas ekan, hayot sabzasi tobora so'lur*» degan gaplari unga aytilgan), **Xo'ja Afzal** (Navoiyning do'sti. U asarda "past bo'yli, tiyrak ko'zli, xushmuomala..." deya ta'riflangan), **Majididdin Muhammad**, **Muzaffar barlos** (beklar begi, podshoga yaqin, eng yuqori o'rinni ishg'ol etgan).

Muhammad burundiq barlos (“...g‘oyat bilimli, sardor, ulug‘vor odam. Lekin ovga, qushga juda o‘ch ediki, mabodo qushlaridan biri o‘lib qolsa, raso motam tutar, bu o‘lgandan ko‘ra, falon o‘g‘lim o‘lsa bo‘lmasmidi”, degan.), **Zulnun Arg‘un** (telbaroq, lekin ajoyib qilichboz, bahodir, yovqur bek. Har vaqt ikki qo‘l bilan shatranj o‘ynardi), **Islim barlos** (sodda, dilovar, ov va qush ilmining piri), **Mo‘g‘ulbek** (hamisha qimor!), **Badriddin** (shunday chaqqon ediki, 7 ta otning ustidan qatorasiga sakragan), **Saydbadriddin** (butun harakati nozik, ajoyib raqs etgan), **Xo‘ja Abdulla Marvoriy** (u romanda «... har ilmdan bilardi. Ajoyib qonun chalardi, she‘r aytardi. Xatni chiroyli bitardi. She‘rni favqulodda zavq va ingichkalik bilan tanlardi. Lekin ashaddiy fisq va fujurchi edi» deya ta‘riflangan), **Mavlono Shahobiddin** (Majididdin uni “zamonaning Aftotuni” deb ta‘riflagan), **Mirak Naqqosh** (Navoiy u bilan “Binafsha bog‘”dagi yozgi ko‘shkka naqsh ishlatish to‘g‘risida gaplashgan), **Kamoliddin Behzod** (u asarda “hirotlik yetim bola, zehni behad baland, qo‘li oltin ekan” deya ta‘riflangan), **Badiuzzamon** (Navoiyning «Sizlarda Iskandarning soyasi ham yo‘q. Sizlar uning navkarlariga ham arzimaysizlar» degan nadomati unga qarata aytilgan), **Nizomulmulk**, **Mo‘min Mirzo**, **Jomiy**, **Arslonqul**, **Dildor**, **To‘g‘onbek**, **Shayx Bahlul**, **Valibek**, **Sohib Doro**, **Zayniddin**, **Alovuddin Mashhadiy**, **Mirzo Yodgor**, **Amir Badriddin**, **Hasanali Jaloyir**, **Xo‘ja Abdullo Xatib**, **Boboali**, **Binoiy**, **Hasan Ardasher** va boshq.

SHE‘RLARIDAN PARCHALAR:

Sochlari potila, ko‘zlari maxmur,
 Ko‘zlarda sachraydi qora kuchli nur...
 Ana shoir kelar...Bir to‘da bola-
 Uning orqasidan ajralmas soya.
 Ko‘zlar aks etadi muhabbat, maroq,
 Uni bilish qiyin: go‘yo jufti toq,
 Asrlar ko‘rmagan ajib devona...
 Bulutday kezza xalq ichidan shoir,
 Xotirasi quyosh kabi qoladir.
 Ko‘ngli ko‘targuncha har dargoh – gulshan,

Bilinmas nash'asi, g'ami nimadan.
Hayoti ming quroq bir afsonadir.

(«Mashrab» she'ridan)

* * *

Xastamen... Fikrga, tuyg'uga to'lib-
Oy menga hamqadam-asta yuramen.
Sog'aysam, bir kuni yozaman to'yih,
Hislarga qalbimni qo'shib yozamen...

(1959)

ABDULLA QAHHOR

(1907 – 1968)

«...Kuydirish uchun kuyish, ardoqlash uchun ardoqlanish
shart...».

Abdulla Qahhor



Mohir hikoyanavis, yozuvchi va o'zbek adabiyotning atoqli namoyandasi **Abdulla Qahhor** 1907-yil 17-sentabrda Qo'qon shahridan uncha uzoq bo'lmagan Asht qishlog'ida temirchi oilasida tug'ilgan. Yozuvchi bu haqda o'z tarjimai holida shunday yozgan: «*Men 1907-yil kuzda, chorshanba kuni – 17-sentabrda Qo'qonning Ko'mir bozori mahallasida tug'ilganman.*

Otam temirchi edi».

Uning otasi usta Abduqahhor Qo'qon atrofidagi qishloqlarda ko'chib yurib, tirikchilik qilgan. Abdullaning bolaligi ham Qo'qon atrofidagi Yaypan, Qudash, Buvayda, Olqor, Oqqo'rg'on singari qishloqlarda o'tadi.

Abdulla dastlab Buvaydadagi eski maktabda o'qiydi, keyin Oqqo'rg'ondagi jadid maktabida, Qo'qondagi internatda, 1922–1924-yillar mobaynida esa Qo'qonda ochilgan o'qituvchilar tayyorlaydigan texnikumda tahsil oladi. U 1926-yilda SamDUning tayyorlov fakultetini bitiradi va 1930-yilga qadar O'rta Osiyo Davlat universitetining

pedagogika fakultetida o'qiydi. Adib umri davomida barakali ijod qiladi, ijodi 1924-yilda boshlangan. U «Qizil O'zbekiston» (hozirgi "O'zbekiston ovozi"), «Mushtum», xotin-qizlar gazetasi «Yangi yo'l»da «Nish», «Norin shilpiq», «Sarimsoq», «Mavlono Kufur», «Gulyor», «Erkaboy», «E-boy» imzolari bilan qatnashib turgan, bu nashrlarda uning hikoya, felyeton va xabarlarini bosilgan.

Abdulla Qahhor 1968-yil 25-mayda Moskvada vafot etgan. Rus adibi K. Simonov Abdulla Qahhor bilan uning o'limidan bir kun oldin kasalxonada uchrashadi va keyinchalik shunday eslaydi: «...Men olamdan ko'z yumayotgan odamning bardam qo'l siqishlari-yu, teran nigohlarini ko'rib hayratda qoldim...».

Adib Toshkentdagi Chig'atoy qabristoniga dafn qilingan.

Abdulla Qahhor «O'zbekiston xalq yozuvchisi» unvoniga, mustaqillik davrida esa «Buyuk xizmatlari uchun» ordeniga munosib topilgan.

Yozuvchi ijod haqida gapirarkan, «inson ichki dunyosining chuqur joylarigacha o'zida ko'rsatadigan ikki sahifalik chinakam proza biz uchun shoshmashosharlik va tumtaroq gaplar bilan yozilgan silliqqina qalin «asar»lardan ko'proq foydalidir» degan fikrni aytgan. U mustabid tuzumda ruslashtirish siyosatining noxush oqibatlari – «ko'pgina oilalarda bolalar o'zining ona tilini mutlaqo bilmasligi», bu hol «ota-onani zarracha ham tashvishga solmayotgani», «ba'zi bir oilalarda bola o'zining ona tilida gapirgani» nomus qilayotgani»ni ham ta'kidlagan edi.

«Mavsumda bir necha tonna paxtani bittalab terish, shuncha yukni bo'yniga osib, necha yuzlab kilometr yo'l bosish uchun afsonaviy Rustamning ham quvvati yetmaydi», – degan edi adib.

ABDULLA QAHHORNING ADABIY MEROSI

HIKOYALARI: «O'g'ri», «Bemor», «Kampirlar sim qoqdi», «Anor», «Ming bir jon», «Adabiyot muallimi» (hikoya bosh qahramoni fikrlash tarzi – mulohazalari betartib obraz – Boqijon Baqoyevdir), «Dahshat», «Nurli cho'qqilar», «Hikoyalar» to'plami va boshq.

QISSALARI: «*Qishloq hukm ostida*» (1932, ilk kitobi), «*Sinchalak*» (1958), «*O'tmishdan ertaklar*» (1965, avtobiografik asar. «O'quvchida juda og'ir taassurot qoldiruvchi» zulmat – «tarixning malomatli sahifalari», «qora bo'yoqlar»ning quyuqligi, nurlı jihatlarıning zaifligi bu asarning nuqsoni emas, balki asarning o'ziga xos xususiyati va fazilati bo'lgan), «*Muhabbat*» (1968), «*Zilzila*» (tugallanmay qolib, uning vafotidan so'ng nashr etilgan) va boshq.

ROMANLARI: «*Sarob*» (1934-yilda yozib tugatilgan, 1937-yilda kitob holidagi chiqqan), «*Qo'shchinor chiroqlari*» (1951, dastlab «Qo'shchinor» deb nomlangan (1949). Bu romanda O'zbekistonda jamoa xo'jaligini tashkil etish (kollektivlashtirish) jarayoni, bu jarayondagi murakkabliklar, kurash va qiyinchiliklar aks etgan. Asar haqida A.Qahhor shunday yozadi: «Men o'z to'pidan ayrilib, keyinda qolgan batrak-so'nggi batrakning o'sha yangi yo'lga chiqib olguncha boshdan kechirganlarini tasvir qilmoqchi bo'ldim. Biroq o'zinga bog'liq bo'lmagan sabablar bilan maqsadimga yetolmadim... romanni tanqid xush qabul qilgan bo'lsa ham, ta'bimdagi kitob emas») va boshq.

KOMEDIYALARI: «*Shohi so'zana*» (1951, qahramonlari: *Dehqonboy, Hafiza, Xolbuvi, Saltanat* va boshq. Bu asarni yozishda adib dramaturgiya janrida o'zini sinab ko'rmoqchi bo'lib, Mirzacho'ldagi bir jamoa xo'jaligiga ko'chib borgan), «*Og'riq tishlar*» (1954), «*Tobutdan tovush*» (1962, keyingi nomi «So'nggi nusxalar», poraxo'rlik illati fosh qilingan), «*Ayajonlarim*» (1967) va boshq.

TARJIMALARI: *Pushkinning «Kapitan qizi»* qissasi, *Gogolning «Uylanish»* va «*Revizor*» komediyalari, rafiqasi *Kibriyo Qahhorova* bilan birga *Tolstoyning «Urush va Tinchlik»* asari va boshq.

Abdulla Qahhor hikoyalari haqida

Adib hikoyalari shartli ravishda uch yo'nalishga ajratish mumkin:

1. Tarixiy hikoyalar.

2. Hajviy hikoyalar.

3. Zamonaviy hikoyalar.

Abdulla Qahhor «*Xotinlar*», «*Asror bobo*», «*Ming bir jon*», «*Mahalla*» hikoyalarida zamondoshlarining ma'naviy dunyosini, ruhiy go'zalligini ko'rsatishga alohida e'tibor bergan. U hikoyalarida xalq maqollari va matallaridan o'rinli foydalangan.

«*O'g'ri*» hikoyasida o'zgalar baxtsizligini tirikchilik manbayiga aylantirib olgan amaldorlar obrazi berilgan. Unga «*Otning o'limi – itning bayrami*» maqoli epigraf qilib olingan. Asarda ola ho'kiz mojarosi tasvirlangan bo'lib, «*Dehqonning uyi kuysa kuysin, ho'kizi yo'qolmasin. Bir qop somon, o'n-o'n beshta xoda, bir arava qamish uy, ho'kiz topish uchun necha zamonlar qozonni suvga tashlab qo'yish kerak bo'ladi*» kabi misralar ham shu hikoyada keltirilgan. «*O'g'ri*» hikoyasida «*Begim deguncha belim sinadi*», «*Tekinga mushuk oftobga chiqmaydi*», «*Berganga bitta ham ko'p, olganga o'nta ham oz*», «*Quruq qoshiq og'iz yirtadi*», «*O'ynashmagil arbob bilan – seni urar har bob bilan*» kabi maqollar qo'llangan. Bu hikoyada ellikboshi Qobil boboga ho'kizni izlash uchun ko'nchilikka borishini aytgan. Pora sifatida ellikboshiga va aminga pul, pristavga bitta kulangir, bitta tovuq va 3 so'm pul berilgan.

«*Bemor*» hikoyasida qattiq og'rib, vafot etgan ayol taqdiri va unga biror yordam berishdan batamom o'jiz, qo'li kalta Sotiboldining ahvoli, uyquga to'ymagan, hali aniq shakl olmagan jujuq tilda onaizoriga tuni bilan xudodan shifo tilab chiquvchi «*begunoh go'dak*» – qizcha holati bayon etilgan. Ona esa har qanday vaziyatda ham o'z bolasini o'ylaydi. Bu hikoyaga «*Osmon yiroq, yer qattiq*» maqoli epigraf qilib olingan.

«*Dahshat*» hikoyasida dastlab kuzak shamolining vahimasi aks ettirilgan. Asar qahramoni Unsinning «*O'g'ri*»dagi Qobil bobo, «*Anor*»dagi Turobjon, «*Bemor*»dagi Sotiboldidan farqi ahundaki, u mute'lik asirasi va jaholat qurboni bo'lib yashashni istamaydi. Olimbek dodxonning sakkiz xotini ichida eng kichigi

– bu dargohga tushganiga 5 oygina bo‘lgan *Unsin* agar ett butunlay javobini bersa, Ganjiravonga-o‘z uyiga ketmoqchi bo‘ladi. Dodxonning katta xotini Nodirmohbegim bir voqeani aytib berayotganda, « – *Bola edim. Rahmatli dadam gap yerdilar. Bir mehmonxona yigit... Mana shunaqa shamol kechasi ekan. «Hozir kim go‘ristonga borib, Asqarponsotning go‘riga pichoq sanchib keladi?» - degan gap bo‘libdi*», – deydi. Unsin Dodxo bergan topshiriqni bajaraman deb kechasi qabristonga boradi, unga «O‘likning joni yo‘q!» gapi bir odamchalik quvvat bo‘ladi. Unsin o‘tinni unutgan edi. Asarda muallif holat va kechinmalarni tasvirlashda «*sovuq ter chiqmoq*», «*biq qarich cho‘kkanday bo‘lmoq*», «*tizzasi qaltiramoq*», «*tildan qolmoq*», «*yerga qapishib ketmoq*», «*lafzdan qaytmaslik*», «*yuragiga raxna solmoq*», «*dami ichiga tushmoq*», «*ko‘z oldiga kelmoq*», «*ko‘zlari joydiramoq*», «*ko‘pi ketib ozi qolmoq*», «*o‘zini yerga tashlamoq*», «*yerning qa‘riga yubormoq*» kabi ibora va ifodalarni mahorat bilan qo‘llay olgan. Hikoya so‘ngida Unsin jon beradi.

«SAROB» romani haqida

Bu asar 1934-yilda yozilgan bo‘lib, adib unda 1920-yillar oxiri, 1930-yillarning boshlaridagi «millatchilar» deb atalgan ijtimoiy kuchning mahv etilishi, o‘z g‘oya va orzularini amalga oshirilmay, inqirozga yuz tutishi jarayoni badiiy jihatdan ko‘rsatib berilgan. Asarda bosh qahramon – *Rahimjon Saidiy*, uning hammaslamlari *Salimxon, Abbosxon, Murodxo‘ja* singari obrazlar orqali sho‘rolarga qarshi olib borilgan maxfiy kurashlar gavdalantirilgan. Asarda «*Saidiyalar yo‘li halokati yo‘ldir, bu orzular hech qachon amalga oshmaydigan ro‘yo va sarobdir*», degan badiiy xulosa chiqarilgan.

Bu romanda Saidiy o‘zining “*Vodiy*” she‘ri va “*Qalandar*” hikoyasining bosilib chiqishi haqida maktub oladi.

Asar qahramonlari quvidagilar:

Saidiy (U “*Olam yaxshi. Hayot go‘zal! Natijasiz mehnat bo‘lmaydi*” degan fikrni aytgan), *Munixon* (o‘zini-o‘zi otib o‘ldirgan), *Murodxo‘ja domla*, *Soraxon*, *Ulfat* (kitob emas,

gazet, gazeta emas, hatto bosilib chiqqan o'z asarini ham ko'rib chiqolmaydigan qahramon), *Salimxon* (u dilkash, ko'nglida kiri yo'q, kim qanday yomon ahvolda qolsa yordam qo'lini cho'zadi, madaniyatni sevadi, o'zbek xalqidan dohiylar chiqishini tilaydi), *Kenja*, *Yoqubjon*, *Tesha* (Saidiyning hammaktabi) va boshq.

NAZARIY MA'LUMOT

Badiiy asar tili haqida¹⁷⁵

Til bilan bog'liq quyidagi tushunchalar mavjud:

1. Umumxalq tili (milliy til).

2. Adabiy til.

3. Badiiy til.

Badiiy asar tili – adabiy til va so'zlashuv, ya'ni umumxalq tiliga asoslangan, boshqa jihatdan esa ulardan farqlanib turadigan alohida san'at hodisasidir. Bu til shoir va adiblar tomonidan pardoziqlangan, jilolangan poetik tildir.

Abdulla Qahhor ham o'z asarlarida badiiy tilning imkoniyatlaridan juda unumli foydalangan



¹⁷⁵ Qarang: S.Ahmedov va boshq. Adabiyot (Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 6-sinfi uchun darslik-majmua). I qism. – T.: Ma'naviyat, Cho'lpon nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2013. – 116-117-betlar.



35-MAVZU.
XX ASR O'ZBEK ADABIYOTI
NAMOIYANDALARI

MIRKARIM OSIM¹⁷⁶
(1907–1984)



O'zbek adabiyotida afsonalar asosida badiiy asarlar yaratgan adib **Mirkarim Osim** 1907-yilda Toshkentda ziyoli oilasida tug'ilgan. U dastlab eski maktabda, 1917–1920-yillarda «Shamul-urfon» nomli boshlang'ich maktabda, 1921–1924-yillarda Navoiy nomidagi Respublika bilim yurtida (ta'lim va tarbiya texnikumida) tahsil ko'radi.

Mirkarim Osim 1926–1930-yillarda Moskvadagi pedagogika institutining tarix-iqtisod fakultetida o'qiydi. U 1932–1949-yillarda dastlab Toshkent Pedagogika fanlari ilmiy tadqiqot institutida, keyinchalik Maorif xalq komissarligi (vazirligi) qoshidagi ilmiy muassasada ilmiy xodim lavozimida ishlagan, Samarqandda o'qituvchilar tayyorlash kursida o'qiydi.

Mirkarim Osim dastlab she'rlar yozgan. Tarix fanidan qo'llanma, tavsiya va darsliklar yaratgan. Adibning vatanparvarlik, millatparvarlik ruhida yozilgan asarlari qoralanib, uning o'zi 1950-yil 15-yanvarda qamoqqa olinadi va 10 oy davom etgan tergov azoblaridan so'ng «sovetlarga qarshi targ'ibot qilgan»likda ayblanib, 10 yil muddatga qamalgan. U 1955-yil qatag'on siyosatidan omon qutilib, 1959–1972-yillarda

¹⁷⁶ Qarang: S.Ahmedov, B.Qosimov, R.Qo'chqorov, Sh.Rizayev. Adabiyot (Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 5-sinfi uchun darslik). I qism. – T.: Sharq, 2011. 146–147-betlar.

Toshkentdagi G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nasrlari yotida muharrir bo'lib ishlaydi.

Adib asarlari 1970–1980–1990-yillar tarixchi adiblari uchun asosiy manba vazifasini o'tagan.

Mirkarim Osim 1984-yilda vafot etgan. Adibga «O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan madaniyat xodimi» unvoni va «Buyuk xizmatlari uchun» ordeni (2002) berilgan.

MIRKARIM OSIM ASARLARI

Yozuvchi yaratgan asarlarni quyidagicha mavzu yo'nalishi bo'yicha ajratish mumkin:

1. Tarixiy-qahramonlik mavzusidagi asarlar: «O'tror», «To'maris», «Shiroq», «Temur Malik», «Mahmud Tarobiy», «Iskandar va Spitamen» va boshq.

2. Tarixiy-maishiy mavzudagi asarlar: «Mohlaroyim va Nonposhsha», «Karvon qo'ng'irog'i», «Elchilar» va boshq.

3. Tarixiy-tarjimaiy hol asarlari: «Zulmat ichra nur» (Navoiyga bag'ishlangan), «Jayhun ustida bulutlar» (Ibniyonga bag'ishlangan), «Ibn Sino qissasi», «Aljabrning tug'ilishi» (Al-Xorazmiyga bag'ishlangan), «Singan setor» (Mashrabga bag'ishlangan) kabi qissalar va boshq.

Adib Alisher Navoiy haqida hikoya qiluvchi «Astrobod» (muallifning tarixga oid dastlabki yirik asari), «Alisher Navoiy va Darvishali», «Badarg'a», «Navoiyning xislatlari», «Ulug'bek va Navoiy» kabi hikoya va qissalar ham yozgan.

TARJIMALARI: M.Sholoxovning «Tinch oqar Don» romani, S.Borodinning «Yeldirim Boyazid» romani, I. Batning «Hayot bo'stoni» qissasi va boshq.

«ZULMAT ICHRA NUR» qissasi haqida

Navoiyga bag'ishlangan bu asarda Husayn Boyqaro «Tuliston» kitobini sevib o'qishini aytgan, Alisher qo'ng'iroqdek ovozi bilan Qosim Anvor she'ridan o'qib berdi, Samarqand nomini eshitganda «Ul ulug' shahar bo'lsa kerak», – deb o'ylaydi.

Asarda Alisherning tog'alari Shohruh Mirzoning betobligi va vafoti haqida gaplashib turishgani, Navoiy Boyqaroga **Farididdin Attorning** hayotini bir dehqon bir qop somonga almashtirib olib, uni bosqinchilardan qutqarib qolganini aytib berganligi tasvirlangan.

Asarning asosiy qahramonlari quyidagilar:

Mirsayid ("Kobuliy", jiddiy, kamgap, sipo odam edi. U Alisherni "ko'zlari o'tkir, peshanasi keng, odam bo'ladur ha bola!" deb maqtagan, Shohrux mirzoning o'limi to'g'risida ham u hikoya qilib bergan), *Muhammad Ali* ("G'aribiy", xushchaqchaq, gapdon bo'lib, tor va tanburni yaxshi chalg'itgan edi), *G'iyosiddin* ("Kichkina Bahodir", u "bid'at va xurofotdan yiroq, sog'lom fikrli kishi" edi), *Husayn Boyqaro* (u asarda "xipcha bel, yag'rini keng, qirg'iz qovoq" deb tasvirlangan), *Sharafiddin Ali Yazdiy* va boshq.

MAQSUD SHAYXZODA

(1908–1967)



Shoir, dramaturg, olim, tarjimon va ajoyib pedagog **Maqsud Ma'sum o'g'li Shayxzoda** 1908-yilda Ozarbayjonning Ganja viloyatidagi Oqtosh (Agdashi) shahrida shifokor oilasida tug'ilgan. U boshlang'ich maktabni bitirib, Bokudagi Oliy pedagogika institutida sirdan o'qigan. 1925-yildan boshlab Darbanddagi 1-bosqich ozarbayjon maktabida, Bo'ynoqdagi ta'lim va tarbiya texnikumida o'qituvchilik qilgan.

Shayxzoda hurfikrliligi, ya'ni Ozarbayjonn mustaqil davlatga aylantirish haqidagi fikrlari uchun ayblanib, 1927-yilda aksilinqilobiy tashkilot a'zosi sifatida qamoqqa olingan va 1928-yilning fevralida Toshkentga surgun qilingan.

Maqsud Shayxzoda Toshkentda she'riy, publitsistik, ilmiy va dramatik asarlar yaratgan. Adib dastlab turli gazeta va jurnallar tahririyatida muharrir, 1935–1938-yillarda O'zbekiston Fanlar

qo'mitasi qoshidagi Til va adabiyot institutida ilmiy xodim sifatida faoliyat yuritadi. U 1938-yildan qariyb umrining oxirigacha Nizomiy nomli TDPning o'zbek mumtoz adabiyoti kafedrasida dotsent vazifasida ishlaydi, adabiyotshunos va adabiy tanqidchi sifatida faoliyat olib boradi. 1950-yillarning boshlarida «xalq dushmani» sifatida 25 yilga kesilgan shoir Stalinning o'limi tufayligina tirik qoladi.

Maqsud Shayxzoda 1967-yil 19-fevralda og'ir xastalik natijasida olamdan o'tadi. Uning qabri Forobiy qabristonida joylashgan. Vafotidan so'ng uning 6 jildlik «Asarlar»i nashr etilgan.

Adibning ijodi va qilgan xizmatlari yuksak baholanib, 2001-yil «Buyuk xizmatlari uchun» ordeni bilan mukofotlangan.

MAQSUD SHAYXZODANING IJODIY FAOLIYATI VA ASARLARI

Shayxzoda hali savodi chiqmasdan she'r mashq qila boshlagan, uning dastlabki asarlari 1929-yildan boshlab e'lon qilingan.

Bu faylasuf shoir «*«Salom» degan so'zning salmog'i*», «*«Omon bo'!*» tilagining sadoqati», «*«Xo'sh, tinchlikmi?» so'rashishining xosiyati*» haqida to'rtliklar ham yaratgan. Adib mushkullarni oson qiladigan uch do'st haqida to'rtlik yaratganda *g'ayrat, mehnat, bilim* kabilarni nazarda tutgan.

Maqsud Shayxzoda *Sh.Rustaveli, V.Shekspir, A.S.Pushkin, M.Lermontov, Nizomiy, Fuzuliy, Mirza Fatali Oxundov, Ezop, Esxil, Gyote, Bayron, Mayakovskiy, Nozim Hikmat* kabi adiblar ijodidan ham tarjimalar qilgan, *Bobur, Muqimiy, Furqat, Oybek, G'.G'ulom, H.Olimjon, Fozil shoir, Nizomiy, Sh.Rustaveli, A.S.Pushkin, N.A.Nekrasov, A.N.Ostrovskiy, T.G.Shevchenko, A.P.Chexov* kabi adiblarga bag'ishlangan asarlar yozgan, olim sifatida *Alisher Navoiy* she'riyati haqida chuqur ilmiy tadqiqotlar yaratgan.

SHE'RLARI: «*Ayriliq*» (1962), «*Qo'llar*» (1964, bunda shoir qo'llarni «yurakning navkarlari» deya atagan), «*She'rchin go'zallik singlisi ekan*» (1963, bunda shoir «she'riyat

ma'rifatdan, hayotga muhabbatdan kam bo'lmagan darajadagi ehtiyoj sanalmog'i darkor» deya ta'kidlagan, qo'shiqsiz uylarga kulgi yoqmasligini aytgan), «Yillarning salomin yillarga eltib...» (1961), «Omonlik», «Qo'l va fikr», «Uch do'st», «G'afurga xat», «O'rtoq Navoiy» (ballada) va boshq.

SHE'RIY TO'PLAMLARI: «O'n she'r» (1932, birinchi she'rlar to'plami), «Undoshlarim» (1933), «Uchinchi kitob» (1934), «Jumhuriyat» (1935), «O'n ikki», «Loyiq soqchi», «Yangi devon», «Saylov qo'shiqlari», «Kurash nechun?» (1941), «Kapitan Gastello» (1941), «Jang va qo'shiq» (1942), «Ko'ngil deydiki», «O'n besh yilning daftari», «Olqishlarim», «Zamon torlari», «Shu'la», «Chorak asr devoni», «Dunyo boqiy», «Xiyobon» va boshq.

DOSTONLARI (LIRO-EPIK ASARLARI): «O'rtoq mulk», «Tuproq va haq», «Chirog'», «O'rtoq», «Meros», «Ovchi qissasi», «O'n birlar», «Iskandar Zulqarnayn» (ertak-doston), «Jenya», «Oqsoqol», «Nurmat otaning tushi», «Ahmadjonning hikmatlari», «Uchinchi o'g'il», «Toshkentnoma» (1958) va boshq.

TARIXIY FOJIALARI: «Jaloliddin Manguberdi» (1944), «Mirzo Ulug'bek» (1961).

TARJIMALARI: Pushkinning «Motsart va Salyerl» she'riy dramasi, Shota Rustavelining «Yo'lbars terisini yopingan pahlavon» asari (Mirtemir bilan hamkorlikda), Shekspirning «Hamlet», «Romeo va Julyetta» tragediyalari va boshq.

«ISKANDAR ZULQARNAYN» ertak-dostoni haqida

Xalq og'zaki ijodi namunalarini shoirlarimiz tomonidan o'z zamonasiga moslab, qayta ishlab, she'riy shaklga solish Furqat, Abdulla Avloniy, Elbek, Qudrat Hikmat, Zafar Diyor, Hamid Olimjon kabi adiblarimiz ijodida uchraydi. Maqsud Shayxzoda ham «Iskandar Zulqarnayn», ya'ni shoxli Iskandar haqidagi rivoyatni g'oyaviy va badiiy jihatdan boyitib, she'riy doston yaratgan.

Ushbu ertak-dostonda dunyoda hech bir yomonlikning

jazosiz qolmasligi aytilgan, tuban ishlarning bir kun kelib oshkor bo'lishi ta'kidlangan.

«TOSHKENTNOMA» dostoni haqida

Bu lirik doston XVIII bobdan iborat bo'lib, unda shoir nasrni "og'ir qadam", nazmni "chopog'on", kitoblarni "beg'araz vayrixohlar va kengashchilar hamda mangu ishchilar" deya, G'afur G'ulom va Oybekni "biri – she'rimizning o'tli yuragi, biri – nasr uyining baland tirgagi" deya ta'riflagan.

M.Shayxzoda dostonida Navoiyning zamonasini "ko'zimni yumib sayr etar edim", deydi.

Muallif Hamid Olimjonni Lohutiy ko'chasida uchratganini aytgan, Toshkent haqida "Sen mangu shaharsan, kunday bezavol, Seni ta'rif qilgan dostonchining ham Baytlari tugashi, bu – amri mahol..." deya ta'kidlab, bu dostonni o'zbek she'rining 9 vaznida ohangga solganini ham aytib o'tgan.

«JALOLIDDIN MANGUBERDI» fojiasi haqida

Bu 5 pardali tarixiy fojia 1944-yilda yozilgan, u 1945-yilning yanvarida Hamza nomidagi O'zbek davlat akademik teatrida sahnalashtirilgan. Asar ilk bor 1988-yildagina to'lig'icha o'zbek tilida chop etilgan.

Asardagi asosiy qahramonlar quvidagilar:

Sulton Muhammad Alovuddin Xorazmshoh (Xorazmshohi), *Jaloliddin Manguberdi* (Xorazmshohning o'g'li), *Sultonbegim* (Shohning qizi, Jaloliddinning tug'ishgan singlisi), *Amir Badriddin* (Samarqand hokimi, Sultonbegimning qaylig'i), *Temur Malik* (sardor, Xo'jand hokimi), *Elbors pahlavon* (cho'pon), *Muhammad Nasaviy* (tarixchi, Jaloliddinning kotibi), *Ona* (Jaloliddin va Sultonbegimning onasi), *Yaroqbek* (Badriddinning mulozimi), *Chingizxon* (mo'g'ul xoqoni), *Qodog'on no'yon* (Chingizxonning sarkardasi), *devona chol, sipohlar, bozor ahli, saroy xonimlari, kanizlar, mog'ul askarlari*.

Ushbu dramadagi voqealar XIII asrning birinchi choragida bo'lib o'tadi. Asarda muallif o'z yurtining ozodligi va

mustaqilligi uchun mo'g'ul bosqinchilariga qarshi kurashgan Xorazm shohi – Jaloliddin Manguberding jangovar jasoratini tarixan aniq va haqqoniy tasvirlagan.

Bu fojia falsafiy ruhi va badiiy tasvirdagi til jozibasi bilan ham ajralib turadi. Uning she'riy yo'lda yaratilishi jozibadorligini ta'minlagan. "Jaloliddin Manguberdi" fojiasini Vatanimiz tarixining eng suronli davridan hikoya qiluvchi mukammal sahna asaridir.

Mamlakatimizda Jaloliddin Manguberdi xotirasini abadiylashtirilgan. Qahramon tavalludining 800 yilligi keng nishonlandi, Xorazmda uning haykali o'rnatildi, 2000-yilda "Jaloliddin Manguberdi" ordeni ta'sis etildi, ko'chalar, maydonlar, maktablar va muassasalarga uning nomi qo'yildi.

«MIRZO ULUG'BEK» fojiasi haqida

Bu tarixiy fojia 5 pardadan iborat. Unda turli yurt elchilari Shohrux Mirzoning o'limi tufayli Ulug'bekka hamdardlik bildirish uchun kelishadi.

Asardagi asosiy qahramonlar quvidagilar:

Mirzo Ulug'bek (shoh, 56 yoshda), *Abdullatif* (Ulug'bekning o'g'li, 30 yoshda), *Ali Qushchi* (astronom, 35 yoshda. «Ziji Ko'ragoniy»ning so'zboshisida Ulug'bekni «*farzandi arjumand*» – aziz farzandim deb atagan), *Gavharshodbegim* (Ulug'bekning onasi, 75 yoshda), *Sakkokiy* (shoir, 45 yoshda), *Shayxulislom Burhoniddin* (ulamo, 65 yoshda), *Firuza* (Ulug'bekning sevikli xotini, 22 yoshda), *Sayid Obid* (diniy arbob, 65 yoshda), *Abbos* (Abdullatifning mahrami, 28 yoshda), *Berdiyoz* (Ulug'bek navkari, 35 yoshda), *Piri Zindoniy* (Hasan Ohangar, mahbus, 80 yoshda). U «*Abu Nasr Forobiyning kitobida yozilganki, «donishmandlar kengashib turib, mamlakatni boshqarsalar, el bo'lur obod!»*» deydi. Asardagi «*Voasaf, hech kimsadan uyalmay bugun Men yig'layman, yurak qoni bilan yig'layman...*» kabi misralar ham uning tilidan aytilgan. Piri Zindoniy Mirzo Ulug'bek farmoniga ko'ra Jomiy bilan shoir Lutfiy panohlariga topshirilishi kerak bo'lgan), *Jomiy* (yosh olim, 26 yoshda), *Chin elchisi* (u kelgan

elchilarning Shohruh mirzo vafoti munosabati bilan ta'ziyaga kelgan vakillar ekanligini aytgan), **Rus elchisi** («*Karvonlarga shohi bilan yuklansin do'stlik, Shohi kabi muloyimlik, paxtaday to'slik!*») kabi fikrlar unga tegishli), **Farang elchisi** («*Biz dunyoning g'oyat olis chekkasidanmiz. Mulkingizni kelib ko'rdik va ishonдикki, «Sharq vahshati» borasida hamma gap bo'hton*») kabi fikrlarni u aytgan), **Misr elchisi** (u Mirzo Ulug'bek bilan bo'lgan muloqotda Samarqand va Buxoro olimlari kitoblaridan nusxa olishni so'raydi), **Amir Temurning arvohi** va boshq.

«Mirzo Ulug'bek» fojiasi boshdan oxir falsafiy ruh bilan yo'g'rilgan bo'lib, oq she'rda yozilgan. Asar tili Ulug'bek davri ruhini yorqin aks ettirib, asardagi asosiy voqealar Samarqandda, temuriylar qarorgohi – Ko'ksaroyda bo'lib o'tadi.

Fojiadagi **Ulug'bek, Abdullatif, Gavharshodbegim, Ali Qushchi, Jomiy, Sakkokiy** («*O'g'illardan yalchimagan, benasib padar, O'z shogirdin o'g'il deya topar tasalli*») degan so'zlarni u aytgan), **Said Obid, Abbos, Abdurazzoq Samarqandiy** (*U tarbadorlar qissasini Hofiz Abrudan eshitganligini aytadi*), **Qozi Miskinlar** tarixiy shaxslar bo'lsa, **Firuza, Piri Zindoniy, Bobo Kayfiy, Ota Murod, Berdiyoy** («*Chotqol shunqori*»), asarda u «*ko'p jasur, sadoqatli, yo'l bilag'on, sho'x*» deb ta'riflangan), **Ko'r Qalandar** kabilar to'qima obrazlar hisoblanadi.

Ushbu asarda Ulug'bek **Ali Qushchi, Sakkokiy, Shayxulislom Burhoniddin, Chin, Farang, Misr, Rus elchilari** bilan bo'lgan muloqotda ilm-fan homiysi, buyuk olim, ma'rifat fidoiysi kabi xislatlarini namoyon etgan. **Abdulatif Mirzo, Abbos, Qozi Miskin** bilan bo'lgan muloqoti orqali uning saltanat dushmanlari, ig'volarga, mutaassiblikka qarshi ashaddiy kurashgan inson sifatidagi xarakteri ochilgan.

«**Ulug'bek yulduzi**» kinofilmi (*rejissor Latif Fayziyev*) ham «Mirzo Ulug'bek» fojiasi asosida yaratirgan.

HAMID OLIMJON

(1909 – 1944)

«Hamid Olimjon tug‘ma va nodir talant edi. Uning qonida, o‘zligida, ko‘z qorachig‘ida, to‘qson ikki tomirida tug‘ma bir zukkolik, shoirona bir sajiya, bilgichlik, burrolik, nurbaxshlik, yorqlu qalb, odob ayon... Uning bilmagani oz, o‘qimagani kam edi...»

Mirtemir



Baxt va shodlik kuychisi, shoir, dramaturg, publitsist, tarjimon va olim **Hamid Olimjon** 1909-yil 12-dekabrda Jizzax shahrida tug‘ilgan. 4 yoshga yetar-yetmas otasidan yetim qolgan Abdulhamid bobosi Azimbobo va onasi Komila aya qo‘lida tarbiyalanadi. Bobosining sa‘y-harakati va uning do‘sti Fozil Yo‘ldosh o‘g‘lining kuylagan doston va xalq qo‘shiqlari ta‘sirida Abdulhamid yoshlikdan she‘r yozishga qiziqadi. Adib o‘z tarjimayi holida yozishicha, 8-9 yoshlarida Pushkinning ko‘p she‘rlarini yoddan bilgan va o‘rtoqlariga o‘qib bergan.

Adib o‘z bolalik yillarini «*Men bir qaro kunda tug‘ildim Tug‘ildim-u, shu on bo‘g‘ildim*» deya eslagan, chunki o‘sha paytlarda Turkiston o‘lkasi ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy-ma‘naviy tanglik holatida edi. Yosh Abdulhamid mardikorlikka olish, zolimlarga qarshi xalq qo‘zg‘olonlarini o‘z ko‘zi bilan ko‘rgan.

Hamid Olimjon 1918-yildan boshlab Jizzaxdagi Narimonov nomidagi boshlang‘ich maktabda o‘qiydi, rus tili va adabiyotini qunt bilan o‘rganadi. Bo‘lajak shoir 1923-yilda o‘rta maktabni tugatib, Samarqanddagi pedagogika bilim yurtiga o‘qishga kiradi. Keyin esa u O‘zbekiston Oliy pedagogika instituti (keyinchalik Pedakademiya)ning iqtisod fakultetida o‘qiydi.

Hamid Olimjon 1931-yilda Pedakademiyaning tamomlanti, Toshkentga keladi va yoshlar gazetasi (hozirgi “Turkiston”)da ishlay boshlaydi. U shoira Zulfiya bilan turmush qurib, baxtli hayot kechiradi.

Adib ko'pgina ro'znomalarda, yozuvchilar uyushmasida, Til va adabiyot institutida faoliyat yuritadi, Ikkinchi jahon urushi arafasida (1939-yilda) O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasiga mas'ul kotib bo'ladi va umrining oxirigacha Respublika yozuvchilariga rahbarlik qiladi. Hamid Olimjon 1943-yilda Fanlar akademiyasiga muxbir a'zo etib saylangan, ya'ni 33 yoshida akademik bo'lgan.

Shoir 1944-yil 3-iyulda avtomobil halokati tufayli vafot etgan. Uning qabri Birodarlar qabristonidadir.

HAMID OLIMJONNING IJODIY FAOLIYATI VA ADABIY MEROSI

Hamid Olimjonning dastlabki she'rlari Samarqanddagi "Zarafshon" gazetasida chop etilgan (1926).

Adib yuzlab she'rlar, ko'plab dostonlar va bir qancha dramalar yozgan, jahon adabiyotining bir qancha mashhur asarlarini tarjima qilgan, "Alpomish" dostonini Fozil Yo'ldosh o'g'lidan yozib olib, izohlar bilan nashr ettirgan, Navoiy va boshqa bir qancha adabiyot vakillari haqida, adabiyotshunoslik masalalariga oid o'nlab maqolalar ham e'lon qilgan.

Hamid Olimjonning to'la asarlar to'plami 10 jilddan iborat.

SHE'RLARI: «*Kimdir*» (1926, ilk she'ri), «*O'zbekiston*» (1939, bu she'rda shoir O'zbekistonning o'ziga xos, hetakror poetik timsolini yaratgan), «*Baxtlar vodiysi*» (1930-yillar buyroqdori bo'lgan she'r), «*Bahorni sog'inganda*», «*Daryo kechasi*», «*Ishim bordir o'sha ohuda*», «*Har yurakning bir bahori bor*», «*Janub kechasida*», «*Xayoling-la o'tadi tunlar...*», «*Mizimta daryosi*», «*Daryo tiniq, osmon beg'ubor*», «*Dunyo go'zal ko'rinur senga*», «*Eng gullagan yoshlik chog'imda*», «*G'uncha yanglig' burkanib*», «*Ofeliyaning o'limi*» (bu she'r o'zbek sahnasi yulduzi Shohida Mahzumova san'atidan ta'sirlanib yozilgan), «*Sevgi*» (1942, bu she'rda muhbabaning jang maydonlarida kurashayotgan yor ortidan borish sujetidan foydalanilgan), «*Kuychining xayoli*» (bu she'rda Fozil Yo'ldosh o'g'lining badiiy olami, baxshining xalq ma'naviy hayotidagi o'rni ko'rsatib berilgan, baxshi aytgan

dostonlarda xalq hayoti, madaniyati, udumlari aks etgan tasvirlangan), "G'azal" (bu she'r hazaji musammani solim (v ---/v ---/v ---/v ---) vaznida yozilgan), «O'rik gullaganda» (1937, Hasan Qayg'i degan qozoq oqinining fojiali qismati asosida yozilgan bu she'rda jozibali badiiy shakl, ohangdosh tovushlar takrori, musiqiy ohang va yoqimli ruh ifodalangan). «Kuygay» (qo'shiq), «Nima bizga Amerikal!», «Temir qonun», «Qo'lingga qurol ol!», «Xat», «Holbuki tun...» (unda tun qo'ynida borliq haqida o'ylar ifodalangan), «Chimyon esdaliklari», «Baxt to'g'risida» va boshq.

SHE'RIY TO'PLAMLARI: «Ko'klam» (1929, ilk she'riy to'plami), «Olov sochlar» (1931), «Poyga» (1932), «O'lim yovga», «Daryo kechasi» (1936), «She'rlar» (1937), «O'lka», «Oygul bilan baxtiyor», «Baxt» (1940) va boshq.

HIKOYALAR TO'PLAMI: «Tong shabadasii» (1930).

DOSTONLARI: «Oygul bilan Baxtiyor» (Bu ertak-doston 1937-yil 16-26-noyabr kunlari yozilgan. Asarda Oygul solingan sandiq Jarjon yurti qirg'oqlariga kelib qolgan), «Semurg', Parizod yoki Bunyod» (ertak-doston), «Roksananing ko'z yoshlari» (dostondagi voqealar Shahrixonada bo'ladi, qahramonlari Vova, Roksana, Sora va boshq.), «Zaynab va Omon» (unda ikki qizni tarbiyalab voyaga yetkazgan Anor xola obrazi berilgan), «O'lim yovga», «Ikki qizning hikoyasi» va boshq.

BALLADASI: «Jangchi Tursun».

DRAMALARI: «Muqanna» (1942, tarixiy mavzudagi she'riy drama), «Jinoyat» (zamonaviy mavzudagi she'riy drama).

SHE'RLARIDAN PARCHALAR:

Quvonch shulkim tole yor bo'lib
Baxtni topgan elni ko'roldim.
Asrlarning qayg'usin qarg'ab,
Shodlik va baxt kuyini chaldim.

(«Baxt to'g'risida»)

* * *

Mayli deyman va qilmayman g'ash,
Xayolimni gulga o'rayman.
Har bahorda chiqqanda yakkash,
Baxtim bormi, deya so'rayman.

* * *

Sevgi ko'klarida uchuvchi lochin
Arshidan yiqildi va ko'hna dunyo –
Butun armonlarni kul qilgan otash
O'zi bo'lib qoldi sevgiga gado.

(«Ofeliyaning o'limi» she'ridan)

Bola edik,
Tanlar olov,
Qalb qaynoq,
Ko'zlar o'tkir,
Dillar sof,
Erkin-erkin o'ynardik... *(“Bolalik” she'ridan)*

MIRTEMIR (1910 – 1978)



Mirtemir (Mirtemir Tursunmat o'g'li) Turkiston shahri yaqinida Qoratog' etaklaridagi Eski Iqon qishlog'ida 1910-yil 10-mayda tug'ilgan. U o'z yurti tarovatini umrining oxirigacha unutmagan shoir edi. Otasi dehqon va chorvador, ona tomondan bobosi mulla edi. Bu haqda Mirtemirning o'zi quyidagilarni yozgan: *“...Ota tomondan bobom – uzun bo'ylik, polvon jussalik, qizil yuzli odam edi. Ona tomondan bobom – o'rta bo'yi, charaqlagan qora ko'zli, qora va chechan odam edi. Men bir-ikki yil shu bobom maktabida o'qidim».*

Mirtemirning otasi Tursunmat Umarbek o'g'li ham adabiyotga ixlosmand kishi bo'lgan. Bo'lajak shoir dastlab o'z qishlog'idagi Asfandiyor ismli no'g'oy domlaning qo'lida o'qiydi.

Turmush qiyinchiliklaridan cho'chimagan, ilmga chanqoq Mirtemir 11 yoshida amakisiga qo'shilib, Toshkentga qochib keladi va Beshog'ochdagi «Almai» nomidagi ishmaktabga joylashadi¹⁷⁷.

Adib 1921–1923-yillarda Toshkentdagi «Almai» nomli ishmaktabda, 1925–1929-yillarda Toshkentning yangi shahar qismidagi “O‘zbek Erklar bilim yurti”da o‘qiydi.

1929-yilda esa shoir yo‘llanma bilan Samarqandga boradi va u yerdagi Pedagogika akademiyasiga o‘qishga kiradi. Bu vaqtning o‘zida Mirtemir Yo‘ldosh Oxunboboyevning shaxsiy kotibi (4-kotibi) bo‘lib ishlaydi.

Adib Samarqandda Hamid Olimjon bilan ham do‘stlashib qoladi.

Mirtemir 1932-yilda tuhmat bilan qamaladi va 1934-yilda Moskvadagi Dmitrov lageriga yuboriladi. U yerda adib Moskva–Volga kanali qurilishida ishlaydi, 1935-yilda ozod qilinadi.

Mirtemir Toshkentga kelib, Yozuvchilar uyushmasida, nashriyotlarda xizmat qiladi, institutlarda adabiyotdan dars beradi.

1920-yillardayoq sochmalari bilan mashhur bo‘lgan adib badiiy ijodan, yozishdan, tarjimadan tinmaydi. Umriining oxirlarida u «Yodgorlik» nomli she‘riy to‘plam tayyorlagan.

«She‘riyatimizning bobo dehqoni» bo‘lgan Mirtemir 1978-yil 24-yanvar kuni 68 yoshida vafot etgan.

Shoirning 4 jildlik «Asarlar»i nashr etilgan, mustaqillik yillarida unga «Buyuk xizmatlari uchun» ordeni berilgan.

MIRTEMIRNING IJODIY FAOLIYATI VA ADABIY MEROSI

Mirtemir millatning turmush tarzi, dunyoqarashi va orzu-intilishlarining betakror qirralarini xalqona yo‘sinda o‘zbek adabiyotiga olib kirgan hassos va donishmand shoirdir. U faqat lirik she‘rlargina emas, balki go‘zal dostonlar, dramatik va nasriy asarlar ham yozgan.

¹⁷⁷ Q.Yo‘ldoshev, B.Qosimov, V.Qodirov, J.Yo‘ldoshbekov. Adabiyot (Umumiy o‘rta ta‘lim maktablarining 7-sinfi uchun darslik-majmua). – T.: Sharq, 2013. – 328-bet.

Mirtemirning tabiat hodisalarini kuzatish orqali teran falsafiy xulosalar, go‘zal qiyoslar, betakror obrazlar yaratish mahorati «Bulut», «Shudring» she‘rlarida yaqqol namoyon bo‘lgan.

SHE‘RLARI: «*Tanburim ovozi*» (1926, birinchi she‘ri), «*Bulut*» (1957, bu she‘rda Yusuf Xos Hojib obraz darajasida ishlatgan «qut» so‘zini «baraka» obrazi darajasiga ko‘tarilgan), «*Baliq ovi*» (1961), «*To‘rg‘ay*» (Bu she‘rda to‘rg‘ay misolida “Haqiqiy shoir o‘z xalqining ovozi bo‘lishi, uni ezgu ishlarga chorlashi, yorug‘ kunlarni kuylashi kerak” degan murojaat mavjud), «*Shudring*» (1965), «*Qishlog‘im*» (bu she‘rni «Baliq ovi» she‘rining mantiqiy davomi deyish mumkin), «*Bu – men tug‘ilgan tuproq*» (Ona-yurtga samimiy muhabbat izhor qilingan), «*Onaginam*» (bu she‘rida shoir g‘ashlikni chaqir tikanakday botguvchi, bedavo sizloviqday sizlatguvchi sifatida ta‘kidlab o‘tgan), «*Toshbu*» (unda urush yillarida front ortidagi o‘zbek ayollarining mashaqqatli hayoti ifodalangan), «*Betobligimda*» (1972, bu she‘rda “Majnun to‘tagiga o‘tqazing meni” misrasi 6 marta takrorlangan, “Shu kungacha o‘zni men cheklab bo‘ldim” misrasi ham qo‘llangan), «*Kipriklarim*» (1960, Mirtemirning yosh qalamkashlarga atab yozgan she‘ri. Ularni shoir “kiprigimday azizlarim” deb ta‘riflagan), «*Oqsoqol*» (1961), «*Men seni injitmayman...*» (1960), «*Pardalik*» (1962), «*O‘zim bilaman...*» (1974), «*Qarqaralik*» (1962), «*Ona tilim*» (1974), «*Handalak*», «*Roziman, rizoman o‘la-o‘lguncha*» (1977, asosiy g‘oyasi xalqsevarlik, xalqni ulug‘lashdir), «*Lolazordan o‘tganda*» (1938) va boshq.

SHE‘RIY TO‘PLAMLARI: «*Shu‘lalar qo‘ynida*» (1928, ilk to‘plami), «*Zafar*», «*Qaynashlar*», «*Tong*», «*Bong*», «*Poytaxt*», «*O‘ch*», «*Qoraqalpoq daftari*», «*Tingla hayot!*», «*Izlaganim*», «*Tog‘day tayanchim*», «*Yodgorlik*» va boshq.

LIRIK OISSASI (DOSTONI): «*Surat*» (1956–1957, uning asosiy qahramonlari Toshlon va Oysuluv (bevafo go‘zal) dir. “Toshlon o‘ldi, degan kim axir? Gulday so‘ldi, degan kim axir? Nahot poymol qutlug‘ ishq ahdi? Bol bo‘lurmi shunchalar taxir?” misralari shu asarda uchraydi. “Ikki dard”, “Bugun yo‘lda...”, “Haftada, oyda...”, “Ertak...” kabi nomlar bilan atalgan qismlar ham shu dostonida uchraydi).

DOSTONLARI: “Ajdar” (1935), «Dilkusho», «Suv qizi» (1937), “Oysanamning to’yida” (1938), “Qo’zi” (1939) va boshq.

TARJIMALARI: *Pushkin, Lermontov, Nekrasov, Shevchenko* she’r va dostonlari, *Homer, Haynrix Hayne, Thokur, Maxtumquli, Berdaq, Nozim Hikmat* she’riy asarlari, «Manas» qirg’iz xalq eposi, «Qirq qiz» qoraqalpoq xalq dostoni, A.Umariy bilan birga *Shota Rustavelining «Yo’lbars terisini yopingan pahlavon»* nomli dostoni va boshq.

SHE’RLARIDAN PARCHALAR:

Ko’l-u tog’lik,
Bog’-u rog’lik o’zbek elim.
Momo yurti,
Bobo yurti, chambilbelim.
Zar-u gavhar – yaltiroq tosh,
nedir olmos,
Sen biz uchun ham non, ham osh,
mangu meros.

* * *

Qancha yo’llar bosdim, gohida toldim,
Lekin xalq nomiga yuqtirmadim gard.
Faryod solar choqda jim bo’la oldim,
Xalqim dardi edi dil o’rtagan dard.

* * *

Erk deya shahid ketgan o’g’lonlarning xoki bu,
Kim noxos o’qraysa ham ko’zlarini o’yaman.

* * *

Qirov ketmasidan tashiding o’g’it,
To’qiltoq arava – uloving eshak.
O’n juvon izmingda – maslahat, o’git,
Darddoshlik ham og’ir, ko’p og’ir, beshak.

(“Toshbu” she’ridan)





36-MAVZU. XX ASR O'ZBEK ADABIYOTI NAMOYANDALARI

USMON NOSIR (1912 – 1944)

Olovdek lovullab dil yonur,
Baxtliman janglarga yarasam!

Usmon Nosir

Usmon she'riyatimizga shamolday kirib keldi. Balki bo'ronday! U shunday to'polon va to'lqin bilan keldiki, uncha-muncha she'riy uslub va ijodni to's-to's qilib yubordi. U o'zimizda «O'zbekning Lermontovi», «Moskva gazetalarida «Sharqda Pushkin paydo bo'ldi» deb yozishdi.

Turob To'la



Usmon Nosir 1912-yil 13-noyabrda Namangan shahrining «Chuqur ko'cha» dahasida Mamatxo'ja va Xolambibi oilasida tug'ilgan. Usmon Masodiq o'g'li Nosirhoji ismli ikkinchi otasi va onasi bilan birga Qo'qonga ko'chib boradi, 20 yoshlarida uni «*tabiatan shoir*», «*tug'ma shoir*» deb ta'riflaydilar.

Usmon «Yangi hayot» maktabida, 1925–1929-yillarda Qo'qondagi ikkinchi bosqich o'zbek maktabida, 1929–1930-yillarda Moskvadagi Kinematografiya davlat ilmgohining 1-kursida, 1933-yil sentabridan 1934-yilning mayigacha Samarqand Pedagogika akademiyasida tahsil oladi, badiiy ijod bilan shug'ullanadi.

1930-yillarning o'rtalarida Usmon boshqa qalamkash do'stlari qatori Toshkentga ko'chib keladi, Ittifoq miqyosidagi ko'pgina qurultoylarda qatnashadi.

Usmon Nosir 1937-yil 13-iyulda qamoqqa olinadi, 1938-

yil 5-oktabrda o'n yilga ozodlikdan mahrum etilib, dastlab Toshkent, so'ngra Magadan, Kemerovo turmalarida qiynoqlarga bardosh beradi. U 1944-yil 23-martda Kemerovo viloyatidagi Mariinsk shahri lagerlaridan birida og'ir kasallikdan vafot etadi, qabri Suslovo qabristonidadir.

USMON NOSIRNING IJODIY FAOLİYATI VA ADABIY MEROSI

Usmon Nosir 18 yoshidan to 24 yoshigacha bo'lgan davrda ijod qilgan. Shu 6–7 yil ichida 5 ta she'rlar to'plami, 2 ta doston, 4 drama yaratgan¹⁷⁸. U Cho'lponni o'zining eng buyuk ustози deb hisoblagan. Shoirning «*Haqiqat qalami*» degan ilk she'ri 1927-yilda «*Yangi yo'l*» jurnalida bosilgan.

Usmon Nosirning 1927-yildan 1932-yilgacha bo'lgan ijodida publitsistika, publitsistik munosabat, pafos va ritorika ko'proq ko'zga tashlanadi.

Shoirning «*Norbo'ta*» dostoni fuqarolar urushiga, «*Naxshon*» dostoni arman xalqi hayotiga bag'ishlangan. «*Atlas*» dramasi esa talabalar hayotidan olingan bo'lib, unda sevgi, muhabbat, vafo va xiyonat mavzulari yoritilgan. Usmon Nosir teatr sahnasiga shoir va tarjimon sifatidagina emas, mohir dramaturg sifatida ham ko'tarilishni orzu qilardi. Lekin uning «*Atlas*» pyesasi sahna yuzini ko'rmadi, «*Go'ro'g'li*» pyesasi esa yo'qoldi.

Usmon Nosir o'z ijodini, o'z she'rini umrning bahosiga tenglashtirgan:

Sen yuragimning chashma suvisan,
Sen ko'zlarimning gavhar nurlari.
Sening bahongni kim so'rasa, de:
«Bahom – umrning bahosiga teng». («*She'rim*»)

SHE'RLARI: «*Haqiqat qalami*» (1927, ilk she'ri), «*Yurak*» (1933, bu she'rning lirik qahramoni – e'tiqodiga qarshi ishni qilmaydigan, pokiza tuyg'ulariga quloq soladigan,

¹⁷⁸ S.Olim va boshq. Adabiyot (Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 8-sinfi uchun darslik). – T.: G'.G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2019. – 172-bet.

qalbi buyurganini bajaradigan shaxs. Bunda shoir yurtga nafi tegmaydigan ijoddan o'limni afzal biladi), «Nil va Rim» (1935, "Erk haqida madhiya". Unda Ramzes, Kleopatra, Sezar, Spartak kabilar nomi tilga olingan. "Tun qancha qorong'u bo'lsa, oy shuncha yorug'", "Odam bilan hayvon o'yin ko'rsatar emish...", "O'sha jonman, o'sha qonman va o'sha shonman!!!", "Hamon tilla qadahda may ichar Sezar", "Nil oqadir – qullar to'kkan qon!" kabi misralar ham shu she'rda uchraydi. Asarda naqoratdek ikki bor qaytarilgan (she'rning III va VI qismida), «Mana menman, u isyonning o'lmas avlodi...» deya boshlanuvchi fidoyi hayqiriq ham Usmon Nosirning ushbu she'rda keltirilgan), «**Monolog**» (1933, talmeh san'atiga eng ko'p murojaat qilingan, Shekspir fojialarining qahramonlari (Hamlet, Dezdemon, Otello) va Sarfo, Tasso, Leonora obrazlari tilga olingan. Unda Biatricheni shoir «guldan yaralgan pari», «tosh ko'ngilli» deb ta'riflagan. She'rda lirik qahramon hamma qulluq qilib turgan, ta'rifiga hamd-u sano keltirilayotgan sevgiga... qarshi bosh ko'taradi), «**Oq yuvib, oq tarab**», «**Bolaligimga**», «**Yurganmisiz, birga oy bilan**» (1935, Usmon Nosirning davolanish uchun Boltiq va Oq dengiz bo'ylariga safar qilgan davrda yozilgan she'ri), «**Yoshlik**» (Bunda shoir bolaligini "gul bog'larni ko'rolmagan, g'arib bo'lib, ko'chalarda mungshib yurgan" deya ta'riflagan), «**Gulzor – chaman...**» (1934, she'rda shoir yorini "Kunday yorug', tunday qora ekan ko'zlarim", – degan), «**Yur, tog'larga chiqaylik**», «**Qora satrlar**», «**Bobomning falsafasi**», «**Yo'lchi**» (bu she'rdagi lirik qahramon jang va sinovlarga otlangani uchun qora rangli otda yo'lga chiqadi), «**Qushcha kabi...**», «**Yana she'rimga**» (1935, sonet), «**Bog'imga**» (sonet, $4+4+3+3=14$ misra), «**Nasimaga deganim**» (bu she'rda og'ir xastaligiga qaramay hayotga talpingan lirik qahramon tasviri berilgan, ya'ni shoirning o'z taqdiri haqidagi xavotirli bashorati ifodalangan), «**Ilhomning vaqti yo'q...**», «**Dengiz oyna kabi...**», «**Hayot hali...**», «**Bog'im**» (Bu she'rda shoir "Unutmas meni bog'im", "Gullardan haykal qurur" kabi fikrlarini yozib qoldirgan) va boshq.

SHE'RIY TO'PLAMLARI: «*Quyosh bilan suhbat*» (1932), «*Safarbar satrlar*» (1932), «*Traktorobod*» (1934), «*Yurak*» (1935), «*Mehrim*» (1936).

DOSTONLARI: «*Norbo'ta*» (1931), «*Naxshon*» (1934), «*Oyinjon*», «*Isroil*».

DRAMALARI: «*Atlas*» (she'riy drama), «*Zafar*» (1929), «*Nazirjon Xalilov*» (1930), «*Dushman*» (1931), «*So'nggi kun*» (1932).

TARJIMALARI: Pushkinning «*Bog'chasaroy fontani*» va Lermontovning «*Iblis*» («*Demon*») asarlari (1936-yilda), N.A.Dobrolyubovning «*Haqiqiy kun qachon keladi?*» asari, V.I.Kirshonning «*Ulug' kun*» dramasi, *Hayne, Gyote, Bayron* ijodidan namunalar, Pushkinning «*Yevgeniy Onegin*» dan go'zal parchalar va boshq.

SHE'RLARIDAN PARCHALAR:

...Chapak chaldi. «Ey, axmoq Rim, sevinma qonga!
Bundan ortiq xo'rlik bormi, axir insonga?
Dedi parcha-parcha bo'lgan gladiator,
Rim – o'yindan o'lim kutgan jinni teatr!
(*Usmon Nosirning «Nil va Rim» she'rining 5-qismi*)

* * *

Sevgi!
Sening shirin tilingdan
Kim o'pmagan, kim tishlamagan?
(«*Monolog*» she'ri shu misralar bilan boshlanadi)

*(Mashhur tatar shoiri Xodi Toqtosh ham muhabbat haqida quyidagi fikrlarni bildirgan: «*Muhabbat ul o'zi eski narsa, Lekin har bir yurak uni yong'orta (yangilaydi)*»)

* * *

Kapalakning gul emganin ko'rdim,
Eslab ketdim seni, malagim...
Sen berdingmi, shuncha shirin she'rni,
Ey, barglari ko'm-ko'k palagim?
(«*Bolaligimga*» she'ridan)

* * *

Ilhomning vaqti yo'q, selday keladi,
Jallddek rahm etmay, dilni tiladi.
Ayondir bir kuni aylaydi xarob...

ZULFIYA (1915 – 1996)

“Uning jahon minbarlaridan yangragan she'rlari Sharq ayolining aql-u zakosi, fazl-u kamolining yorqin ifodasi sifatida millionlab she'riyat muxlislariga odamiylik, muhabbat va sadoqatdan saboq bergan”.

Islom Karimov



Taniqli o'zbek shoirasi Zulfiya Isroilova 1915-yil 1-martda Toshkentda Isroil temirchi (degrez) oilasida tug'iladi. U 1922–1931-yillarda maktabda, 1931–1934-yillarda Qizlar bilim yurtida, 1935–1938-yillarda Til va adabiyot instituti aspiranturasida o'qiydi, deyarli bir umr jurnalistika va nashriyat sohasida ishlaydi. Shoir 1938–1948-yillar mobaynida Bolalar nashriyoti muharriri, «O'zbekiston» davlat nashriyoti bo'lim mudiri, 1953-yilgacha «Saodat» jurnalida bo'lim mudiri, 1953–1980-yillarda shu jurnalning bosh muharriri lavozimida ishlagan.

Mashhur shoir Hamid Olimjonning turmush o'rtog'i, xalqaro «Nilufar» mukofoti va Javoharlal Neru nomidagi Davlat mukofoti sohibasi va Mirtemir ta'biri bilan aytganda «*Tong kuychisi*» bo'lgan shoir 1996-yil 1-avgustda vafot etgan.

ZULFIYANING IJODIY FAOLIYATI VA ADABIY MEROSI

Zulfiya she'rlari ingliz, nemis, rus, bolgar, xitoy, hind, yapon, arab, fors, vietnam kabi xorijiy tillarga tarjima qilingan¹⁷⁹.

¹⁷⁹ S.Ahmedov va boshq. Adabiyot (Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 6-sinfi uchun darslik-majmua). – T.: Ma'naviyat, Cho'lpon nomidagi nashriyat-matbaa ijodiy uyi, 2013. II qism. – 83-bet.

Shoira fikricha, «*She'rlar minglarcha kishilar o'z qalbi va dili bilan his etib, o'zlariniki qilib olgandagina poeziyaga aylanadi*».

Zulfiya o'zining ijod jarayonini ota kasbi bilan taqqoslagan. U «*Semurg'*» va «*Zaynab va Omon*» dostonlari asosida pyesa va opera librettolarini ham yaratgan, tarjimon sifatida rus, ukrain, ozarbayjon, hind shoirlarining she'rlarini o'zbek tiliga o'giran.

SHE'RLARI: «*Nevara*», «*Bog'lar qiyg'os gulda*», «*Men o'tgan umrga*», «*O'g'lim, sira bo'lmaydi urush*» (1954), «*Tun*» (1944, bu she'rda shoira o'zining tongi ulanib ketadigan hijronli tunlarini tasvirlagan), «*Hijron*», «*Oydinda*» (1953), «*Mening Vatanim*», «*Bahor keldi seni so'roqlab*» (1945, Hamid Olimjon xotirasiga bag'ishlangan), «*Ko'rganmiding ko'zlarimda yosh?*» (1945), «*Zootexnik qiz*» (1952), «*Cho'pon*», «*Sen qaydasan, yuragim*», «*Ne baloga etding muftalo!*», «*Sensiz*», «*Oydinda*», «*Lobar qizlarga*» va boshq.

SHE'RIY TO'PLAMLARI: «*Hayot varaqlari*» (1932, birinchi she'rlar to'plami), «*Qizlar qo'shig'i*» (1938), «*She'rlar*» (1939), «*Uni Farhod der edilar*» (1943), «*Hijron kunlarida*» (1944), «*Dalada bir kun*» (1948), «*Tong qo'shig'i*» (1953), «*Yuragimga yaqin kishilar*» (1958), «*Kuyларim sizga*» (1965), «*O'ylar*» (1965), «*Shalola*» va boshq.

POEMALARI (DOSTONLARI): «*Quyoshli qalam*» (1967, Oybek ijodiga bag'ishlangan), «*Mushoira*» (1958, Hindiston mamlakati bilan aloqador), «*Xotiram siniqlari*» (1995).

SHE'RLARIDAN PARCHALAR:

**Men quyoshli el farzandiman,
Baxtimanki yoniq nafas yor.
Ishq va hijron olovlaridan
Omon chiqqan qaynoq dilim bor.**

(«Rashk» she'ridan)

* * *

Urush! Noming o'chsin jahonda,
Hamon bitmas sen solgan alam.
Sen tufayli ko'p xonadonda
Ota nomli buyuk shodlik kam.

(«O'g'lim, sira bo'lmaydi urush» she'ridan)

* * *

Eh, umr yarmin yutib,
O'tgan tunlardami ayb?
Endi bu ko'rkni tutib,
Kunduzga bermasam hayf?

(«Oydinda» she'ridan)

* * *

Vaqt yetsa shu xalqda qolar daftarim,
Vaqt yetsa, bu yoqda qolar dardlarim...
Ruhim u yoqlarga qush bo'lib uchar...

(«Xotiram siniqlari» she'ridan)

* * *

Bahorga burkangan sen sevgan elda,
Ovozing yangradi jo'shqin, zabardast.
O'lmagan ekansan, jonim, sen hayot,
Men ham hali sensiz olmadim nafas.

(«Bahor keldi seni so'roqlab...» she'ridan)

* * *

Bu – qadim dunyoda yangi bir olam,
Bunda orqa tog'siz bir tirik jon yo'q.
Tayanch bo'lmasaydi odamzot albat,
O'zi kashf etardi, kashf etganday baxt.

(«Bog'lar qiyy'os gulda» she'ridan)

SHUHRAT (1918 – 1993)

Men o'tib ketaman, sen keyin qolib
Haqimda rost so'zni aytib yur, she'rim!
Shuhrat



Shuhrat (G'ulom Aminjon o'g'li Alimov) she'riy, nasriy, dramatik asarlari bilan o'zbek adabiyoti rivojiga munosib hissa qo'shgan san'atkordir. U 1918-yil 19-aprelda Toshkentning Hastimom (Hazrati Imom) mahallasida tug'ilgan.

Shuhrat dastlab mahallasidagi otinoyi maktabida, keyin sho'ro maktabida o'qiydi. Adabiyot o'qituvchisi Yunus Latifning ta'sirida badiiy adabiyotga mehr qo'yadi.

Adib 1932–1933-yillarda transport texnikumida, 1934–1936-yillarda O'rta Osiyo transport injenerlari institutida, 1936–1940-yillarda Nizomiy nomidagi TDPIda tahsil olgan.

Shuhrat 1941–1943-yillarda urushda qatnashgan, frontdan og'ir yarador bo'lib qaytib keladi.

Adib 1951-yilda «millatchi» degan tuhmat bilan asossiz qamoqqa olingan va Shimoliy Qozog'istonga jo'natilgan. U 4 yildan ortiqroq vaqt mobaynida qamoqda g'oyat og'ir azoblarni boshidan kechiradi, 1955-yildagina noto'g'ri qamalgan kishi sifatida batamom oqlanadi.

Shuhrat Respublikamiz gazeta va jurnallarida, Yozuvchilar uyushmasida turli lavozimlarda ishlagan, badiiy ijod bilan shug'ullangan.

Adib hayotining so'nggi o'n yili og'ir xastalikda o'tgan. U 1993-yilning 20-iyunida vafot etgan.

O'zbek she'riyati, nasri va dramaturgiyasini rivojlantirishdagi ulkan xizmatlari uchun Shuhratga «O'zbekiston Xalq yozuvchisi» faxriy unvoni berilgan.

SHUHRATNING IJODIY FAOLIYATI VA ADABIY MEROSI

Adib badiiy ijod maydoniga 1930-yillarning o'rtalarida kirib keldi. Uning birinchi she'ri 1935-yilda 17 yoshida e'lon qilinadi. Kasbiga ko'ra transport injeneri bo'lishiga qaramay, adabiyotga qiziqishi katta edi. Shu sababli u respublika Yozuvchilar uyushmasiga ishga ham kiradi. Adib 1930-yillarning ikkinchi yarmidan e'tiboran yozgan she'rlariga «**Shuhrat**» taxallusini qo'llagan.

Shuhratning urush mavzusida yozilgan asarlarida urushda qatnashgan odamning tuyg'ulari, urushning vayrongarchiliklariga nisbatan nafrati ta'sirli aks ettirilgan.

Adib she'rlar bilan birgalikda bir qancha nasriy asarlar ham yozgan, dastlab bir qancha hikoyalar yaratgan.

SHE'RIY TO'PLAMLARI: «*Kavkaz daftari*», «*Shinelli yillar daftari*»(urush mavzusida), «*Dunay sohillari*» kabi she'rlar turkumi, «*Sening sevging*» (1961), «*Ishqingda yonib*» (1964) va boshq.

DOSTONLARI: «*Mehrob*» (1940, ertak-doston), «*Orzu va qasos*» (1940), «*Farzand*» (urush mavzusida), «*So'lmash chechaklar*» (urush mavzusida) va boshq.

BALLADALARI: «*Ona va farzand*» (unda sho'ro yerlarida borgan urush voqeasi aks etgan), «*Jamila*» (unda arab qizining fransuz bosqinchilariga qarshi jasorati tasvirlangan), «*Raymonda*» (unda Vyetnamda borayotgan urushga qarshi turgan fransuz qizi jasorati madh etilgan), «*Uch qiz afsonasi*», «*Guldursun*», «*Qora va oq aravacha haqida ertak*», «*Mardlik afsonasi*» va boshq.

ROMANLARI: «*Shinelli yillar*» (1958, birinchi romani. Unda janggohlardagi urush manzarasi, urush odamlarining qiyofasi chizilgan), «*Oltin zanglamas*» (1965, **asarning asosiy qahramonlari:** *Sodiq, Mirsalim, Shukurov, Chuxanov* va boshq. Sho'ro tuzumining eng adolatsiz, eng chirkin bosqichi bo'lmish qatag'on davri mahorat bilan aks ettirilgan bu asari haqida adib «...Men bu hayotning atrofidasam, naq ichida bo'lganman. Bu mavzuda biron narsa yaratmasam ko'nglim o'rniga tushmas

edi», – deb yozgan. Romanning bir bobini «*Ishonchga kirgan tuhmachilar*» deb nomlangan), «*Jannat qidirganlar*» (1968, bu asarda adib o'zbek adabiyotida birinchi bo'lib chet eldagi o'zbeklar hayotini aks ettirishga uringan), «*Mashrab*» (bu tarixiy mavzudagi roman adibning vafoti sababli tugallanmay qolgan).

DRAMATIK ASARLARI: «*Besh kunlik kuyov*» (1970, komediya), «*Qo'sha qarinqarlar*» (1971, komediya), «*Ona qizim*» va boshq.

«MARDLIK AFSONASI» balladasi haqida

Ushbu balladada To'marisning tengsiz shijoati tasvirlangan. Unda xalq To'marisni: «*Aqling – daryo, mehring – ko'l, har bir so'zing – dur! El tinchidi, o'lkada ur-sur yo'qoldi, Yovdan faqat tuproqda qonli iz qoldi*», – deya olqishlagan. Asardagi «*Qo'li bog'liq yashashdan o'lim a'lodir*» degan fikr ham xalqqa tegishli. Quyidagi misralar ham shu balladada uchraydi:

**Bo'g'zimda qolmasin erk to'la kuyim,
Aylanmasin azaga bazmim va to'yim...**

* * *

**O'zing boshla maydonga, boshla, To'maris!
Qolsin bizdan tarixda shonli porloq iz!
Qo'li bog'liq yashashdan o'lim a'lodir,
Bosqinchi yov o'limga mahkum balodir.**

TUROB TO‘LA¹⁸⁰ (1918 – 1990)



O‘zbekiston xalq shoiri, O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan san‘at arbobi **Turob To‘la** 1918-yil 24-dekabrda Janubiy Qozog‘istonning Chimkent viloyatiga qarashli Turbat qishlog‘ida tug‘ilgan. U otanasidan erta yetim qolib, bolalar uyida tarbiyalangan. Adib 1934–1938-yillarda Toshkent teatr bilim yurtida, 1938–1941-yillar davomida Toshkent pedagogika instituti til va adabiyot

fakultetining kechki bo‘limida o‘qigan.

O‘qishni tugatgach, yoshlar gazetasida adabiy xodim, O‘zbekiston Davlat radioeshittirish qo‘mitasida muharrir va suxandon, O‘zbekiston Davlat nashriyotida muharrir, «O‘zbekfilm»da ssenariy bo‘limi mudiri, Respublika kinochilar uyushmasida kotib, Madiniyat vazirligida san‘at ishlari boshqarmasi boshlig‘i, Hamza nomidagi teatr direktori, O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi huzuridagi Adabiyotni targ‘ib etish markazi rahbari lavozimlarida ishlagan.

Adib *«Shoshmaqom»*, *«Furqat»*, *«Maftuningman»* filmlarini suratga olishda faol ishtirok etgan.

Taniqli adib Turob To‘la 1990-yil 20-aprelda vafot etgan.

TUROB TO‘LANING IJODIY FAOLIYATI VA ADABIY MEROSI

Turob To‘la 15–16 yoshlaridan ijodiy faoliyat bilan shug‘ullana boshlagan. U she‘r va dostonlar, opera va balet librettolar, turli nasriy asarlar yozish bilan birga o‘zbek qo‘shiqchilik san‘ati rivojiga ham salmoqli hissa qo‘shdi. Uning *“Qanotlan, qo‘shiqqlarim”* to‘plamidan o‘rin olgan

¹⁸⁰ Qarang: S.Ahmedov va boshq. Adabiyot (Umumiy o‘rta ta‘lim maktablarining 6-sinfi uchun darslik-majmua). – T.: Ma‘naviyat, Cho‘lpon nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2013. I qism. – 27–29-betlar; C.Mirvaliyev, R.Shokirova. O‘zbek adiblari. – T.: Fan, 2007. – 90–91-betlar.

“Hayo bilan”, “Sumbula”, “Ko‘chalar”, “Do‘ppi tikdim”, “Sartarosh qo‘shig‘i” kabi she‘rlari qo‘shiq qilib kuylangan.

SHE‘RIY TO‘PLAMLARI: «She‘rlar» (1939, birinchi she‘rlar to‘plami), «Shodligim» (1941), «Tabassum» (1944), «Baxt tongotari» (1948), «Muborakbod» (1949), «Bolalar dostoni» (1950), «Qanotlan, qo‘shiqlarim» (1955), «Tanlangan asarlar» (1958), «Oromijon» (1961), «Gulyor» (1968), «Oftob nayzada» (1974) va boshq.

KITOBLARI: «Nafosat» (1967), «Kamalak» (1972) kabi adabiy portret va xotiralar kitoblari.

PYESALARI: «Qizbuloq», «Nodirabegim», «Momo yer».

LIBRETTOLARI: «Zulmatdan ziyo», «Malikayi ayyor» opera librettolari, «Samarqand afsonasi» baleti librettolari va boshq.

TARJIMALARI: Shekspirning «Qiyiq qizning quyilishi» komediyasi, Pushkin, Nekrasov, Lermontov, Shevchenko, To‘qay asarlari va boshq.

«DO‘NAN» hikoyasi haqida

Yozuvchi Turob To‘laning yosh do‘stlariga yozgan «Yetti zog‘ora qissasi» adibning nasriy yo‘nalishdagi dastlabki asaridir. Asar 1981-yilda yozilgan bo‘lib, unda bir necha nasriy janrlarda yozilgan katta-kichik hikoyalar yagona sujet ipiga tizilgan.

«Do‘nan» hikoyasi ham shu asardan joy olgan bo‘lib, u Toshtemirning buvasidan Turbat qishlog‘iga olib borishni iltimos qilishi bilan boshlangan. Bunda Baxshilla maxsum yoshligi haqida, do‘nan oti haqida nevarasi Toshtemirga aytib bergan, ya‘ni voqealar Baxshilla maxsum tilidan hikoya qilingan.

Ushbu hikoyada turli sabablar jamuljam bo‘lib yuzaga kelgan murakkab vaziyatga tushib qolgan odamlar va ...hayvonlarning nozik kechinmalari aks ettirilgan.

Asarning asosiy gahramonlari quyidagilar:

Toshtemir, uning buvasi *Baxshilla maxsum*, *Fayzi dasturxonchi* (u kelayotgan mehmonning ko‘zi yomonligini aytgan) va boshq.

SAID AHMAD

(1920 – 2007)



O‘zbekistonning mashhur hajvchi yozuvchisi **Said Ahmad (Husanxo‘jayev)** 1920-yil 10-iyunda Toshkent shahrining Samarqand darvoza mahallasida ziyoli oilasida tug‘ilgan. Otasi Husanxo‘ja Dadaxo‘ja o‘g‘li rus-tuzem maktabini tugatgan, Sharqning mashhur ma‘rifatchisi Ismoilbek Gaspirali bilan jo‘rachilik qilgan.

Said Ahmadning bobosi Dadaxo‘ja shahar dumasining deputati, onasining otasi bo‘lmish G‘ulomjon toshbosma matbaa egasi, yozuvchining akasi Imomxon esa o‘zbek stenografiyasining asoschisi bo‘lgan. Zuhurxon akasi irrigatsiya bo‘yicha O‘zbekistonning ilk professori edi.

Said Ahmad dastlab o‘rta maktabda, keyin esa Toshkent Rassomlik bilim yurtida, Toshkent pedagogika institutida o‘qiydi va uni 1943-yilda tugatadi. U yoshligida artistlik qiladi, doktorlik, rassomlik, qurilish bo‘yicha o‘qishlarga qatnaydi, fotochilik qiladi. «*Bir marta dor o‘ynab yiqilganman. Oyog‘im singan. Rais ko‘chadasigi Maxsum tabib taxtakachlab qo‘ygan, bir oygacha qo‘ltiqtayoqda yurganman*», – deb yozadi yozuvchi o‘z tarjimayi holida.

Said Ahmad «Mushtum» jurnalida (1938–1939, 1955–1957), O‘zbekiston Davlat radio qo‘mitasida (1941–1943), “Qizil O‘zbekiston” (hozirgi “O‘zbekiston ovozi”) gazetasida (1943–1947), “Sharq yulduzi” jurnali tahririyatida ishlagan.

Adib 1947-yilda «xalq dushmani» sifatida nohaq ayblanib, qamoqqa olingan, Qozog‘istonning Qarag‘anda viloyati Jezqazg‘an lagerida hibsdan bo‘ladi (*bu davr haqida adib “lager turkumi” hikoyalarini yozgan*) va 1953-yildan so‘nggina oqlangan.

Said Ahmad «*O‘zbekiston xalq yozuvchisi*», «*O‘zbekiston Qahramoni*» unvonlariga, bir qator Davlat mukofotlariga, «*Buyuk xizmatlari uchun*», «*Do‘stlik*» ordenlariga sazovor bo‘lgan.

SAID AHMADNING IJODIY FAOLIYATI VA ADABIY MEROSI

Said Ahmad Oybekning psixologik tasvir mahoratini, G'afur G'ulomning yumori, Abdulla Qahhorning ixcham va teran fikrlash fazilatlarini o'zida mujassamlashtirgan adibdir. U o'z ijodini hajviy asarlar yozishdan boshlagan. Adibning «*Ishqiboz*» degan hajviy hikoyasi «*Mushtum*» jurnalida chop etilgan.

Said Ahmadning birinchi kitobi «*Tortiq*» nomli hikoyalar to'plami bo'lib, 1940-yilda nashr etilgan.

Keyingi yillarda yozuvchi bir qator adiblar, ya'ni Oybek, G'afur G'ulom, Abdulla Qahhor, Mirtemir, Shuhrat, Saida Zunnunova, O'lmas Umarbekov va shu kabi adabiyot vakillari haqida xotiralar to'plamlarini e'lon qilgan. Said Ahmadning ko'pgina asarlari qardosh va xorijiy tillarga ham tarjima qilingan.

HIKOYALARI: «*Ishqiboz*», «*Tortiq*», «*Qoplon*» (hikoya qahramoni xushomadgo'y, laganbardor Qurbonboydir. Bu hikoya kishilardagi xushomadgo'ylik, laganbardorlik, o'z manfaatini yo'lida andisha-mulohazaga bormay surbetlarcha ish tutish, odamlarning amal kursisiga qarab munosabat ko'rsatish kabi yaramas illatlar tanqidiga bag'ishlangan), «*Qorako'z Majnun*» (1999. **Hikoya qahramonlari quvidagilar:** Saodat aya, uning o'g'li Bo'rixon (o'z dinidan kechgan), qizi Qumri, Qorako'z (it), kampirning kenja qizining o'g'li (u "magnitafon jinnisi", hammaning ovozi yozib yurgan) va boshq.), «*Sobiq*», «*Xazina*», «*Hayqiriq*», «*Rahmat, azizlarim*» va boshq.

TO'PLAMLARI VA KITOBLARI: «*Er yurak*» (1942), «*Farg'ona hikoyalari*» (1948), «*Muhabbat*» (1949, to'plam), «*Cho'l burguti*», «*Xandon pista*» (1994, hajviy to'plam), «*Bir o'pichning bahosi*» (1995, hajviy to'plam), «*Yo'qotganlarim va topganlarim*», «*Qorako'z Majnun*», «*Kiprikdagi tong*», «*Tanlangan asarlar*» (3 jild) va boshq.

OISSALARI: «*Qadrdon dalalar*» (1949), «*Hukm*» (1958), «*Kiprikda qolgan tong*» va boshq.

ROMANLARI: «Ufq», «Jimjitlik» (1988, bu roman adibning sho'ro hukumati davridagi zohiran tinch, turg'unlik yillarida kechirgan kunlaridan hikoya qiladi) va boshq.

DRAMATIK ASARLARI: «Kelinlar qo'zg'oloni» (1976, komediya), «Kuyov», «Xandon pista» va boshq.

«UFQ» romani haqida

Said Ahmadning «Ufq» romani trilogiya bo'lib, u «*Qirq besh kun*», «*Hijron kunlarida*» va «*Ufq bo'sag'asida*» deb nomlangan uch kitobdan iborat.

Abdulla Qahhor «Ufq» romani haqida (1965-yil) shunday yozgan edi:

«...Bu kitobni kitobxon boshdan-oyoq shavq bilan, hech qayerda turtinmasdan, diqqati susaymasdan, ishtahasi bo'g'ilmasdan o'qib chiqadi.

...Bu sof hayot, yozuvchining qalbini o'rtagan, ardoqlagan, unga ilhom bergan hayot tasviri, og'ir va shu bilan birga farahbaxsh, musibatga to'la va shu bilan birga odamga quvvat beradigan umid, uning boshini «toshdan» qiladigan ishonch barq urib turgan **haqiqiy hayot manzarasidir**.

...«Ufq»da tasvir etilgan qishloq hayotini, odamlarini ko'rib har bir o'zbek katta iftixor bilan: «Biz-o'zbeklar!» deydi, qardosh xalqlar o'zbekni mehr bilan: «O'zbek og'aynim», deb ataydi...».

Asardan olingan quyidagi parchada «yigitlik qasamidan kecha olgan, ona vujudini kemirayotgan dardini pisand qilmagan, sharmandalikda yashashga rozi bo'la olgan, hissiz ham yashay oladigan» yigit Tursunboy tasvirlangan: «U tug'ib katta qilgan onasining jasadini: begonalar yelkada tabarruk qilib ko'tarib ketayotganlarini ko'ra turib ham, bir qadam oldinga jilmasdi».

«Ufq» romanidagi **Ikromjon** va **Nizomjon** munosabatlari haqida gap ketganda, ularga nisbatan «Tug'ishgandan tutingan afzal» maqolini qo'llasa bo'ladi.

Asarning asosiy qahramonlari quyidagilar: **Ikromjon** («Yigirma bir yil ardoqlab boqqan, shamolni ravo ko'rmay

joniga o'rab o'stirgan» bolasining o'limini ko'rgan jafokash ota), *Tursunboy* (qochoq, ota diydoridan, ona mehridan, yor-birodarlar davrasidan olisda, chaqirsa ovoz yetmaydigan joyda quvg'in bo'lib, olamdan o'tgan. Uning holati asarda quyidagicha tasvirlangan: «...qamish kapa oldida tizzasini quchoqlab darvish qiyofasida o'tirardi... Sovun tegmagan betlari kir... Uning bir vaqtlar qizlarni shaydo qilgan qop-qora ko'zlari endi ma'yus, atrofga ma'nosiz boqardi...»), *Nizomjon*, *Azixon*, *Zebixon* (*Tursunboy* sevgan qiz), *Jannat xola* va boshq.

NAZARIY MA'LUMOT

Badiiy asarda kulgi haqida

Kulgi har qanday asarda uchrashi mumkin bo'lgan hodisadir. Badiiy adabiyotda kulgi ikki yo'nalishga ajratiladi: **satira** va **yumor**.

Satira (yun. «*turli, aralash*») – hayotning ma'lum jihati yoki ayrim guruh va shaxslarning yaramas salbiy xislatlaridan achchiq kulib hamda uni tanqidiy tasvirlab yozishdir. Satira badiiy asarda keng ma'noda kishilardagi yoki ma'lum bir jamiyatdagi nuqson va kamchiliklarni keskin tanqid qilish, masxaralab bartaraf etish maqsadida qo'llaniladi¹⁸¹. Said Ahmadning «Qoplon» hikoyasini bunga misol qilish mumkin.

Yumor (ingl. «*namlık, suyuqlik*») birmuncha yengil tanqidga asoslangan kulgidir. Bunda illatning o'zidan kulgi qo'zg'atiladi. Yumor keng ma'noda badiiy adabiyotda yengil kulgi qo'zg'ash, hazil-mutoyiba sifatida qo'llaniladi. Bunda ijodkor ayrim nuqsonlar ustidan kinoya-kesatiqsiz do'stona, xayrixohlik bilan kuladi. Voqea-hodisalarning, jamiyatdagi insonlarning hech bir nuqsonsiz bo'lishini istab, ularni inkor etmagan holda zukkolik, topqirlik, hozirjavoblik, hazil-askiya bilan munosabat bildiradi¹⁸². Said Ahmadning «Sobiq» hikoyasi bunga misol bo'la oladi.



37-MAVZU. XX ASR O'ZBEK ADABIYOTI NAMOYANDALARI

ASQAD MUXTOR

(1920 – 1997)

«...She'r odamning yashashi uchun, kurashi, ulg'ayishi uchun zarur».

Asqad Muxtor



Atoqli shoir, nosir va dramaturg **Asqad Muxtor** 1920-yil 23-dekabrda Farg'ona shahrida Ma'sud temiryo'lchi oilasida tug'iladi. Ular oilada 12 farzand bo'lib, Asqad uchinchi farzand edi. Bo'lajak yozuvchi 11 yoshida otasidan yetim qoladi va bolalar uyida tarbiyalanadi.

Asqad Muxtor maktabni tugatib, 1938-yilda Samarqanddagi dorilfununga o'qishga kiradi. Bu ilmgoh urush yillari O'rta Osiyo Davlat universitetiga qo'shilishi munosabati bilan adib ham boshqalar kabi Toshkentda o'qishni davom ettiradi. O'qishni tugatgach, u uch yil mobaynida Andijon pedagogika institutida o'zbek adabiyoti kafedrasining mudiri bo'lib ishlaydi.

1945-yilda Asqad Muxtor Toshkentda gazetalarda bo'lim mudiri, mas'ul kotib lavozimlarida ishlaydi, ko'pgina ro'znoma va oynomalarda faoliyat yuritadi («*Sharq yulduzi*», «*Guliston*» jurnallarida bosh muharrir bo'ladi, «*O'zbekiston adabiyoti va san'ati*» gazetasiga asos soladi va unga ham bosh muharrir bo'ladi). U bir qancha muddat Respublika Yozuvchilar uyushmasi kotibi lavozimida ham ishlagan.

Shoir 1997-yil 17-aprelda Toshkentda og'ir xastalikdan vafot etgan.

ASQAD MUXTORNING IJODIY FAOLIYATI VA ADABIY MEROSI

Asqad Muxtorning ilk she'rlari 15 yoshlarida gazetalarda chop etilgan. Dastlabki she'rlari hisoblangan «*Tilak*», «*Tong edi*», «*Totli damlar*», «*Bizning avlod*» 1935–1938-yillarda vujudga keladi. Shundan so'ng adibning 50 dan ortiq kitoblari chop etilgan.

A.Muxtor nazmini o'z davrida "falsafiy xarakterdagi she'riyat", deb baholashgan.

O'zbekiston xalq yozuvchisi Asqad Muxtorning o'zbek adabiyotshunosligidagi tashabbuskorligi XX asrning 60-yillaridayoq romanchiligimizga «shafqatsiz realizm» ko'rinishlarini olib kirganligida namoyon bo'ladi¹⁸¹.

Adibning «*To'qqizinchi palata*» nomli hikoyasida "Nafing qancha bo'lsa – umring shuncha" epigrafi qo'llangan. Undagi Bahromovning yoshi 67 da edi.

Asqad Muxtorning juda ko'p asarlari rus, hind, urdu, vyetnam, xitoy, rumin, ingliz va boshqa tillarga tarjima qilingan.

Umrining oxirgi yillarida og'ir xastaligiga qaramay, metin irodali adib ijoddan, izlanishdan to'xtamadi. 1994-yilda e'lon qilingan «*Insonga qulluq qiladurmen*» to'plamidagi hikoyalar ham o'zining yuksak saviyasi bilan kitobxonlar e'tiborini tortdi. Uning so'nggi kitobi «*Uyqu qochganda*» (1997, «*Tundaliklar*»). Badiiy-falsafiy mushohadalar) hozirgi hayot, ma'naviyat, madaniyat va badiiy ijod borasidagi mulohazalarni aks ettirgan. U adibning insoniyatga qoldirilgan vasiyatdek yangraydi.

SHE'RLARI: «*Tilak*», «*Tong edi*», «*Totli damlar*», «*Bizning avlod*» (1938), «*Poeziya*», «*Nihob*», «*Sog'inish*», «*G'alaba ishonchi*», «*Yillarim*», «*El-yurt*», «*Jangchining bayram kechasi*», «*Yulduzim*», «*Yo'l*», «*Tug'ishganlar qaytdi*», «*Tug'ilish*», «*Hafta*», «*O'zimir emas bu umr...*», «*Bir tup o'rik...*», «*Po'latjon yuz tup ko'chat ekmoqchi*»,

¹⁸¹ S.Olim va boshq. Adabiyot (Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 8-sinfi uchun darslik-majmua). – T.: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, "O'zbekiston" nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2010. – 221-bet.

«*Adolat*» (Ertak qahramonlari: Tul kampir, uning arzanda qizi, cho'ri qiz Adolat, o'n ikki birodar (oylar)) va boshq.

SHE'RIY TO'PLAMLARI: «*Po'lat quyuvchi*» (1947, shu nomli poemasi orqali katta ijodkorlar nazariga tushgan), «*Hamshaharlarim*» (1949), «*Rahmat, mehribonim*» (1954), «*Chin yurakdan*» (1956, bolalarga bag'ishlangan), «*99 miniatyura*» (1962), «*Karvon qo'ng'irog'i*» (1964), «*She'rlar*» (1966), «*Quyosh belanchagi*» (1971), «*Sizga aytar so'zim*» (1978) va boshq.

HIKOYA TO'PLAMLARI: «*Hayotga chaqiriq*» (1956, bolalarga bag'ishlangan), «*Dunyo bolalari*» (1962, bolalarga bag'ishlangan), «*Insonga qulluq qiladurmen*» (1994).

OISSALARI: «*Daryolar tutashgan joyda*» (1950, birinchi qissasi), «*Qoraqalpoq qissasi*» (1958), «*Buxoroning jin ko'chalari*» (1980, prototipi – Fayzulla Xo'jayev), «*Jar yoqasidagi chaqmoq*», «*Bo'ronlarda bordek halovat*» (1982), «*Kumush tola*» (1987) va boshq.

ROMANLARI: «*Opa-singillar*» (1954–1955), «*Tug'ilish*» (1960–1963), «*Davr mening taqdirimda*» (1964), «*Chinor*» (1969–1973), «*Amu*» (1984) va boshq.

PYESALARI: «*Mardlik cho'qqisi*» (1948), «*Yaxshilikka yaxshilik*» (1949), «*Zar qadri*», «*Samandar*» (1978) va boshq.

TARJIMALARI: Sofoklning «*Shoh Edip*» fojiasi, Evripid, Shekspir, Shiller tragediyalari, Pushkin, Lermontov, Blok, Mayakovskiy, Gorkiy, Thokur, Shevchenko, Aleksandr Korneychuk, O.Nil kabi san'atkorlarning bir qator asarlari va boshq.

«CHINOR» romani haqida

Bu asar muallifga katta shuhrat keltirgan, u 1974-yilda ushbu asari uchun «O'zbekiston xalq yozuvchisi» unvoniga sazovor bo'lgan. Asarda bir-biri bilan bog'lanmaydigan qator hikoyalar, rivoyatlar va qissalar aralash kelaveradi. Lekin romandagi barcha insoniy taqdirlar 93 yoshli Ochil bobo taqdiriga borib bog'lanadi. U asar markazida turuvchi obrazdir.

«Chinor» romanining o'ziga xosligi shundaki, u ko'p asarlarda bo'lgani kabi ezgulikning yovuzlik ustidan qozonilgan

g'alabasi bilan yakun topmagan. Roman yaratilgan davr (o'tgan asrning 60-yillari) hodisalari hikoya qilib borilib, birdaniga asrning boshida yuz bergan fojialar tafsilotiga o'rin beriladi...

Romandagi mungli qissalardan biri «*Qo'rqoqlikning to'lovi*»dir. Unda qo'rqoqni qahramon deb bilib, astoydil e'zozlayotgan odamlar tasviri berilgan. Asarda Akbarali holati quyidagicha tasvirlangan: «*Yolg'izlik esa unga hamisha yo'ldosh. Ko'pchilik orasida ham, onasi bilan yonma-yon o'tirganda ham u yolg'iz. Xayolida o'sha o'ylaridan boshqa hech narsa yo'q. O'sha voqealarni xayolidan kun-bakun o'tkazib, o'ziga najot izlaydi. Topolmaydi....*», «*...Uning suyagi qolibdi, xolos. Yonoqlari turtib chiqqan, oq oralagan soch-soqoli o'siq, ko'zlarida nur yo'q. U gapirolmay qoldi, ko'z tagidagi ko'k xaltachalari titrab yig'lab yubordi*».

Romandagi «*Odam deb o'lgan odam – doim tirik*» gapi Ochil buva tomonidan, «*O'zini deb yashagan – o'lik*» gapi Akbarali tilidan aytilgan.

Asarning asosiv qahramonlari quvidagilar: *Ochil buva (u Akbaralini ovoizidan tanib qoladi, uni «mo'rt barg» deydi), Azimjon, Akbarali G'oziyev (u o'z dardini bufetchi Sonyaga aytib bergan, o'z joniga qasd qilgan. Unga nisbatan «Azim chinorning bir mo'rt bargi» ta'rifini berish mumkin), Bektemir, Sharofat xola (Akbaralining onasi) va boshq.*

SHE'RLARIDAN PARCHALAR:

Yurganlarni daryo deyдилar,
Daryo – cheksiz umr ertagi.
Bir kun uyda o'ltirib qolsam,
Hayot go'yo chetlab o'tadi...

Ijod dardi – yo'l azobidir,
Mayli, bo'lsin tumanlar quyuyq.
Ruhim bilan yo'lda ekanman,
Umrinning ham nihoyasi yo'q.

(«Yo'l» she'ridan)

* * *

Iymanibroq turar ota poygakda,
Ko'ksida yulduzi, bir qo'li mayib...
Ichkarida esa, oppoq choyshabda
Jahonning umidi yotar jilmayib.

(«Tug'ilish» she'ridan)

MIRMUHSIN

(1921-2005)



Mirmuhsin Mirsaidov 1921-yil 3-mayda Toshkentning Qo'rg'ontegi mahallasida hunarmand-kulol Mirhoji oilasida tug'ilgan. O'rta maktabni tugatib, Nizomiy nomli TDPIda shoir Shuhrat, Shukrullolar bilan birga o'qigan, so'ngra o'rta maktabda dars bergan, quruvchi, muxbir bo'lib ishlagan, ko'pgina ro'znoma va oynomalarda faoliyat yuritgan.

Mirmuhsin 1944–1946-yillarda Respublika radioqo'mitasida muharrir, 1947–1961-yillar oralig'ida O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi kotibi, 1950-yildan 1960-yilgacha «Sharq yulduzi» jurnali bosh muharriri, 1961–1963-yillarda «Qizil O'zbekiston» gazetasida bo'lim mudiri, 1963–1971-yillarda «Mushtum» jurnali bosh muharriri, 1972-yildan 1981-yilga qadar yana «Sharq yulduzi» jurnali bosh muharriri, 1982–1994-yillarda «Guliston» jurnali bosh muharriri vazifalarida ishlagan¹⁸².

Badiiy ijodni shoir sifatida boshlagan Mirmuhsin 1936-yilda «**Sheralining mardligi**» va «**Ovchi bolalar**» nomlari bilan she'r va hikoyalar to'plamlarini chiqargan.

Mirmuhsin 1974-yilda Hamza nomidagi davlat mukofoti, 1981-yilda «O'zbekiston xalq yozuvchisi», 1998-yilda «El-yurt hurmati» singari yuksak mukofotlar bilan taqdirlangan.

¹⁸² Qarang: Q.Yo'ldoshev, B.Qosimov, V.Qodirov, J.Yo'ldoshbekov. Adabiyot (Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 7-sinfi uchun darslik-majmua). – T.: Sharq, 2013. – 55–57-betlar; C.Mirvaliyev, R.Shokirova. O'zbek adiblari. – T.: Fan, 2007. – 100–101-betlar.

O'zbek adabiyotida she'riy romanning birinchi namunasi – «Ziyod va Adiba» (1954) ham Mirmuhsin qalamiga mansubdir. Adib bu asarida o'zbek yoshlari dunyoqarashi va ruhiyatida yuz bergan o'zgarishlarni qiziqarli tasvirlashga uringan.

MIRMUHSIN ASARLARI

SHE'RIY KITOBLARI: “*Vafo*” (1948), “*Qadrdon do'stlar*” (1948), “*Farg'ona*” (1951), “*Vatandoshlar*” (1952), “*Irmoqlar*” (1959), “*Qalb va falsafa*” (1960), “*She'rlar*” (1964) va boshq.

DOSTONLARI: “*Qamar*” (1938, ilk dostoni), “*Usta G'iyos*” (1946), “*Do'nan*”, “*Yashil qishloq*” (1948), “*Shiroq*” (1969), “*Nevara*”, “*Avesto*” (1970) va boshq.

HIKOYALAR TO'PLAMI: “*Chodrali ayol*” (1960).

OISSALARI: “*Jamila*” (1956, ilk qissasi), “*Oq marmar*” (1957), xalqimiz o'tmishini aks ettirishga bag'ishlangan, zulm-u zo'ravonlikka qarshi kurashgan shaxslarning o'ziga xos obrazlari yaratilgan “*Cho'ri*” (1962) va “*Tungi chaqmoqlar*” (1964) qissalari, “*Chodrali ayol*” (1979, unda chet ellardagi kishilar hayoti ko'rsatilgan) va boshq.

ROMANLARI: “*Chiniqish*” (1969), “*Umid*” (1969), “*Degrez o'g'li*” (1972), “*Me'mor*” (1974). Romanning asosiy qahramonlari: Najmiddin Buxoriy (*me'mor*), uning o'g'li Nizomiddin (otasi uni “*Sen qaltis tashlagan qadamning qurboni bo'lib qora yerda yotibsan!*” deb xotirlagan), Zavrak, Zulfiqor, G'avvos Muhammad (“*Agar mening ustimdan qo'rqq deb yana kulsangiz, endi ajdarni tutib kelaman*” gapi unga tegishli), Badia, Ma'suma, Horunbek (u bo'ron paytida daryoga yaqin yurish xavfli ekanligini aytgan), “*Chotqol yo'lbarisi*” (1977), “*Ildizlar va yaproqlar*” (1982), “*Temur Malik*” (1986), “*Ilon o'chi*” (1995), “*Turon malikasi*” (1997) va boshq.

BOLALAR UCHUN YOZGAN ASARLARI: “*Sheralining mardligi*”, “*Ovchi bolalar*”, “*Luqmon va O'roqboy*”.

SAIDA ZUNNUNOVA
(1926 – 1977)

Saidaning birinchi kitobini o'qib, «Qizingiz yozdi» deb nom qo'yib berganman. Xalqimizning Saidaga qilgan yaxshi niyati bekor ketmadi. U xotin-qizlarga xos nazokat, iforli, tatimli lirikasi bilan dillarimizni erkalab, xordiqalarimizni yozib, mehnatga rag'batimizni toblantiradigan, idrokimizni go'zalliklar tomon yetaklaydigan fahmli shoiramiz bo'lib yetishdi.

G'afur G'ulom



Saida Zunnunova 1926-yil 15-fevralda Andijon shahrida tug'ilgan. Otadan erta yetim qolgan Saida onasi va qarindoshlari qo'lida tarbiyalanadi. U shahardagi 30-maktabni tugatgach, 1941–1943-yillarda Andijon Davlat o'qituvchilar institutida o'qiydi, 1947–1952-yillarda O'rta Osiyo davlat universitetining filologiya fakultetida ta'lim oladi.

Shoira Andijon maktablarida muallima, «*Gulxan*», «*O'zbekiston madaniyati*» oynoma va ro'znomalarida, gazeta muharririyatlarida, O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasida adabiy maslahatchi bo'lib ishlaydi. Saida Zunnunova Said Ahmadning rafiqasi edi. Turmush o'rtog'i nohaq qamalganda, unga ham tazyiqlar bo'lgan, hatto eridan voz kechishlarini talab qilishgan, lekin shoira o'z yoriga sodiq qolgan.

Shoira Saida Zunnunova ezgulik, adolat uchun kurashni, halol mehnatni o'zining hayotiy maslagi deb bilgan. Said Ahmad sadoqatli yori haqidagi xotiralaridan birida

*Kurashsiz, mehnatsiz shodlik, kulgini
O'g'irlik mol deyman, qilaman hazar.
Qalbimning parchasi singmasa agar,
Rozimasman, birov hadya etsa zar –*

misralarini keltirib: «*Bu satrlar Saidaxonning she'rda chizilgan suratiga o'xshaydi*», – degan edi¹⁸³.

¹⁸³ Q.Yo'ldoshev, B.Qosimov, V.Qodirov, J.Yo'ldoshbekov. Adabiyot (Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 7-sinfi uchun darslik-majmua). – T.: Sharq, 2017. – 24-bet.

Saida Zunnunova 1977-yil 20-martda 51 yoshida og'ir xastalikdan bevaqt vafot etgan. Uning nomini abadiylashtirish maqsadida Toshkentdagi ko'chalardan biri va 224-maktabga, Andijon shahridagi ko'cha va maktabga hamda Bo'z tumanidagi akademik litseyga shoiraning nomi berilgan.

SAIDA ZUNNUNOVANING ADABIY MEROSI

SHE'RLARI: «*Salom senga*» (ilk she'ri, u 1945-yil «Paxta fronti» gazetasida bosilgan), «*Qizimga*», «*Buvilar duoga qo'llarin ochib...*», «*Yer uzra qo'ndi oqshom...*», «*Mening vatanim*» va boshq.

SHE'RIY TO'PLAMLARI: «*Qizingiz yozdi*» (1948), «*Yangi she'rlar*» (1950), «*Gullar vodiysi*» (1954), «*Qizlarjon*», «*Bir yil o'ylari*» (1967), «*She'rlar*», «*Nilufar*» va boshq.

DOSTONLARI: «*Sodiq va Anor*», «*Surat bilan suhbat*» (1963–1966, «*Ruh bilan suhbat*»), «*Xayrixon*», «*Qo'shnilarim*» va boshq.

PYESALARI: «*Ona*», «*Ko'zlar*».

KITOBLARI: «*Gulbahor*» (1956, hikoyalar to'plami), «*Gulxan*» (1958), «*Olov*» (1962), «*Do'stlik*», «*Povest va hikoyalar*», «*Qanot*», «*Ko'chalar charog'on*» (1965), «*Bo'ylaringdan o'rgilay*» (1972) va boshq.

«SURAT BILAN SUHBAT» dostoni haqida

Saida Zunnunova bu dostoni bilan iymoni butun onalarga, ayollarga madhiya bitadi. Asarda onaning urush sababli otasidan judo bo'lgan, mashaqqatlar bilan o'stirgan o'g'lining nikoh kechasidan keyingi iztirobli o'y-xotiralari tasvirlanadi. Dostonda shoira urushning insonlar boshiga slogan adoqsiz kulfat-alamlari va bu anduhlarning bardoshiga, irodasiga zarracha daxl qilolmagan ayolning insoniy fazilatlarini yaqqol ko'rsatib bera olgan. Asarda ikki kechinma – farzandi kamoli, uning to'yini ko'rganlikdan quvonch va shu kunga yetolmaganlar haqidagi alamli xotiralar kurashadi. Quyidagi misralar ham shu dostonida uchraydi:

Sizlar bosh qo'ygan bu ulug' tuproqni
Xo'rlasak va yoki bersak birovga
Bo'lganimiz yaxshi o'zimiz ham xok...

ODIL YOQUBOV

(1926 – 2009)



Odil Yoqubov 1926-yil 20-oktabrda (hujjatlarda shunday qayd etilgan, asli 1927-yilda tug'ilgan) Janubiy Qozog'iston viloyatining Turkiston shahri yaqinidagi Qarnoq (hozirgi Otaboy) qishlog'ida tug'ilgan.

Adibning yozishicha, otasi Egamberdi Yoqubov 1916-yili mardikorlikka olinib, Belorusiya o'rmonlarida daraxt kesib, rus tilini o'rganib, qishloqqa qaytadi. U Qozog'istonda sho'rolar hukumati idoralarida mas'ul lavozimlarda ham ishlaydi.

1937-yili otasi shaxsga sig'inish qurboni bo'ladi. Birgina uzatilgan qizdan boshqa to'rt norasida beva ayol qo'lida qoladi. Johil, shafqatsiz kimsalar «xalq dushmani»ning bevasi va farzandlarini tahqirleydilar, ammo o'sha mash'um kunlarda oliyjanob odamlar muruvvat ko'rsatadilar.

Odil Yoqubovning bolaligi urush davriga to'g'ri kelganligi uchun ancha og'ir kechgan. U 1945-yilda harbiy xizmatga chaqiriladi. Adib Rossiya–Yaponiya urushida qatnashib, Mo'g'ulistonning Gobi sahrosi va Xingan tog'laridan yayov o'tib, Kvantun armiyasini tor-mor etishda qatnashadi, so'ng bir qancha vaqt Port-Artur yaqinidagi Chan-Chjou shahrida xizmat qiladi. Nihoyat, 1950-yilda xizmatdan bo'shab yurtiga qaytadi.

Odil Yoqubov¹⁸⁴ 1951–1956-yillar mobaynida O'rta Osiyo davlat universiteti (SAGU)ning filologiya fakulteti rus tili va

¹⁸⁴ Qarang: N. Karimov va boshq. Adabiyot (Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 11-sinfi uchun darslik). – T.: O'qituvchi, 2004. – 262–273-betlar; N. Karimov va boshq. XX asr o'zbek adabiyoti (11-sinf uchun darslik). – T.: O'qituvchi, 2002. – 308–320-betlar; O. Yo'ldoshev va boshq. Adabiyot (Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 9-sinfi uchun darslik). – T.: O'zbekiston, 2019. – 183–185-betlar.

adabiyoti bo'limida ta'lim oladi, 1959-yilgacha O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasida maslahatchi bo'lib ishlaydi. U 1959–1963- va 1967–1970-yillarda «Literaturnaya gazeta»ning O'zbekiston bo'yicha muxbiri sifatida, 1970–1982-yillar orasida «O'zbekfilm» kinostudiyasida, Respublika kinematografiya qo'mitasida bosh muharrir, G'.G'ulom nomidagi nashriyotda bosh muharrir o'rinbosari lavozimlarida faoliyat yuritadi.

Adib «O'zbekiston adabiyoti va san'ati» gazetasiga bosh muharrir (1982–1989), Respublika Yozuvchilar uyushmasi rahbari lavozimida (1989–1996) ham faoliyat yuritgan.

Odil Yoqubov 1996–2004-yillar mobaynida Vazirlar Mahkamasi qoshidagi Respublika atamashunoslik qo'mitasi raisi va 2005-yilgacha Markaziy Osiyo xalqlari madaniyati assambleyasining birinchi vitse-prezidenti bo'lib ishlaydi. U 2009-yil 21-dekabrda Toshkentda vafot etgan.

Yozuvchi «O'zbekiston - xalq yozuvchisi» unvoniga (1985), 1994-yilda «Do'stlik», 1998-yilda «El-yurt hurmati» ordenlariga sazovor bo'lgan.

ODIL YOQUBOVNING IJODIY FAOLIYATI VA ADABIY MEROSI

Odil Yoqubov adabiyotimizni ko'plab hikoya, qissa, roman va bir qator pyesalar bilan boyitgan hozirgi o'zbek adabiyotining vakilidir.

Adib o'z zamondoshlari haqida «*Bir felyeton qissasi*», «*Qanot juft bo'ladi*», «*Matluba*» kabi qissalar, «*Diyonat*», «*Er boshiga ish tushsa*» kabi romanlar yozgan.

Otasining qatag'on qilinishi, oyisining to'rt farzand bilan yolg'iz qolganda, turmush qiyinchiligidan oddiy mehnatkash amakisi Zayniddinning qishloqqa ko'chirib keltirganini keyinchalik adib o'zining «*Er boshiga ish tushsa*» va «*Oq qushlar oppoq qushlar*» degan romanlarida aks ettirgan.

Odil Yoqubovning «*Adolat manzili*» romani, «*Muzaffar Temur*», «*Bir koshona sirlari*» kabi pyesalari hamda o'nlab hikoyalari mustaqillik yillarida yaratilgan.

HIKOYALARI: «Muzqaymoq» (bu hikoyada adib o'z otasi misolida qatag'on davrining dahshatlarini badiiy talqin qilgan) va boshq.

HIKOYALAR TO'PLAMLARI: «Dastlabki qadam» (1953), «Ikki muhabbat» (1955), «Tilla uzuk» (1961, qissa va hikoyalar to'plami) va boshq.

OISSALARI: «Tengdoshlar» (1951, dastlabki yirik asari), «Muqaddas» (1960, unda Sharifjonning qing'ir yo'llar bilan sevgilisi Muqaddas o'rniga o'qishga kirib qolishi va sevgisidan, sevgilisidan judo bo'lishi hikoya qilingan), «Bir felyeton qissasi» (1961), «Tilla uzuk», «Qanot juft bo'ladi» (1969), «Billur qandillar» (1975), «Larza», «Izlayman», «Matluba», «Qaydasan, Moriko» va boshq.

ROMANLARI: «Erboshiga ishtushsa» (Asar qahramonlari quyidagilar: Komil, Mashrab, Akmal, Qo'chqor, Qurbon ota, Barno va boshq.), «Diyonat», «Ulug'bek xazinasi», «Ko'hna dunyo» (1983), «Oqqushlar, oppoq qushlar» (1988), «Adolat manzili», «Osiy banda» (2006) va boshq.

PYESALARI: «Chin muhabbat» (1955), «Aytsam tilim kuyadi, aytmasam – dilim» (1956), «Yurak yonmog'i kerak» (1957), «Olma gullaganda» (1960, drama), «Bir koshona sirlari» (2000-yilning eng yaxshi dramatik asari sifatida «Ofarin» mukofoti bilan taqdirlangan. Asar qahramonlari quyidagilar: Sarvar, Dilora, Darveshali, Gulnoza va boshq.), «Muzaffar Temur» (1996) va boshq.

KITOBBLARI: «Ikki muhabbat» (1956, nasriy asarlar kitobi) va boshq.

«ULUG'BEK XAZINASI» romani haqida

Odil Yoqubovga eng katta shuhrat keltirgan asar «Ulug'bek xazinasi» romani bo'ldi. Chingiz Aytmatov bu asar muallifiga yo'llagan maktubida roman to'g'risida shunday yozadi: «Yaxshi kitob haqida gapirish maroqli. Bu – yuksak va olijanob nasr namunasi. Badiiy quvvati jihatidan salmoqdor bu tarixiy roman meni larzaga soldi...».

1960-yillarning oxirlarida matbuotda Ulug'bekning mashhur kutubxonasi taqdiri xususida bahs boshlanadi. Bu bahsda ilgari

surilgan, xususan taniqli rus adabiyotshunosi I.Andronikov maqolasida o'rtaga qo'yilgan fikr-mulohazalar astoydil qidirilsa, bu nodir xazina albatta topilajagi xususidagi bashoratlar ko'plar qatori Odil Yoqubovda ham katta qiziqish uyg'otadi. Adib Ulug'bek hayoti va faoliyatiga oid manbalarni, dalillarni qidiradi, dastlab qissa bitadi, lekin yozuvchining bundan ko'ngli to'lmaydi. Shu tariqa buyuk bir roman vujudga keladi.

Roman Ulug'bek saltanatining so'nggi tahlikali damlari tasviridan boshlanadi. Unda tarixiy hodisalar ifodasiga izchil rioya etilmaydi, ya'ni tarixiy hodisalarni muntazam ravishda aynan o'zidek gavdalanitirilmaydi. Mushkul damlarda Ulug'bek shogirdi Ali Qushchiga quyidagi fikrlarni uqtiradi: *«Tag'in bir narsadan – kelgusi avlodlar bandayi ojizdan hazar qilmasmu, deb qo'rqamen. Mirzo Ulug'bekday koinot sirlarini ochmoqni tilagan, fozillikni da'vo etgan mavlono, hayhot, oxir-oqibat barcha shoh, barcha taxt sohiblariday saltanatni deb, o'z pushti kamaridan bo'lgan farzandi bilan toj-u taxt talashibdur-da, degan nom qoldirmoqdin qo'rqaman...»*.

«Toj-taxt bebaqo, ma'naviy xazina esa bezavol», degan hikmat romanda chiroyli, betakror badiiy ifodasini topgan. Romanda yozilishicha, shahzoda Abdulatif *«Padarkush... toj-u taxt... olti oydan oshmaydur...»* degan dahshatli fikrni Nizomiy Ganjaviyning kitobidan o'qiydi.

Asarda bir tomonda **Abdullatif** (*Mirzo Ulug'bek u haqida "Burgut! Qora burgut!" deb o'ylaydi*) boshliq qora kuchlar: **Salohiddin zargar** (asarda u "qari tulki" deb ta'riflangan), **amir Sulton Jondor** ("Humo qushi kimning boshiga qo'nur, buni yolg'iz haq taolo biladir..." gapini Mirzo Ulug'bek unga aytgan), **ayg'oqchi Qashqir**, ikkinchi tomonda **Ali Qushchi** boshliq ma'rifat fidoyilari: **Miram Chalabiy**, **Qalandar Qarnoqiy** (Uzoq Yassidan haqiqat izlab kelgan, iste'dodli shoir, arslonyurak jangchi. U Mirzo Ulug'bekning kitoblaridan iborat xazinani asrab qolishda Ali Qushchiga yordam bergan), **Usta Temur Samarqandiy**, **Xurshida bonular** faoliyati tasvirlangan. **Mavlono Muhiddin** esa mudhish voqealar girdobida dovdirab, o'z ustozidan yuz o'giradi.

Asarning boshqa qahramonlari quvidagilar: Abdul'aziz, shayxulislom Burhoniddin, amir Iskandar barlos, Bobo Husayn (Ulug'bekning suyukli navkari), shahzoda Abdulla, Abu Said Mirzo, dorug'a Mironshoh, turkman begi Ibrohim Po'lat o'g'li (Shohruhiya qal'asining boshlig'i) va boshq.

Quyidagi parchalar ham shu asarda uchraydi:

«Yo tavba! Bu toj-u taxtda ne sehr, ne sir-asror bor ekankim, unga o'ltirgan har bir kimsa darhol o'zgaradi? Odamiylikni, umri bebaqo bir faqir-u haqir ekanini darhol unutadi? Bu toj-u taxt, bu saltanat hech bir kimsaga vafu qilmasligini yodidan chiqaradi?...»

“Shahzoda diliga dahshat solgan bu ikki baytni oxirigacha o'qidimi, yo'qmi, o'zi ham bilmas edi. Lekin undagi “Padarkush, toj-u taxt, olti oy...” degan so'zlar xuddi qizdirilgan temir bilan o'yib yozilganday miyasini jaz-jaz kuydirib, nigohi oldida yal-yal yonib turardi...”.

“... Xona sovuq va nimqorong'i. Faqat shiftdagi tuynukchadan bir hovuchgina nur tushadi. Xonada gilam-u bir-ikkita ko'rpacha. O'rtadagi xontaxtada sovib qolgan kabob va meva-cheva. Bejirim chinni ko'zachada – boda. Lekin ovqatdan shubhalangan Mirzo Ulug'bek hanuz tuz totgani yo'q. Faqat qumg'ondagi suvdan bir-ikki qultum ichdi, xolos...”

NAZARIY MA'LUMOT
Badiiy adabiyotda ruhiyat tahlili haqida¹⁸⁷

Ma'lumki, ruh – o'ta murakkab tushuncha. Qur'oni Karimda ham ruhning izohini odam tushunolmasligi ta'kidlangan.

Badiiy ijodda ruhiy tahlil katta ahamiyatga ega. Badiiy asarning darajasi ko'proq unda inson qalbi haqidagi haqiqat, inson ruhiyati ifodasi qanday ekaniga bog'liq. Insonning kimligi, asl mohiyati, eng avvalo, badiiy asarda uning ruhiyati tahlili orqali ochiladi.

Atoqli o'zbek adibi Abdulla Qahhor inson *«ichki dunyosining chuqur joylarigacha o'zida ko'rsatadigan ikki sahifalik chinakam proza biz uchun shoshmashosharlik va tumtaroq gaplar bilan yozilgan silliqqina qalin «asar»lardan ko'proq foydalidir»* degan edi.

Juda ko'plab ulkan realist adiblar asarlarida inson ruhiyati, ruhiy jarayonlar aniq, eng nozik jihatlari bilan ko'rsatilgan.

Odil Yoqubovning "Ulug'bek xazinasi" romanida o'g'liga qarshi kurashishga majbur otaning ham, ota halokatiga sababchi bo'lgan bolaning ham ruhiyati ta'sirli va ishonarli tasvirlangan.

Badiiy asarlardagi qahramonning ruhiy holatlari hech qachon eskirmaydi va ularning haqqoniy tasviri barcha davr kishilari uchun bir xil ta'sir qilaveradi.



¹⁸⁵ Qarang: Q.Yo'ldoshev va boshq. Adabiyot (Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 9-sinfi uchun darslik). II qism. – T.: Yangiyo'l poligraf servis, 2014. – 86-bet.



38-MAVZU.
XX ASR O‘ZBEK ADABIYOTI
NAMOYANDALARI

PIRIMQUL QODIROV¹⁸⁶
(1928 – 2010)



O‘zbekiston xalq yozuvchisi **Pirmqul Qodirov** 1928-yil 25-oktabrda Tojikistonning Shahrison tumaniga qarashli (hozirgi Xo‘jand viloyati hududidagi) Kengko‘l qishlog‘ida cho‘pon oilasida tug‘ilgan. Uning bolalik yillari urush yillariga to‘g‘ri keladi, u otasi va oila boshiga tushgan kulfatlarga sherik bo‘ladi (otasi Qodir cho‘pon quloq qilinadi).

Ikkinchi jahon urushi davrida yosh Pirmqul jamoa xo‘jaligida, yo‘l qurilishida, Bekobodagi metallurgiya zavodida ishlaydi.

Yozuvchi 1946–1951-yillarda ToshDUning sharqshunoslik fakultetida o‘qiydi, so‘ngra bir muddat Til va adabiyot institutida ishlaydi. Pirmqul Qodirov Moskvadagi Jahon adabiyoti instituti aspiranturasida ta‘lim olib, 1954-yilda ustoz Abdulla Qahhor asarlarining til va uslubiy jihatlarini tadqiq etilgan nomzodlik dissertatsiyasini yoqlaydi.

Adib 1954–1963-yillarda Yozuvchilar uyushmasida, keyin esa juda ko‘pgina jamoat ishlarida faoliyat yuritadi.

¹⁸⁶ Qarang: N.Karimov va boshq. Adabiyot (umumiy o‘rta ta‘lim maktablarining 11-sinfi uchun darslik). – T.: O‘qituvchi, 2004. – 275–289-betlar; N.Karimov va boshq. XX asr o‘zbek adabiyoti (11-sinf uchun darslik). – T.: O‘qituvchi, 2002. – 321–333-betlar; S.Ahmedov va boshq. Adabiyot (Umumiy o‘rta ta‘lim maktablarining 6-sinfi uchun darslik-majmua). – T.: Ma‘naviyat, Cho‘lpon nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2013. II qism. – 92-94-betlar.

Pirimqul Qodirov *Hamza nomidagi Davlat mukofoti* (1981), "Shuhrat" medali (1994), "El-yurt hurmati" ordeni (1998) bilan taqdirlangan¹⁸⁷.

Cho'lpon iborasi bilan aytganda, *Pirimqul Qodirov «boshini zo'r ishga berib qo'ygan»* ijodkorlardan hisoblanadi.

PIRIMQUL QODIROVNING IJODIY FAOLIYATI VA ADABIY MEROSI

Pirimqul Qodirovning ko'pgina asarlarida inson taqdiri, uning ruhiy dunyosi qatlamlari chuqur mushohada qilingan.

Yozuvchi asarlaridagi pok sevgi, insoniy muhabbat *Mahkam va Gavhar, Madaminjon va Ma'suda, Mohim bilan Bobur* munosabatida go'zal tasvirlangan.

Mustaqillik yillarida adib asarlari o'nlab xorijiy tillarga ham tarjima qilingan.

HIKOYALARI: «*Studentlar*» (1951, birinchi hikoyasi. Bu kitob chiqqanda Pirimqul Qodirov hali ToshDUning sharqshunoslik fakulteti talabasi edi), «*Jon shirin*» (1968–1973, hikoyada xalqimizni kimyoviy dorilar bilan zaharlagan zolimlarga qarshi achchiq haqiqat aytilgan), «*Qalbdagi quyosh*», «*Kayf*» (yumoristik ruhda yozilgan) va boshq.

OISSALARI: «*Meros*» (1974. Bu qissada paxtakorlarning hayoti aks ettirilgan. Asar qahramonlari quvidagilar: Yolqin Otajonov, Tursun va boshq.), «*Qadrim*» (1961, bu qissada neft konlarini izlovchilar hayoti qalamga olingan bo'lib, itoatkor, mutelikni, hatto, ma'lum darajada, oddiy bir hayotiy haqiqat sifatida qabul qiladigan yigit, ya'ni Iskandar obrazi o'z aksini topgan), «*Erk*» (1968. Oissa qahramonlari quvidagilar: Sattor, Oysha, Roziya va boshq.), «*Yayra institutga kirmoqchi*» (1979), «*Najot*» (1980, dastlab «*Botirlar va baxillar*» deb nomlangan) va boshq.

ROMANLARI: «*Uch ildiz*» (1955–1958, birinchi romani. Unda shaxsga sig'inish oqibatlari keskin fosh etilgan), «*Qora ko'zlar*» (1963–1966), «*Olmos kamar*» (1976, 1987-yilda qayta ishlangan. Romanning asosiy qahramonlari Abror va Sherzoddir),

¹⁸⁷ O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi.– T.: «O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi» Davlat ilmiy nashriyoti, 2005. 11-jild. – 40-bet.

«Yulduzli tunlar» (1979, «Bobur»), «Avlodlar dovoni» (1989), «Ona lochin vidosi» (1994–2000, Gavharshodbegim siymosiga bag'ishlangan. Bu asar yaxlit sujet asosiga qurilgan emas. Mustaqil hamda bir-birining uzviy davomi sifatida yigirma beshdan ortiq hikoyalardan tashkil topgan) va boshq.

RISOLALARI VA MAOOLALARI: «Dil va til» (1974), «Xalq tili va realistik proza» (1973), «Til va eb» (2005), «Til – millat ruhi», «Oilamiz» (ilk ocherki, 1953), «Amir Temur siymosi», «Qalb ko'zlari» (2001, badialar, o'ylar, esdaliklar) va boshq.

TARJIMALARI: Tolstoyning «Kazaklar», K.Fedinning «Ilk sevinchlar», turkman yozuvchisi X.Deryayevning «Qismat» romanlari va boshq.

«YULDUZLI TUNLAR» romani haqida

Pirimqul Qodirov bu roman ustida o'n yil (1969–1978) davomida ish olib borgan. Romanga «Boburnoma», «Humoyunnoma» asarlari asos bo'lgan.

«Yulduzli tunlar» keng qamrovli asar bo'lib, unda Boburning shaxsiy xislatlari, oilaviy hayoti – onasi *Qutlug' Nigor xonimga* chin farzandlik tuyg'usi, opasi *Xonzodabegimga* inilik, farzandlaridan *Humoyun* va *Gulbadanga* otalik mehri, birinchi umr yo'ldoshi *Oyshabegim* bilan o'tkazgan ko'ngilsiz damlar dramasi, *Mohim* bilan g'aroyib tanishuv daqiqalari, Mohimning Boburga cheksiz sadoqati, Panipat jangida halok bo'lgan *Ibrohim Lodining* onasi *Malika Bayda* (u Boburni zaharlashga erishgandan so'ng, ikki raqib ro'para keladi. Shunda *Malika Bayda* shohdan o'lim kutadi, bu bilan shoh ustidan ma'naviy tantanaga erishmoq, onani o'linga hukm etgan shohni el oldida sharmanda qilmoq istaydi, lekin buni sezgan Bobur uni jazolamay, o'zining tanti shoh ekanligini ko'rsatadi) bilan Bobur orasidagi munosabat hayajonli, go'zal ifodalangan.

Adib butun asar davomida Boburning shoh, fotih sifatida qilgan shafqatsizliklari uning eng katta gunohi ekanligini doimo ta'kidlab boradi. Bobur tarixchi olim *Xondamir* (“Habib us-siyar” asari muallifi) bilan suhbatda shunday deydi: «...

avlodlar haqiqatni bilsinlar, bizni farishta deb o'ylamasinlar. Qilgan gunohlarimiz o'zimizga nechog'liq og'ir tushganidan ogoh bo'lsinlar... Toju-taxt bevafoiligini ko'pdan beri sezib yuribman. Menga vafo qilsa, faqat yozgan asarlarim vafo qilmog'i mumkin. Vatanimga o'zim qaytolmasam ham asarlarim qaytmog'i mumkin. Endigi orzum – men tug'ilgan yurtimga qilolmagan farzandlik xizmatimni asarlarim qilsa...».

Asarda Bobur bilan yonma-yon **Shayboniyxon** («imoni zamon»), «xalifai rahmon» deya ulug'langan shaxs), **Oyshabegim, Zuhrabegim, Xadichabegim, Xonzodabegim, Gulbadanbegim, Malika Bayda, Mohim, Humoyun, Qutlug' Nigorxonim** kabi ko'plab tarixiy shaxslar obrazi ham yaratilgan.

Zuhrabegimning bosqinchi xon «iltifoti»ga umid bog'lab, uning maktubidagi soxta “sevgi izhori”ga ishonib, huzuriga kelishining o'ziyoq bu ayol ma'naviy saviyasi qay darajada ekanini oshkor qiladi.

Asarda yozuvchi tarixiy manbalarda uchraydigan ayrim nom va dalillardan butun boshli tirik inson obrazi, sujet yo'nalishlarini yaratgan. Masalan, romanda **Tohir** degan obraz mavjud. Uning ham tarixiy asosi bor. Bobur Mirzo umrining oxirida toj-u taxtdan voz kechib, bir go'shada Tohir oftobachi bilan birga turmoqchi bo'lganini aytadi. Demak, Tohir unga ko'p yaxshiliklar qilgan, qadrdon bo'lib qolgan.

Asarda aytilishicha, Boburning maxsus taklifi bilan Hirotdan Agraga borayotgan **Mavlono Xondamir**, shoir **Shihob Muammiy** va mudarris **Ibrohim Qonuniy** uch oyga yaqin yo'l yurgan.

Romanda **Ko'chkinchixonning elchisi** Boburning butun mamlakatda may ichishni man etuvchi amri haqida “*bizga ma'qul kelmadi*” deb munosabat bildirgan.

Asarning boshqa qahramonlari quvidagilar: *No'yon ko'kaldosh, Qosimbek, Xo'ja Abdulla, Mazidbek, Eson Davlatbegim, Sherimbek, Yoqubbek, Mahmud, Mulla Fazliddin, Javhariy, Robiya (samarqandlik boy savdogar – Fozil tarxon bir hamyon oltinga sotib olgan andijonlik go'zal)* va boshq. Pirmiqul Qodirov «Yulduzli tunlar»ning mantiqiy davomi sifatida Boburning farzandi Humoyun va nabirasi Akbar

hayoti haqida hikoya qiluvchi «*Avlodlar dovoni*» romanini ham yaratgan.

«AVLODLAR DOVONI» romani haqida

Bu roman 1989-yilda nashr etilgan. Keyingi nashrlarda «Humoyun va Akbar» deb nomlangan. Asarda voqealar Bobur vafotidan soʻng Hind mamlakatida yuz beradi.

Romanga kiritilgan “*Nizomning tantiligi*” hikoyasida Nizom Hamida ismli goʻzal qizni yaxshi koʻradi, qiz ham bu qayiqchi yigitga koʻngil qoʻyadi. Humoyun ham Hamidabonu goʻzalligiga maftun boʻlib yurardi. Hikoyada Nizom suvga choʻkayotgan Humoyunni qutqaradi.

Asardagi toʻqima obrazlar *Nizom* va *Hamidadir*.

Romanda tasvirlanishicha, Humoyun 6 oy jang qilib, Chunorni qoʻlga kiritgan, Bangola esa 9 yildan beri Humoyunga qarashli edi. Asarda «*hind elining azaliy odati yomgʻir faslida sayohatga chiqmaslikdir*», deya taʼkidlangan.

Asar qahramonlari quvidagilar: *Humoyun* (u Nizomga qarata: “*Siz menga tugʻishgan inimdan ham aziroqsiz*” deb aytgan), *Hamidabonu*, *Nizom*, *Amir Bahlul*, *Bayramxon* (*Humoyunning mahrami*), *Mavludbek* (*Humoyunning mahrami*), *Beka begim* (*Humoyunning xotini*), *Chand bibi* (*Humoyunning xotini*), *Aqiqa begim* (*Humoyunning 6 yashar qizchasi*), *Tahmasp* (*qiyin ahvolga tushib qolgan Humoyunga yordam bergan shoh*), *Sherxon* (u asarda “*qoshlari qalin, koʻzlari koʻkish, qirra burun, kalta qirqilgan soqoli va qayrilma moʻylovi oʻziga juda yarashgan durkun gavdali*” deya taʼriflangan. “*Biz vatanimizni kelgindilardan ozod qilib, mustaqil davlat tuzmoqchimiz*” degan fikrni ham u aytgan), *Qutbxon* (*Sherxonning oʻgʻli*), *Jalolxon* (*Sherxonning oʻgʻli*), *Havasxon* (*Sherxonning lashkarboshisi*), *Bikramadit Gaur* (*rajputlar sarkardasi*), *Alvaro Pakavira* (*Sherxonning josusi*), *Laʼl Chand* va boshq.

OZOD SHARAFIDDINOV¹⁸⁸

(1929 – 2005)

“O‘ylaymanki, o‘zini o‘zbek xalqining farzandi degan har qaysi inson ana shunday fidoyi yurtdoshlarimiz bilan cheksiz faxrlanadi, unib-o‘shib kelayotgan bolalari, shogirdlariga ma‘naviy jasorat timsoli sifatida aynan mana shunday odamlarni namuna qilib ko‘rsatadi...”.

Islom Karimov, “Yuksak ma‘naviyat – yengilmas kuch” asaridan



O‘zbek adabiyotshunosligining yirik vakili **Ozod Sharafiddinov** 1929-yilning 1-martida Qo‘qon shahri yaqinidagi Oxunqaynar qishlog‘ida tavallud topgan. Ular oilada 4 farzand edilar. Adib yozishicha, onasi “alam va iztiroblar ichida hayotdan ko‘z yumganlar”.

Ozod Sharafiddinov Toshkent shahrida o‘rta maktabni tugallab, O‘rta Osiyo Davlat universiteti (hozirgi O‘zMU)ga o‘qishga kiradi va 1951-yilda uni bitiradi. Oradan uch yil o‘tar-o‘tmas, Moskvada nomzodlik dissertatsiyasini ham himoya qiladi.

Olim mehnat faoliyatining asosiy qismi o‘zi o‘qigan universitetda kechdi. U 1955–1995-yillar oralig‘ida, qariyb qirq yil mana shu ilm dargohida yoshlarga bilim va tarbiya berdi, minglab shogirdlarga beminnat ustozlik qildi.

Ozod Sharafiddinovning 1996 –1997-yillarda «Tafakkur» jurnali bosh muharriri o‘rinbosari, 1997-yildan «Jahon adabiyoti» jurnali bosh muharriri vazifalarida ishlagan kezlari ham nihoyatda barakali, sermahsul ijodiy yillar bo‘ldi. O‘nlab kitoblarida adib o‘zbek adabiyoti durdonalarini mohir zargar singari sinchiklab tahlil etdi, hali el nazariga tushmagan o‘nlab iste‘dodlarni kashf qildi.

Ozod Sharafiddinovning ko‘plab maqolalari adabiy jamoatchilik orasida birdan og‘izga tushar, turli katta-kichik

¹⁸⁸ Qarang: S.Olim va boshq. Adabiyot (Umumiy o‘rta ta‘lim maktablarining 8-sinfi uchun darslik-majmua). – T.: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, “O‘zbekiston” nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2010. – 267–271-betlar; O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi. 9-jild. – 693–694-betlar.

davralarning munozara mavzusiga aylanardi. Uning boshqalar nomini tilga olishga cho‘chib yuradigan Cho‘lpon, Fitrat singari ijodkorlar haqidagi maqolalari, e‘lon qilgan kitoblari shov-shuvlarga sabab bo‘lgandi. 1968-yili adib muharrirlik qilgan *“Tirik satrlar”* nomli to‘plam hamma joydan yig‘ishtirib olingandi.

Olinga Beruniy nomidagi O‘zbekiston Davlat mukofoti (1970), *«Mehnat shuhrati»* (1997), *«Buyuk xizmatlari uchun»* (1999) ordenlari va *«O‘zbekiston Qahramoni»* (2002) oliy unvoni berilgan.

Ozod Sharafiddinov 2005-yil 4-oktabrda vafot etdi. Uning oqila farzandlariga aytgan quyidagi so‘nggi so‘zlari avlodlarga vasiyatdek yangrab qoldi:

«Kitoblarimni asranglar, mening eng katta boyligim mana shu kitoblar edi...».

OZOD SHARAFIDDINOVNING IJODIY MEROSI

Ozod Sharafiddinovning 1962-yilda chop etilgan *«Zamon. Qalb. Poeziya»* nomli dastlabki kitobiyoq o‘zbek adabiyotshunosligiga juda o‘ktam bir ovoz kirib kelayotganidan darak bergandi.

Vatanimiz mustaqillikka erishgach, adib o‘z kitoblarida milliy mustaqillik yo‘lida kurashgan yirik tarixiy shaxslar to‘g‘risida eng so‘nggi haqiqatlarni bitdi.

MAOOLALARI: *«Zaharxanda qahqaha»* (1962), *«Hayotiylik jozibasi, sxematizm inersiyasi»*, *«Yurtin madhi bo‘ldi so‘nggi satri ham»* (1979), *«She‘r ko‘p, ammo shoir-chi?»* (1983), *«Bir tilda gaplashaylik»* (1987), *«Yo‘lboshchi»*, *«Mustaqillik me‘mori»*, *«Istiqlol jilolalari»* (1993) va boshq.

KITOBLARI: *«Adabiy etyudlar»* (1968), *«Yalovbardorlar»* (1974), *«Iste‘dod jilolari»* (1976), *«Birinchi mo‘jiza»*, *«Talant – xalq mulki»* (1979), *«Adabiyot – hayot darsligi»* (1980), *«Hayot bilan hamnafas»* (1983), *«Go‘zallik izlab»* (1985), *«Istiqlol fidoyilari»* (1993), *«Sardaftar sahifalari»* (1999), *«Ma‘naviy kamolot yo‘llarida»* (2001), *«Dovondagi o‘ylar»*, *«Ijodni anglash baxti»* (2004) va boshq.

TARJIMALARI: *L.Tolstoy «Iqrornoma», P.Koelo «Alkimyogar», A.Sevela «To'xtating samolyotni, tushib qolaman»* singari o'nlab yirik asarlari, yuzlab donishmandlarning ilmiy-falsafiy maqolalari va boshq.

**«O'LSAM, AYRILMASMAN QUCHOQLARINGDAN»
maqolasi haqida**

Ozod Sharafiddinovning ushbu maqolasida Vatan tushunchasiga batafsil va o'ziga xos usulda ta'rif berilgan.

Vatan haqidagi quyidagi fikrlar ham shu maqolada keltirilgan:
“Vatan tuyg'usi insonning o'zi bilan birga o'sib-ulg'ayadigan tuyg'u bo'lar ekan...”

...Siz bilan bizga Alloh O'zbekiston deb atalgan, tuprog'ida oltin gullaydigan, qishlarida bahor shivirlaydigan, tog' desa tog'i bor, bog' desa bog'i bor, har tongda bulbullar madhini o'qib tamom qilolmaydigan bir yurtni Vatan qilib bergan ekan, buning uchun o'zimizni BAXTLI deb bilmog'imiz kerak...”

IBROYIM YUSUPOV

(1929 – 2008)



Ibroyim Yusupov¹⁸⁹ 1929-yil 5-mayda Qoraqalpog'istonning Chimboy tumani Azot ovulida tug'ilgan. O'rta ma'lumot olgach, Qoraqalpog'iston pedagogika institutiga o'qishga kirgan va uni 1949-yil tugatgan. Adib 1961-yilgacha shu institutda til va adabiyot ilmidan dars beradi. U 1961–1962-yillarda «Amudaryo» jurnalining bosh muharriri, 1962–1965-yillarda N.

Dovqorayev nomidagi Tarix, til va adabiyot ilmiy-tekshirish institutida ilmiy xodim, sektor mudiri, 1965–1980-yillar

¹⁸⁹ *Qarang:* S.Ahmedov, R.Qo'chqorov, Sh.Rizayev. Adabiyot (Umumta'lim maktablarning 6-sinfi uchun darslik-majmua). II qism. – T.: Ma'naviyat, Cho'lpon nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2013. – 150–152-betlar; O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi. – T.: 2005. – 10-jild, 341-bet.

davomida Qoraqalpog‘iston Yozuvchilar uyushmasi raisi, 1980–1985-yillarda gazeta bosh muharriri, 1991–2000-yillarda Qoraqalpog‘iston Ma’naviyat va ma’rifat markazining raisi kabi vazifalarda ishlagan.

Shoirning dastlabki she‘rlari u institutda o‘qib yurgan paytlaridanoq e‘lon qilingan. Adib dramaturg va tarjimon hamdir. Uning tarjimalari «*Mangu buloqlar*» nomi bilan 1986-yilda nashr etilgan.

Ibroyim Yusupov Berdaq nomidagi Qoraqalpog‘iston Davlat mukofoti (1974), «O‘zbekiston Qahramoni» (2004) unvoni sovrindori, O‘zbekiston va Qoraqalpog‘iston xalq shoiridir (1975).

Adib 2008-yilda 79 yoshida vafot etgan.

IBROYIM YUSUPOVNING ADABIY MEROSI

SHE‘RLARI: «*Kun chiqish yo‘lovchisiga*», «*Qoraqalpoqni ko‘p maqtamang ko‘zimcha*», «*Qora tol*», «*Turnalar*», «*Mening yigit vaqtim...*», «*Qadrdon so‘qmoqlar*» (Bu she‘rda “Har kimning tug‘ilgan yeri – Misr shahri” maqoli epifraf qilib olingan. Shoir yog‘och – narvon bo‘lgan qo‘sh terakni farzandlari kelajagi uchun yelkasini tutib bergan ota-ona timsoli sifatida tasvirlagan. She‘rdagi “Bizning joylar o‘rni hozir paxtazor” misrasida sobiq sho‘ro davrining siyosati o‘z aksini topgan) va boshq.

DOSTONLARI: «*Akatsiya gullagan joyda*», «*Gilamchi xotin haqida haqiqat*», «*Dala armonlari*», «*Mangu buloq*» va boshq.

DRAMALARI: «*Qirq qiz*» (1965), «*Aktrisaning iqboli*» (1967), «*Umirbek laqqi*» (1971) va boshq.

LIBRETTOSI: «*Ajiniyoz*».

KITOBLARI: «*Buloqlar qaynaydi*» (1960), «*Oltin qirg‘oq*» (1962), «*Dala armonlari*» (1967), «*Cho‘l to‘rg‘ayi*» (1972), «*Qora tol*» (1988) va boshq.

XUDOYBERDI TO'XTABOYEV

(1932-yilda tug'ilgan)



O'zbek bolalar adabiyotining ko'zga ko'ringan vakili **Xudoyberdi To'xtaboyev** 1932-yil 17-dekabrda Farg'ona viloyatining Katta tagob qishlog'ida tug'iladi. Uning bolalik va o'smirlik yillari urush davriga to'g'ri keladi, u ota-onadan erta yetim qoladi va bobosi Erkaboy hamda buvisi Robiyabibilar qo'lida tarbiyalanadi.

Yozuvchi o'rta maktabni tugatib, dastlab Qo'qon pedagogika bilim yurtida (uni 1949-yilda tugatgan), keyin esa ToshDU filologiya fakultetining logika-psixologiya bo'limida (uni 1955-yilda tugatgan) tahsil oladi.

Xudoyberdi To'xtaboyev talabalik yillaridanoq badiiy ijodga qiziqadi. Dastlabki mehnat faoliyati davomida u Farg'ona viloyatining Bag'dod, O'zbekiston tumanlarida maktab o'qituvchisi, ilmiy bo'lim mudiri, maktab direktori lavozimlarida ishlaydi.

Adib 1958-yilda Toshkentga keladi va 12 yil davomida «Toshkent haqiqati», «O'zbekiston ovozi» (sobiq «Sovet O'zbekistoni») ro'znomalarida ishlaydi (bu vaqtda u 300 dan ortiq felyeton yozgan), keyin esa «Yosh kuch», «Gulxan», «Sharq yulduzi» oynomalarida, «Kamalak» nashriyotida, «*Oltin meros*» (1980–1998-yillarda) va «*Iste'dod*» jamg'armalarida faoliyat yuritadi.

Xudoyberdi To'xtaboyev «*O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan madaniyat xodimi*» unvoni (1982) va *Hamza nomidagi Davlat mukofoti* sovrindori (1989), *O'zbekiston xalq yozuvchisidir* (1991).

XUDOYBERDI TO'XTABOYEVNING IJODIY FAOLIYATI VA ASARLARI

Xudoyberdi To'xtaboyev ijodining dastlabki davridanoq hajvga, kulgiga moyil hikoya to'plamlarini, qissa va romanlarini yaratdi.

Yozuvchi 1970-yillar boshida o'z ijodiy faoliyatini bolalar hayotini keng tasvirlagan asarlar yaratishga yo'naltirgan. U, o'zi e'tirof etganidek, hozirgacha «bola va o'smir ruhidagi go'zallikni himoyalash»ga e'tibor berib kelmoqda.

Adibning *“Tagob qishloq ertaklari”* (2016), *“Qaylarda qolding, bolaligim”* (2016) asarlari ham o'ziga xos uslubda yozilgan.

HIKOYA TO'PLAMLARI: *«Shoshqaloq»* (1961, birinchi hikoyalar to'plami), *«So'qmoqlar»* (1966), *«Muhabbat qo'shig'i»* (1967), *«Jonginam, shartingni ayt»* (1969) va boshq.

OISSALARI: *«Sir ochildi»* (1963), *«Omonboy va Davronboy sarguzashti»* (1974), *“Yangi ohangda kuylayotgan viloyat”* (2013, hujjatli qissa) va boshq.

ROMANLARI: *«Sariq devni minib»* (1968), *«Sariq devning o'limi»* (1973), *«Besh bolali yigitcha»* (1976), *«Qasoskorning oltin boshi»* (1981), *«Yillar va yo'llar»* (1983), *«Sehrgarlar jangi yoki shirin qovunlar mamlakatida»* (1986), *«Mungli ko'zlar»* (1988), *«Jannati odamlar»* (1996), *“Qiz bolaga tosh otmang”* (2003), *“Qiz talashgan o'smirlar”* (2010), *“Quyvonlar saltanati”* (2013) va boshq.

«SARIQ DEVNI MINIB» asari haqida

«Sariq devni minib» romani 1968-yilda yozilgan bo'lib, u jami 24 tilga tarjima qilingan hamda italiyalik buyuk bolalar yozuvchisi Janni Rodarining tahsiniga sazovor bo'lgan.

Romanda Hoshimjonning sehrli qalpoqcha yordamida boshidan kechirgan ajoyib va g'aroyib sarguzashtlari bayon qilingan.

Bu asar asosida yaqinda badiiy film ham yaratildi.

Asarning asosiy qahramonlari quvidagilar: *Hoshimjon, Dono, Oysha, Mirobiddinxo'ja, Qosimjon, Polvontog'a, Akbar Nosirov*, maktab direktori *Otajon Azizovich, Sanobar* (*budkada sut-qatiq sotib o'tiradigan 10-«B» sinf o'quvchisi*) va boshq.

«Ertasiga birinchi qilgan ishim qishlog'imizda yashaydigan Soraxon folbinning ishlarini tekshirib ko'rish bo'ldi» parchasi ham shu asarda keltirilgan.

NAZARIY MA'LUMOT Sarguzasht asar haqida¹⁹²

Sarguzasht asarlarda favqulodda qiziq va g'aroyib voqealar, o'quvchini hayajonga soladigan tasvirlar mavjud bo'ladi, qahramonlari ko'z ko'rib, quloq eshitmagan voqealarni boshidan kechiradi. Bunday asarlarda biroz mubolag'a, biroz fantastik tasvir ustunlik qilgani uchun ularni o'quvchilar hayajon bilan mutolaa qiladilar.

Misollar: *Jonatan Svift «Gulliverning sayohatlari»*, *Daniel Defo «Robinzon Kruzo»*, *Jyul Vern «O'n besh yoshli kapitan»*, *A.Navoiy «Farhod va Shirin»*, *X. To'xtaboyev «Sariq devni minib»* va boshq.

XAYRIDDIN SALOH¹⁹¹ (1934 – 1969)



Shoir **Xayriddin Saloh** (Salohiddinov) 1934-yilning 15-yanvarida Toshkentda tug'ilgan.

Maktabda o'qib yurgan davridayoq Xayriddin keksa shoir G'ayratiy rahbarlik qilgan adabiyot to'garagida bo'lajak shoir Erkin Vohidov, Yusuf Shomansur, Sayyor singari tengdoshlari bilan ijod sirlarini o'rgangan.

190

¹⁹¹ Qarang: Q.Yo'ldoshev, B.Qosimov, V.Qodirov, J.Yo'ldoshbekov. Adabiyot (umumiy o'rta ta'lim maktablarining 7-sinfi uchun darslik-majmua). – T.: Sharq, 2013. – 336–337-betlar; C.Mirvaliyev, R.Shokirova. O'zbek adiblari. – T.: Fan, 2007. – 143-144-betlar.

U o'rta maktabni tugatib, Toshkent davlat pedagogika instituti (hozirgi TDPU)ning tarix-filologiya fakultetiga o'qishga kiradi va uning kechki bo'limini 1957-yilda tugatadi. Shundan so'ng shoir «O'zbekiston madaniyati» gazetasi, «G'uncha», «Gulxan» jurnallarida adabiy xodim bo'lib xizmat qiladi.

Serqirra ijodkor Xayriddin Saloh 1969-yilning 5-iyunida vafot etgan.

XAYRIDDIN SALOHNING ADABIY MEROSI

Xayriddin Salohning ilk she'ri 1950-yilda bosilib chiqqan.

Adib *Bayron, Heyne, Lermontov, Shevchenko, Hamzatov* singari mashhur shoirlarning ko'plab asarlarini o'zbek tiliga tarjima qilgan.

SHE'RLARI: *“Yulduzlar afsonasi”* (Bu she'rda Hulkar yulduzining suluv qizi haqida afsona aytilgan. Qiz yuziga boqmoq uchun quyosh va oy talpinarkan, hatto sho'x soy unga ko'zgu bo'lishni, yellar yuzlarini silashni istarkan. Yetti tund qarog'chi bu qizchani o'g'irlabdi, Hulkar qizini rosa qidiribdi. Oy unga bo'lgan voqeani aytib beribdi. Shundan beri Hulkar yetti tund qarog'chini quvsa, ular qocharkan, oltitasi uxlasa, hiri poyloqchilik qilarkan...), *“Ko'krak ochdim shamollarga”*, *“Yer va Ter”* (bu she'rda shoir insonni yerga manglay terini to'kmaganda, non kabi ulug' bo'lmas edi, deb yozgan) va boshq.

SHE'RIY TO'PLAMLARI: *«Chashma»* (1959), *«Ikkinchi imtihon»* (1961), *«Ishqim va rashkim»* (1965), *«Tug'yon»*, *«Na'matak»* (1969), *«Izlar va hislar»* (1974), *«Shu'lalar qo'shig'i»* (1975), *«Lirika»* (1985) va boshq.

DOSTONLARI: *«Laylo»*, *«Yangroq hayot»*, *«Toshkent bilan suhbat»* va boshq.

O'LMAS UMARBЕКOV

(1934 – 1994)



O'lmas Umarbekov 1934-yil 25-yanvarda Toshkentda tug'ilgan. U Abdulla Avloniy asos solgan 40-o'rta maktabni tugatgach, ToshDUning filologiya fakultetiga o'qishga kiradi.

Talabalik davridayoq xabar, maqola, lavha va ocherklar yozgan bo'lajak adib badiiy asarlar yozish bilan birga ijtimoiy-siyosiy faoliyat bilan ham shug'ullangan.

1956-yilda Respublika radiosida muharrir sifatida ish boshlagan O'lmas Umarbekov 1971-yilgacha bo'lgan davr ichida bosh muharrirgacha bo'lgan yo'lni bosib o'tdi. 1971–1974-yillarda O'zbekiston kompartiyasi Markaziy qo'mitasida sektor mudiri, 1974–1981-yillarda «O'zbekfilm» kinostudiyasi direktori, 1982–1986-yillarda Madaniyat vazirining birinchi o'rinbosari, 1987–1989-yillarda O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi raisi, 1989–1991-yillarda respublika Bosh vazirining o'rinbosari kabi o'ta mas'ul lavozimlarda mehnat qildi¹⁹².

O'zbekiston xalq yozuvchisi (1992) O'lmas Umarbekov 1994-yil 10-noyabrda og'ir xastalik tufayli vafot etgan.

O'LMAS UMARBЕКOVNING IJODIY FAOLIYATI VA ADABIY MEROSI

O'lmas Umarbekov badiiy ijodini hikoyachilikdan boshlagan. Adibning 20 dan ortiq kitobi turli tillarda nashr etilgan.

Yozuvchining kinossenariylari asosida *«Yigit va qiz»*, *«Asosiy kun»*, *«Ikki soldat haqida qissa»*, *«O'zgalarni deb»*, *«Qalin qorlar bag'ridagi uchrashuv»*, *«Changalzordagi ov»* kabi qator badiiy filmlar suratga olingan. Uning *«Komissiya»*, *«Qiyomat qarz»*, *«Kuzning birinchi kuni»*, *«Arizasiga ko'ra»*

¹⁹² Qarang: Q.Yo'ldoshev, B.Qosimov, V.Qodirov, J.Yo'ldoshbekov. Adabiyot (Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 7-sinfi uchun darslik-majmua). – T.: Sharq, 2013. – 77–80-betlar.

kabi sahna asarlari tomoshabinlar e'tiborini qozongan.

HIKOYALARI: *“Xatingni kutaman”* (1956, ilk hikoyasi, *“Yilning eng yaxshi hikoyasi”* sifatida tan olinib, maxsus mukofot bilan taqdirlangan), *“Hayot qo'shig'i”*, *“Sovg'a”*, *“Qiyomat qarz”* va boshq.

HIKOYA TO'PLAMLARI: *«Hikoyalar»* (1959), *«Qishlog'imiz kishilari»* (1960), *«Yulduzlar»* (1962), *«Charos»* (1962), *«Bolgar qo'shiqlari»* (1966), *«Ko'prik»* (1968), *«Oltin yaproqlar»* (1970), *«Qiyomat qarz»* (1976, shu nomli hikoyaning asosiy qahramoni Sarsonboy ota), *«Yer yonganda»* (1993) va boshq.

OISSALARI: *«Sevgim, sevgilim»* (1963, bu qissa Abdulla Qahhor tomonidan yuksak baholangan. Shu asardan boshlab milliy adabiyotimizga fojia tasviri qayta kirib kelgan. Adolatsiz tuzum mamlakatning eng chekkasida yashayotgan siyosatdan yiroq oddiy kishilar taqdirida ham fojiali iz qoldirishi mumkinligi asarda ta'sirli aks ettirilgan), *«Kimning tashvishi yo'q»* (1965), *«Urush farzandi»* (1972), *«Damir Usmonovning ikki bahori»* (1978), *«Cho'li iroq»* (1971), *«Yoz yomg'iri»* (1973, detektiv yo'nalishda), *«Oq qaldirg'och»* (1974, adibning shunday atalgan hikoya va qissalar kitobiga nom qo'yishda bulg'or adabiyotining namoyandasi Emin Pelikning shu nomli asari sabab bo'lgan), *«Jo'ra qishloq»*, *«Qizimga maktublar»* (1994, publitsistik xotira-qissa) va boshq.

ROMANLARI: *«Odam bo'lish qiyin»* (1970, ilk romani. Asosiy qahramonlari Gulchehra va Abdulla), *«Fotima va Zuhra»* (Bu asarda milliy ma'naviyatimizdagi bir kemtiklik sarguzasht yo'sinida aks ettirilgan. Asarda halol o'qituvchi Abdullajonning erka o'g'li Hamidullaning jinoyatchilar to'dasiga qo'shilib qolishi, ko'knori iste'mol qilishi, qimor o'yini oqibatida singlisi Fotimani boy berishi ketma-ket fojialarga yo'l ochadi) va boshq.

DRAMALARI: *«Sud»* (1970), *«Komissiya»* (1971), *«Qiyomat qarz»* (1974), *«Shoshma, quyosh»* (1978), *«Kuzning birinchi kuni»* (1979), *«Arizasiga ko'ra»* (1981), *«Oqar suv»* (1982), *«Kurort»* (1984), *«Yer yonganda»* (1993), *«Oqsoqol»*, *«Yoshlik dengizi»* va boshq.

KINOSSENARIYLARI: «*Sevgi afsonasi*» (1972), «*Changalzor qonuni*» (1973), «*Ikki soldat haqida qissa*» (1973), «*Yigit va qiz*» (1974), «*Yuksak qorliklardagi uchrashuv*» (1975), «*O'zgalar uchun*» (1977) va boshq. Ushbu va boshqa bir qator kinossenariylar bilan adib milliy kinomatografiyamiz taraqqiyotiga sezilarli ta'sir ko'rsatgan.

TO'RA SULAYMON (1934 – 2005)



Shoir To'ra Sulaymon 1934-yil 15-fevralda Jizzax viloyatining Baxmal tumanida tug'ilgan. Otasi Sulaymonqul quloq sifatida qamoqqa olinadi va qamoq muddatini o'tab qaytgach, 1939-yilda Sirdaryoning «Malik» deb atalmish go'shasiga ko'chib boradi. 1952-yilda o'rta maktabni shu yerda tugatgan To'ra bir necha yil cho'l maktablarida fizika, matematika, geografiya kabi fanlardan dars beradi. U ToshDUning o'zbek filologiyasi fakultetiga sirdan o'qishga kirib, uni 1964-yilda tugatadi, Guliston tumani maktablarida ona tili va adabiyotdan dars beradi.

To'ra Sulaymon «Guliston», «Sirdaryo haqiqati» gazetalarida faoliyat yuritadi. O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi Sirdaryo viloyati bo'limining mas'ul kotibi, keyin esa adabiy maslahatchi lavozimlarida ishlaydi.

«O'zbekiston xalq shoiri» (1999) unvoniga sazovor bo'lgan shoir To'ra Sulaymon 2005-yilda 71 yoshida vafot etdi.

TO'RA SULAYMONNING ADABIY MEROSI

To'ra Sulaymonning dastlabki she'rlari 1958-yilda nashr qilingan. Uning qator she'rlari xonandalar tomonidan qo'shiq qilingan, matbuotda uning she'riyat, adabiyotshunoslik va kunning dolzarb mavzulariga oid ko'plab maqolalari chop etilgan.

SHE'RLARI: «*Itijo*» (Bu she'rda har bir fasl nomida ramziylik bor. Unda Bahor – Vatan, barcha tiriklikka jon ato

etguvchi muqaddas yurt timsoli hamdir), «Armon» (Bu she'rdagi shoir odam bolasi ikki dunyo orasida muallaq qolmaslikni istasa, Yerga – o'zi singari odamlarga va Osmonga – o'zini yaratgan qudratga suyanmog'i lozimligini birgina misrada ifoda etadi, u ko'nglida yotgan armonni cho'kib qolgan nortuyaga, quyosh nuri tushmaydigan joydagi erimagan qorga, ulab bo'lmas torga va buzilgan ro'zg'orga qiyoslagan), «Tavallo» va boshq.

DOSTONLARI: «Qorasoch» (1965), «Jahongashta» (1970) va boshq.

KITOBLARI VA TO'PLAMLARI: «Istar ko'ngil» (1962, birinchi kitobi), «Men qayga borar bo'lsam» (she'riy to'plam), «Hamqishloqlarim» (1973, maqolalar to'plami), «Intizor» (1973, to'plam), «Sirdaryo qo'shiqlari» (1974), «Iltijo» (1976), «Alhazar» (1976, satirik va yumoristik asarlar to'plami), «To'yboshi» (1977), «Sizni eslayman» (1980), «Qora ko'zginam» (1981), «Gulshan» (1988), «Sarvinoz» (1989), «Xarsang» (1984), «Jahonnoma» (1996), «Gul bir yon, chaman bir yon» (1996), «Yov qochdi» (1998) va boshq.





39-MAVZU. MUSTAQILLIK DAVRI O'ZBEK ADABIYOTI HAQIDA¹⁹³

XX asrning 90-yillarida istiqloq adabiyoti deb ataladigan estetik hodisa yuzaga keldi. Mustaqillik davrida milliy adabiyot millat ahlining ko'nglini, ruhiyatini tasvirlashga e'tibor qaratmoqda. Buning natijasida INSON asosiy badiiy qadriyatga aylandi.

Mustaqillik davri o'zbek adabiyoti tubdan o'zgargan milliy ong va tamomila yangilanayotgan estetik tafakkurning mahsulidir.

Bu yillarda o'zbek adabiyotida o'nlab ijodkorlar merosi qayta nashr etildi, ilmiy-estetik tahlilga tortildi. 1980–1990-yillar oralig'ida *A.Oripovning «Ranjkom»*, *Omon Matjonning «Qush yo'li»*, *«Nega men?»*, *U.Azimning «Oqpadar»*, *M.Yusufning «Qora quyosh»*, *I.Otamurodovning «Uzoqlashayotgan og'riq»*, *M.Murodovanning «Chaqmoq izidan»*, *E.Shukurning «Ibtido xatosi»* kabi o'nlab dostonlari, *Abduqahhor Ibrohimovning «Puch»*, *Shukrulloning «Unsiz faryod»*, *Hamid G'ulomning «Bir million fojiasi»*, *Haydar Muhammadning «Xotinlar «gapi»dan chiqqan hangoma»* kabi drama va komediyalari chop etildi.

Tarixiy mavzuda ham bir qator yangi asarlar yozildi. *Turob To'laning «Nodirabegim»*, *Salohiddin Sirojiddinovning «To'maris»*, *Shukur Xolmirzayevning «Qora kamar»*, *Shuhrat Rizayevning* Navoiyning «Saddi Iskandariy» dostoni asosida yaratgan *«Iskandar»* pyesalari shular jumlasidandir.

¹⁹³ *Qarang:* N.Karimov va boshq. Adabiyot (Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 11-sinfi uchun darslik). – T.: O'qituvchi, 2004. – 252–261-betlar; N.Karimov va boshq. XX asr o'zbek adabiyoti (11-sinf uchun darslik). – T.: O'qituvchi, 2002. – 373–388-betlar; Q.Yo'ldoshev va boshq. Adabiyot (Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 9-sinfi uchun darslik-majmua). – T.: Yangiyo'l Poligraph service, 2014. II qism. – 183–197-betlar.

MUSTAQILLIK DAVRI O‘ZBEK SHE‘RIYATI

She‘riyat bugungi kunda ham milliy adabiyotimizning yetakchi turi bo‘lib qolmoqda. *Abdulla Oripov, Rauf Parfi, Omon Matjon, Halima Xudoyberdiyeva, Shavkat Rahmon, Azim Suyun, Usmon Azim* (u o‘z she‘riy kitoblaridan biriga «Insonni tushunish» deb nom bergan), *Ikrom Otamurod, Abduvali Qutbiddin, Farida Afro‘z, Aziz Said, Muhammad Yusuf, Faxriyor, Bahrom Ro‘zimuhammad, Rauf Subhon, Iqbol Mirzo, Zebo Mirzo, Tursun Ali, O‘ktamoy, Xosiyat Rustamova* singari shoirlarning she‘rlarida olamni poetik idrok etish yangi bosqichga ko‘tarilgani namoyon bo‘ladi.

R.Parfining «Adashgan ruh», «Qora devor», «Munojot», «Sensiz», Sh.Rahmonning «Turkiylar», «Iqror», A.Suyunning «Istig‘for», «Oq va qora», A.Qutbiddinning «Izohsiz lug‘at», A.Saidning «Tush», «Yo‘l», Faxriyorning «Ayolg‘u», «Bo‘g‘zimdan sirqirar tovush – qon...», «Oyloq kecha...» she‘riy asarlari mustaqillik davri o‘zbek nazmining yetuk namunalari hisoblanadi.

Abduvali Qutbiddinning «Izohsiz lug‘at» nomli dostoni o‘zbek adabiyotida jiddiy hodisa bo‘lgan asardir. «*Izohsiz lug‘at*» dostoni o‘zida ijtimoiy va shaxsiy ruhiy kayfiyatni yaxlit, tabiiy sintez shaklida aks ettira olgani bilan, ayniqsa, qimmatlidir. Bunga shoir qanday erisha olgan? Bu savolga eng to‘g‘ri javob ham asarning o‘zida bor:

Ertadan kechgacha toatim-ibodatim so‘zga,
Itoat ko‘ngilga, muhabbatim gulga.
Xayolim farishtaday Kibriyo avjlari sari boshlaydi...

A.Qutbiddinning ushbu asari 1980–1990-yillar adabiyotida an’anaviy dostonchilik namunalari barcha jihatlar bilan farq qiladigan, zohiriy voqealar tizimi sujet chizig‘ini tashkil qilmay, balki shoir tafakkuri va his-tuyg‘ulari almashuvidan paydo bo‘ladigan ruhoniylashtirilgan kuzatiladigan asardir.

Taniqli shoira Zebo Mirzo bir she‘rida shunday yozadi:

Umrinni o'tkinchi saboga berdim,
Eng so'nggi chaqamni gadoga berdim,
Bu telba ruhimni Xudoga berdim...

Sabo olib bordi, gadoga berdi
Gado yig'ib bordi, Xudoga berdi.
Xudo meni senga – xatoga berdi,
Sen meni kimlarga berding, Azizim?

Bu she'rda o'y va ko'ngil odaming o'z umri davomida bosib o'tadigan uzun yo'lidagi asosiy bekatlar aks etgan deyish mumkin.

Faxriyorning “Osmon yaratganning...” deb boshlanadigan she'rida shoirning falsafiy o'ylari oziga xos yo'sinda aks etgan. She'rdagi *“Ko'ngilga dog' berdi, diydalarga – yosh”, “Kuymoqqa dil berdi, suymoqqa – ayol. Cho'kmoqqa tiz berdi, egmoq uchun – bosh”, “Jon berdi ayolga etguday nisor, Uni deb yonmoqqa – sham kabi hayot”, “Yaralmay qolgani birgina visol”* kabi misralarda o'ta nozik tuyg'ular va sezimlar aks etgan.

Milliy she'riyatimizda ikki so'zdangina iborat she'rni ham **Faxriyor** yaratdi:

oy
bolta

Bu ikki so'z o'quvchini o'ylashga, ular ustida mushohada yuritishga undaydi. Bunday she'r milliy poeziyamizda hech qachon bo'lmagan. **Faxriyor A.Navoiy** qo'llagan *«Hey tulugim, hey tulum»* so'zini ham hozirgi zamon o'zbek she'riyatida qo'llagan shoirdir.

Bahrom Ro'zimuhammadning tinish belgilarini qo'llash qoidalariga amal qilinmay yozilgan quyidagi misralarini darak, so'roq yoki undov ohangida o'qish she'rxonning o'ziga havola etilgan:

men qanday yashashim lozim
qanday bo'lsam sizga yoqaman
qaysi usulda yozsam she'rlarimni o'qiysiz
aruzdami barmoqdami sarbastdami yo

Bahrom Ro'zimuhammad yana bir she'rida shunday yozadi:

**Ko'zdan ichkarida yo'l yo'q
So'zdan ichkarida yo'l yo'q
Ammo xo'roz qichqirig'i ortida
Shafaqrang qishlog'im bekinib olgan.**

Bunda ijodkorning chigal kayfiyati aks etgan, shoirning alohida ruhi, o'zigagina xos nuqtayi nazari sezilib turadi.

**Bu dunyoga bir qo'shiq,
Berib ketgin, shoirim –
Marhumlar uyg'onsinlar,
Uxlolmasin tiriklar.**

(Usmon Azim)

Bu to'rt misrada shoir o'z zamondoshlarining badiiy jihatdan yuksak, ta'sirli, umrboqiy she'rlar yozishga chaqirayotgandek taassurot qoldiradi.

Quyidagi she'riy asarlar ham she'riyatimizning go'zal namunalaridir:

Jamol Kamol «*Asr bilan vidolashuv*», Oydin Hojiyeva «*Ona tilimga alyor*», «*Istiqlol tarixning imtihonidir*», «*Mustaqil vatanni baxt nuri chaysin*», Halima Xudoyberdiyeva «*Dorilamon kunlar keldi...*», «*«Uyg'on» so'zin aytgach...*», Usmon Azim «*Grafika*», «*Baxshiyona*», «*Navoiy*», «*Qush*», Xurshid Davron «*Men ko'ksingga boshimni qo'ydim*», Mahmud Toir «*Momo yer*», Yo'ldosh Eshbek «*Ona duosi*», «*Qo'shchi qo'shig'i*», Mirzo Kenjabek «*O'zbekiston*», «*O'q*», «*Yutqiziq*», Sirojiddin Sayyid «*Vatan*», «*Egasi bor yurt*», «*Vatan nadir*», «*Biz ovqatlanamiz*», Zulfiya Mo'minova «*Ayolga baxt hering*», «*Muhabbat bor edi, muhabbat mavjud*», Iqbol Mirzo «*O'zbek*», «*Aytgil, do'stim*», «*Bu dunyoga kelganim – ...*», Rustam Musurmon «*Vatanim*», Ulug'bek Hamdam «*Ijodkor qismati*», «*San'at...*», «*Munojot*», Faxriyor «*Kechinma*», Halima Ahmedova «*O'g'limga darsliklar*», Zebo Mirzo «*Vatan*» va boshq.

Shoir **Iqbol Mirzo** o'z zamondoshlariga qarata quyidagicha murojaat qilgan:

**Buncha bino qo'yma zarrin choponlarga,
Saratonda yaproq bo'lg'in dehqonlarga.
Suyangani tayoq bo'lg'in cho'ponlarga,
Aytgil, do'stim, nima qildik Vatan uchun?**

O'zbek she'rxonlarida ham murakkab mavhum obrazlilikka to'la she'riyatdan ham, tasavvufona munojotlardan ham, *poetik mim* deyish mumkin bo'lgan ramziy ifodalardan ham, **meditativ nazm** (hissiyot jilvalari aks etgan she'riyat) namunalaridan ham ta'sirlanish va ularni baholay olish ko'nikmalari shakllanib bormoqda¹⁹⁴.

MUSTAQILLIK DAVRI NASRI

Istiqlol davrida ham **nasr** adabiy jarayonning salmoqli turi bo'lmoqda. Adabiy jarayonda *Sh.Xolmirzayev, O'.Hoshimov, Omon Muxtor, Muhammad Ali, Tohir Malik, Tog'ay Murod, Murod Muhammad Do'st, Asad Dilmurod, Normurod Norqobilov, Xurshid Do'stmuhammad, Ahmad A'zam, Nazar Eshonqul, Ulug'bek Hamdam, Luqmon Bo'rixon, Zulfiya Qurolboy qizi* singari ijodkorlar o'ziga xos yo'sinda qalam tebratib, milliy nasr taraqqiyotini ta'minladilar va ijod qilishda davom etmoqdalar.

O.Muxtorning «Ming bir qiyofa», «Ko'zgu oldidagi odam», «Tepalidagi xaroba», «Ffu», «Ayollar saltanati va mamlakati», «Maydon», «Alisher Navoiy va rassom Abulxayr» romanlari, *Nazar Eshonqulning «Qora kitob»* qissasi, *«Shamolni tutib bo'lmaydi», «Tobut shahar», «Quyun», «Qultoy», «Bahoviddinning iti»* hikoyalari, *Luqmon Bo'rixonning «Jaziramadagi odamlar», Salomat Vafoning «Tilsim saltanati», «Ovoraning ko'rgan-kechirganlari», Abdurashid Nurmurodning «Qon hidi», T.Rustamovning*

¹⁹⁴ Q.Yo'ldoshev va boshq. Adabiyot (Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 9-sinf uchun darslik-majmua). – T.: Yangiyo'l Poligraph service, 2014. II qism. – 191-bet.

“*Kapalaklar o‘yini*” kabi romanlari insonga yondashuvning yangichaligi, tasvirning quyuqligi, inson ruhiyati qatlamlarini aks ettirish miqyosining kengligi va ifoda tarzining favquloddaligiga ko‘ra milliy adabiyotimiz uchun yangi badiiy hodisalar bo‘ldi.

Ulug‘bek Hamdamning “Muvozanat”, “Isyon va itoat”, “Sabo va Samandar” romanlari qahramonlar ruhiy olamini tasvirlash jihatidan yangilik bo‘ldi.

Nazar Eshonqulning «Shamolni tutib bo‘lmaydi» hikoyasi, *Ulug‘bek Hamdamning «Yolg‘izlik»* qissasi nasrimizda ifoda yo‘sini va tadqiq etish ko‘lamiga ko‘ra yangi asarlar hisoblanadi.

«*Yolg‘izlik*» qissasida o‘y-xayollarning tartibsiz va noizchil oqimini berishning o‘zi uning badiiy maqsadiga aylangan. Bu asar aslida o‘ychil inson tafakkuri va hissiyoti manzaralarini namoyon etuvchi asardir¹⁹⁵.

Sh.Xolmirzayev «Olabo‘ji», «Dinozavr» romanlari, *«Bulut to‘sgan oy»* qissasi, *«Ozodlik», «Navro‘z, navro‘z»* hikoyalarida, *N.Norqobilov «Oqbo‘yin», «Qoyalar ham yig‘laydi», «Tog‘ odami»* qissalari, *«Oriyat», «Quvonchli kun»* hikoyalarida, *Sh.Bo‘tayevev «Sho‘rodan qolgan odamlar»* qissasi, *«Darvesh»* hikoyasida, *Tog‘ay Murod «Otamdan qolgan dalalar»* romanida, *A.A‘zamning “Shoirning to‘yi”, “Chapaklar va chalpapaklar mamlakati”* qissalarida nasrning an‘anaviy tasvir yo‘sinidan mahorat bilan foydalana bildilar.

Sh.Xolmirzayevning «Dinozavr», Tog‘ay Murodning «Otamdan qolgan dalalar» mustaqillik davrining birinchi o‘n yilligida yaratildi.

A.Muxtor («Chodirxayol», unda milliy va ma‘naviy manqurtlik holati tuproq va qum ostida qolib ketgan o‘radagi odamlar ruhiyati orqali ifodalangan), *Sh.Xolmirzayev («Ko‘k dengiz»)*, *X.Sultonov («G‘ulomgardish», «Ko‘ngil ozodadur», «Yozning yolg‘iz yodgori»)*, *E.A‘zamov («Bog‘bolalik Ko‘kaldosh», «Javob»)*, *X.Do‘stmuhammad («Bozor», «Jajman», «Oromkursi»)*, *N.Otaxonov («Oq bino oqshomlari»)*, *O.Otaxonov («Uchinchi qavatdagi sariq*

¹⁹⁵ Q.Yo‘ldoshev va boshq. Adabiyot (Umumiy o‘rta ta‘lim maktablarining 9-sinfi uchun darslik-majmua). II qism. – T.: Yangiyo‘l Poligraph service, 2010. – 193-bet.

deraza»), N.Eshonqulov («Maymun yetaklagan odam», «Quyun», «Tobut», «Xaroba shahar suvrati» singari hikoyalari), Sh.Xamroyev («Suratdagi ayol»), M.M.Do'st («Iste'fo», «Bir toychoqning xuni», «Galatepaga qaytish», «Lolazor», Erkin A'zamov («Otoyining tug'ilgan yili», «Javob» va boshq.) kabilar ham nasrimiz rivojiga katta hissa qo'shganlar.

Nazar Eshonqulning jahon prozasining eng ilg'or tajribalari asosida sof milliy obrazlar yarata olgan asarlari «Qora kitob» qissasi, «Shamolni tutib bo'lmaydi» (hikoya qahramoni Bayna momo), «Tobut shahar», «Quyun», «Qultoy», «Bahoviddinning iti» hikoyalari.

Zamonaviy romanchiligimizning eng jiddiy yutuqlari, shubhasiz, Murod Muhammad Do'stning «Lolazor» va Tog'ay Murodning «Otamdan qolgan dalalar» asarlaridir.

Sh.Bo'tayevning «Sho'rodan qolgan odamlar» qissasi, A.Yo'ldoshevning «Puankare», J.Ergashevaning «Tanazzul», Zulfiya Qurolboy qizining «Tafakkur» hikoyalari ma'naviyatdan mahrum, manqurtga aylangan, o'zligidan ayrilgan kimsalarning qismati tasvirlangan.

Quyida keltirilgan asarlar ham nasrimizning go'zal namunalaridir:

Muhammad Ali «Ulug' saltanat» epopeyasi, Murod Muhammad Do'st «Dasht-u dalalarda» (hikoya), Xurshid Do'stmuhammad «Beozor qushning qarg'ishi» (1995, hikoya), Erkin A'zamov «Ko'k eshik» (hikoya), Shoyim Bo'tayev «Hisomiddin al-Yog'iy» (tarixiy hikoya), Normurod Norqobilov «Olim o'g'il» (hikoya) va boshq.

MUSTAQILLIK DAVRI DRAMATURGIYASI

Mustaqillik davri o'zbek dramaturgiyasida o'zbekona turmushning eng muhim qirralari, milliy qadriyatlar va urf-odatlar talqini alohida aks ettirilmoqda. O'zbek milliy tafakkurida sodir bo'lgan yangilanishlar dramaturgiya taraqqiyotiga ham jiddiy ta'sir ko'rsatdi.

Usmon Azimning «Bir qadam yo'l», Erkin Samandarning «Arabmuhammad Bahodirxon» (bu tragediyada o'z

otalarining ko'zlariga mil tortish darajasida yirtqich bo'lgan farzandlarning tubanliklari ta'sirli yo'sinda ko'rsatib berilgan), *Ilhom Hasanning «Bir kam dunyo»*, *Abdulla A'zamning «Dugohi Husayniy»*, *«Jek London hikoyasidan so'ng»*, *O.Yoqubovning «Bir koshona sirlari»*, *«Fotih muzaffar yoki bir parivash asiri»*, *To'ra Mirzoning «Amir Temur»*, *Abdulla Oripovning «Sohibqiron»*, *Hayitmat Rasulning «Piri koinot»*, *Yo'ldosh Sulaymonning «Al-Farg'oniy muhabbati»*, *Ibrohim Rahimning «Farg'ona farzandi»* kabi asarlari hozirgi o'zbek dramaturgiyasida erishilgan yutuqlardan bo'ldi. Milliy istiqlol yillarida bozor iqtisodi taraflariga eng ko'p berilgan badiiy tur ham dramaturgiya bo'ldi.

Usmon Azimning «Bir qadam yo'l» dramasida inson ko'ngil mayllariga e'tiborsizlik, vaqtida odamni qadrlamaslik singari jihatlar keksa kishining murakkab taqdiri misolida ko'rsatib berilgan. Samarqandni ko'rish, uni ziyorat qilishni bir umr orzu qilgan, ammo vaqtida qo'lining kaltaligi, keyinchalik turmush tashvishlari bilan ovora farzandlarning e'tiborsizligi tufayli yonginasidagi shaharni ko'rmay o'tib ketgan qariya va uning atrofida ruhiyati asarda ulkan mahorat bilan ifodalangan.

Erkin A'zamning **«Tanho qayiq»** ("Orol bobodan dramatik rivoyat") asarida hozirgi davrdagi ekologik muammolardan biri – Orol muammosi haqida so'z boradi.

2000-yillar o'zbek adabiyotida **komediya** janriga oid asarlar jiddiy estetik xavfni paydo qildi. Chunki komediyalarga ko'cha so'zlari, hissiyoti, tiyiqsiz chuchmallik, pardasizlik o'ta surlik bilan kirib keldi.





40-MAVZU.
MUSTAQILLIK DAVRI O'ZBEK ADABIYOTI
NAMOYANDALARI

ERKIN VOHIDOV
(1936 – 2016)

Ona tilimizdagi ipakdek mayin, kamalakdek rang-barang, g'oyat nozik lutf, beozor qochirimlar, goh hazin, goh samimiy tabassum uyg'otuvchi tashbehlar, o'tkir xulosalar – bular bari ulkan shoirimiz qalamiga mansub betakror fazilatlaridir.

A.Oripov



O'zbekiston xalq shoiri, she'riyatning ham barmoq, ham aruz, ham sarbast vaznlarida birdek yuksak saviyada ijod qilib kelayotgan adib **Erkin Vohidov** 1936-yil 28-dekabrda Farg'ona viloyatining Oltiariq tumanida muallim oilasida tug'ilgan. Otasi Cho'yanboy (u Ikkinchi jahon urushidan og'ir jarohat bilan qaytib, 1945-yilda vafot etgan), onasi Roziyaxon davrning obro'-e'tiborli, ma'rifatli kishilari edi.

Ota-onadan erta yetim qolgan Erkin toshkentlik tog'asining qo'lida qoladi. Shoir G'ayratiy tomonidan O'quvchilar saroyida tashkil etilgan adabiy to'garak Erkin Vohidovning kitobga, adabiyotga bo'lgan havasini yanada oshirgan, u 15–16 yoshlaridanoq ancha pishiq she'rlar yoza boshlagan.

Erkin Vohidov 1955-yil o'rta maktabni (shoir maktabni oltin medal bilan tugatgan), 1960-yil ToshDU (hozirgi O'zMU) ning filologiya fakultetini tugatadi.

Shoir «Yosh gvardiya» nashriyotida (1960–1963, 1975–1982), Gʻafur Gʻulom nashriyotida (1963–1970) ishlaydi. U «Yoshlik» oynomasiga boshchilik qiladi, Oshkoralik qoʻmitasi rahbari, Respublika adiblar ittifoqi boshligʻi, senat aʼzosi boʻlgan.

Adib «*Buyuk xizmatlari uchun*» ordeni va «*Oʻzbekiston qahramoni*» unvoni bilan taqdirlangan.

Xalqimizning suyuqli shoiri Erkin Vohidov 2016-yil 30-mayda 79 yoshida vafot etdi.

ERKIN VOHIDOVNING IJODIY FAOLIYATI VA ASARLARI

7-sinfda oʻqib yurganida «Mushtum» jurnalida Erkin Vohidovning birinchi sheʼri bosiladi. Uning birinchi sheʼrlar toʻplami 1961-yilda «*Tong nafasi*» nomi bilan talabalik yillaridayoq chop etilgan.

Shoir bolalik xotiralarini eslab, oʻz tarjimai holda quyidagilarni yozgan: «*Oʻylab qaragam, bolalik xotiralarimning koʻpchiligi sheʼrlarga, dostonlarga koʻchgan ekan. «Nido», «Quyosh maskani» poemalari, «Bolalik», «Oqsoqol», «Bolalik ekan-da...» sheʼrlari oʻsha murgʻak tasavvur, ilk xotiralarning mevasi boʻlgan*».

Adib asarlarida sheʼr va shoir haqidagi qarashlar bayon etilgan. U «*Istadim sayr aylamoqni men gʻazal boʻstonida, Kulmangiz ne bor senga deb, Mir Alisher yonida*» deb yozgan. Shoirming doimiy hajviy qahramoni *Matmusadir*.

Erkin Vohidov turmushdagi oddiy holatdan – choy suzilayotganda choynakning piyolaga «egilishi», choy ichayotganda inson piyolaning peshonasidan «oʻpishi»dan ajoyib sheʼr ham yaratgan.

E.Vohidov 50 yildan koʻproq davr mobaynida yozgan asarlarini toʻplab, «*Ishq savdosi*», «*Sheʼr dunyosi*», «*Umr daryosi*» va «*Koʻngil nidosi*» nomli toʻrt jildlik saylanmasini tuzgan.

SHEʼRLARI: «*Tong lavhasi*», «*Kamtarlik haqida*», «*Buloq*», «*Sevgi*», «*Ona tuproq*», «*Fuzuliy haykali qoshida*»,

«Yoshligim» (g'azal), «Barcha shodlik senga bo'lsin», «O'zbekiston» (faxriya), «Tush» (bu she'r «Yaxshidir achchiq haqiqat» kitobidan joy olgan), «Arslon o'ynatuvchi» (ijtimoiy pafosi jihatidan 70-yillar o'zbek milliy she'riyatining jiddiy yutug'i bo'lgan bu she'rda chuqur va nozik poetik tahlil orqali bosh aybdor sirk maydonidagi she'r va mazharaboz emas, balki sahna ortidagi ularni shu ko'ygacha solib qo'ygan shafqatsiz falak, muhit, sharoit ekani tasvir etiladi), «Sirdaryo o'lani» (ona-zamin qismati haqida alamli o'ylar o'z ifodasini topgan), «Shoirlik», «Kechir, yo rab!», «Yaxshidir achchiq haqiqat», «O'zbek Navoiyni o'qimay qo'ysa...» (bunda shoir agar o'zbek navoiyni o'qimay qo'ysa, "oltin boshning kalla bo'lgani shudir", "dod demoqqa palla bo'lgani shudir", "aza chog'i yalla bo'lgani shudir", "paytavaning salla bo'lgani shudir" deya yozgan), «O'lmas edi balki odamzod», «Nega yapon yuz yil yashar...», «Dangasalar» va boshq.

OASIDALARI: «Inson», «O'zbekim» (1968) va boshq.

DOSTONLARI: «Nido» (1964, bu dostonida tunning qoraligi quzguning qanotiga o'xshatilgan. Asarda darsga kelmay qolgan Tal'at ismli bolani o'qituvchi urishgani, dadasidan qora xat kelganini bilgach hamma, hatto muallimning o'zi ham yig'lagani haqida lavha bor), «Ruhlar isyoni», «Orzu chashmasi», «Palatkada yozilgan doston» (1967), «Quyosh maskani» va boshq.

KITOBLARI (TO'PLAMLARI): «Tong nafasi», «Qo'shiqlarim sizga», «Yurak va aql» (1963), «Mening yulduzim» (1964), «Yoshlik devoni» (1969), «Charog'bon» (1970), «Hozirgi yoshlar» (1975), «Muhabbat» (1976), «Tirik sayyoralar» (1980), «Iztirob», «Dostonlar», «Bedorlik» (1985), «Yaxshidir achchiq haqiqat» (unda 1980-yillar oxiri, 1990-yillar boshlarida yuz bergan jamiyatimiz hayoti, ma'naviyatidagi o'zgarishlar, yangilanishlar, odamlar ongidagi evrilishlar aks ettirilgan), «Donish qishloq latifalari» (hajviy turkum), «Shoir-u she'r-u shuur» (adabiy-falsafiy to'plam), «Saylanma» (1986) va boshq.

DRAMATIK ASARLARI: «Oltin devor» (komediya), «Istanbul fojiasi» va boshq.

TARJIMALARI: *I.Gyote* (1974-yilda uning «Faust» asarini tarjima qilgan), *S.Esenin*, *A.Blok*, *L.Ukrainka*, *M.Svetlov*, *A.Tvardovskiy*, *R.Hamzatov* asarlari va boshq.

«RUHLAR ISYONI» dostoni haqida

«*Ruhlar isyoni*» dostoniga isyonkor bengal shoiri *Nazrul Islom* hayoti asos qilib olingan. Dostonga uning quyidagi misralari epigraf qilib olingan:

**Tug'ilgansan ozod, mudom
Ozod bo'lib qol!**

Bu asarning yaratilishi haqida shoirning o'zi shunday deydi: «*Yozuvchi-shoirning vazifasi biror shaxs hayoti, sarguzashtini shunchalik hikoya qilib berishdan iborat bo'lsa, dunyoda yozuvchilikdan oson hunar bo'lmasdi. Ijodkor o'z qahramoni hayoti, taqdirini badiiy tahlil etishi, shu bahonada o'zining hayot haqidagi kuzatishlari, o'y-mushohadalarini o'rtaga tashlash kerak-ku, axir! Mening qahramonim – Nazrul Islom taqdiri bu jihatdan g'oyat boy material berardi. Mushkul ijodiy izlanishlar pallasi boshlandi, dostonning tayyor ilk variantidan voz kechishga to'g'ri keldi, ko'p urinishlardan keyin dostonning o'quvchilarga taqdim etilgan hozirgi varianti paydo bo'ldi.*

Adib dostonning «*Shoir qalbi*» bo'limida «*iste'dodning tabiati isyondir*» deb ta'kidlaydi, «*Jaholat to'g'risidagi rivoyat*»da esa donishmand ulug' hakimning jaholat hukm surgan zamonda olomon tomonidan sazoyi etilishi va gulxanda kuydirilishi tasvirlanadi. Unda bepoyon sahroda halokatga uchragan karvondan omon qolgan inson haqida ham hikoya mavjud.

Umuman olganda, bu dostonda xalqlar, millatlar, dinlar o'rtasidagi nizolar insoniyatga katta falokatlar olib kelishi tasvirlangan.

Dostonning so'nggi faslida erksevar shoirning va hind xalqining orzusi ro'yobga chiqqanligi tarannum qilinadi, ammo tutqunlikdagi qattiq qiynoqlar, azob-uqubatlar natijasida shoirga bu baxtli kunlar nasib etmaydi.

SHE'RLARIDAN PARCHALAR:

Yellar, bir daqiqa to'xtang esishdan,
Sernavo bulbullar, sayramang biroz.
Karbalo dashtida yayov kezishdan
Charchab tin olmoqda Fuzuliy ustoz.

(«Fuzuliy haykali qoshida» she'ridan)

* * *

Menga Pushkin bir jahon-u
Menga Bayron bir jahon.
Lek Navoiydek bobom bor,
Ko'ksim osmon, o'zbekim.

(«O'zbekim» qasidasidan)

Tun bilan yig'labdi bulbul,
G'uncha hajri dog'ida.
Ko'z yoshi shabnam bo'lib
Qolmish uning yaprog'ida.

SHUKUR XOLMIRZAYEV

(1940 – 2005)



Zamonaviy o'zbek nasrining zabardast vakillaridan biri **Shukur Fayzullo o'g'li Xolmirzayev** 1940-yil 24-martda Surxondaryo viloyati Boysun tumanida dunyoga keladi. Otasi asli Bulung'urlik bo'lib, 1937–1938-yillarda Boysunga ketishga majbur bo'lgan.

Shukur Boysundagi o'rta maktabni tugatib, 1963-yilda ToshDUning filologiya (jurnalistika) fakultetini tugatgan. Shundan so'ng u Toshkentdagi bir qator nashriyot, gazeta va jurnallarda mehnat qiladi.

Shukur Xolmirzayev yozuvchilar uyushmasining «Oybek» mukofoti, O'zbekiston Davlat mukofoti sovrindori, «O'zbekiston xalq yozuvchisi»dir (1991).

SHUKUR XOLMIRZAYEVNING ADABIY MEROSI

Adibning birinchi qissasi «*Oq o'tli*» (1962) deb, birinchi hikoyasi «*Xatarli so'qmoqda*» deb nomlangan.

HIKOYALARI: «*Yovvoyi gul*», «*Bahor o'tdi*», «*Bitiktosh*», «*Yashil «Niva»*», «*Ozodlik*», «*O'zbeklar*», «*Hayot abadiy*», «*Og'ir tosh ko'chsa*», «*Ustoz*», «*Ko'k dengiz*», «*Tabassum*» (1984), «*Shudring tushgan bedazor*», «*Xumor*» (hikoyada bir millat, bir mamlakatning ma'lum bir bosqichdagi fojiasi kichik bir qahramon timsolida o'z xarakterini o'zi ochish yo'sinida yoritilgan), «*Qariya*» (bu hikoyada bozor kunlarida jarchilik qilib mol egasidan cho'tal oladigan, sholi yetishtiruvchi koreyslarga qish kunlarida laqqa cho'g' yetkazib beradigan, pishiqchilik mahalida bozordagi qovun-tarvuz po'choqlarini chelakka yig'ib yuradigan) *Qo'ziboy chol obrazi berilgan. Unda hech kimi yo'q bu cholning omonatiga xiyonat qilgan qassob obrazi ham bor*), «*Qadimda bo'lgan ekan*», «*Quyoshku falakda kezib yuribdi*» (bu hikoya ma'lum ma'noda «*Dinozavr*» asari eskizidir), «*Bodom qishda gulladi*» (1985), «*Navro'z, navro'z*» (asar qahramonlari Sulton, Obid Odiljonovich, Joniqlul Jondorovdir), «*Olis yulduzlar ostida*», «*O'zbekning soddasi*», «*Ora yo'l*», «*Odam*», «*Cho'loq turna*», «*Kimsasiz hovli*», «*Tog'larga qor tushdi*», «*Ot egasi*» (1971-yilda yozilgan bu hikoyada Inodning achinarli hayoti tasvirlangan. Inod otasidan juda erta ayriladi, xotini va bolalari esa yong'in tufayli fojiali ravishda vafot etishadi, uning yakka suyanchig'i, otasidan yodgorlik – qorabayir otini ham kichik leytenant Egamberdi Xudoyberdiyev olib ketishga kelganda o'z qo'li bilan otib tashlaydi), «*Omon ovchining o'limi*» (Bu hikoya Omon ovchining fojiali qismati tasvirlangan. Hikoyada Omonning ovga mukkasidan ketganligi, jonivorlarga shafqatsiz munosabatda bo'lishi, yoshligida otasi Rahmon polvon uni ham ovga olib chiqqanlari, Omonning xotini va og'lidan ajralishi, qishloqning bo'shab qolishi, oyoqlarining sinishi hamda fojiali o'limi manzarasi mohirona tasvirlangan) va boshq.

OISSALARI: «*Tog'lar orasida*» (uning kitob holiday nomi «*Oq o'tli*»), «*To'lqinlar*» (uning kitob holiday nomi «*Bukri*

tol», 1963. Bu qissani Shukur Xolmirzayev talabalik yillari yozgan va u Abdulla Qahhorning tabrigiga sazovor bo'lgan), «O'n sakkizga kirmagan kim bor?» (1965, «yoshlar haqida gissa» deb ta'riflangan), «Bulut to'sgan oy» (1997) va boshq.

ROMANLARI: «So'nggi bekati» (1976, adibning roman janridagi dastlabki asari), «Qil ko'prik» (1984), «Yo'lovchi» (1987), «Olabo'ji» (1991), «Dinozavr» (1996) va boshq.

DRAMALARI: «Qora kamar» (1987), «Ziyofati» (1990-yilda sahnalashtirilgan).

ABDULLA ORIPOV¹⁹⁶ (1941 – 2016)



O'zbekiston xalq shoiri Abdulla Oripov 1941-yil 21-mart kuni Qashqadaryo viloyati Koson tumaniga qarashli Neko'z qishlog'ida tug'ilgan.

Otasi Orifboy Ubaydulla o'g'li ishbilarmon dehqonlardan bo'lib, jamoa xo'jaligi raisi edi. U to'rt qiz va to'rt o'g'ilning ta'lim-tarbiyasiga katta e'tibor bergan. Onasi Turdixol Karvon qizi shoirtabiat, fozila ayollardan edi.

Adibning bolaligi Qo'ng'irtog' etaklarida o'tadi. U 17 yoshida o'rta maktabni oltin medal bilan tugatib, 1958–1963-yillarda ToshDUning «O'zbek filologiyasi» fakulteti jurnalistika bo'limida o'qiydi.

Abdulla Oripov dastlab «Yosh gvardiya» nashriyatida muharrir, 1967–1974-yillar mobaynida G'.G'ulom nomidagi nashriyotda muharrir, 1974–1976-yillarda «Sharq yulduzi» jurnalida bo'lim boshlig'i, 1976–1982-yillarda O'zbekiston yozuvchilar uyushmasida adabiy maslahatchi,

¹⁹⁶ Qarang: N.Karimov va boshq. Adabiyot (Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 11-sinfi uchun darslik). – T.: O'qituvchi, 2004. – 320–335-betlar; N.Karimov va boshq. XX asr o'zbek adabiyoti (11-sinf uchun darslik). – T.: O'qituvchi, 2002. – 346–372-betlar; Q.Yo'ldoshev va boshq. Adabiyot (Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 9-sinfi uchun darslik-majmua). – T.: Yangiyo'l Poligraph service, 2014. II qism. – 87–104-betlar.

1982–1983-yillarda O‘zbekiston yozuvchilar uyushmasining Toshkent viloyat bo‘limida mas’ul kotib, 1983–1985-yillarda «Gulxan» jurnalida bosh muharrir, 1985–1988-yillarda O‘zbekiston yozuvchilar uyushmasining kotibi, 1988–1996-yillarda O‘zbekiston Respublikasi mualliflik huquqini himoya qilish qo‘mitasi raisi, 1996 – 2009-yillarda esa O‘zbekiston yozuvchilar uyushmasining raisi lavozimlarida ishlaydi.

Abdulla Oripov Oliy Majlis deputati, Markaziy Osiyo xalqlari madaniyati Assambleyasi raisining muovini sifatida ham faoliyat yuritgan.

Buyuk shoir 2016-yil 5-noyabrda vafot etdi. Abdulla Oripov asarlari el va yurt tomonidan munosib taqdirlangan. U Hamza nomidagi Davlat mukofotiga (1983), «Munojot» to‘plami uchun Alisher Navoiy nomidagi Davlat mukofotiga (1994) sazovor bo‘lgan.

Mustaqil O‘zbekiston madhiyasi matnining muallifi ham **Abdulla Oripov**dir. Vatani oldidagi xizmatlari uchun shoir qator orden-medallar, «*O‘zbekiston xalq shoiri*» faxriy unvoni (1989), *O‘zbekiston Qahramoni* (1998) unvoni bilan ham mukofotlangan.

ABDULLA ORIPOVNING IJODIY FAOLIYATI VA ASARLARI

Abdulla Oripov hali maktabga bormay turib, so‘zlarni bir-biriga uyqash qilib aytib yurishni yoqtirar, so‘zning mazmunidan ham ko‘ra ohangi uni rom etardi. Buni shoir keyinchalik quyidagicha eslaydi: «...*birinchi she’rlar yoza boshlaganimga nima turtki bo‘lganini aniq bilmayman. Har holda so‘zlarni qoqiyalashga ishqiboz bo‘lib qolganim esimda...*».

Abdulla Qahhor «*yo‘zuvchilikka cho‘g‘day yonib kirgan*» deya, balqar shoiri **Qaysin Quliyev** «*uning paydo bo‘lishi she’riyatimizda bayramdir*» deya Abdulla Oripovga yuksak baho berishgan. U o‘zbek she’riyatiga o‘ychil g‘am va g‘amchil o‘y olib kirgan shoirdir.

SHE’RLARI: «*Qushcha*» (*birinchi she’ri, u chiqqan paytda shoir talaba edi*), «*Sen bahorni sog‘inmadingmi?*»

(1963), «Yuzma-yuz» (1964), «O'zbekiston», ««Munojot»ni tinglab...» (1964, «Kuyi shunday bo'lsa, g'amning o'ziga Qanday chiday oldi ekan odamzod?!» – misralari shu she'rda uchraydi), «Yurtim shamoli», «Qo'riqxon», «Temir odam» (1964), «Men nechun sevaman O'zbekistonni» (1964), «Tilla baliqcha» (1965), «Dorboz» (1965, unda dorboz ramziy obraz bo'lib, u kiprikdagi yoshga, arqon qilich damiga o'xshatilgan), «Kuz manzaralari» (1967), «Javob», «Burgut», «Birinchi muhabbatim» (bunda har bir band mustaqil, o'ziga xos qofiyalangan), «Kuz xayollari» («Uning qo'shig'ida, uning ohida Sezaman odamzod qalbin gohida» yoki «Bir hikmat o'qiyman xazonlardan men: «Yashagin-u biroq yaproq bo'lma sen» misralari shu she'rdan olingan), «Bahor kunlarida kuzning havosi...», «Sarob» (1966, «Qo'l ko'tarib bo'larmidi axir onaga, Zotan, unga qo'l ko'targan farzand sanalmas» misralari shu she'rda uchraydi), «Ketganlar yodi bu...» (tush tasviriga bag'ishlangan she'r), «O'zbekman» (2000), «Bahor» (1967, bu she'rda «O'n oykim, so'nmishdir u tanish na'ra» deganda G'afur G'ulom nazarda tutilgan), «Odamlar» (1963), «Ona sayyora», «Ayol» (bu she'r Nodiraning «Firoqnoma» asariga yaqin mavzuda yaratilgan, uni shoir urushda qaytmagan amakilarining bevalariga bag'ishlagan), «Bola edim...» (1964), «Onajon» (1966), «Men anglab yetgan falsafa» (1973), «Genetika» (1973) va boshq.

DOSTONLARI: «Ranjkom» (1988, dostonda sho'ro tuzumi «Bu tuzumning yarim umri lof bilan o'tgan, Fuqaro ham usuliga ko'nikmish g'oyat..» deb keskin fosh etilgan), «Jannatga yo'l» (dramatik doston) va boshq.

KITOBLARI (SHE'RIY TO'PLAMLARI): «Mitti yulduz» (1965, birinchi she'rlar to'plami), «Ko'zlarim yo'lingda» (1967), «Onajon» (1969), «Ruhim» (1971), «O'zbekiston», «Qasida» (1972), «Xotirot» (1974), «Yurtim shamoli» (1974), «Jannatga yo'l» (1978), «Hayrat» (1979), «Hakim va ajal» (1980, shu nomdagi doston Abu Ali ibn Sinoga bag'ishlangan), «Najot qal'asi» (1981), «Yillar armoni» (1983), «Haj daftari» (1992), «Saylanma» (1996), «Sohibqiron» (1996), «Hikmat sadolari» (40 hadis asosida

yozilgan to'plam), «Ishonch ko'priklari», «Tanlangan asarlar» (2000–2001, 4 jild) va boshq.

TARJIMALARI: Dante Aligyerining «Ilohiy komediya» asari («Do'zax» qismi, bu asar ta'sirida shoir «Jannatga yo'l» (1978) dostonini yaratgan), L.Ukrainka, Pushkin, N.Nekrasov, Q.Quliyev, T.Shevchenko, Charens, R.Hamzatov she'rlari va boshq.

Abdulla Oripov she'rlari haqida

XX asrning 60-yillarida Abdulla Oripov «Men nechun sevaman O'zbekistonni», «O'zbekiston» (1964–1970) kabi she'rlarida ona-Vatan va fidoiy vatanparvar obrazining ajoyib namunalarini yaratdi.

Shoir «Onajon» she'ri bilan o'zbek adabiyotida muqaddas ona sharafiga abadiy haykal qo'ydi. Uning «Xayr endi», «Muhabbat», «Birinchi muhabbatim» singari she'rlari XX asr o'zbek she'riyatining muhabbat lirikasi tarixidagi sara asarlar qatorida turadi. Abdulla Oripov sevgini «yorilmagan yara»ga o'xshatgan.

Adibning «Yuzma-yuz» she'rida o'zi pishirib, taomidan benasib bo'lgan, birovlarini kiygazib, o'zi kiymagan, yulduzlarni kashf etganiga qaramay, o'zgalar tomonidan avom degan nom olgan xalqning murakkab va ziddiyatli tarixi, taqdiri aks ettirilgan. Shoir asarni dunyodagi barcha kulfatlar, adashishlar hamjihatlikning buzilishidan, deya boshlagan. Bu lirik dostonida muallif «million egatlarga sochilgan o'zbek» dardini kuylagan.

Abdulla Oripovning «O'zbekiston» nomli qasidasi 10 satrlilik 14 banddan iborat. Unda buyuk ajdodimiz Beruniyning Kristofor Kolumbdan salkam 500 yil oldin Amerika qit'asini bashorat qilganligiga ishora mavjud. She'rda quyidagi tarixiy shaxs nomlari tilga olingan: Hamid Olimjon, G'afur G'ulom, Mirzo Ulug'bek (Ko'ragoniy), Kolumb, Beruniy, Alisher Navoiy, Chingizxon, Jaloliddin, Sobir Rahim, Oybek, Habib Abdulla.

Ushbu she'rdan olingan quyidagi misralarda Abdulla Oripov o'zbek adabiyotining dahosi Navoiyni nazarda tutgan:

**Besh asrkim, nazmiy saroyini,
Titratadi zanjirband bir sher.**

Shoir «*Bahor*» she'rida **G'.G'ulom, Shayxzoda, Ulug'bek, shoir onasi, Amir Temur** bilan bog'liq chizgilarni aks ettirgan, «*Qaydadir yurtini eslab ingrar nay*» misrasida esa nay bilan bog'liq go'zal obrazni yaratgan. Unda Inson va Xayol timsoli ham qo'llangan.

«*Kuz manzaralari*» she'rida Abdulla Oripov kuzdagi xazonlarini yuragidan to'kilgan olovga, kuz mezonlarini chuvalgan o'ylariga, kuz quyoshini esa olis yoshlikda qolgan muhabbatiga qiyoslagan. She'r quyidagi misralar bilan boshlangan:

**Yana dalalarga boshlaydi havas,
Bog'larda xazonlar yonadi lov-lov.
Do'stlarim, bu kuzning barglari emas,
Mening yuragimdan to'kilgan olov.**

«*Genetika*» (1973) she'rida vallomat insonning mehrga, ishqqa, muhabbatga, haqqa, haqiqatga, nurga, ziyoga tashnaligi go'zal satrlarda ifoda etilgan. She'rdagi «*Tashna yashadik biz mehrga mutloq, Ishqqa, muhabbatga tashna o'tdik biz, Goh esa quyoshdek porloq va yiroq, Haqqa, haqiqatga tashna o'tdik biz*» misralarida lirik qahramon tashna bo'lgan haqiqat istiqloлга erishish, o'z vatanining egasi bo'lish orzusi va bu orzuni hayiqmay, qo'rqmay, ochiq ayta olish istagi edi.

Bu she'rda shoir «*Singdi ruhimizga, mangu barhayot Alisher she'ri-yu Pushkin bayoti...*» deya ta'kidlagan. «*Ohu bolasi – bu ohuday boqqan, Shervachchada esa sherning shiddati*» kabi misralar ham shu she'rda uchraydi. Ushbu she'r «*Labda tabassum-u ko'zda yosh bilan Senga talpinaman buyuk nabiram...*» misralari bilan tugallangan.

«Genetika» she'rida quyidagi bobokalonlar nomi tilga olingan: **Bobo Kayfiy, Ulug'bek, Muqanna, Bobur, Alisher Navoiy, Pushkin**. She'rning bir misrasida «Alisher she'ri-yu Pushkin bayoti» tilga olingan.

Shoirning «Qizg'aldoq bargiday uchar dildan g'am», «qaro sochlaringda oppoq alanga», «Oyoqlangan qo'ziday dovdilar yelda maysa, Ko'm-ko'k moviy osmonda kezib yurar oq bulut» kabi satrlarida qo'llangan tashbehtar aniqligi, hissiy ta'sirchanligi bilan kishini o'ziga rom etadi. Uning she'riyatida vatan timsoli chizilgan quyidagi satrlar mavjud:

Shabnam shovullaydi bog'lar qo'ynida,
Salqin tuman ichra bo'zarar tonglar,
Quyoshning erinchak yog'dularida,
Nafis yaltiraydi bargi xazonlar.

«SOHIBQIRON» dramasi haqida

«Sohibqiron» dramasida Amir Temur ko'proq o'ylar girdobida aks ettiriladi. Asarda Temurning murakkab tabiati uning Amir Husayn, Sulton Boyazid, amirlar, o'g'illariga munosabatini ko'rsatishda yorqin aks etgan.

Amir Temur tajribali hukmdor va o'ychil faylasuf sifatida davlatni ushlab turguvchi tayanchlarni: «*Mo'l xazina, yagona shoh, yengilmas lashkar*», – deya belgilaydi.

Dramada Temurning fuqarolarga munosabati: «*Hukmdorlar seva turib fuqarolarni, Umid hamda qo'rquv ichra saqlashi darkor*», – degan qarashida aks etgan.

Dostonda Boyazid Temurga quyidagi gaplarni yozib yuborgan:

Agar sen biz tomonga kelmasang, ...
Bilib qo'yki, xotinlarning uch taloq bo'lg'ay.

Quyidagi misralar ham shu asarda uchraydi:

Sen Yeldirim laqabli bir qudratli chaqmoq,
Cho'ng temirga urilding-u chilparchin bo'lding...

Dramada Amir Temurning o'z dushmanlarini ham kechira oladigan shaxs ekani sulton Boyazid, haddidan oshgan kimsani jazosiz qoldirmasligi Amir Husayn, ezgu amalli kishilarni

taqdirlashi **Hofiz Sheroziy** va **Qosimbek** obrazlari orqali ishonarli tasvirlangan.

Amir Temurning **Ahmad Yassaviy** bilan ushrashuvida u o'z xatti-harakatlariga ma'naviy asos qidirayotgani aks ettirilgan.

Asarning asosiy qahramonlari quvidagilar: *Amir Temur (u ulkan zaminni shatranj taxtasiga qiyoslaydi), Yeldirim Boyazid, Uljoy Turkon, Mir Said Baraka, Xonzodabegim, Barlos Bahodir, Muhammad Qavchin, Yassaviy ("Niyat qancha jozibali bo'lsa ham, Temur, qilich bilan hosil bo'lmog'i gumon" degan so'zlarni Amir Temurga u aytgan), Xitoy elchisi, Ispaniya elchisi, Buqalamun (Uning asl ismi Itolmas. Amir Temur farangiylarni, ularning shohlari maqsadlarini o'rganishni unga topshiriq qilib bergan), Bibixonim, Shayxulislom, Aloviddin, Amir Husayn, Hofiz Sheroziy, Qosimbek, Sulton Shabli (chopar), yasovul, sartarosh, shahzodalar, amirlar va boshq.*

O'TKIR HOSHIMOV

(1941 – 2013)



O'tkir Hoshimov 1941-yil 5-avgustda Toshkentning Do'mbirobod qishlog'ida ishchi oilasida tug'ilgan. Otasi Atoulloxon Hoshimov tazyiqlardan bezor bo'lib, Do'mbirobodga ko'chib kelgan, onasi Hakima opa nihoyatda yuvosh, juda mehribon ayol edi.

O'tkir Hoshimov o'rta maktabni bitirgach, 1959–1964-yillar mobaynida ToshDuning filologiya fakulteti

jurnalistika bo'limida o'qiydi.

Yozuvchi *«Toshkent haqiqati»*, *«Toshkent oqshomi»* (1966–1982) kabi ro'znomalarda, G'afur G'ulom nashriyatida (1982–1985) faoliyat yuritgan. U 1985–1995-yillarda *«Sharq yulduzi»* jurnalida Bosh muharrir (*bu paytda jurnal sahifalarida muqaddas Qur'oni karimning ma'no tarjimasini tarixda ilk bor o'zbek tilida bosilgan*), 1995-yildan O'zbekiston Respublikasi

Oliy Majlisining Matbuot va axborot qo'mitasi raisi bo'lib ishlagan.

O'tkir Hoshimov «O'zbekiston xalq yozuvchisi» (1991), Oybek va Hamza nomidagi Respublika Davlat mukofoti sovrindori, «Mehnat shuhrati» (1996) va «Buyuk xizmatlari uchun» (2001) ordeni sohibidir.

O'TKIR HOSHIMOVNING ADABIY MEROSI

O'tkir Hoshimov o'z ijodini she'r va ocherklar yozishdan boshlagan.

Shu kungacha adibning 60 ga yaqin kitobi turli tillarda 2 milliondan ko'proq nusxada chop etilgan.

Adib o'zining *“Mashaqqatli safar”* nomli tarjimai holidi shunday yozgan edi: *“...Menga qolsa, badiiy ijodda qandaydir ilohiy jarayon bor, degan bo'lur edim. Xudo ko'ngliga solmaguncha haqiqiy ijodkor qo'liga qalam olmaydi! Haqiqiy asar shunchaki yozilavermaydi, haqiqiy asar farzand kabi tug'iladi!*

...Har gal yangi kitobim chiqishi bilan birinchi nusxasini Onamga taqdim etardim, “Birinchi ustozim Oyimga” deb yozib berardim...”.

HIKOYALARI: *«Urushning so'nggi qurboni», «Muhabbat», «To'rt maktub»* va boshq.

OISSALARI: *«Odamlar nima derkin...», «Shamol esaveradi», «Ikki karra ikki besh», «Cho'l havosi» (1963), «Bahor qaytmaydi» (1970, bu qissaning asosiy qahramonlari Alimardon (Onasi necha yildirki, uni uylantirishni orzu qilari, u “avval konservatoriyani bitirib olay, u yog'i o'zi topilib ketadi”, deb o'ylardi. Uning onasi diplom yoqlashidan bir hafta oldin qazo qiladi), Anvar, Muqaddam, Mutal (“Odam bolasi tug'ilgan paytda pokiza bo'ladi-ku” degan fikr unga tegishli), Shavkatdir. Bu asarda “Bo'ston qishlog'iga og'ir-vazmin qadamlar bilan kuz kirib keldi”, “Odamlar qilichini ko'tarib kelayotgan qishdan cho'chiganday shosha-pisha harakatga tushdilar” kabi parchalar uchraydi), «Qalbingga quloq sol» (1973), «Kvazarlar», «Dunyoning ishlari» (1981) va boshq.*

ROMANLARI: «*Nur borki, soya bor*» (1979, asar qahramoni Sherzod Teshaboyevning kasbi jurnalist edi), «*Ikki eshik orasi*» (1986. **Asar qahramonlari:** *Qora amma, uning ukasi Shomurod, Shomurodning xotini Ra'no, Qora ammaning o'g'li Kimsan, o'gay qizi Robiya, Orif oqsoqol, Husan Duma, Komil tabib va boshq.*), «*Tushda kechgan umrlar*» (*Afg'on urushi musibatlari hikoya qilingan asar*) va boshq.

DRAMALARI: «*Qatag'on*», «*Inson sadoqati*», «*Vijdon dorisi*», «*To'ylar muborak*» va boshq.

KITOBLARI: «*Po'lat chavandoz*» (1962, birinchi kitobi, ocherklar to'plami), «*Nurli dunyo*», «*Umr savdosi*», «*Daftar hoshiyasidagi bitiklar*», «*Osmondan tushgan pul*», «*To'ylar muborak*» va boshq.

«URUSHNING SO'NGGI QURBONI» hikoyasi haqida

Bu hikoyada bir oilada sodir bo'lgan voqea, ya'ni Shoikrom onasi Umri xolaning qotiliga aylanib qolishi tasvirlangan. Asarda bu oqshom ketib, tun oqqanda ishdan qaytadigan, oilasidagi iqtisodiy nochorlikdan qutulolmayotgan, buning ustiga vaqtinchalik og'irlikka chidolmay, imon-e'tiqodini yo'qotgan kimsalardan zarar ko'rgan, qasos tuyg'usi aqlidan ustun kelgan yigit beixtiyor onasining halokatiga sababchi bo'ladi.

Asar qahramonlari quvidagilar: *Shoikrom* (uto'qimachilik kombinatida montyor bo'lgan, «*Vijdonsizlar! Odamlarning boshiga kulfat tushganidan foydalanib qoladiganlarni qirish kerak*» degan fikrlarni aytgan), *Xadicha* (*Shoikromning xotini*), *Shone'mat, Umri xola* (*Shoikrom va Shone'matning onasi*).

“DUNYONING ISHLARI” qissasi haqida

Asardagi barcha hikoyalarni, jumladan, «*Gilam paypoq*», «*Oq, oydin kechalar*», «*Haqqush*», «*Bola yig'isi*» (bu hikoyada «Onalarning biz bilmaydigan, bizning o'lchovimizga sig'maydigan o'z olami borgan o'xshaydi» kabi fikrlar yozilgan), «*Sovchilar*» (bu hikoyadagi «*Sovchi degan gap qayoqdan chiqqan? Hali unisi keladi qiyshayib, hali bunisi keladi, tugunini*

osiltirib!”, – degan gapni qassob qo‘shnining qizi Guli aytgan. Asarda nasldan naslga o‘tadigan shizofreniya (jinnilik) kasalligi haqida yozilgan), **“Opamni topib oldim”** (bu hikoyada **“Obaki dandon, Lablari xandon, Chaynama, shimi, Chaynama-a-a!”** degan xalq qo‘shig‘i mavjud. Unda adibning o‘gay opasining ismi Bashor opadir), **“Bozor”** (bu hikoyada ikkiyuzlamachi dallol haqida gap boradi), **“Po‘stdumbali moshkichiri”** (bu hikoyada muallif o‘zining “pora” olganligi haqida bayon etgan), **“Usta”** (bu hikoyada ichkilikka mukkasidan ketgan Abdujabbor obrazi berilgan), **“Ermon buvaning tilagi”** (bunda bolalar Ermon buvaning uyiga “tut pishdi” deb tez-tez qatnab qoladilar), **“Qarz”, “Tasalli”** (bu hikoya “Bola uchun ham onaning katta-kichigi bo‘lmas ekan. Ona – ona ekan. Unga boshqa sifat kerakmas” kabi fikrlar bilan yakunlangan), **“Tush”, “Alla”, “Oltin baldoq”** (Unda muallif Sepkilli xolani yomon ko‘rishini yozgan. Bu hikoyadan “folbinning gapiga kirib badnom bo‘lib qolish, eng yomoni begunoh insonlarning dilini jarohatlab qo‘yish mumkin”, degan xulosa chiqarishimiz mumkin), **“Ikki afsona”** (bu hikoyada **“Haqiqat havoga o‘xshaydi. Nafas olib turasiz-u o‘zini ko‘rmaysiz”** degan fikr aytilgan), **“O‘ris bolaning oyisi”, “Imon”** (bu hikoyada Klava xolani davolash uchun pora talab qilgan shifokorlar haqida so‘z boradi), **“Iltijo”** (bu hikoyada insonning ona oldidagi burchi hech qachon to‘lab bo‘lmaydigan qarz ekanligi ta‘sirchan ifodalangan. **“Esingizdami, oyi, ukamga alia aytardingiz. Men allaning ohangiga mast bo‘lib uxlab qolardim...”** parchasi shu hikoyada uchraydi) kabi hikoyalarni ona obrazi birlashtirib turadi.

Said Ahmad aytganidek, bu asar *“...dostondek o‘qiladi. Uni o‘qib o‘z onalarimizni eslab ketamiz”*.





41-MAVZU.
MUSTAQILLIK DAVRI O‘ZBEK ADABIYOTI
NAMOYANDALARI

RAUF PARFI
(1943–2005)



O‘zbek milliy modern she‘riyatining asoschilaridan biri va eng yirik vakili **Rauf Parfi** (Tursunali Parfiyev, taxallusi – **O‘zturk**) 1943-yil 27-sentabrda Toshkent viloyatining Yangiyo‘l tumaniga qarashli Sho‘ralisoy qishlog‘ida tug‘ilgan. Otasi Parfi Muhammadamin savodli bo‘lib, Farg‘onaning Vodil qishlog‘idan sho‘rolar quvg‘ini tufayli Sho‘ralisoyga kelib qolgan. Onasi – Sakinaxonim Isabek qizi ham asli

Farg‘onadan edi.

Rauf 1958-yilda 8-sinfni tugatgach, o‘qishni Yangiyo‘l shahridagi kechki maktabda davom ettiradi, mehnat faoliyatini boshlaydi. Shoir 1960–1965-yillarda ToshDUning filologiya fakultetida tahsil olgan (diplom ololmagan).

Rauf Parfi turli nufuzli gazetalarda, Kinematografiya davlat qo‘mitasida, «G‘afur G‘ulom» nashriyotida, O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasida, shu uyushmadagi Targ‘ibot markazida, «Jahon adabiyoti» jurnalida (1997–1999) ishlaydi. U «O‘zbekiston xalq shoiri»dir (1999). Rauf Parfi 1992-yilda xalqaro Mahmud Koshg‘ariy sovriniga ham sazovor bo‘lgan.

Adib tarjimon sifatida Bayronning «*Manfred*», Nozim Hikmatning «*Inson manzaralari*», Mahmud Hodiyning «*Ozodlik lavhalari*» («Alvohi intiboh»), Karlo Kaladzening «*Dengiz xayoli*», A.Dyumaning «*Uch sarboz*», A.Tvardovskiyning «*Zaytun novdasi*» va boshqa shu kabi

asarlarni o'zbek tiliga o'giran.

Universitetning birinchi bosqich talabasi ekanida Rauf Parfi qalamiga mansub «Laylo» she'ri millat yoshlarining eng sevimli qo'shig'i sifatida kuylangan.

Rauf Parfi 2005-yilda Toshkent shahrida vafot etgan.

RAUF PARFINING ADABIY MEROSI

SHE'RIY TO'PLAMLARI: «*Karvon yo'li*» (1968, birinchi she'riy kitobi), «*Aks-sado*» (1970), «*Tasvir*» (1973), «*Xotirot*» (1974), «*Ko'zlar*» (1976), «*Qaytish*» (1981), «*Sabr daraxti*» (1986), «*Sukunat*» (1991), «*Tavba*» (2000), «*So'nggi vido*», «*Sakina*» va boshq.

DOSTONI: «*Adashgan ruh*».

SHE'RLARI: «*Tong otmoqda*» (bu she'rdagi shoirning umidlari, yorqin tuyg'ulari o'z ifodasini topgan), «*Yomg'ir yog'ar*» (Bunda yomg'ir ilhomning ramzi bo'lib kelgan. She'rdagi olti marta qaytarilgan «*Yomg'ir yog'ar, shig'alab yog'ar*» misrasi misoli yomg'irning yog'ish tovushini eshitishga, yomg'irning yerga tushish harakatini tasavvur etishga yordam bergan), «*Yoz kechasi*», «*Yana qaytib keldim...*», «*Yurak*», «*Ona Turkiston*» (1992), «*Turkiston ruhi*» (1993), «*Shoir*» (bu she'rdagi o'zini jamiyatning egasi deb hisoblaydigan, o'zgalar taqdiriga xo'jalik da'vo qiladigan «zo'rlar» «*Kibor cho'qqilarda muzlagan bahor...*» tamsili orqali beriladi. Qor cho'qqilarni ko'klamda ham tark etolmaganidek, «zo'rlar»ning viqorida, kibrida shunday muzlaganlik, jonsizlik borligi ta'kidlangan), «*Cho'lpon*», «*Xato qildim...*», «*Sensiz*», «*Hijrat*», «*Men yolg'izman*» va boshq.

OMON MATJON

(1943-yilda tugʻilgan)

**Men sheʼr yozsam, endi uni qogʻozga emas,
Anov yal-yal yonayotgan oʻtga yozaman.**

Omon Matjon



Sheʼriyatning turli janrlari va uslubiy yoʻnalishlarida muvaffaqiyat bilan ijod qilayotgan, tuygʻularining samimiyligi, tilining shiradorligi, ifodasining taʼsirchanligi bilan ajralib turadigan shoir **Omon Matjon** 1943-yil 14-fevralda Xorazmning Koʻhna Gurlan tumaniga qarashli Bogʻolon qishlogʻida tugʻilgan. Otasi Matjon Jumaniyoz oʻgʻli qishloq pochta boʻlimi boshligʻi boʻlgan, bobosi Jumaniyoz savdogar boʻlib, 22 marta savdo ishlari bilan Rossiyaga borib kelgan. Omonning onasi Xotira opa goʻzal va oqila ayol boʻlib, boʻlajak shoirming goʻdaklik chogʻida vafot etgan.

Omon Matjon oʻrta maktabni bitirib, Aloqa institutiga kirolmagach, radio-telefon tuzatish kursida oʻqib, montyorlik qiladi. Soʻngra u armiya safida boʻladi, Samarqand dorilfununida tahsil oladi. 1969-yilda oʻqishni tamomlab, Gʻafur Gʻulom nomidagi nashriyotda muharrir, boʻlim mudiri boʻladi, «Yoshlik» jurnalida bosh muharrir, Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti maslahatchisi, Oʻzbekiston davlat Matbuot qoʻmitasi raisi oʻrinbosari, «Choʻlpon» nashriyoti direktori lavozimlarida ishlaydi.

Omon Matjon 1993-yilda «Oʻzbekiston xalq shoiri» unvoniga sazovor boʻlgan¹⁹⁷.

OMON MATJONNING IJODIY FAOLIYATI VA ASARLARI

Omon Matjon 3-sinfda oʻqib yurgan paytlarida dastlabki sheʼr va ertaklarini yozgan. Ilk sheʼri 1958-yil 15-martda

¹⁹⁷ Q.Yoʻldoshev va boshq. Adabiyot (Umumtaʼlim maktablarining 9-sinfi uchun darslik). – T.: Oʻzbekiston, 2019. – 230-bet.

Yangibozor tuman gazetasida bosilib chiqqan. U Germaniyada harbiy xizmatda bo'lgan 3 yil davomida har kuni deyarli bittadan she'r yozgan. Keyinchalik bu she'rlarning bir turkumi «Sharq yulduzi» jurnalining 1965-yil 5-sonida bosilgan.

SHE'RLARI: «Vatan mehri», «Amu», «Ona degan so'z», «Sirlarim», «Turnalar», «O'n uchinchi eshik» (Beruniy faoliyati ta'riflangan), «Ko'rdim: Shukur Burhon...», «Qo'shiq» (Omon Matjonning «Miriya o'xshatma» she'ri), «Qaysi yil ko'klamda Jayhun bo'yida», «Eng so'nggi xazina», «Navoiy g'azaliga muxammas» ("Avvalgilarga o'xshamas"), «Ikki qal'a», «Shoir bo'lmoqchiman, debsan...» va boshq.

KITOBLARI: «Ochiq derazalar» (1970), «Karvon qo'ng'irog'i» (1973), «Quyosh soati» (1974), «Yonayotgan daraxt» (1977), «Yarador chaqmoq» (1979), «Haqqush qichqirig'i» (1979), «Seni yaxshi ko'raman» (1981), «Daraxtlar va giyohlar» (1984), «Gaplashadigan vaqtlar» (1986), «Ming bir yog'du» (1989), «O'rtamizda birgina olma» (1990), «Qush yo'li» (1993), «Iymon yog'dusi» (1994), «Saylanma» (1997), «Ardaxiva» (2001) va boshq.

DRAMALARI: «Pahlavon Mahmud», «Beruniy» va boshq.

SHE'RIDAN NAMUNA:

Dono debdi: Yurtga bir boq, oqsoqol,
Unda hali o'zi bilmas zo'r ganj bor!
Bu g'ururdir! U – har qalbning qa'rida!

(«Eng so'nggi xazina» she'ridan)

(Bu she'rda shoir «Millatning o'zligini tayin etadigan eng so'nggi va bebaho xazina – milliy g'urur» degan)

TOHIR MALIK
(1946-yilda tugʻilgan)



Oʻzbek fantastik adabiyoti taraqqiyotiga sezilarli taʼsir koʻrsatayotgan ijodkorlardan biri **Tohir Malik** 1946-yil 27-dekabrda Toshkentda ziyoli oilasida tugʻilgan. Ular oilada besh farzand boʻlib, ularning kenjasi Tohir edi. U maktabga bormay turib oq savodini chiqargan. Tohir Malikning akasi birinchi sinfga borgan ukasiga «Mard yigit» ertaklar toʻplamini sovgʻa qilgan. Adib uni hozirgacha eʼzozlab keladi.

Taniqli oʻzbek adibi va tarjimoni Mirzakalon Ismoiliy Tohir Malikning togʻasidir. Togʻasi 1949-yilda «xalq dushmani» sifatida qamoqqa olingan, lekin u «oqlanib» chiqqan. Bu paytda Tohir ikkinchi sinfdagi oʻqir edi.

Adib oʻrta maktabni tugatgach, 1963-yilda ToshDUNing kechki jurnalistika boʻlimida oʻqiydi, kunduzlari qurilishda duradgor, gʻisht tashuvchi ishlaydi.

Tohir Malik maktablarda oʻqituvchilik qiladi, «Tong yulduzi» gazetasi, Oʻzteleradio, «Guliston» jurnali, «Gʻafur Gʻulom», «Choʻlpon» nashriyotlari, Oʻzbekiston Yozuvchilar uyushmasi, «Yoshlik», «Sharq yulduzi» jurnallarida faoliyat yuritadi¹⁹⁸.

Tohir Malik ikkinchi sinfdaligidayoq yozishni mashq qila boshlagan. Uning dastlabki hikoyasi 1960-yilda «Gulxan» jurnalida chop etilgan.

Yozuvchi ijod qilgan ekan, ustoz-togʻasining «*Oʻzing bilmagan narsani yozma*», «*Boshqalar yurgan yoʻldan yurma, oʻz yoʻlingni top*» degan oʻgitlariga har doim amal qildi.

Bir qator hukumat nishonlari va mukofotlari bilan taqdirlangan, Oʻzbekiston xalq yozuvchisi Tohir Malik koʻpincha fantastik, ilmiy-fantastik va sarguzasht yoʻnalishlarida yozadi.

¹⁹⁸ A.Rafiyev, N.Gʻulomova. Ona tili va adabiyot (Akademik litsey va kasb-hunar kollejlari uchun darslik). – T.: Sharq, 2011. – 299-bet

ASARLARI: *«Hikmat afandining o‘limi»* (1971, birinchi asari), *«Zaharli g‘ubor»* (1978), *«Somon yo‘li elchilari»* (1979), *«Chorrahada qolgan odamlar»* (1985), *«Qaldirg‘och»* (1987), *«Bir ko‘cha, bir kecha»* (1988), *«Alvido, bolalik»* (1989, asarda yozuvchi “hech kim jinoyatchi bo‘lib tug‘ilmaydi, bolani atrof-muhit, jamiyatdagi turli illatlar jinoyatchiga aylantiradi” degan g‘oyani ilgari surgan. Bu haqda adibning o‘zi “Men o‘smirlar va yoshlarning jinoyat ko‘chasiga kirib qolayotganligiga befarq qarab turolmayman” deb yozgan. **Asarning asosiy qahramonlari quyidagilar:** Samad aka, Zoir, Qamariddin, Asror (“professor”) va boshq.), *«So‘nggi o‘q»* (1990), *«Charxpalak»*, *«Shaytanat»* (bu asarda o‘limi yaqinlashayotganini sezgan bir qariya va uning Nor tuyasi haqida hikoya ham mavjud), *«Murdalar gapirmaydilar»*, *«Falak»* (Bu qissa rus tiliga tarjima qilinib, chop etilgan. Unda Ali Qushchi «Batlimusi Davron» deb ta’riflangan) va boshq.

HALIMA XUDOYBERDIYEVA¹⁹⁹
(1947 – 2018)



Halima Xudoyberdiyeva 1948-yil 17-mayda Sirdaryo viloyatining Boyovut tumanida oddiy dehqon oilasida tug‘ilgan. Otasi – Ummatqul Xudoyberdi o‘g‘li bog‘bon edi. Onasi – Sharofat Xonnazar qizi Halima endi ikki yoshga to‘lganida vafot etadi. Unga xolasi – Qarshigul Xonnazar qizi onalik qiladi.

O‘rta maktabni tugatib, 1968–1972-yillarda ToshDUning jurnalistika fakultetida, 1975–1977-yillarda Moskvadagi Oliy Adabiyot kursida o‘qigan, «Saodat» oynomasida (1985-yildan boshlab o‘n yil davomida), «Yosh gvardiya» nashriyotida va

¹⁹⁹ *Qarang:* Q.Yo‘ldoshev va boshq. Adabiyot (Umumta’lim maktablarining 9-sinfi uchun darslik). – T.: O‘zbekiston, 2019. – 239-241-betlar. -

boshqa ko'pgina joylarda faoliyat yuritdi. 1990-yilda shoiraga "Muqaddas ayol" to'plami uchun Respublika Davlat mukofoti, 1991-yilda esa «O'zbekiston xalq shoirasi» unvoni berildi.

Shoiraning ruschaga o'g'irilgan she'rlari "*Gordost*" (1976), "*Beliye yabloki*" (1979), "*Reshimost*" (1985) nomlarida Moskva va Toshkentda bosilgan.

Halima Xudoyberdiyeva 2018-yil 17-avgustda Toshkent shahrida vafot etdi.

Shoira she'riyatida inson ko'nglidagi murakkab his-tuyg'ular, ruhiyatning g'oyat murakkab manzaralari ta'sirchan aks etgan.

TO'PLAMLARI VA SHE'RLARI: *«Ilk muhabbat»* (1969, birinchi to'plami), *«Oq olmalar»*, *«Chaman»*, *«Suyanch tog'larim»* (1991), *«Bobo quyosh»*, *«Issiq qor»*, *«Sadoqat»*, *«Muqaddas ayol»*, *«Yuragimning og'riq nuqtalari»*, *«Bu kunlarga yetganlar bor»*, *«Turkiston onasi»* kabi she'riy to'plamlari, *«Bir o'rim soch tarixi»*, *«Sayram baxshi aytimlari»*, *«Hindiqushdan nola keldi»* (bu she'rlari onasi ta'sirida bitilgan), *«Begin, sizni tabiat...»*, *«Dorilomon kunlar keldi...»*, *«Shunchaki»* kabi she'rlari, *«Ilinj»* dostoni (bu ham onasi ta'sirida bitilgan) va boshq.

Atoqli shoira Zulfiya so'zlari bilan aytganda, Halima Xudoyberdiyeva «Tuyg'un uylar, toshqin hislar kuychisi» dir.

TOG'AY MUROD

(1948 – 2003)



O'zbek milliy adabiyotining noyob vakili, novator (yangilik kashf etuvchi, yangi yo'l ochuvchi) yozuvchilardan biri bo'lgan Tog'ay Murod (Mengnorov) 1948-yilda Surxondaryo viloyatining Denov tumaniga qarashli Xo'jasoat qishlog'ida tug'ilgan. Adib 1966-yilda 13-o'rta maktabni tugatib, ToshDUning jurnalistika fakultetiga

o'qishga kirgan. 1972-yilda Tog'ay Murod o'qishni tamomlab, 1972–1976-yillar davomida respublika radiosining «Vatandoshlar» (xorijiy ellarga mo'ljallangan) tahririyatida ishlagan. U 1973–1974-yillarda armiya safida xizmat qiladi, 1976-yildan boshlab «O'zbekiston fizkulturachisi» gazetasida, 1982-yildan 1985-yilgacha «Fan va turmush» jurnalida xizmat qiladi. Adib 1985–1987-yillarda Moskvadagi Jahon adabiyoti institutida o'qib keladi.

Yozuvchi ayni ijodiy kuchga to'lgan paytda – 55 yoshida vafot etdi.

Tog'ay Murod “O'zbekiston xalq yozuvchisi” unvoni va “Otamdan qolgan dalalar” romani uchun *Abdulla Qodiriy* nomidagi Davlat mukofoti bilan taqdirlangan.

TOG'AY MURODNING IJODIY FAOLİYATI VA ADABIY MEROSI

Tog'ay Murod o'z ijodini «*Yulduzlar mangu yonadi*» qissasi bilan boshlagan bo'lib, uning birinchi romani «*Otamdan qolgan dalalar*» (1993, bu asardagi *Aqrab (Chayon) XX asrning 20-yillarida milliy istiqlol yo'lida shahid bo'lgan bobolarimiz timsolidir*) asaridir. Bu asar haqida muallif «*Men o'zbek xalqiga haykal qo'yaman!*» degan. Asar ramziy bo'lib, unda butun umr ketmon chopib, mustamlaka yurtda kosasi oqarmay kelgan o'zbek xalqi siymosi **Dehqonqul** obrazi timsolida tasvir etiladi. Ushbu asarda o'zbek xalqining 100 yildan ortiqroq tarixi aks ettirilgan bo'lib, bir oilaning uch avlodi hayoti misolida butun millatning taqdiri o'ta ta'sirchan bo'yoqlarda ifoda etilgan.

QISSALARI: «*Yulduzlar mangu yonadi*», «*Ot kishnagan oqshom*» (1979, u dastlab «*Yoshlik*» jurnalida chop etilgan. Asarning asosiy qahramoni *Ziyodulla chavandozdir*), «*Oydinda yurgan odamlar*» (1980, asar qahramonlari: *Qoplonbek va Oymomo*. Bu asarda farzand ne'matidan bebahra odamlar taqdiri yoritilgan), «*Momo yer qo'shig'i*» («*Qo'shiq*», 1985) va boshq.

ROMANI: «*Otamdan qolgan dalalar*».

TARJIMALARI: *Jek Londonning «Boyning qizi»*

dramasi va ko'pgina hikoyalari (1974–1975-yillarda), *E.Seton-Tompsonning «Yovvoyi yo'rg'a»* kitobi (1989).

«YULDUZLAR MANGU YONADI» qissasi haqida

Bu qissa 1976-yilda yozilgan. Asarda kurash, kurashchi polvonlar, ular orasidagi muomala-munosabatlar, ziddiyatli hayotiy muammolar qalamga olingan.

«Farzandlar hayotga beparvo qaraydi. Musibat bilan xursandchilik farqiga bormaydi. Farzandlar o'zlari minayotgan mashinaga o'xshaydi! Odam kim, mashina kim, bilib bo'lmay qolyapti» kabi tashvishli mulohazalar ham shu asarda uchraydi.

Asarning asosiy qahramonlari quvidagilar: *Bo'ri polvon* («Xalq nimasi bilan xalq? O'zining urf-odatlari bilan xalq! Ko'p urf-odatlarimizni birovlar... birovlar o'ziniki qilib oldi! Biz qo'limizni burnimizga tiqib qoldik. Shunday keta bersak, hademay... o'zimizni-da boy berib qo'yamiz» degan gaplarni u aytgan), *Nasim polvon, Sadir polvon, Ro'zi polvon, Maksim polvon, Amir polvon, Normurod polvon, Tilovberdi, Ismoil polvon, Abray polvon* (u Nasim polvonning o'g'li), *Momoqiz* va boshq.

SHAVKAT RAHMON

(1950 – 1996)



XX asr o'zbek she'riyatining o'ziga xos vakili, millatparvar shoir **Shavkat Rahmon** 1950-yil 12-sentabrda O'sh shahrida tug'ilgan. Savdo xodimlari bo'lishgan otasi Rahmonberdi va onasi Oftobxon asli Shahrixonlik edilar. Shavkat 13 yoshida g'isht zavodiga ishga kiradi va o'zi ochiq ayvoni bo'lgan 2 xonali uy quradi. Keyinchalik bu uyga turmush o'rtog'i – Manzura kelin bo'lib tushadi.

Shavkat 1966-yil o'rta maktabni bitirgach, ikki yil ketma-ket ToshDUning filologiya fakultetiga o'qishga hujjat topshiradi,

lekin tanlovdan o'ta olmaydi. Shundan so'ng u bir qancha vaqt O'sh viloyati gazetasida harf teruvchi, musahhih bo'lib ishlaydi. Matbuotda Moskvadagi Maksim Gorkiy nomidagi Adabiyot institutiga tanlov e'lon qilingach, Shavkat o'z she'rlarini yuboradi va tanlovdan o'tadi. U yerda tengdoshlari *Halima Xudoyberdiyeva*, *Murod Muhammad Do'st*, *Sobit Madaliyev* kabi adiblar bilan yonma-yon saboq oladi. 1975-yilda o'qishni tugatib, Toshkentga keladi va bir qator nashriyotlarda muharrirlik qiladi.

Shavkat Rahmon 1996-yil 2-oktabrda uzoq davom etgan og'ir kasallikdan so'ng vafot etgan.

Shavkat Rahmon 1979-yilda ispan shoiri *Federiko Garsia Lorca* she'rlarini o'zbek tiliga tarjima qilib, "Saylanma" nomi bilan nashr ettirgan. Shoir ispan tilini o'rganadi, 1986-yilda Ispaniyada ijodiy safarda bo'ladi va Lorkaning she'rlarini ispanchadan o'zbekchaga o'g'irgan. 1989-yilda Lorkaning "*Eng qayg'uli shodlik*" she'riy kitobi shu tariqa o'zbek tilida nashr qilingan.

1996-yil 2-oktabrda Shavkat Rahmonga «*O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan madaniyat xodimi*» unvoni berildi, vafotidan so'ng «*Saylanma*»si (1997) nashr qilindi.

ADABIY MEROSI: «*Rangin lahzalar*» (1978), «*Yurak qirralari*» (1981), «*Ochiq kunlar*» (1983), «*Gullayotgan tosh*» (1984), «*Uyg'oq tog'lar*» (1986), «*Hulvo*» (1988) kabi she'riy kitoblari, "*Turkiylar*" (bu she'rda shonli bobolarga munosib bo'lolmagan turkiy xalqlarga xos illatlar ayovsiz fosh etilgan), "*Tungi manzara*" (bu she'rda tabiatning kishi ruhiyatida mahzunlik uyg'otgan holati tasvirlangan), "*Tong ochar ko'zlarin...*" (bu she'rda tabiatning kishi ruhiyatida umidbaxshlik uyg'otgan holati aks ettirilgan), "*Oy sinig'i*", "*Hamal*" (bu she'rda shoir vodiydagi gullagan o'riklarni yerga qo'ngan oq bulutlarga, tundagi oq mash'alaga qiyoslab tasvirlagan), "*Savol*", "*Urush suvrati*", "*Minorayi kalon*", "*Sulaymon tog'i etagida o'ylaganlarim*", "*Yosh tog'lar*", "*Jangda o'lgan emas biror bahodir...*", "*Baxt so'zi*" kabi she'rlari va boshq.

SHAROF BOSHBEKOV

(1951-yilda tugʻilgan)

«Har bir yozuvchining qandaydir oʻzigagina xos jihati boʻladi. Kimdir sujet topishga usta, kimdir noyob xarakterlar yaratishga mohir, boshqalari asar voqealarini zargarona terishda tengi yoʻq. Mening eng yaxshi koʻrgan qurolim – yumor».

Sharof Boshbekov



Sharof Boshbekov 1951-yilda Samarqandda tugʻilgan. U adabiyotga XX asrning 70-yillarida kirib keldi. Adib adabiyotning murakkab janrlaridan boʻlgan dramaturgiyada ijod qiladi. Sharof Boshbekovga 1990-yilda Hamza nomidagi Respublika Davlat mukofoti berildi.

Yozuvchining ssenariysi boʻyicha suratga olingan *“Masxaraboz”* filmi hamda *“Charxpalak”* teleserialiga uning oʻzi rejissorlik qilgan. Shuningdek, adib *“Qasosli dunyo”*, *“Maʼrif va Sharif”*, *“Tilla bola”*, *“Yuzsiz”*, *“Doka roʻmol qurishi”*, *“Oʻyin”* singari filmlarga ssenariy yozgan. Dramaturgning *“Mehr va mauzer”*, *“Soʻqmoq”*, *“Falakning gardishi”*, *“Vafodor”*, *“Musofir boʻlmaguncha”* kabi kinoqissalari mashhur.

ASARLARI: «*“G” varianti*» hikoyasi (1981), *«Jumboq»* hajviyasi (1986), *«Gʻurur»* hajviy hikoyasi (1982), *«Tushov uzgan tulporlar»* (1983), *«Eshik qoqqan kim boʻldi?»* (1987) kabi komediyalar, *«Eski shahar gavroshlari»* (1988), *«Temir xotin»* (1989, **asar qahramonlari:** *Qoʻchqor (traktorchi)*, *Alomat (robot)*, *Olimjon (olim)*, *Qumri (Qoʻchqorning xotini)*, *Sharofat (qoʻshni ayol)*, *Turobjon (Qoʻchqorning oʻgʻli)* va boshq.) kabi jiddiy komediyalar, *«Taqdir eshigi»*, *«Tikansiz tipratikanlar»*, *«Charogʻbonlar»*, *«Tentak farishtalar»* kabi pyesalar va boshq.

MUHAMMAD YUSUF

(1954 – 2001)

Yuraklarda yurmagini,
Oh, oldindan bilgan qush.
Har o‘zbekning yuragini,
O‘ziniki qilgan qush.

Halima Xudoyberdiyeva



O‘zbekiston xalq shoiri **Muhammad Yusuf** 1954-yil 26-aprelda Andijon viloyatining Marhamat tumanidagi Qovunchi qishlog‘ida dehqon oilasida tug‘ilgan.

Muhammad Yusuf o‘rta maktabni tugatgach, Toshkentdagi Respublika Rus tili va adabiyoti institutida o‘qib, uni 1978-yilda bitiradi.

Shoir 1978–1980-yillarda respublika “Kitobsevarlar” jamiyatida, 1980–1986-yillarda «*Toshkent oqshomi*» gazetasida, 1986–1992-yillarda G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san‘at nashriyotida, 1992–1995-yillarda «*O‘zbekiston ovozi*» gazetasida, O‘zbekiston Axborot agentligida ishlaydi, 1995–1996-yillarda Davlat va jamiyat qurilish akademiyasida o‘qiydi, 1997-yildan umrining oxirigacha O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi raisining yoshlar bilan ishlash bo‘yicha o‘rinbosari lavozimida faoliyat yuritadi.

Shoir 2001-yil iyul oyida Qoraqalpog‘istonning Ellikqal‘a tumaniga qilingan ijodiy safar chog‘ida yurak xurujidan vafot etgan.

Muhammad Yusuf “Do‘stlik” ordeni hamda 1998-yilda “O‘zbekiston xalq shoiri” unvoni bilan mukofotlangan.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2013-yil 27-dekabrda «*O‘zbekiston xalq shoiri Muhammad Yusuf tavalludining 60 yilligini mamlakat miqyosida keng nishonlash to‘g‘risida*»gi qaroriga asosan 2014-yilda joylarda adabiy-badiiy kechalar va mushoiralar o‘tkazildi, shoirning «*Saylanma*» asarlari, «*Muhammad Yusuf zamondoshlari xotirasida*» to‘plami chop etildi, shoirning hayoti va ijodiy faoliyati haqida hujjatli film yaratildi.

MUHAMMAD YUSUFNING IJODIY FAOLIYATI VA ADABIY MEROSI

Muhammad Yusufning dastlabki she'rlari «O'zbekiston adabiyoti va san'ati» ro'znomasida 1976-yilda chop etilgan edi.

Shoirning ijodiy faoliyati 1980-yildan boshlangan. Uning «*Tanish teraklar*» deb nomlangan birinchi she'riy to'plami 1985-yilda nashr qilingan.

SHE'RLARI: «*Vatanim*», «*Xalq bo'l, elim*» (“*Madhiya*”), «*Dunyo*», «*Inshoolloh*», «*O'zbekmomo*», «*Iqror*», «*Tilak*», «*Biz baxtli bo'lamiz*», «*Mehr qolur, muhabbat qolur...*» (Bu she'r murabba' (to'rtlik) shaklida yozilgan bo'lib, unda Tohir va Zuhra nomlari tilga olingan), «*Yurtim, ado bo'lmas armonlaring bor...*», «*Kumush*», «*Kokilingni kim kesdi*», «*Aldov*», «*Turkman qizi*», «*Yur, Muhammad, ketdik bu yerdan*», «*Surat*» (bu she'rda shoir o'z ichki dunyosini aks ettirgan, uning lirik qahramoni «umrini ko'ngliga topshirib qo'ygan». She'rda lirik qahramon «Uyg'onsam ko'rpam kul, Yig'lar sevgilim... Ayiq bosgan gulday ezildi ko'nglim», – deydi), «*Jayron*», «*Muhabbat*», «*Yangi yil kechasi*» va boshq.

SHE'RIY TO'PLAMLARI: «*Tanish teraklar*», «*Bulbulga bir gapim bor*» (1987), «*Illitjo*» (1988), «*Uyqudagi qiz*» (1989, ana shu to'plami uchun shoirga Respublika Yoshlar mukofoti berilgan), «*Halima enam allalari*» (1989), «*Ishq kemasi*» (1990), «*Ko'nglimda bir yor*» (1990), «*Bevafo ko'p ekan*» (1991), «*Yolg'onchi yor*», «*Erka kiyik*» (1992), «*Osmonimga olib ketaman*», «*Saylanma*» va boshq.

DOSTONLARI: «*Qora quyosh*», «*Osmonning oxiri*».

«VATANIM» she'ri haqida

Bu she'rda shoirning ona yurtidan tuygan mehri xuddi singilning, onaning mehridek iliq, u bir aka bo'lib, bir o'g'il bo'lib bu mehrga javob bergisi, ana shu yurt “o'g'lim” deya unga mushtoq bo'lsa, har qanday mushkulot qarshisiga chiqqisi, kelgusi padarkushlardan kelajak ulug'beklarini pana qilib, quchgisi keladi²⁰⁰.

²⁰⁰ Qarang: S.Olim va boshq. Adabiyot (Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 8-sinfi

She'rdan *Mashrab, Navoiy, Yassaviy, Chingizxon, Temur Malik, Muqanna, Jaloliddin, Bobur, Alpomish, Ulug'bek, Qodiriy* (she'rdan uning "O'tkan kunlar" asari haqida ham fikr yuritilgan) kabi shaxslar nomi qayd etilgan bo'lib, ko'pgina ajdodlarimiz haqida ishoralar ham mavjud. Bunda Muhammad Yusuf buyuk shaxslar ismi bag'riga xalq tarixini, uning eng zafarli va eng achchiq kunlarini jamlagan.

Quyidagi parcha ham shu she'rdan uchraydi:

**Padarkushdan pana qilib
Ulug'beging quchgayman,
G'ichir-g'ichir tishimdagi
So'lig'imsan Vatanim...**

**«YURTIM, ADO BO'LMAS ARMONLARING BOR...»
she'ri haqida**

Shoir bu she'rdan «*Aybin bilmay ketgan Akmal Ikromlar*», «*Fayzullodek mardi maydonlar*», «*Jayrondek termulgan Cho'lponlar*», «*Qayinbarglar ko'zini yopgan, olislarda qolgan Usmonlar*», «*Qodiriyning sotib shoir bo'lganlar*» kabi termalarni qo'llagan. She'rdan Abdulla Qodiriyning "Mehrobdan chayon" asari haqida ham aytib o'tilgan.

«BIZ BAXTLI BO'LAMIZ» she'ri haqida

Bu she'rdan shoir o'z sevgilisini «*Kiprikleri uzun kokillaridan?*» deya ta'riflagan. Bunday o'xshatish Usmon Nosirning «*Naxshon*» dostonidagi «*Kiprigi ko'ksiga soya solgan qiz*» degan ta'rifga hamohangdir.

«*Faqat yig'lamagin, aybim nima deb, Aybing – onang seni chiroyli tuqqan!..*» – misralari ham shu she'rdan uchraydi.

uchun darslik-majmua). – T.: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, "O'zbekiston" nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2010. – 299-bet

SHE'RLARIDAN PARCHALAR:

Quvroq bo'lib deyishdi. Yolg'on ham kerak,
Jindak xushomad ham, quloq solmadim.
Oqni oppoq ko'rdim, qorani-qora –
Men o'z bilganimdan qolmadim...

(«Men o'z bilganimdan qolmadim» she'ridan)

* * *

Barcha farishtalar
sening qalbingda,
Ijarada turgan
Qizlar men uchun!..

(«Biz baxtli bo'lamiz» she'ridan)

* * *

Yoqa ushlab qolsin ko'rganlar,
Olovlarga otdim uni, bas.
Yonib ketsin chirsillab qalbim,
Sevish kerak... yashash shart emas!

* * *

Qancha g'amga botmagan edim, qancha og'u yutmagan edim...
O'z bolamdan kutmagan edim... men dardimni kimga aytaman.

(Bu misralar Ulug'bek tilidan aytilgan)

Yurak qoning to'kilgan so'qmoq –
Bag'ri alvon lolaqizg'aldoq... (*«Jayron» she'ridan*)





IV BO'LIM

JAHON ADABIYOTIDAN

42-MAVZU.

JAHON ADABIYOTI NAMOYANDALARI

EZOP

(Miloddan oldingi VI asr)



Ulug' yunon masalchisi Ezop, rivoyatlarga qaraganda, asli Frigiyalik qul bo'lib, keyinchalik ozod bo'lgan. U Lidiya shohi Krez saroyida xizmat qilgan, Vavilon shohi Likurg saroyida xazinabon bo'lib ishlagan. Ezopning dushmanlari uni Delfa shahrida tog' qoyasidan tashlab yuborib, o'ldirganlar.

Rivoyat qilishlaricha, Ezopning xo'jayini safarga otlanar ekan, o'z qullariga yuklarni bo'lib olib, ko'tarib kelishini buyuradi. Shunda Ezop non solingan og'ir qutini ko'tarib oladi. Boshqa qullar uning ustidan kulishadi. Anchagina yo'l bosib o'tilgach, Ezop ko'tarib olgan qutidan nonlar ulashiladi va quti manzilgacha bo'shaydi.

Yana bir rivoyatda aytilishicha, Samos orolida xo'jayini Ezopni mashhur faylasuf Ksanfga sotadi. Kunlarning birida Ksanfmastlikda dengiz suvini ichib yuborishini aytib, maqtanadi. O'g'aynilaridan biri u bilan barcha mol-mulkni yutgan odam olishiga garov bog'laydi. Ertasiga Ksanf vaziyatdan chiqib ketish uchun Ezopning oyoqlariga yiqilib, yordam so'raydi. Ezop unga yordam berib, og'aynisidan "dengizga quyiladigan barcha daryo va irmoqlarning suvini ajratib berishini so'rash"ni o'rgatadi. Ksanf vaziyatdan qutulgach, qullikdan ozod qilish o'rniga, arzimagan bahona qilib, Ezopni qattiq jazolaydi.

Ezopning 500 ga yaqin masallari to'plangan va «Ezop masallari» nomi bilan kitob qilingan.

EZOP MASALLARI: «*Yovvoyi echkilar bilan cho'pon*», «*Kiyik bilan tokzor*», «*Bo'ri bilan laylak*», «*Eshak bilan baqalar*», «*Ustiga tuz yuklangan eshak*», «*Burgut, zag'cha va cho'pon*» va boshq.

Ezop masallari haqida

“Ulug' masalchi” Ezop o'z masallarida insonlar tabiatidagi illatlarni, yaramas xususiyatlarni juda aniq anglab, lo'ndagina majoziy voqealar asosida ularning mohiyatini ko'rsatib bera olgan.

Ezopning «*Burgut, zag'cha va cho'pon*» masalida o'ziga ortiqcha baho berishning oqibati yoritilgan bo'lsa, «*Eshak bilan baqalar*» masali mazmuni «*Birni ko'rib shukr qil, birni ko'rib fikr qil*» o'zbek xalq maqoliga hamohangdir. “*Eshak bilan baqalar*” masalida insonning qiyinchilikda ham, yo'qchilikda ham sabr-qanoat qilib yashashi, oddiy vaziyatlarda o'zini yo'qotib qo'ymasligi va shu kabi jihatlar yoritilgan.

Adibning «*Yovvoyi echkilar bilan cho'pon*» masalidan do'stga sadoqatli bo'lish, «*Bo'ri bilan laylak*» masalidan yaxshilikni uning qadriga yetadigan odamga qilish kerakligi, «*Kiyik bilan tokzor*» masalidan esa yaxshilikka hamisha yaxshilik bilan javob qaytarish kerakligi haqida xulosa kelib chiqadi.

RUDAKIY²⁰¹

(858 – 941)



Abu Abdullo Ja'far ibn Muhammad Rudakiy Tojikistonning Panjrudak qishlog'ida (hozirgi Panjakent yaqinida) tug'ilgan. U fors-tojik she'riyatining asoschilaridan biri bo'lib, yoshligidanoq chang chalish, qo'shiq aytish va badiiy ijod bilan shug'ullangan.

Rudakiy Samarqand madrasasida tahsil olgan, keyinchalik Somoniylar saroyiga xizmatga olingan. U 40 yil mobaynida shoirlarga rahnamolik qilgan. Rudakiy *«Odam ush-shuaro»* (*«Shoirlarning Odam Atosi»*) degan nom bilan shuhrat qozongan.

Qarigan chog'ida u saroydan quvilgan. Rivoyatlar Rudakiyning hurfikrliligi uchun ko'zlariga mil tortilganidan ham xabar beradi. Aslida uning ko'zi tug'ma ojiz bo'lganligi haqida ham rivoyatlar bor.

Boshqa bir rivoyatga ko'ra, somoniylar amiri Nasr ibn Ahmad Somoniy (914–942) Hirotda ziyofatlar ichida yuraveradi. Yurtni sog'ingan sarbozlar amirga ta'sir ko'rsatishni Rudakiydan iltimos qilishadi. Shunda Rudakiy bir ziyofat chog'ida o'zining mashhur *«Bo'yi jo'yi Mo'liyon oyad hame»* (*«Mo'liyon bo'yi bu yon kelmoqdadir»*) qo'shig'ini changda ijro etadi. Qo'shiqdan amir shunchalik ta'sirlanadiki, yalangoyoq holda otga sakrab minib, yurtga qaytish haqida farmon beradi.

Rudakiy ijodi fors-tojik adabiyotida g'azal janrining paydo bo'lishi, shakllanishi va rivojida alohida ahamiyat kasb etadi.

To'rtlik va ruboiylarning dastlabki ijodkori ham Rudakiy bo'lgan degan fikrlar bor. Fors-tojik she'riyatidagi ruboiylar taraqqiyotida Rudakiyning xizmati katta.

Ayrim manbalarga ko'ra, Rudakiy 100 000, boshqa

²⁰¹ *Qarang:* B.To'xliyev, B.Abdurahmonova. Adabiyot (Akademik litseylarning birinchi bosqich o'quvchilari uchun majmua). – T.: Cho'lpon, 2007. – 210-bet; B.To'xliyev. Adabiyot (Akademik litsey va kasb-hunar kollejlari uchun darslik). – T.: O'qituvchi, 2002. – 92-93-betlar; O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi. 7-jild. – 382-383-betlar

manbalarda keltirilishicha, 1 300 000 misra she'r yozgan. Ammo bizgacha uning 2 000 misra (1000 bayt)ga yaqin she'ri yetib kelgan, xolos.

ASARLARI: «*Qarilik haqidagi qasida*»si, «*Kalila va Dimna*» dostonining 1000 misrachasi, «*Modari may*» («*May onasi*») qasidasi, «*Sinbadnoma*», «*Arois un - nafois*» dostonlari, *ruboiylari* va boshq.

SHE'RLARIDAN PARCHALAR:

Ilonni har qancha qilsang tarbiyat,
Oxir zahrin sohib, yetkazar zahmat.
Nokas tabiati ilon kabidir
Yuzin ko'rmaslikka etgil harakat.

* * *

Tishim bari to'kilib ketdi, durri g'alton edi,
Ularni tish dema, charog'i tabon edi.

* * *

Kimki olmasa hayotdan ta'lim,
Unga o'rgatolmas hech bir muallim.

FIRDAVSIY²⁰²

(941 – 1025)



Fors-tojik adabiyotining ulkan shoiri **Abulqosim Firdavsiy** 941-yilda Xurosonning hozirgi Eron Islom Respublikasi hududidagi Tus shahri yaqinida bo'lgan Boj qishlog'ida o'rtahol dehqon oilasida tug'ilgan. Hozirda Tus shahri Firdavs deb yuritiladi.

Bo'lajak shoiring otasi Tus hokimining «*Firdavs*» («*Jannat*») nomli bog'ida bog'bon bo'lgan (*ba'zi ma'lumotlarga ko'ra sarbozlik (askarlik)*)

²⁰² *Qarang:* S.Olim va boshq. Adabiyot (Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 8-sinfi uchun darslik-majmua). – T.: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, "O'zbekiston" nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2010. – 307–311-betlar

xizmatida ham bo'lgan). Firdavsiy dastlab qishlog'idagi diniy maktabda, so'ng Tus va Nishopur shaharlaridagi madrasalarda tahsil oladi. Katta ilm egasi bo'lganligi uchun uni «*hakim*», ya'ni “donishmand”, “faylasuf” deb ulug'lashgan ekanlar. Firdavsiy otasi vafotidan so'ng bog'bonlik qiladi.

Shoir sharq xalqlari tarixini o'rganadi, ko'hna rivoyatlarni yozib oladi. Aytishlaricha, Xuroson hukmdori Mahmud G'aznaviy shoirga «*Shohnoma*» (Shohlar haqidagi kitob) yozishni topshiradi va asardagi har bir misra uchun bir dinor oltin tanga berishni va'da qiladi. Hukmdor va'dasidan tonib, shoirga 120 dona kumush tanga beradi. Firdavsiy bundan g'azablanib, bu tangalarning bir bo'lagini hammom xodimiga, bir qismini sharbat sotuvchiga va yana bir bo'lagini pulni olib kelgan mulozimlarga taqsimlab beradi, Mahmud G'aznaviyni xasislik va pastkashlikda ayblovchi hajviya yozadi. Shundan so'ng shoir quvg'inda yuradi, Iroqqa ko'chib boradi.

Firdavsiy 1025-yilda o'z ona qishlog'ida vafot etadi. Ruhoniylar uni musulmonlar mozoriga qo'ydirmaganlaridan so'ng, o'zining bog'iga dafn etadilar. 1934-yilda Firdavsiy dafn etilgan joyda maqbara o'rnatilgan.

Ba'zi ma'lumotlarga qaraganda, Firdavsiyning *she'rlari* va «*Yusuf va Zulayho*» dostoni ham bo'lib, ular bizgacha yetib kelmagan.

Adibning «*Shohnoma*» asaridagi voqealar eramizgacha bo'lgan 3223-yildan boshlanadi va 4 sulola tarixini o'z ichiga oladi. Bu sulolalar quyidagilardir:

a) *pehdodiyalar sulolasi* – eramizgacha bo'lgan 3223–782-yillar;

b) *kayoniylar sulolasi* – eramizgacha bo'lgan 782–50-yillar;

d) *ashkoniylar sulolasi* – eramizgacha bo'lgan 50-yildan eramizning 150-yiligacha;

e) *somoniylar sulolasi* – eramizning 150–651-yillari.

«*Shohnoma*» shartli ravishda *mifologik, qahramonlik, tarixiy* kabi uch qismga bo'linadi. Asar 30–35 yil mehnat samarasi bo'lib, 60 ming baytdan iborat. «*Shohnoma*» aruzning *mutaqoribi musammani mahzuf (yoki maqsur)* (faulun-faulun-faulun-faulun-faulun (yoki faol)) vaznida, masnaviy usulida yozilgan.

Asar XVIII asrda *Shoh Hijron, Xomushiy*, XIX asrda *Nurmuhammad Buxoriy, Ochildimurod Miriy*, XX asrda *Shoislom Shomuhamedov, Hamid G'ulom, Nazarmat, Jumaniyoz Jabborov* kabi o'zbek shoirlari tomonidan o'zbekchaga tarjima qilingan. Keyingi tarjima 3 jildda 1975-, 1976-, 1977-yillarda nashr qilingan.

Asar hali to'lig'icha o'zbek tiliga o'girilmagan.

FIRDAVSIY HIKMATLARIDAN:

Nodonlikdan yomonlik keladi faqat,
Nodonga yondashma, bosmasin g'afat.

* * *

Yomonga qo'shilma, bo'lursan yomon,
Qarosin yuqtirar doimo qozon.

* * *

Hamisha aqlingni rahnamo etgil,
Noloyiq ishlardan olisga ketgil.

* * *

Aqli bo'l, bo'lgin beziyon,
Hamisha tilingga bo'lgin posbon.

SA'DIY SHEROZIY (XII asr oxiri–XIII asr)



Sa'diy Sheroziyning tug'ilgan yili aniq emas. Ayrim manbalarda uning tug'ilgan yili 1184-, 1189-, 1193- yoki 1203-1210-yillar orasi deb taxmin qilinadi. Olimlarning ta'kidlashlaricha, adib 1292-yilda vafot etgan.

Shoironing to'liq ismi *Abu Abdulloh Mushrifiddin ibn Muslihiddin Sa'diy Sheroziy* bo'lib, adib sherozlik davlat xizmatchisi oilasida tug'ilgan.

Bag‘doddagi «Nizomiya» madrasasida o‘qigan, O‘rta va Yaqin Sharq mamlakatlariga, Xitoy va Hindistonga ko‘p marta sayohat qilgan. Uning bu safari 30 yil davom etgan.

Sa‘diy o‘z ijodini lirik she‘rlar yozishdan boshlagan. Uning «*Guliston*» va «*Bo‘ston*» asarlari Sharq adabiyotida didaktik yo‘nalishni boshlab bergan. Bu asarlar Turkiston madrasalarida o‘quv qo‘llanmasi sifatida ham xizmat qilgan. Sa‘diy kulliyoti 19 bo‘limdan iborat.

Sa‘diy nomi Eronda ham, Turkistonda ham mashhur bo‘lgan. Hatto fransuz Volter va nemis Gyote ham o‘z asarlarida Sa‘diy Sheroziy she‘rlariga murojaat qilganlar.

Sa‘diy Sheroziyning «*Ey sorbon, ohista yur, oromijon ketmoqdadir*» misrasi bilan boshlanuvchi g‘azali ham juda mashhur.

Sa‘diyning «*Bo‘ston*» asari (1257) she‘riy usulda bo‘lib, 10 bobdan iborat, ta‘lim-tarbiyaviy ruhdagi ibratli hikoyalardan iborat.

«*Guliston*» asari (1258) 8 bobdan iborat bo‘lib, unda ham ta‘lim-tarbiyaviy mazmundagi hikoyatlar (“*Hunar o‘rganmoq haqida*”, “*Daryo ko‘rmagan qul hikoyati*”, “*Darvesh hikoyati*”, *yaxshi odamning uyida yomon xotin davosiz dard, hayosiz dushman ekanligi haqidagi hikoyat* va boshq.) va she‘riy uslubda yozilgan hikmatlar mavjud.

“*Guliston*” asari so‘nggi 6–7 asr davomida bir necha bor o‘zbek tiliga tarjima qilingan, “*Bo‘ston*” asari esa 1960-yilda o‘zbek tiliga o‘girilgan.

Sa‘diy ohangdor, yuksak badiiyatli g‘azallar bilan ham shuhrat qozongan. Uning “*Senmusan, yo bog‘ima sarvi ravonim keldimu...*” hamda “*Do‘stlarimning suhbatlari xuddi olam jannati...*” deb boshlanuvchi g‘azallari o‘ziga xos xususiyatlarga ega.

Sa‘diy Sheroziy o‘z hikoyatlaridan birini «*O‘sha darvesh men o‘zim edim*» deb xotimalagan. U «*Guliston*» asarining «*Suhbat qoidalari bayoni*» bobida mol-mulk yig‘ib foydalanmaydiganlar va ilmiga amal qilmaydigan odamlarni ustiga kitob ortilgan eshakka qiyoslaydi:

**Harchand o'qibsan, bilimdonsan,
Agar amal qilmading, nodonsan.
Ustiga kitob ortilgan eshak,
Na olim va na donodir beshak...**

Sa'diy Sheroziy "Bo'ston" asarida oddiy bo'zdan kiyim kiyadigan adolatli podsho haqida, ayb qidirmaslik haqida, hayit kuni adashib qolgani va otasining sabog'i haqida ham yozgan.

ASARLARIDAN PARCHALAR:

**Darvesh agar yuz noma'qul ish qilsa,
Biriga ham do'stlar qilmas e'tibor.
Ammo podshoh biror hazil so'z desa,
Iqlimdan-iqlimga o'tadi takror.**

* * *

**So'yilgan hayvonning pochasidan puflasa shishganiday,
axmoqqa ham maqto'v xush yoqib, semiradi.**

* * *

**Boshqalar moliga ko'ngil qo'ymagil,
So'ngra ko'ngil uzmoq juda ham mushkul.**

* * *

**Erta kun arpaga zor bo'lmay desang,
Bukun ek, shoyadki, bug'doy non yesang.**

* * *

**Chumoli yoz bo'yi yig'ar yemak – don,
Toki qishda uyi bo'lsin farovon.**

* * *

**Fildek zo'r bo'lsang-u sherdek urishqoq,
Nazdimda, jangdan sulh ming bor afzalroq.**





43-MAVZU. JAHON ADABIYOTI NAMOYANDALARI

JALOLIDDIN RUMIY²⁰³ (1207 – 1273)



Ota-bobolari asli xorazmlik bo'lgan **Jaloliddin Rumi** Balxda tug'ilgan. U tug'ilishidan ruhiy quvvat sohibi bo'lgan. Bu haqda Alisher Navoiyning «Nasoyim-ul muhabbat» asarida quyidagicha ma'lumot berilgan:

“Mavlono Muhammad Jaloliddin Rumi y olti yoshida ekanida uylarining tomida o'z tengqurlari bilan o'ynab yurardi.

Tengqurlardan biri unga: «Keling, birga tomdan sakraymiz», deydi. Shunda Jaloliddin «Bu it va mushuklarning ishidir. Agar sizning joningizda quvvate bo'lsa, osmon tomiga sekreli...» deydi va shu holatda tomdan havoga ko'tarilib, ko'zdan g'oyib bo'ladi. Bolalar iztirobdan qichqirishib, yig'lab qoladilar. Bir lahzadan keyin Jaloliddin Muhammad o'sha tomga tushadi va deydi: «Men sizlarga u so'zlarni aytib turganimda yashil kistvatlig'lar (yashil kiyimli farishtalar) meni osmonga eltdilar, ajoyib malaklarni ko'rsatdilar, sizlarning yig'i-faryodingiz ko'kka chiqqach, yana olib tushib qo'ydilar»²⁰⁴.

Otasi **Muhammad Bahouddin Valad** zamonasining mashhur kishisi, notiq, voiz (va'zxon) bo'lib, u Najmiddin Kubroning yaqin shogirdlaridan hisoblanib, «*Sulton-ul ulamo*» darajasiga erishgan.

²⁰³ *Qarang:* A.Rafiyev, N.G'ulomova. Ona tili va adabiyot (Akademik litsey va kasb-hunar kollejlari uchun darslik). – T.: Sharq, 2013. – 186-188-betlar.

²⁰⁴ A.Rafiyev, N.G'ulomova. Ona tili va adabiyot (Akademik litsey va kasb-hunar kollejlari uchun darslik). – T.: Sharq, 2013. – 186-bet

Mavqeyi baland bo'lgan Bahouddin Valad Xorazmshoh bilan munosabati buzilgach, oilasi, yaqinlarini olib Balxdan Bag'dodga ko'chib ketadi. Otasi bilan Xuroson, Hijoz, Bag'dod, Shomga qilgan safarlaridan so'ng Jaloliddin Ko'niyoda (Turkiya) qo'nim topadi. Jaloliddin Rumi otasi vafotidan so'ng uning o'rniga madrasaga bosh mudarris bo'lib tayinlanadi. Shu madrasada fiqh (diniy huquqlar) ilmidan dars bera boshlaydi.

Mavlono Rumi umr bo'yi diniy aqidalar istibdod (jabr-zulm)iga qarshi inson ruhi erkinligini himoya qilgan, irqi, tili va diniy mazhabidan qat'i nazar, insonlar tengligini tashviq etgan.

Jaloliddin o'zini anatoliyalik hisoblab, **Rumi** taxallusini oladi.

Allomaning ilmiy va adabiy merosi g'oyat katta. G'azal, masnaviy va ruboiylardan iborat **«Devoni kabir»** (**«Ulug' devon»**)da 3000 dan ziyod she'r bo'lib, **«Masnaviy»** ("Forsiy Qur'on" deb atalgan) asari 31 000 dan ortiq misradan iborat. Rumiyning qo'liga qalam olib yozgani atigi 18 misra bo'lib, qolganlari «kotibi asror»lar tomonidan ko'chada, uyda, majlisi samoda yozib olinaverilgan.

«Masnaviy» – olamni egallashga va o'z-o'zini anglashga intilgan inson ruhining taronasi. Avlodlar *«Forsiy Qur'on»* deb atagan bu kitobni u oddiygina qilib «Masnaviy» deb ataydi. Bu asar asosida o'nlab to'plamlar, arab, fors, turk tillarida yuzlab jild tahlil va talqinlar bitilgan. Rumi «Masnaviy» asaridagi murakkab falsafiy mushohadalarni **«Ichingdagi ichingdadir»** asarida aniq va sodda shaklda tushuntirib bergan.

Iste'dodli shoir Jamol Kamol Jaloliddin Rumi ruboiylarini aruz vaznida o'zbek tiliga o'giran.

MUHAMMAD FUZULIY (1498 – 1556)



Muhammad Sulaymon o'g'li Fuzuliy turkiy she'riyatning Alisher Navoiydan keyingi zabardast vakilidir.

Muhammad Fuzuliy 1498-yilda hozirgi Iroqning Karbalo shahrida ziyoli oilada tug'ilgan. Fuzuliyning otasi Sulaymonning bir vaqtlar Ozarbayjonning Arash degan joyidan Karbaloga ko'chib borib qolganini naql qiladilar. Fuzuliyning o'g'li – Fazliy keyinchalik Arashga qaytib borib, qarindosh-urug'lari yonida yashagan.

Fuzuliy dastlab maktabda, keyin esa Bag'doddagi madrasada ta'lim oladi. U tarix, tibbiyot, astronomiya, geometriya, logika va boshqa fanlar bilan shug'ullanadi. Yoshligidayoq she'r yozishni mashq qila boshlagan Fuzuliy mohir va jo'shqin lirik shoir bo'lib yetishadi. Shoirning nomi buyuk Navoiy nomi bilan hamisha yonma-yon kelgan, devoni asrlar osha Navoiyniki bilan bir qatorda maktab va madrasalarda o'qitilgan.

Fuzuliy Iroqning *Bag'dod, Hilla, Najaf* kabi shaharlarida yashagan. Shoir umrining oxirlarida Karbalo shahriga ko'chib kelib, shu yerda 1556-yilda vabo kasali bilan vafot etgan.

FUZULIYNING ADABIY MEROSI

Fuzuliy turkiy, forsiy va arabiy tillarda devon tuzgan. Uning turkiy devoniga *300 ga yaqin g'azal, 75 ta ruboiy, 42 ta qit'a, 27 ta qasida va bir qancha tarje'band, tarkibband, murabba' va muxammaslar* kirgan.

1958-yilda Fuzuliyning devoni, 1968-yilda Xolid Rasul tashabbusi bilan ikki jildlik asarlari nashr etilgan.

SHE'RLARI: *«O'landan so'r»* radifli g'azali (7 baytli bu g'azalda adib ishqqa muhtalo bo'lgan kishi bilan ishqdan hexabar odam o'rtasidagi farqni ochib bergan), *«Mani jondan o'sondirdi...»* g'azali (u g'azali musajja' usulida bitilgan, radd ul-qofiya qo'llangan), *«Kerakmazmi sanga?»* radifli g'azali (7

baytli bu g'azal ham ishqiy mavzuda bitilgan, ko'plab o'zbek hofizlari tomonidan qo'shiq qilib kuylangan), «*Parishon holing o'ldim, so'rmading holi parishonim*» murabba'si va boshq.

DOSTONLARI: «*Layli va Majnun*» (1537, turkiy tildagi doston), «*Haft jom*», «*Anis ul-qalb*» («*Qalb do'sti*»), «*Matla' ul-e'tiqod*» («*E'tiqodning boshlanish joyi, falsafiy risola*»), «*Yetti jom*» («*Soqiynoma*»), «*Hadiqat us-suado*» («*Baxtiyorlar bog'i*») va boshq.

MAJOZIY ASARLARI: «*Sihhat va maraz*» («*Sog'lik va bemorlik*»), «*Rind va zohid*» («*Mayparast va tarkidunyochi*»), «*Suhbat ul-asmor*» («*Mevalar suhbat*») va boshq.

NASRIY ASARI: «*Shikoyatnoma*» (Fuzuliy shu asari bilan turkiy nasr taraqqiyotiga hissa qo'shgan).

UILYAM SHEKSPIR

(1564 – 1616)

«Plavt va Seneka rimliklar uchun komediya va tragediya borasida tengsiz bo'lgani singari Shekspir inglizlar uchun pyesaning har ikki turida ham beqiyosdir».

F.Meres (Londonlik tanqidchi)



Jahon adabiyotidagi ulkan tragediyanavis, ingliz shoiri, dramaturg, aktyor **Uilyam Shekspir** 1564-yilning 23-aprelida Yorkshir grafligiga qarashli Stratford shaharchasida hunarmand-savdogar oilasida dunyoga kelgan. Otasi **Jon Shekspir** ilgari fermer bo'lib, keyinchalik savdogarlik, ko'nchilik va tikuvchilik hunarlari bilan shug'ullangan.

Onasi Meri shu yerlik kambag'allashgan dvoryanlardan Robert Ardenning qizi bo'lgan.

Uilyam dastlab «Grammatika maktabi»da o'qib, lotin tili, qadimgi dunyo tarixi va adabiyotini o'rgangan. U tabiatni sevgan, gastrolga kelgan sayyor teatr truppalariining spektakllarini tomosha qilgan. Cherkov daftarida Uilyamning

1582-yilning 27-noyabrida stratfordlik **Enn Xatauey** ismli qizga uylanganligi, to'ng'ich farzandlari **Syuzen** 1583-yilning 26-mayida, **Hamlet** (1596-yilda vafot etgan) va **Judit** ismli egizaklar 1585-yilning 2-fevralida cho'qintirilgani bitilgan²⁰⁵.

Otasining ishi yurishmay qolgach, Shekspir 16 yoshdan boshlab oila boqishga yordamlashadi: qushxonada ishlaydi, qishloq maktabida o'qituvchilik qiladi, ish izlab 1592-yilda Londonga boradi, teatrga ishga kiradi. Shu davrdan boshlab, Shekspir zamonasining eng mashhur teatrlarida aktyor, rejissyor va truppa xo'jayiniga sherik bo'lib ishlaydi. 1598–1612-yillar davomida adibning faoliyati «*Globus*», «*Blekrayerz*» teatrlari bilan bog'liq bo'ldi.

Shekspir aktyor sifatida ko'proq qirollarning rollarini, «Hamlet»da Arvoh, «*Sizga bu yoqadimi?*» spektaklida Odam rollarini ijro etgan. Ben Jonsonning «*O'ziga yetguncha*», «*Seyan*» pyesalarida u o'zining so'nggi rollarini o'ynagan.

Teatr aktyoridan ulug' fojianshis darajasigacha ko'tarilgan Uilyam Shekspir 1616-yil 23-aprelda Stratfordda vafot etgan.

UILYAM SHEKSPIRNING IJODIY FAOLIYATI VA ADABIY MEROSI

Adibning ijodi 1590-yillardan boshlangan. Shekspir ko'plab durdona sonetlar, qator poemalar muallifi bo'lsa-da, asosan, dramaturg sifatida shuhrat topgan. U jami 36 *dramatik asar*, 154 *sonet*, bir *necha dostonlar yozgan*, shulardan birortasi ham muallif hayotlik chog'ida risoladagiday, ochiqchasiga chop etilmagan. Uning asarlari 1623-yilga kelib dunyo yuzini ko'rgan.

Tadbirkor nashir *U.Jaggard* Shekspir asarlarini nashr etish hisobiga boylik orttirmoqchi bo'lgan.

Shekspirning «*Hamlet*»i Cho'lpon tomonidan (1934), «*Otello*» va «*Qirol Lir*» asarlari G'afur G'ulom tomonidan, «*Romeo va Julyetta*» Maqsud Shayxzoda tomonidan o'zbek tiliga o'girilgan. XX asrning 80-yillari oxirida shoir **Jamol**

²⁰⁵ Q.Yo'ldoshev va boshq. Adabiyot (Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 9-sinf uchun darslik). – T.: O'zbekiston, 2019. – 291-bet.

Kamol «Hamlet»ni to'g'ridan to'g'ri inglizchadan o'zbek tiliga tarjima qilgan.

Shekspir asarlari O'zbekistonda ham mashhur. Hamza teatri artisti Abror Hidoyatov 1935-yilda *Hamlet* obrazini, 1941-yilda *Otello* obrazini yaratgan. Shekspir asarlarining qahramonlari obrazi Sora Eshonto'rayeva (*Dezdemon*, *Ofeliya*), Shukur Burhonov (*Hamlet*, *Brut*), Olim Xo'jayev (*Hamlet*, *Sezar*) kabi atoqli artistlar tomonidan ham yaratilgan.

DOSTONLARI: «*Venera va Adonis*» (1593, gersog Sautgemptonga bag'ishlangan doston. U ketma-ket sakkiz marta nashr qilingan), «*Lukresiya*» (1594) va boshq.

PYESALARI: «*Tit Andronik*» (bu pyesa muqovasida muallifning nomi ko'rsatilmagan), «*Xatolar komediyasi*» (u 1594-yilning 28-dekabrda «*Greyz Inn*» teatrida o'ynalgan), «*Qiyiq qizning quyulishi*» (1593), «*Yoz kechasidagi tush*» (1595, komediya), «*Venetsiya savdogari*» (komediya), «*O'n ikkinchi kecha*» (1600, komediya), «*Qirol Lir*» (1605, tragediya), «*Romeo va Julietta*» (1594–1595, tragediya), «*Hamlet*» (1601, tragediya), «*Otello*» (1604, tragediya), «*Makbet*» (1606, tragediya) va boshq.

«OTELLO» tragediyasi haqida

«*Otello*» fojiasining muvaffaqiyat bilan sahnalashtirilishi o'zbek teatrining ulkan yutug'i bo'ldi. Bu asar 1604-yilda yozilgan bo'lib, unda inson aqli va hislarining chigal jihatlari, ezgulik va yovuzlik, xiyonat va sadoqat, jinoyat va ishonch singari sifatlar o'rtasidagi kurash tasvirlangan. Bu fojiada Yago va Rodrigo Otello va Kassiodan o'ch olmoqchi bo'ladi.

Tragediyada Otello ro'malchani muhabbat garovi, otasining onasiga sovg'asi va onasidan yodgorlik bo'lgani uchun unga hurmat va e'tiqod bilan qaraydi.

Asar qahramonlari quvidagilar: *Brabansio* (senator), *Gratsiano* (Brabansioning ukasi), *Lodoviko* (Brabansioning qarindoshi, u bo'lib o'tgan dahshatli voqea xabarini Venetsiyaga yetkazishini aytgan. U Yagoni "Sparta iti" deb atagan), *Otello* (arab generali, Venetsiya davlatining amaldori. Asardagi «*Nomus uchun qildim, ammo g'azabdan emas*» kabi iqorni u aytgan),

Kassio (Otelloning leytenanti, ichib olib janjallashgani uchun *Otello* uni o'zidan uzoqlashtiradi), *Yago* (Otelloning mulozimi), *Rodrigo* (venetsiyalik boy yigit), *Montano* (Qibrisning oldingi hokimi), *Dezdemonna* (Brabansioning qizi, Otelloning xotini. U "Ishqqa o'lim – tabiatning qonuniga zid" degan gapni aytgan), *Emiliya* (Yagoning xotini, u "O' muhabbat, haqoratga bo'lmish masxara" degan gapni aytgan) va boshq.

«HAMLET» tragediyasi haqida

«Hamlet» fojiasiga Daniyada kechgan voqealar asos qilib olingan. Tragediyaning buyukligi shundaki, unda umuminsoniy muammolar badiiy talqin etilgan. 1601-1602-yillar davomida yozilgan bu tragediyaning asosini daniyalik muarrix Sakson Grammatik (1150-1220) solnomalaridan o'rin olgan «*Daniya tarixi*» dagi qadimgi rivoyat tashkil etadi. Asardagi Hamlet serqirra obraz bo'lib, uning asosiy fazilatlarini adolat va haqiqat uchun kurashda namoyon bo'ladi. Asardagi voqealar Elsinorda bo'lib o'tadi.

Tragediyada *Hamlet* (Klavdiyning jiyani, u otasining arvohi yordamida Daniya qirolligida ro'y bergan dahshatli ishlardan xabar topgan), *Klavdiy* (Daniya qirolli, u Hamletning otasini zaharlar o'ldirib, qirol bo'lgan va Gertrudaga uylangan), *Horatsio* (Hamletning do'sti), *Ofeliya* (Poloniyaning qizi, u baxtsiz tasodif tufayli suvga g'arq bo'ladi), *Poloniy* (saroy noziri), *Laert* (Poloniyaning o'g'li), *Gertruda* (Hamletning onasi), *Marsell* (askar), *Rozenkrans*, *Gildenster*n va boshqalarning taqdiri hamda fojiali qismati hikoya qilinsa-da, asar umidbaxsh ruh bilan yakunlanadi.

JONATAN SVIFT

(1667 – 1745)



Jonatan Svift ingliz yozuvchisidir. U 1667-yil 30-noyabrda Irlandiyaning poytaxti Dublinda kambag'al oilada tug'ilgan. Jonatan otasidan erta yetim qolgan, 14 yoshida maktabni bitirgan va Dublin universitetining diniy bilimlar fakultetida tahsil ko'rgan. O'qishni tugatmay, Angliyaga borgan va bir qancha vaqt Qirollikning sobiq ministri Vilyam Templning saroyida kotib bo'lib ishlagan. Keyinchalik yozuvchi universitetni tugatadi, dissertatsiya yoqlab, magistrlik unvonini oladi.

Svift o'z ijodida jamiyat illatlarini hajv ostiga olgan, hukmron tabaqalar kirdikorlarini hajv qiluvchi asarlar yaratgan. U 1745-yil 19-oktabrda vafot etgan.

ASARLARI: «*Vilyam Senkraftga qasida*» (1690), «*Kongrivga qasida*» (1693), «*Kitoblar jangi*» (1697), «*Bochka cho'pchagi*» (1704), «*Movutfurush xatlari*» (1724), «*Gulliverning sayohatlari*» (1726, bu asar o'zbek tilida 6 marta nashr etilgan), «*Kamtarin taklif*» (1729) va boshq.

«GULLIVERNING SAYOHATLARI»

romani haqida

Bu asar Sviftga katta shuhrat keltirgan. Asarning to'liq nomi «*Lemyuel Gulliverning jahondagi bir necha olis mamlakatlarga avvalo jarroh, keyinchalik esa bir necha kemalar kapitani sifatida qilgan sayohatlari*» deb atalib, u 1726-yilda yozilgan. Muallif bu asari orqali Angliya davlatining tartib-qoidalari, urf-odatlarini ustidan kuladi.

Jonatan Svift o'zining «*Gulliverning sayohatlari*» romanida asar qahramoni Gulliverning xayoliy o'lkalar – liliputlar (mitti odamlar), bromdingnegrar (ulkanlar), guingnmlar (aqli otlar) mamlakatlariga qilgan sayohatlari bilan bog'liq holda real voqealardagi bosqinchilik urushlarini, davlat idoralaridagi

sotqinlikni, sudyalarning adolatsizligini va boshqa qabohatlarni mohirlik bilan aks ettirgan.

Adib yashagan davrda tanqidiy fikr bildirish xavfli bo'lgani uchun Jonatan Svift "*Gulliverning sayohatlari*" asarida dunyo xaritasida yo'q mamlakatlarni tasvirlaydi.

Asar 4 qismdan tashkil topgan bo'lib, uning 1-qismida Gulliverning liliputlar – mitti odamlar mamlakati (**Liliputiya**) dagi sarguzashtlari hikoya qilinadi. Bu mamlakatda ham *baland poshnalilar* va *past poshnalilar* deb ataladigan partiyalar bor ekan.

Romanning 2-qismi Gulliverning ulkan odamlar yurti – **Brobdingnegg** sayohati tasvirlangan. Gulliver bu mamlakatdagi odamlarning tanti, oliyanob, ma'rifatparvarligiga qoyil qoladi.

Asarning 3-qismida Gulliverning **olimlar mamlakati** – **Laputa** dagi sayohatlari hikoya qilingan. U bu yerdagi Buyuk akademiya bilan tanishib, umri behuda sarflanayotgan olimlar ishini ko'radi. Muallif soxta olimlar ustidan kuladi. Asarda bir olimning bodringdan quyosh energiyasi ajratib olmoqchi bo'lgani, yana bir olimning uyni poydevoridan emas, tomidan boshlab qurish haqidagi loyihasi haqida gapiriladi.

Romanning 4-qismi Gulliverning **guignnmlar** mamlakatiga sayohati haqida bo'lib, muallif bu sayohatni o'tkir zaharxanda, nafratli kulgi bilan tasvirlaydi. Bu mamlakatdagi inson qiyofasidagi ikki oyoqli maxluqlar – **yexular** va aqlli, halol mehnat qilib yashovchi **otlar** mohirona tasvirlangan.

Ushbu asarda Gulliverning Liliputiya tilida o'rgangan dastlabki jumlasini ozod etishlarini so'rash istagi ma'nosini ifodaladi.

Asardagi Eybregem Pannell «Qaldirg'och» kemasining qo'mondoni bo'lsa, «Ohu» kemasining egasi kapitan Vilyam Prichard edi. Amaldorlar asarda «Gurgo» deb atalgan.

MAXTUMQULI²⁰⁶
(1733 – 1791)



Turkman shoiri va mutafakkiri **Maxtumorquli** 1733-yilda Turkmanistonning janubi-g'arb tomonidagi Atrak daryosiga yaqin Hojigovshon degan joyda Davlatmamad (1700–1760) oilasida tug'ilgan. Uning otasi «**Ozodiy**» taxallusi bilan qo'shiq va g'azallar yozgan bo'lib, uning 6 ming misrali, 4 bobdan iborat «Va'zi Ozod» nomli ilmiy risola-dostoni mashhur.

Maxtumorquli dastlab ovul maktabida Niyozsolih mulla qo'lida, so'ng Qiziloyoq ovulida Idrisbobo qo'lida, Buxorodagi Ko'kaldosh, Xivadagi Sherg'ozii madrasalarida o'qigan, zargarlik hunarini ham o'rgangan. U 9 yoshidan boshlab qo'shiqlar to'qigan, Afg'oniston, Eron, Hindiston, Ozarbayjon, Samarqand va Turkistonga sayohat qilgan.

Maxtumorqulining ijodi *lirik she'rlar*, *lirio-epik dostonlar*, *g'azal*, *to'rtlik* va *muxammas*lardan iborat. «Mardlik kuychisi» deb nom olgan Maxtumorqulining bizgacha lirik, falsafiy va nasihat xarakteridagi 10 000 misradan ortiq she'rlari yetib kelgan.

Shoirning taxalluslaridan biri «**Firog'iy**» bo'lgan.

She'rlarining bir qanchasi yoshligida sevib yetisholmagan qiz – Menglixonga, birodari Abdullaga bag'ishlangan bo'lsa, ba'zilarini va Sori hamda Ibrohim ismli o'g'illarining bevaqt o'limi munosabati bilan bitilgan.

ADABIY MEROSI: «*Bo'Imasa*», «*Kelgay*», «*Bilan*», «*Yomg'ir yog'dir, sultonim*», «*Naylayin*», «*Ko'ring*», «*Yetmas*», «*Bular*», «*Ketdi zamona*», «*Riyodan, yo Rab*», «*Sochdi Muhammad*», «*Yo Rasul*», «*Adolat yaxshi*», «*Namasan?*», «*Ozodim qani?*», «*Abdulla*», «*Ayrildim*», «*Turkman binosi*», «*Bechoraman*», «*Shoir bo'lsang, xabar*

²⁰⁶ *Qarang:* Q.Yo'ldoshev va boshq. Adabiyot (Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 7-sinfi uchun darslik-majmua). – T.: Sharq, 2013. – 247–252-betlar; O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi. – T.: 2003. – 2-jild, 561–562-betlar.

ber” (*Turdi shoir bilan aytishuv*) kabi she’rlari va boshq.

SHE’RLARIDAN PARCHALAR:

Yigit uldir, so‘zga aylasa amal,
Qo‘ldan kelmas ishga etmasa jadal,
Ollohning amriga qilmagil badal,
Bekka – saxo, shohga – adolat yaxshi.

(«*Adolat yaxshi*» she’ridan)

* * *

Taka, yovmit, yazir, go‘klang, ahal eli bir bo‘lib,
Gar qilsa bir joyga yurish, ochilar gul-lolasi.

(*Bu she’rda shoir millat birligi, yakdilligi yurt uchun katta saodat ekanligini ta’kidlagan*)

HAYNRIX HAYNE²⁰⁷

(1797 – 1856)



XIX asr nemis adabiyotining yirik vakili, publitsist, tanqidchi va shoir Haynrix Hayne 1797-yilning 13-dekabrida Germaniyaning Dyusseldorf shahrida savdogar yahudiy oilasida tug‘ilgan. Haynrixning tarbiyasi bilan onasi Betti shug‘ullangan. Otasi Samson Hayne o‘g‘lining napoleonchi harbiy bo‘lishini orzu qiladi. Keyinchalik, Napoleonning mag‘lubiyatga uchragach, ota-onasi uning savdo bilan shug‘ullanishini ma’qul topishadi. Maktabni bitirgan Haynrix Hamburgga, amakisi Solomon oldiga boradi.

Haynrix savdo ishlariga qiziqmaydi, kecha-kunduz kitob o‘qiydi, ko‘p vaqtini she’rlar yozib o‘tkazadi. Haynrix amakisining suluv qizi Amaliyani sevib qoladi. Lekin qiz unga rad javobini beradi.

²⁰⁷ *Qarang:* Q.Yo‘ldoshev va boshq. Adabiyot (Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 9-sinfi uchun darslik-majmua). – T.: Yangiyo‘l Poligraph service, 2014. II qism. – 135–137-betlar; F.Boynazarov. Jahon adabiyoti. – T.: Musiqa, 2006. – 69–70-betlar; O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi. 2-jild. – T.: 594-bet.

Amakisinikida o'tkazilgan samarasiz uch yildan so'ng Haynrix uyiga qaytadi va astoydil o'qishga tutinadi. U Bonn, Hettingen va Berlin universitetlarida o'qiydi, huquqshunoslik fakultetini bitirib, diplom olgan, lekin bu sohada biror kun ishlamaydi.

Hayne 1830-yilda Fransiyaga ketishga majbur bo'ladi. Haynrix Haynening «*Germaniya. Qish ertagi*» kitobiga yozgan so'zboshida quyidagicha fikrlar bor edi: «*Men vatanni sizlardan kam sevmayman. Shu sevgim tufayli men o'n uch yil quvg'inda bo'ldim, ayni mana shu sevgim tufayli oh-voh qilmasdan, iztirobdan yuzimni bujmaytirmasdan, yana, ehtimol, butun umrga quvg'in joyimga qaytmoqdaman*».

Haynrix Hayne 1856-yilning 17-fevralida Parijda vafot etgan.

Shoirning asarlari turli davrlarda *Cho'lpon, Oybek, Mirtemir, Abdulla Sher, Xayriddin Sulton* kabi ijodkorlar tomonidan o'zbekchaga tarjima qilingan.

Quyidagi misralar ham Haynrix Hayne qalamiga mansub:

**Ibo bilan suv oynasiga
Sekin boshin egdi nilufar.
Oy bo'lsa-chi uning poyida
Dir-dir titrar, shu'lasin separ.**

ADABIY MEROSI: «*Qo'shiqlar kitobi*» (birinchi she'rlar to'plami, 1827), «*Yo'l lavhalari*» (1830, ikkinchi kitobi (ocherklar to'plami). Bu kitobda shoir mamlakat va xalqning ahvolini mardonalik bilan xolis taftish qila oladigan ijodkor sifatida namoyon bo'lgan), «*Romansero*» (1851) va «*E'tirof*» (1854) kabi she'riy kitoblari, «*Germaniya. Qish ertagi*» dostoni (1844, u shoirni millatga mehrsizlikda ayblagan kishilarga qaratilgan), «*Qullar kemasi*» balladasi, «*Fransuz ishlari*» asari (1832), «*Atta Troll*» majoziy dostoni (1842), «*Lyutetsiya*» asari (1854), «*Sileziya to'quvchilari*» (1844, bu she'rdagi "La" natlar bu yurtga, yolg'on vatanga, Unda baxt ko'radi tubanlik, xo'rlik" misralari orqali vatanda turib, vatansiz yurgan xalq sezimlari boricha ko'rsatilgan), «*Onam Fon Heldern B. Haynega*», «*Bo'sh xayollar chekinmish olis...*», «*O, sen qo'rqma,...*», «*Suvdan boshin chiqarib asta...*», «*O'tkir bo'lsa ko'zlaring agar...*», «*Obod etar kun-u tunimni...*» kabi she'rlari va boshq.



44-MAVZU.

JAHON ADABIYOTI NAMOYANDALARI

ALEKSANDR SERGEYEVICH PUSHKIN²⁰⁸

(1799 – 1837)



Aleksandr Sergeyevich Pushkin ulug' rus adibi, yangi rus adabiyotining asoschisidir. U 1799-yil 6-iyunda Moskva shahrining Nemislar ko'chasida yashovchi qadimiy dvoryanlardan bo'lgan iste'fodagi mayor Sergey Pushkin oilasida tug'ilgan. Otasi Sergey Lvovich gvardiya ofitseri bo'lib, fransuzcha she'rlar yozib turgan. Onasi Nadejda Osipovna Pyotr I ning tarbiyasida bo'lgan habash Ibrohim Hannibalning nevarasi bo'lgan.

Ota-onasi yosh Pushkinni buvisi Mariya Alekseyevna va enagasi Arina Rodionovna Yakovleva tarbiyasiga topshirgan. Pushkinning amakisi Vasiliy Lvovich o'sha davrning ko'zga ko'ringan shoirlardan bo'lib, Pushkinlarnikiga taniqli shoirlar tez-tez mehmon bo'lib turishgan. Bu muhit Pushkinda she'riyatga havas uyg'otgan.

Pushkin 1811–1817-yillarda Sarskoye selodagi litseyda ta'lim olgan. 1817-yilda Pushkin tashqi ishlar vazirligiga ishga o'tadi. 1820-yilga kelib u imperiyaning janubiga (bu quvg'in 4 yildan ortiqroq vaqt davom etgan), 1824–1826-yillarda esa Mixaylovskoye qishlog'iga surgun qilingan. 1827-yil shoir Peterburgda yashashga ruxsat oladi, Nikolay I Pushkinni kamer-yunker etib tayinlaydi.

²⁰⁸ *Qarang:* Q.Yo'ldoshev va boshq. Adabiyot (Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 9-sinfi uchun darslik-inajmua). – T.: Yangiyo'l Poligraph, 2014. II qism. – 143–146-betlar; O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi. 7-jild. – 203–204-betlar.

Ulug' shoir 1837-yil 27-yanvarda Peterburgda, yosh fransuz ofitseri, Gollandiya elchisining tutingan o'g'li Jorj Dantes bilan bo'lgan duelda og'ir yaralanib, ikki kun azoblanib yotgandan so'ng vafot etgan.

PUSHKINNING IJODIY FAOLIYATI VA ASARLARI

Pushkinning dastlabki she'ri 1814-yilda litseyda chiqarilgan «Ovrupo xabarleri» jurnalida bosilgan.

Shoirning ko'plab asarlari o'zbek tiliga tarjima qilingan («*Boris Godunov*»), («*Dubrovskiy*»), («*Kavkaz asiri*») Cho'lpon tomonidan (1936–1937), («*Yevgeniy Onegin*») Oybek va Mirza Kenjabek tomonidan, («*Boqchasaroy fontani*») Usmon Nosir tomonidan (1937), («*Kapitan qizi*») Abdulla Qahhor tomonidan (1929), («*Ruslan va Ludmila*») Mirtemir tomonidan (1948) va boshq.).

G'G'ulom, E.Vohidov, A.Oripov, M.Ali, A.Suyun, H.Xudoyberdiyeva, U.Azim, M.Kenjabek singari ijodkorlar tomonidan Pushkinning ko'pgina asarlari o'zbekchallashtirilgan.

SHE'RLARI: «*Erkinlik*» (1817, oda), «*Stepan Razin haqida qo'shiq*», «*Sibirga maktub*», «*Armon*» va boshq.

DOSTONLARI (POEMALARI): «*Ruslan va Ludmila*» (1820, bu asarning qo'lyozmasi bilan tanishgan shoir Jukovskiy Pushkinga: «G'olib shogirdga mag'lub ustozdan», degan yozuv bilan o'z portretini sovg'a qilgan), «*Mis chavandoz*» (1820), «*Boqchasaroy fontani*» (1823), «*Lo'lilar*», «*Kavkaz asiri*» (1820–1821), «*Aka-uka qaroqchilar*» (1821–1822) va boshq.

SHE'RIY ROMANI: «*Yevgeniy Onegin*».

NASRIY ASARLARI: «*Belkin qissalari*», «*Toppon xonim*», «*Dubrovskiy*» (1832–1833), «*Kapitan qizi*» (1836, povest. Bu asarda turli personajlar taqdiri misolida inson hayotini rejalashtirib bo'lmasligi, u har daqiqada kutilmagan o'zgarishlarga yuz tutishi mumkinligi g'oyat ta'sirli aks ettirilgan), «*O'q*», «*Bo'ron*», «*Buyuk Pyotrning habashi*»(roman) va boshq.

PYESALARI: «*Boris Godunov*» (tragediya), «*Motsart va Salyeri*», «*Xasis ritsar*» va boshq.

ERTAKLARI: «Pop va uning xizmatkori Balda haqida ertak», «Baliqchi va baliq haqida ertak» (1830), «Shoh Saltan haqida ertak» (1831), «Oltin xo‘roz haqida ertak» (1834) va boshq.

**«YEVGENIY ONEGIN»
she‘riy romani to‘g‘risida**

«Yevgeniy Onegin» she‘riy romanini yozish niyati shoirda 1823-yilning 9-mayida Kishinyovda tug‘ilgan. Romanning 1-bobi o‘sha yilning 28-mayida yozila boshlangan. So‘nggi (yondirib tashlangan) bobga esa 1830-yilning 19-oktabrida nuqta qo‘yilgan. Muallif bu asarni yozishda **Bayronning «Don Juan»** asaridan ta’sirlangan. Asarda muallif bir qizning (**Tatyananing**) soddagina dil izhorini, pokiza bir sevgi zorini va keyinchalik uning bir o‘ktam ayolga aylanishini badiiy talqin etgan. Unda kuchi, g‘ayrati, aqlini sarflash mumkin bo‘lgan ezgu mo‘ljalning yo‘qligi tufayli qiynalayotgan yigit iztiroblari ham aks ettirilgan.

V.G.Belinskiy Pushkin asarini «rus hayotining qomusi» deb atagan va unda voqelikning haqqoniy aks ettirilganini alohida ta’kidlagan. Romanning ikki asosiy qahramoni – **Onegin** va **Lenskiy XIX** asrning 20-yillaridagi ilg‘or dvoryan ziyotilariga mansub bo‘lib, krepostnoylik tuzumi hukm surgan voqelikka qarshi bo‘ladilar, lekin ular bu kurashda ojizlik qiladilar. Bu qahramonlarning fojiasi shundaki, ular dvoryan madaniyati ruhida tarbiyalanganlari tufayli milliy xalq hayotidan, ona zamindan uzilib qolganlar. Belinskiy fikricha, Pushkinning ushbu romanida inson dunyoga yomonlik qilish uchun emas, ezgulik urug‘larini sochish uchun, jinoyat qilish uchun emas, balki hayot lazzatlaridan bahramand bo‘lish uchun kelishi ifodalangan.

«Yevgeniy Onegin» birinchi marta o‘zbek tiliga 1936-yili Oybek tomonidan tarjima qilingan va 1937-yilda nashr etilgan. XX asrning 80-yillarida **Mirza Kenjabek**, Oybekdan farqli ravishda, «Yevgeniy Onegin» asarini 9 hijoli barmoq vaznida tarjima qildi.

HANS KRISTIAN ANDERSEN

(1805 – 1875)



Jahon bolalar adabiyotining *Sharl Perro, Teodor Gofman, aka-uka Grimmlar, Janni Rodari* kabi ajoyib namoyandalari kabi **Andersen** ham ertaknavis yozuvchi sifatida dong taratgan. U 1805-yil 2-aprelda Daniyaning Odens degan shahrida kambag'al oilada tug'ilgan. Yoshligida och-yalang'och hayot kechirgan yozuvchi tinmay o'qiydi, xonandalikni, lotin tilini, artistlikni o'rganadi.

Bastakor Veyze, admiral Vulf bilan, Kopengagendagi Qirollik teatrining direktori Kollin bilan tanishadi. Kollin yordami bilan Andersen gimnaziyaga o'qishga kiradi, stipendiya oladi. Kollin unga xususiy dars berib, universitetga kirishi uchun ham sharoit yaratgan. Universitetni tugatgach, Andersen Germaniya, Shvetsiya, Angliya, Fransiya hamda Osiyo va Afrika mamlakatlari bo'ylab sayohat qiladi. Andersenning Shuman, Vagner, List, Rossini singari bastakorlar, Dyuma, Balzak, Gyugo, Hayne, Dikkens singari atoqli yozuvchilar bilan aloqada bo'lishi uning ijodiga katta ta'sir o'tkazgan. Adibning o'nlab ertaklari asosida teatr spektakllari va multfilmlar yaratilgan. Uning ertaklarini iste'dodli ijodkor **Usmon Qo'chqor** o'zbek tiliga tarjima qilgan.

Eng yaxshi bolalar yozuvchilari uchun Hans Kristian Andersen nomida Xalqaro oltin medal ta'sis etilgan.

HANS KRISTIAN ANDERSENNING IJODIY FAOLİYATI VA ASARLARI

Hans Kristian Andersenning birinchi yirik asari 1835-yilda e'lon qilingan *«Inprovizator»* romanidir.

Andersenning yaratgan ertaklari unga olamshumul shuhrat keltirgan.

ERTAKLARI: *«Kumush tangacha»*, *«Irkrit o'rdakcha»* (1843), *«Bulbul»* (1843), *«Suv parisi»*, *«Qor malikasi»* (bu ertak qahramoni yuragi va ko'ziga ko'zgu parchasi tushib

qolgach, buvisini masxaralaydigan, qo'ni-qo'shnilar ustidan kuladigan, chiroyli gullarni toptaydigan bolaga aylanib qoladi), «Duymchaxon», «Bronza to'ng'iz», «Kumush tangacha», «Qo'rg'oshin soldatcha» (1838), «Qirolicha» (1844), «Qirolning yangi kiyimi», «Chaqqoqtosh» va boshq.

KITOBLARI: «Bolalarga aytilgan ertaklar» (1835–1842), «Yangi ertaklar» (1843–1848), «Tarixlar» (1852–1855), «Yangi ertaklar va tarixlar» (1858–1872) va boshq.

«BULBUL» ertagi haqida

«Bulbul» ertagi 1843-yilda yozilgan. Go'zallik va ezgulikni ulug'lovchi, soxtalik va qabihlikni qoralovchi bu ertakdagi voqealar Chin-Mochinda bo'lgan. Ertakda imperator bulbul haqida kitoblardan xabar topgan, sun'iy bulbulning kuyi zerikarli ekanligini kambag'al baliqchilar aytgan, Azroil imperatorga toj, qimmatbaho bayroq, oltin qilichni qaytarib bergan va hok.

ALFONS DODE

(1840 - 1897)



Mashhur fransuz romannavisi va dramaturgi Alfons Dode Fransiyaning Nim shahrida 1840-yil 13-mayda tug'ilgan. U yoshlik paytlarida maktablarda muallim bo'lib ishlaydi, 17 yoshida akasi Ernest bilan birga jurnalistika bilan shug'ullanib tirikchilik o'tkazish maqsadida Parijga ko'chib borishadi. Alfons yoshi yigirmaga yetmasidanoq ko'pgina jurnallar bilan muxbir hamda teatr tanqidchisi sifatida hamkorlikni yo'lga qo'yadi. U Gyustav Flober, Emil Zolya, rus adibi Ivan Turgenev bilan yaqin munosabatda bo'ladi.

Adib o'z faoliyati davomida juda ko'plab asarlar yozgan. Uning ijodida ikki qirra alohida ajralib turadi: 1) *yumor*, *kinoya* hamda *tasvirdagi aniqlik*; 2) *kuzatishlaridagi teranlik*

hamda voqelikni naturalistik uslubda tasvirlashga usluban yaqinlashganlik. Yozuvchining XIX asr 80-yillarida yozgan asarlarida psixologik tahlil yetakchilik qiladi.

Alfons Dode 1867-yilda Yuliya Alyar ismli qizga uylangan. Ularning Leon (1867-1942), Lyusyeyn (1878-1946) ismli o'g'illari va Edme (1886-1937) ismli qizi bo'lgan.

Alfons Dode 1897-yil 17-dekabrda Parijda vafot etgan.

ALFONS DODENING ADABIY MEROSI

ROMANLARI: «Kichkintoy» (1868), «Kichik Fromon va katta Risler» (1874), «Safo» (1884), «Jek» (1876), «Nabob» (1877), «Surgundagi qirollar» (1879), «Taraskonlik Tartarenning g'aroyib sarguzashtalari» (1872), «Tartaren Alp tog'larida» (1885), «Port Taraskon» (1890), «Roza va Ninetta».

PYESALARI: «Arlezianka» (1872), «Borliq uchun kurash» (1889).

KITOBBLARI: «Tegirmonimdan xatlar» (1869), «Adabiyotshunos xotiralari» (1888), «Parijda 30 yil» (1888), «Har dushanbadagi hikoyalar».

«SO'NGGI SABOQ» hikoyasi haqida²⁰⁹

Muallifning ushbu hikoyasi Frans ismli yosh bola tilidan bayon qilinadi. Adib bolakay nazari bilan kichkinadek tuyulgan milliy-madaniy hodisaga nazar tashlaydi; baho beradi. Ayniqsa, hikoyada fransuz tili muallimi Mosye Amelning g'amginlikka uyg'un jonkuyarligi va qat'iyati, o'z ona tili va yurtini yurak-yurakdan sevishi sezilib turadi.

Hikoyada Fransiyaning Elzas va Lotaringiya hududi o'z vaqtida nemislar tomonidan ishg'ol qilinganiga ishora bor.

²⁰⁹ Qarang: B.To'xliyev, B.Karimov, K.Usmonova. Adabiyot (O'rta ta'lim muassasalarining 10-sinfi va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalarining o'quvchilari uchun darslik-majmua. II qism. - T.: "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti, 2017. - 172-178-betlar.

Muallim ham bu dars fransuz tilining oxirgi darsi ekanligini ta'kidlaydi.

Asarda sinf xonasi, undagi har bir predmet birma-bir aniq tasvirlanadi, bu darsga har kungidan boshqacharoq kiyinib kelgan muallimning ust-boshi batafsil ta'riflanadi. Ammo fransuz xalqi bu yerda og'ir musibatni boshidan kechirayotganiga, xuddi o'z ona tillarini qabrga qo'yayotgandek bo'lganiga, ayni paytda sinf xonasida yoshi ancha katta kishilar ham o'tirganlariga urg'u beriladi. Hikoya qahramoni Frans ham vaqtini behuda o'tkazib, so'nggi fransuz tili darsida o'z qilmishlaridan pushaymon bo'lib o'tiradi.

Asarda Mosye Amel o'z mashg'ulotini yuksak bir pafosda, dars o'quvchilari va boshqa tinglovchilar eslab yuradigan bo'lishini, ular tasavvuriga butun umr «Yashasin Fransiya» degan yozuv muhrlanib qolishini istaydi. Muallimning «fransuz tili dunyodagi eng ajoyib til ekani», uni asrash lozimligi, «chunki mustamlaka xalq o'z ona tili yordamidagina yorug'likka chiqq olishi» to'g'risidagi fikrlari katta ahamiyat kasb etgan.

ABAY

(1845 – 1904)



Qozoq mumtoz adabiyotining asoschilaridan biri, yirik so'z san'atkori **Abay Qo'nanboyev** 1845-yil 10-avgustda Qozog'istonning Yettisuv viloyatiga qarashli Ayako'z tumanining Chingiztog' (hozirgi Abay) yonbag'rida joylashgan Qorauy ovulida tug'ilgan. Otasi Qo'nonboy Semeyning e'tiborli boylaridan bo'lgan. Shoirning asl ismi **Ibrohim** bo'lib, onasi Uljon va otasining onasi Ziyrak momo

tomonidan erkalanib, «Abay» deb chaqirilar ekan. Keyinchalik bu nom shoirning taxallusiga aylanib ketgan.

Abay dastlabki ma'lumotni ovulidagi mulla qo'lida oladi, Yettisuvdagi Ahmad Rizo madrasada o'qiydi. Shu davrdan boshlab u she'rlar yoza boshlagan va o'lanlar aytgan, lekin otasidan cho'chib, she'rlarini hech kimga ko'rsatmagan.

Abay 35 yoshlarida adabiyotga qaytadan kiradi, lekin bu davrda ham she'rlarini do'stlarining nomidan chop ettirib yuradi. 1886-yilda «Yoz» she'rini birinchi marta o'z imzosi bilan e'lon qiladi.

Buyuk shoir o'z ijodida *Firdavsiy, Nizomiy, Yassaviy, Navoiy, Fuzuliy* kabi shoirlar ijodidan bahramand bo'lgan, *Pushkin, Lermontov* asarlarini qozoq tiliga tarjima qilgan. U o'zigacha kuylab kelingan o'lanlarni yozma adabiyotga olib kirgan. Abay kuy bastalagan 17 ta o'lan kuyi hozirgacha oqinlar tomonidan kuylab kelinadi.

Ma'rifatparvar shoir 1904-yil 6-iyulda vafot etadi. Abay insonni komil ko'rishni istardi, turkiy xalqlar tarixini yaxshi biladigan mutafakkir edi. U Navoiyni o'zining buyuk ustози deb bilgan. Abay she'rlarini, «*Iskandar*», «*Ma'sud*», «*Azim rivoyati*» asarlarini *Mirtemir* va *Uyg'un*, «*Naqliya so'zlar*» asarini *Nosir Fozilov* o'zbek tiliga tarjima qilgan.

ADABIY MEROSI: «*Iskandar*», «*Mas'ud*», «*Azim rivoyati*» dostonlari, «*Qorako'z*» falsafiy didaktik asari, «*Qish*», «*Burgutchi*», «*Kuz*», «*Sho'rlik qozog'im*», «*Boy bolasi bilan kambag'al bolasi*», «*Ilm o'rgan*», «*O'lan*», «*Ko'klam*» (bu she'rda buralib oqayotgan suv suzilib kelayotgan suluv qizga o'xshatilgan) kabi she'rlari va boshq.

«NASIHATLAR» kitobi haqida

O'zbek tilida «*Nasihatlar*» nomi bilan mashhur bo'lgan «*Naqliya so'zlar*» asari 44 bo'limdan iborat. Bu kitobdagi «*O'n yettinchi so'z*» qismida **G'ayrat, Aql** («...*Na bu dunyoda van a u dunyoda nimaiki foydali, nimaiki zararli bo'lsa – biladigan bir menman*») gapini u aytgan), **Yurak** o'zaro bahslashadi. Quyidagi fikrlar Aqlga qaratilgan: «...*yaxshining ham, yomonning ham tayangani – sensan. Sen ikkalasiga ham birdek xizmat qilasan, istaganini topib berasan – mana shu odating yomon!*», «*O'ttiz ikkinchi so'z*» qismida ilm o'rganish, «*O'ttiz uchinchi so'z*» qismida hunar o'rganish haqida so'z yuritilgan.

Quyidagi gaplar ham shu asarning «*O'ttiz yettinchi so'z*» qismida uchraydi:

1. *Inson bolasini zamona parvarish qiladi. Kimda-kim yomon bo'lsa, ayb zamondoshlarida.*

2. *Agar davlat mening qo'limda bo'lganda, inson farzandini tuzatib bo'lmaydi, degan odamning tilini kesib tashlardim...*

3. *Dunyo kattakon ko'l. Zamona esa esib turgan yel. Oldingdagi to'lqin – og'alar bo'lsa, ketindagi to'lqin – inilardir. Navbat bilan o'lishar, avvalgiday bo'lishar.*

4. *Otang bolasi bo'lma, odam bolasi bo'! Odam bolasi – elning bolasi.*

5. *Ishning omadi – o'z vaqti.*

6. *Buyuk mansab – go'yo bir buyuk qoya. Unga erinmay o'rmalab yurib ilon ham chiqadi, uchib-go'nib yurib qiron ham chiqadi.*

7. *Yomon do'st – bir ko'lankadir: quyoshli kunda qochsang ham qutulolmaysan, bulutli kunda esa izlasang ham topolmaysan.*

8. *Do'sti yo'q bilan sirlash, do'sti ko'p bilan siylash. Yaxshiga yaqin bo'l, yomondan – yiroq.*

9. *Baxtiyor bo'lguningcha baxtingni eling ham tilaydi, o'zing ham tilaysan. Baxtiyor bo'lganingdan so'ng esa – faqat o'zinggina tilaysan.*

ERNEST SETON-TOMPSON (1860 – 1946)



Taniqli adib va rassom **Ernest Seton-Tompson** 1860-yil 14-avgustda Angliyada tavallud topgan. Uning avlodlari tog'liklardan bo'lib, Ernest 6 yoshda ekanligida ularning oilasi Kanadaga ko'chib keladi. Bo'lg'usi adib shu yerda maktabga boradi, juda ko'p ilmiy-badiiy asarlarni mutolaa qilib tabiat, hayvonlar, inson va tabiat munosabatlarini tasvirlovchi animalist rassom hamda iste'dodli yozuvchi bo'lib yetishdi. Uning asarlari jahon adabiyoti xazinasidan mustahkam o'rin egalladi.

Adib asarlarida tabiat... uch olam (rassomlik, badiiy adabiyot va ilm) nuqtayi nazaridan kelib chiqib tasvirlangan.

AQSHning mashhur adibi Jon Berrous "Atlantik Monsli" jurnalida Tompsonni urib chiqqan. Kunlardan birida Nyu-Yorklik bir boyvachchaning uyushtigan ziyofatida Tompson Berrousga savollar berib, uni mot qiladi. Biroz vaqt o'tgach, Berrous xuddi shu jurnalda Seton-Tompsonni maqtab chiqadi.

Ernest Seton-Tompson va Jon Berrous o'rtasida bo'lgan gapni eshitgan AQSHning o'sha davrdagi prezidenti **Teodor Ruzvelt** adibga ulkan hayotiy manbalarga tayanib yaratilgan manbalarni chiqarishni masklahat bergan. Shundan so'ng yozuvchining ulkan kitoblari paydo bo'lgan.

ASARLARI: «Yovvoyi yo'rg'a», «Men bilgan jonivorlar», «Quvg'indilar taqdiri», «Hayvonlar – qahramonlar», «Mitti yovvoyilar», «Rolf o'rmonda», «Kreg – kuteney qo'yi», «Jonivorlar haqida hikoyalar» (Bu kitob qo'lma-qo'l o'qilgan, tik turib o'qilgan, ovoz qo'yib o'qilgan, kecha-yu kunduz o'qilgan), «Shimoliy hayvonlar hayoti» (2 jilddan iborat bu kitob uchun adib "Alanga medali" oltin mukofotini olgan), «Yovvoyi hayvonlar hayoti» (4 jilddan iborat bu ilmiy ish uchun muallif "Eliot" oliy darajali oltin medaliga sazovor bo'lgan) va boshq.

«YOVVOYI YO'RG'A» hikoyasi haqida

Bu hikoyaning asosiy g'oyasi erkinlik va ozodlikdir. Asarda Montgomer ayg'irni tutib kelganga 1000 dollar bermoqchi bo'lgan, Jo yovvoyi yo'rg'aning kechmishi haqida Bernsdan bilib olgan, Tom yovvoyi yo'rg'aga birinchi bo'lib tamg'a bosgan va hok.

"Yovvoyi yo'rg'a" hikoyasi 1989-yilda Tog'ay Murod tomonidan o'zbek tiliga tarjima qilingan.

Hikoya qahramonlari quyidagilar: Jo Kalon, Foster, Berns, Jek, Montgomer, Charli, Tom va boshq.

ANTON PAVLOVICH CHEXOV

(1860 – 1904)



Buyuk rus yozuvchisi Anton Pavlovich Chexov 1860-yil 29-yanvarda Rossiyaning Taganrog shahrida do'kondor oilasida tug'ilgan. U dastlab Taganrogdagi gimnaziyani tugatgach, Moskva universitetining tibbiyot fakultetida o'qiydi. Anton 1884-yilda o'qishni tugatib, uyezd vrachi bo'lib ishlayotgan paytdan boshlab mashhur yozuvchi sifatida taniladi.

Adib Rossiyaning ko'p joylarida, Yevropa mamlakatlarida bo'lib qaytadi, Taganrogda o'z hisobidan kutubxona ham tashkil etadi.

Chexov kasalligi tufayli Yaltaga ko'chib o'tadi. U xalq hayotini zimdan teran o'rganadi, odamlarning dard-u holini tinglaydi, o'z davrining ijtimoiy-maishiy hayot tarzi, insonlararo turli muomala munosabatlarini o'z badiiy tafakkuri, o'tkir nigohi bilan asarlarida aks ettiradi.

Yozuvchi hayotdan go'zallik izlaydi, inson tabiatidagi ayrim qusurlarni hajviy usulda tasvirlaydi. Adib ijodiy merosining katta qismini tashkil etgan ko'plab hikoyalari kam so'z qo'llash bilan katta voqealarni tasvirlash san'atini namoyish qila bilgan. Uning ko'plab asarlari o'zbek tiliga ham tarjima qilingan.

Yozuvchining kabi asarlari

A.P.Chexov 1904-yilda Germaniyaning Badenvayler shahrida vafot etadi. U Moskvaning Novodevichye qabristoniga dafn etilgan.

CHEXOVNING ADABIY MEROSI

HIKOYALARI: «*Vanka*», «*Anna*», «*Kuchuk yetaklagan ayol*», «*Yovuz niyatli kishi*», «*Chiqdi*», «*Qiyshiq oyna*», «*Garov*» (bu hikoya bankir va yosh huquqshunosning qatl hukmi bilan qamoq jazosi borasidagi ziddiyati asosiga qilingan. Unda hayotning mazmuni, yoshlik faslining qadri,

mol-dunyoning nimaga zarurligiga urg'u beriladi. Hikoya noo'rin bahs-munozaraning oqibati, xususan, garov ikki inson taqdirini boshqa o'zanga solganligi haqida saboq beradi).

PYESALARI: «Chayka», «Vanya amaki», «Uch opa-singil», «Olchazor».

OISSALARI: «№ 6 palata», «Ovdagi drama», «Cho'l», «Chiroqlar», «Zerikarli hikoya».

KITOBLARI: «Noma'lum kishining hikoyasi», «Saxalin oroli», «Sibir bo'ylab» (Ocherklar to'plami).





45-MAVZU. JAHON ADABIYOTI NAMOYANDALARI

ROBINDRANATH THAKUR (1861 – 1941)



Hindistonning buyuk yozuvchisi, adib, mutafakkir, shoir, kompozitor, pedagog va Nobel mukofoti sovrindori **Robindranath Thakur** 1861-yil 7-mayda Kalkutta shahrida badavlat, o'qimishli oilada tug'ilgan. Thakurlar xonadonida hur fikrli ijodkorlar tez-tez to'planib turar edilar. Shu sababli Robindranathda ijodga havas erta uyg'onadi. Adib oiladagi 14 farzandning kenjasi bo'lib, otasi uni Hindiston bo'ylab o'zi bilan olib yurgan. Robindranath ilk savodini uyida olgan, keyinchalik xususiy maktablarda, Kalkuttadagi seminariyada va Bengaliya akademiyasida (*u yerda tarix va madaniyatdan saboq olgan*) o'qigan.

Ingliz tilini puxta o'rganib olgan adib 1878-yilda Angliyaga o'qishga keladi va bir yarim yildan so'ng advokat bo'lishdan voz kechib (1880) vataniga qaytadi va ijod bilan shug'ullanadi. U bengal tilida ijod qilgan.

R.Thakur Yevropaga, Yaponiya va AQSHga bir necha bor safar qiladi. Ko'rgan-bilganlari asosida milliy ozodlikka da'vat ruhidagi kitoblar yozadi.

Adibning 1911-yilda yozgan «*Xalq qalbi*» nomli qo'shig'i Hindiston Respublikasining milliy madhiyasiga, 1913-yilda yaratgan «*Mening oltin Bengaliyam*» qo'shig'i Bangladesh Xalq Respublikasining milliy madhiyasiga aylangan.

Buyuk mutafakkir og'ir xastalikka chalib, 1941-yil 7-avgustda vafot etgan. Abdulhamid Cho'lpon u haqda maqolalar bitgan.

ROBINDRANATH THAKURNING IJODIY FAOLIYATI VA ASARLARI

Robindranath Thakur dastlabki she'r, doston va maqolalarini Angliyadagi jurnallarda e'lon qilgan. Uning «*Oqshom qo'shiqlari*» deb nomlangan birinchi she'rlar to'plami 1882-yilda nashr etilgan.

«*Gitanjali*» nomli she'rlar to'plamini 1912-yilda adibning o'zi ingliz tiliga tarjima qilgan. Mana shu asari uchun u 1913-yilda Xalqaro Nobel mukofotiga sazovor bo'lgan. Mukofot puliga Hindiston bolalariga bepul maktab ochgan. Bu maktab Birinchi jahon urushidan keyin bepul o'qitiladigan universitetga aylantirilgan.

R.Thakurning «*Hisob-kitob*», «*Jazo*», «*Nur va soyalar*» hikoyalarida hind xalqining ingliz istilochilariga qarshi kurashi, mustamlaka siyosatiga nisbatan keskin noroziligi ifodalangan. Bu asarlar o'zbek tiliga ham tarjima qilingan.

Thakurning «*Tonggi qo'shiqlar*», «*Suratlar va qo'shiqlar*» kabi tarixiy romanlarida pok insoniy muhabbat ulug'langan bo'lsa, «*Bibha sohili*», «*Donishmand roja*» tarixiy romanlarida mustamlakachilik zulmi va ijtimoiy adolatsizlik qoralangan.

Adibning asarlari ko'plab tillarga tarjima qilingan, o'zbek tilida uning 8 jildlik tanlangan asarlari to'plami va «*Nur va soyalar*» (1957), «*Ko'zga tushgan cho'p*» (1973) nomli kitoblari chop etilgan.

Robindranath Thakurning «*Pochta*» pyesasi, «*Halokat*» romani asosida tayyorlangan «*Gang daryosining qizi*» dramasi Hamza nomidagi akademik teatrdan sahnalashtirilgan. 1961-yilda huddi shu nomda «O'zbekfilm» kinostudiyasi tomonidan to'la metrajli badiiy film yaratilgan.

SHE'RIY TO'PLAMLARI: «*Oqshom qo'shiqlari*», «*Chitra*», «*Lahza*» va boshq.

HIKOYALARI: «*Hisob-kitob*», «*Jazo*», «*Nur va soyalar*», «*Daftarcha*», «*Meros*», «*Ayol maktubi*», «*Tonish*», «*Shubxa*» (Bu hikoyada Shubxashini degan soqov qizning taqdirini tasvirlagan. Hikoya qahramonlari: Shubxashini, uning egachilari Shukeshini, Shuxashini, otasi Banikontxa,

Gonshayning o'g'li Protap, Sharbashi va Panguli laqabli sigirlar) va boshq.

ROMANLARI: «*Tonggi qo'shiqlar*», «*Suratlar va qo'shiqlar*», «*Bibha sohili*», «*Donishmand roja*» (1887), «*Ko'zga tushgan qum*», «*Gora*», «*Halokat*» (1902), «*Gaurmaxon*» (1910), «*Xonadon va jahon*» (1916), «*Uch avlod*» (1928) va boshq.

FALSAFIY DRAMALARI: «*Roja va Rani*», «*Qurbonlik*», «*Chitrangoda*», «*Malini*» va boshq.

«NUR VA SOYALAR» hikoyasi haqida

«Nur va soyalar» hikoyasi 1894-yilda yozilgan bo'lib, unda ingliz mustamlakachilarining mahalliy xalqlarga o'tkazgan zulmi haqqoniy tasvirlanadi.

Hikoyaning qahramoni yosh advokat *Shoshibushon* ingliz mustamlakachilarining yovuzliklari bilan chiqisha olmaydi. Inglizlar istagan noma'qulchiliklarini qila beradilar. Viloyat sudyasi hatto itiga hurmat ko'rsatmaganliklari uchun ham hindlarni tahqirlyadi. Boshqa bir ingliz – paroxod kompaniyasining boshqaruvchisi o'z paroxodidan o'zib ketmoqchi bo'lgan barkasning yelkasiga o'q uzadi. Kema ug'darilib, undagi odamlardan biri o'ladi. Yana bir ingliz politsiya chinovnigi aylanib o'tishni o'ziga ravo ko'rmay, o'z qayiqchilariga baliq ovlovchi dehqonlarning daryoga tashlagan to'rlarini kesib tashlashni buyuradi. Shularning hammasi Shoshibushonning ko'z oldida ro'y beradi. Aybdorlarni sudga berib, ularni jazolashni talab qiladi. Lekin sud aybdorlarni o'tmas, haqiqatni talab qilib chiqqan Shoshibushonni turmaga yo'llaydi.

Otasi Oliysudgamurojaatqilmoqchi bo'lganda, Shoshibushon qat'iy qarshilik ko'rsatib, bunday deydi: «*Turmaga borganim tuzuk. Temir zanjirlar yolg'on so'zlamaydi, turma devoridan tashqaridagi «ozodlik» esa meni aldab, musibatlariga giriftor qildi...*». U 5 yil turmada yotib chiqadi.

Shoshibushonning keyingi holati asarda quyidagicha tasvirlangan: «*Yana yomg'irgarchilik davri boshlangan edi.*

...ozib-to'zib, ko'ngli cho'kkan holda turmadan chiqdi. U ozod bo'ldi. Turma devorlaridan tashqarida uning shu ozodlikdan boshqa hech kimsasi, hech narsasi yo'q edi. Jamiyatdan haydalgan, uysiz, yolg'iz Shoshibushonga bu keng dunyo boshpanasiz bir biyobondek tuyuldi".

Quyidagi parcha ham shu hikoyada keltirilgan:

"...Osmon sahnasida faqat ikki aktyor o'ynamoqda – bulut va quyosh, ularning har biri o'z rolini bajaradi, ammo yer sahnasida, ayni bir vaqtda necha joyda, qancha pyesalar o'ynalayotganini hisoblash mumkin emas..."

Hikoya qahramonlari quyidagilar: *Xorkumar, Giribala* (Xorkumarning qizi), *Shoshibushon* (u haqda asarda «Bularni ko'rib, u o'zini turmadan ikkinchi daf'a ozod bo'lganday his etdi», deb yozilgan. *Shoshibushon* ko'rgan «bular» aslida kitoblar edi), *noiblar* va boshq.

JEK LONDON²¹⁰ (1876 – 1916)



Amerika demokratik adabiyotining yirik vakili **Jek London** 1876-yil 12-yanvarda Kaliforniya shtatining San-Fransisko shahrida fermer oilasida tug'ilgan. U yoshligidayoq hayotning barcha mashaqqatlarini boshidan kechirgan, ishsizlikdan AQSH va Kanadani darbadar kechgan. Iqtisodiy ahvoli yomonligi sabab Kaliforniya universitetini tashlagan.

Yozuvchining adabiy faoliyati 1893-yilda boshlangan. 16 yillik adabiy faoliyati davomida **19 roman, 18 to'plam, 152 hikoya, 1 pyesa, 8 avtobiografik hamda publitsistik xarakterdagi kitoblar** yaratgan.

Jek London o'z hikoyalarida asosan mamlakat shimoli va Okeaniya orollaridagi hayotni zo'r badiiy mahorat bilan tasvirlagan. Bu hikoyalari unga katta shuhrat keltirgan.

²¹⁰ *Qarang:* A.Rafiyev, N.G'ulomova. Ona tili va adabiyot (Akademik litsey va kollejlarning unar kollejlari uchun darslik). – T.: Sharq, 2011. – 325-326-betlar.

Adibning *“Temir tovon”* va *“Martin Iden”* romanlarida burjua jamiyati qattiq tanqid ostiga olingan.

ASARLARI: *«Qor qizi»* (1902), *«Dengiz bo'risi»* (1904, roman), *«Temir tovon»* (1907, roman), *«Martin Iden»* (1909, roman), *«Uch qalb»* (roman), *«Ayol mardligi»* (1900), *«Oqsoqollar kengashi»* (1902), *«Qish haqida qissa»* (1904), *«Sokramento sohillarida»* (1904), *«Hayotga muhabbat»* (1906, bu hikoyada hayotga bo'lgan muhabbatning o'lim ustidan g'alabasi, tabiatning asov kuchlariga qarshi mardona kurashuvchi kishilar hayoti zo'r badiiy mahorat bilan tasvirlangan. Bunda asar qahramoni onasi, serquyosh janubiy Kaliforniya apelsin daraxtlari va gullar orasiga ko'milgan uyi haqida gapirib bergan. Olimlar unga bildirmay karavotini tekshirganda, uning osti va to'shakning ichi suxari bilan to'lgan edi), *«Ish tashlash»* (1906), *«Yo'l»* (1907), *«Bir parcha go'sht»* (1900), *«O'yin»* (1905), *«Katta uyning kichik bekasi»*, *«Oltin vodiy»*, *«Sarguzasht»*, *«O'g'rilik»*, *«Oq tish»*, *«Shimol hikoyalari»*, *«Bo'ri bolasi»*, *«Oq sukunat»* (hikoya), *«Yo'ldagilar sharafi uchun»*, *«Qirq mil narida»* (hikoya), *«O'talar xudosi»* (hikoya), *«Izg'irin bolalari»* (hikoya), *«Hayot uchquni»*, *«Insonga ishonch»*, *«Tubanlik kishilari»* (1903, adibning Angliyaga qilgan sayohatidan keyin nashr etilgan очерklar to'plami) va boshq.

RASHOD NURI GUNTEKIN (1889–1956)



Mashhur turk yozuvchilaridan biri Rashod Nuri Guntekin 1889-yil Istanbulda tug'ilgan. Uning otasi harbiy shifokor bo'lgan. 1912-yilda Rashod Nuri Istanbul universitetining turk tili va adabiyoti bo'limini tamomlagan. Shundan so'ng adib ko'pgina maktablarda o'qituvchi, direktor bo'lib ishlagan, Milliy ta'lim vazirligida inspector sifatida faoliyat yuritgan. XX asrning 20-yillarida yozuvchining bir qancha hikoyalari bosilib

chiqqan. U ko'plab hikoyalar, roman va dramatik asarlarlar yozgan, dastlabki asarlarida *Jemal Nimet* degan taxallusni qo'llagan. Turkiyada adibning 24 jilddan iborat asarlari bosilgan (1958–1961).

Rashod Nuri Guntekin 1956-yilda Londonda kasalligi tufayli vafot etgan va Istanbulga dafn etilgan.

RASHOD NURI GUNTEKINNING ADABIY MEROSI

HIKOYALARI: “*Eski oshna*”, “*Layli va Majnun*”, “*Oddiy ishlar*” va boshq.

ROMANLARI: «*Sirli qo'l*» (1921), «*Choliqushi*» (1922, bu roman Mirzakalon Ismoiliy tomonidan 1959-yilda o'zbek tiliga tarjima qilingan. Unda turk qishloqlarining yorqin manzarasi chizilgan, qahramonlarning hayoti, sarguzashtlari mohirona tasvirlangan. Asar qahramonlari quyidagilar: *Farida*, fransuz tili muallimasi *Aleksi opa*, *Mishel*, *Mujgon*, *Husayn* (xizmatkor), *Narimon* ismli tul ayol, *Basima xola*, uning o'g'li *Komron* va boshq.), «*Tamg'a*» (1925), «*Shafqat qiling*», «*Yashil tun*» (1928), «*Xazonrezgi*» (1930) va boshq.

PYESALARI: “*Xanjar*”, “*Umid quyoshi*”, “*Tosh parchasi*”, “*Mustaqillik*” va boshq.

SERGEY YESENIN (1895 – 1925)



Jo'shqin lirik va chinakam xalqona shoir **Sergey Yesenin** ijodi rus adabiyotining yorqin sahifalaridan birini tashkil etadi. U sovet davri talablari quyushqoniga tushmagan va tushishni istamagan, erkatoiy va tanti, ammo mislsiz iqtidorli shoir edi. Ryazan shahri atrofidagi Konstantinovo qishlog'ida 1895-yil 3-oktabrda (eski hisob bo'yicha

21-sentabrda) tavallud topgan shoir umrining oxirigacha dehqon-shoir, rus qishlog'ini hayoti va tabiat kuychisi bo'lib qoldi.

Yesenin 5 yoshidan boshlab o'qishni o'rganadi, 9 yoshidan boshlab xalq qo'shiqlariga o'xshatib she'rlar yoza boshlagan. Qishloq muallimlari tayyorlaydigan maktabni tugallab, 17 yoshida Moskvaga boradi. U yerda bir savdogarning idorasida ishlaydi, bosmaxonada musahhihlik qiladi, adabiy-musiqiy to'garakka qatnashadi. 19 yoshidan she'rlari Moskva jurnallarida bosilib, mashhur bo'ladi. 1916-yilda Yesenin armiya safiga chaqiriladi, u oq podsho sharafiga she'r yozishdan bosh tortadi.

Yesenin 1918–1921-yillarda Murmansk, Arxangelsk, Qrim, Kavkaz, Bessarabiya, shuningdek, Turkiston bo'ylab safar qilgan. 1922–1923-yillari taniqli amerikalik raqqosa **Aysedora Dunkan** bilan Yevropaning Germaniya, Fransiya, Belgiya, Italiya mamlakatlarini aylangan, to'rt oy AQSHda, qisqa bo'lsa-da, Toshkentda ham yashagan.

Shoir 1925-yil 28-dekabrda fojiali tarzda vafot etgan.

Sergey Yeseninning she'riyati *Erkin Vohidov*, *Tilak Jo'ra*, *Ma'ruf Jalil*, *Xurshid Davron* va boshqa shu kabi o'zbek shoirlari ijodiga katta ta'sir ko'rsatgan. Ayniqsa, *Muhammad Yusuf* ijodini **Sergey Yesenin** asarlari ta'sirisiz tasavvur qilib bo'lmaydi²¹¹.

ADABIY MEROSI: «*Fors taronalari*» turkumi (*uni o'zbek tiliga Erkin Vohidov o'giran*), «*Anna Snegina*» poemasi (*Botumi shahrida yozilgan*), «*Go'daklikdan ma'lum har odam*» (*bu she'r asosida kurashchanlik g'oyasi yotadi*), «*Endi qaytmam uyimga*» (*hasbi hol tarzida yozilgan*), «*Singlimga xat*», «*Xurosonda bir darboza bor...*», «*Dog'lar ketmish majruh ko'ngildan...*», «*Onamga xat*», «*Ayolga xat*», «*Onamdan xat*», «*Bobomga xat*», «*Pushkinga*» (*bag'ishlov tarzida bitilgan*), «*Gurjiston shoirlariga*» (*bag'ishlov tarzida bitilgan*), «*Bu dunyoda men bir yo'lovchi...*», «*Ona ibodati*», «*It haqida doston*» (*Bu she'rda ona it timsolida onalar mavzusi qalamga olingan*), «*Shahinam, o' mening shahinam...*» kabi she'rlari va boshq.

²¹¹ S.Olim va boshq. Adabiyot (Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 8-sinfi uchun darslik). – T.: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2019. – 337-bet.

Sergey Yesenin ijodi va she'rlari haqida

Sergey Yesenin satrlari qisqa-qisqa, tili ravon va sodda, ifodalarida samimiylik va to'g'rilik ufurib turadi, asarlarida sharqona ruh bor.

Shoirning «*Xurosonda bir darboza bor...*» she'ri "Fors taronalari" turkumiga kirib, unda badiiy takror asarning o'ziga xos ohangi, jarangi va ta'sirchanligini ta'minlagan.

«*Dog'lar ketmish majruh ko'ngildan...*» she'ri 7 banddan iborat bo'lib, u ham "Fors taronalari" turkumiga mansub. Bu she'rda Sharq va G'arb qiyosi, xotin-qizlarga munosabatning, ayollar erkining turlichaligi solishtirilgan, unda «*choyxona*», «*choy*», «*ohu ko'zlar*» kabi Sharq timsollari qo'llanilgan. "Dog'lar ketmish majruh ko'ngildan, Mast vasvasa qo'zg'amas tug'yon. Men dardimga Tehron gulidan Choyxonada topoldim darmon" misralari ham shu she'rda uchraydi. Bu she'r lirikaning eng yuksak talablariga javob beradi. Holat, manzara, makon va zamon bor. Ularning hammasi lirik qahramonning tuyg'ulari va holati orqali ifodalangan.

«*Singlinga xat*» she'ri hasbi hol usulida bitilgan bo'lib, uni shoir singlisiga bag'ishlagan. She'rda muallif Pushkin (she'rda uning «*Baxtlidir jomini ichib bo'lmagan*» misrasi keltirilgan) va Lermontovni tilga olib, o'zini ularga qiyoslagan. Bu she'r ta'sirida Usmon Azim o'zining «Opamga xat» she'rini yozgan. Quyidagi misralar ham shu she'rda keltirilgan:

Bizning Aleksandr

Delvig haqida

She'r yozgan, madh etib kalla suyagin.

Qanday shirin,

Qanday olis aqida,

Xuddi gulbog' yanglig' ko'ngilga yaqin.

Shoirning «*Ona ibodati*» she'rida ona va o'g'il timsoli orqali vatan mavzusi yoritilgan, uni Erkin Vohidov Sergey Yesenin she'riyatiga xos asosiy xususiyatlardan biri bo'lmish qisqa-qisqa vaznlarda yozish odatiga qat'iy amal qilib, yetti bo'g'inli (4+3 turoqli) vaznda tarjima qilgan.

«*Bu dunyoda men bir yo'lovchi...*» she'rini ham shoir o'z singlisiga bag'ishlagan. She'rda muallif o'zini bir yo'lovchiga qiyoslab, erka singlisining unga shodon qo'l silkishini istaydi, chunki kuz faslida Oy ham xuddi shunday tinch, erkalovchi nur taratishini ta'kidlaydi. She'rning 4-bandi uning haddi a'losi (kulminatsiyasi) hisoblanadi.

SHE'RLARIDAN PARCHALAR:

Eshikka ko'p qarayberma san,
Gulbog'ingga, baribir, yo'l bor...
Oqshom menga niqob ostidan
Ohu ko'zin suzdi gulruksor.

*(«Dog'lar ketmish majruh ko'ngildan...»
she'ridan)*

* * *

Senga achinaman,
Yolg'iz qolarsan.
Men esam tayyorman
Duelga, hatto.

«Baxtlidir jomini ichib bo'lmagan»
Va tinglab bo'lmagan naydan ham navo.

(«Singlimga xat» she'ridan)

ANTUAN DE SENT-EKZYUPERI

(1900 – 1944)



Antuan de Sent-Ekzyuperi
1900-yilda Fransiyaning Lion shahrida kambag'allashgan zodagonlar oilasida dunyoga kelgan. U yoshlik chog'larida juda sho'x, o'ta qiziquvchan bo'lib, o'choqdagi yonib turgan olovga qarab soatlab xayol surishni yaxshi ko'rgan. Tonio (ota-onasi uni shunday atashgan) 10 yoshida Man shahrida kollejda (1909–1914), keyin Shvetsariyada va Parijda o'qigan. 12 yoshida mashhur fransuz uchuvchisining samolyotida osmonga chiqib, uchuvchi bo'lishni orzu qilgan.

1919-yilda Antuan Parijdagi San'at maktabining arxitektura bo'limiga o'qishga kirib, ikki yildan so'ng, 1921-yilda armiya safiga chaqiriladi (bu vaqtda birinchi jahon urushi bormoqda edi). 1926-yilda Antuan de Sent-Ekzyuperi «*Latiko-Eyr*» aviakompaniyasiga ishga qabul qilinadi. U keyinchalik G'arbiy Saxaraning Kap-Jubi shahri aeroporti boshlig'i, fransuz aviakompaniyasining Argentinadagi bo'limi boshlig'i bo'lib ham ishlagan.

Fashistlar Germaniyasi Fransiyaga hujum qilgan dastlabki kunlardan oq Ekzyuperi harbiy havo kuchlari xizmatida bo'lib, urush frontlarida razvedka uchishlarini amalga oshirgan.

Antuan de Sent-Ekzyuperi 1944-yil 31-iyulda bazaga qaytib kelmaydi. Adibning qachon va qayerda halok bo'lganligi so'nggi kunlargacha noma'lum edi. 2004-yilning bahorida Atlantika okeanining Ispaniya qirg'oqlariga yaqin joyda «*Layting – 38*»ning ayrim parchalari topildi. Demak, samolyot Sardiniyadagi harbiy havo bazasiga qaytishda urib tushirilgan yoki halokatga uchragan ekan.

ADABIY MEROSI: «*Uchuvchi*» (birinchi hikoyasi), «*Janub chopari*» (1929, ilk yirik asari), «*Tungi parvoz*» (1931, bu asar «*Femina*» mukofotiga sazovor bo'lgan), «*Erkaklar zamini*» (1939, bu romanda zamon va insonlar haqidagi o'ylar va chuqur fikrlar bayon qilingan, u *Gran Pri* mukofotiga sazovor bo'lgan), «*Kichkina shahzoda*» (1943, uni falsafiy ertak yoki ertak-qissa deb atash mumkin), «*Bashar sayyorasi*» (1939), «*Harbiy uchuvchi*» (1942, novella), «*Qal'a*» (tugallanmay qolgan asari) va boshq.

«KICKINA SHAHZODA» asari haqida

Bu asar²¹² adibning eng kichik asarlaridan biri bo'lib, unda inson hayotining ma'nosi va mazmuni haqidagi dardlari va falsafiy mushohadalari, insonlar o'rtasidagi do'stlik, birodarlik, hamdardlik va o'zaro hurmat munosabatlari, yovuzlik va yomonlikka qarshi kurash g'oyalari aks ettirilgan.

²¹² S.Ahmedov va boshq. Adabiyot (Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 5-sinfi uchun darslik). – T.: Sharq, 2011. II qism. – 68-89-betlar

Antuan de Sent-Ekzyuperi «Kichkina shahzoda» asarini do'sti – *Leon Vertga* bag'ishlagan. Asardagi Kichkina shahzoda qiyofasida ezgulik namoyon bo'ladi. Kichkina shahzoda Yerda ezgulikni sof holda uchrata olmagani sababli uni tark etadi.

Ertakdagi 325, 326, 327 va boshqa raqamlar bilan belgilangan asteroidlar aslida odamlarga xos fazilat va nuqsonlarning ramzidir. Asarda dunyodagi eng go'zal va eng hasratli makon sifatida *sahro* tilga olingan.

MUSA JALIL (1906 – 1944)



Iste'dodli tatar shoiri **Musa Mustaf** o'g'li **Jalilov**²¹³ 1906-yil 15-fevralda Rossiyaning Orenburg gubernasida dehqon oilasida tug'ilgan. U dastlab ovulidagi boshlang'ich maktabda, keyinchalik oilasi shaharga ko'chib borgach, Orenburgdagi «Husayniya» madrasasida, tatar ishchi-yoshlar maktabida, Moskva davlat universitetining adabiyot fakultetida o'qiydi (universitetni 1931-yilda bitirgan).

Musa Jalil Moskva davlat konservatoriyasi qoshida tashkil qilingan tatar opera studiyasi repertuarini mukammal asarlar bilan ta'minlab turgan. Keyinchalik u Tatariston yozuvchilari uyushmasiga rahbarlik qilgan (1939–1941). Adibning ilk she'ri 1919-yilda «Qizil yulduz» gazetasida bosilgan.

Ikkinchi jahon urushi davrida front gazetalarida harbiy muxbir bo'ladi, 1942-yilning yozida Volxov daryosi bo'yidagi jangda og'ir yaralanadi va dushmanlar qo'lga tushib qoladi. U fashistlarning turli qamoqxonalarda dahshatli qiynoqlarga solingan, mahbuslar orasida dushmanga nafrat to'la she'rlari bilan tanilgan shoirmi Berlindagi Moabit turmasining bir kishilik zax va qorong'i xonasiga tashlashadi.

²¹³ *Qarang:* S.Ahmedov, R.Qo'chqorov, Sh.Rizayev. Adabiyot (Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 6-sinfi uchun darslik-majmua). II qism. – T.: Ma'naviyat, 2017. – 14–22-betlar; O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi. 6-jild. – T.: 2003. – 142-bet.

Urushdan keyin Moabit turmasidan qutulib chiqqan belgiyalik partizan Andre Timmermans ismli kishi Musa Jalilning she'rlari to'la daftarni Brussel (Belgiya)dagi konsulxonaga olib kelgan. Bu daftarda Musa Jalilning vasiyati ham o'rin olgan. Vasiyatda yozilishicha, shoirning asirlikda yozgan 115 ta she'ri bo'lib, shulardan 60 tasini daftariga yozib qoldirgan ekan. «*Moabit daftari*» deb nom olgan bu she'rlar to'plamini *Mamarasul Boboyev* o'zbek tiliga o'giran.

Musa Jalilning o'limi oldidan qilgan orzusi ro'yobga chiqdi, uning she'rlari millionlab qalblarda aks-sado berdi.

Matonatli shoir Musa Jalil 1944-yilda Pletsenze harbiy turmasida fashistlar tomonidan qatl etilgan.

ASARLARI: «*Biz boramiz*» (1925-yilgacha yozilgan she'rlar va dostonlardan iborat dastlabki to'plami), «*O'rtoqqa*» (1929), «*Ordenli millionerlar*» (1934), «*Xat tashuvchi*» (1940, bu poemada xat tashuvchi Temirbulat va dehqon qiz Fayro'zaning muhabbati aks ettirilgan), «*Oltin soch*» (bastakor Jiganov bilan hamkorlikda yaratilgan operasi, bu asar uchun davlat mukofoti berilgan), «*Eldor*» opera librettosi, «*Okopdan xatlar*» kitobi, «*Kechir, yurtim!*», «*Ishonma*» kabi she'rlari va boshq.

SHE'RLARIDAN PARCHALAR:

Uch qushcha, hur
Qo'shig'im bo'lib! –
Shudir sendan so'nggi tilagim.
Tanim qolsin bunda (Tan nima?)
Ona yurtga borsin yuragim.

(“*Qushcha*” she'ridan)

* * *

Bayrog'imga qon bilan yozgan
Ontim undar olg'a borishga!...

Tuproq ko'mar tanni, ko'molmas
O'tli qo'shiq to'lgan ko'nlimni.
«O'lim» deyish mumkinmi axir,
Yengib o'lgan bunday o'limni?

(“*Ishonma*” she'ridan)



46-MAVZU. JAHON ADABIYOTI NAMOYANDALARI

JANNI RODARI (1920 – 1980)



Janni Rodari 1920-yil 23-oktabrda Italiya shimolida, Alp tog'lari etagida joylashgan Omenya shaharchasida dunyoga kelgan. Uning otasi Juzeppe Rodari shirin kulchalar pishiruvchi novvoy bo'lib, novvoyxona va do'kon sohibi edi. Adibning bolaligi, o'zi ta'kidlaganidek, «*olov jizillab turadigan tandir yonida, un va ko'mir solingan qoplar orasida*» kechgan.

Otasi vafot etgandan keyin oila boshiga og'ir kunlar tushadi. Onasi bir boyning uyida oqsochlik qila boshlaydi.

Janni Rodarining bolalik kechinmalari she'rlari va qissalari bag'ridan o'rin olgan. Adib universitetda o'qigan, boshlang'ich maktabda o'qituvchilik qilgan. U 1980-yil 14-aprelda vafot etgan.

JANNI RODARINING IJODIY FAOLIYATI VA ASARLARI

Janni Rodari ahamiyati jihatidan Nobel mukofotiga teng bo'lgan Hans Kristian Andersen mukofotiga sazovor bo'lgan adib edi. Uning ertaklari jahondagi deyarli barcha tillarga tarjima qilingan va dunyo bolalari tomonidan sevib o'qiladi.

Janni Rodari «*Uchtadan oxiri bor ertaklar*» turkumi bilan jahon ertakchiligida yangi bir usulni yaratdi. Ushbu turkumga kirgan «*Sehrli nog'ora*», «*Ayyor Buratino*», «*Sahrodagi uy*», «*Milanda yog'gan shlyapa yomg'iri*», «*Rinaldoning*

sarguzashtlari”, «*Hurishni eplolmagan kuchukcha*» ertaklarining barchasi uch xil yakun topadi.

ASARLARI: «*Quvnoq she’rlar kitobi*» (ilk to‘plami), «*Chippolinoning sarguzashtlari*» (1960), «*Telefonda aytilgan ertaklar*» («*Qutbdagi gunafsha*», «*Hech qayoqqa olib bormaydigan yo‘l*» kabi ertaklar shu kitobda uchraydi), «*Jelsamino yolg‘onchilar mamlakatida*» (1986), «*Osmondagi tort*», «*Televizorga kirib qolgan Jip*», «*Rim ertaklari*», «*Umumjahon xorovodi*» (1962), «*Kasblarning rangi va hidi haqida she’r*» (1967), «*Moviy nayza sarguzashtlari*» (1972), «*Xayolot qoidalari*» (1978), «*Shahzoda Plombir*» (Ushbu ertak «*Rim ertaklari*» turkumiga tegishli bo‘lib, u zamonaviyligi bilan ajralib turadi. Ertakda sinyor Molteni «*Qo‘shaloq qutb*» firmasidan kreditga muzlatkich olgan. Har qanday zamonda ham insonning qadri oddiy ashyolardan baland turadi, har qanday davrda ham kimgadir yaxshilik qilish eng go‘zal fazilat bo‘lib qolaveradi, degan fikr shu ertakda ilgari surilgan) va boshq.

«HURISHNI EPLOLMAGAN KUCHUKCHA» ertagi haqida

Bu ertak “*Uchtadan oxiri bor ertaklar*” turkumiga mansub bo‘lib, uning asosiy g‘oyasi o‘zlikni anglashdir. Unda duch kelgan maxluqqa o‘q otaveradigan sayyod obrazi ham mavjud. Bu ertakda kuchukcha «vov-vov» degan tovushni eshitganda uni jirafa, timsohning ovozi deb o‘ylagan. Ertakning birinchi tugashida kuchukcha **sigir** bilan, ikkinchi tugashida **dehqon** bilan, uchinchi tugashida esa **kuchuk** bilan suhbatlashgan.

RASUL HAMZATOV²¹⁴

(1923 – 2003)

**She'riyat, mazlumga homiylik qilding,
Qaroli bo'lmading zo'ravonlarning.
Olding panohingga notavonlarni,
Zolimlarni esa dushman deb bilding.**

Rasul Hamzatov



Dog'istondagi avar elining farzandi, XX asr jahon she'riyatning yirik vakili **Rasul Hamzatov** 1923-yil 8-sentabrda Dog'iston Respublikasi Xunzax tumaniga qarashli Sada qishlog'ida tug'ilgan. U 13–14 yoshlaridan boshlab she'r yoza boshlagan, 16 yoshida shoir sifatida tanilgan.

Otasi Hamzat Sadasa Dog'istonning mashhur shoiri bo'lib, Rasulga ijodda hamisha haqiqatni kuylashni o'rgatadi. 18 yoshidan boshlab Rasul o'qituvchi, artist va muxbir sifatida mehnat qiladi.

Shoirning birinchi kitobi 1943-yilda chop etilgan. Rasul 1940-yilda Bo'ynoq shahridagi pedagogika bilim yurtini tugatgan, 1945–1950-yillarda Moskvadagi Jahon adabiyoti institutida tahsil olgan.

Dog'iston xalq shoiri (1959) Rasul Hamzatov 2003-yil 3-noyabrda vafot etgan.

Erkin Vohidov Rasul Hamzatov she'rlarini o'zbekchaga tarjima qilgan.

ADABIY MEROSI: *«Ilhombaxsh muhabbat, olovli nafrat»* (1943, ilk to'plami), *«Mening qalbm tog'larda»*, *«Tug'ilgan yilim»* (1950), *«Tog' qo'shig'i»*, *«Dog'iston bahori»*, *«Yuksak yulduzlar»*, *«Ovuldan xat»*, *«Tog'likning vatani»*, *«Bitiklar»* singari she'riy kitoblari, *«Ona tilim»* (Unda shoir "Jonimga Masihdir shu ona tilim" deb yozgan), *«Shu ham erkakmi?»*, *«Do'stlik haqida qissa»*, *«Kenja nevaram*

²¹⁴ Q.Yo'ldoshev va boshq. Adabiyot (Umumta'lim maktablarining 7-sinfi uchun darslik). – T.: Sharq, 2013. – 37–38-betlar; O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi. 11-jild. – T.: 293-bet.

Shahrizodga» kabi she'rlari, *«Tog' qizi»*, *«Onalarni asrang»* kabi dostonlari va boshq.

SHE'RLARIDAN PARCHALAR:

Mening yurtim tik qoya, ulkan toshlar aro jo,
Dovrug'i ancha katta, yeri kichikdir, ammo
Ertakdagi bog' emas, kam hosilli yeri bor,
Do'stlikdan qudrat topmish, sevgisi hur va bisyor...

(*«Do'stlik haqida qissa» she'ridan*)

* * *

Mayli, qashshoq bo'lsin, mayli, behasham,
Lekin mening uchun aziz va suyak.
Jahon minbaridan yangramasa ham
Ona tilim menga muqaddas, buyuk...

(*«Ona tilim» she'ridan*)

NODAR DUMBADZE

(1928 – 1984)



XX asr gruzin adabiyotining yirik vakili **Nodar Dumbadze** 1928-yil 14-iyulda Gruziyaning poytaxti Tbilisida tug'ilgan va ijodini kichik hikoyalar yozish bilan boshlagan. 1958-yilda bosilib chiqqan *«Qishloq bolalari»* nomli ilk hikoyalar to'plami uni elga tanitadi.

Nodar Dumbadzening gruzin xalqi hayotini, milliy xarakterini, ruhiyatini yorqin va betakror tarzda gavdalantirgan, umuminsoniy muammolarni ko'tarib chiqqan roman va hikoyalari o'zbek tiliga ham tarjima qilingan.

Adibning *«Kukaracha»* qissasi, *«Oq bayroqlar»*, *«Abadiyat qonuni»* singari romanlari Nizom Komil tomonidan o'zbek tiliga tarjima qilingan. *«Quyosh kechasi»* va *«Oq bayroqlar»* kabi zamonaviy mavzudagi asarlarida esa adib insonlarning bir-biriga munosabatidagi odamiylik, oqibat singari fazilatlarini ulug'lagan.

ASARLARI: «Men, buvim, Iliko va Illarion» (1960, qissa), «Quyoshni ko'ryapman» (1962, roman. Bu asarda Ikkinchi jahon urushi yillaridagi gruzin qishloqlaridagi og'ir va mashaqqatli hayot manzaralari, bir-biriga o'xshamaydigan taqdir egalari obrazi yorqin aks ettirilgan), «Quyosh kechasi» (1967, roman), «Oq bayroqlar» (1972, roman), «Abadiyat qonuni» (1978, bu romanda insonning hayotdagi o'rni, undan talab etiladigan fidoyilik, halollik, vijdonlilik, adolatparvarlik xususiyatlari to'g'risida keng mushohada yuritilgan. Bu asar asosida o'zbek san'atkorlari ko'p qismli videofilm olingan), «Qo'rqmang, onaginam!», «Hellados» hikoyasi, «Kukaracha» qissasi va boshq.

«HELLADOS» hikoyasi haqida

Bu hikoyada Yanguli ismli bolaning qismati ko'rsatilgan. Hikoya Jamol degan bola tilidan so'zlab berilgan.

«Men yiqilmadim, faqat chayqaldim, xolos. Ikkinchi marta hamla qilganida chaqqonlik bilan gavdamni orqaga tashladim, qo'li burnim yonidan shuvillab o'tib ketdi. Ammo u shu qadar shiddat bilan quloch otgan ediki, muvozanatini yo'qotib, munkaygancha bir qadam oldinga tashladi» parchasi ham shu asarda uchraydi. Hikoyada Paganini, Stradivari kabilar nomi ham tilga olingan.

Hikoya qahramonlari quvidagilar: Xrista Aleksandridi (Yangulining otasi), Yanguli (u 14 yoshda bo'lib, hamma bolalar ustidan hukmronlik qilgan), Jamol, Petya, Fema, Kurlik, Pancho, Tena, Mida (Yanguli yoqtirgan qiz), Koka (Jamolning xolavachchasi), Aniko (Jamolning vafot etib ketgan onasi), Nina (Jamolning xolasi) va boshq.

CHINGIZ AYTMATOV²¹⁵
(1928 – 2008)



Chingiz Aytmatov mashhur qirg'iz yozuvchisi, zamonaviy jahon adabiyotining ulkan namoyandasi, jamoat arbobi, Qirg'iziston Fanlar Akademiyasining akademigidir. U qirg'iz va rus tillarida ijod qilgan.

Ilk asarlari XX asrning 50-yillari boshlarida matbuotda paydo bo'lib, adib «*Baydamtol sohillarida*», «*Yuzma-yuz*»

asarlari bilan el og'ziga tushgan.

Chingiz To'raqulovich Aytmatov 1928-yil 12-dekabrda Qirg'izistonning Talas vodiysidagi Shakar ovulida tug'ilgan. Bobosi Aytmat og'a hunarmand va ajoyib qo'buzchi (u 1918–1920-yillarda vafot etgan), otasi To'raqul Aytmatov davlat va jamoat arbobi (u 1937-yilda qatag'on qilingan), onasi Nagima Hamzayevna Aytmatova o'qimishli, oqila ayol edi. Buvisi yosh Chingizga turli ertak, qo'shiq va dostonlar aytib bergan, unda ona tiliga muhabbat uyg'otgan.

Chingiz dastlab rus maktabida, keyin qirg'iz maktabida o'qiydi. Bo'lajak yozuvchi urush yillarida dastlab (14 yoshida) qishloq kengashi kotibi qilib saylanadi, soliq agenti, bug'doy yig'imida traktorchilar brigadasi hisobchisi bo'lib ishlaydi. U 1946-yilda 8-sinfni bitirgach, Jambul zooveterinariya texnikumiga o'qishga kirib, uni 1948-yilda bitiradi. Adib 1953-yili Qirg'iziston qishloq xo'jalik institutini tamomlaydi, 1956–1958-yillarda esa Moskvada Yozuvchilar uyushmasi qoshidagi Oliy adabiyotchilar kursida tahsil oladi. Keyinchalik yozuvchi bu kurs haqida shunday degan: “*Agar men bu yerda o'qimaganimda o'z qissalarimni yoza olmagan bo'lardim*”. Chingiz Aytmatov bolaligidanoq badiiy

²¹⁵ *Qarang:* Q.Yo'ldoshev va boshq. Adabiyot (Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 9-sinfi uchun darslik). – T.: O'zbekiston, 2019. – 329–358-betlar; A.Rafiyev, N.G'ulomova. Ona tili va adabiyot (Akademik litsey va kasb-hunar kollejlari uchun darslik). – T.: Sharq, 2011. – 340–344-betlar; O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi. 1-jild. – T.: 166-bet.

adabiyotga mehr qo'ygan bo'lib, nasriy asarlar yaratish bilan astoydil shug'ullanadi. U bolalik haqida quyidagi fikrlarni aytgan: «...*Bolalik nafaqat quvnoq davr, bolalik-inson shaxsi shakllanishining ilk davri hamdir*».

Quyidagi fikrlar ham Chingiz Aytmatovga tegishli:

«*Bolalikda shuurga singdirilgan ona tiligina qalbni she'riyat bilan sug'orishi, insonda milliy g'ururning ilk kurtaklarini uyg'otishi va ajdodlar tilining naqadar serqirra va sermazmun ekanligini anglatishi mumkin...*

Yoshligimda badiiy adabiyotga oshno bo'lgan edim, shu boismi maktabda erkin mavzulardagi insholarni bajonidil yozardim...

...Hech kim o'z-o'zidan yozuvchi bo'lib qolmaydi: yillar sabog'i, qilingan mehnat, badiiy adabiyotga bo'lgan qiziqish va e'tiqod orqali bunga erishish mumkin».

"...qiyinchilik ko'rmaguncha yaxshi kunlarning qadriga yetmaysan".

Chingiz Aytmatov davlat va jamoat arbobi sifatida ulkan ishlarni amalga oshirgan. Qirg'iziston xalq yozuvchisi (1968) bo'lgan adib 1958–1960-yillarda "Literaturniy Kirgizistan" jurnalida muharrir, 1961-yilda "Pravda" gazetasining O'rta Osiyo va Qozog'iston bo'yicha maxsus muxbiri, 1962-yilda Qirg'iziston kinematografiya kengashi raisi, 1988–1990-yillarda butunittifoq "Inostrannaya literatura" jurnalining Bosh muharriri, 1991-yildan Qirg'iziston va Rossiya Federatsiyasining Luksemburg, Belgiyadagi elchisi, 1995-yildan Markaziy Osiyo xalqlari madaniyati assambleyasi Prezidenti bo'lib faoliyat yuritgan.

Adib Mustaqil O'zbekistonning «*Do'stlik*» (1995), «*Buyuk xizmatlari uchun*» (1998) ordenlari bilan mukofotlangan. Qirg'iziston Respublikasida Chingiz Aytmatov nomidagi Xalqaro «*Oltin medal*» mukofoti ta'sis etilgan (1999).

Chingiz Aytmatov 2008-yil 10-iyunda og'ir kasallikdan vafot etgan.

CHINGIZ AYTMATOVNING IJODIY FAOLİYATI VA ADABIY MEROSI

Chingiz Aytmatov nomini ilk bor xalqaro miqyosda mashhur qilgan, 1958-yilda yozilib, jahon xalqlarining 40 dan ortiq tillariga tarjima qilingan asar «*Jamila*» qissasi bo'ldi. Bu qissani Lui Aragon «*Muhabbat haqida yozilgan jahondagi eng ajoyib qissa*» deb atagan edi.

Yozuvchi «*Momo yer*», «*Qizil durrali sarvqomatim*» kabi asarlarini avval qirg'iz tilida yozib, so'ng o'zi rus tiliga tarjima qilgan. Ba'zi asarlari esa, avval rus tilida yozilib (*masalan*, «*Oq kema*», «*Alvido, Gulsari*») so'ng qirg'iz tiliga o'girilgan. Adibning «*Tog' va cho'l qissalari*» turkumiga kirgan asarlari ham yuksak baholangan.

Ch.Aytmatovning asarlari jahonning 191 tiliga tarjima qilinib, 70 millionga yaqin nusxada chop etilgan. Uning deyarli barcha asarlari o'zbek tilida nashr qilingan.

Adib O'zbekistonning jahon madaniyatida tutgan mavqeyiga yuksak baho berib: «*Qadim o'zbek madaniyatining O'rta Osiyoga ko'rsatgan ta'sirini ko'hna Vizantiyaning qadim Rusga ko'rsatgan ta'siri bilan qiyoslash mumkin*», deb yozgan edi.

OISSALARI: «*Yuzma-yuz*» (1957), «*Jamila*» (1958, asar qahramonlari quyidagilar: *Jamila, Sodiq, O'razmat, Seit, Doniyor, Usmon va boshq.*), «*Sarvqomat dilbarim*» (1961), «*Qizil durrali sarvqomatim*», «*Bo'tako'z*», «*Birinchi muallim*» (1962), «*Momo yer*», «*Erta qaytgan turnalar*», «*Oq kema*», «*Somon yo'li*» (1963), «*Alvido Gulsari*» (1966), «*Dengiz yoqalab chopayotgan olapar*» (1977, *Sho'ro davrining ayanchli tarixi yaxlit ochib berilgan va adabiyot olamida jiddiy yangilik bo'lgan asar*) va boshq.

ROMANLARI: «*Asrga tatigulik kun*» (bu asar Asil Rashidov tomonidan o'zbek tiliga tarjima qilingan), «*Qiyomat*» (1986), «*Kassandra tamg'asi*» (1990), «*Tog'lar qulaganda*» («*Mangu kelinchak*») va boshq.

DRAMASI: «*Fudziyamadagi uchrashuv*» (Q. Muhammadjonov bilan hamkorlikda yozilgan).

«OQ KEMA» qissasi haqida

Bu qissa 1970-yilda yozilgan bo'lib, 7 qismdan iborat. Asarda Shoxdor ona bug'u, baliq va oq kema kabi ramziy obrazlar qo'llangan. **Shoxdor ona bug'u** ezgulik, yaxshilik, olijanoblik, mehr-oqibat va xalq, **oq kema** to'kislik, mehr-u oqibat, diydor, **baliq** esa bola uchun erk va qudrat ramzidir.

«Oq kema» asarida bola toshlarga «*tuya*», «*egar*», «*bo'ri*», «*tank*» (*bolaning eng sevimli toshi*) deb nom qo'ygan. Asarda aytilishicha, qorovulxonadagi uzoq yillik xizmatlari uchun Mo'minga mukofot sifatida *durbin* berishgan. Bolaning *supurgio* 'tlarga rahmi kelardi, uni kimdir xafa qilganda, yig'lagisi kelsa, *shiroljinlar* oldiga borar edi.

Asarda o'rmondagi bir g'aroyib qush «*Katta baxtsizlik bo'ladi*» deb sayraganda, qabila oqsoqoli Botir Qulchi vafot etadi.

Bu qissadagi rivoyatda dushman qabiladan qolgan qizcha va bolani o'ldirib, qirg'iz zotini yo'q qilishni **Cho'tir Baymoq kampirga** topshirgan.

«*Yetimcha – yetti ko'cha*» maqoli ham shu asarda uchraydi.

Ushbu qissada dunyodan faqat ezgulik qidirgan va yaxshilikka intilgan, ammo hayotning shafqatsizligi tufayli erta halok bo'lgan norasida bolaning taqdiri ifoda etilgan.

Asar qahramonlari quvidagilar: *Mo'min chol* (u asarda «*juda qartayib qolgan, yakka-yu yolg'iz o'g'li urushda halok bo'lgan, umr bo'yi bir yostiqa bosh qo'yib yotgan xotinidan ajralgan, eng katta baxtsizligi – uning qizlariga baxt kulib boqmagan, «kamdan-kam uchraydigan baxtli odam» deya ta'riflangan*), *O'razqul* (o'z taqdiridan ranjib yurgan), *Bo'key* (U ko'pincha g'amgin yurardi. Uning dardi bor edi. Buvining aytishicha, farzandi bo'lganda butunlay o'zgacha yurardi), *bola*, *Botir Qulchi* (asarda uning azasiga 9 ta biya, 9 ta ho'kiz, 9 ta to'qqizlik qo'y qurbonlik uchun hozirlab qo'yilganligi aytilgan), *Seydahmad* (yalqov, uyquni yaxshi ko'radi. U yangilikni masxaraomuz qarshi oladi), *Cho'tir Baymoq kampir* («*Agar yulduzlar odamga aylanib qolsa bormi, osmon ularga torlik qilib qolardi*» gapini u aytgan) va boshq.

«ASRGA TATIGULIK KUN» romani haqida

«Asrga tatigulik kun» Chingiz Aytmatovning ilk romani bo'lib, u to'rt oy ichida (1979-yilning dekabrda boshlanib 1980-yilning martida) yozib tamomlangan va o'sha yili e'lon qilingan.

Romanga X asrda yashagan arman yozuvchisi Grigor Narikatsining «Musibatnoma» kitobidan olingan *«Bu kitob jism-u fig'onimdir mening, Bu kalom jon-u jahonimdir mening»* degan so'zlar epigraf qilib olingan.

Asarda muallif hayot, tabiat, borliq haqidagi kuzatishlarini kattakon oqquyruq kalxat timsolida bayon qilgan. Romanda o'tmishni eslay olmaslik uchun insonni xotirasidan umrbod mahrum qilishdek qabih jinoyatga qo'l urish haqida hikoya qilingan. Asar markazida chinakam halol, mehnatkash, zaminni yelkasida tutib turadigan, o'z zamonasining chin o'g'loni sanalmish **Edigey Bo'ronli** turadi.

Roman voqealari asosan bir kunda bo'lib o'tadi. Temir yo'l bekati xizmatchisi Edigeyning qadrdon do'sti Kazangap qazo qiladi. Kazangap do'sti Edigeydan o'zini Ona Bayit qabristoniga dafn etishni vasiyat qilgan. Edigey do'sti vasiyatini amalga oshirishga kirishadi. Biroq bu oliyjanob xatti-harakat ketma-ket xilma-xil to'siqlarga duch keladi, Edigey bu to'siqlar qarshisida keskin ruhiy iztiroblar, chuqur azobli o'y-mushohadalar olovida o'rtanadi, butun vujudi, dard-u dunyosi ostin-ustun bo'lib ketadi; ana shu iztirobli daqiqalarda o'zining do'sti bilan o'tkazgan mashaqqatli umr yo'li, xilma-xil voqealar, sarguzashtlar ko'z oldidan o'tadi. Qadrdon hamrohi Qoranor tuya hangomasi, Ona Bayit qabristoni bilan bog'liq rivoyat, kosmos safariga oid fantastik lavha, yana ko'plab hodisalar hikoya qilinadi. Ayniqsa, rivoyat yo'sinida yaratilgan, o'tmishini unutmagan, hissiz, itoatgo'y, buyruqni bajarishdan boshqa ishga yaramaydigan Manqurt obrazi el orasida mashhur bo'lib ketdi. Kazangapni dafn etish jarayoni, Edigeyning do'sti bilan so'nggi vidolashuv onlari, Allohga munojoti tasviri romanning eng hayajonli o'rinlaridir. Shu tariqa, o'sha alam-armonlar, o'y-mushohadalar, xilma-xil xotiralarga to'la bu

kun mohiyat-mazmuniga ko'ra chindan-da asrga tatigulik kun bo'lib chiqadi.

Asarda «mish-mishlarga qaraganda, jo'ngjanglar qarg'ishga uchrabdi – qishda muzlab qolgan Edil daryosidan to'p-to'p bo'lib o'tayotganlarida birdan muz yorilib, hammasi mol-hollari bilan birgalikda muz ostiga cho'kib ketishibdi...» degan gaplar bor.

Asar qahramonlari quvidagilar: *Edigey Bo'ron* (u Sobitjonga «Ilgari bosh uchun e'zozlashardi, bundan chiqdi, endi orqalaring uchun e'zozlashar ekan-da... Sen manqurtsan! Haqiqiy manqurt!...» degan gaplarni aytgan), *Sobitjon, Edilboy daroz* (u Sobitjonga “Ota-ku seniki, biroq sening o'zing o'zingniki bo'lmay qolibsani” degan gapni aytgan), *Jo'lomon, Nayman ona, Kazangap* (uni dafn qilishga olib ketayotganda marhumning yonida uning kuyovi – Oyzodaning eri o'tiradi), *Abutolib Quttiboyev* va *Zarifa* (ular stalincha qatag'on qurboni bo'lganlar), *Oyzoda* va boshq.

O'LJAS SULAYMONOV²¹⁶ (1936-yilda tug'ilgan)



Taniqli qozoq adibi **Sulaymonov O'ljas Umarovich** 1936-yil 18-mayda Qozog'istonning Olmaota shahrida tug'ilgan. Otasi Umar harbiy xizmatchi edi, u 1937-yilda qatag'on qurboni bo'lgan.

O'ljas dastlab ruscha maktabda, so'ngra Qozog'iston Davlat universitetining Geologiya fakultetida o'qigan. U 1961-yilda Moskvadagi

Maksim Gorkiy nomidagi Jahon adabiyoti institutida ham o'qiydi, 1962–1971-yillarda “Qozog'iston haqiqati” gazetasida muxbir, “Qozoqfilm” studiyasida muharrir, “Prostor” jurnali bo'lim mudiri, 1971–1981-yillarda Qozog'iston Respublikasi

²¹⁶ *Qarang:* Q.Yo'ldoshev va boshq. Adabiyot (Umumiy o'rta ta'lim maktablaring 9-sinfi uchun darslik). – T.: O'zbekiston, 2019. – 329–358-betlar.

Yozuvchilar uyushmasi boshqaruvi kotibi lavozimida ishlaydi. 1981–1984- yillarda Qozog‘iston Kinematografiya davlat qo‘mitasi raisi, 1984- yildan 1992-yilgacha Qozog‘iston Yozuvchilar uyushmasining birinchi kotibi vazifalarida ishlagan. 1995–2001-yillarda Qozog‘istonning Italiya, Yunoniston va Maltadagi elchisi sifatida faoliyat ko‘rsatdi.

O‘ljas Sulaymonov rus tilida ijod qiladi, lekin qozoq xalqiga xos milliy xususiyatlarni, urf-odatlarini yaxshi biladi.

Adib o‘zining “Az i Ya” asarida, yevropaparastlar aytganlariday, turkiylar yovvoyi va madaniyatsiz qavm emas, balki dunyoning eng qadimiy millatlaridan ekanligini asoslagan.

ASARLARI: “Arg‘umoqlar” (1961, birinchi asari), “Qoyilmisan insonga, zamin” (1961, adib shu dostoni bilan dunyoga mashhur bo‘lgan), “Quyoshli tunlar” (1962), “Qutlug‘ tongotar” (1964), “Maymun yili” (1967), “Loy kitob” (1969), “Olovning ko‘chishi”, “Oqdaryo ustida” (1970), “Butun baxt” (1975), “Az i Ya” (1975), “Ajoyib tun”, “Sharofatli vaqtlar”, “Olovning ko‘chishi”, “Yumaloq yulduz” kabi she‘riy, nasriy, ilmiy kitoblari, “Arg‘umoq”, “Mambet botirning qatl oldidan aytganlari”, “Tungi taqqoslar” kabi she‘rlari va boshq.



ILOVALAR

1-ILOVA

ADIBLAR VA ULARNING TAXALLUSI

Izoh: Taxallus (yun. «yolgʻon ism») – muallif oʻzining haqiqiy ismi oʻrnida qoʻllaydigan imzo, ismdir.

Adiblar	Taxallusi	Taxallus maʼnosi
Imom Buxoriy	Buxoriy	Joyga nisbatan olingan
Al-Xorazmiy	Xorazmiy	Joyga nisbatan olingan
Abu Nasr Forobiy	Forobiy	Joyga nisbatan olingan
Abu Rayhon Beruniy	Beruniy	Tashqari; begona
Mahmud Koshgʻariy	Koshgʻariy	Joyga nisbatan olingan
Yusuf Xos Hojib	1. Bolosogʻuniy	Joyga nisbatan olingan
	2. Xos Hojib	Eshik ogʻasi
Ahmad Yugnakiy	1. Yugnakiy	Joyga nisbatan olingan
	2. Adib Ahmad	Ismiga nisbatan olingan
Ahmad Yassaviy	1. Yassaviy	Joyga nisbatan olingan
	2. Qul Xoja Ahmad, Xoja Ahmad Yassaviy, Ahmad ibn Ibrohim, Sulton Xoja Ahmad Yassaviy, Yassaviy miskin Ahmad, Ahmadiy, Miskin Yassaviy, Xoja Ahmad, Qul Ahmad, Miskin Ahmad	Ismiga nisbatan olingan
Najmiddin Kubro	Kubro	Eng katta; buyuk zakovat egasi

Pahlavon Mahmud	1. Pahlavon	Kurashda g'olib, polvon
	2. Puryoyvaliy yoki Puryorvaliy	Aziz va mukarram; kurash ustasi
	3. Qitoliy	Bir-biri bilan jang qilmoq, kurashmoq
Nosiruddin Rabg'uziy	Rabg'uziy	Joyga nisbatan olingan
Sayfi Saroyi	Saroyi	Joyga nisbatan olingan
Xorazmiy ("Muhabbatnoma" asarining muallifi)	Xorazmiy	Joyga nisbatan olingan
Atoyi	Atoyi	Ota
Sakkokiy	Sakkokiy	Pichoqchi
Lutfiy	Lutfiy	Latif, go'zal lutfli, shirinsuxan
Haydar Xorazmiy	Xorazmiy	Joyga nisbatan olingan
Husayn Boyqaro	Husayniy	Ismidan olingan: yaxshi, mehribon, saxiy
Alisher Navoiy	1. Navoiy	Kuy, ohang; bahra; dard, g'am
	2. Foni	O'tkinchi, vaqtincha
Nizomiy Ganjaviy	Ganjaviy	Joyga nisbatan olingan
Xusrav Dehlaviy	Dehlaviy	Joyga nisbatan olingan
Abdurahmon Jomiy	Jomiy	Joyga nisbatan olingan
Muhammad Solih	Solih	To'g'ri, tartibli; pok, halol; komil
Ibodullo Sayid Poshshoxoja binni Abdulvahobxoja	Xoja	Xo'ja; sohib, janob; muallim, ustoz
Zahiriddin Muhammad Bobur	Bobur	Sher (ba'zi manbalarda "yo'lbars")
Turdi Farog'iy	Farog'iy	Erkin tabiatli kishi

Boborahim Mashrab	1. Mashrab	Ishq sharobini ichgan; ichimlik ichiladigan joy; fe'l, odat, xulq, tabiat
	2. Mahdiy	Tuhfa qilingan; raharlikka olingan
	3. Zinda	Tirik
Xo'janazar Huvaydo	Huvaydo	Ayon, ravshan
Muhammadsharif Gulxaniy	1. Gulxaniy	Kasbiga ishora qilingan; jo'shqin fe'li, olovqalb
	2. Jur'at	Mard, qo'rqmas, jasur, botir
Maxmur (Mahmud)	Maxmur	Ilohiy ishqdan mast bo'lgan, xumor bo'lgan
Shermuhammad Munis	Munis	Do'st, ulfat, oshna
Umarxon Amiriy	Amiriy	Unvoniga ishora qilingan
Jahon otin Uvaysiy	Uvaysiy (Vaysiy)	Muhammad payg'ambarga g'oyibona muhabbat qo'ygan Uvays Qaraniy nomidan olingan
Mohlaroyim Nodira	1. Nodira	Yagona, yolg'iz
	2. Komila	Yetuk, mukammal
	3. Maknuna	Yashirin
Muhammadrizo Ogahiy	Ogahiy	Ziyrak, xabardor
Muhammad Raximxon Feruz	Feruz	Baxtli; g'olib
Komil Xorazmiy (Niyozmuhammad)	1. Komil	Yetuk, mukammal
	2. Xorazmiy	Joyga nisbatan olingan
Muqimiy	Muqimiy	Bir yerda doimiy turuvchi
Zavqiy	Zavqiy	Zavq, maza; did

Zokirjon Furqat	1. Furqat	Ayriliq, hijron
	2. Farhat	Shodlik, xursandlik
Mahmudxo'ja Behbudiy	Behbudiy	Sog'lomlik; foyda; najot; baxtli, tinch, osoyishta
Abdurauf Fitrat	1. Fitrat	Tug'ma tabiat (iste'dod)
	2. Mijmar	Xushbo'y o't yoqiladigan cho'g'don
Abdulla Avloniy	1. Hijron	Ayriliq
	2. Nobil	—
	3. Indamas	—
	4. Shuhrat	—
	5. Surayyo	—
	6. Shapaloq	—
	7. Chol	—
	8. Ab	—
	9. Chegiboy	—
Muhammadsharif So'fizoda	Vahshiy	Yovvoyi
Hamza	Nihoniy	Yashirin
Abdulla Qodiriy	1. Qodiriy	Ismga ishora qilib olingan
	2. Julqunboy	—
	3. Kalvak Maxzum	—
	4. Toshpo'lat	—
	5. Ovsar	—
	6. Dumbul	—
	7. Shig'oy	—
Abdulhamid Cho'lpon	Cho'lpon	Tong yulduzi
	«Qalandar»	—

	«Mirzaqalanda»	–
	«Andijonlik»	–
	«Q.»	–
Muso Toshmuhammad o'g'li Oybek	Oybek	Beklar naslidan; omadli, baxtli
Abdulla Qahhor	1. Nish	–
	2. Norin shilpiq	–
	3. Sarimsoq	–
	4. Mavlono Kufur	–
	5. Gulyor	–
	6. Erkaboy	–
	7. E-boy	–
Shuhrat (G'ulom Alimov)	Shuhrat	Mashhurlik, shon-u shavkat
Rudakiy	Rudakiy	Joyga nisbatan olingan
Abulqosim Firdavsiy	Firdavsiy	Jannat
Umar Xayyom	Xayyom	Chodirdo'z
Sa'diy Sheroziy	Sheroziy	Joyga nisbatan olingan
Jaloliddin Rumi	1. Rumi	Joyga nisbatan olingan
	2. Shams	Quyosh
Fuzuliy	Fuzuliy	Fozil, fazilatlar egasi
Maxtumdali	Firog'iy	Ayriliq

ADABIYOTSHUNOSLIKKA OID ATAMA VA TUSHUNCHALARNING QISQACHA IZOHLI LUG'ATI

A

Adabiy yo'nalish – muayyan tarixiy davrda ijodkor konsepsiyasi, g'oyaviy-badiiy xususiyatlari va ijodiy tamoyillari bilan bir-biriga yaqin turgan bir necha yozuvchilar ijodidagi g'oyaviy-badiiy xususiyatlar – g'oya, mavzu, badiiy tasvir tamoyillari birligi. Misol: Realistik yo'nalish va boshq.

Adabiy oqim – adabiy yo'nalishga nisbatan torroq tushuncha bo'lib, muayyan g'oyaviy, ijodiy va estetik tamoyillarni o'zida mujassamlashtirgan adabiyot.

Antologiya (yun.) – qadimgi zamonda antik adabiyot namunalarini o'z ichiga olgan to'plamlar. Hozir ham shoirlarning tanlangan asarlari yoki biror xalq poeziyasining tanlangan namunalari to'plami antologiya deb nomlanadi.

B

Badiylik – voqelikni obrazlar orqali aks ettirish.

Badiiy uslub – adabiy tilga asoslanadigan, adibning xarakteri, dunyoqarashi, bilimi va hayotiy tajribasini o'zida aks ettiradigan, jilolangan uslub. Har bir yozuvchi yoki shoirming uslubi bir-biridan farq qiladi.

Badiiy mukammallik – poetik mazmunning asardagi barcha badiiy shakl unsurlari bilan yuksak darajada mutanosib holda obrazli tarzda namoyon bo'lishi.

Badiiy to'qima – yozuvchining tarixiy shaxs hayotini aks ettirganda ham, umumlashtirish yo'li bilan qahramonni tasvirlaganda ham ularning hayotdagi fe'l-atvorlari, boshidan kechirganlarini qanday bo'lsa, shunday tasvirlamay, balki ularni muayyan nuqtayi nazardan bir oz o'zgartirishi, ba'zi voqealarni o'zidan qo'shishi, ba'zilarini tushirib qoldirishi.

Badiha – maxsus tayyorgarliksiz, birdan aytilgan so'z, she'r. Xalq qo'shiqlari, laparlari ko'pincha badiha tarzida yaratiladi.

Bayoz (ar. «oq», «oqlik») – sheʼrlar toʻplami. Bunday toʻplamlar koʻpincha bir necha shoirlarning sheʼrlaridan tuziladi. Bayoz odatda sheʼr ixlosmandlarining iltimosi yoki buyurtmasi bilan kotiblar tomonidan tuziladi.

Bagʻishlov – shoirning oʻz asari boshida uni kimga ataganini yoki qanday voqea sharafiga bagʻishlaganini ifodalab yozgan sheʼri, lirik kirish – debocha.

Biografiya (yun. «turmushni yozaman») – kishining tugʻilgan kunidan boshlab oʻtgan hayotidagi voqealarni izchillik bilan bayon etish, tarjimai hol.

D

Detektiv adabiyot (lot. «ochish») – aygʻoqchilarning murakkab sarguzashtlarini hikoya qiluvchi romanlar, qissalar va hikoyalardan iborat adabiyot.

Dunyoviy adabiyot – diniy-mistik adabiyotga qarama-qarshi oʻlaroq, hayotga muhabbat bilan qarab, dunyoning noz-u neʼmatlaridan bahramand boʻlishga, yashashga chaqiruvchi, inson va hayot ishqini kuylovchi adabiyot.

Dialog – ikki yoki undan ortiq kishining oʻzaro suhbat.

Dramaturgiya – mazkur turda yaratilgan barcha janrga xos asarlar majmuyi.

E

Epigraf (yun. «yozuv») – adabiy asar sarlavhasidan soʻng yoki uning qismi yoxud bobining boshlanishida yozib qoʻyiladigan sitata, ibora, maqol, matal, xalq qoʻshigʻi va birorta sheʼrdan parcha. U asar mazmunini aks ettirishga xizmat qiladi. Epigraf tanlash ham sanʼatdir.

Epigrama (yun.) – kinoyali sheʼrlar. Ularda biror shaxs yoki ijtimoiy voqelik ustidan qattiq kulinadi.

Ekloga – qishloq hayoti haqidagi sheʼrlar.

Elegiya – gʻamgin sheʼrlar.

Epitafiya – biror shaxsning oʻlimi munosabati bilan yozilgan sheʼrlar.

Epizod (yun. «voqe boʻlgandan ziyod») – poema, qissa, roman, dramalar sujetida oʻzaro bogʻlanib kelgan va maʼlum

darajada mustaqil ahamiyatga ega bo'lgan voqea, asardagi ma'lum bir lavha, vaziyat.

Estetik tuyg'u – san'at asarlari ta'sirida o'quvchilarda tug'ilgan tuyg'ular.

F

Fantastik asar – faraz, xayol, tasavvur qilish orqali ilmning so'nggi yutuqlariga tayanilgan holda yaratilgan asarlar. Gerbert Uells, Jyul Vern, Aleksey Tolstoy, Aleksandr Belyayev kabi yozuvchilar bu sohada mashhurdirlar.

Faxriya – shoirning o'z ijodi bilan faxrlanib aytgan so'zlari, she'r turi.

Felyeton (ital. «varaqa») – kundalik turmushda ro'y beradigan salbiy hodisalarni o'tkir til bilan tanqid qilib yozilgan muhim mavzudagi gazeta yoki jurnal maqolasi.

Firoqiya (ar.) – sharq mumtoz adabiyotidagi ayрилиq, hijron alamlarini ifodalagan, yor va diyorni qo'msab aytilgan lirik she'rlar.

G

Gumanizm (lot. «insoniy») – insonga muhabbat, odamgarchilik, kishiga g'amxo'rlik qilish va yordamga muhtoj odamlarni qo'llab-quvvatlash.

H

Hamd (ar. «maqtash») – o'tmishdagi adabiyotda xudo maqtoviga yozilgan alohida lirik she'r.

I

Ideal (yun. «g'oya, tasavvur, tushuncha») – kishi qo'lga kiritishi mumkin bo'lgan biror sohadagi rivojlanishning eng yuqori bosqichi, orzu qilingan olijanob narsa va yaxshi niyatlar. Ideal qahramon esa kishilarga o'rnak bo'ladigan va harakatlari bilan ilg'or adabiyot arboblarning olijanob insoniy ideallarini ifodalash va targ'ib etgan ijobiy obrazdir.

Ideologiya (yun. «tushuncha, tasavvur, ta'limot») – siyosat, fan, axloq va adabiyotda ifodalangan muayyan qarashlar, tushunchalar, g'oyalar tizimi.

Ilmiy she'riyat – biror narsa va hodisa haqidagi qarashlarni, nazariy izlanishlarni nazmda (she'riy shaklda) bayon qilish. Misollar: Goratsiy «She'riyat ilmi», Munis «Savodi ta'lim» va boshq.

J

Jangnoma asar²¹⁷ – tarixiy va afsonaviy shaxslarning sarguzashtlari, vatan ozodligi va mustaqilligi uchun olib borgan jangu jadallarini ko'tarinki ruhda, mubolag'ali hikoya qilib beruvchi epik asar. Jangnomalar, asosan, nasriy, ba'zan nasr va nazm aralashgan shaklda bitilgan. Jangnomalar xalq og'zaki ijodi va yozma adabiyot o'rtasida turuvchi janr hisoblanadi. O'zbek, fors-tojik xalqlari o'rtasida «Jangnomayi Amir Hamza», «Jangnomayi Jamshid», «Jangnomayi Sayyid Battoli G'oziy», «Ahmad Zamjiy», «Rustami doston», «Abu Muslim Jangnomasi», «Hushang», «Musaybnoma», «Shohnomayi Turkiy» kabi ma'lum va mashhur jangnomalar keng tarqalgan.

K

Kiritma voqea – adabiy asardagi asosiy voqealar tizimiga bevosita aloqador bo'lmagan, lekin muayyan g'oyaviy maqsadga bo'ysundirilgan epizod.

Klassik adabiyot (lot. «birinchi darajali so'z») – o'tmishning va hozirgi zamonning g'oyaviy-badiiy jihatdan yuksak, namuna bo'la oluvchi adabiyoti. Bu adabiyot mumtoz adabiyot deb ham yuritiladi.

Kolliziya – qarama-qarshilik, to'qnashuv.

Ko'chim – so'zni ko'chma ma'noda qo'llash yoki narsa-hodisaga xos sifatlarni qaysidir jihatida bilan shularga o'xshaydigan boshqa narsa-hodisalarga ko'chirish san'atidir. Adabiyotshunoslik ilmida ko'chimning majoz, istiora, ramz singari ko'rinishlari bo'ladi²¹⁸.

²¹⁷ B.Sarimsoqov va boshq. O'zbek adabiyoti (6-sinf uchun darslik-majmua). – T.: O'qituvchi, 1995. – 35–36-betlar.

²¹⁸ Q.Yo'ldoshev va boshq. Adabiyot (Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 7-sinfi uchun darslik-majmua). – T.: Sharq, 2017. – 309-bet.

L

Libretto (ital. «kitobcha») – katta musiqali sahna asari – opera, operetta uchun yozilgan badiiy asar matni.

M

Mistifikatsiya²¹⁹ – «Mistifikatsiya» yunoncha «mistika» soʻzidan olingan boʻlib, «sirli-sehrlili» degan maʼnoni anglatadi. Adabiy mistifikatsiya badiiy tasvir usullaridan boʻlib, asarda muayyan maqsaddan kelib chiqib, hodisaga sirli tus berish, yoʻq narsani bor deb oʻquvchini ishontirishga urinishdir. Yangi oʻzbek adabiyotida dastlabki mistik sujet (mistifikatsiya) yoʻnalishi Odil Yoqubovning «Koʻhna dunyo» asarida namoyon boʻlgan. Bunda muallif Abu Ubayd al-Juzjoniy xotiralaridan tarixiy voqealarni tasvirlashda hujjat sifatida foydalangan. Aslida bu kundalik mavjud boʻlmagan.

Monolog – badiiy asarda ishtirok etgan shaxslarning oʻz-oʻziga yoki oʻzgalarga qaratilgan nutqi. Monolog ichki va tashqi boʻladi.

Motiv – adib ijodi yoki muayyan asarning asosiy gʻoyasi, mavzusini toʻldirishga xizmat qiluvchi qoʻshimcha mavzu yoki gʻoya.

Mumtoz hikoya – qadimgi oʻzbek nasrining bir shakli. Bunday hikoyalar quyidagicha belgilarga ega: ibrat xususiyatlarining mavjudligi, tugal mazmunga ega boʻlishi, hikoyalarning tili murakkab boʻlmasligi, ifoda qilish xalq ogʻzaki ijodiga yaqin turmogʻi lozimligi, ularda sheʼriy parcha boʻlishi shart emasligi.

Munshaot (ar. «yozilganlar») – yozuvchi tomonidan yozilgan maktublar, xatlar.

Mushoira (ar. «sheʼr aytishuv») – shoirlarning sheʼr aytishuvi, musobaqasi.

Munojot (ar. «yalinish, yolvorish») – «gunohkor» bandaning najot umidi bilan qilgan lirik murojaati, tavba va iltijolari.

Munozara – asar qahramonlarining oʻzaro tortishuvi, bahsi asosiga quriladigan adabiy janr. Munozaradagi

²¹⁹ N.Karimov va boshq. Adabiyot (Umumiy oʻrta taʼlim maktablarining 11-sinfi uchun darslik). – T.: Oʻqituvchi, 2004. – 273-bet.

ishtirokchilar asosan ramziy (kinoyaviy) xususiyatga ega bo‘lib, munozaralar she‘riy yoki nasriy tarzda yaratilishi mumkin. Yusuf Amiriyning «Bang va Chog‘ir», Yaqiniyning «O‘q va Yoy», Nishotiyning «Shohboz va Bulbul», «Gul va Daf», «Binafsha va Chang» munozaralari bu janrning o‘zbek adabiyotidagi go‘zal namunalari hisoblanadi. Mahmud Koshg‘ariyning «Qish va Bahor» munozarasi bu janrning eng qadimgi namunasi. Munozara janridagi asarlar ko‘proq jonlantirish san‘ati asosiga quriladi.

N

Na‘t – mumtoz adabiyotda «hamd», «munojot» kabi an‘anaviy she‘riy shakllardan biri. Odatda, katta she‘riy - epik asarlarda «hamd», «munojot» dan so‘ng payg‘ambarlar sha‘niga aytilgan an‘anaviy she‘r - na‘t beriladi.

Nasihatnoma – biron tarixiy shaxs yoki muallifning o‘ziga yaqin kishilariga bag‘ishlab yoki o‘z zamondoshlarini ko‘zda tutib nasihat shaklida yozgan asari.

Nutq (ar.) – kishilarning ijtimoiy aloqa quroli bo‘lgan tildan foydalanib, xususiy suhbatda, umumiy majlis, uchrashuv va yig‘ilishlardagi gapi yoki o‘qib eshittiradigan so‘zlari. Nutq ma‘lum bir maqsad bilan so‘zlanadi.

O

Obrazli ifoda – narsa, hodisa va insonning muayyan vaziyatdagi holati, o‘ziga xos xususiyatlarini yaqqol tasavvur etishga imkon beradigan shoirona ibora.

P

Pamflet (ingl. «qo‘ldagi varaq») – biror ijtimoiy tuzum voqelik va siyosiy partiya faoliyati, dasturi ustidan o‘tkir hajv orqali kuluvchi kichik satirik asar.

Parodiya (yun. «zid qo‘shiq») – satirik ijodning bir turi bo‘lib, yozuvchi ijodi yoki alohida asarning kulguli yoki yaramas tomonlarini ko‘rsatuvchi she‘riy yoxud nasriy asar.

Peripetiya (yun. «kutilmagan burilish») – antik davr dramaturglari va adabiyot nazariyotchilari tomonidan tragediyalardagi voqea yo‘nalishining kutilmaganda birdan

qarama-qarshi tomonga harakati. Peripetiya – antik davr fojiana-avistlarining asarlarida mo‘l qo‘llanuvchi adabiy usul, san’atlardan biri.

Peyzaj (fr. «mamlakat, joy») – badiiy asarda aks ettirilgan joy va tabiat tasviri.

Poema (yun. «ijod») – liro-epik tur janrlaridan biri bo‘lib, she‘riy rivoyat, she‘riy qissa yoki she‘riy hikoya hisoblanadi.

Poetika (yun.) – badiiy adabiyot haqidagi ilm, adabiyot nazariyasi, adabiyot qoidalari. Poetika she‘riyat, she‘r tuzilishining xususiyatlari ma‘nosida ham qo‘llanadi. Poeziya esa nazm, ya‘ni she‘riyat demakdir.

Portret (fran. «tasvir») – adabiy asarda kishining tashqi qiyofasi, siymosi, kiyim-kechagi, o‘zini tutishi va hokazolar tasviri.

Prolog (yun. «avvalgi so‘z, so‘z oldi») – badiiy asardagi muqaddimaning bir turi.

Proza (lot. «bevosita qaratilgan nutq») – nasr, ya‘ni vazn va qofiyasiz, oddiy nutq bilan yozilgan badiiy asar.

Pyesa (frans. «butun yoki umum») – xilma-xil sahna asarlari (tragediya, komediya, drama va boshqalarning) umumiy nomi.

Publitsistika (lot. «ijtimoiy») – keng ma‘noda ijtimoiy-siyosiy hayot masalalarini yoritadigan barcha turdagi asarlar. Tor ma‘noda davlat va jamiyat hayoti masalalariga bag‘ishlangan ijtimoiy-siyosiy va ilmiy adabiyot.

R

Remarka (frans.) – dramatik asarlarda muallif tomonidan beriladigan izohlar.

Replika – dramada qahramonlar nutqi.

Risola (ar. «tadqiqot, ma‘ruza») – fan, adabiyot va san’atning biror sohasi yoki masalasiga oid, ilmiy, ilmiy-metodik xarakterdagi qo‘llanma, kitob.

Ritorik so‘roq – she‘riy tasvir usullaridan biri, badiiy asarda muallifning o‘z fikrini so‘roq shaklida tasdiqlab ifodalashi. Ritorik so‘roq javob talab qilmaydi. U badiiy asarlarda fikrning kuchli, ta‘sirchan ifoda etilishini ta‘minlaydi.

Misol: «To'lisharmi o'lkada bahor» yoki «Qaldirg'ochlar qanotmi qoqar» (Zulfiya) va boshq.

T

Tabiat lirikasi – tabiat manzaralari tasvirlangan, tabiatdagi go'zallikning kishi ruhiga ta'sir o'tkazuvchi rang va ohanglari tarannum etilgan lirik she'r. Shoirlar tabiat manzaralarini tasvirlash jarayonida tabiat bilan inson o'rtasidagi munosabatning nozik nuqtalariga, insonning shu tabiat farzandi ekanligiga e'tibor qaratib, undagi go'zallikni ko'ra va seva bilishni ruhiy olamning ehtiyojidan biri sifatida talqin etganlar.

Tarixiy haqiqat – badiiy asarlarda tasvirlangan tarixiy shaxslar, ularning hayoti va faoliyati bilan bog'liq voqea-hodisalar.

Tragikomediya (jiddiy komediya) – tragediya xususiyatlari va komediya elementlari birgalikda aks ettiriladigan dramatik asar. Misol: **Sh.Boshbekov «Temir xotin»**.

V

Varvarizm (lot. «ajnabiy») – asar yozilgan tilga xos bo'lmagan va boshqa tillardan olingan chet tili so'zlari, iboralari.

Vulgarizm (lot. «dag'al») – adabiy tilda ishlatilmaydigan dag'al so'zlar, so'kish va qarg'ishlar.

X

Xalq kitoblari – ma'lum afsonaviy yoki an'anaviy sujetning biror adib tomonidan qayta ishlanib, adabiy lashtirilgan nusxasi. Misollar: «Oshiq G'arib va Shohsanam», «Tohir va Zuhra», «Sanobar» va boshq.

Z

Zarbulmasal (ar.«masal orttirmoq, masalni masalga qo'shmoq») – maqol, matal va ramzli hikoya ma'nosini anglatuvchi so'z bo'lib, u maqol va matal keltirish ma'nosida ishlatilgan. «Zarbulmasal» janrining eng asosiy xususiyati majoziy usulni qo'llashdir. Muhammad Sharif Gulxaniyning shu nomli asari ham bor.

SH

Sharh – biror asar yoki uning ma’lum bir qismini, ifoda va iboralarini tahlil va talqin etish, ba’zi o’rinlariga izoh berish, sharhlash.

Shohbayt – she’rdagi mazmun va g’oyani umumlashtirgan bayt. Unda oldingi satrlardagi fikrlar tadriji oliy nuqtaga ko’tariladi.
Misol:

*Ishq aro shoh-u gado tengdur, gado balkim fuzun,
Gar gadolig’ aylar o’lsa ishqning yag’mosidin.*

(Navoiy)

3-ILOVA

O’RTA, O’RTA MAXSUS VA KASB-HUNAR TA’LIMI MUASSASALARIDA O’RGANILADIGAN BADIYY ASARLAR RO’YXATI

1. O’zbek xalq maqollari, qo’shiqlari, topishmoqlari.
2. «Uch og’a-ini botirlar», «Susambil» ertaklari.
3. «Alpomish», «Ravshan», «Kuntug’mish», «Rustamxon», «Go’ro’g’lining tug’ilishi» dostonlari.
4. «Avesto».
5. «To’nyuquq», «Kul Tegin» bitiklari.
6. Imom al-Buxoriy hadislari.
7. Abu Mansur as-Saolibiy «Yatimad ad-dahr» asari.
8. M.Koshg’ariy «Devonu lug’ot at-turk» asari, «Alp Er To’nga» marsiyasi.
9. Yusuf Xos Hojib «Qutadg’u bilig».
10. A.Yugnakiy «Hibat ul-haqoyiq».
11. A.Yassaviy hikmatlari.
12. Najmiddin Kubro ruboiylari.
13. Pahlavon Mahmud ruboiylari.
14. Rabg’uziy «Qisasi Rabg’uziy» asari, «Kun hamalga kirdi...» g’azali.
15. Sayfi Saroyi g’azallari, «Gulistoni bit-turkiy», «Suhayl va Guldursun» dostoni.
16. Xorazmiy «Muhabbatnoma».

17. Xo'jandiy «Latofatnoma».
18. Atoyi «Jamoling vasfini qildim chamanda...», «Ko'nglim olding, begim, yoshurmog'ing ne?», «Agar ko'ngling tilar jonimni olmoq» va boshqa shu kabi g'azallari.
19. Gadoiy g'azallari.
20. Sakkokiy g'azallari va qasidalari.
21. Lutfiy «Sensan sevarim...», «Meni shaydo qilodurg'on bu ko'ngildir, bu ko'ngul», «Ayoqingg'a tushar har lahza gesu...» va boshqa shu kabi g'azallari.
22. Haydar Xorazmiy «Gulshan ul-asror» asari, «Gul va Navro'z» dostoni.
23. Durbek "Yusuf va Zulayho".
24. Husayn Boyqaro g'azallari.
25. A.Navoiy g'azallari, qit'alari, «Xamsa»si, «Mahbub ul-qulub» va boshqa asarlari.
26. Xondamirning "Makorim ul-axloq" asaridan parchalar.
27. M.Solih «Shayboniynoma».
28. Xoja hikoyatlari.
29. Z.M.Bobur she'rlari, «Boburnoma» asari.
30. A.Bahodirxon "Shajarayi turk".
31. Turdi Farog'iy «Tor ko'ngulluk beklar», «Turdiman», «Yod mandin kim berur: yaxshi zamonlar ko'rdiman» she'rlari.
32. So'fi Olloyor "Sabot ul-ojizin" dan parcha.
33. Mashrab g'azallari.
34. «Shoh Mashrab» qissasi.
35. X.Huvaydo she'rlari, «Rohati dil» dostoni.
36. Gulxaniy «Zarbulmasal».
37. Maxmur g'azallari, «Hapalak» she'ri.
38. Munis she'rlari.
39. Amiriy g'azallari.
40. Uvaysiy g'azallari, chistonlari.
41. Nodira g'azallari, «Firoqnoma» muashshari.
42. Ogahiy g'azallari, «Qasidayi nasihat», «Ogohnoma» qasidalari.
43. M.R.Feruz g'azallari.
44. Dilshodi Barno she'rlari.
45. Komil Xorazmiy she'rlari.
46. Muqimiy she'rlari, «Sayohatnoma», «Tanobchilar».
47. Zavqiy she'rlari.

48. Furqat she'rlari.

49. Anbar Otin "Risolayi falsafayi siyohon" ("Qarolar falsafasi").

50. Avaz O'tar «Til», «Fidoyi xalqim», «Sipohi pora istar», «Biling, ushbu zamon...» she'rlari.

51. M.Behbudiy «Padarkush» asari.

52. A.Fitrat «Mirrix yulduziga», «O'gut», «Biroz kull!», «Go'zalim, bevafo gulistonim», «O'qitg'uvchilar yurtiga» kabi she'rlari, «Abulfayzxon» fojiasi.

53. A.Avloniy «Vatan» she'ri, «Vatanni suymak», «Advokatlik osonmi?», «Biz, millat», «Maktab haqinda», «Hijron so'zi», «Birinchi muallim», «Ikkinchi muallim», «Kim nimani yaxshi ko'radi?», «Sanoye Nafisa», «Turkiy Guliston yoxud axloq».

54. M. So'fizoda she'rlari.

55. Hamza «Yig'la, Turkiston», «Turkiston», «Dardiga darmon istamas», «Jonlarni jononi Vatan», «O'quv», «Qalam», «Ilm ista», «Maktab» kabi she'rlari, «Zaharli hayot...» fojiasi.

56. A.Qodiriy «O'tkan kunlar», «Mehrobdan chayon» romanlari, «Uloqda», «Jinlar bazmi» hikoyalari.

57. Cho'lpon «Kishan», «Vijdon erki», «Ko'ngil», «Qo'zg'alish», «Yong'in», «Binafsha», «Go'zal», «Buzilgan o'lkaga», «Somon parcha», «Xazon», «Bir tutam sochlaring mening qo'limda», «Bahorni sog'indim», «Kuz yomg'iri», «Xalq» kabi she'rlari, «Kecha va kunduz» romani.

58. G'.G'ulom «Sog'inish», «Vaqt», «Sen yetim emassan», «Alisher» kabi she'rlari, «Mening o'g'rigina bolam» hikoyasi, «Shum bola» qissasi.

59. Oybek «Na'matak», «Tog' sayri», «Mashrab» kabi she'rlari, «Navoiy», «Qutlug' qon» romanlari, «Fonarchi ota», «Bolaning ko'ngli podsho» hikoyalari.

60. A.Qahhor «Adabiyot muallimi», «O'g'ri», «Bemor», «Dahshat» kabi hikoyalari, «Sarob» romani.

61. Mirkarim Osim «Zulmat ichra nur» qissasi.

62. M.Shayxzoda «Qo'llar», «Ayriliq», «She'r chin go'zallik singlisi ekan», «Toshkentnoma» kabi she'rlari, «Iskandar Zulqarnayn» dostoni, «Mirzo Ulug'bek» fojiasi, «Jaloliddin Manguberdi» dramasi.

63. H.Olimjon «Gʻazal», «Oʻrik gullaganda», «Ofeliyaning olimi», «Chimyon esdaliklari» sheʼrlari, «Oygul bilan Baxtiyor» ertak-dostoni.

64. Mirtemir «Bu – men tugʻilgan tuproq», «Onaginam», «Toshbu», «Baliq ovi», «Bulut», «Betobligimda», «Shudring», «Men seni», «Kipriklarim», «Oqsoqol» kabi sheʼrlari, «Surat» lirik qissasi.

65. U.Nosir «Yana sheʼrimga», «Yur, togʻlarga chiqaylik», «Yoʻlchi», «Yoshlik», «Yurganmisan birga oy bilan», «Dengiz oyna kabi...», «Gulzor-chaman...», «Yurak», «Nasimaga deganim», «Nil va Rim», «Monolog» kabi sheʼrlari.

66. Zulfiya «Oʻgʻlim, sira boʻlmaydi urush», «Bahor keldi seni soʻroqlab», «Mushoira», «Xotiram siniqlari», «Nevara», «Bogʻlar qiygʻos gulda», «Men oʻtgan umrga» kabi sheʼrlari.

67. Shuhrat «Mardlik afsonasi», «Oltin zanglamas».

68. T.Toʻla «Yetti zogʻora qissasi»dan «Doʻnan» hikoyasi.

69. A.Muxtor «Yulduzim», «Yoʻl», «Tugʻilish», «Oʻzirniki emas, bu umr...», «Hafta» sheʼrlari, «Chinor» romani.

70. S.Ahmad «Qoplón», «Sobiq», «Qorakoʻz majnun» hikoyalari, «Ufq» romani.

71. Mirmuhsin «Meʼmor».

72. S.Zunnunova «Qizimga», «Yer uzra qoʻndi oqshom», «Mening vatanim!», «Buvilar duoga qoʻllarin ochib» sheʼrlari.

73. O.Yoqubov «Muzqaymoq», «Ulugʻbek xazinasini».

74. P.Qodirov «Yulduzli tunlar».

75. O.Sharafiddinov «Oʻlsam, ayrilmasman quchoqlaringdan».

76. I.Yusupov «Qadrón soʻqmoqlar» sheʼri.

77. X.Toʻxtaboyev «Sariq devni minib».

78. Xayriddin Saloh «Koʻkrak ochdim shamollarga», «Yer va Ter», «Yulduzlar afsonasi».

79. Oʻlmas Umarbekov «Sovgʻa», «Qiyomat qarzi».

80. Toʻra Sulaymon «Iltijo», «Armon», «Tavallo», «Gul bir yon, chaman bir yon» kabi sheʼrlari.

81. E.Vohidov «Yaxshidir achchiq haqiqat», «Oʻzbek Navoiyni oʻqimay qoʻysa», «Inson», «Oʻlmas edi balki odamzod», «Nega yapon yuz yil yashar», «Dangasalar» kabi sheʼrlari, «Oʻzbekim» qasidasi, «Ruhlar isyoni», «Nido» dostonlari.

82. Sh.Xolmirzayev «Qariya», «Qora kamar».

83. A.Oripov «Tilla baliqcha», «Dorboz», «Onajon», «Odamlar», «Sarob», «Bahor kunlarida kuzning havosi...», «Men nechun sevaman O‘zbekistonni?», «Genetika», «Men anglab yetgan falsafa», «Kuz manzaralari», «Sen bahorni sog‘inmadingmi?», «Birinchi muhabbatim», «Temir odam», «Bola edim», ««Munojot»ni tinglab», «Yurtim shamoli», «Qo‘riqxon» kabi she‘rlari, «O‘zbekiston» qasidasi, «Sohibqiron» dramasi.

84. O‘.Hoshimov «Dunyoning ishlari», «Urushning so‘nggi qurboni», «Bahor qaytmaydi», «Ikki eshik orasi».

85. Omon Matjon «Ko‘rdim Shukur Burhon», «Navoiy g‘azaliga muxammas», «Ikki qal‘a», «Shoir bo‘lmoqchiman, debsan» kabi she‘rlari va boshq.

86. Rauf Parfi “Tong otmoqda”, “Yomg‘ir yog‘ar”, “Yoz kechasi”, “Yana qaytib keldim”, “Yurak” she‘rlari.

87. Tohir Malik «Alvido, bolalik», «Shaytanat».

88. H.Xudoyberdiyeva she‘rlari.

89. Tog‘ay Murod «Yulduzlar mangu yonadi».

90. Shavkat Rahmon she‘rlari.

91. Sharof Boshbekov «Temir xotin».

92. M.Yusuf «Yurtim, ado bo‘lmas armonlaring bor», «Mehr qolur», «Biz baxtli bo‘lamiz», «Vatanim», «Madhiya», «Jayron», «Muhabbat», «Yangi yil kechasi» kabi she‘rlari va boshq.

93. Jamol Kamol “Asr bilan vidolashuv” she‘ri.

94. Oydin Hojiyeva “Mustaqil vatanni baxt nuri chaysin” she‘ri.

95. Usmon Azim “Grafika” she‘ri.

96. Xurshid Davron “Men ko‘ksingga boshimni qo‘ydim” she‘ri.

97. Mahmud Toir “Momo yer” she‘ri.

98. Sirojiddin Sayyid “Vatan” she‘ri.

99. Iqbol Mirzo “O‘zbek” she‘ri.

100. Muhammad Ali “Sohibqiron o‘ylari” (“Ulug‘ saltanat” epopeyasi to‘rtinchi kitobidan parcha).

101. Erkin A‘zam “Tanho qayiq” dramasi.

102. Ezop «Yovvoyi echkilar», «Kiyik bilan tokzor», «Bo‘ri bilan laylak», «Eshak bilan baqalar», «Ustiga tuz yuklangan eshak», «Burgut, zag‘cha va cho‘pon» masallari.

103. Rudakiy she‘rlari.

104. Firdavsiy «Shohnoma»dan parcha.

105. S.Sheroziy «Guliston», «Bo'ston».
106. Jaloliddin Rumi ruboiylari.
107. M.Fuzuliy g'azallari.
108. V.Shekspir «Otello».
109. J.Svift «Gulliverning sayohatlari».
110. Maxtumquli she'rlari.
111. H.Hayne she'rlari.
112. A.S.Pushkin «Yevgeniy Onegin».
113. X.K.Andersen «Bulbul» ertagi.
114. Alfons Dode "So'nggi saboq".
115. Abay «Nasihatlar».
116. E.S.Tompson «Yovvoyi yo'rg'a».
117. Anton Pavlovich Chexov "Garov" hikoyasi.
118. R.Thokur «Nur va soyalar» hikoyasi.
119. Jek London "Hayotga muhabbat".
120. Rashod Nuri Guntekin «Choliqushi» romanidan parcha.
121. S.Yesenin «Dog'lar ketmish majruh ko'ngildan...», «Xurosonda bir darvoza bor», «Singlimga xat», «Shoir bo'lmoq – bu-ku tayin gap», «Bu dunyoda men bir yo'lovchi», «Ona ibodati», «Oy yuzida tillarang jilo», «It haqida doston» she'rlari.
122. Antuan de Sent-Ekzyuperi «Kichkina shahzoda».
123. Musa Jalil «Ishonma» she'ri.
124. J.Rodari «Hurishni eplolmagan kuchukcha», «Qutbdagi gunafsha», «Hech qayoqqa olib bormaydigan yo'l» ertaklari.
125. Rasul Hamzatov «Ona tilim», «Kenja nevaram Shahrizodga» kabi she'rlari.
126. Nodar Dumbadze «Hellados».
127. Ch.Aytmatov «Asrga tatigulik kun», «Oq kema», «Jamila».
128. O'.Sulaymonov she'rlari.

**MUSTAQIL O‘QISH UCHUN TAVSIYA ETILGAN
BADIY ASARLAR RO‘YXATI**²²⁰

№	Badiiy asar nomi	Muallifi	Badiiy asar o‘rganiladigan sinf	Nashriyoti	Nashr yili
1	“Dunyoning ishlari”	O‘tkir Hoshimov (Qissa)	5-sinf	“Yangi asr avlodi”	2015
2	“Shum bola”	G‘afur G‘ulom (Qissa)	6-sinf	“Yangi asr avlodi”	2015
3	“Yulduzlar mangu yonadi”	Tog‘ay Murod (Qissa)	6-sinf	“Sharq” NMAK	2009
4	“Yulduzli tunlar”	Pirimqul Qodirov (Roman)	6-sinf	“Sharq” NMAK	2016
5	“Oq kema”	Chingiz Aytmatov (Qissa)	7-sinf	“Yangi asr avlodi”	2019
6	“Ufq” (“Hijron kunlarida”, 2-kitob)	Said Ahmad (Roman-trilogiya)	8-sinf	“Sano-standart”	2019
7	“Ulug‘bek xazinasi”	Odil Yoqubov (Roman)	9-sinf	“G‘afur G‘ulom”	2018
8	“Sohibqiron”	Abdulla Oripov (She‘riy drama)	9-sinf	“Akademik” NMAK	2016
9	“Navoiy”	Oybek (Roman)	9-sinf	“Navro‘z”	2019
10	“O‘tkan kunlar”	Abdulla Qodiriy (Roman)	10-sinf (O‘rta ta‘lim muassasalarining 10-sinfi va o‘rta maxsus, kasb-hunar ta‘limi muassasalari o‘quvchilari uchun darslik-majmua)	“Sharq” NMAK	2013

²²⁰ Manba: dtm.uz sayti

11	“Ruhlar isyoni”	Erkin Vohidov (Doston)	11-sinf (O‘rta ta’lim muassasalarining 11-sinfi va o‘rta maxsus, kasb- hunar ta’limi muassasalari o‘quvchilari uchun darslik- majmua)	“G‘afur G‘ulom”	1980
12	“Kecha va kunduz”	Cho‘lpon (Roman)	11-sinf (O‘rta ta’lim muassasalarining 11-sinfi va o‘rta maxsus, kasb- hunar ta’limi muassasalari o‘quvchilari uchun darslik- majmua)	“Sharq” NMAK	2013

IZOH. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 13.09.2017-yildagi “Kitob mahsulotlarini nashr etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ‘ib qilish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar dasturi to‘g‘risida”gi PQ-3271-sonli qaroriga asosan umumiy o‘rta va o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limining o‘quv dasturlarida berilgan yuqoridagi badiiy asarlarning darslik va darslik-majmualarda berilgan parchalarinigina emas, balki ularni to‘liq o‘qib chiqish tavsiya qilinadi.

*Ushbu ustunda badiiy asarlar o‘rganiladigan sinflar ko‘rsatildi.

*Jadvalda to‘liq o‘qib chiqish uchun tavsiya etilgan badiiy asarlarning nashriyotlari ko‘rsatildi. Abituriyentlar shu asarlarning mustaqillikdan keyin boshqa nashriyotlarda chop etilgan nashrlarini ham o‘qishi mumkin.

<https://dtm.uz/> – Davlat test markazining rasmiy veb-sayti
@rasmийdtm – Davlat test markazining rasmiy telegram kanali



DIQQAT!

Xalq o'zaki ijodidan namunalarni, ushbu qo'llanmadagi barcha adiblar asarlari hamda ulardan keltirilgan parchalarni muallifning yangi chop etilgan **“ADABIYOT FANIDAN MAJMUA”** nomli ensiklopedik qo'llanmasidan o'qib oling!

Bilingki, asarning o'zi bilan tanishish badiiy adabiyotni to'laqonli o'rganish demakdir!



FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi qonuni // Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. – T.: Sharq, 1997.

2. O'zbekiston Respublikasining «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» // Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. – T.: Sharq, 1997.

3. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirzizoyevning adabiyot, ta'lim, san'at va madaniyatga oid so'zlagan nutqlari, yo'llagan tabriklari.

4. Karimov I.A. Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori // Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. – T.: Sharq, 1997.

5. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – T.: Ma'naviyat, 2008.

6. Karimov I.A. Adabiyotga e'tibor – ma'naviyatga, kelajakka e'tibor. – T.: O'zbekiston, 2009.

* * *

7. Umumiy o'rta ta'limning davlat ta'lim standarti va o'quv dasturi (1-maxsus son). – T.: 1999.

8. Uzviylashtirilgan Davlat ta'lim standarti va o'quv dasturi (Ona tili. Adabiyot. O'zbek tili. 5–9-sinflar). – Toshkent, 2010.

9. Adabiyot (Uzviylashtirilgan o'quv dasturini joriy etish bo'yicha tavsiya va taqvim-mavzu rejalar. 5–9-sinflar). – T.: Sharq, 2010.

* * *

10. S.Ahmedov, B.Qosimov, R.Qo'chqorov, Sh.Rizayev. Adabiyot (Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 5-sinfi uchun darslik). I va II qism. – T.: Sharq, 2015.

11. S.Ahmedov, R.Qo'chqorov, Sh.Rizayev. Adabiyot (Umumta'lim maktablarining 6-sinfi uchun darslik-majmua). I va II qism. – T.: Ma'naviyat, 2017.

12. Q.Yo'ldoshev, B.Qosimov, V.Qodirov, J.Yo'ldoshbekov. Adabiyot (Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 7-sinfi uchun darslik-majmua). – T.: Sharq, 2017.

13. S.Olim, S.Ahmedov, R.Qo'chqorov. Adabiyot (Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 8-sinfi uchun darslik-majmua). I va II qism. – T.: G'.G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2014.

14. Q.Yoʻldoshev, V.Qodirov, J.Yoʻldoshbekov. Adabiyot (Umumiy oʻrta taʼlim maktablarining 9-sinfi uchun darslik). I va II qism. – T.: Yangiyoʻl Poligraf servis, 2014.

15. B.Toʻxliyev, B.Karimov, K.Usmonova. Adabiyot (Oʻrta taʼlim muassasalarining 10-sinfi va oʻrta maxsus, kasb-hunar taʼlimi muassasalarining oʻquvchilari uchun darslik-majmua. I va II qismlar. -T.: “Oʻzbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, 2017.

16. B.Toʻxliyev, B.Karimov, K.Usmonova. Adabiyot (Oʻrta taʼlim muassasalarining 11-sinfi va oʻrta maxsus, kasb-hunar taʼlimi muassasalarining oʻquvchilari uchun darslik-majmua. I va II qismlar. -T.: “Oʻzbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, 2018.

* * *

17. N.Karimov, B.Nazarov, U.Normatov, Q.Yoʻldoshev. Adabiyot (Umumiy oʻrta taʼlim maktablarining 11-sinfi uchun darslik). – T.: Oʻqituvchi, 2004.

18. B.Toʻxliyev. Adabiyot (Akademik litsey va kasb-hunar kollejlari uchun darslik). – T.: Oʻqituvchi, 2010.

19. H.Umurov. Adabiyot qoidalari (Akademik litseylar uchun). – T., 2011.

20. O.Madayev, T.Sobitova. Xalq ogʻzaki poetik ijodi (Akademik litseylar uchun darslik, majmua). – T.: Sharq, 2001.

21. O.Safarov, D.Oʻrayeva, M.Qurbonova. Oʻzbekiston xalqlari etnografiyasi va folklori (kasb-hunar kollejlari uchun). – T.: Oʻqituvchi, 2007.

22. B.Toʻxliyev, B.Abdurahmonova. Adabiyot (Akademik litseylarning birinchi bosqich oʻquvchilari uchun majmua). – T.: Choʻlpon nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, “Bayoz”, 2007, 2016.

23. B.Toʻxliyev, R.Mirsamiqova, O.Ametova. Adabiyot (Akademik litseylarning ikkinchi bosqich oʻquvchilari uchun majmua). – T.: Choʻlpon nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, “Bayoz”, 2007, 2016.

24. B.Toʻxliyev, T.Shermurodov, Sh.Isayeva. Adabiyot (Akademik litseylarning uchinchi bosqich oʻquvchilari uchun majmua). – T.: Choʻlpon nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, “Bayoz”, 2014, 2016.

25. T.Boboyev. Adabiyotshunoslik asoslari. – T.: Oʻzbekiston, 2002.

26. N.Shukurov, N.Xotamov, Sh.Xolmatov, M.Mahmudov. Adabiyotshunoslikka kirish. – T.: O‘qituvchi, 1984.
27. Izzat Sulton. Adabiyot nazariyasi. – T.: O‘qituvchi, 2005.
28. E.Xudoyberdiyev. Adabiyotshunoslikka kirish. – T.: Sharq, 2008.
29. B.To‘xliyev. Adabiyot o‘qitish metodikasi.–T.: Yangi asr avlodi, 2006.
30. Adabiy turlar va janrlar (uch jildli). – T.: Fan, 1992.
31. T.Boboyev. She‘r ilmi ta‘limi. – T.: O‘qituvchi, 1996.
32. A.Hojiahmedov. Maktabda aruz vaznini o‘rganish. – T.: O‘qituvchi, 1995.
33. A.Hojiahmedov. She‘riy san‘atlar va mumtoz qofiya. – T.: 1998.
34. A.Hojiahmedov. O‘zbek aruzi lug‘ati. – T.: 1998.
35. A.Hojiahmedov. Maktabda o‘rganiladigan mumtoz she‘riyatning vazn ko‘rsatkichlari. – T.: 2001.
36. A.Hojiahmedov. Mumtoz badiiyat lug‘ati. – T.: Yangi asr avlodi, 2008.
37. A. Fitrat. Aruz haqida. – T.: O‘qituvchi, 1997.
38. H.Homidiy, Sh.Abdullayeva, S.Ibrohimova. Adabiyotshunoslik terminlari lug‘ati. – T.: O‘qituvchi, 1967.
39. J.Lapasov. Mumtoz adabiy asarlar o‘quv lug‘ati. – T.: O‘qituvchi, 1994.
40. A.A‘zamov. Aruz. – T.: Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston milliy kutubxonasi nashriyoti, 2006.
41. «Axborotnoma»lar (O‘quv yurtlariga kirish uchun test savollari). – T.: DTM, 1996–2003, 2018.
42. K.Imomov, T.Mirzayev, B.Sarimsoqov, O.Safarov. O‘zbek xalq og‘zaki poetik ijodi. – T.: O‘qituvchi, 1990.
43. Sh.Karimov, R.Shamsutdinov. Vatan tarixi. – T.: O‘qituvchi, 1997.
44. N.M.Mallayev. O‘zbek adabiyoti tarixi. – T.: 1965.
45. N.Karimov, S.Mamajonov, B.Nazarov, U.Normatov, O.Sharafiddinov. XX asr o‘zbek adabiyoti tarixi. – T.: O‘qituvchi, 1999.
46. S.Mirvaliyev, R.Shokirova. O‘zbek adiblari. – T.: Fan, 2007.
47. O‘zbek pedagogikasi antologiyasi (I-II jild). – T.: O‘qituvchi, 1995, 1999.
48. Unitilmas siymolar (Jadidchilik harakatining namoyandalari). – T.: 1999.

49. Ma'naviyat yulduzlari. – T.: A. Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 1999.
50. Buyuk siymolar, allomalar (3 jildli). – T.: 1996-1997.
51. Buyuk iste'dod sohiblari (Tuzuvchi M.Xayrullayev. Ixcham ma'lumotnoma). – T.: Adolat, 2002.
52. O'zbek adabiyoti tarixi (besh tomlik). – T.: Fan, 1977-1980.
53. XX asr o'zbek adabiyoti (majmua). – T.: O'qituvchi, 1993.
54. Hamidjon Homidov. Qirq besh alloma hikoyati. – T.: Fan, 1995.
55. N. Karimov. Usmon Nosirning so'nggi kunlari. – T.: 1994.
56. Nasafiy. Xoja Ahmad Yassaviy. – T.: 1993.
57. Ne'mat Jabbarov. Xoja Ahmad Yassaviy – tasavvuf osmonining porloq quyoshi. – T.: 1994.
58. Aziz Qayumov. Alisher Navoiy. – T.: Kamalak, 1991.
59. J.Yo'ldoshev, S.Hasanov. Avestoda axloqiy-ta'limiy qarashlar. – T.: O'qituvchi, 1992.
60. A.Hayitmetov. Adabiy merosimiz ufqlari. – T.: 1997.
61. K.Hoshimov, S.Nishonova, M.Inomova, R.Hasanov. Pedagogika tarixi. – T.: 1996.
62. Bo'riboy Ahmedov. O'zbekiston tarixi manbalari. – T.: O'qituvchi, 2001.
63. Saodat Yo'ldosheva. Xalq urf-odatlar va an'analari. – T.: Ijod dunyosi, 2003.
64. F.Boynazarov. Jahon adabiyoti. – T.: Musiqa, 2006.
65. O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi (1-12-jildlar). – T.: «O'zbekiston milliy ensiklopediyasi» Davlat ilmiy nashriyoti, 2000-2006.
66. Alisher Navoiy. G'azallar. Sharhlar. – T.: Kamalak, 1991.
67. H.Olimjon. Mukammal asarlar to'plami (O'n tomlik. Birinchi tom). – T.: Fan, 1979.
68. Vilyam Shekspir. Hamlet. – T.: Sharq, 2006.
69. O'zbek shoiralari bayozi. Uvaysiy. Nodira. – T.: Fan, 1993.
70. Shoh va shoir Husayn Boyqaro. – T.: 1995.
71. Cho'lpon. Adabiyot nadir. – T.: 1994.
72. Cho'lpon. Asarlar (III jildlik). – T.: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1994.
73. Internet materiallari.



MUNDARIJA

SO'ZBOSHI.....	3
1-MAVZU. ADABIYOT VA BADIY ASARLAR HAQIDA UMUMIY MA'LUMOT.....	5
I BO'LIM. XALQ OG'ZAKI POETIK IJODI	
2-MAVZU. XALQ OG'ZAKI IJODI VA UNING JANRLARI.....	11
Xalq qo'shiqlari	12
Maqollar.....	14
Matallar.....	14
Topishmoqlar	15
Afsonalar.....	15
Rivoyatlar.....	16
Asotir(mif)lar	16
3-MAVZU. XALQ OG'ZAKI IJODI JANRLARI (Davomi).....	18
Ertaklar.....	18
«Uch og'a-ini botirlar» ertagi haqida.....	19
<i>Nazariy ma'lumot.</i> Yozma ertaklar haqida.....	20
Latifalar.....	20
Termalar	21
Masallar.....	21
4-MAVZU. XALQ DOSTONLARI	23
Xalq dostonlari haqida umumiy ma'lumot	23
«Alpomish» dostoni.....	27
5-MAVZU. XALQ DOSTONLARI	32
«Ravshan» dostoni.....	32
6-MAVZU. XALQ DOSTONLARI	37
«Kuntug'mish» dostoni.....	37
7-MAVZU. XALQ DOSTONLARI	43
«Rustamxon» dostoni.....	43
8-MAVZU. XALQ DOSTONLARI	46
«Go'ro'g'lining tug'ilishi» dostoni.....	46
II BO'LIM. ADABIYOT NAZARIYASI	
9-MAVZU. BADIY ASAR VA UNING TUZILISHI.....	50
Badiiy asar poetikasi.....	50
Badiiy asar pafosi.....	50
Badiiy asar mavzusi	51
Badiiy g'oya.....	51
Badiiy asar kompozitsiyasi	51
Badiiy asar qahramoni	51
Badiiy asar sujeti.....	53
Badiiy ijod usullari.....	54
10-MAVZU. LIRIK TUR (SHE'RIYAT) HAQIDA MA'LUMOT.....	56
Misra	57
Bayt.....	57
Band	57
Raviy	57
Qofiya.....	58

Radif.....	60
Ritm.....	60
Hojib	60
She'riyatdagi ramzlar va timsollar.....	60
Devon tuzishi an'anasi va tartibi.....	61
She'riy nutq.....	62
Lirik qahramon.....	62
Lirik parchalar.....	63
11-MAVZU. SHE'RIY JANRLAR	64
Mumtoz adabiyotga xos she'riy janrlar	64
Fard	64
Qit'a	65
Masnaviy.....	66
G'azal.....	66
<i>Nazariy ma'lumot.</i> Begona bayt.....	68
Tuyuq.....	69
Ruboiy.....	71
Mustazod.....	72
12-MAVZU. SHE'RIY JANRLAR (Davomi)	74
Muammo.....	74
Chiston.....	75
Noma.....	76
Qasida.....	76
Marsiya.....	78
Madhiya.....	79
Shir-u shakar.....	79
Nazira.....	79
Tarkibband.....	79
Tarji'band.....	80
13-MAVZU. SHE'RIY JANRLAR (Davomi)	81
Musammat va uning turlari	81
Musallas.....	81
Murabba'.....	82
Muxammas.....	82
Musaddas.....	83
Musabba'.....	84
Musamman.....	84
Mustasne'.....	84
Muashshar.....	84
Zamonaviy she'riy janrlar	85
Sonet.....	85
Oq she'r.....	86
Sochma (nasriy) she'r.....	86
Ballada.....	87
Sarbast she'r.....	87
To'rtlik.....	88
<i>Nazariy ma'lumot.</i> Yozma dostonlar haqida.....	89
<i>Nazariy ma'lumot.</i> Ertak-dostonlar haqida.....	89
14-MAVZU. SHE'RIY TIZIMLAR	90
Aruz she'r tizimi haqida.....	90
15-MAVZU. SHE'RIY TIZIMLAR	99
Barmoq she'r tizimi haqida.....	99
<i>Nazariy ma'lumot.</i> Erkin she'r tizimi haqida.....	102
16-MAVZU. EPIK TUR VA DRAMATIK TUR HAQIDA MA'LUMOT	103

Epik tur va uning janrlari	103
Hikoya.....	103
Ocherk.....	104
Esse.....	104
Qissa.....	104
Roman.....	105
<i>Nazariy ma'lumot. She'riy roman haqida</i>	108
Dramatik tur va uning janrlari	108
Drama.....	108
Komediya.....	109
Tragediya (fojia).....	109

17-MAVZU. BADIY SAN'AT TURLARI	111
Allegoriya.....	111
Anafora.....	112
Alliteratsiya.....	112
Balog'at.....	112
Harf san'ati (Kitobat).....	113
Husni ta'lil.....	113
Iyhom.....	114
Irsoli masal.....	114
Istiora.....	115
Ishtiyoq.....	116
Jonlantirish.....	116
Tashxis.....	116
Intiq.....	117
Laff va nashr.....	117
Litota.....	117
Mubolag'a.....	118
Musoviyattarafayn.....	119
Nido.....	119
Qaytarish san'ati.....	120

18-MAVZU. BADIY SAN'AT TURLARI (Davomi)	122
Ramz.....	122
Radd ul-qofiya.....	122
Radd ul-matla'.....	122
Ruju'.....	123
Saj'.....	124
Sifatlash.....	124
Ta'did.....	125
Tajnis (Jinos).....	125
Tajohil ul-orif.....	126
Takrir.....	127
Talmeh.....	127
Tamsil.....	128
Tanosib.....	128
Tarse'.....	129
Tardi aks.....	129
Tasbe.....	130
Tasdir.....	130
Tazmin.....	130
Tazod.....	131
Tashbeh.....	132

III BO'LIM. O'ZBEK ADABIYOTI TARIXI

19-MAVZU. QADIMGI ADABIY YODGORLIKLAR

HAQIDA MA'LUMOT.....	135
«Avesto» haqida.....	139
O'rxun-Enasoy yodgorliklari.....	142
«To'nyuquq» bitiktoshi haqida.....	143
«Kul Tegin» bitiktoshi haqida.....	145

20-MAVZU. VIII-X ASRLARDAGI TURKIY ADABIYOT.....

Hadislar haqida.....	147
Imom al-Buxoriy.....	149
Abu Mansur as-Saolibiy.....	152
Nazariy ma'lumot. Tazkira haqida.....	153
O'rta Osiyoning qomusiy olimlari.....	154
Al-Xorazmiy.....	154
Abu Nasr Forobiy.....	154
Abu Rayhon Beruniy.....	155
Abu Ali Ibn Sino.....	156

21-MAVZU. X-XI ASRLAR ADABIYOTI

NAMOYANDALARI.....	158
X – XI asrlar adabiyoti haqida.....	158
M.Koshg'ariy.....	159
«Devonu lug'ot at-turk» asari haqida.....	160
«Alp Er To'nga» marsiyasi haqida.....	162
Y.X.Hojib.....	164
«Qutadg'u bilig» asari haqida.....	165
Nazariy ma'lumot. Didaktik adabiyot haqida.....	172

22-MAVZU. XI-XII ASRLAR ADABIYOTI

NAMOYANDALARI.....	173
Tasavvuf haqida umumiy ma'lumot.....	173
A.Yugnakiy.....	176
A.Yassaviy.....	179
Nazariy ma'lumot. Hikmat haqida.....	184

23-MAVZU. XIII-XIV ASRLAR ADABIYOTI

NAMOYANDALARI.....	185
Najmiddin Kubro.....	185
Pahlavon Mahmud.....	187
Rabg'uziy.....	188
«Qisasi Rabg'uziy» asari haqida.....	189
Sayfi Saroyi.....	192
«Guliston bit-turkiy» asari haqida.....	194

24-MAVZU. XIV-XV ASRLAR O'ZBEK ADABIYOTI

NAMOYANDALARI.....	195
Xorazmiy.....	195
«Muhabbatnoma» asari haqida.....	195
Xo'jandiy.....	197
Atoyi.....	198
Atoyi g'azallari haqida.....	199
Gadoiy.....	200
Sakkokiy.....	200

Lutfiy	202
Lutfiy gʻazallari haqida	204
Haydar Xorazmiy	206
«Gul va Navroʻz» dostoni haqida	208
Durbek	209
Husayn Boyqaro	210

25-MAVZU. ALISHER NAVOIYNING

HAYOTI VA IJODI	212
Navoiyning ijodiy faoliyati	216
Navoiyning lirik merosi	217
Navoiyning gʻazallari va ularga xos jihatlar	218
Navoiyning qitʼalari va ularga xos jihatlar	221
Navoiy ruboiylari	221
Navoiy tuyuqlari	221
Navoiy fardlari	222
Navoiyning tarixiy, ilmiy va didaktik asarlari	222
Navoiyning baʼzi asarlari haqida maʼlumotlar	224
«Majolis un-nafois» tazkirasini haqida	224
«Mahub ul-qulub» asari haqida	225
<i>Nazariy maʼlumot.</i> Hikmatli soʻzlar haqida	227

26-MAVZU. «XAMSA»CHILIK TARIXIDAN

Nizomiy Ganjaviy	228
Nizomiyning “Xamsa”si	229
Xusrav Dehlaviy	230
Dehlaviyning “Xamsa”si	230
Abdurahmon Jomiy	231
Jomiyning “Xamsa”si	232
Navoiyning «Xamsa»si	232
“Hayrat ul-abror” dostoni haqida	233
“Farhod va Shirin” dostoni haqida	236
“Layli va Majnun” dostoni haqida	242
“Sabʼayi sayyor” dostoni haqida	246
“Saddi Iskandariy” dostoni haqida	249

27-MAVZU. XV–XVI ASRLAR OʻZBEK ADABIYOTI

NAMOYANDALARI	252
Muhammad Solih	252
“Shayboniynoma” dostoni haqida	253
Xoja	254
Xoja asarlari haqida	255
Zahiriddin Muhammad Bobur	256
“Boburnoma” asari haqida	261
<i>Nazariy maʼlumot.</i> Memuar asar haqida	265

28-MAVZU. XVII–XVIII ASRLAR OʻZBEK

ADABIYOTI NAMOYANDALARI	266
Abulgʻozi Bahodirxon	266
Turdi Farogʻiy	268
Soʻfi Olloyor	269
Boborahim Mashrab	271

“Shoh Mashrab” qissasi haqida	274
Xo‘janazar Huvaydo.....	276

29-MAVZU. XVIII–XIX ASRLAR O‘ZBEK ADABIYOTI

NAMOYANDALARI	278
Gulxaniy.....	278
“Zarbulmasal” asari haqida.....	279
Maxmur	281
Munis Xorazmiy.....	283
Amiriy	285

30-MAVZU. XVIII–XIX ASRLAR O‘ZBEK ADABIYOTI

NAMOYANDALARI	287
Uvaysiy	287
Nodira.....	289
Nodira g‘azallari va ularga xos jihatlar.....	290
“Firoqnoma” muashshari haqida.....	291
Ogahiy	293
“Ta’viz ul-oshiqin” devoni haqida	294
Muhammad Rahimxon Feruz.....	298

31-MAVZU. XIX–XX ASRLAR O‘ZBEK ADABIYOTI

NAMOYANDALARI	299
Dilshodi Barno.....	299
Komil Xorazmiy	300
Muqimiy.....	302
<i>Nazariy ma’lumot.</i> Hajviy asar haqida.....	306
Muqimiyning “Sayohatnoma” asari haqida	306
<i>Nazariy ma’lumot.</i> “Sayohatnoma” haqida.....	307
Zavqiy.....	308
Furqat.....	311
Anbar Otin.....	316
Avaz O‘tar.....	317

XX ASR O‘ZBEK ADABIYOTI

32-MAVZU. JADID ADABIYOTI NAMOYANDALARI	319
Jadid adabiyoti haqida.....	319
Mahmudxo‘ja Behbudiy.....	320
“Padarkush” asari haqida	322
Abdurauf Fitrat.....	323

“Mirrix yulduziga” she’ri haqida	328
“O‘gut” she’ri haqida	328
“Go‘zalim, bevafo gulistonim...” she’ri haqida	329
“Abulfayzxon” fojiasi haqida	329
Abdulla Avloniy	331
“Turkiy Guliston yoxud axloq” asari haqida	334
Muhammadsharif So‘fizoda	337

33-MAVZU. JADID ADABIYOTI NAMOYANDALARI.....

Hamza Hakimzoda Niyoziy	339
“Zaharli hayot yoxud ishq qurbonlari” fojiasi haqida.....	344
Abdulla Qodiriy	346
“Uloqda” hikoyasi haqida	349
“O‘tkan kunlar” romani haqida.....	350
“Mehrobdan chayon” romani haqida	351
<i>Nazariy ma’lumot.</i> Badiiy asarda milliy ruh ifodasi	354
Cho‘lpon	354
“Kecha va kunduz” romani haqida	359

34-MAVZU. XX ASR O‘ZBEK ADABIYOTI

NAMOYANDALARI	363
G‘afur G‘ulom	363
G‘afur G‘ulomning she‘rlari haqida	364
“Mening o‘g‘rigina bolam” hikoyasi haqida	365
“Shum bola” qissasi haqida	366
Oybek	369
“Qutlug‘ qon” romani haqida.....	371
“Navoiy” romani haqida	373
Abdulla Qahhor	376
Abdulla Qahhor hikoyalari haqida.....	378
“Sarob” romani haqida.....	380
<i>Nazariy ma’lumot.</i> Badiiy asar tili haqida	381

35-MAVZU. XX ASR O‘ZBEK ADABIYOTI

NAMOYANDALARI	382
Mirkarim Osim	382
“Zulmat ichra nur” qissasi haqida.....	383
Maqsud Shayxzoda	384
“Iskandar Zulqarnayn” ertak-dostoni haqida.....	386
“Toshkentnoma” dostoni haqida	387
“Jaloliddin Manguberdi” fojiasi haqida	387

“Mirzo Ulug‘bek” fojiasi haqida	388
Hamid Olimjon.....	390
Mirtemir.....	393

36-MAVZU. XX ASR O‘ZBEK ADABIYOTI

NAMOYANDALARI.....	397
Usmon Nosir	397
Zulfiya	401
Shuhrat.....	404
“Mardlik afsonasi” balladasi haqida	406
Turob To‘la	407
“Do‘nan” hikoyasi haqida.....	408
Said Ahmad	409
“Ufq” romani haqida.....	411
<i>Nazariy ma‘lumot.</i> Badiiy asarda kulgi haqida.....	412

37-MAVZU. XX ASR O‘ZBEK ADABIYOTI

NAMOYANDALARI.....	413
Asqad Muxtor.....	413
“Chinor” romani haqida.....	415
Mirmuhsin	417
Saida Zunnunova	419
“Surat bilan suhbat” dostoni haqida.....	420
Odil Yoqubov	421
“Ulug‘bek xazinasi” romani haqida.....	423
<i>Nazariy ma‘lumot.</i> Badiiy adabiyotda ruhiyat tahlili haqida	426

38-MAVZU. XX ASR O‘ZBEK ADABIYOTI

NAMOYANDALARI.....	427
Pirimqul Qodirov	427
“Yulduzli tunlar” romani haqida	429
“Avlodlar dovoni” romani haqida	431
Ozod Sharafiddinov	432
“O‘lsam, ayrilmasman quchoqlaringdan” maqolasi haqida.....	434
Ibroyim Yusupov	434
Xudoyberdi To‘xtaboyev	436
“Sariq devni minib” asari haqida	437
<i>Nazariy ma‘lumot.</i> Sarguzasht asar haqida	438
Xayriddin Saloh	438
O‘lmas Umarbekov	440
To‘ra Sulaymon	442

39-MAVZU. MUSTAQILLIK DAVRI O‘ZBEK ADABIYOTI	
HAQIDA	444
Mustaqillik davri she’riyati.....	445
Mustaqillik davri nasri	448
Mustaqillik davri dramaturgiyasi	450

40-MAVZU. MUSTAQILLIK DAVRI O‘ZBEK ADABIYOTI	
NAMOYANDALARI	452
Erkin Vohidov	452
“Ruhlar isyoni” dostoni haqida	455
Shukur Xolmirzayev	456
Abdulla Oripov	458
Abdulla Oripov she’rlari haqida	461
“Sohibqiron” dramasi haqida	463
O‘tkir Hoshimov	464
“Urushning so‘nggi qurboni” hikoyasi haqida	466
“Dunyoning ishlari” qissasi haqida.....	466

41-MAVZU. MUSTAQILLIK DAVRI O‘ZBEK ADABIYOTI	
NAMOYANDALARI	468
Rauf Parfi	468
Omon Matjon	470
Tohir Malik	472
Halima Xudoyberdiyeva	473
Tog‘ay Murod	474
“Yulduzlar mangu yonadi” qissasi haqida	476
Shavkat Rahmon	476
Sharof Boshbekov	478
Muhammad Yusuf	479
“Vatanim” she’ri haqida.....	480
“Yurtim, ado bo‘lmas armonlaring bor...” she’ri haqida.....	481
“Biz baxtli bo‘lamiz” she’ri haqida	481

IV BO‘LIM. JAHON ADABIYOTIDAN

42-MAVZU. JAHON ADABIYOTI NAMOYANDALARI	483
Ezop	483
Ezop masallari haqida	484
Rudakiy	485
Firdavsiy	486

Sa'diy Sheroziy.....	488
43-MAVZU. JAHON ADABIYOTI NAMOYANDALARI.....	491
Jaloliddin Rumi	491
Muhammad Fuzuliy	493
Uilyam Shekspir	494
“Otello” tragediyasi haqida.....	496
“Hamlet” tragediyasi haqida.....	497
Jonatan Svift	498
“Gulliverning sayohatlari” romani haqida.....	498
Maxtumquli	500
Haynrix Hayne	501
44-MAVZU. JAHON ADABIYOTI NAMOYANDALARI.....	503
Aleksandr Sergeyevich Pushkin	503
“Yevgeniy Onegin” she'riy romani to'g'risida.....	505
Hans Kristian Andersen	506
“Bulbul” ertagi haqida.....	507
Alfons Dode	507
“So'nggi saboq” hikoyasi haqida.....	508
Abay	509
“Nasihatlar” kitobi haqida.....	510
Ernest Seton-Tompson	511
“Yovvoyi yo'rg'a” hikoyasi haqida.....	512
A.P.Chexov	513
45-MAVZU. JAHON ADABIYOTI NAMOYANDALARI.....	515
Robindranath Thakur	515
“Nur va soylar” hikoyasi haqida.....	517
Jek London	518
Rashod Nuri Guntekin	519
Sergey Yesenin	520
Antuan de Sent-Ekzyuperi	523
“Kichkina shahzoda” asari haqida.....	524
Musa Jalil	525
46-MAVZU. JAHON ADABIYOTI NAMOYANDALARI.....	527
Janni Rodari	527
“Hurishni eplolmagan kuchukcha” ertagi haqida.....	528
Rasul Hamzatov	529
Nodar Dumbadze	530

“Hellados” hikoyasi haqida.....	531
Chingiz Aytmatov	532
“Oq kema” qissasi haqida	535
“Asrga tatigulik kun” romani haqida	536
O‘ljas Sulaymonov	537
ILOVALAR	539
1-ilova. Adiblar va ularning taxallusi.....	539
2-ilova. Adabiyotshunoslikka oid atama va tushunchalarning qisqacha izohli lug‘ati.....	544
3-ilova. O‘rta, o‘rta maxsus va kasb-hunar ta’limi muassasalarida o‘rganiladigan badiiy asarlar ro‘yxati.....	552
4-ilova. Mustaqil o‘qish uchun tavsiya etilgan badiiy asarlar ro‘yxati.....	558
Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.....	561

UO'K: 821.131.134-52

BBK: 83.3(5Y)

S32

Sariyev, Sharafjon

Adabiyot [Matn] metodik qo'llanma / Sharafjon Sariyev.

– T. «Ilm-ziyo-zakovat» nashriyoti, 2019. – 576 bet

UO'K: 821.131.134-52

BBK: 83.3(5Y)я729

ISBN 978-9943-6032-3-3

SH. SARIYEV

ADABIYOT
(Metodik qo'llanma)

Eng yangi nashr

Muharrir Shodmon Salom

Texnik muharrir Faxriddin Buriyev

Musahhib Mehri Azamova

«Ilm-ziyo-zakovat» nashriyoti

Nashriyot litsenziya raqami №AI 274. 15.07.2015 da berilgan.

100011, Toshkent shahri, A.Qodiriy ko'chasi, 78.

2019-yil 23-oktabrda bosishga ruxsat etildi. Bichimi 84x108 1/32.

«Times New Roman» garniturasida. Shartli bosma tabog'i 36,0.

Nashriyot hisob tabog'i 38,7. Adadi 1000 nusxa.

Bahosi shartnoma asosida.

Original maket «Ilm-ziyo-zakovat» nashriyotining kompyuter bo'limida tayyorlanib, «ADAD-PLYUS» MCHJ bosmaxonasida chop etildi.

51-sonli buyurtma.



"Registon" o'quv markazi o'qituvchilari tomonidan taklif etilayotgan qo'llanmalar:



Kitoblarga buyurtma qilish: (93) 008 27 00; (97) 748 27 00

Barcha abituriyentlarni respublikamizning eng kuchli o'quv markaziga o'qishga taklif etamiz!



 Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Shota Rustaveli ko'chasi, 53-uy

ISBN 978-9943-6032-3-3

 www.rgn.uz

 Tel: (93) **584 27 00** (90) **952 27 00**

